

ISO JABBOROV

JAHON ETNOLOGIYASI ASOSLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ISO JABBOROV

JAHON ETNOLOGIYASI ASOSLARI

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2005

Milliy mafkuraning shakllanishi o'zbek xalqining, ayniqsa, yoshlar ongi, bilim darajasining o'sishi bilan bevosita bog'liq. Ularning jahon xalqlari etnik qiyofasini tasavvur qilishi, ayrim millat va elatlarning etnogenezi, etnik tarixi, moddiy-ma'naviy hayotini, milliy his-tuyg'ulari, tabiatini bilishi juda muhim zaruriyat desa bo'ladi. Ushbu kitobda jahon xalqlarining kelib chiqishi, etnik jarayoni, shakllanishi, joylashuvi, madaniy-maishiy turmushi, moddiy-ma'naviy madaniyati, urf-odat va bayramlari, diniy tasavvurlari xususida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Mazkur kitob 1985-yilda «O'qituvchi» nashriyotida chop etilgan «Jahon xalqlari etnografiyasi» darsligining tubdan qayta ishlangan va yangi manbalar bilan to'ldirilgan nashri bo'lib, unda hozirgi murakkab etnik va etnomadaniy jarayonlar, xalqlarning hozirgi hayotida bo'layotgan ayrim o'zgarishlar aks etgan.

Ushbu kitob etnologiya va uning tarixini o'rganayotgan olimlar, talabalar va ushbu sohaga qiziqqan keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Sobir Kamolov, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, O'zbekistonda va Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Abdulahad Muhammadjonov, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, tarix fanlari doktori, professor

Rustam Sulaymonov, tarix fanlari doktori

Alisher Doniyorov, tarix fanlari doktori

ISBN 5-633-01800-1

© Iso Jabborov. «Jahon etnologiyasi asoslari».

«Yangi asr avlodi», 2005-yil

MUQADDIMA

XX asr yer sharining oltidan bir qismida hukmronlik qilgan sho'rolar imperiyasining intihosi bilan yakunlandi. Jahon xaritasida etnik tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati bilan boshqa xalqlardan qolishmaydigan, o'zining yangi tarixini yozishga kirishgan mustaqil respublikalar paydo bo'ldi. Bu respublikalar ichida esa kelib chiqishi, madaniy qadimiyligi, ajdodlarning yaratuvchilik salohiyati bilan jahon sivilizatsiyasi tarixidan munosib o'rin egallagan O'zbekistongina eng zamonaviy, bosqichma-bosqich rivojlanib boradigan, amaliy, faol ta'lim dasturini yarata oldi. Tabiiyki, dasturni tatbiq etish jarayoni eng avvalo yoshlarning ongini, bilim darajasini ko'tarish, ularni yetuk mutaxassislar qilib tayyorlashda birlamchi vosita hisoblangan yuqori saviyali, rivojlangan mamlakatlar o'quv tizimida qo'llaniladigan darsliklar darajasida bo'lgan yangi darslik kitoblarni yaratishni taqozo etdi.

Aynan ana shu nuqtayi nazardan, qolaversa hozirgi zamon voqe-ligida «etnologiya» fanining ahamiyati tobora ortib borayotganligi, davlatlar va xalqaro munosabatlar, globallashuv jarayonlari, xalqlar etnik tarixini o'rganish ma'naviy va moddiy ehtiyojga aylanib borayotganligi «Jahon etnologiyasi asoslari» darsligini yangi manbalar hamda zamonaviy ilmiy talqinlar bilan boyitib qayta nashr etish uchun asos bo'ldi.

Ma'lumki, ko'p fanlarning nomlari qadimiy lotin so'zlari bilan atalgan. Jumladan, «Etnografiya» atamasi yunoncha so'z bo'lib, «et-nos» – xalq, elat, «grafo» – ta'rif ma'nosini bildiradi va «xalq (elat)ni ta'riflash» deganidir. «Etnologiya» esa xalq (elat), to'g'risida so'z yoki fikr (logos) ma'nosini anglatgan. Shu bois ayrim olimlar etnografiya fanini ta'riflovchi yoki tavsiflovchi ilm sohasi, etnologiyani esa go'yo nazariy metodologik xarakterga ega, degan fikrni bildirmoqdalar. To'g'ri, kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrlardan, ayniqsa, yozuv kashf etilgandan buyon u yoki bu elatlar to'g'risidagi ma'lumotlar ko'proq tavsifiy holda to'planib bizgacha yetib kelgan. XIX asr o'rtalaridan boshlab etnografiya mustaqil fan sohasi bo'lib tanilgan va u metodologik jihatdan nazariy

muammolarni yecha boshlagan va etnoslarni har tomonlama o'rganishga kirishgan. Shuning uchun ham etnografiya va etnologiya atamalarini qarama-qarshi qo'ymasdan, ularni umumiy «elshunoslik» yoki «xalqshunoslik» fani deb o'zbek tiliga tarjima qilish mumkin.

Ushbu asar dastlab «Jahon xalqlari etnografiyasi» nomi ostida 1985-yili chop etilgan edi. Qayta ishlangan yangi darslik ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi etnologiya fanining mohiyati va xususiyati, qisqacha tarixi, asosiy maktab va yo'nalishlari, jahon xalqlari klassifikatsiyasi, hamda etnogenez muammolari, etnologiya fani atamalari, tadqiqot uslubi va o'ziga xos xususiyatlari kabi nazariy masalalarga bag'ishlangan. Ikkinchi qismida jahon xalqlarining tavsifi va ta'rifi, fanning eng so'nggi yutuqlari va statistik ma'lumotlar berilgan. Mazkur kitobga ko'p yillar davomida muallifning Mirzo Ulug'bek nomli O'zbekiston Milliy universitetining tarix kulliyotida o'qigan ma'ruzalari asos qilib olingan.

I BOB

ETNOLOGIYA FANI ASOSLARI, MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

§-1. ETNOLOGIYANING SHAKLLANISHI VA PREDMETI

Hozirgi murakkab ziddiyatlarga to'la bizning zamonamiz har xil dramatik hodisalarga boy bo'lib barcha elat va xalqlarning turmush tarzi, madaniyati va ma'naviyatiga ulkan ta'sir o'tkazmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ayrim etnoslar hayotiga, ularning o'zaro munosabatlari va aloqalariga ham jiddiy o'zgarishlar kiritmoqda.

Jahon aholisi XXI asrga kehib olti milliardga ko'paydi. So'nggi bir asr davomida yer kurrasidagi xalqlar son jihatdan ko'payibgina qolmay, ularning etnik tuzilishi, turmush tarzi va ma'naviy dunyosi ham tubdan o'zgarishga yuz tutdi. Ona tabiat naqadar rang-barang va xilma-xil bo'lsa, yer yuzida yashovchi aholining etnik qiyofasi ham shu qadar rang-barang, turli-tumandir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan asr oxirlarida jahonda ikki mingdan ortiq xalqlar va elatlar yashagan. Ba'zi manbalarda esa yer yuzida yashovchi kattakichik etnoslarning soni uch-to'rt mingga yaqin, deb ko'rsatiladi. Shularning 260 tasi bir milliondan ortiq kishiga ega xalqlardan iborat bo'lib, jahon aholisining 96 foizini, dunyoda eng kam sonli aholiga ega bir yarim mingga yaqin elatlar esa bir foizini tashkil qiladi. Tili jihatidan bir-biridan ajralib turadigan etnik birliklarning soni uch mingdan ortiq.

XX asr iqtisodiy-ijtimoiy buhronlar, ekologik, etnik muammolar asri bo'ldi. Bu muammolar o'z-o'zidan XXI asrga ham ko'chib o'tdi. Shunday ekan bunday vaziyatda yoshlarning ongi va bilimini, jamiyatni boshqarishga aloqasi bor barcha shaxslarning tasavvurlarini etnologik ma'lumotlar bilan boyitish zaruriyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Alalxusus, ushbu darslikda etnologiya fani tushunchasi, uning mohiyati va qisqacha tarixi, asosiy maktablari va yo'nalishlari, etnogenez va antropogenez, o'ziga xos uslub va atamalar kabi nazariy masalalar ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga mazkur fanning hozirgi kundagi eng muhim etnoslararo munosabatlar, umuminsoniy va

umumetnik jarayonlar, etnik guruhlar va irqning o'zaro aloqalari, etnik ong stereotipi va etnik psixologiya kabi ustuvor masalalarga ham alohida e'tibor berilgan.

Etnolog olimlarning juda ko'p ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, insoniyat tarixining ibtidoiy davrlardan hozirgi kunlarga bosib o'tilgan barcha pog'onalarida kishilar o'zligini anglashga, an'anaviy turmush tarzi, urf-odat va ma'naviyatini tushunib olishga, ayniqsa, qo'shni elatlarning etnik xususiyatlari va hayotini bilishga doimo ehtiyoj sezib kelganlar. Bunday ehtiyoj tufayli ming yillar davomida to'plangan turli elatlar to'g'risidagi boy ma'lumotlar davlatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishga, tinchlik sari yo'nalishga yordam berib kelmoqda. Hatto qadim zamonlarda ayrim mualliflar juda ko'p empirik xarakterdagi ma'lumotlarni muayyan tizimga solishga, xalqlarni xo'jalik va madaniy jihatdan klassifikatsiyalashga intilganlar. Ammo bunday o'y-fikrlar ilmiy asoslanmagan, mavhum xarakterda bo'lgan.

Jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan notekis rivojlanishi natijasida ayrim xalq va elatlarning hanuzgacha qoloq ibtidoiy tuzumda, ba'zilar esa o'rta asrlar davri madaniyati darajasida qolganligi ma'lum. Bunday elat va etnik guruhlar Avstraliya, Afrika, Markaziy Amerika va Osiyoning ba'zi yerlarida hozirgacha saqlanib qolgan. Ular juda kam bo'lsalar-da, ammo ibtidoiy urug'-qabilachilik tuzum qonun-qoidalari, urf-odat va marosimlari, patriarxal turmush tarzi an'analariga haligacha amal qilib kelmoqdalar.

Asli ko'pchilik xalq va elatlar etnos sifatida quldorlik jamiyati davrlaridan tili yaqin bo'lgan bir necha urug'-qabilalarning birikishi, o'zaro urushlar va ko'chishlar (migratsiya) tufayli aralashib ketishi natijasida shakllana boshlagan. Odatda etnoslar iqtisodiy, maishiy va madaniy jihatdan eng kuchli va rivojlangan ko'p sonli elatlar doirasida muayyan ma'muriy, hududiy va til umumiyligi zaminida paydo bo'lishgan. Ular ko'pincha tiliga qarab ayrim xalq nomi bilan tanilgan.

Aytish joizki, hozirgi siyosiy va ilmiy atamalarning ko'pi ikki-ikki yarim ming yillar muqaddam Yunonistonda paydo bo'lgan. Jumladan, hozir ko'p ishlatiladigan «demokratiya» yoki «demografiya» so'zlari qadimgi grek (yunon) tilidan olingan bo'lib, uning negizini «demos», ya'ni tub ma'noda «xalq» degan so'z tashkil etadi. Shu ma'noda, ilk jamiyat asosini tashkil qiluvchi xalq

tushunchasini ifodalovchi yana bir atama – «etnos» ham ishlatilgan. Masalan, «demografiya» fani jahon yoki ayrim mamlakat aholisining soni, joylashuvi, tugʻilishi va oʻlimi, ijtimoiy-jinsiy va yosh tuzilishini, tabiiy oʻsish va koʻchish (migratsiya) jarayonini oʻrganadi. Lekin, jahondagi xalq va elatlar oʻz tili, kelib chiqishi va joylashuvi, moddiy va maʼnaviy madaniyati, anʼanaviy xoʻjaligi, maishiy turmushi va xarakteri, milliy psixologiyasi va urf-odatlar bilan ham bir-biridan ajralib turadilar. Xalqlarning oʻzaro tafovuti, umumiyligi yoki oʻxshashligini, ularning oʻziga xosligi va xususiyatlarini jiddiy oʻrganuvchi maxsus fan sohasi «etnografiya» va «etnologiya» nomi bilan XIX asr oʻrtalarida isteʼmolga kirdi.

«Etnologiya» atamasi, yuqorida qayd qilinganidek, qadimgi yunoncha «etnos» (xalq, elat) va «logos» (soʻz, maʼno) soʻzlaridan tashkil topgan. Uning asl maʼnosi «xalqshunoslik» deb tarjima qilinadi. Qadimgi davrlarda greklar «etnos» soʻzini boshqa gʻayri xalq (elatlar)ga nisbatan ishlatganlar. Ayrim mamlakatlarda hozirgacha etnologiya atamasi bilan birga etnografiya, madaniy yoki sotsial antropologiya, xalqshunoslik nomlari ishlatiladi. Baʼzi yevropalik olimlar etnologiyani nazariy fan, etnografiyani esa taʼriflovchi fan sohasi deb aytadilar. Aslida ikkala atama ham mazmunan sinonim, yaʼni bir maʼnoni anglatuvchi tarix fani sohasi desa boʻladi. Hatto qadimgi yunon mualliflari dastlabki etnografik maʼlumotlarni xalqlarni taʼriflash bilan cheklab qoʻymasdan, balki ularni muayyan guruhlariga boʻlib, yaʼni ilk bora tasniflashga intilib nazariy fikrlarni bayon qilganlar.

XIX asrlargacha «etnologiya» atamasi fanda baʼzan ayrim etnografik jarayonlarni tasvirlashda ishlatilib kelingan. Mazkur atamani xalqlarni va madaniyatlarni oʻrganishdagi yangi fan sohasi sifatida birinchi marta fransuz olimi Jan Jak Amper ishlatgan. U 1830-yilda «antropologik», yaʼni gumanitar fanlar umumiy klassifikatsiyasini ishlab chiqqan va shu tizimga «etnologiya» soʻzini kiritgan. Bu atama qisqa muddatda keng tarqalib mustaqil fan sifatida tanilgan.

Rasmiy ravishda etnologiya mustaqil fan sifatida 1839-yili Parij etnologiya jamiyatiga asos solingan davrdan boshlab tan olingan. Albatta, bunday holat yengil, murossasiz oʻtmagan, yangi fanning predmeti, maqsad va fan olamida tutgan oʻrni tevaragida jiddiy ilmiy-nazariy kurashlar boʻlib, ayrim yoʻnalish va maktablarni yuzaga keltirgan. Bunday munozara va tortishuvlar hozirgacha davom etib

kelmoqda, ayniqsa, mazkur fan atamasi, uning mohiyati va predmeti doirasida turli tushunchalar va mulohazalar mavjud bo'lib, etnologiya atamasini turlicha talqin qilish va izohlash keng ko'lamda shu kungacha saqlangan.

So'nggi vaqtda taniqli tadqiqotchilar etnologiyani tarixiy fan ekanligini ta'kidlab, uni jahondagi barcha elat va xalqlarni, qoloq yoki rivojlangan bo'lishidan qat'i nazar, teng, baravar o'rganuvchi fan sohasi deb tan oldilar. XIX asr o'rtalarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida etnologiya fanining tez sur'atlar bilan o'sishi mustamlakachilik siyosatining keng miqyosda o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lgan. Mustamlakachi davlatlar Afroosiyo o'lkalarida o'ziga qaram qilib olgan o'lkalarni boshqarish maqsadida har tomonlama xilma-xil etnografik ma'lumotlarga muhtoj edilar. Shuning uchun ham bunday ma'lumotlarni faqat etnologiya yetkazib berishi mumkin edi.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, bu fan sohasi hozirgacha yagona ta'rifga ega emas. Yaqin davrlargacha adabiyotlarda ikki turdagi ta'rif mavjud edi. Barcha ensiklopedik lug'atlarda chop etilgan ta'rif asosan, mashhur rus olimi S.P. Tolstovning so'zlarini qaytalagan. Uning yozishicha, «Etnografiya turli jahon xalqlarining madaniy va maishiy hayoti xususiyatlarini asosan, bevosita kuzatish yo'li bilan o'rganadigan, mazkur xususiyatlarning tarixiy o'zgarishi va rivoji, xalqlarning kelib chiqishi (etnogenez), joylashuvi (etnik geografik) va madaniy-tarixiy o'zaro munosabatlari muammolarini tadqiq qiluvchi tarixiy fan»dir. M.G.Levin, S.A. Tokarev, Yu.V. Bromley va G.E. Markov kabi mashhur etnolog olimlarning ikkinchi turdagi etnografiya (etnologiya) ta'riflari bir oz qisqa va ixcham bo'lsa-da, ammo mazmunan S.P. Tolstov ta'rifini takrorlaydi.

Har bir fanning o'ziga xosligi uning tadqiqiy predmeti va uslubi bilan belgilanadi. Etnologiya fani shakllana boshlagan davrdan hozirgacha mufassal saqlanib kelayotgan mavzu etnik madaniyatlarining o'zaro munosabatlarining genezisi muammolari bilan bog'liq bo'lgan. Ammo etnologiya predmeti doimo kengayib, o'zgarib davr talabiga javob beradigan masalalarni o'rganishga qaratilgan. Oqibatda hozirgacha etnologiya fanitevaragida, har xil mulohazalar saqlanib, umumiy, barchaga ma'qul ta'rif topilgani yo'q. Shunday bo'lsa-da ham mavjud yo'nalishlar va konsepsiyalar ko'pligiga qaramay mazkur fan sohasi hozirgi kunda eng dolzarb va muhim muammolarni tadqiq qiluvchi fan hisoblanadi.

Ushbu fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda shuni alohida qayd qilish zarurki, XX asr davomida etnologiya fani doirasida nihoyatda boy empirik va nazariy materiallar to'planib, har xil tarixiy xulosalar va mulohazalarni yuzaga keltirgan. Agar XIX asrning birinchi yarmida etnologik tadqiqotlar asosan, akademik xarakterga ega bo'lib, o'tmishdagi madaniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashdan iborat ekanligini qayd qilsak, XX asrning ikkinchi yarmida etnologik bilimlar to'plash tubdan o'zgarib ko'proq pragmatik ahamiyatga ega bo'la boshladi. Hozirgi kunda etnologiya fanining yutuqlari ijtimoiy hayotning turli sohalarida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda, ommaviy muloqotlar, xalqaro savdo va diplomatik munosabatlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda. Demak, barcha mavjud mulohaza va o'y-fikrlarni, konsepsiya va yo'nalishlarni umumiyLashtirib quyidagi ta'rifni berish maqsadga muvofiq: «Etnologiya – har xil elat va xalqlarning kelib chiqishi, etnik tuzilishi va shakllanishi, o'ziga xos moddiy va ma'naviy xususiyatlari, turmush tarzi, etnik tabiati, xarakteri va his-tuyg'ularini o'rganadigan fan sohasidir».

Etnologiya fanining umumilmiy ahamiyatini kamsitmay, uni umumtarix fani tarkibida mustaqil metodologik (dunyoqarash) xususiyatiga ega ekanligini alohida qayd qilish lozim. Etnologiya ayrim xalq va elatlarni o'rganishda etnik tarixning barcha tomonlari ijtimoiy jarayon bilan bog'liq bo'lganligi tufayli keng ma'noda madaniyat sohasida milliy-madaniy xususiyatlarni tarixiy arxeologik, iqtisodiy-geografik tadqiqotlar o'tkazishda eng zarur materiallarni yetkazib berishi mumkin. Bunday holat fanning boshqa soha vakillari etnologik tadqiqotlar natijalaridan foydalanib uni qo'shimcha (yordamchi) soha sifatida munosabat bildirishlarida kuzatiladi. So'nggi yillarda paydo bo'lgan etnosotsiologiya, etnopsixologiya, etnogeografiya kabi egizak fan tarmoqlarining paydo bo'lishi bejiz emas.

Bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida jiddiy tus olayotgan millatlararo etnik jarayonlarning qonuniyatlarini ochib berish, maishiy-madaniy integratsiya va assimilyatsiya tarixini obyektiv yoritish, milliy chegaralanish va an'anaviy joylashuv muammolarini haqqoniy hal qilishdek etnologiya fani yutuqlari nihoyatda dolzarb ekanligi isbotlanmoqda.

Demak, etnologiya zamonaviy fan sohasi sifatida umumilmiy va sotsial ahamiyatga ega ekanligini qayd qilib, uni 1) insoniyat tarixi

va ayrim xalqlarning etnik muammolarini metodologik jihatdan mustaqil hal qilishga qobil dunyoqarash; 2) inson va jamiyatni o'rganuvchi boshqa ijtimoiy fanlarga qo'shimcha materiallar beruvchi ilmiy soha; 3) davlatlar va hukumat arboblari siyosiy jihatdan dolzarb milliy muammolarni to'g'ri hal qilishda, irqchilik, millatchilik va shovinizm kabi illatlarga qarshi kurashda muhim asos bo'lib xizmat qiladigan fan hisoblanadi.

Ma'lumki, tarixiylik va tarixiy-qiyoslash ilmiy dunyoqarashning butun metodologik negizini tashkil qiladi. Tarixiy yondashish har bir predmetni, shu jumladan, ayrim fanni ham to'g'ri tushunishning birdan-bir haqqoniy usuli sanaladi. Shu bois etnologiya fanining mohiyati va jamiyatda tutgan o'rnini belgilash uchun uning tarixiga bir nazar tashlash zarur.

§-2. ETNOLOGIYA FANINING QISQACHA TARIXI VA ETNOS NAZARIYASI

Har bir fan dastlab fakt va raqamlarni to'playdi, keyin ularning mohiyatini tushunib olib, nazariy xulosalar chiqaradi. Etnografik bilimlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning paydo bo'lishi, zarur ma'lumotlar to'planishi, faktlar anglab olinishi bir vaqtda sodir bo'ladi. Masalan, ayrim qo'shni qabila, xalq va elatlarning maishiy turmushi, madaniyati, urf-odatlar, etnik xususiyatlarini o'rganish, ularni aniq tushunish amaliy ehtiyojlarni qondirish taqozosi bilan vujudga kelgan. Eng qadimgi sharq mamlakatlarida uzoq-yaqin qo'shnilar bilan samarali savdo-sotiq munosabatlarni o'rnatish, shuningdek, ularga qarshi muvaffaqiyatli urushlar olib borish uchun ham, birinchi navbatda etnologik bilimlarga ega bo'lish zarur edi. Sharq mustabidlari, ayniqsa, Qadimgi Bobil, Ossuriya va Eron hukmdorlari o'zlarini ulug'lash maqsadida toshga bittirgan zafarnomalarida bosib olingan va bo'ysundirilgan turli elat va xalqlar tilga olinadi. Qadimgi Gretsiya va Rim mualliflarining asarlarida qo'shni qabilalar va elatlarning etnik tuzilishi, turmushi va madaniyati to'g'risida umumiy ma'lumotlar bilan bir qatorda ba'zi nazariy tushunchalar va fikrlar ham keltiriladi.

Odatda etnologiya (etnografiya) mustaqil fan sifatida XIX asr o'rtalarida tashkil topgan, deb hisoblaydilar. Mazkur atama o'sha davrdan boshlab ancha muntazam ravishda ishlatila boshlandi, dastlabki etnografik ilmiy jamiyatlar, maxsus asarlar va to'plamlar paydo bo'ldi. Yangi fanning tashkil topishida, shubhasiz, o'sha davrda

tabiiy fanlarning gurkirab o'sishi, ayniqsa, fanda evolyutsiya g'oyaning g'alabasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu g'oya tufayli tartibsiz bilimlar, barcha xom, tarqoq ma'lumotlar muayyan tartibga solindi va insoniyat tarixining ibtidoiy davrdan to yuksak madaniy darajaga ko'tarilishini pog'onama-pog'ona aniqlab olish imkoniyati tug'ildi.

Albatta, «Odam to'g'risidagi fan»ning tez sur'atlar bilan rivojlanishi va etnologiya fanining mustaqil ilm sohasi bo'lib qolishi negizida asrlar davomida to'planib kelgan etnologik bilimlar, jahon xalqlari to'g'risidagi turli ma'lumotlar, har xil tushuncha va nazariyalar yotadi. Bularning tarixini qisman bo'lsa ham bilib olishning o'zi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozuv kashf etilgan dastlabki davrdan boshlab o'qishni hamda uzoq xalq va elatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qadimgi Misr, Mesopatamiya va Eronda yaxshi bilganlar, qo'shni elatlar to'g'risida faqat yozma manbalardagina emas, balki xalq og'zaki ijodida ham to'qilgan turli rivoyatlar, hikoyalar va afsonalardan bilib olganlar. Mil. avv. XX asrlarda Misrda yaratilgan «Sinuxeta sarguzashtlari», keyinroq tosh va qabrlarga bitilgan zafarnomalar, Tell-Amarneda topilgan arxiv hujjatlari, qadimgi Shumer va Ossuriya obidalaridagi yozuvlar, eron-ahmoniy podsholari bittirgan jangovar solnomalar tevarak-atrofdagi mamlakatlar aholisi to'g'risida nodir ma'lumotlarni bizgacha yetkazganlar.

Yahudiy va nasroniylarning qadimiy muqaddas kitoblaridan Tavrot (Bibliya)da tilga olingan turli elat va qabilalarning nomlari Yaqin Sharqda yashovchi xalqlarning genealogiyasi bilan bog'liq ekanligini qadimgi zamon mualliflari ham alohida qayd qilgan edi. Ma'lumki, Tavrot mil avv. XIII-V asrlar oralig'ida turli janrdagi har xil adabiy asarlar yig'indisidan tashkil topgan va taxminan V asrlarda to'plam shaklida yozilgan diniy qoidalar kitobidir. Ayniqsa, uning «Podsholar kitobi» va «Payg'ambarlar» nomli tarixiy qismlarida, yahudiylar olib borgan urushlar to'g'risidagi rivoyatlarda juda boy etnologik ma'lumotlar jamlangan. Hatto Nuh payg'ambarning uch o'g'li – Sim, Xom, Iafetdan tarqagan avlodlarning nomlari «Jahon xalqlari shajarasi»ni tashkil qiladi, degan «nazariya» asosida dunyodagi tillarning klassifikatsiyasi tuzilgan. Tavrotda tilga olingan ma'lumotlar xalqlar shajarasi bo'lmay, balki qadimgi ko'chmanchi xalqlarning o'troq holatga o'tish davridagi turmush tarzi va madaniy hayotining turli shakllarini ifodalovchi rivoyatlar-

dan biri, deyish mumkin. Shunisi muhimki, Nuh avlodlarining nomlari ko'pincha qadimgi badaviy va qo'shni ko'chmanchi qabilalar nomlariga o'xshaydi. Chunki yahudiylar dastlab ko'chma badaviylarning ayrim qabilasi sifatida paydo bo'lgan.

Demak, Tavrotda insoniyat genealogiyasi birinchi marta tartiblangan. Undagi ma'lumotlarga ko'ra, insoniyatning yagona oiladan kelib chiqishi, qarindosh-genealogik munosabatlari bilan bevosita bog'liq ekanligini tasdiqlovchi rivoyatlar monogenetik nazariyani yuzaga keltirgan. Ammo insoniyat urug'ining birligi to'g'risidagi mazkur g'oya diniy tusda berilgan bo'lib, olamni va barcha kishilarni o'zaro bog'liq muayyan sharoitda, muayyan hududda birga yaratgan yakka-yagona xudodir, degan afsonaga tayanadi. Tavrotning 2-bobidagi keyingi afsonaviy rivoyat bir oiladan chiqqan xalqlarning har xil tilda so'zlashishini izohlashga intiladi.

Afsonada dunyoda dastlab yagona til, yagona sheva bo'lgan, deb hikoya qilinadi. Sharqdan kelgan kishilar Bobil yurtidagi Sennaar tekisligida joylashganlar, ular loydan yasalgan g'ishtni pishirib, shahar qurganlar, samoga yetadigan minora tiklay boshlaganlar. Osmondan yerga tushib, shaharni tomosha qilgan xudo yagona tilda birlashgan xalq nimalar qilishga qodir ekanligini ko'rib, bu kishilar samoga – xudo dargohiga ham chiqishi mumkin deb, ularning beadabligidan darg'azab bo'lgan. Xudoning farmoyishi bilan barcha xalqlar, elatlar va tillar aralashtirilib, butun dunyoga sochib yubortirilgan.

Etnologik xarakterga ega bo'lgan bu afsona keyinchalik nasroniy va islom mafkurasiga o'tibgina qolmay, so'nggi davrlargacha butun Yevropa tarixshunoslik faniga ham ta'sir qilib kelgan. Tavrotidagi xalqlar genealogiyasi turli nazariyalar, mulohaza va tortishuvlarga sabab bo'lgan. Adabiyotda «Bobil aralash-quralashuvi» nomi bilan ma'lum bo'lgan bu afsona mantiqiy jihatdan Tavrot «monogenetik» nazariyasining uzviy davomi bo'lib, tarixda eng birinchi ommaviy etnologik konsepsiya hisoblanadi.

Qadimgi davrga kelib, etnografik bilimlar kengayib va ko'payibgina qolmay, madaniyatning o'sishi bilan umumiy va nazariy xulosalar ham yuzaga keladi. Qadimgi Gretsiya dostonlari «Iliada» va «Odiseya»da yaqin qo'shni elatlar to'g'risida afsonaviy ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa, keyingi asrlar davomida amalga oshgan greklarning «buyuk kolonizatsiya»si (mil.avv. VII-V asrlar)dan so'ng tevarak-atrofdagi xalqlar to'g'risidagi bilimlar doirasi

juda kengayadi va boyiydi. Xususan, ana shu davrga mansub Gerodotning noyob etnologik ma'lumotlar bilan to'la mashhur 9 jildidan iborat bo'lgan tarix kitoblari tadqiqiy xarakterga ega.

Buyuk Iskandarning Sharqqa qilgan yurishlari natijasida vujudga kelgan katta imperiya g'arbdan sharqqacha keng hududda yashagan xalqlarning turmush madaniyatini bilishdagi yangi bosqich bo'ldi. Bu davrda greklarning umumiy madaniy saviyasida ham shiddatli o'zgarishlar sodir bo'lib, fanning barcha sohalari gurkirab o'sdi. Ellinizm davrida grek madaniyati Sharqda Hindiston va Markaziy Osiyogacha, g'arbda Pireney yarim oroli va Britaniya orollarigacha tarqalib, mahalliy xalqlarning madaniyati bilan aralashib ketganligi bois, ular to'g'risida yangi ma'lumotlar to'plandi va ko'plab asarlar yozilgan. Ayrim xalqlarning geografik joylashuvi, mashg'uloti, siyosiy tuzumi, sud va qurol-aslahasi, harbiy, nikoh va oilaviy urf-odatlar kabi muhim ma'lumotlar milodning I asrlarida yashagan Strabonning «Geografiya» nomli ensiklopedik asarida tanqidiy tarzda keltirilgan.

Afinalik mashhur tarixchi Fukidid asarlarida, Sokratning atoqli shogirdi Ksenofantning «Anabasis»ida Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo, Qora dengiz bo'ylari va Frakiyada yashagan xalq va elatlar to'g'risida juda ko'p etnografik ma'lumotlar aks etgan. «Iskandarning yurishlari» nomli asarini yaratgan Arrian ham makedoniyalik jahongir bosib olgan xalqlar to'g'risida batafsil axborot yozib qoldirgan.

Qadimgi davrning buyuk mutafakkirlari – Aflotun va Arastu asarlarida afsonaviy Atlantida aholisi, qo'shni xalqlarning urf-odatlar, elatlar ruhiyati, rasm-udumlari va davlat tuzumiga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar, nazariy mulohazalar uchraydi. Qadimgi Elladaning ajoyib faylasufi materialist Demokrit asarlarida jahon adabiyotida birinchi marta insoniyat urug'ining yarim hayvoniy, vahshiy holatdan o'z mehnati va idroki tufayli madaniy hayot tarziga o'tish jarayoni tasvirlangan. Tibbiyot fanining otasi, mashhur olim va shifokor Gipokrat etnologik dalillarga tayanib xalqlarning urf-odatlar, milliy ruhiyati, xarakteri va tafovuti tabiiy-geografik sharoit bilan bog'liqligi to'g'risidagi dastlabki ilmiy mulohazalarni ilgari surgan.

Jahon sivilizatsiyasida beqiyos o'rin tutgan qadimgi Rim mutafakkirlarining asarlarida ham muhim etnologik ma'lumotlar, qimmatbaho mulohazalar, nazariy fikrlar mavjud. Ayniqsa, Korneliy Tatsit, Lukresiy Karlar qadimgi germanlar va keltlar, sarmatlar va

skiflarning turmush tarzi, siyosiy va harbiy tuzumi, ijtimoiy va oilaviy hayoti, mashg'uloti, uylari, kiyimlari, axloqi va tarbiyasi, taomi va o'yinlari to'g'risida ajoyib ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Tatsit chirib borayotgan Rim davlatining axloqiy inqiroziga «yovvoyi odam» (germanlar)ning qo'pol va qashshoq, ammo sog'lom va pok turmush tarzini qarama-qarshi qo'yadi. Muarrir shoir Lukresiy Kar «Buyumlar tabiati to'g'risida» nomli asarida hayotning rivojlaniishi, odamning paydo bo'lishi va uning madaniy o'sishi to'g'risida umumiy fikrlar yuritadi.

Shunday qilib, qadim zamonda yuqori madaniy saviyaga erishgan yevropaliklar boy etnologik bilimga ega bo'lganlar. Ular O'rta yer dengizi atrofida joylashgan xalqlar, Shimoliy Afrika va Old Osiyo, qisman uzoqroq joylardagi etnoslar to'g'risida aniq ma'lumotlar to'plashgan, bu xalqlarning maishiy turmushi, madaniy xususiyatlarini haqqoniy tasavvur qila bilganlar. Mazkur ma'lumotlardan ayrim olim va mutafakkirlar umumiy xulosalar chiqarib, ba'zi qonuniyat va o'xshashliklarni kashf qilganlar. Ayrim faylasuf olimlar xalqlarning kelib chiqish tafovuti, o'xshashligini ko'rsatibgina qolmay, ularning sababini izohlashga ham intilganlar.

Qadimiy madaniyatning yemirilishi, madaniy darajali quyi qabilalarning hujumlari, xo'jalik va madaniy hayotning inqirozi milodning V-VI asrlarida geografik va etnografik bilimlar doirasi qisqarib ketishiga sabab bo'ldi. Ilk feodalizm davrida Yevropada paydo bo'lgan siyosiy tarqoqlik hatto hukmron tabaqalar orasida ham bilimga qiziqishni, ilmga intilishni birmuncha so'ndirib yubordi. Bilimdonlik dunyoviy ilmlarga qarshi turgan ruhoniylar orasida saqlanib qolgan edi. Oqibatda o'rta asrlarning deyarli butun birinchi yarmi etnografik bilimlarning inqirozga uchragan davri bo'ldi. Bu inqirozga nasroniy dini ham «o'z hissasini» qo'shdi. Nasroniy mafkurasi dunyoviy voqelikdan voz kechishni targ'ib qilibgina qolmay, ajdodlar yaratgan antik dunyo fani, adabiyoti va san'ati namunalari, ibodatxona va obidalarni «majusiy» deb atab, vayron qildi, yo'qotib yubordi.

Faqatgina sharq mamlakatlarida, Vizantiya mualliflari, arab xalifaligi tarkibidagi o'lkalarda yashagan mutafakkirlar va sayyohlar yaratgan asarlarda ba'zi ma'lumotlar saqlanib qolgan xolos. Prokopiy Kesariyskiy, Gotlik Iordan, Anna Komina kabi mashhur tarixchilarning risolalarida, Titmar, Adam Bremenskiy, Gelmold

kabi nemis cherkov yozuvchilarining solnomalarida qo'shni qabilalar to'g'risida etnologik lavhalar uchraydi.

IX–XII asrlarda arab tilida ijod qilgan sharq mualliflaridan ibn Xurdodbek, Al-Balxiy, Al-Istahriy, ibn Havqal, Mas'udiy, Yoqut singari yirik geograf va sayyohatchilar, ajoyib faylasuf va musiqashunos Abu Nasr Forobiy, mashhur ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniy (ayniqsa, uning «Hindiston» asari) va buyuk tabib ibn Sino, atoqli etnolog, geograf va tarixchi Abu Sa'd Abdukarim, ibn Muhammad Sa'moniy asarlarida hamda noma'lum muallif yaratgan «Hudud ul-olam» nomli risolada Sharq mamlakatlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda yashagan aholi to'g'risida noyob etnologik ma'lumotlar aks etgan.

Shuningdek, XI asrda yashab ijod etgan ulug' tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» («Turkiy so'zlar devoni») asarida har bir shahar va qishloq aholisining turmushi, etnik tarkibi va til xususiyatlari maxsus o'rganilgan, juda ko'p turkiy qabilalarning ijtimoiy tuzumi, kelib chiqishi va o'rtnashishi, hatto har bir qabilaga oid geografik mavqelari belgilanib, o'z davriga mos ilmiy xarita tuzilgan.

Ma'lumki, Chingizxon hukmronligi davrida mo'g'ullar imperiyasi misli ko'rilmagan darajada kengayib, Xitoy, Sharqiy va G'arbiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Eron yassi tog'ligi, Mesopatamiya, Kavkazorti va Sharqiy Yevropani o'ziga qaram qilib oladi. Mo'g'ullar bosib olingan xalqlarni vahshiylarcha talon-taroj qilganlar, ko'p shahar va qishloqlarni vayron qilib, yondirib yuborganlar, aholining ancha qismini qirganlar va qul qilib olib ketganlar. Oqibatda yashnab yotgan minglab shahar va qishloqlar, bepoyon unumdor yerlar xarobalarga aylangan. Bunday dahshatli, jahonni larzaga solgan qo'shinning paydo bo'lishi va uning yengilmas zo'r qudrati sirini bilish Yevropa monarxlari Rim papasini ham qiziqtirmay qo'ymas edi, albatta. Bu holat Yevropa mamlakatlari bilan Mo'g'ul imperiyasi o'rtasida savdo, siyosiy va diplomatik munosabatlar o'rnatishga turtki bo'ldi. Mo'g'ullar bilan yaqin munosabat o'rnatishda Rim papalari ancha faollik ko'rsatdilar. Birinchi bo'lib «Tatar o'lkasiga», ya'ni Mo'g'ulistonga papa Innokentiy IV 1245-yilda Ioanna Plano Karpini boshchiligidagi monaxlardan iborat elchilarni yuboradi.

Plano Karpini yozib qoldirgan sayohatnomada, undan bir oz keyin (1249-1251) xuddi shu yo'l va shu maqsad bilan safar qilgan uning vatandoshi Vilgelm Rubruk asarida ba'zi tarixiy-etnografik

ma'lumotlar uchraydi. Buyuk venetsiyalik sayohatchi Marko Polo ham Rim papalarining topshirig'i bilan bir necha yil sayohatlarda bo'ladi, bir necha mahalliy tillarni o'rganadi, o'z vataniga qaytishda genuyaliklar tomonidan asir olinadi va qamoqda o'zining manbalarga boy sayohatnomasini yaratadi.

Bu davrda yashab, ijod qilgan Sharqning buyuk mutafakkir tarixchisi Rashiddinni (1247-1318) alohida qayd qilib o'tish lozim. Uning ajoyib solnomalar to'plamida turk va mo'g'ul qabilalari haqida juda qimmatli tarixiy-etnografik ma'lumotlar mavjud.

Temuriylar davriga oid qiziqarli etnologik lavhalarni ispan elchisi Gonzales de Klavixo asarida, rus solnomalarida, Nizomiddin Shomiy, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa ulug' ajdodlarimiz asarlarida uchratish mumkin.

Temur davlati, Movarounnahr va qo'shni mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotini har tomonlama mukammal tasvirlagan Zahiriddin Muhammad Boburning tengsiz asari – «Boburnoma» alohida diqqatga sazovordir. Bu asar o'nlab Yevropa tillariga tarjima qilingan. Buyuk o'zbek shoiri, yirik davlat arbobi Bobur ko'p o'lkalarni zabt etgan, boshidan o'tgan voqealarni, o'zi boshqargan yoki o'rgangan o'lkalar tarixi, iqlimi, yashash tarzi, madaniyati xususida atroflicha to'xtalib, qimmatbaho tarixiy-etnografik manbalarni yozib qoldirgan.

XV asr o'rtalaridan boshlangan «Buyuk geografik kashfiyotlar» etnologik axborotlarning keng miqyosda va tez sur'atlar bilan to'planishga sabab bo'ldi. Bu davr shaharlarning o'sishi, savdo munosabatlarining kengayishi, manufaktura xo'jaligining tug'ilishi va boshqa katta ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan bog'liq edi. Yangi-yangi yerlarni bosib olish maqsadida o'tkazilgan yurishlar, jasur dengizchilar va savdogarlarning, qaroqchi va mustamlakachilarning bepoyon okeanlarda suzishlari natijasi o'laroq Amerika qit'asini, Afrika sohillarini, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo o'lkalarini, Okeaniya arxipelagi va orollarini kashf etilishi yevropaliklarni ilgari noma'lum bo'lgan turli irq va tildagi xalqlar bilan tanishtirdi. Dastlab portugal va ispan sayyohlari, keyin golland, ingliz va fransuzlar dunyoning barcha qit'alarida bo'lib, yangi yerlarni kashf qilibgina qolmay, juda ko'p o'lka va elatlarni o'z izmlariga bo'ysundirib, mustamlakachilikka yo'l ochib berganlar. Kashf etilgan mamlakatlar va ularning aholisi to'g'risidagi birinchi ma'lumotlar kema kundaliklarida va sayohatlar haqidagi hisobotlarda, keyinchalik

ancha batafsil tuzilgan bayonnoma va sayohatnomalarda aks ettirilgan.

XV–XVII asrlar davomida etnografiya fani Markaziy, Shimoliy va Janubiy Amerika hindilari, Afrika va Osiyoning aksariyat xalqlari to'g'risida juda boy ma'lumotlarga ega bo'lgan edi. Yevropaliklarning avvalgi tevarak-atrofdagi yurt va elatlar to'g'risidagi tasavvurlari ancha kengaydi. Missioner va konkistadorlarning¹ ko'z o'ngida g'oyat boy o'rmonlar, serunum tuproqli bepoyon sahro va cho'llar, turli iqlimli va rang-barang tabiatli o'lkalar, noma'lum g'ayri odat, til va irqdagi xalqlar paydo bo'lgan edi. Ularning makon va fazo to'g'risidagi tushunchalari ham butunlay o'zgarib ketgan edi. Endilikda yevropaliklarning nazdida dunyo deyarli o'n hissa kengaygan, yer kurrasi butunlashib yaxlit sayyora shaklida namoyon bo'ldi. Yevropaliklar jismoniy tuzilishi, kiyim-kechak, turmush tarzi, diniy e'tiqodi, til va urf-odatlarini jihatidan mutlaqo farqlanadigan «g'alati» kishilarni uchratdilar, yangicha hayot tarziga, noan'anaviy madaniyatga katta e'tibor qaratdilar.

XVI asrda barcha tarqoq ma'lumotlarni yig'ib, hindilarni birinchi bor muntazam ravishda tasvirlagan italiyalik insonparvar yozuvchi Petro Matir, meksikalik darvish olim Bernardino de Saagun, yepiskoplar Bartolome de Las Kasas va Diyego de Landa asarlari diqqatga sazovordir. O'sha davrda yashab ijod qilgan fransuz faylasufi va publisisti Mishel Monten «Tajribalar» asarida, keyinchalik XVII asr – «ma'rifat asri»da paydo bo'lgan buyuk mutafakkirlar – italyan Viko, ingliz Fergyusson, fransuzlar Russo, Didro, Monteske, Volter, Kondorse asarlarida insoniyatning tabiiy taraqqiyoti tasvirlangan, ibtidoiy bolalik davri «saxiy vahshiy»lar yoki «oltin asr» deb ta'riflanib, uni asoslashda etnologik ma'lumotlardan keng foydalanilgan. Ibtidoiy jamiyatni ideallashtirish atoqli ma'rifatchilar Jan Jak Russo va Deni Didro asarlarida fantastik ravishda aks ettirilgan.

Mashhur nemis mutafakkiri Iogan Gotfrid Gerderning ko'p qirrali falsafiy-tarixiy asarlarida insoniyat urug'i tarixining ibtidoiy davrdan yangi zamongacha bosib o'tgan taraqqiyoti tasvirlangan. Uning asarlarida xalqlar katta va kichik, ilg'or va qoloq xalqlarga ajratilmaydi, muallif ularni tenglashtirib ifoda etadi. Gerder nasroniy

¹ Konkistador – istilochi, Amerika kashf qilingandan keyin uni talon-taroj qilgan aholiga qirg'in keltirgan ispan bosqinchilari



axloqining yevropalik mustamlakachilar tomonidan zo'rlik bilan o'rnatilishiga, jabr-zulmlarga qarshi chiqqan. U «Insoniyatni rag'batlantiradigan xatlar» nomli asarida o'z munosabatini quyidagicha bayon etgan: «Qani menga yevropaliklar borib, ojiz, laqma insoniyatni o'z zulmi, adolatsiz urushlari, ochko'zligi, jabrlari, kasalliklari va halokatli sovg'alari bilan o'ziga abadiy dog' tushirmagan mamlakatni ko'rsating! Bizning qit'amiz jahonda eng dono deb atalmasdan, balki eng qo'rs, bezori, savdogar deb nomlanishi zarur, u xalqlarga madaniyat keltirgan emas, balki ularning tub madaniy kurtaklarini imkoniyati boricha quritib, yo'qotib yubordi!».

Gerderning fikricha, insoniyat yaxlit, uning tarixi ham yaxlit jarayondir, ammo bu umumiylikda u har bir xalqning taraqqiyotda teng huquqqa ega ekanligini qayd qilib, o'ziga xos «milliy ruhni», takrorlanmaydigan ma'naviy boyliklarni seza bilgan. Gerderning mazkur fikrlari Yevropa xalqlarida milliy ruhning qayta tiklanishiga zo'r ta'sir ko'rsatib, xalq badiiy ijodi va milliy odatlarini jiddiy o'rganishga qiziqish uyg'otgan edi.

Fransuz inqilobi to'liqlari va undan keyingi Napoleon urushlari Yevropani larzaga keltirdi. Oqibatda XIX asrning birinchi choragi turli xil ijtimoiy hodisalar, g'oyaviy yo'nalishlar, ijtimoiy tafakkurdagi o'zgarishlar bilan to'lib toshdi. Bu jarayon etnologik bilimlar va g'oyalarga ham ta'sir qildi, ayniqsa, Markaziy Yevropaning german xalqlari va qisman slavyanlarda o'z xalqi maishiy turmushi, madaniyati, folkloriga qiziqish uyg'otib, uni romantizm bilan bezatdi. XIX asrning birinchi o'ttiz yilligi «romantizm davri» deb atalganligi bejiz emas. O'sha davrdagi dastlabki ajoyib folklor to'plamlari, nemis aka-uka Grimm ertaklari, Gerder g'oyalari ta'sirida slavyan xalqlari ijodiy boyligini o'rganish natijasida yaratilgan asarlar etnologiya fani obro'sini yanada ko'targan edi. Turli vaqtdagi nashrlar, etnologik tashkilot va jamiyatlarning moziyni, xalq turmushi va ijodini, ma'naviy hayoti va ruhini jiddiy o'rganishga kirishgani romantik qiziqishni uyg'otib yubordi.

Bu qiziqish faqat Yevropaga emas, balki boshqa qit'a va o'lkalarga ham tarqalgan edi. Dastlab XIX asrning birinchi yarmida atoqli nemis geografi Aleksandr Gumboldt va fransuz tabiatshunosi Eme Bonplan Janubiy Amerikaning ichki qismini jiddiy ilmiy tadqiq qildilar. 1832-1836-yillarda yosh Charlz Darvin tushgan «Vigl»

nomli kema yer kurrasini aylanib chiqib, ajoyib ma'lumotlar to'pladi. Shimoliy Amerikani ilmiy jihatdan o'rganib chiqqan Gerri Rou Skulkraft g'oyat samarah natijalarga erishgan va ko'p jildlik boy etnologik to'plamlar yaratgan edi. Okeaniya va Avstraliyada atoqli rus dengizchilari Kruzenshtern, Lisyanskiy, Golovnin, Kotsebu, Lazarev, Litkelar kemalarda yangi kashfiyotlar qilishga muyassar bo'lganlar. Afrika qit'asiga ham bir necha ilmiy ekspeditsiyalar tashkil qilingan va ichki o'lkalar to'g'risida ba'zi ma'lumotlar to'plangan edi.

XIX asrning birinchi yarmida fransuz ma'rifatchilari targ'ib qilgan tarixiy taraqqiyot nazariyasi «Oltin asr» romantizmi g'oyalariga qarama-qarshi holda yangi pog'onaga ko'tarildi. Etnologik bilimlar ham asrlar davomida to'planib kelgan nihoyatda boy va rang-barang ma'lumotlarni o'zlashtirib, muayyan xulosalar va nazariyalar, dunyoqarashlar tizimi va yo'nalishlar hosil qildi. Natijada XIX asr o'rtalariga kelib, mustaqil fan sohasi – etnografiya tug'ilishiga zarur shart-sharoit yaratilgan edi.

1860-1870-yillarda yangi fan – etnologiya bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan turli jamiyatlar va jurnallar bilan bir qatorda har xil kasbdagi kishilar tomonidan yaratilgan (keyinchalik, klassik asarlar deb tanilgan) ajoyib tadqiqotlar etnologiya ilm sohasi ekanligini to'liq tasdiqladi. Atoqli tadqiqotchilardan germaniyalik Adolf Bastian, Teodor Vays, Yulius Lippert, Genrix Shurs kabilar, angliyalik Djon Fergyusson, Mak Lennan, Jon Lyobbok, Gerbert Spenser, Eduard Teylor, fransuz Sharl Leterpo, amerikalik Lyus Genri Morgan kabilarning ko'p jildlik asarlari etnologiya fani qonuniy ravishda tug'ilganligini isbotlovchi dalillar edi.

Turli xalqlarni, ayniqsa, Yevropadan tashqaridagi elatlarni o'rganish amaliy ehtiyojlar uchun ham zarur bo'lgan. XIX asr boshlariga kelib, Yevropaning eng qudratli davlatlari o'zlarining katta mustamlakalarini boshqarish uchun u yerda yashovchi xalqlarning maishiy turmushi va madaniyatini bilishga muhtoj edi. Ingliz etnologiya faniga asos soluvchilardan biri Jan Lyobbok: «Yot yovvoyi turmushni o'rganish dunyoning barcha qismlarida joylashgan va turli madaniy pog'onada turgan elatli mustamlakalarga ega bo'lgan buyuk davlat – Angliya uchun muhim ahamiyatga ega», degan edi. Bunday zarurat boshqa mustamlakachi davlatlar uchun muhim rol o'ynadi va oqibatda etnologiya fanining o'sishiga turtki berdi.

Demak, dastlab etnologiya Yevropaning yirik mustamlakachi mamlakatlariga xizmat qiladigan vosita sifatida qoloq, ya'ni hali o'z davlatiga ega bo'lmagan xalqlarni o'rganuvchi fan shaklida paydo bo'lgan. Shu holatda XX asrning birinchi o'n yilliklarigacha davom etgan va keyin etnoslar ijtimoiy-iqtisodiy rivojidan qat'i nazar o'ziga xos kishilar birligi to'g'risidagi tasavvurlarning yuzaga kelishi bilan etnologiya faniga munosabat o'zgardi. U metodologik jihatdan jahondagi barcha etnoslarni baravar o'rganuvchi ilmiy soha deb tanildi.

Xalqlar to'g'risidagi bu fanning teran ildizlari 1789-yili Germaniyada ilmiy yo'nalish shaklida paydo bo'lib, noyevropa xalq va madaniyatlarni o'rganishni maqsad qilib qo'ygan. XIX asrning 30-yillaridan boshqa xalqlarni ham o'rganuvchi fan sohasi sifatida «etnologiya» atamasi kiritila boshlangan. Shu bilan bir vaqtda nemis fanida yangi yo'nalish paydo bo'lib, uni «Xalqshunoslik» deb nomlashgan, bu yo'nalish asosan, nemis tilli xalqlar va madaniyatlarni tadqiq qiluvchi fan sohasi bo'lib hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Ingliz zabon mamlakatlarda etnologiya fani bir oz boshqacha yo'nalishda shakllangan. XVIII asrda xalqlar to'g'risidagi fan sohasi bu yerda antropologiyaning bir qismi sifatida inson tabiatini o'rganuvchi biologiya fani bilan bir qatorda gurkirab rivojlanadi. Keyinchalik Yevropa mamlakatlarida antropologik jamiyatlar paydo bo'lishi bilan, ibtidoiy makonlarda kashf etilgan kishi suyaklarini o'rganish juda avj oladi. Neandertal odamlarni o'rganib ibtidoiy jamiyat va madaniyat tarixini tiklashga intilgan tadqiqotchilar fanga yangi yo'nalish – sotsial antropologiyani olib kirishadi. Ilk bor bu atamani 1906-yili mashhur ingliz etnolog Jeyms Frezer ishlatgan. Mazkur yo'nalish qisqa muddatda keng tarqalib, ingliz fanida «etnologiya» tushunchasining bir variantiga aylanib ketadi.

AQSHda etnologiya Yevropaga nisbatan bir oz keyinroq rivojlanib boshlagan. Bu yerda irqiy munosabatlar jiddiy bo'lganligi tufayli Amerika antropologiyasi dastlab jismoniy antropologiya muammolarini, irqiy va madaniy tafovutlarni tadqiq qilgan. Ushbu yo'nalish uning asoschisi ko'p qirrali etnolog olim amerikalik Genri Lyus Morgan tomonidan belgilangan edi. Olim ko'rsatgan yo'nalish qoloq jamiyatlarda qavmu qarindoshlik tizimi, oila-nikoh munosabatlari, insoniyat tarixini davrlashtirish kabi muammolar

Amerika etnologiyasining keyingi rivojiga kuchli ta'sir qilgan. XX asrning 50-yillarida AQSH etnologiyasi Frans Boas ijodi zahirida ancha tor doirada tadqiqotlar o'tkazadi, etnologlar asosan, xalqlarning madaniy xususiyatlarini o'rgana boshlaganlar va bu yo'nalish «madaniy antropologiya» nomi bilan mashhur bo'lgan.

Fransiyada etnologiya fani mustamlakachilik siyosatining ta'sirida qaram bo'lgan xalqlarning turmush tarzi, madaniyati va an'analari to'g'risida batafsil ma'lumotlarga muhtojlik tufayli o'ziga xos xususiyatlarda rivojlangan. Xalqlar to'g'risidagi bu fan dastlab Fransiyada «Etnografiya» nomi bilan XIX asr oxirlarigacha saqlangan. Faqat XX asr boshlarida tarixiy va nazariy ma'lumotlar ko'payib ketishi natijasida «etnologiya»ga aylangan.

Jahon etnologiyasi rivojida rus olimlarining roli katta. Etnik jarayonlarga qiziqish XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab dastlab Rossiyaning boshqa xalqlar bilan muloqoti, rus xalqining tarixiy ildizlari va madaniyati xususiyatlari kabi muammolarni o'rganish maqsadida yuzaga kelgan. Rossiyada etnologiya fan sifatida g'arbga nisbatan ilgariroq paydo bo'la boshlaydi. Ayniqsa, Rus geografiya jamiyati va uning bo'limlari 1846-yilda tashkil topgandan so'ng etnografiyaning mavqei yuksalib nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega tadqiqotlar o'tkazila boshlanadi. Mazkur jamiyatlarning ijobiy tomoni shunda ediki, atoqli rus etnografi va sharqshunosi S.P. Tolstov ta'rifi bilan aytganda, ular «rasmiy» mohiyatga ega bo'lmagan va hech vaqt o'zini chorizm xizmatiga to'liq bag'ishlamay, asosan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan. Mazkur ilmiy jamiyat dasturi Rossiyaning geografiyasi va undagi xalqlarni har tomonlama o'rganishni nazarda tutgan. O'sha davrdan boshlab rus xalqi va Rossiya imperiyasiga qaram bo'lgan Sibir, Markaziy Osiyo va Kavkaz xalqlarini etnografik jihatdan tadqiq qilish avj oladi. Ayniqsa, rus geografiya jamiyatining faol a'zolaridan mashhur sayyohlar N.N. Mikluxo Maklay va G.N. Potanin, o'zga o'lkalarga badarg'a qilingan V. Seroshevskiy, D.A. Klemens, L.Ya. Shternberg, V.G. Bogoraz, V.I. Yoxelson, original tarixiy – etnografik asarlar yaratgan D.N. Anuchin, N.N. Xaruzin va boshqa rus olimlarining ajoyib tadqiqotlari etnografiya, (inchunin etnologiya) fanini yuqori bosqichga ko'targan edi.

XIX asrning 40-50-yillari rus olimlari K.M.Ber, N.I. Nadejdin, K.D.Kavelin etnografiya fanining asosiy tamoyillarini belgilab bergan edilar. Bu tamoyillar 1846-yili Rus jamiyatida «Rus xalqini

o'rganish dasturi» nomi bilan qabul qilingan va shu asosda: 1) buyumlar hayoti, 2) tirikchilik hayoti, 3) axloqiy hayot va 4) til muammolari — tadqiqot muammosi deb qabul qilingan, shu asosda barcha ma'naviy-madaniy masalalar o'rganilib kelingan.

Ma'lumki, sho'rolar davrida etnologiya fani aqidaviylashgan mafkuraga tayanib ish ko'rgan. Mazkur yondashish etnik jarayonlarni siyosiy buyurtma asosida o'rganishga asoslangan bo'lib, uni muayyan mafkuraviy qolipga solib qo'ygan edi. Oqibatda juda ko'p etnik muammolar bir yoqlama, yuzaki hal qilingan. XX asrning 70-80-yillariga kelib etnologiya fanida atoqli etnograf L.N. Gumilevning etnogenez nazariyasi ustuvor bo'lib, etnoslarning kelib chiqishi va rivoji mexanizmini o'rganish birinchi darajali masalaga aylanadi. Ushbu masala ayni paytda mustaqillikni qo'lga kiritgan mamlakatlar uchun o'ta dolzarb mazmun kasb etadi. Chunki xalqlarning o'zligini anglashga intilishi milliy ildizlari va xususiyatlarini chuqur o'rganishga kirishishi tabiiy holdir.

Albatta, etnologiya fani oldingi etnografiyadan bir oz farq qilsada, real ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan, uning hozirgi tarixiy muammolarni o'rganishdagi ahamiyati juda katta. Agar ilgari etnografiya predmeti tadqiqi asosan, qoloq etnoslar, turmushdagi eski sarqitlar va ijtimoiy tuzum masalalari bo'lsa, endilikda eng taraqqiy qilgan ilg'or xalq va elatlar ham etnologiyaning diqqat markazida turibdi. Hozirgi zamon industrial jamiyat etnoslarini va qoloq xalqlarni o'rganishda yangi muammolar paydo bo'lib, boshqa fanlar bilan hamkorlikda — etnosotsiologiya, etnopsixologiya, etnolingvistika, etnodemografiya kabilar etnologiya fanini yuqori pog'onaga, ya'ni inson va uning madaniyatini o'rganuvchi yangi ijtimoiy fan qilib ko'tardi. XX asrdagi asosiy tarixiy voqealarni o'rganishda etnomadaniy omillarning roli nihoyatda o'sganligi ko'zga tashlanadi. Chunki XX asr haqiqatdan ham milliy harakatlar, milliy mustaqillik uchun kurashlar, milliy uyg'onishlar, qolaversa millatchilik asri bo'lib tarixga kirdi. Demak, nafaqat o'tgan asrda, kirib kelgan XXI asrda ham etnik jarayonlar, millatlararo munosabatlar, etnoslarning turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati xususiyatlarini o'rganuvchi etnologiya fani muhim omil bo'lib qolaverdi.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, etnologiya hozir jahonda mustaqil tarixiy fan deb tan olingan bo'lsa, «etnos» atamasi to'g'risida olimlar orasida yakdillik yo'q. Bu atama etnologik adabiyotda

ko'pdan beri ishlatilib kelganligiga qaramay, uning ilmiy ta'rifi umumiy tarzda ma'naviy jihatdan odamlarning etnik birligini anglatuvchi so'z sifatida so'nggi o'n yilliklarda fanga kiritilgan. Shu bilan birga mazkur atama bilan bog'liq «etniklik» tushunchasi ayrim etnik guruhlarining xususiy belgilari yoki umumiylikni aniqlovchi atama sifatida keng ishlatilmoqda. Etniklik tushunchasi o'tgan XX asrning 70-yillaridan boshlab jahonda etnoslararo murakkab munosabatlar va jiddiy kashfiyotlarning kuchayishi tufayli kirib kelgan bo'lsa-da, asli bu atama etnoslararo madaniy tashkilot shaklida yuzaga kelgan.

Etnos va etniklik tushunchalari hozirgi etnologiya fanida qabul qilingan umumiy tushuncha bo'lib, umumiy hudud va til birligini belgilovchi asosiy omildir. Mazkur omillar etnoslarning nafaqat shakllanishida, balki etnogenezida ham hal qiluvchi belgilar hisoblanadi. Ba'zan til birligi u yoki bu etnosning nomiga (etnonimi) ham o'tadi. Shubhasiz, har bir etnosning shakllanishida uning moddiy va ma'naviy madaniyati hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Ayniqsa, etnosning asrlar davomida shakllanib kelgan an'anaviy xo'jaligi, urf-odat va marosimlari, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, xulq-atvori kabilar muhim etnik belgilar sanaladi. To'g'ri, barcha etnoslar o'ziga xos ruhiy kechinmalari va xarakteri, ya'ni kishilarning tabiati va didi, o'ziga xos etnik qadriyatlari, mentaliteti bilan ham farqlanadilar. Shu sababdan ham etnoslar (elat, xalq, millat) ayrim umumiy guruh odamlarning birligini boshqa guruh o'ziga o'xshash odamlar guruhidan farqlab o'zligini anglashi natijasida muayyan nom (etnonim)lar bilan atalib ayrim xalq (elat) sifatida o'rganiladi.

§-3. ETNOLOGIYANING ASOSIY MAKTABLARI VA YO'NALISHLARI

Har bir fan o'ziga xos uslub, konsepsiya, maktab va yo'nalishlarga asoslanib rivojlanadi. Etnologiya fan sifatida shakllana boshlagan davrdan buyon muayyan nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, zamon talabiga javob bera oladigan har xil maktab va yo'nalishlar yuzaga kela boshlagan. XIX asr o'rtalarida nihoyatda keng miqyosda o'tkazilgan etnologik tadqiqotlar natijasida to'plangan boy ma'lumotlarni jiddiy sistemalashtirishga kirishish, jahon fanida paydo bo'lgan evolyutsionizm, diffuzionizm, strukturalizm, madaniy relyativizm kabi mashhur ilmiy yo'nalishlar barcha gumanitar fanlarga kuchli ta'sir o'tkazgan.

Etnologiya faniga birinchi bo'lib evolyutsionizm nazariyasi umummetodologik ilmiy ko'rsatma sifatida kirib keladi. Aslida tabiiy fanlardan o'tgan evolyutsionistik tasavvurlar eng keng tarqalgan nazariya hisoblanadi, shuningdek, XIX asr etnologiya fanida insoniyat madaniyati rivojida umumiy qonun-qoidalarining mavjudligini asoslab, turli elatlarning o'ziga xosligini aniqlashga imkon yaratganligi alohida ta'kidlanadi. Mazkur maktab namoyandalari Angliyada Gerbert Spenser, Eduard Teylor, Jeyms Frezer, Germaniyada Adolf Bastian, Teodor Bays, Fransiyada Sharl Leturno, AQSHda Lyus Genri Morgan o'z qarashlari, ilmiy izlanishlari bilan etnologiya faniga salmoqli hissa qo'shdilar, yangi g'oyalarini fan doirasida tatbiq qila oldilar.

Shulardan eng mashhuri Eduard Teylor (1832-1917) o'zining «Insoniyatning qadimgi tarixi to'g'risidagi tadqiqot» (1865) va «Ibtidoiy madaniyat» (1871) nomli asarlarida evolyutsion konsepsiyasini ilgari surgan. Uning eng muhim g'oyasi – odam tabiatning bir qismi va u tabiatga xos umumiy qonuniyatlar bilan birga rivojlanadi. Demak, barcha insonlar psixologik va intellektual jihatdan bir xil tabiatli va ular nafaqat o'ziga xos, balki umumiy xususiyatlarga ega madaniyatni yaratganlar. Barcha madaniy hodisalardan Teylorning diqqatini ibtidoiy diniy e'tiqodlar jalb qilgan. Uning ta'rificha, barcha insonlar bir xilda rivojlanib, ibtidoiy davrlardan umumiylikka ega bo'lgan ruhiy olamni yaratganlar. Natijada ilk bora yuzaga kelgan dinlardan animistik tasavvurlar hosil bo'lgan. U bunday tasavvurlar «yovvoyi» kishilarning tabiat sirlarini, tush, uyqu, kasallik, o'lim kabi hodisalarning sabablarini tushuntirishga intilganligi tufayli paydo bo'lgan dastlabki falsafiy mushohadalarning mahsuli deb hisoblaydi. Odamlar ibtidoiy tushunchalarini tabiat bilan bog'lab oddiylikdan murakkablasha borayotgan tasavvurlarning rivojini mavjud hodisalarga qiyoslab bergan. U jonga va arvohlarga ishonish (animizm) e'tiqodini «din minimumi», deb ataydi. «Animizm, — deb yozadi Teylor – aslida barcha vahshiy va madaniy xalqlar falsafasining negizini tashkil qiladi».

Evolutsionizm nazariyasining eng yirik namoyondalaridan ingliz faylasufi, biologi, psixologi va sotsiologi Gerbert Spenser (1820-1908), jamiyat va odamzod ichki va tashqi omillar ta'sirida rivojlanadi, degan g'oyani ilgari surdi. Tashqi omilga geografik muhit, qo'shni jamiyat va xalqlar, ichki omilga – odamning irqiy tuzilishi, tabiati, va ruhiyatining o'ziga xosligi kiradi. Spenser

insoniyat tadrijini koinotning universal qonuniyati bilan bog'lab insonning kamol topishini uning tug'ma qobiliyati bilan bog'laydi. Va lekin tug'ma tabiat abadiy emas, u takomillashish xususiyatiga ega. Spenser evolyutsiya g'oyasini bir yoqlama talqin qilib, ibtidoiy odamlar go'yo jismoniy, axloqiy, aqliy jihatdan qoloq, deb ta'rif beradi.

Germaniyada etnologiya fani va evolyutsionizm ta'lichopqi asos solgan Adolf Bastian (1826-1925) yirik ta'limotchi va etnologiya fani tashkilotchisi bo'lib tanilgan. U jahonning turli mintaqasida to'qqiz marta o'tkazilgan ekspeditsiyalari natijasida juda ko'p etnografik materiallar to'plab, muayyan yagona nazariyani yaratishga muvassar bo'lgan. Bastianning eng asosiy bosh g'oyasi shundan iborat ediki, barcha elatlar umumiy dunyoqarashga ega bo'lib, oddiylikdan murakkablikka o'tish evolyutsiyasidan iborat.

Etnologiya faniga evolyutsionizmni tatbiq etgan Lyus Genri Morgan (1818-1881) alohida mavqega ega. Bu mashhur Amerika etnologi o'z zamonasida barcha olimlarga nisbatan yangi nazariyadan ko'proq va samarali foydalangan. Morgan 40 yillik umrini Amerika tub aholisi – iroxezlar va boshqa qabilalarni o'rganishga bag'ishlangan asarlarida mazmunli va ko'p qirrali g'oyalarni ko'tarib chiqdi. Bu tashabbuskor etnolog olim o'zining asosiy nazariy tushunchalari va g'oyalarni «Qadimgi jamiyat» (1877) nomli asarida bayon etgan. Unda muallif uchta eng muhim etnologik muammolarni hal qilgan: insoniyat tarixida ibtidoiy urug'chilik tuzumining o'rni va ahamiyati, oila-nikoh munosabatlarining shakllanish tarixi va insoniyat tarixini davrlashtirish masalalari. Morganning ta'rificha, urug'chilik jamoasi qadimgi ijtimoiy tuzumlar – osiyolik, yevropalik, afrikalik, amerikalik va avstraliyaliklarning barchasida umumiy xarakterga ega. Uning taklif qilgan davrlashtirish ta'limoti etnografik, tarixiy va arxeologik ma'lumotlarni yaxlitlab, har bir xalqning umuminsoniy tarixdagi o'z o'rnini aniqlashga imkon berdi. L.Morganning asarlari evolyutsionizm nazariyasining ijobiy tomonlarini to'ldiribgina qolmay, u insonlar tarixini haqqoniy o'rganishga xizmat qildi va yuqori darajaga ko'tardi.

Rus etnograflari ichida ham evolyutsionizm nazariyasi keng tarqalgan. Ular ham Yevropa va Amerika evolyutsion maktab vakillari (J. Lyobbok, M. Lennan, E. Teylor, A. Bastian, L. Morgan)-ning asarlari orqali o'z tarixini, nikoh-oila munosabatlari va din tarixini o'rganishga, tadqiq qilishga intilganlar. Bundan tashqari,

mazkur etnologiya klassiklarining asarlarini qisqa muddat ichida rus tilida nashr etilishi Rossiyada o'sha davrda yangi fanga qiziqish kuchayganligidan, har xil nazariy yo'nalishlarni tarqalishiga imkoniyat tug'ilganligidan dalolat beradi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa etnologiyasida ilg'or evolyutsion g'oyalardan qaytish ro'y beradi va fanga xilof g'ayriilmiy nazariya va yo'nalishlar paydo bo'ladi. Bu davrda, ayniqsa, birinchi jahon urushi arafasida mustamlaka va bozorlar uchun kurash, ijtimoiy ziddiyatlar va ozodlik harakatlari avj olgan edi. Bunday sharoitda hukmron sinflar bir xalqning ikkinchi bir xalq ustidan hukmronligini, bosqinchilik va mustamlakachilikni, ekspluatatsiya va zulmni oqlaydigan va qo'llab-quvvatlaydigan g'oyalarga ehtiyoj sezar edi. Ko'pgina g'arb tadqiqotchilari, shu jumladan, etnologlar ham, o'z faoliyatini monopoliyalar manfaatiga, mustamlakachilik idora usuli vazifalariga moslab olib borganlar.

Hozir Yevropa va Shimoliy Amerikada etnologiya fani umumiy vazifa va maqsadlarni aniq tushuna olmasligi, tadqiqot metodlarining xilma-xilligi va ilmiy muammolarning ko'pligi tufayli nazariy chalkashliklarga duch kelmoqda. Bu hududlarda etnografiya fani hamon ikkiga ajralgan bo'lib, o'lkashunoslik vazifasini ado etuvchi (o'z xalqini o'rganish sohasi) va boshqa yot (asosan, Yevropadan tashqaridagi) xalqlarni o'rganish sohasidan iboratdir.

O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab Shimoliy Amerikada madaniy relyativizm va qayta tiklangan evolyutsionizmning yangi turlari (neoevolyutsionizm), tarixiylikka ko'r-ko'rona ravishda yondashish va hatto taraqqiyparvar olimlarning g'oyalari yaqinlashish an'anasi kuchayadi. Atoqli rus etnologi Yu.P. Averkiyeva «1960-yillarda anti-evolyutsionizm urfdan chiqib, ilgari evolyutsionizm tanqidchilari endi o'zlari doim evolyutsionist bo'lganliklarini aytib, faqat o'tgan asr evolyutsionizmning asossiz amaliy aqidalarini tanqid qilib kelganliklariga ilmiy jamoatchilikni ishontirishga intiladilar» — deb yozadi. AQSHda 1963 va 1964-yillarda L. Morganning «Qadimgi jamiyat» asari yangi nashrda chiqishi bunga dalildir. FunkSIONalistik, diffuzionistik va boshqa eski «izm»larning qurama g'oyalariidan paydo bo'lgan neoevolyutsionizm asli yangi zamon etnologiyasi nazariyasining oxirgi so'zidir.

Madaniy relyativizmning boshqa eng yirik namoyandasi antropolog Melvill Xerskovits har bir xalq madaniyatini nisbiy, mustaqil deb hisoblab, umumiy, masalan, Yevropa-Amerika qiymatlilik

sistemasini, o'ziga xos madaniy xususiyatlarini inkor qiladi. Ayrim madaniyatning nisbiyligini tan olish bilan birga insoniyatga xos umumaxloq mezonlari ham nisbiy (relyativ) xarakterga ega, xalqlar madaniyati orasidagi ba'zi o'xshashliklar ham mustaqil, yaxlit insoniyat taraqqiyoti yo'q, deb da'vo qiladi. Uning ta'rificha, hozirgi Yevropa-Amerika madaniyatining asosiy belgisi texnologiya, o'rta asr Yevropasida supernaturalizm, ya'ni diniy mafkuraning hukmronligi, hozirgi melaneziyaliklarda ijtimoiy «prestij», Hindistonda sigirga sig'inish kabilar mazkur xalqlarning madaniy xususiyatlarini ifodalaydi.

Neoevolutsionizm g'oyalari esa Michigan universitetining professori, atoqli etnolog Lesli Uayt («Madaniyat evolyutsiyasi», «Madaniyat to'g'risidagi fan» asarlari va hokazo), uning shogirdi va izdoshi Marshall Salins, mashhur etnolog va arxeolog Julian Styuard asarlarida yorqin ifodasini topgan. Masalan, Lesli Uayt ilmiy dunyoqarashidagi o'rta tushuncha – madaniyat aslida simvol (belgi)lardan tashkil topgan, degan tushunchadir. Madaniyat evolyutsiyasi, Uayt fikricha, asosan, texnologik taraqqiyotdan iborat bo'lib, u evolyutsiyaning «sotsiologik», «ideologik» va «sentimental» kabi o'zaro bog'liq muhim qismlariga kuchli ta'sir o'tkazadi. Ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki shakli oila, kishilik jamiyati va madaniyat evolyutsiyasining negizi mulk hisoblanadi. Uayt o'zining juda ko'p asarlarida «antropolog» (etnolog)larni akademik tadqiqot qobig'i bilan cheklanmay, katta nazariy va hayot o'rta qo'ygan amaliy masalalarni dadil hal qilishga chaqiradi. Styuard ham ko'p asarlarida evolyutsion g'oyani g'oyat xilma-xil madaniyatlar bilan, ijtimoiy hayot shakllari bilan birma-bir moslashtirishga intiladi. Etnologning asosiy vazifasi, deydi u, faqat madaniyatlarni izohlabgina qolmay, balki ularning taraqqiyot qonunlarini aniqlashdan, kishilarning o'zaro munosabatlari va ularning tevarakatrofidagi muhitni o'rganishdan ham iboratdir.

Hozirgi davrdagi Yevropa etnologiyasida eng asosiy o'rinni keng tarqalgan strukturalizm oqimi egallaydi. Juda ko'p original etnologik asarlari bilan tanilgan iste'dodli fransuz olimi Klod Levi-Stross shu oqimning asoschilaridan biri hisoblanadi, AQSH va G'arbiy Yevropada uning fikrlarini fan nazariyasi, deb tasdiqlashga intiladilar. Levi-Stross jamiyat to'g'risidagi Dyurkgeym ta'limoti va formal lingvistika uslubini yaratgan Ferdinand de Sossyura g'oyalari ta'sirida tilshunoslikdagi

struktura uslub orqali ayrim madaniyatlarning tuzilishi (strkutrazi)ni simvollar tizimi shaklida qaytadan tiklash mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Uning ta'rificha, real yaxlit borliq sifatida madaniyatni emas, balki uning strukturasidan sun'iy ravishda ajratib olingan ayrim qismlarni, masalan, qarindoshlik terminologiyasi, folklor, mifologiya, taom tayyorlash va hokazolarni tadqiq qilishi zarur, Levi-Stross asarlarining nomlari («Xom va pishirilgan», «Asaldan kulga», «Qadah ko'tarishi odatlarining kelib chiqishi», «Yalang'och kishi») fikrimizga dalil bo'la oladi. Asosan, Janubiy Amerika hindilarini o'rgangan Levi-Stross maishiy turmush va madaniyatning turli tomonlarini o'ziga xos qonuniyatga ega bo'lgan yopiq sistema shaklida ta'riflaydi. Demak, strukturalizm nazariyasining negizida qandaydir tarixiy tuzumdan tashqari, sabab-natija aloqalariga ega bo'lmagan abadiy struktura mavjud va u inson tafakkuri hali bexabar kishi ongi mahsulidir, degan tasavvur yotadi.

Levi-Stross konsepsiyasida jamiyatdan sun'iy ravishda ajratilgan hodisalarining ayrim qismlarini o'rganish asos bo'lsa, juda ko'p iste'dodli olimlardan iborat «ingliz strukturalistlari» real konkret tarixiy birikmalar (qabila, xalq, davlat)ning ayrim strukturalarini tadqiq qiladilar. Mazkur nazariya vakillaridan atoqli afrikashunos Evans-Pritchard, Okeaniya orollari etnografiyasini o'rganishda mashhur bo'lgan Daymond Fyors, Janubiy Afrikada tug'ilgan etnograf Meyer Fortes va uning hamkasbi Maks Glukmen tadqiqotlari e'tiborga molikdir.

Yevropa etnologiyasida o'tgan asrda paydo bo'lgan «o'lkashunoslik» tendensiyasi so'nggi yillarda ancha o'sdi. Natijada o'z xalqini o'rganish, turli muzeylar yaratish, ochiq etnografik muzeylarni tiklash, muayyan tadqiqotlar o'tkazish, ayniqsa kuchaydi. Hozir Yevropa va AQSHda juda ko'p yuqori malakali etnologlar paydo bo'lgan. Faqat AQSHning o'zida taxminan uch mingga yaqin etnolog mavjud. Mamlakatning deyarli hamma universitetlarida etnologiya kursi o'qiladi va etnologik ilmiy tadqiqotlar o'tkaziladi. Ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda ko'p muzeylar qatnashmoqda. Maxsus etnologik jamiyatlarning faoliyati nashr etilish («Amerika etno-tarix jamiyati» kabilar), turli jurnal va to'plamlar etnologiya faniga qiziqish katta ekanligidan dalolat beradi. Yevropada o'lkashunoslikning o'sishi natijasida o'z xalqining maishiy turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyatini targ'ib qilish kuchayib bormoqda.

Bu ishda maxsus qishloq tarzidagi ochiq joylarda tiklangan etnografik muzeylar muhim rol o'ynamoqda.

Etnologiya fani qator Yevropa mamlakatlarida yangi ilg'or g'oyalar tufayli jiddiy ilm sohasiga aylandi va tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. U g'oyaviy jihatdan obyektiv metodga asoslangan holda etnogenez va etnik tarix, ibtidoiy jamiyat va sinflarning paydo bo'lishi, an'anaviy moddiy va ma'naviy madaniyat, hozirgi etnik jarayon va ijtimoiy tuzum kabi yirik muammolarni keng miqyosda tadqiq qilishga kirishgan. Etnologik tadqiqotlar muntazam ravishda ko'p mamlakatlarda boshqa yaqin fan sohalari, ayniqsa, sotsiologiya bilan hamkorlikda davlat siyosatiga muvofiq ilmiy kadrlarni bir maqsad yo'lida katta muammolar tevaragiga jipslashtirgan holda olib borilmoqda.

Ayrim mamlakatlarda an'anaviy o'lkashunoslik doirasidan chiqilib, boshqa xalqlarni o'rganishga o'tish jarayoni sezilmoqda. Xususan, Polshada «o'zbeklar» nomli monografiya yaratilgan. Germaniyada etnologiya fani urushdan keyin bir qadar boshqacha sharoitda, ilmiy kadrlarning bir qismi natsizm tuzumi davrida halok bo'lganligi, bir qismi chet ellarga qochganligi tufayli fashistik mafkura qoldiqlariga qarshi kurash olib borish barobarida rivojlandi. Barcha Yevropa mamlakatlarida etnologik tadqiqotlar maxsus ilmiy tashkilotlar, universitetlar, kafedralar va muzeylar doirasida markazlashtirilgan.

Nazariy va amaliy masalalarni yangi muayyan pog'onaga ko'targan va jahon etnologiya fanida o'ziga xos obro'ga ega bo'lgan maktabning paydo bo'lishi va shakllanishi ajoyib etnograf va sharqshunos, atoqli olim S.P. Tolstov nomi bilan bevosita bog'liqdir. U etnografiya fanini jahon ilm sahnasiga ko'tarib, uning ham nazariy, ham amaliy jihatdan yagona, izchil, barcha xalqlarni teng tadqiq qiluvchi tarixiy fan ekanligini tasdiqlash yo'lida hormay-tolmay xizmat qildi. S.P. Tolstov etnografiya fanining maqsadi va vazifalarini belgilab, bu fan xalqlar madaniyatining milliy va etnik xususiyatlarini o'rganadi, «turli tarixiy davrlarda paydo bo'lgan qatlamlarini» ochib beradi, deb ta'kidlagan edi. Nihoyatda keng va teran bilim egasi bo'lgan S.P. Tolstov sharq xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganishdagi katta xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi qilib saylandi. Bu mashhur tadqiqotchi hozirgi etnik jarayonni o'rganishga alohida e'tibor berar edi. Mazkur olijanob vazifani bajarishda bir qator iste'dodli etnolog

olimlar ham hormay-tolmay mehnat qilib, ancha yutuqlarga erishdilar. Bular ichida S.P. Tolstov bilan birga ishlagan atoqli tadqiqotchilar: P.I. Kushner, I.I. Potexin, L.P. Potapov, G.F. Debes, M.O. Kosven, S.A. Tokarev, M.G. Levin, N.N. Cheboksarov, B.O. Dolgix, D.A. Olderogge, N.A. Kislyakov, T.A. Jdanno bo'ldilar. So'nggi yillarda yetishib chiqqan va etnografiya fanining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan tadqiqotchilar Yu.V. Bromley, Yu. P. Averkiyeva, S.I. Bruk, V.P. Alekseyev, V.I. Kozlov, F.F. Its, G.E. Markov, B.A. Andrianov, V.K. Chistov, S.I. Vaynshteyn, R.K. Kuzeyev, V.V. Ginzburg, M.V. Kryukov, R.N. Ismagilova, Yu.V. Arutyunyan, Yu.I. Semenov, N.A. Butinov, S. Kamolov, K. Shoni-yozovlar o'zlarining ajoyib asarlari bilan tanildilar. Xullas, alohida qayd qilish lozimki, keyingi davrda ko'plab iste'dodli olimlar milliy etnologiya fanini o'z asarlari bilan boyitib zamonaviy dolzarb muammolarni hal qilishda o'zlarining muayyan hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

§-4. JAHON XALQLARI KLASSIFIKATSIYASI

Odatda xalqlar muayyan hududda joylashadilar. Ammo tili, maishiy-madaniy jihatdan yaqinligi bilan ajralib turgan ayrim elatlarning o'zaro milliy aralashish jarayoni doimo sodir bo'lib turgan, etnik jihatdan chegaradosh xalqlar orasida esa bu jarayon ayniqsa, kuchli bo'lgan. Hozir jahon aholisi yoz sotsial-iqtisodiy va siyosiy tuzumiga qarab, turli tipdagi etnoslardan — millat, xalq, qabilaviy birikma yoki ayrim qabilalardan iboratdir.

Tarixiy jihatdan eng ilk etnos tipi ibtidoiy jamoa qabilasi bo'lib, u dastlab bir necha qarindosh-urug'lardan tashkil topgan edi. Hozirgi davrdagi qabilalar o'z sotsial-iqtisodiy va madaniy darajasi bilan ulardan tubdan ajralib turadilar. Bu qabilalar bir necha yuz kishidan milliongacha yetadigan aholidan iborat bo'lib, ularda ibtidoiy tuzum elementlari sarqit sifatida saqlangan feodal yoki kapitalistik munosabatlar amal qiladi, ijtimoiy tabaqalanish belgilari sezilib turadi (masalan, Erondagi belujiylar va qashqaylar). Qabilaviy munosabatlar asosan, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlarda ko'proq saqlanib qolgan.

Ibtidoiy jamoat tuzumi yemirilib, dastlabki tabaqalanish paydo bo'lishi bilan ayrim qabilalarning umumiy manfaat asosidagi ittifoqi yoki birikmalari tashkil topadi. Maxsus birikmalar qabilalararo xo'jalik va madaniy aloqalarni kuchaytirib, ularning aralashib

ketishiga olib keladi va ilgari qavm-qarindoshlik munosabatlari o'rniga hududiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Shimoliy Amerikadagi irokezlar ligasi, Meksikadagi atsteklar yoki Janubiy Afrikadagi zulularning qabilaviy ittifoqlari bunga misol bo'la oladi.

Keyingi, sinfiy jamiyat paydo bo'lishi bilan quldorlik tuzumi davri bosqichida (qadimgi Misr, Gretsiya, Rim va hokazo) xalqlar shakllana boshlaydi. Yevropada bu jarayon feodalizm davrigacha (ruslar, polyaklar, fransuzlar va hokazo) cho'ziladi. Hududiy, madaniy va xo'jalik birligi, kelib chiqishi va til yaqinligi asosida turli qabilalardan tashkil topgan xalqlar dastlabki davrlarda uncha mustahkam bo'lmagan elatlardan iborat edi.

Tovar, pul munosabatlarning rivojlanishi natijasida xo'jalik tarqoqligiga barham berilib, iqtisodiy va madaniy aloqalar kuchaydi, millatlar paydo bo'la boshladi. Millatlar odatda o'z iqtisodiy birligining barqarorligi, umumiy hududiy va tilining birligi, milliy xarakter va psixologiyasining umumiy belgilari bilan farq qiladilar.

Jahondagi etnik jarayon nihoyatda murakkab bo'lib, fanda qabul qilingan an'anaviy qabila, elat, xalq millat kabi tarixiy birliklar doirasida cheklanib qolmaydi. Hozirgi davrda bir necha elat yoki xalqning yaqinlashishi va uyushishi natijasida paydo bo'lgan yirik etnik birliklar (sovet xalqi, Amerika xalqi kabi), makroetnoslar bilan bir qatorda mahalliy xalq yoki millat ichida ba'zi xususiyatlari (shevasi, moddiy va ma'naviy madaniyati, diniy tasavvurlari) bilan ajralib turgan mayda etnografik guruhlar — mikroetnoslar ham mavjuddir.

Ba'zi xalqlar diniy e'tiqod asosida o'ziga xos mikroetnoslar va makroetnoslar birligi bilan ham farqlanadilar. Masalan, butun Janubiy Osiyo xalqlari feodalizm davrida paydo bo'lgan induizm tevaragida turli tildagi xalqlarni biriktirgan makroetnoslar bo'lsa, Filippin xalqining bir qismi islom dini e'tiqodi asosidagi maro nomli elatlardir. Erondagi gebrlar (zoastrizm tarafdorlari) yoki Xitoydagi musulmon (dungan)lar mikroetnos sifatida maxsus etnografik guruhlarini tashkil qilganlar. Makroetnoslarga sotsial-iqtisodiy formatsiyalar yoki siyosiy birlik asosida paydo bo'lgan yirik guruhlar ham kiradi. Masalan, mustamlakachilikda ozod bo'lgan, o'tmishda an'anaviy-maishiy jihatdan mustaqillikka intilib, ijtimoiy taraqqiyot yo'lida umumiy maqsadlarga erishgan Osiyo va Afrika mamlakatlarining ko'pchiligi mazkur makroetnoslardan iboratdir.

Agar elat va xalqlarning tashkil topishi ijtimoiy xarakterga ega bo'lsa, irqlarning paydo bo'lishi biologik asosga egadir. Shuning uchun ham etnoslar bilan irqlarning joylanishi bir-biriga kamdan-kam muvofiq keladi, aslida esa irqlar qit'alarining katta hududlarida joylashib, turli va har xil tildagi etnoslarni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, Afrikada yashab bir necha tilda so'zlashadigan xalq va elatlar negroid irqiga oid bo'lsa, Shimoliy Amerikada turli irqlardagi kishilar bir tilda so'zlashadigan Amerika millatini tashkil qiladi.

Xullas, ko'p sonli jahon xalqlarini tartibga solib, klassifikatsiyalash ancha murakkab masaladir. Ba'zi olimlar xalqlarni bir vaqtda ham irqiy, ham til yaqinligi asosida sistemalashtirishga intiladilar. Ular insonlarini uch-besh irqqa bo'lib, irqlarni esa, til guruhlariga bo'ladilar. Bunday klassifikatsiya metodologik jihatdan xatodir, chunki irqiy belgilar bilan lingvistik xususiyatlarni aralashtirish mutlaqo mumkin emas. Bunga zid holda sovet fanida xalqlarni etnosga xos ikki belgi — madaniyat va til bilan klassifikatsiya qilish qabul qilingan. Undan tashqari tarixiylik prinsipiga asoslangan marksistik etnografiya xalqlarni madaniy yaqinligiga qarab «xo'jalik-madaniy tiplar» yoki «tarixiy-madaniy viloyatlar»ga bo'lib o'rganadi. Ba'zan etnoslarni geografik prinsiga, dinga, tarixiy darajasiga qarab ham farqlaydilar.

Antropologik jihatdan hozirgi xalqlar so'nggi ilmiy klassifikatsiya asosida to'rt katta irqqa bo'linadi: negroid (afrikan), yevropoid (evroosiyo), mongoloid (osiyo-amerika) va avstraloid (okeaniya) katta irqlari. Negroidlarning soni o'tgan asr so'ngidagi ma'lumotlari bo'yicha butun dunyoda 250 milliondan ortiq (negrlar, negrilli, bushmen va gottenotlar); negroid va yevropoid aralashishidan paydo bo'lgan 352,6 millionli irqlar efiop tipi, sudanliklar, mulatlar) ham shularga kiradi; eng katta yevropoid (evroosiyo) irqi 1 milliard 793,3 million kishidan iborat bo'lib, unga aralash tiplar (metislar, mulatlar) ham kiradi; mongoloid (osiyo-amerika) katta irqiga oid aholi soni 704 milliondan ortiq; aralash tiplar 672,2 million, Tinch okean mongoloidlari 664 million kishi, Janubiy Osiyo guruhi 542,4 million va yaponlar tipi 11 million kishidan iborat; avstraloid (okeaniya) katta irqi (veddoidlar, avstraliyaliklar, aynlar, melaneziyaliklar va papuaslar) soni 9,4 million kishini tashkil qiladi. Irqiy tafovut faqat tashqi jismoniy belgilari bilan aniqlanadi. Har bir katta irq ichida mayda guruh va tiplar ham mavjud.

Etnoslarning shakllanishida va ularni farqlashda til asosiy rol o'ynaydi. Til birligiga qarab ayrim xalq va elatlar aniqlanibgina qolmay, ko'pincha til asosida nom ham beriladi. Lingvistik xarakteristika tarixiy-qiyosiy o'rganish orqali aniqlanadi. Odatda kelib chiqishi bir bo'lgan xalqlardan til yaqinligi bo'ladi. Shu asosda eng katta til oilalari va guruhleri quyidagicha bo'linadi: hind-yevropa oilasida 1 mlrd. 861 million kishi gapiradi, shulardan eng katta guruhleri — germanlar (403,9 million), romanlar (482 million), hindiyalar (595,6 million), slavyanlar (271 million), eroniyalar (65 million) semit-xamit (afroosiyo) oilasida 147,9 million kishi semit xalqlari; dravid oilasi 154,1 million kishidan biroz; Ural oilasiga 23,4 million, oltoy oilasiga 96,9 million, xitoy-tibet oilasiga 864,7 million, Nigero-kordofa oilasiga 212,6 million, avstroneziya oilasiga 191,3 million, avstroosiyo oilasiga 64,5 million kishi kiradi. Tillar morfologik (so'z tuzilishi) va geneologik (kelib chiqishi) yaqinligi asosida farqlanadilar. Geneologik klassifikatsiya etnologiya fani uchun muhim ahamiyatga ega, chunki xalqlarning kelib chiqishi (etnogenezi)ni o'rganishda katta yordam beradi.

Jahonda ikki tilli etnoslar ham kam emas, masalan, bir irqdagi Belgiya va Shveytsariya aholisi ikki yoki uch tilda so'zlashadilar. Bizning mamlakatimizda millati rus bo'lmagan aholining yarmidan ko'pi o'z ona tilidan tashqari rus tilini ham biladi. Ilgari mustamlaka bo'lgan Osiyo va Afrika mamlakatlarining deyarli hammasida ikki til — mahalliy va rasmiy davlat tillari mavjud. Hindistonda rasmiy hindi tili bilan birga yuzlab boshqa tillar ham bor. Pokistonda — urdu, Indoneziyada — baxsa — indonezia, Filippinda — tagalog, Afrika mamlakatlarining ayrimlarida rasmiy ingliz yoki fransuz tillari bilan bir qatorda mahalliy tillarda ham so'zlashiladi.

Tillarning geografik chegaralari doimo o'zgarib turgan. Agar arab tili paydo bo'lgan vaqtda (VII asrdan oldin) undan faqat Arab yarim orolining janubidagina yashovchi qabilalar foydalangan bo'lsa, hozir bu tilda Shimoliy Afrika va Janubi-sharqiy Osiyoda joylashgan juda ko'p xalqlar so'zlashadi. Yoki ingliz tilini olsak, unda dastlab faqat Britaniya orolidagi aholi so'zlashgan bo'lsa, hozir Yevropa va Shimoliy Amerika aholisining beshdan bir qismi, Avstraliya va Yangi Zelandiya xalqlari asosan, shu tilda so'zlashadilar. Kichkina Pireney yarim orolida paydo bo'lgan ispan tili hozir butun Lotin Amerikasiga tarqalgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin etnos (qabila, elat)larning birlari bilan yaqinlashib aralashib ketishi (konsolidatsiya), bir xalqning ichida yashab unga singib ketishi (assimilyatsiya) kuchaygan edi. Ayniqsa, milliy ozodlik kurashi natijasida mustaqillikka erishgan, xalqlar o'z davlati, hududiga ega bo'lib, sotsial-iqtisodiy reformalar orqali xo'jalik va maishiy turmushiga tub o'zgarishlar kiritib, etnik konsolidatsiya jarayoniga zo'r ta'sir boshlaganlar. Oqibatda qavm-qarindosh, qabila va elatlardan yangi xalq va yangi millatlar shakllana boshlagan edi. Bunga ilgari qabilaviy tuzumga ega bo'lgan xausa, yoruba, akan, ibo kabi Afrikada yashovchi xalqlar misol bo'la oladi. Etnik konsolidatsiya Hindistonda, Filippinda va boshqa Osiyo mamlakatlarida ham tez sur'atlar bilan sodir bo'lmoqda.

Assimilyatsiya, odatda, iqtisodiy jihatdan taraqqiy qilgan mamlakatlarda ro'y beradi va o'zining milliy mavqeini saqlab qolgan xalqlar orasida yashovchi mayda etnik guruhlar uzoq davr mobaynida yaqin munosabatda bo'lib yirik millatlarning tili va madaniyatini o'zlashtirib unga singib ketadi va o'zini shu millat vakili hisoblaydi. Bunday jarayon turli xildagi etnoslarga tegishlidir. Unga mayda millatlar, immigrantlar va hatto o'zining etnik hududiga ega bo'lgan ba'zi xalqlar ham kiradi. Assimilyatsiya sur'ati asosan, yirik millat, mayda etnoslarning til va madaniy yaqinligi, milliy va siyosiy birlik hissiyoti, o'z vataniga aloqadorligi, joylanish xarakteri (tarqoq yoki turg'un holda), irqiy va diniy xususiyatlari va hokazolarga bog'liq bo'ladi. Ammo assimilyatsiya tabiiy yoki zo'rma-zo'rakilik oqibatida ro'y berishi mumkin. Tabiiy assimilyatsiya uzoq vaqt davomida sotsial-iqtisodiy taraqqiyot va madaniy aloqaning yaqinligi oqibatida sodir bo'ladi. Bunda madaniy-xo'jalikning birligi negizida etniklar integratsiya, ya'ni turli etnoslarning yaqinlashish jarayoni ham ro'y beradi. Milliy nizolarga to'la kapitalistik mamlakatlarda, ayniqsa, mustamlakachi davlatlarda, o'z milliy huquqiga ega bo'lgan etnos vakillarini zo'rlik bilan o'z ona tili va madaniyatidan mahrum etish siyosati orqali hukmron millatning til va madaniyatiga o'tishga majbur etiladi. Qurama elat va xalqlardan tashkil topgan AQSHda zo'rlik assimilyatsiya ochiqdan-ochiq amalga oshirilmoqda. Hozirgi davrdagi urbanizatsiya va migratsiya jarayoni ham etnoslarning yaqinlashishi va aralashib ketishiga ta'sir qiluvchi omillar hisoblanadi.

Jahonda faqat bir millatdan tashkil topgan davlatlar juda kam chunki siyosiy va etnik chegaralar ham doimo to'g'ri kelavermaydi.

Faqat Yevropa va Lotin Amerikasida davlatlarning tashkil topgan davri milliy shakllanish davri bilan to'g'ri kelganligi tufayli muayyan, yagona millatlar siyosiy chegara doirasida yuzaga kelgan. Ammo bu kabi mamlakatlarda ham migratsiya va boshqa turli sabablarga ko'ra ozmi-ko'pmi boshqa millat vakillari ham yashaydi. Masalan, Yaponiyada mayda millatlardan aynlar, koreyslar, Markaziy va Janubiy Amerikada ispan va portugal tilida so'zlashuvchi asosiy millatlar (meksikalik, chililik, perulik, braziliyalik va hokazo)dan tashqari immigrantlar va hindilar ham mavjud. Ayrim davlatlarda esa o'nlab, yuzlab turli etnoslar yashaydi (Rossiya, Hindiston, Eron, Afg'oniston, Nigeriya va hokazo).

Yevropaning etnik qiyofasi nihoyatda murakkab. Bu yerda asrlar davomida xilma-xil qabila, elat va xalqlar paydo bo'lib, mahalliy etnoslar bilan aralashib ketgan. Mazkur jarayon uzluksiz davom etib kelgan va natijada dastlabki tub aholi to'g'risida aniq ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Ularning lingvistik tarixi ham chalkash. U yerdagi hozirgi millatlar o'z milliy davlatlari chegarasi doirasida asosan, o'tgan asr o'rtalarida shakllangan.

Yevropada yashovchi deyarli yarim milliard aholining ko'pchiligi (o'ndan to'qqiz qismi) hind-yevropa til oilasining uchta yirik til turkumi — roman, german va slavyanlardan iborat. Qolgan katta qismi grek, kelt va alban til turkumlariga oid va qisman ural til oilasiga kirgan finno-ugor til turkumining vakillaridir. Roman til turkumiga janub va g'arbda yashovchi italyanlar, fransuzlar, vallonlar, ispanlar, portugallar, ruminlar kiradi. Sharqiy va janubi-sharqiy Yevropada slavyan tillarida so'zlashuvchi cheklar, slovaklar, polyaklar, lujichanlar, bolgarlar, chernogorliklar, xorvatlar, «musulmonlar», makedoniyaliklar va bosniyaliklar yashaydi. German tilida so'zlashadigan avstriyaliklar, nemislar, gollandlar, flamandlar, shvedlar, norveglar, daniyaliklar, ispanlar, inglizlar, lyuksemburgliklar, elzasliklar va qisman Shveysariyaliklar Markaziy G'arbiy va Shimoliy Yevropada yashovchilar. Hozir faqat Irlandiyada, qisman Shotlandiyada, Angliya va Fransiyaning Breton yarim orolida qadimgi davrdan keng tarqalgan kelt tilida so'zlashadigan elatlarning avlodi yashaydi. Eng qadimgi vaqtlardan Pireney yarim orolining shimolida va qisman Fransiya yashayotgan basklar hech bir til oilasiga kirmaydigan maxsus tilda so'zlashadilar. Vengerlar yoki madyarlar, finlar, soamlar va loparlar finnougor til oilasiga oid. Bolqon yarim orolida va janubda yashovchi turklar,

tatarlar va gagauzlar esa turkiy tillarda soʻzlashuvchi etnik guruhlardir. Faqat Malta orolida arab tili saqlanib qolgan. Bir milliondan ortiq yevropalik yahudiylar asosan, nemis tili shevasida yoki oʻzlari yashayotgan mamlakatda keng tarqalgan tillarda soʻzlashadilar.

Jahon aholisining yarmiga yaqini Osiyoda joylashgan boʻlib, mingdan ortiq etnik tuzilishi, tili, madaniy-iqtisodiy darajasi va maishiy turmushi bilan bir-biridan farq qiladigan turli elat va xalqlar yashaydi. Osiyoning koʻp qismi odamning vatani (yaʼni antropogenez)dir. Bu yerda juda koʻp dastlabki qadimiy tillar, asosiy irqlar shakllangan, qadimgi madaniyat markazlari, jahon dinlari (nasroniyluk, buddizm va islom) paydo boʻlgan. Yuz milliondan ortiq aholiga ega boʻlgan xitoylar, hindistonliklar, yaponlar, bengalliklar, 26 ta oʻn milliondan ortiq aholi xalqlar bilan bir qatorda bir necha ming va hatto bir necha yuz ming kishidan iborat juda koʻp mayda qabilalar ham mavjud.

Yaponiya, Koreya, Bangladesh va koʻpgina arab mamlakatlari milliy birlik jihatdan ajralib turadi (asosiy xalq 95 foizini tashkil qiladi). Birma, Vetnam, Iroq, Kampuchiya, Suriya, Turkiya, Xitoy, Shri-Lanka aholisining 75 foizi yagona xalqdan iborat. Afgʻoniston, Eron, Hindiston, Pokiston, Indoneziya, Filippinlar murakkab koʻp millatli mamlakatlarga kiradi. Ayrim xalq va elatlar (kurdlar, balujiylar, panjoblar, bengallar) bir necha davlat hududida joylashgan. Baʼzi etnik guruhlar hozirgacha ham xalq boʻlib shakllanmagan, hatto ularda urugʻ-qabilachilik munosabatlari saqlanib qolgan.

Osiyoliklarning tillari ham etnik tuzilishi singari nihoyatda xilma-xil va murakkab. Masalan, faqat Hindistonning oʻzida 1652 xil til va turli shevalar mavjud. Eng qadimgi til oilalariga oid dravid, munda, xitoy-tibet, tay, avstroosiyo, avstroneziya, semit-xamit va hind-yevropa xalqlari ham Osiyo qitʼasida yashaydi. Oltoy til oilasi hozirgi Moʻgʻuliston va Shimoliy Xitoyda paydo boʻlib, keyin boshqa yerlarga tarqalgan. Xitoy-tibet (tay va tibet-birma guruhleri), avstroosiyo (vetnam, monxmer, munda, myao-yao turkumlari), dravid, astroneziya (indoneziya, filippin, malayya, melaneziya guruhleri) tilida soʻzlashadigan xalqlar qadimdan koʻpchilikni tashkil qilib bir hududda yashab kelmoqdalar.

Yevropa qitʼasidan uch hissa katta hududga ega boʻlgan Afrikaning etnik qiyofasi tabiati singari boy va rang-barangdir.

Yevropa olimlari uni ilgari «qora qit'a» deb atab, etnik tuzilishi o'zaro bog'liq bo'lmagan turli qabilalardan iborat, deb noto'g'ri ta'riflaganlar. Albatta mustamlakachilikning asosiy obyekti bo'lgan, vatandan mahrum etilgan yuz minglab negrlarni qul qilib sotgan Afrika qit'asi bir necha asrlar davomida taraqqiyotdan chekkada qolgan edi. Lekin bu yerda bir necha millionli (misrliklar, jazoirliklar, marokashliklar, amxaraliklar) hozirgi millatlar, yirik xalq va elatlar (Nigeriyadagi xausa va fulba) bilan bir qatorda hozirgi kunda ham daydilik, sargardonlik va ovchilik bilan shug'ullanib kelayotgan urug'chilik tuzumida yashayotgan etnografik guruhlar ham uchraydi. Afrika mamlakatlarining ko'pchiligi milliy ozodlik kurashlari tufayli mustaqillikka erishib erkin taraqqiyot yo'liga o'tib oldilar. Oqibatda sotsial, madaniy va siyosiy jihatdan katta yutuqlarni qo'lga kiritayotgan etnoslar milliy birlikka ham erishmoqdalar.

Hozirgi Afrikada 200-250 ta xalq yashaydi. Ular mustamlakachilar tomonidan sun'iy ravishda bo'lib olingan davlatlar orasida joylashgan. Masalan, mandingo xalqi Senegal, Mali, Fil Suyagi Qirg'og'i, Gambia, Sere-Leone, Liberiya, Gvineya hududlarida yashaydi. Yoki fulbe xalqini olsak u ham Senegal, Nigeriya, Gvineya, Mali, Kamerun, Yuqori Volta, Benin, Mavritaniya, Gambia kabi mamlakatlarda yashaydi. Akan, mosi, eve kabi etnik guruhlarining taqdiri ham xuddi shunday. Shuning uchun ham qit'ada bir millatdan tashkil topgan bitta ham davlat yo'q.

Afrika qit'asidagi bir milliondan ortiq bo'lgan 83 ta xalq qit'a aholisining 86 foizini tashkil qiladi. Jumladan, ular asosan, — misrliklar (37 million), xauslar (15 million), jazoirliklar (14 million), amxaraliklar (1 million), marokashlar (12 million), ibo va fulbe (12 million), yoruba (11million) va boshqa xalqlardir. Shunisi xarakterliki, qit'ada yashovchi etnoslarning hammasi tub aholi, asosan, hozirgi hududda paydo bo'lib shakllangan elatlardan iborat. Albatta uzoq tarixiy davr ichida ayrim etnoslarning migratsion siljishlar natijasida doimo aralashish jarayoni ro'y berib turgan. Ammo bu jarayon, asosan, shu qit'a doirasida o'tgan. Faqat shimoli-sharqiy tomonda, Osiyoning g'arbi-janubiy qismida qarindosh etnoslarning ko'chishlari bo'lib turgan.

Lingvistik jihatdan Afrika aholisi to'rt tillik til oilasiga kiradi: semit-xamit (yoki afroosiyo), niger-kordofa, nil-saxara va koysan xalqlari. Qit'aning shimolida va shimoli-sharqida yashovchi semit-xamit xalqlari aholining uchdan bir qismini tashkil qiladi.

Semitlardan eng ko'pi Afrika aholisining (83 million) beshdan bir qismini tashkil etadigan arab xalqlaridan iborat. Keyingi amxara va kushit, tigray va chad guruhlariga kiradigan xalqlar semit-xamit til oilasining vakillaridir.

Yarim milliardga yaqin aholiga ega bo'lgan Amerika qit'asining etnik tuzilishi ham tabiati singari rang-barang. Ammo bu yerda odamzod paydo bo'lmagan. Dastlabki kishilar 30 ming yillar muqaddam Osiyo bilan Amerika qit'asi birikkan vaqtda paydo bo'la boshlaganlar. Turli qabila va irqlardan iborat kelgindi aholi avval Shimoliy Amerikada, keyin janub tomon ko'chib, keng hududga tarqalgan. Okean suvlarining ko'tarilishi natijasida 12 ming yillar muqaddam Chukotka bilan Alyaska yarim orollari bo'linib ketishi oqibatida Amerika qit'asi eski dunyodan ajralib qoladi. Qit'adagi eng oxirgi oqim eskimoslardir.

Yevropaliklar kelgunga qadar rivojlangan dehqonchilik madaniyati yaratgan xalqlar atstek, mayya va inklar Janubiy Meksika, Markaziy Amerika va And tog'larida yashaganlar. Shimoliy va Janubiy Amerikaning bepoyon preliy dashti biyobon va changalzor o'rmonlarida ovchilik, terimchilik va baliqchilik bilan shug'ullanuvchi mayda qabilalar joylashgan. Yevropa istilochilari mahalliy xalqlar (hindilar)ni bo'ysundiribgina qolmay, ancha qismini qirib tashlaganlar, ko'p qabilalar yevropaliklar keltirgan turli kasalliklar tufayli qurbon bo'lgan yoki juda kamayib ketgan. Faqat yuqori taraqqiyot darajasiga ko'tarilgan xalqlar (kechua, aymara, guarani va hk.) o'ziga xos madaniyati va etnik hududini qisman saqlab qolishga muyassar bo'lganlar.

Antropologik jihatdan Amerika qit'asining aholisi turlicha. Anglo va frankokanadaliklar, asosan, yevropoid, Urugvay, Argentina va Kosta-Rika xalqlari hindilar aralashuvidan tashkil topgan (meksikaliklar, gvatemala, salvador, gonduras, nikaragua, panama, paragvay, chile, peru, ekvador, boliviyaliklar) metislar, ya'ni yevropaliklar bilan hindilar avlodlaridan shakllangan xalqlar, puertorika va kubaliklar oq tanli, qora tanli va mulatlardan paydo bo'lgan qurama etnoslardir. Braziliya, Venesuela va Kolumbiya xalqlarining irqiy tuzilishida yevropoid, negroid va hindilar ishtirok qilgan bo'lib, bu jarayon hali ham davom etmoqda. Amerikaning tub aholisi hisoblangan hindilarning o'zlari katta mongoloid irqining maxsus turkumiga oid. Ular asl mo'g'ullardan baland bo'yi va burgutsimon uzunroq

burni bilan farq qiladilar. Eskimoslarda mongoloid belgilari ancha kuchli.

Amerika tub aholisining tillari o'ziga xos xususiyatlarga ega va grammatik tuzilishi jihatdan boshqa qit'a xalqlarining tillaridan farq qiladi. Ko'pchilik olimlar qabul qilgan klassifikatsiyaga binoan tub aholida 20 ga yaqin til oilalari mavjud bo'lgan. Shulardan eng yiriklari Shimoliy Amerikadagi eskimosaleut, algonkinvakash, na-dene, siu-xoka, Markaziy va Janubiy Amerikadagi yuto-tano-atstek, Mayya-soke, chibcha, kechua, aymara, karib, aravak, tupi-guarani, chon til oilalaridir. Mazkur tillardan tashqari har xil mayda til turkumlari va shevalari ham bo'lgan. Mayya, kechua, aymara, atstek kabi tillarda so'zlashadigan xalqlar qadimdan yuksak madaniyat yaratgan va hatto o'z yozuviga ham ega bo'lgan.

Etnografiya fanida Amerikaning tub aholisini odatda tiliga qarab emas, balki madaniy-xo'jalik tiplari klassifikatsiyasi asosida ta'riflaydilar. Bunday tiplarga bir necha tillarda so'zlasha oladigan va har xil davrda paydo bo'lgan etnoslar kirishi mumkin. Masalan, Markaziy Amerikada va Janubiy Amerikaning shimolida yashagan ko'p yirik xalq va elatlar mustamlaka arafasida sinfiy jamiyat darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, ayrim qabilalar esa urug'chilik tuzumida yashaganlar.

Beshinchi qit'a — Avstraliya va bepoyon Tinch okeani orollari (Okeaniya) aholisi ikki qism: aborigan (tub aholi) va kelgindi yevropalik, osiyolik va amerikaliklardan iborat. Hozir tashqaridan kelib joylashgan aholi butun aholining beshdan to'rt qismini tashkil qiladi va asosan, ingliz tilida so'zlashadilar.

Avstraliya va Okeaniyaning ba'zi xalqlari Yevropa mustamlakasi arafasida (XVIII—XIX asrlar) o'zlarining xo'jalik faoliyati va ijtimoiy tuzilishda juda qadimiy ibtidoiy formalarni saqlab kelganlar. Polineziyaliklar va qisman melaneziyaliklar avstriyaliklarga nisbatan ancha yuqori pog'onada turganlar va hatto sinfiy jamiyatga o'tganlar. Mustamlaka natijasida bu yerda yashovchi tub aholining moddiy va ma'naviy hayotida, ijtimoiy va madaniy turmushida jiddiy o'zgarishlar ro'y bergan, ularning ko'pchilik qismi o'ziga xos etnik xususiyatlarini yo'qotib yuborganlar, ayrim elatlar (masalan, tasmaniyaliklar) esa butunlay qirilib ketgan.

Kelgindi yevropaliklar tub aholining ko'p qismini serunum tuproqli qulay joylardan haydab chiqarganlar. Aborigen aholi bilan

ko'chib kelgan elat va xalqlar aralashib yangi etnoslar paydo bo'la boshlagan.

Ma'lumki, o'tgan asrning boshlaridan milliy ozodlik kurashi kuchayishi bilan mahalliy tub aholining milliy uyg'onishi ro'y beradi. Okeaniya orollarining ko'pchiligida tub aholi soni hatto ko'paya boshlaydi, ma'naviy madaniyat ustun chiqib ijtimoiy va maishiy turmushda jiddiy o'zgarishlar jarayoni avj ola boshlaydi. Mustamlakachilik kam bo'lgan joylarda, ayniqsa, Melaneziyada tub aholi o'ziga xos xususiyatli madaniyatini saqlab qolgan. Ammo ayrim polineziya xalqlari (gavayya, maori, taiti)ning ancha qismi Yevropa ta'siriga o'tgan.

Til jihatdan beshinchi qit'a aholisi maxsus avstroneziya til oilasini tashkil qiladi va tarixiy, madaniy va irqiy jihatdan odatda uch turkumga — polineziyaliklar, melaneziyaliklar va mikroneziyaliklarga bo'linadi. Avstraliyaning tub aholisini o'ziga xos avstraliya (yoki aborigen) tillari tashkil qiladi. So'nggi lingvistik klassifikatsiyalarga binoan Okeaniya tub joy aholisi ikki yirik guruh — papuas va avstroneziya til guruhlariga bo'linadi. Tabiiy sharoiti og'ir bo'lgan Yangi Gvineyadagi papuaslar kelgindi aholi bilan kam aralashgani uchun til va madaniy xususiyatlarini ancha mustaqil saqlab qolganlar.

Jahon xalqlarining ibtidoiy jamiyat davri (qadimgi tosh, bronza va temir asrlari)dagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, turli tabiiy sharoitda joylashishi va moslashishi ularning hayotida turli tipdagi xo'jalik-madaniyatlarini vujudga keltirgan edi. Xo'jalik-madaniy tiplar dastavval muayyan jamiyatda hukmron ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, har biri tarixiy davrda kishilarning tevarak-atrofdagi muhit bilan aloqa xarakterini belgilab beradi.

Mazkur tiplar kishilarning mashg'uloti va ishlab chiqarish qurollari, turar joylari va uy-ro'zg'or jihozlari, taomi va kiyim-kechagi, transport vositalari va boshqa moddiy-madaniy xususiyatlari bilan farqlanadilar. Hatto xo'jalik-madaniy tiplariga qarab muayyan jamiyatning ijtimoiy tuzumini ham aniqlash mumkin. Ma'naviy madaniyat xususiyatlari asosan, urf-odatlarida, tasviriy san'atida, e'tiqodi va folklarida yorqin namoyon bo'ladi. Xo'jalik-madaniy tiplarining birligi va o'zaro bog'liqligi muayyan ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot va bir-biriga yaqin geografik muhit bilan bog'liq bo'lib, o'zgaruvchan xarakterga ega.

Eng qadimiy davrlarda paydo bo'lgan etnoslarning xo'jalik-madaniy tipi issiq tropik va subtropik iqlimli o'lkalardagi ovchilik, terim-termachilik va sohillardagi baliqchilikdir. Dastlab kishilarning tirikchilik manbai o'tlar, mevalar, yerdagi va suvdagi hayvonlar, «ya'ni tabiat armug'on qilgan» tayyor mahsulotlar bo'lgan. Albatta, ularni iste'mol qilish uchun terib-termachlab olish va tayyorlash zarur edi. Ammo sun'iy ishlab chiqarish va parvarish qilishga zaruriyat qolmaydi. Shuning uchun ba'zan ovchilik, temirchilik va baliqchilikni «o'zlashtirish» xo'jalik turi deb ataydilar. Yaqin davrlargacha issiq iqlimdagi terimchi ovchi qabilalar Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyoda yashaganlar. Ularga Kongo vohasidagi pigmeylar, Shri-Lankadagi veddalar va Janubiy Amerikaning ba'zi hindi qabilalari kiradi. O'ziga xos terimchilik va baliqchilik xo'jaligi bilan Janubi-sharqiy Osiyo orollarida yashovchi elatlar, jumladan, andamanliklar shug'ullanganlar. Cho'l va yarim sahro ovchi va terimchilariga Avstraliya tub joy aholisi, Afrika bushmenlari, hindi qabilalaridan botokuda va boshqalar, Patagoniyadagi, Shimoliy Afrika va Markaziy Osiyo ko'chma qabilalari kiradi. Sovuq iqlimda joylashgan aholi (Sibirdagi xanti-mansi, nivxi, nanay, ulchi, Kamchatka intelmenlari, Shimoliy Amerika, Tinch okeani sohillari hindilari) katta daryolar vohasidagi va dengiz bo'yi baliqchilik xo'jaligini tashkil qiladilar. Sibirlik yukagir va boshqa ayrim elatlar, Primordagi udegey va orochilar, qisman Shimoliy Amerika algonkin va atapasik tayga ovchilari, shimolroqda subarktik sharoitida tundra o'rmon ovchilari ham mazkur xo'jalik tiplariga oidlar.

Neolit davrida paydo bo'lgan chopqi dehqonchiligi va chorvachiligi ham juda keng tarqalgan madaniy-xo'jalik turlaridandir. Bu xo'jaliklar nisbatan barqaror ishlab chiqarish sohasi bo'lib, turli o'simlik mahsulotlari va moddiy buyumlarni tejash, mol ko'paytirish va hatto qo'shimcha mahsulot yaratishga qodir bo'lgan. Oqibatda mulkiy tengsizlik va sinfiy tafovutlar yuzaga kelib, ilk sinfiy jamiyatning paydo bo'lishiga zamin yaratiladi. Mazkur madaniy-xo'jalikda hunarmandchilik ham yuksak darajga ko'tarilib mustaqil sohaga aylanadi. Bu tipga kiradigan xalqlar tabiiy sharoitga qarab bir necha guruhga bo'linadi.

Namli tropik va subtropik joylarda ikkinchi madaniy-xo'jalik tipi, ya'ni issiq iqlimdagi qo'l chopqi dehqonchiligi tarqalgan bo'lib, bunga qisman ovchi-terim-termachilik va baliqchilik xo'jaliklari ham yordamchi hisoblangan. Hindistondagi ayrim elatlar, Hindixitoy,

Janubiy Xitoy, Indoneziya va Filippindagi ba'zi xalqlar, papuaslar va melanziyaliklar, Tropik Afrika, Amerikadagi Amazonka va Orinoko vohasidagi qabilalar mazkur tipga oid etnoslardir. O'ziga xos tog'li chopqi dehqonchiligi salqin kontinental iqlimli Markaziy Osiyoning Tibet va unga yaqin xalqlarida mavjud. Himolay va Hindiqush, Pomir, Kavkaz, Alp, Pireney va Janubiy Amerika And tog'larida ham shu tipdagi chopqi dehqonchiligi bilan shug'ullanuvchi elatlar yashagan. Dasht va tog' etaklaridagi juda ko'p xalqlar, ayniqsa, quruq iqlimli joylarda sun'iy sug'orishni kashf etganlar. O'sha davrlardayoq Yevroosiyoning bepoyon dasht va o'rmon-dashtlarida podachi chorva va chopqi dehqonchiligi xo'jaliklari paydo bo'lgan.

Iqtisodiy va texnikaviy taraqqiyotda yangi sifat yaratgan uchinchi madaniy-xo'jalik tipi chopqi dehqonchiligi bilan chorcachilikning qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan edi. Agar ishchi hayvon kuchi ishlatilmasa yerga haydov berish qurollari (omoch, plug) ham bo'lmas edi. Yerga haydov berishga asoslangan dehqonchilikning paydo bo'lishi ishlab chiqarishni o'stirib, jamg'arish va ekspluatatsiya qilishni kuchaytirgan. Bu davrda hunarmandchilik ham qishloq xo'jaligidan ajralib chiqadi va asta-sekin manufaktura yuzaga keladi, keyin zavod-fabrika sanoati paydo bo'ladi. Osiyo, Afrika va Yevropada bir necha asrlar kapitalizmga hukmron bo'lgan sinfiy jamiyatlarning bosh iqtisodiy zamini shubhasiz, haydalma dehqonchilik edi. Yerni haydash Amerikada faqat XVI asr, Yevropa mustamlakasidan keyin paydo bo'lgan, Avstraliya va Okeaniyada esa undan ham keyin (XVIII-XIX asrlarda) tarqalgan.

Bizning zamonamizda avj olgan sanoat va fan-texnika taraqqiyoti butun jahonda an'anaviy xo'jalik-madaniy tiplarga jiddiy o'zgartirishlar kiritdi. Yevropa va Amerika qit'alaridagi eng rivojlangan mamlakatlarda aholining ko'pchilik qismi industrial faoliyatga tortilib, an'anaga aylanib qolgan qishloq xo'jaligi o'rniga yuksak taraqqiy qilgan tovar dehqonchiligi, intensiv tovar chorcachiligi, tropik iqlimli hududlarda plantatsion qishloq xo'jaligi paydo bo'lgan edi.

Demak, nihoyatda xilma-xil va rang-barang, katta va kichik turli etnoslar jahonda mavjud. Ular o'zlarining tabiiy geografik sharoiti, tarixiy shakllanib kelgan tili va milliy xususiyatlari, joylashishi va turar joylari, milliy arxitektura va uy-ro'zg'or buyumlari, taomlari va iste'mol usullari, turmush tarzi va urf-odatlarini, xalq og'zaki ijodi

va san'at namunalari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ammo bir sayyorada yashovchi barcha elat va xalqlar yagona insoniyatni tashkil qiladi.

§-5. ETNOGENEZ VA ANTROPOGENEZ MUAMMOLARI

Hozirgi yer kurrasining etnik qiyofasi nihoyatda murakkab va rang-barang, chunki keyingi ma'lumotlarga qaraganda, jahonda uch mingdan besh minggacha etnoslar va etnik guruhlar mavjud bo'lib, ular taxminan ikki yuzta mustaqil davlatlarda yashamoqdalar. Tabiiyki, bunday ko'p sonli xalq va elatlarning etnogenezi, ya'ni kelib chiqishi va etnik tarixini o'rganish etnologiya fanining eng og'ir va to'liq yechilmagan chigal muammolaridan hisoblanadi. Keyingi yarim asrda olimlarning bu masalada keng qamrovli yondashish usuli orqali olib borgan tadqiqotlari birmuncha samarali natijalarni bergan edi.

Etnogenetik muammolarni hal qilishdagi yangi ilmiy tamoyillarning paydo bo'lishida rus etnolog va antropolog olimlarining xizmatlari katta. Ular jahon fanida birinchi bo'lib etnogenetik tadqiqotlarni o'tkazishda aniq va to'g'ri metodika va metodologiyani keng qamrovli usulda o'tkazish yo'llarini ko'rsatib bergan edilar. Bunday murakkab muammolarni haqiqatdan ham faqat shu usulida, fanning ko'p sohaları ishtirokida tarix, antropologiya, lingvistika, xo'jalik, moddiy va ma'naviy madaniyat, demografiya, siyosat, hatto etnobotanika, etnozoologiya kabi tabiiy fanlar va boshqa omillar orqali hal qilish mumkin.

Etnogenetik tadqiqot dastavval etnos va etnik guruhlar bilan bog'liq «genezis» atamasini tushunib olish va uni amalda ilmiy jihatdan to'g'ri ishlatishdan boshlanadi. Asli jahon fanida etnogenez so'zining etnologik mohiyati madaniy va ijtimoiy antropologiyada qabul qilinganidek, etnik guruhlarining tarixiy kelib chiqishi jarayoni tushuniladi va bu atama antropogenez, ya'ni odamning paydo bo'lishi va shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan ilk insoniyat va jamiyatlar rivoji bilan bog'liq bo'lgan.

Ma'lumki, arxeologiya va paleontologiya yutuqlari asosida odamzod *Homo sapiens* tipida 2 mln. – 20 ming yillar muqaddam shakllana boshlagan bo'lsa, ilk mehnat, til, din, san'at kabi ijtimoiy munosabatlar majmui 20 ming – 3 mln. yillar avval yuzaga kelganligi fanda aniqlangan. Lekin, keyingi besh ming yillar davomida insoniyat o'zining ilk etnik morfologiyasi (tuzilishi)ni

saqlab qolmagan va shu davr ichida bir necha marta etnik o'zgarishlar ro'y bergan. Bu jarayon hozirgacha davom etmoqda.

Demak, «genezis» so'zi lotincha «kelib chiqish» ma'nosida «etnos» atamasining qo'shilishi bilan xalq (elat)ning kelib chiqishi deb tarjima qilinadi va etnologiya fanining muhim va dolzarb muammosi hisoblanadi. Bu atama «sotsiogenez», ya'ni ilk jamiyatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda etnogenetik muammolarni birgalikda hal qilishni taqozo etadi.

Hozirgi fanda qabul qilingan umumiy konsepsiyaga binoan etnogenetik jarayon zamonaviy odamning 40 ming yillar muqaddam shakllanish davri bilan bog'liq. Ammo haqqoniy genezis to'g'risidagi ma'lumotlar neolit davriga oid bo'lib, bu vaqtda urug'-qabilachilik munosabatlari shakllanib tugagan edi. Agar odamzodning yagona markazda paydo bo'lganligi to'g'risidagi gipoteza (faraz) rost bo'lsa, insoniyat tarixining boshlanishida odamlar guruhi irqiy, etnik, ijtimoiy va boshqa jihatdan bir xilda bo'lganligi shubhasiz. Keyinchalik odamlar soni ko'paygan sayin yuz ming yillar davomida boshqa geografik va iqlimiy mintaqalarga ko'chishi, o'zaro uzoqlashishi natijasida dastlabki antropologik va etnik belgilari o'zgarib ketgan. Bunday jarayon tilga ham taalluqli: markazdan uzoqlashgan sayin nafaqat etnik tuzilishi balki dastlabki so'zlashuv tillari ham o'zgara boshlagan. Oqibatda, S.P. Tolstovning iborasi bilan aytganda, bir markazdan chiqqan etnoslarning ilk jamiyat paydo bo'lishi bilan shakllangan umumiy tillari odamlarning boshqa joylarga ko'chishi jarayonida asta-sekin uzoqlashib bir-biriga singib «dastlabki uzluksiz tillar zanjirini» yaratgan. Shuning uchun ham bir markazdan chiqib butun jahonga tarqalgan har xil tillarda ba'zi o'xshash yoki yaqin so'zlar hozirgacha ko'p uchraydi. Bunday jarayonda umumiy tillardan chiqqan shevalar, ba'zan yangi tillar ham paydo bo'la boshlaydi. Ayniqsa, mahalliy tub aholi soni ko'paygan sari etnogenez jarayoni urug', qabilalararo aloqani kuchaytirib, ularning etnik birliklari ayrim elat yoki xalq shaklida muayyan hududda paydo bo'lishiga, umumiy xo'jalik, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaatlar zaminida rivojlana boshlashiga turtki beradi.

Insoniyat tarixining ilk davrlarida etnogenez jarayoniga ba'zan bosqinchilik urushlari bilan birga sodir bo'lgan ommaviy migratsiya (ko'chishlar), ayrim etnik guruhlarning aralashib ketishiga, yoki yirik etnoslarga mayda urug'-qabilalarning singib ketishiga sabab bo'lgan. Ko'chish oqibatlari turli xilda namoyon bo'lgan. Masalan,

etnoslarning ayrim qismlari ilgari bu yerga o'zlashtirilgan yerlarga ko'chib borib mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Ko'riq va bo'z yerlarga ko'chib o'zligini saqlab yangi elat yoki xalq (etnos) sifatida ko'payishgan. Xususan, Amerikani kashf etilishidan ilgari bu yerga qadimiy osiyoliklarning ko'chib kelishi natijasida hindi qabilalarining paydo bo'lishi, so'ngra ular bilan kelgindi yevropaliklarning katta migratsiyasi oqibatida aborigen (tub) aholining aralashib ketishi juda ko'p yangi etnoslar – meksikaliklar, kolumbiyaliklar, peruliklar, chililiklar, braziliyaliklarni yuzaga keltirgan.

Etnogenez jarayonida barcha zamonlarda etnoslarning shakllanishi va rivojida til belgilovchi, muhim unsur bo'lib xizmat qilib kelgan. Lingvistlar bilan bir qatorda etnologlar tillarning qarindoshligini odatda etnoslarning qarindoshligi deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham, xalqlarning ko'chishi oqibatida turli tillar o'zaro yaqinlashib, aralashish ro'y beradi va bunday hodisa ilk jamiyat va davlatlarning paydo bo'lishi jarayoni bilan bog'liqligi aniqlangan. Albatta, mazkur jarayon tarixiy hodisa bo'lganligi tufayli etnogenez etnik birlik shakli – qabilaviy tuzumdan boshlanadi va bu tuzum xronologik jihatdan neolit davrida to'la shakllangan.

Yangi etnosning paydo bo'lishi ham asli mahalliy aholi (aborigen) bilan kelgindi (superstrat) etnik guruhlarning sintezi (qo'shilishi) natijasida yuzaga keladi. Tarixdan ma'lumki, bunday sintez nihoyatda xilma-xil bo'lib, ayniqsa, bir-biridan farqli turli elatlarning yaqinlashuvi natijasida ro'y bersa uzoq muddatda va har xil yo'nalishda bo'lib o'tadi. Shuning uchun xalqlarning kelib chiqishi va shakllanishi masalasiga har tomonlama yondashish zarur, ayniqsa, etnogenez muammosini tilning, madaniyat zamini, jismoniy tuzilishi, etnik ong va o'zini anglash kabi jihatlarini, o'zgarish jarayonlarini jiddiy o'rganish talab qilinadi. Jumladan, bir tilning ikkinchi til ustidan g'alaba qozonishi yoki aralashib ketishi sabablari va omillarini aniqlash juda ham muhim. Albatta, etnik guruhlarning yaqinlashuvi yoki birlashuvi ularning yozuv madaniyatida o'z aksini topadi. Chunki, yozuvsiz elatlarning etnik shakllanishida tez sur'atlarda tillar integratsiyasi amalga oshadi. Bunday holatda diniy va xo'jalik omillargina hal qiluvchi rolni o'ynashi mumkin.

Etnoslarning tarixiy-madaniy aloqalarini o'rganishda tillarning geneologik klassifikatsiyasi, til oilalari va guruhlariga bo'linishi va yaqinligi muhim ahamiyatga ega. Chunki til ko'rsatkichi etnik

qadriyatlarning noyob durdonasidir. Jonli tillarning qadimiy shakllarini o'rganish, so'z boyligi (fondi) va grammatik tuzilishi orqali etnogenetik jarayonlarni aniqlash imkoni tug'iladi. Yozuvi bor xalqlarda mazkur xususiyatlarni aniqlash imkoni katta.

Etnogenez masalalarini hal qilishda barcha etnoslarda boy geografik nomlar (etnotoponimiya), ismlar (onomastika), qadimiy elat va xalqlar nomlari (etnonim), og'zaki ijod namunalari ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Hatto odamlar yoki hayvonlarga beriladigan ism va laqablarda etnik guruhlarining nomlarini uchratish mumkin. Masalan, Sibirda, Osiyoning ko'p qismida, Kavkazda daryolar, tog'lar, vohalar, cho'li biyobonlarda qadimiy etnik nomlar hozirgacha saqlangan.

Barcha xalqlarning folklor namunalari: afsona va ertaklarda, doston va rivoyatlarda, musiqa va xoreografiya, amaliy san'at naqshlarida eng qadimiy etnoslar bilan bog'liq ma'lumotlar, etnonim va toponimlar, etnogenetik muammolarni yechishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi. Uy qurilishida va ro'zg'or buyumlarida, har xil yo'nalishlardagi xilma-xil naqsh hamda belgilar hozirgi etnoslarning etnogenetik ildizlarini aniqlashga yordam beradi.

Tabiiy geografik va iqlimiy sharoitga moslashgan moddiy madaniyatni belgilovchi omillar, ya'ni, uy qurish uslubi, bezak va kiyim-kechak, oziq-ovqat va idish-tovoqlar ham arxeologik qazilmalardan topilgan namunalar bilan hozirgacha saqlanib kelgan etnos va etnik guruhlarining etnogenetik tarixini tiklashda muhim manba hisoblanadi.

Agar ijtimoiy va oilaviy tuzum masalalari bilan bog'liq etnografik hujjatlarga murojaat qilsak, undagi an'anaviy va hozirgi davrdagi munosabatlarning mohiyatini yechib, nihoyatda qiziqarli etnogenetik xulosalar chiqarish mumkin. Masalan, barcha etnoslarning hozirgi maishiy turmushida ibtidoiy jamoatchilik an'analari, oilaviy munosabatlarda, nikoh va bola tarbiyasida eng qadimiy qadriyatlar mavjudligining guvohi bo'lamiz. Bunday etnografik ma'lumotlar uzoq o'tmishda yashagan etnoslarning ijtimoiy va oilaviy tuzumidagi qadimiy rishtalarini aniqlabgina qolmay, balki ularning etnik xususiyatlarini bilish orqali ba'zi etnogenetik muammolarini hal qilishda asqotadi. Ayniqsa, oilaviy-maishiy marosimlarda, o'lim va dafn qilish kabi konservativ udumlarda qadimiy odatlar hozirgacha yaxshi saqlangan.

Arxeologik kashfiyotlar, etnologik va etnolingvistik, paleantropologik va antropologik tadqiqotlar jahon xalqlarining etnogenetik jarayonlarini o'rganishga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Kompleks uslubga asoslangan mazkur yo'nalishlar ayrim mintaqalarda etnogenez muammolarini to'g'ri va jiddiy hal qilishda eng muhim omil bo'lganligini Markaziy Osiyo misolida aniq ko'rish mumkin. Keyingi davr ichida o'tkazilgan tadqiqotlarga qaraganda mintaqada bir necha ming yillar davomida murakkab etnogenetik jarayonlar kechgan, katta migratsiyalar ro'y bergan, asrlar osha chegaralari o'zgarib turgan o'ziga xos muayyan xo'jalik-madaniy tiplar, tarixiy etnografik joylar va etnik birikmalar, xalq va elatlar yuzaga kelgan.

Eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan hisoblangan Markaziy Osiyo va bepoyon Yevroosiyo dashtlarida eramizdan avvalgi III ming yillikda hind-yevropa til turkumiga oid tillarda gapiradigan juda ko'p ko'chmanchi qabilalar va o'troq elatlar yashagan. Ural tog'laridan Hind daryosigacha keng hududda yashagan mazkur qabila va elatlar faqat tili jihatdangina emas, xo'jalik faoliyati, madaniyati, kelib chiqishi jihatidan ham umumiy birlikka ega bo'lganligi aniqlangan. Bu etnik guruhlarining o'sha davrda o'zlarini «oriy» (ya'ni bir urug' odamlari) deb atagan qismlari qo'shni xalqlar tarixida muhim rol o'ynagan. Daryo qirg'oqlarida yashovchi «oriylar» dehqonchilik, tosh, mis va jez qurollar ishlab chiqarish bilan shug'ullangan bo'lsa, ko'chmanchi «oriylar» chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Eramizdan avvalgi II ming yillik oxirlarida jez (bronza) davrida fanda skif-sarmat, sak-massaget nomi bilan mashhur mazkur ko'chmanchi va yarim o'troq hind-eron qabilalarining bir qismi Qozog'istonga, Markaziy Osiyoning shimoliy qismiga joylashib, o'ziga xos yuksak madaniyat yaratganlar. So'g'diyona, keyinchalik ko'hna Xorazm, Marg'iyona va Baqtriyada yashovchi o'troq, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi, qadimiy tillarda gapiruvchi xalqlar bilan yaqin aloqada bo'lgan sak-massagetlar butun Yaqin va Markaziy Sharqni larzaga keltirib turgan. Gerodot va boshqa ko'pgina qadimgi yunon mualliflari ta'riflagan, buyuk Firdavsiyning o'Imas «Shohnoma»sida, jahon madaniyatining ajoyib durdonalaridan biri «Roland haqida qo'shiq» nomli fransuz eposida tilga olingan «U dashtu biyobon Ossiana yurtining xu-

doga ishonmagan qabilasi» asrlar davomida mashriqdan mag'ribgacha qo'shni davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

O'sha davrdagi skif-sarmat va sak-massaget qabilalari temirdan har xil mehnat qurollari hamda yaroq-aslahalar – xanjar, bolta, nayza, o'q-yoy uchi, xilma-xil badiiy bezaklar, katta g'ildirakli uchto'rt ot qo'shiladigan og'ir aravalar va harbiy yurishlarda ishlatiladigan yengil aravalar yasaganlar. Ular hatto chidamli yangi ot turlarini parvarish qilganlar, ilg'or urush aslahalariga ega bo'lganlar. Bepoyon Yevroosiyo dashtlarining u yer, bu yerida uchraydigan juda ko'p tepaliklarda dafn qilingan qabila boshliqlari va harbiylarning dabdabali qabrlarini qazish, tekshirish natijalari skif-sak-massaget qabilalarining yuksak madaniyatga va qudratli harbiy kuchga ega bo'lganligini ko'rsatdi. Qabrlarda jasad bilan ko'milgan turli harbiy qurollar, bezakli yugan va egarlar, aravalar, bejirim naqshli sopol buyumlar, go'zal haykallar, tilla-kumush, qimmatbaho duru javohirlardan ishlangan zargarlik buyumlari bunga yorqin dalildir.

Shunisi qiziqki, sak va skif-sarmat tepaliklarida topilgan buyumlar, ot-arava, tuya, qo'chqor, ilon va boshqa afsonaviy maxluqlar tasvirlangan rasm va haykallar o'tgan asrning oxirlarida Janubiy Tojikistonda kashf etilgan mashhur «Amudaryo xazinası» deb nomlangan buyum va bezaklarga, keyingi Ahmoniy, makedoniyalik Iskandar va Kushon davlati davriga oid topilmalarga o'xshab ketadi. Janubiy Qozog'iston tog' bag'irlarida va O'zbekistonning ko'p hududlarida qoyatoshlarga o'yib chizilgan ibtidoiy rasmlarda ham ot-tuya qo'shilgan aravalar, har xil hayvonlar – tuya, tog' echkisi, qo'chqor va boshqa g'alati maxluqlarning tasvirlanishi uzoq o'tmishda markaziy osiyoliklarning ma'naviy madaniyati bilan Yevroosiyo dashtlarida yashagan qabilalar madaniyatida qandaydir umumiylik, yaqinlik mavjudligidan dalolat beradi. Turkmaniston, O'zbekiston va Tojikistonning janubiy tumanlarida topilgan Jayhun madaniyati, Qoratepa, Oltintepa, Ayritom, Dalvarzintepa, Fayoztepa, Xalchayon, Nomozgohtepa, Yalong'ochtepa, yaqinda topilgan Axsikent va boshqa yodgorliklarda qilingan ajoyib kashfiyotlar ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Qazilmalarda topilgan buyum va bezaklarda ko'p uchraydigan afsonaviy tasvirlar, ayrim xudolarning timsolini ifodalovchi haykal va rasmlar uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizning diniy e'tiqodlari, urf-odatları to'g'risida mulohaza qilishga imkon beradi. Har xil idishlar,

xanjar va pichoq dastalari, bilaguzuk va isirg'alar, to'g'nag'ich va to'g'alarga yasalgan echki va qo'ylar, qanotli qo'chqorsimon yoki otsimon maxluqlar, yarim odam, yarim ilon yoki sher shaklidagi afsonaviy siymolar, tamg'a va muhrlardagi har xil qush va hayvonlarning tasvirlari oddiy san'at namunasi bo'libgina qolmay, balki ilk din shakllari, chunonchi totemizm va fetishizm bilan bog'liq tasavvurlar mahsulidir. Asosan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi markaziy osiyoliklar miloddan oldingi III–II ming yilliklarda yaratgan xilma-xil qush va hayvonlarning obrazlari (Qadimgi Mesopatamiya, Elam va Eronidagi singari) albatta, muayyan zoomorf, ya'ni hayvonsimon tasvirlar mavzuiga bog'liq dunyoqarashning aksidir.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Yevroosiyo dashtlarida yashovchi hind-yevropa aholisining xo'jalik, harbiy va madaniy hayotida miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalariga kelib jiddiy etnogenetik va ijtimoiy o'zgarishlar yuz bergan. Tabiat o'zgari-shi (havoning sovushi) va boshqa ba'zi sabablarga ko'ra o'sha davrda son-sanoqsiz dasht qabilalari harakatga kelgan. Yuqori-da qayd qilingan «oriylar» nomi bilan ma'lum hind-eron jamoasi ikkiga bo'linib, katta bir qismi Kavkaz tog'lari ustidan Old Osiyoga ko'chib o'tadi. Bu yerda ular mahalliy elatlarga otni parvarish etish va aravada jang qilish usulini o'rgatib, o'zlari tub aholi bilan aralashib, tarix sahnasidan yo'qolib ketganlar. Ularning Markaziy Osiyo shimolida yashagan ikkinchi qismi miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida janubdagi tog'dovonlaridan asta-sekin oshib, Shimoli-g'arbiy Hindiston, Go'mal, Svat va Gandxaraga ko'chib joylashganlar. Bu «buyuk ko'chish» natijasida mazkur qadimiy etnik guruh bosib o'tgan yo'lda hozirgacha qadimiy skif-sarmat qabristonlari, otlar dafn qilingan mozorlar, aravalar surati solingan tog' qoyalar uchraydi. Shubhasiz, mazkur qabilaviy birikmalar ancha uyushqoq tashkilotlarga ega bo'lib, o'zida ilk davlatchilik ko'rinishlarini zuhur etgani bilan muhim ahamiyatga ega.

Hozirgacha Shimoliy Hindiston aholisi orasida Yevropadagi ilk Vatan to'g'risida afsona va rivoyatlar saqlanib qolgan. Miloddan avvalgi II va I ming yilliklar o'rtasida paydo bo'lgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoda ham hind-eron qabilalarining ilk vatanidan janubga qarab bir necha marta ketma-ket to'lqin ko'chganligi hikoya qilinadi.

Markaziy Osiyoning janubida, shu jumladan Farg'onada eneolit va bronza davri (miloddan ilgari II ming yillikning boshlarida) sun'iy sug'orish dehqonchiligi, tosh qurollar bilan birga ilk temir qurollarning ishlatilishi, g'ishtdan qurilgan uylarning, charxda yasalgan bezakli sopol idishlarning paydo bo'lishi mahalliy qabilalarning joylashuvi va ularning aloqalari qanday bo'lganligidan dalolat beradi. Arxeologlarning fikricha, miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida Amudaryo quyi oqimida paydo bo'lgan Tozabog'yob madaniyati Janubiy Uralbo'yi dashtlarida shakllanib Xorazmga Shimoli-Sharqiy Orolbo'yi orqali kelgan deb faraz qilinadi. (Anqaqal'a-5 va Qavatqal'a-3). Tozabog'yob madaniyatining tarqalgan davri Xorazmda eng qadimgi irrigatsiyaning paydo bo'lish davriga to'g'ri kelgan. Xronologik ma'lumotlarga qaraganda, bu davr vohada yangi Hindiveddoid antropologik tipning paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Balki, bu hodisa janubdan suyorg'onlik qabilalarning ko'chib kelishi bilan bog'liqdir.

Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida Xorazmga mahalliy Tozabog'yob madaniyatiga oid qabilalarning kelishi dastlabki hind-yevropa va hind-eronlik qabilalarning shimoli-g'arbdagi katta ko'chishi bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Keyingi vaqtlarda o'tkazilgan qazilmalar ham Markaziy Osiyoning janubiy mintaqalarida Tozabog'yob madaniyatining ta'siri kuchayganligidan, dasht qabilalarning mintaqaga yirik ko'chishlaridan darak beradi. Bunday qabilalarning janub, janubi-g'arb va janubi-sharq tomon kuchli harakati miloddan avvalgi II ming yillik oxiri I ming yillik boshlarida ro'y berganligi tarixdan ma'lum. Bu harakatda Xorazmdagi Suyorg'on madaniyatiga ega qabilalar ham ishtirok etgan. Arxeologik manbalar mazkur chorva qabilalarining (miloddan avvalgi XI-IX asrlarda) O'zboy, Atrek, Tajan, Murg'ob, Amudaryo, Sirdaryo kabi daryolar bo'ylab ko'chib o'tganligini va ular mahalliy o'troq aholi bilan aralashib yoki singib ketganligini tasdiqlaydi.

O'sha davrdayoq tog' etaklarida va vodiylarda aholi yangi yerlarni o'zlashtirib ancha takomillashgan sun'iy sug'orish usullarini tatbiq qila boshlagan va ilk shahar madaniyatiga asos solgan. Bunga misol qilib «Bo'yoqli sopol» madaniyatiga oid Farg'onadagi Chust tipidagi makonlarni, Qayroqum dasht bronza hamda Bodil qabriston madaniyatlarini ko'rsatish mumkin. Dasht qabilalarining turmush tarzi va tarixini o'rganishda miloddan avvalgi IX-VIII asrga oid Xorazmning Amirobod madaniyati (Yakka-Po'rsan-2 nomli katta

qishloq) diqqatga sazovor. Bu yerdagi elatlar 20 ta yarim yerto'lada istiqomat qilib, sug'orma dehqonchilik, chorvachilik va jez qurollarini yasash bilan shug'ullanganlar.

Paleantropologik ma'lumotlarga qaraganda, paleolit davrida Old Osiyodan shimoli-g'arb tomon, ya'ni Markaziy Osiyoga ochildan ko'chish yo'li keyingi neolit va jez (bronza) davriga kelib yanada kuchayadi. Yangi davrda mazkur tarixiy-madaniy va etnik genetik aloqalarning kuchayganligini arxeologik qazilmalar ham tasdiqlaydi. Ayniqsa, jez davriga oid topilgan ko'p sonli qabrlar o'sha vaqtda yashagan aholining antropologik tuzilishini aniqlashga yordam beradi. Antropolog olim T.Q.Xo'jayevning ta'rificha, O'zbekistonga shimoli-g'arbiy tomondan Yevropaning yuqori paleolit, mezolit va neolit aholisi vakillari kela boshlagan, janubdan esa janubiy yevropoid tiplar kelib, O'zbekiston aholisining ko'pchilik qismini tashkil qilgan. Uning taxminicha, o'sha davrdan boshlab o'zbek xalqining shakllanishida o'ziga xos yevropoid unsurlar asos bo'lgan. Mazkur fikrni arxeologik kashfiyotlar ham tasdiqlaydi. Chunonchi, O'zbekistonning janubiy qismiga Yevropadagi andronov madaniyati belgilarining kirib kelishi bunga dalildir.

Temirning kashf etilishi butun mintaqada ishlab chiqarishning rivojlanishiga kuchli turtki bo'ldi. Oqibatda keng hududda, jumladan, O'zbekistonda ham aholining soni o'sdi. Bu davrda irqiy jihatdan ancha o'zgarishlar ro'y berdi. Dastavval, antropologik jihatdan mongoloid belgilari kuchayadi va yevropoid yaxlitligi o'zgara boshlaydi. Ammo mongoloid belgilar hamma yerda bir xil bo'lmasdan, faqat ayrim hududlarda ko'proq jamlangan. Mazkur tiplar asosan, keng tarqalgan Sibir va Markaziy Osiyo ko'chmanchi elatlari bilan aloqador bo'lib, bunga Orolbo'yi va qadimgi Buxoro vohasi dahalari ham kiradi. Shunday qilib, miloddan avvalgi I ming yillikka kelib morfologik jihatdan mongoloid elementlar ta'siri o'tgan va hozirgi o'zbek irqiy tiplarining shakllanishiga asos bo'lgan guruhlar yuzaga kelgan. Ilk temir davridan keyingi madaniyatga o'tish davri miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalaridan yangi eraga o'tishgacha butun Markaziy Osiyoda, murakkab etnogenetik jihatdan jiddiy aralash-quralash jarayon ro'y bergan. Arxeologik obidalardan Dalvarzintepa, Ayritom, Eski Termiz va boshqa yerlarda o'tkazilgan tadqiqotlar mazkur fikrni tasdiqlaydi.

Miloddan avvalgi I ming yillikda mintaqada jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz beradi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning

rivojlanishi, shahar qal'alarining paydo bo'lishi, yirik sug'orish va mudofaa inshootlarining qurilishi, dastavval qullar mehnatisiz mumkin emas edi. Qo'shni Eron, ayniqsa, Midiya davlati (mil.avv. VII–VI asrlar) tashkil topishidan oldinroq Markaziy Osiyoda ikkita quldorlik davlati – Baqtriya va Xorazm paydo bo'lganligi to'g'risida fors va yunon yozma manbalari xabar beradi. Mazkur manbalar va tosh qabrlarga bitilgan rasmlarda (Persepol saroyi), zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da, Rim, Yunon va Xitoy mualliflarning asarlarida hozirgi markaziy osiyoliklarning qadimiy ajdodlari sak-massagetlar, yuechji, kangyuy (qang'ar), usun va boshqa elatlar tilga olinadi. Shularning ichida eng katta elat saklar juda keng hududni – Tyan-Shan va Pomir etaklaridan Kaspiy dengizi sohillarigacha bo'lgan yerlarni egallagan, ularning eng zich joylashgan yeri Sirdaryo havzasi bo'lgan.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, Qadimiy Baqtriya va Xorazmda yashagan hozirgi tojik, o'zbek va qisman turkmanlarning qadimiy ajdodlari asosan, eroniy tillarning o'ziga xos sharqiy shoxobchasi va qisman turkiylashgan sak yoki skif tillarida gaplashganlar. Umuman, massaget qabilalari konfederatsiya (birikma)siga quyidagi elatlar kirgan: Qadimgi Sirdaryo havzasida, Amudaryoning sharqiy o'zanlari bo'yida va Qoraqumda yashovchi apasiaklar; Sirdaryo o'rta oqimida joylashgan daxato'xarlar; taxminan Zarafshonning quyi qismi va Amudaryoning o'rta oqimida yashagan darbeklar; Nurota tog'larida o'rtnashgan sakaravaklar; Sirdaryoning o'rta oqimida Tyan-Shangacha cho'zilgan usunlar hamda qadimgi davrlarda xorazmiylar kirgan. Yunon va rim manbalarining makedoniyalik Iskandarning yurishlaridan keyin bergan xabarlariga qaraganda mazkur qabila (elat)larning saklar deb umumiy nomlanishi tasodifan bo'lmay, ularning til jihatdan bir etnik jarayon bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydi.

O'sha manbalar bu davrda vohalarda yashovchi xalqlar bilan dashtdagi chorva qabilalari o'rtasida etnik va madaniy jihatdan uncha farq bo'lmaganligini ko'rsatadi. Masalan, Strabon xorazmiylar sak-massagetlar turkumiga kiradi, qadimgi so'g'diylar va baqtriyaliklar turmush tarzi va xulq-atvori bilan o'zaro farqlanmaydi, deydi. Topilgan rasmlarga qaraganda xorazmiylar, baqtriyaliklar va so'g'diylarning kiyim-kechaklari, bosh kiyimlari, qurol-aslahalari bilan saklardan hech farqi yo'q. Vohadagi elatlar saklar bilan deyarli bir tilda gaplashganlar. Etnik jihatdan

dehqonchilik vohalarida joylashgan elatlardan Amudaryoning yuqori havzasidagi xorazmiylar, Gurgan quyi oqimidagi girkannlar, Kopettog' etaklaridagi umumiy nomdagi parfiyanlar, Murg'ob havzasidagi marg'iyonlar, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylaridagi so'g'diylar, farg'onaliklar (qadimgi parikanlar) va baqtriyaliklar tarixiy manbalarda tilga olinadi. Yuqori Amudaryoning ikki sohilidagi barcha elatlar mil. avv. I ming yillikning o'rtalarida, arxeologik kashfiyotlarga qaraganda, yuksak madaniyatli irrigatsiya va qurilish inshootlarini, hunarmandchilik va harbiy san'at sirlarini egallagan, zo'r ma'naviy qadriyatlarni yaratgan etnoslar sifatida hatto qo'shni davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Nihoyatda rang-barang elat va xalqlar Afrika va Amerika qit'alarida ham ming yillar davomida Markaziy Osiyoning etnoslarisigari murakkab etnogenetik jarayonlarni boshidan kechirganlar. Mazkur jarayonlar ham muayyan tartibga solib turkumlashni talab qiladi. Dastavval etnoevolyutsion va etnotransformatsion o'zgarishlar mohiyatini bilib olish zarur. Hozirgi davrda etnik jarayonlarni ikki asosiy tipologik guruhlariga – etnik bo'linishga ajratiladi. Bunday tarixiy etnik o'zgarishlar ham ikki xildagi yo'nalishda ro'y beradi. Birinchisi, **etnoevolyutsion** jarayonidagi o'zgarishlar tufayli etnosdan ayrim qism sifatida ajralib chiqadi, qolgan qismi yoki ma'lum guruhi o'zini anglab etnik o'zligini saqlab qoladi. Ikkinchisi, **etnotransformatsion** jarayon oqibatida o'zligini anglashi o'zgarib, etnik jihatdan butunlay yangi tipga o'tadi va o'zini mutlaqo boshqacha etnik guruhlariga kirgan deb anglaydi, ya'ni yangi etnik birlikning vakili bo'ladi.

Etnologiya fanida qabul qilingan tizim asosida hozirgacha davom etib kelayotgan etnik birlashish bir necha shaklda namoyon bo'ladi:

1. Tili va madaniyati yaqin qarindosh, ilgari mustaqil bo'lgan bir necha xalqlarning yagona, yirikroq etnosga qo'shilib ketishi **etnik fuziya** deyiladi. Bu jarayon har xil sur'atda mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivoji, madaniy, xo'jalik va boshqa aloqalar sur'ati bilan bog'liq holda, mamlakat naqadar rivojlangan bo'lsa, shuncha etnik fuziya shiddatli o'tadi;

2. Ayrim etnoslarning ichidagi lokal guruhlarini asosiy etnoslar bilan jipslashtirish jarayoni **etnik konsolidatsiya** deb nomlangan. Bunday jarayon katta va o'rta etnik birliklarga xos bo'lib, etnik o'zligi almashuviga olib keladi;

3. **Etnik assimilyatsiya**, dastavval mustaqil etnos yoki uning qismi boshqa, odatda yirik etnosga singib ketish jarayonini anglatadi. Shu tariqa holat tarixda ko'p uchraydi, ammo hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda bu hodisa ancha tezroq sur'atlarda ro'y beradi. Lekin mazkur guruhga kirgan kishilar soni, joylashuvi va muhiti, iqtisodiy aloqalari, oila-nikoh munosabatlari kabi omillar, tili, madaniyati, dini va irqi assimilyatsiya jarayoni sur'atiga ta'sir qiladi.

Mazkur etnik birliklar bilan bog'liq turli nomdagi etnologik xususiyatlarni belgilovchi atamalar ham mavjud. Masalan, ikkita til va madaniyati yaqin etnoslarning o'zaro assimilyatsion ta'sirini aniqlaydigan **etnik konvergensiya**, ayrim davlatlar yoki yirik mintaqada yashovchi tili va madaniyati bilan farqlanuvchi elatlarning o'zaro ta'siri ostida paydo bo'lgan umumiy belgilarga sabab bo'lgan **etnikaro konvergensiya** kabi jarayonlar hozirgi etnoslarning rivojini o'rganishdagi zarur ilmiy atamalar etnologiyada ko'p uchraydi.

Demak, jahondagi mavjud turli xalq va elatlarning etnogenezi va etnik tarixi ibtidoiy zamonlardan to hozirgacha har xil shakllarda va turli xarakterdagi omillar ta'sirida ro'y bergan. Barcha etnoslar o'zlarining tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy shakllanib kelgan tili va etnik xususiyatlari, hududiy joylashuvi va turar joylari, milliy arxitektura va uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak va bezaklari, taomlari va iste'mol usullari, turmush tarzi va urf-odat hamda marosimlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Etnogenez va etnogenetik jarayonlar ming yillar davomida turli xildagi va dinamik tarzda o'zgarib turgan jahonning etnik xaritasini tuzish imkonini beradi. Ammo umumiy xulosa ya'ni, asli kelib chiqishi bir bo'lgan yer sharidagi barcha elat va xalqlar yagona insoniyatni tashkil qilganligini hozirgi etnologiya fani to'liq tasdiqlab beradi.

§-6. ETNOLOGIYA FANIGA XOS MAXSUS ATAMALAR, TADQIQOT USLUBI VA MUAMMOLAR

Har bir fan o'zining maxsus uslubi va terminologiyasiga ega. Etnologiya fani ham mustaqil ilm sohasi sifatida boshqa ijtimoiy fanlar singari zamonaviy fan yutuqlariga tayanadi va dolzarb muammolarni o'ziga xos uslub va vositalarga asoslangan holda hal qiladi.

Etnologik uslubni aniqlab olish uchun, dastavval, unga xos maxsus atamalarni bilish zarur. Yuqorida qayd qilinganidek, etnologiyaning asosiy tadqiqiy obyekti kishilikning tarixiy birligi hisoblangan «xalq» yoki «etnos» tushunchasi bilan bogʻliq boʻlib, uning kelib chiqishi, irqiy tuzulishi, xoʻjalik tiplari, moddiy va maʼnaviy madaniyatining turli tomonlari, ijtimoiy va oilaviy maishiy turmush muammolari, dunyoqarashi va ijodiy faoliyati kabi hayotiy muammolarni qamrab oladi.

Maʼlumki, «xalq» degan tushuncha ancha keng maʼnoga ega. Baʼzan xalq deb bir toʻp kishilarni yoki maʼlum sonli ommani tushunsak, baʼzan bir necha elat va millatlar yashaydigan davlat yoki mamlakat aholisini tushunamiz. Oʻzbek klassik adabiyotida «xalq» soʻzi ikki maʼnoda: yaratish, borliq yoki odamlar, deb taʼriflanadi². Aslida etnologiya fanida muayyan hududda joylashgan, tili, kelib chiqishi, moddiy va maʼnaviy madaniyati, turmush tarzi va tashqi umumiy xususiyatlariga ega boʻlgan tarixiy birlikni anglatadigan xalq maʼnosida «etnos» atamasi ishlatiladi. Har bir etnos oʻzining nomi (etnonim)ga ega boʻlib, maʼlum bir etnik guruhga oid ekanligini anglashi zarur. Etnik birlik ayrim shaxs yoki kishilarning istagi bilan emas, tarixiy taraqqiyotning obyektiv zaruriyati natijasida namoyon boʻladi.

Etnoslar muayyan tarixiy davrning mahsuloti sifatida oʻzining etnogenezi (kelib chiqishi) bilan ham belgilanadi. Shuning uchun ham etnoslarni, yuqorida qayd qilganimizdek, bir necha maxsus tarixiy-etnologik atamalar va fan sohalari bilan hamkorlikda oʻrganiladi. Jumladan, Paleoantropologiya fani, umuman odamning paydo boʻlishi va joylashuvini oʻrganibgina qolmay, balki ayrim etnoslarning tub joy aholisi (avtohton yoki aborigen) ekanligini yoki boshqa yerdan migratsiya natijasida koʻchib kelganligini aniqlab beradi. Antropologiya fani esa ularning qaysi irqqa oid ekanligini aniqlab beradi. Umumiy ilmiy atamalardan «irq» tushunchasi orqali ilgari aytilganidek, etnoslarning tashqi jismoniy belgilari – badan terisining rangi, kalla suyagi va sochlarining tuzilishi, burni va koʻzining shakli, boʻyi va boshqa xususiyatlari bilan aniqlanadi. Etnologiya «sof» irqnlarni emas, balki tabiiy jihatdan oʻzaro yaqinlashgan, faqat tashqi biologik xususi-

² Oʻzbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lugʻat. — T.: 1963, 367-bet

yatlarga ega bo'lgan barcha irqiy birlashmalar, ya'ni antropologik tiplarni o'rganadi.

Etnoslarning moddiy madaniyati tarixini va xususiyatlarini arxeologiya fani bilan hamkorlikda aniqlash mumkin. Madaniyat tushunchasi umuman tarixiy jihatdan inson qo'li va aqli yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni anglatadi. Rus tilida «kultura» so'zi aslida lotincha so'z bo'lib «ishlab chiqarish», «yasash, yaratish» degan ma'noni anglatadi. Etnologik jihatdan bu ma'noga moddiy madaniyatda xo'jalik qurollari va mahsulotlari, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak va bezaklar, taom va idish-tovoqlar, turar joy va uylar, badiiy faoliyat mahsulotlari va hokazolar kiradi. Keng ishlatiladigan atamalardan «genezis» so'zi, yuqorida ko'rganimizdek, grekcha «tug'ilish, kelib chiqish manbai» ma'nosini anglatib, ayrim irqlarning, etnoslarning kelib chiqishiga oiddir. O'z navbatida arxeologiya fanida ham ishlatiladigan tabiiy tarixiy jarayon bilan bog'liq «urug'», «qabila», «jamo'a», «elat yoki xalq», «millat» kabi ijtimoiy tushunchalar etnologiyada keng foydalaniladi.

Ijtimoiy munosabatlarni aniqlashda va ta'riflashda umumiy tushuncha va atamalardan tashqari keng ishlatiladigan urug' jamoasi, qishloq yoki ovul jamoasi, qo'shni-chilik (hududiy) jamoasi, qabila ittifoqi va kengashi kabilar muhim ahamiyatga ega. Urug'chilik munosabatlarini tartibga solishda zarur bo'lgan nikoh bilan bog'liq maxsus tushunchalar ham mavjud. Masalan, urug'chilik tartiblarini o'rganishda «ekzogamiya» (grekcha «ekzo» – tashqi, «gamos» – nikoh) so'zi urug' yoki qabila ichida nikoh tartibi, ekzogamiyaga qarshi holatda boshqa urug' yoki fratriyadan uylanish man qilinadigan odatlarni ifodalovchi atamalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan ko'p uchraydigan ortokuzen yoki kross-kuzen (grekcha «ortos» to'ppa-to'g'ri, «kross» — inglizcha tutashgan, «kuzen» – fransuzcha tog'a-jianlar) nikoh tartibi bo'lib, faqat aka-ukalarning farzandlari orasidagi nikoh munosabatlarini anglatadi. Yoki ibtidoiy nikoh shakllaridan «poligamiya» (grekcha ko'pnikohlik), «poliandriya» («poli» – ko'p, «andre» – er, ya'ni ko'p erlik) kabi odatlar hozirgacha, masalan, Tibetda saqlangan, Markaziy Osiyo ko'chmanchilari, Sibir xalqlari orasida yaqin davrlargacha saqlanib kelgan «levirat» (lotincha «levir» – aka-uka) odati bo'yicha beva qolgan aka yoki ukaning xotiniga uylanish, «sororat» («soror» xotinning singlisi) xotini vafot etsa, uning singlisi yoki bir necha

singillariga uylanish odatlari ham asli ibtidoiy nikoh shakllaridan qolgan tartiblardir.

Matriarxat (ona urug'i)dan patriarxat (ota urug'i)ga o'tish davriga oid munosabatlarni belgilovchi ayrim atamalar ham mavjud. «Kuvada» (fransuzcha «tuxum bosish») tushunchasi otaning bolaga nisbatan o'z huquqini tasdiqlash uchun o'tkaziladigan maxsus odat (masalan, hindilarda ona tug'ayotganda ota ham o'zi tug'ayotgandek ko'rpa orasiga kirib og'ir kuchanib yotish rasm bo'lgan), yoki «avunkulat» (lotincha «amaki») tartibiga ko'ra onaning aka-ukalari bilan bolalari (amakivachchalar) o'rtasida maxsus munosabatlar o'rnatilgan, amakisi jiyanining tarbiyasi va taqdiriga javobgar hisoblangan.

Etnoslarning xo'jalik faoliyati va mashg'uloti bilan bog'liq turli maxsus atamalar ibtidoiy xo'jalik shakllarini ifodalovchi yig'im-terimchilik, ovchilik, baliqchilik, keyinroq paydo bo'lgan chorvachilik va dehqonchilikka oid ko'p tushunchalar uchraydi. Masalan, dehqonchilik yerga ishlov berish usuliga qarab bir necha xilga bo'linadi (o'rmon yoki butazorlardagi daraxtlarni kesib, o't yoqib, kuydirib, kuliga urug' sepish usuli, yerni almashtirib partov yerga ekin ekish usuli, oddiy tayoq yoki chopqi (ketmoncha) bilan yerga ishlov berish usuli, omoch bilan hayvon kuchidan foydalanib yer haydash usuli va hk.). Asosiy tirikchilik manbai hisoblangan chorvachilik ham har xil tarmoqqa bo'lingan (yilqichilik, tuyachilik, bug'uchilik kabi sohalar). Hunarmandchilikning tarmoqlari juda ko'p bo'lib, turli etnoslarga xos har xil maxsus atamalar ishlatilgan. Masalan, umumiy atamalardan usta-shogirdlik, sex tuzumi, uskunalar va ish uslubi va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi so'zlar ko'p uchraydi.

Etnoslar joylanishi, uy-joy qurilishi, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechaklari, bezaklari va boshqa moddiy-madaniy buyumlari, taomi va ovqatlanish tartibi bilan bir-birlaridan farqlanadilar. Hozirgacha ba'zi yerlarda chaylalar yoki yerto'lalar (chum, vigvam, kata), chodir va qorauy (o'tov)lar guvala, xomg'isht, yog'och yoki toshdan qurilgan, ustunlarga yoki poydevorga o'rnatilgan, tekis cho'qqaygan yoki gumbazsimon tomli oddiy uylardan to zamonaviy ko'pqavatli shahar binolari, ko'shk va saroylargacha uchratish mumkin. Etnologiyada mazkur turar joylar va ular bilan bog'liq buyumlar, munosabatlar va irimlar maxsus atamalar bilan belgilanadi. Turli tabiiy sharoitga moslashgan va milliy xususiyatni ifodalovchi kiyim-

kechagi (tikilishi, materiali, shakli, naqsh-bezaklari) va taomlari (go'sht, sabzavot, baliq, sut mahsuloti, o'simlik, pishirish usuli va hokazolar) ham ayrim etnoslarning o'ziga xos atama va tushunchalarida namoyon bo'ladi. Kiyim-kechak va taomlar ham kundalik turmushda, bayramlar va diniy marosimlarda farqlanib turlicha bo'lishi mumkin.

Ma'naviy madaniyat tushunchalariga oid diniy e'tiqod va marosimlar bilan bog'liq atamalar juda ko'p ishlatiladi. Masalan, ibtidoiy din shakllaridan totemizm, magiya (sehrgarlik), shamanizm, animizm, tabiat kuchlari va arvohlarga sig'inish kabi ibodat shakllari va marosimlarni aniqlovchi turli atamalar, shuningdek, jahon dinlari bilan bog'liq xudo, pir, avliyo, qurbonlik, har xil diniy odat, marosim va irimlarni ifodalovchi atamalar mavjuddir.

Etnologiya fanining o'ziga xos atama va tushunchalaridan tashqari maxsus tadqiqot usullari ham bor. Albatta, etnoslarni o'rganishda etnologiyada nihoyatda keng va xilma-xil tadqiqotlardan foydalaniladi. Yozma manbalar, moddiy buyumlar, og'zaki ma'lumotlar, arxiv hujjatlari va yaqin fanlar to'plagan manbalar uning diqqat-markazida bo'ladi. Etnosotsiologiyalar va etnograf-larning etnos hayotini bevosita kuzatish yo'li bilan joylarning o'zida dala ishlari natijasida to'plagan ashyo va manbalarning ahamiyati ham beqiyos. Atoqli rus etnografi V.G. Bogoraz dala ishlariga yuk-sak baho bergan. Bir joyda uzoq davr yashab kuzatish olib borish naqadar samarali ekanligini mashhur Amerika etnologi L. Morgan va atoqli rus tadqiqotchisi N.N. Mikluxo-Maklay ham alohida qayd qilganlar. Hozir etnologiya fanida statsionar uslub kam ishlatiladi. Ko'pincha qisqa muddatda o'tkaziladigan usul va ayrim keng hududni o'z ichiga qamrab olgan mavsumiy ekspeditsion dala ishlari keng qo'llaniladi.

Dala ishlarida asosan, axborotchilardan savol-javob yo'li bilan yozma yoki magnitofon orqali ma'lumotlar to'plash, muayyan marosim, maishiy turmush hodisalari, oilaviy nikoh munosabatlari, madaniyat voqealarini kuzatish, bevosita ishtirok qilish, jiddiy o'rganish (yozish, chizish, rasmga olish orqali) kabi usullar qo'llaniladi. Ma'naviy madaniyatni tadqiq qilishda (ayniqsa, ayrim urf-odatlar, marosim, ibodat, xalq ijodi – o'yin, ashula va hk.) kino-foto, vizual videoapparatlar, magnitofon kabi texnika vositalaridan keng foydalaniladi, dala ishlari vaqtida etnologlar etnoslarning maishiy turmushi va ma'naviy hayotiga oid barcha buyumlarni jiddiy

o'rganibgina qolmay, eng noyoblarini muzey eksponatlari sifatida yig'ib oladilar. To'plangan turli ma'lumotlarni haqqoniyligini aniqlash uchun qiyosiy usul asosida kamida ikki-uch marta boshqa manbalar orqali tekshirib ko'riladi.

Etnologik tadqiqotlar boshqa gumanitar va ba'zi tabiiy fanlar bilan yaqin aloqada o'tkaziladi va ularning yutuqlaridan keng foydalaniladi. Chunki, etnos iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy turmushning barcha tomonlari bilan bog'liq. Etnologiya xalqlarning kelib chiqishi, shakllanishi, tarixi, irqiy tuzilishini o'rganishda arxeologiya va antropologiya bilan yaqin munosabatda bo'lganligi tufayli maxsus sohalar – etnik antropologiya, paleoetnologiya kabilar bilan uyg'un aloqada bo'ladi. Etnik tarix va xususiyatlarini aniqlashda til muhim belgi bo'lganligi uchun tilshunoslikda yangi soha – etnolingvistika paydo bo'lgan. Etnoslarning ma'naviy madaniyati san'atshunoslik, musiqashunoslik va folklor bilan hamkorlikda o'rganiladi. Tadqiqotlarning rivoji natijasida etnik jarayonni chuqur tadqiq qilish maqsadida so'nggi o'n yilliklarda yangi sohalar – etnosotsiologiya va etnopsixologiya yuzaga kelgan.

Etnologiya aslida geografiya fanidan ajralib chiqqanligi tufayli aholining joylashuvi, o'sishi, tevarak-muhit ta'siri, migratsiyasi kabi masalalarini o'rganishda maxsus soha etnik geografiya va demografiya fani muhim rol o'ynaydi. Xalqlar orasidagi xo'jalik birligini aniqlashda tabiiy fanlar ham katta yordam beradi. Ba'zi xalqlar yovvoyi o'simliklarni ekib o'stirish, yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatib, urchitishda kashfiyotchi bo'libgina qolmay, o'ziga xos usullarni ham yaratganlar. Mazkur etnik xususiyatlarni aniqlashda etnobotanika va etnozoologiya muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardan boshlab keng ko'lamda o'tkazilgan katta-kichik ekspeditsiyalar ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lgan edi. Ko'pgina etnologik tadqiqotlarning arxeolog, antropolog, san'atshunos va folklorchi olimlar bilan birgalikda o'tkazilishi etnik jarayonning rang-barang va murakkabligidan darak beradi.

Hozirgi kunda o'tkaziladigan etnologik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari va muammolari nihoyatda keng va qamrovlidir. Bu tadqiqotlarning eng muhim mohiyati zamon talab qilgan muammolarni nazariy va amaliy jihatdan birgalikda hal qilishdan iborat.

Ayniqsa, mustaqil respublikalar paydo bo'lgandan keyin istiqlol yo'liga o'tgan milliy mafkura asosida rivojlana boshlagan ko'p millatli mamlakatlarning barcha xalqlarida o'zligini anglash jarayonida uyg'ongan jo'shqin vatanparvarlik tuyg'ulari ularning o'z xalqining tarixi va madaniy merosiga qiziqishini yanada kuchaytirdi. Mustaqillik negizida yaragan vaziyat nafaqat o'z xalqiga, balki uzoq-yaqin xalqlarga bo'lgan qiziqishni ham tabiiy ravishda jonlantirdi. Natijada etnologiya fanining tadqiqot doirasi, mavzu va muammolari nihoyatda kengayib, etnologik ishlar yangi, ijobiy pog'onaga ko'tarila boshladi.

Jahon etnologlarining, jumladan, MDH mamlakatlarida asosiy yo'nalishlaridan biri barcha qit'alarda yashovchi xalqlarni tarixiy-etnografik jihatdan o'rganishdir. Bu yo'nalish ijtimoiy tuzum shakllaridan va etnogenez muammolaridan tortib to hozirgi davr madaniy-maishiy va etnik jarayonni qamrab olgan kompleks muammolarni o'z ichiga oladi. Mazkur fikrni ko'p yillik tadqiqotlar natijasida mashhur olim S.P. Tolstov boshchiligidagi yaratilgan «Jahon xalqlari» ruknida nashr etilgan ko'p jildlik yirik tarixiy-etnografik asarlar tasdiqlaydi. Aytish joizki, ayrim mamlakatlarda yashovchi yoki umuman jahondagi aholining kelib chiqishi, etnik qiyofasi va shakllanishi, joylashuvi va etnik xususiyatlarni aniqlash etnologiya fanining eng murakkab, ammo juda muhim masalalaridandir. Bu sohada ham nazariy ham amaliy jihatdan samarali ishlar olib borilmoqda. Eng zarur tarixiy-etnologik masalalarni o'rganishda tadqiqotchilar hozirgi etnoslar madaniyatining turli an'anaviy belgilarini, maishiy turmush namunalari bilan uzviy bog'lab qiyos qilish usulidan keng foydalanmoqdalar. Etnologlar an'anaviy maishiy turmush madaniyati tabiiy belgilarining hozirgi rolini aniqlabgina qolmay, yangi paydo bo'layotgan unsurlarning vazifasi va rolini oydinlashtirishga intiladilar. Bunday hollarda so'rovnomalalar va statistik ma'lumotlarni o'rganish orqali «traditsiya va innovatsiya» namunalari tadqiq qilinadi. An'anaviy va yangi etnologik nazariyotning keng miqyosda har tomonlama o'rganilishi samarasi o'laroq so'nggi yillarda juda ko'p ilmiy asarlar yaratilganligi bejiz emas.

Hozirgi ko'p qirrali murakkab etnik jarayonni, millatlarning yaqinlashishi va birlashishi, elat va xalqlarning konsolidatsiyasi va integratsiyasi, oila va etnik munosabatlar, innovatsiyalar, yangi etnik birliklarning shakllanishi, milliy madaniyatlardagi noyob tarixiy meroslarni o'rganib, ularni jahon madaniyatiga singdirish va boyitish

ham amaliy ahamiyatga ega. Masalan, ko'pmillatli bizning mamlatimizda umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan zamonaviy o'zbek eli madaniyatini yaratishda har bir xalqning o'z hissasi bor, uni tadqiq qilish, o'rganish esa etnologiyamizning asosiy vazifalaridan biridir. MDHga a'zo mustaqil respublikalarda etnologlar so'nggi yillarda hozirgi zamonaviy milliy-maishiy turmush muammolari, umuminsoniy qadriyatlar va nikoh-oila masalalariga katta e'tibor bermoqdalar. Yangi maishiy, turmush shakllarining paydo bo'lishi va shakllanish jarayonini o'rganish nazariy va amaliy jihatdan juda muhimdir. Ayniqsa, oila va oilaviy turmush, nikoh va jinslarning o'zaro munosabati, mahalla an'analari, bolalar tarbiyasi, axloq masalalari etnologlarning diqqat markazida turibdi. Oilaviy hamda ijtimoiy urf-odat va marosimlar ham eng dolzarb tadqiqiy muammolar qatoriga kirgan.

An'anaviy muammolardan etnoslarning xo'jalik faoliyatini, moddiy-madaniy belgilari (uy-joy qurilishi va jihozlari, kiyim-kechak va bezaklar, transport vositalari, taomlar va hk.)ni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shiddatli tarzda kechayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot va yer yuzidagi globallashuv jarayonlari ta'sirida jiddiy o'zgarishlar nihoyatda tez sur'atlar bilan ro'y bermoqda. Butun moddiy madaniyatga standart buyumlarning tarqalishi natijasida ularni integratsion jarayoni kuchayib, milliy an'anaviy xususiyatlar qisman yo'qolib ketmoqda. Ushbu murakkab masalalarni tadqiq qilishda etnologlarga katta mas'uliyat yuklaydi. Keyingi o'n yillikda etnologlar bu vazifani amalga oshirishda muayyan yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Ular muayyan dasturlar asosida Yevroosiyaning barcha mintaqalarida keng miqyosda tadqiqotlar o'tkazib, mavjud adabiyotlarga tayanib, bir necha jildli «tarixiy-etnografik atlas»larni yaratdilar. Ushbu asarlarda etnoslarning an'anaviy mashg'uloti, urf-odati, dunyoqarashlari va tasavvurlarining moddiy buyumlarda ifodalanishi kabi masalalarga oid qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Shuni alohida qayd qilish lozimki, tadqiqotchilar moddiy madaniyat unsurlarini o'rganishda etnoslarga xos xususiyatlarni aniqlabgina qolmay, balki undagi umumiy belgilarni, masalan, umuminsoniy qadriyatlar asosida paydo bo'layotgan turmush tarziga xos etnomadaniy tomonlarini ham jiddiy tadqiq qilish zarurligiga e'tibor bermoqdalar.

Ma'naviy-madaniy sohada etnologlarning diqqatini albatta badiiy va amaliy ijod masalalari o'ziga tortmay iloji yo'q. Ularni,

dastavval, moddiy va maishiy-madaniy jihatdan milliy ehtiyojlarni qondiradigan buyumlarni yaratish (kashta, gilam to'qish, kulolchilik, to'qimachilik, metall va yog'ochdan badiiy buyumlar yasash kabilar) masalalariga qiziqishlari tabiiy. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ayrim mintaqalarda xalq teatri, milliy musiqa, raqs va o'yinlarni o'rganishda muayyan yutuqlar qo'lga kiritilgan. Ma'naviy boy va rang-barang hisoblangan oilaviy-maishiy bayram va marosimlarni har tomonlama tadqiq qilish katta amaliy ahamiyatga ega ekanligi sir emas. Bu sohada ham etnologlar keyingi davrlarda keng miqyosda ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Jahon etnologlari, jumladan, bizning olimlarimiz oldida hozirgacha kam o'rganilgan, ammo muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan etnopedagogika (yangi avlodni an'anaviy odatlar va zamonaviy talablar asosida tarbiyalashning xalq tajribasi) masalalari diqqatga sazovordir. Umuman, asrlar davomida to'planib kelgan xalqning ijobiy tajribasini o'rganish eng muhim sof etnologik muammolardandir. Shu nuqtayi nazardan, masalan, etnopsixologiya va etnotabobat, ya'ni xalq tabobatini tadqiq qilish katta ahamiyatga ega bo'lib, hozir bu masalada bir oz jonlanish sezilmoqda.

So'nggi yillarda jahon xalqlari dinlarini o'rganishga ham qiziqish kuchaymoqda. Har bir xalqning an'anaviy, ma'naviy madaniyatining muhim qismi hisoblangan din va diniy tasavvurlarni tadqiq qilish etnologiyaning muhim vazifalaridandir. Bu sohada ham dinshunos-etnolog tadqiqotchilar juda ko'plab yutuqlarga erishib, yetuk asarlar yaratganlar. Bugungi kunda mustaqillikka erishgan respublikalar o'tish davriga xos vaziyatda diniy tasavvurlarning ba'zan ortodoks shaklida namoyon bo'lishi etnoslar turmush tarziga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkinligi sabablarini ko'rsatish bilan birgalikda ijobiy tomonlarini ham o'rganish ijtimoiy taraqqiyotda tutgan o'rnini ilmiy jihatdan aniqlab olish zarur. Diniy nizolar va xun olish, qalin to'lash, ayollarga adolatsiz munosabatda bo'lish, xurofiy odat va rusmlarga rioya qilish kabi salbiy tushunchalarni ochib berish va unga qarshi kurash yo'llarini ko'rsatish, aksincha, ibtidoiy davrlardan beri saqlanib kelayotgan hashar, hamkorlik, mehmondo'stlik, birodarlik, mahallachilik, kabi ijobiy xalq odatlarini o'rganib, hayotga singdirish va rivojlantirish masalalarini etnologlarsiz hal qilish juda qiyin.

Hozirgacha ibtidoiy-urug'chilik tuzumi va uning qoldiqlarini o'rganish etnologiyaning eng muhim muammolaridan hisoblanadi. Ibtidoiy jamiyat tuzumi qoldiqlari (ilk xo'jalik va texnika shakllari, ijtimoiy munosabatlari, ilk din, san'at va dastlabki ijobiy bilimlar)ni bizning davrimizgacha yetib kelgan Avstraliya, Afrika va Amerikadagi ibtidoiy qabilalarni o'rganish orqali aniqlanadi. Ibtidoiy jamiyat davridan bizgacha yetib kelgan jamoatchilik munosabatlarining belgilari hatto eng taraqqiy qilgan etnoslarning turmush tarzida ham uchraydi. Mazkur ijobiy xarakterga ega an'analarni aniqlab, ibtidoiy tuzum jamoatchilik tartiblarini fanda qayta tiklashda ham etnologlarning xizmatlari katta.

Demak, ko'p qirrali tarixiy-etnologik muammolarni jahon fani yutuqlari va kompleks usullarga asoslanib tadqiq qilish ilmiy jihatdangina emas, balki siyosiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mustaqillikka erishganimizdan buyon, etnologlar demokratik mamlakatlardagi katta-kichik elat, xalq va millatlarning etnik jarayonini har tomonlama jiddiy o'rganmoqdalar, hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy xulosalari va tavsiyalari bilan yuksak madaniyatli yangi jamiyatni barpo etishga o'z hissalarini qo'shishga intilmoqdalar.

II BOB

JAHONNING ETNIK QIYOFASI

(yangi o'quv programmasi asosida)

I. AVSTRALIYA VA OKEANIYA XALQLARI

Beshinchi qit'a hisoblanadigan Avstraliya Tinch okeanining janubida joylashgan o'ziga xos o'lkadir. Uning iqlimi ham, etnik tuzilishi ham yer kurrasining boshqa qismidan ancha farq qiladi. To'rt tomoni bepoyon okean suvlari bilan yuvilib turgan Avstraliya qit'asi 7,7 mln. kvadrat kilometr hududga ega bo'lib, taxminan AQSH hududiga teng keladi.

Qit'aning beshdan ikki qismi tropik iqlimli, qolgani subtropik va mo'tadil issiq iqlimlidir. Ichki Avstraliya nihoyatda qurg'oq, yog'ingarchilik kam, iqlimi o'zgaruvchan, dashtu biyobondan iborat. Uncha katta bo'lmagan daryolar uning sharqida mavjud, xolos. Pastqam tog' tizmalari, asosan, janubi-sharqiy qismida joylashgan. Bir necha yuz katta-kichik ko'llar mavjud bo'lib, ular yozgi jaziramada qurib sho'rxokka aylanadi. Ammo o'lka yer osti suvlariga boy. Mahalliy aholi undan qadim zamonlardan beri foydalanib kelgan. Hozir ham bu qit'ada artezian quduqlaridan keng istifoda etiladi.

Avstraliyaning o'simlik va hayvonot dunyosi ham iqlimi singari xilma-xil. U yerdagi o'simliklarning aksariyati (85 foizi) faqat o'ziga xos bo'lib, boshqa biron yerda uchramaydi. Ayniqsa, janubi-sharqida balandligi yuz metrgacha yetadigan evkalipt daraxtlari (150 turdan ortiq) qit'aga go'zal manzara kasb etib turadi. Abadiy yashil daraxtlar: palma, fikus va chirmovuq kabi o'simliklarga boy tropik o'rmonlar qit'aning shimol va shimoli-sharqiy qismida joylashgan. O'lkaning g'arbiy va ichki qismiga kirib borgan sari barcha o'simlik dunyosi nihoyatda qashshoqlashgandek ko'rinadi.

Avstraliyaning hayvonot dunyosi ham o'zining qadimiyligi va ekzotikasi bilan kishini hayratda qoldiradi. Bu yerda yuqori sutemizuvchilar mutlaqo bo'lmagan, ammo xaltali hayvonlarning yuzdan ortiq turi mavjud. Tuban sutemizuvchilarning mashhur vakili katta kenguru tug'ilgan bolasini qorin terisidagi maxsus xaltasida voyaga yetkazadi. Qit'ada kenguruning boshqa turlaridan daraxtga tirmashadigan koala (xaltali ayiq), vombata va hokazo turlari ham yashaydi. Sudraluvchilardan ilon, kaltakesak, shimoldagi

daryolarda timsoh va boshqa ko'pgina shu kabi jonivorlar uchraydi. Qushlardan: yirik avstraliya strausi – emu, turli xil to'tiqushlar, qora oqqushlar, sayroqi qushlar va umuman mingga yaqin turdagi qushlar Avstraliya tabiatining o'ziga xos fayzidir.

Shunisi qiziqki, Avstraliya flora va faunasidagi turlarning ko'p qismini mahalliy tub aholi iste'mol qilib kelgan. Ular faqat yirik hayvonlarnigina emas, balki mayda jonivorlarni (ilon, kaltakesak, chualchang kabi hasharotlar va hk.) hamda turli ekin ildizlarini yig'ib-terib iste'mol qilganlar. Avstraliyada inson hayoti uchun xavfli yirtqich hayvonlar yo'q, zaharli ilon va timsohlar esa juda kam. Faqat yovvoyi it (dingo) uy hayvoni sifatida qo'lga o'rgatilgan. Qit'ada juda ko'p qazilma boyliklar mavjud bo'lib, undan tub aholi foydalana olmagan.

Hozirgi Avstraliya millati qurama, turli elatlardan tashkil topgan. Qit'ada 15,7 mln.dan ortiq (1985-y.) aholi yashaydi, ammo u nihoyat notekis joylashgan. Aholining asosiy qismi Avstraliyaning sharqiy va janubi-sharqiy qismlarida, sug'oriladigan qulay iqlimli va o'simlik dunyosiga boy bo'lgan janubi-g'arbiy hududlarda yashaydi. Avstraliya aholisining ko'pchiligi yevropalik, ayniqsa, Angliya va Irlandiyadan (78 foizi) kelganlarning avlodlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Tub aholisi (aborigenlar) suvsiz cho'l va sahrolarda kun kechirmoqda. Ularning soni 103 mingga yaqindir (metislar bilan qo'shib hisoblaganda 140 mingdan ortadi). Umuman olganda, Avstraliya va Okeaniyada keyingi ma'lumotlarga qaraganda 25 mln.dan ortiq aholi mavjud. Shu jumladan, Yangi Zelandiyada 3,2 mln. aholi yashaydi.

Okeaniyada joylashgan minglab orollar janubga yaqinlashgan sari yiriklashib va ancha quyuqlashib boradi. Avstraliyaning sharqida va shimoli-sharqida, aksinchia, juda mayda orollar Tinch okeani bag'riga kirgan sayin kamayib boradi. Eng yirik orollar: Yangi Gvineya, Yangi Zellandiya, Yangi Kaledoniyadir. Mayda orollar esa asosan, vulqonlardan va marjonlardan paydo bo'lgan va ularning qit'aga hech aloqasi yo'q. Okeaniyaning barcha orollari deyarli tropik oralig'ida joylashgan bo'lib, iqlim ekvatorial, tabiati abadiy yashil tropik o'simliklar bilan qoplangan, hayvonot dunyosi g'arbga tomon boyroq, sharqda esa ancha kam.

Okeaniya asosan, uch qismga bo'lingan: janubi-g'arbiy qismdagi «qora orollar» deb nom olgan Melaneziya; uning sharqiy va shimoli-g'arbidagi bepoyon Tinch okeanida tarqoq joylashgan Poli-

neziya (tarjimasi «ko'psonli orollar»); Osiyo sohillariga yaqin mayda orollardan iborat Mikroneziyadir. Agar tub aholisining sharoiti va madaniy saviyasi sotsial-iqtisodiy jihatdan umumiy xarakterga ega bo'lsa, Okeaniya xalqlari nisbatan yuqori darajada va nihoyatda rang-barang shaklda rivojlangan. Tillarning joylashuvi antropologik turlarga to'g'ri kelmaydi. Ularning xo'jalik tiplariga qarab madaniy yoki sotsial rivojlanish darajasini aniqlash qiyin. Chunki, Osiyo yoki Yevropadagi ishlab chiqarish qurollari, moddiy buyumlar bu yerga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Masalan, tub melaneziyaliklar o'q-yoyni, temirchilikni yoki kulolchilikni bilmaganlar, ammo o'ziga xos yuksak madaniyat yaratganlar. Aytaylik, ijtimoiy munosabatlarda melaneziyaliklarda savdo-sotiq rivoj topgan bo'lsa ham, natural xo'jalikka ega bo'lgan polineziyaliklar ularga nisbatan ancha yuqori madaniyatga ega bo'lganlar.

Umuman, beshinchi qit'ani o'rganish insoniyat tarixining ilk davrlari – ibtidoiy jamiyatdan sinfiy jamiyatning ilk shakllarigacha, dastlabki davlat va qabilaviy birliklargaacha aniqlab olish imkonini yaratib bergan edi.

Dunyodagi eng kichik qit'a yoki eng katta orol hisoblangan Avstraliya eng qadimiy geologik davrlarda qurg'oqlikdan ajralib qolib XIX asrgacha jonli qadimiy muzey shaklida saqlangan. Uning flora va ayniqsa, faunasining arxaikligi va o'ziga xosligi doimo tadqiqotchilarni hozirgacha hayajonga soladi. Avstraliyada yuksak sutemizuvchilarning yo'qligi, tuban sutemizuvchilar (xaltali hayvonlar)ning ko'pchiligi bu yerda ibtidoiy dunyo qayta jonlanganday taassurot tug'diradi. Mazkur tabiiy sharoit mahalliy tub aholining maishiy turmushi va madaniyatida ham o'z aksini topganligini alohida qayd qilish lozim. Bepoyon Tinch okeani orollarida yashovchi minglab katta-kichik turli etnoslar kishilik jamiyatining dastlabki davrlarida kashf etilgan ajoyib ishlab chiqarish usullari, xo'jalik shakllari, murakkab geografik muhitga moslashgan har xil kasblar, ovchilik mahorati, atrofdagi vahshiy tabiatda yashab va cheksiz dengizlarda yo'l topib uzoqlarga sayohat qilish, qurg'oq sahrodan suv topa bilish kabi juda ko'p yangiliklarni kashf etib, jahon madaniyatiga o'ziga yarasha hissa qo'shganlar.

Endi mana shu insoniyat beshigida paydo bo'lgan va bizning davrimizgacha kishilik jamiyatining bolaligidagi turmush tarzi belgilarini saqlab kelgan etnoslar bilan tanishamiz.

§-1. AVSTRALIYA VA TASMANIYA XALQLARI

Beshinchi qit'a aholisining kelib chiqishi fanda eng qiziqarli va nihoyatda murakkab muammodir. Chunki, bu yerning tub aholisi juda arxaik ibtidoiy tipdagi sodda, o'ziga xos madaniyatini bizning davrimizgacha saqlab qolgan. Bu qit'a aholisini o'rganishning murakkabligi shundaki, tasmaniyaliklarning jismoniy tuzilishi, tili va madaniyati boshqa biron xalqqa o'xshamaydi, ya'ni boshqa xalqlarga qiyos qilish imkoniyati yo'q. Shuning uchun ularning etnogenezi to'g'risida bir yarim asrdan buyon tortishuvlar, turli mulohazalar davom etib kelmoqda. Ammo Avstraliya qit'asi antropogenezga kirmasligi, ya'ni odamzodning vatani emasligi aniq. Demak, avstraliyalik va tasmaniyaliklarning qadimiy ajdodlari kelgindilar bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin. Keyingi yillarda o'tkazilgan ba'zi antropologik va arxeologik tadqiqotlarda ularning qayerdan va qachon kelganligi to'g'risida ba'zi ma'lumotlar ayon bo'ldi.

Avstraliyaliklarning kelib chiqishi to'g'risidagi fikrni rus olimi Ivan Simonov o'zining dastlabki tadqiqotlarida bundan 180 yil ilgari bayon etgan edi. XIX asrning 20-yillarida Sidneyga rus kemalarida kelgan ekspeditsiya a'zosi I. Simonov avstraliyaliklarni ko'rganda, ular janubiy hindistonliklarning avlodlari, degan taxminni aytgan. Antropologiya fani Avstraliya tub aholisi Janubiy Osiyoning qadimiy xalqlari bilan tarixiy bog'liq ekanligini tasdiqlagan. XIX asr o'rtalarida ayrim sayyoh olimlar (E. Eyr, J. Prichard) avstraliyaliklarni tasodifan qit'aga adashib yoki qullikdan qochib kelgan afrikaliklarning avlodi degan bo'lsa, ba'zi birlari Malayya arxipelagi va Yangi Gvineya orqali kelgan eng qadimiy okeaniyaliklar avlodi, degan fikrlarni aytishgan. 1870-yillarda beshinchi qit'a bilan tanishgan rus tadqiqotchisi va sayyohi N.N. Mikluxo-Maklay o'zining jiddiy kuzatishlari asosida avstraliyaliklar mustaqil irq degan xulosaga keldi. Mazkur fikrni antropologik tadqiqotlar ham qisman tasdiqlaydi. Avstraliyaliklar o'ziga xos antropologik tipni tashkil qiladi.

Ayrim tadqiqotchilar qit'aning tub aholisi negroid va yevropoid irqalar oralig'ida paydo bo'lgan deyishsa, boshqa olimlar avstraliyaliklarni katta negroavstraloid «ekvatorial» irqining maxsus tipi, deb hisoblaydilar. Ularning sochlari qora, yevropoidlarnikidek to'liqinsimon, soqol-mo'ylovlari va badan tuklari qalin, terisining

rangi negroidlarnikiga o'xshashroq to'q jigarrang, kalla suyagi uzunchoqroq, peshonasi nishablik, qosh usti suyagi chiqqan, labi qalin va burni kengroq, bo'yi o'rtacha yoki balandroq.

Bunga o'xshash tiplarni Avstraliyadan tashqari Indoneziyada yoki janubi-sharqiy Osiyoda, (masalan, Shri-Lankadagi veddalar), Hindistonning janubidagi qabilalarda uchratish mumkin. Shuning uchun ham mazkur tip fanda ba'zan «vedda – avstraloid», deb ham yuritiladi. Hozirgi klassifikatsiyaga binoan katta avstraloid irqiga Avstraliyaning tub aholisi, papuaslar va melaneziyaliklar, negrotoslar va veddoidlar kiradi. Demak, avstraliyalik va tasmaniyaliklarning ajdodlari bir zamonlar janubi-sharqiy Osiyoda va Indoneziyada yashaganlar. Qit'aning geografik joylanishi va Yava oroli (Vadyak)da topilgan avstraloid tipidagi ikkita kalla suyagining qoldiqlari bunga dalil bo'la oladi. Avstraliya hududining sharqiy va janubi-sharqiy qismlarida topilgan qadimiy kalla suyagi qoldiqlari bu yerda odamlarning uzoq o'tmishda joylashuvi va Vadyak topilmalariga o'xshashligi etnogenez masalalariga ancha aniqlik kiritgan edi. Ayniqsa, Keylor (1940-y.) makonidagi kalla suyagi tuzilishi jihatidan hozirgi avstraliyaliklarga yaqin turadi.

Tasmaniyaliklarning kelib chiqishi hali to'liq aniqlanmagan. Ular sochining jingalakligi, badanining to'q jigarrangligi, past bo'yligi bilan avstraliyaliklardan farq qilganlar. Tasmaniyaliklar antropologik tuzilishi bilan melaneziyaliklarga, ayniqsa, Yangi Kaledoniyadagi tub aholiga o'xshab ketadi. Aslida, olimlarning fikricha, tasmaniyaliklar qadim davrlarda Avstraliyadan siqib chiqarilgan tub aholining avlodlaridir.

Beshinchi qit'aga aholining ko'chib kelish davri yuqori paleolitga to'g'ri keladi. Taxminan 18-19 ming yillar muqaddam Avstraliya qit'asi Osiyo bilan qo'shilgan bo'lib eng qadimiy avstraliyaliklar Janubi-sharqiy Osiyodan quruqlik orqali ko'chib kelganlar. Keyinchalik 12-13 ming yillar ilgari okean suvlarining ko'tarilishi natijasida beshinchi qit'a paydo bo'lgan. Shungacha aloqador bo'lib turgan qadimgi osiyolik ajdodlaridan ajralib qolgan avstraliyaliklar o'sha davr ijtimoiy tuzumi va madaniyatini to'rtgan asrgacha mustahkam saqlab qolganlar. Ammo aholining joylashuv jarayoni juda uzoq davrlarga cho'zilgan. Ular dastlab yashashga qulay bo'lgan sharqiy sohillarni egallaganlar, keyinchalik esa o'rta sahro qismi va g'arbiy hududlarga ham ko'chib o'ta boshlaganlar. Hatto

mustamlakachilar kelguncha ham tub aholi qit'ani to'liq o'zlashtirib olmagan edi.

Yevropa mustamlakasi arafasida (XVIII-XIX asrlar) Avstraliya va Okeaniya xalqlari o'zlarining xo'jalik faoliyati va ijtimoiy tuzumida, tili va irqiy tuzilishida qadimiy ibtidoiy shakllarni shunchalik chuqur saqlab qolganlar, boshqa qit'alarda ularga o'xshash belgilar deyarli uchramaydi. Ayniqsa, bu xususiyat mahalliy tillarda yorqin namoyon bo'lgan. Albatta, boshqa yerlardagi kabi qit'ada ham uzoq tarixiy davr mobaynida taraqqiyot ro'y berib, eng ibtidoiy davrlardagi ijtimoiy va madaniy shakllarda muayyan o'zgarishlar bo'lib turgan. Istilolar natijasida bu yerda yashovchi tub joy aholining moddiy va ma'naviy hayotida, ijtimoiy-maishiy va madaniy turmushida jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshlagan, xususan, o'ziga xos ko'pgina etnik xususiyatlar yo'qolib borgan, ayrim elatlar (masalan, tasmaniyaliklar) esa butunlay qirilib ketish-gacha yetib borgan. Shuning uchun ham ayrim etnoslarning kelib chiqishi va etnografik ta'rifi o'rganish imkoniyati ancha murakkablashgan.

Mustamlakachilar kelgunga qadar avstraliyaliklar butun qit'a bo'ylab tarqoq holda ko'chib yurganlar. Ularning soni taxminan 250-300 ming bo'lib, 500 ga yaqin urug'-qabilalarga birikkan. Uzoq vaqt davomida boshqa dunyo bilan aloqada bo'lmaganliklari tufayli avstraliyaliklarning tillari, yuqorida qayd qilinganidek, hech bir boshqa tillarga o'xshamaydi va yaqinligi ham yo'q. Har bir qabila o'z tili yoki shevasiga ega bo'lib, irqiy va madaniy jihatdan o'xshashlik mavjud bo'lsa-da, bir-birlarining tillarini tushunolmaganlar. Ba'zi tillar bir necha shevalardan iborat bo'lib, maxsus turkumni hosil qilgan. Tub aholi tillarini lingvist A. Kepella olti yirik turkumga bo'ladi. 1) Janubi-sharqiy Avstraliya tillari; 2) Yangi janubiy Uels tili; 3) Shimoliy va Markaziy Kvinsland tili; 4) Markaziy va Janubi-g'arbiy Avstraliya tili; 5) Arixemlend tili; 6) Shimoliy va shimoli-g'arbiy hududdagi juda ko'p boshqa tillar. Barcha tillar o'z tuzilishi, aniqligi va so'z boyligi bilan alohida xususiyatga ega. A. Kepellaning bu klassifikatsiyasi hali takomillashmagan va ko'pchilik olimlar tomonidan qabul qilinmagan. Pater V. Shmidt Avstraliya tillarini o'zaro bir-biriga yaqin bo'lgan ikki – janubiy va shimoliy guruhlariga bo'ladi.

Aytganimizdek, har bir qabila o'z tili va shevasiga ega bo'lgan. Avstraliya tillarining umumiy soni ham qabilalar singari 500 dan

ortiq. Ular tillarning aniq tuzilishi va ravshanligi, grammatik turlarning boyligi bilan ajralib turadi. Masalan, aranda tilida 10 mingdan ortiq soʻz mavjud. Avstraliyaliklarda ogʻzaki soʻzlardan tashqari qoʻlni har maqomda qimirlatish yoʻli bilan ifodalovchi imo-ishora tili ham mavjud boʻlgan. Shu bois ham ular uzoqdan, ovoz yetmaydigan masofada bir-birlari bilan qoʻl harakati, imo-ishora orqali oʻz fikrlarini bayon qila olganlar. Ayrim tadqiqotchilarning hisobiga qaraganda, aronda qabilasi 450 dan ortiq imo-belgilarini oʻzlashtirib ular orqali ayrim buyumlardan tashqari, hatto kishi harakati, ijtimoiy atamalar, toʻliq gaplarni ham ifodalay bilganlar. Baʼzi bir fikrlar esa juda uzoqdan qoʻl bilangina emas, balki kalla va badan harakati bilan ham yetkazilgan.

Avstraliyaliklarda yana «signallar tili» ham mavjud boʻlib, narsalarni aniq belgilar yordamida ifodalaganlar. Misol uchun, oʻz joylarini tashlab ketayotganlarida oyoqlari bilan qumga chiziqlik chizganlar va chiziqlikning uchiga xivich tiqib qoʻyganlar. Chiziqlikning yoʻnalishi va uning uzunligi shu guruhning qaysi tomonga va qancha masofaga ketganligini bildirgan. Bu belgi oʻz guruhlarining kechikib qolgan aʼzolari va mehmonlar uchun ham qilingan. Shuningdek, xavf yoki motam signallari keng tarqalgan.

Yaqin davrlargacha avstraliyaliklar va qirilib ketgan tasmaniyaliklar daydi ovchilik va terib-termachilik bilan shugʻullanib kelganlar. Ularning xoʻjaliklari asosan, «oʻzlashtirish» xarakteriga ega boʻlib, tabiat mahsulotlarini ishlab chiqarmasdan tayyor holicha terib-termachlab, ovlab isteʼmol qilganlar. Ular na dehqonchilik, na chorvachilikni bilganlar. Ovchilik asosiy tirikchilik manbai va sevimli mashgʻulot hisoblangan. Avstraliyaliklar bolalarini yoshlikdan ov qilish, qurol ishlatish, hayvon izlarini aniqlash va gʻov tiklash kabi sirlarni bilishga oʻrgatganlar.

Hayvonot dunyosi nisbatan kambagʻal boʻlgan Avstraliyada tub aholi neki jonzot boʻlsa, hammasini ov qilib, isteʼmol qilgan. Ayniqsa, kenguru va tuyaqushlarni ov qilishda zoʻr mahorat koʻrsatganlar. Ular hayvonlarning izlarini tez topa bilganlar, uzoq masofagacha sabr-toqat va matonat bilan ovning payiga tushganlar. Baʼzan kenguruni yarim yovvoyi it (dingo) yordamida quvib yoki koʻpchilik boʻlib oʻrab olib nayza bilan ovlaganlar. Chunonchi, otdek tez yuguradigan emu tuyaqushini ovlash ham katta mahorat va sanʼat talab qilgan.

Baland evkalipt daraxtlariga tirmashib chiqishda jahonda avstraliyaliklarga teng keladigani yo'q. Ular daraxtlarda yashovchi parrandalarni tutish, qush tuxumi yoki yovvoyi ari asalini olish uchun nihoyatda zo'r mahorat bilan tik daraxtlarga chiqa bilganlar. Mayda hayvonlar (kemiruvchilardan yirik vombat va bandikut, turli kalamushlar, toshbaqa, kaltakesak va ilonlar)ni yer kavlagich tayoq bilan ovlaganlar. Ayniqsa, katta zaharsiz voma iloni qimmatbaho o'lja hisoblangan.

Qushlarni ovlashda eng asosiy qurol bumerang bo'lgan. Bumerangning xususiyati shundaki, mohir mergan kuch bilan irg'itganda, u o'ljaga kutilmagan tomondan borib tegishi mumkin, agar nishonga tegmasa u yana irg'ituvchining oyog'i tagiga qaytib tushadi. Bumerang turli xil bo'ladi, ammo aksariyati o'roqsimon shaklda bo'lib, uzunligi o'rtacha 75 sm (ayrimlari 2 metrgacha) keladi va yuz metr masofagacha uchadi. U bilan uchar qushlarni ham urib tushirish mumkin. Qushlarni har xil to'rlar va tuzoqlar bilan ham ovlaganlar. Baliqchilikda sanchqi, to'r, qarmoq, savat va boshqa ov qurollari ishlatilgan. Qarmoqlar suyak yoki chig'anoqdan yasalgan. Ovchilik va baliqchilikda nayza muhim rol o'ynagan. Tasmaniyaliklarda tosh qurollar va nayza ishlatilgan. Dengiz hayvonlari ugri, molluska va qisqichbaqalar sevimli taom hisoblangan. Ovchilik va baliqchilik bilan erkaklar, terib-termachlash bilan esa asosan, ayollar shug'ullangan.

Avstraliyaliklar go'sht va baliqni xom holda iste'mol qilmaganlar. Ular go'sht, qush yoki baliqni ko'pincha yaxlit holda o'tda yoki cho'g'da qovurib yeganlar. Avstraliyada turli tariq, yams va boshqa ildizmevali o'simliklar, non daraxti (bunya) yovvoyi holda o'sadi. Barcha yemishli o'simliklarni ham maydalab yoki yanchib, ezib va qovurib iste'mol qilganlar. Olovni ishqalash yo'li bilan, ba'zan yog'ochni yog'och bilan arralash yoki parmalash yo'li bilan topganlar.

Ular tosh, suyak, chig'anoq, yog'och, o'simlik tolasi, hayvon terisidan turli qurol, buyum va idishlar yasashni yaxshi bilganlar. Tosh qurollarning tiplari neolit davridagi shel va ashel yoki muste qurollariga o'xshab ketadi.

Terimchilikda yer kovlaydigan yo'g'on uchi yo'nilgan yog'och ishlatilgan. Yig'ilgan o'simlik va hayvon mahsulotlarini o'simlik tolasidan to'qilgan xalta yoki yog'och tog'oralarda saqlaganlar. Aborigenlar ayrim o'simliklarning zaharli moddasini suvda yuvib

yoki o'tda kuydirib yo'qota bilganlar. Donni maxsus tosh yorg'ichlarda va so'qilarda yanchganlar. Tasmaniyada chaqmoq-toshning bo'lmaganligi sababli tub aholi o'z tosh qurollarini qattiq qumtoshlardan yasaganlar. Ular suyakdan kam foydalanganlar, asosan, tosh, yog'och, chig'anoq, teri, charm va o'simlik tolasidan asbob va qurol yasashgan.

Avstraliyalik va tasmaniyaliklarning kiyimlari nihoyatda yupun bo'lgan. Ko'pchilik qabilalar mutlaqo kiyimsiz, yalang'och yurganlar. Ba'zi janubi-sharqiy hududlarda opossum terisidan plash tikib yopinib yurganlar. Ammo erkagu ayol asosan, bayram vaqtlarida turli bezaklar: boshiga toladan o'rov, qo'liga ip, bilaguzuk, bo'yniga munchoq, burniga buloqi sirg'a taqishgan, badanlarini bo'yab har xil patlar yopishtirganlar yoki badanlarini maxsus jarohatlab, yo'l-yo'l naqshlar tilganlar. Tanani faqat bezak uchun emas, ba'zan terini saqlash uchun ham bo'yaganlar.

Ko'pchilik qabilalar daydib yurganlari uchun muayyan qishloqlarga ega bo'lmaganlar. Janubi-sharqiy va g'arbiy hududlarda tayyor mahsulotlari tugaguncha ma'lum paytgacha bir yerda yashaganlar. Odatda har bir alohida guruh bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurgan, shuning uchun ham shox-butoqlardan chaylalar tiklab, ularni yog'och qobig'i, barg va xashak bilan qoplaganlar. Shimolda tropik yomg'irlar ko'p bo'lganligi tufayli qoziqoyoqlarga o'rnatilgan uylarni ham uchratish mumkin. Sharqiy deporalarda 12-15 va hatto 30 dan ortiq kishi yashaydigan uylar ham tiklangan.

Tub aholi asosan, yuklarni qo'lda ko'tarib piyoda ko'chib yurganlar. Daryolar va dengiz sohillarida daraxt qobig'idan va katta g'o'ladan o'yib yasalgan sodda qayiqlar va sollarda, ba'zi balansirli va yelkanli kemalarda suzib yurganlar. Tevarak-atrofdagi tabiiy muhitni yaxshi bilganlar. Ammo ishlab chiqarish kuchlari nihoyatda past, sodda holatda bo'lgan.

Beshinchi qit'ada xonakilashtiriladigan hayvonlar bo'lmagan. Yarim yovvoyi it – dingo Avstraliyaga odamlar bilan kelib birga mahalliy aholiga vafodor bo'lgani holda yarim yovvoyiligicha qolavergan. Tasmaniyada ham yirik hayvonlar bo'lmaganligi tufayli asosan, kenguru, uzun dumli qopchiqli ayiqcha (opossum), dengizda esa tulenlarni ovlash bilan cheklanganlar. Tasmaniyalik ayollar toshdan yasalgan chopqich bilan daraxtning silliq tanasiga kertik yasab, beli va daraxtga charm kamar yoki arqon tashlab, juda chaqqonlik bilan balandga ko'tarilib, shox va barglar orasiga

yashiringan opossumlarni ushlab olganlar. Ular oftobda isinib yotgan tulenlar oldiga tezlikda pisib borib ularni oddiy cho'qmor bilan ovlaganlar.

Avstraliyalik va tasmaniyaliklarning ijtimoiy tuzumi nihoyatda jo'n, ibtidoiy darajada bo'lgan. Afsus, tasmaniyaliklar juda erta qirilib ketgan, shuning uchun ham ularning ijtimoiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar juda kam saqlangan. Ba'zi manbalarga binoan, tasmaniyaliklar boshlang'ich holdagi urug'chilik tuzumi darajasida turganlar. Urug' ichida nikohga yo'l qo'yilmagan, ya'ni ekzogamiya³ tartibi hukm surgan. Urug'lar qabilalarga birlashib, muayyan hudud doirasida bir-biridan ajralgan holda ko'chib yurganlar. Har bir qabilaning chegarasi o'ziga yaxshi ma'lum bo'lgan va bu chegaralarning daxlsizligiga katta e'tibor berilgan. Tasmaniyaliklarda 20 ga yaqin qabila bo'lib, ular 12-50 odamdan iborat, lokal guruhlariga bo'lingan.

Avstraliyaliklar ham ayrim qabilalarga bo'lingan bo'lib, mustamlaka arafasida butun qit'ada 500 ga yaqin mustaqil, bir-biriga bog'liq bo'lmagan jamoa holidagi hayot kechirganlar. Hozir juda kam qabila qolgan. Ularning qabilaviy tuzumi nihoyatda sodda bo'lgan, ko'pchiligida na qabilaviy boshliq, na qabilaviy kengash bo'lgan. Tub aholi ishlab chiqarish munosabatlarining asosini ijtimoiy mulk tashkil qilgan. Ammo ijtimoiy tuzum va munosabatlar ancha murakkab bo'lgan. Yuqorida qayd qilganimizdek, qabilalar yuztadan to bir ikki mingga yaqin kishidan iborat bo'lgan. Qabilaviy tuzum qoidalari shunchalik qattiq bo'lganki, unga rioya qilmaganlar qatl qilingan yoki qabiladan haydalganlar, ya'ni tabiiy o'limga hukm etilganlar. Chunki, ibtidoiy jamoa sharoitida jamoadan ajralgan odam mustaqil yashay olmagan.

Har bir qabila joylashuviga qarab ayrim lokal guruhlariga bo'lingan. Bunday guruhlar odatda muayyan munosabatlar bilan o'zaro bog'langan bo'lib bitta juft qabilani tashkil etgan. Aslida Avstraliya qabilasining ikki «pallaga» yoki ikki «nikoh sinfiga» bo'linishi ibtidoiy jamiyatga xos dual tashkiloti bilan bog'liqdir. O'z navbatida har «palla» ikki bo'lak urug'dan iborat. Ilk qabila tuzilishining keyingi bu ikki shakli fratriy sistemasi, deb atalgan.

³ Ekzogamiya – jamoa-urug'chilik tuzumiga xos urug'doshlar orasidagi nikohni man etuvchi ibtidoiy qonun-qoida tusiga kirgan odat

Fratriya (grekcha «birodarlik» degan ma'noni anglatadi) nikoh tartibiga binoan bir «pallaga» mansub bo'lgan odamlar o'zaro nikohlana olmaydi, balki ular qarama-qarshi «pallaning» odamlari bilan nikohlana olishi mumkin, boshqacha qilib aytganda er va xotin doimo qabilaning har xil «pallasiga» mansub bo'lishi kerak edi. Misol uchun, bir avstraliya qabilasining ikki «nikoh sinfi»ga — kroki va kumetaga bo'linishi fratriy sistemasining namunasidir. Bu sistema fanda dual ekzogamiya deb ham aytiladi. Mazkur tartibga binoan bir «palla» yoki bir urug'ning a'zolari o'rtasida nikohning bo'lishi mumkin emas, tug'ishgan opa va singillar o'rtasida ham, shuningdek, yon tomon qarindoshlar o'rtasida ham (ona tomondan) nikoh bo'lishi istisno etiladi, ya'ni katta va kichik avlodni bir-biri bilan nikohlanishiga yo'l qo'ymaydi. Shunday qilib, bir fratriya (yoki shundagi urug'lardan biri) boshqa fratriyaga nisbatan (yoki undagi boshqa urug'ga) «ona fratriyasi» (yoki urug'i), ikkinchisi esa «ota fratriyasi» (yoki urug'i) hisoblanadi. Har bir fratriya o'zining nomiga ega bo'lib, asosan, uning ajdodi hisoblangan hayvon nomi bilan bog'liq bo'lgan. Rus olimlarining fikricha, avstraliyaliklarning fratrial sistemasi urug'chilik tuzumining dastlabki shaklidir.

Urug' yoki fratriya ajdodining ayrim hayvon nomi bilan atalishi Avstraliyada keng tarqalgan totemistik⁴ tasavvurlar bilan bog'liq. Ular orasida iqtisodiy tabaqalanish bo'lmagan. Har bir lokal guruh bir avlod sifatida yoshiga va jinsiga qarab bo'lingan va mehnat taqsim qilingan. Erkaklar ishlab chiqarish qurollari yasaganlar, ov qilganlar, oilasini qo'riqlaganlar, ayollar esa terimchilik qilganlar, bola boqqanlar, ov va terim mahsulotlariga ishlov berib, ovqat tayyorlaganlar. Ijtimoiy mahsulotlar teng bo'lingan, shaxsiy mulkni bilmaganlar. Ijtimoiy va nikoh-oila munosabatlarini murakkab odat va dasturlarga asoslangan maxsus tizimga ega bo'lgan.

Nikoh va oila munosabatlarida fratrial va urug' cheklanishlardan tashqari seksiya yoki «nikoh sinflar»iga bo'linish muhim ahamiyat kashf etgan. Masalan, qabila I va II fratriyaga bo'lingan bo'lib, I fratriyada A va B seksiyalari, II fratriyada esa V va G seksiyalari mavjud. A seksiyasidagi erkak faqat V seksiyasidagi

⁴ Totemizim – odam yoki urug'ning bir hayvon, o'simlik yoki ayrim tabiiy narsa bilan «qarindoshlik» aloqasi borligi to'g'risidagi diniy e'tiqod

ayolga uylanishi mumkin, ularning bolalari G seksiyasi (ona urug'i hisobi)ga tegishli; B seksiyasidagi erkak faqat G seksiyasidagi ayolga uylanishi mumkin, ularning farzandlari V seksiyasiga tegishli. Shunday qilib, nabiralar ota tomondan bobo seksiyasiga, ona tomondan buvi (momo) seksiyasiga tegishli hisoblangan. Avstraliyalik aborigen rassom Dik Rafsi o'z biografiyasida yozadi: «Meni dadamning aka-ukasi mening tog'am emas; ular ham menga dada. Uning bolalari ham menga qarindosh, aka-uka va opa-singillarim hisoblanadi. Dadamning opa-singlisini men amma deyman, uning bolalari esa ammavachcha bo'ladi. Oyimning opa-singlisini men oyi deyman, ularning bolalarini aka-uka va opa-singil, deb hisoblayman. Oyimning aka-ukalari menga amaki bo'lib, meni erkaklar qatoriga o'tkazish (initsiatsiya) marosimiga tayyorlash va tarbiya qilishga javob beradi. Uning bolalari menga amakivachcha singillarimga uylanishim mumkin, ayniqsa, ona urug'idan, ammavachchalarga»⁵. Shimoliy Avstraliyada U. Cheslingning ta'rificha, yigit ona tomonidan aka-ukasining qiziga uylanishi mumkin, ammo dadasining singlisi qiziga uylanishi qat'iyon taqiqlangan⁶. Mazkur nikoh tartiblarini buzish juda katta gunoh hisoblangan va kim uni buzsa yo qatl qilingan, yo urug'dan haydalgan.

Voyaga yetgan o'spirinlarni kattalar guruhiga o'tkazishda maxsus initsiatsiya marosimi amalga oshirilgan. Iqtisodiy yoki sotsial tabaqalanish bo'lmaganligi tufayli avstraliyaliklar jinsiga qarab bo'lingan. Shuning uchun ham, masalan, o'g'il bolalarni ovchilar guruhiga o'tkazish uchun bolaning yoshligidan tarbiyalashgan. Dastlab, ular voyaga yetgach boshqalardan ajratib qo'yilgan va ba'zi taomlarni iste'mol qilish man qilingan, tishlarini urib sindirish, badanini jarohatlash, o'tda tutatish kabi jismoniy sinovlardan o'tkazilgan. Bir necha yilga cho'zilgan initsiatsiya marosimlarida yoshlarni qabila urf odatlari, afsona va rivoyatlari bilan tanishtirganlar, qariyalarni hurmatlash va tartib-qoidalarga qattiq rioya qilishni, ovchilik va boshqa kasb sirlarini egallash mahoratini o'rgatganlar. Initsiatsiya davri

⁵ Дик Рафси. Луна и радуга. — М.: «Наука». 1978, стр. 21.

⁶ У. Чеслинг. Среди кочевников Северной Австралии. — М.: изд-во Восточной литературы. 1961, стр. 83.

voyaga yetgan o'g'il bolalarni sunnat qilish marosimi bilan tugaydi.

Sunnat marosimi Dik Rafsi ma'lumotlariga qaraganda, qabila a'zolarining maxsus maydoniga to'planishi bilan boshlanadi, u yerga beliga to'qilgan belbog' bog'langan bolani olib kelib erkaklar orasiga o'tkazadilar. Ikki kun davomida erkak va ayollar ashula aytib raqsga tushadilar. Uchinchi kuni ertalab bolaning qarindoshlaridan uch kishi yerga cho'zilib yotadi, ularning ustiga bola yotqizilib, baliq suyagidan ishlangan maxsus pichoq bilan sunnat qilinadi va kesilgan joyga kul sepiladi. Kesib olingan qismi choy daraxti qobig'iga o'rab qo'yiladi va olti oydan keyin uni bolaning o'ziga sovg'a qiladilar. Sunnat qilingan bola o'rnidan turib, o't yoqilgan o'choq oldida tiz cho'kadi va kesilgan joyini quritadi.

Marosim tugagach, o'spirin bir oz vaqt yolg'iz yashaydi, muayyan ovqat yeydi, boshqalar bilan faqat imo-ishora bilan gaplashadi. U amakisining tarbiyasida yarim yil davomida jamoadan ajralgan holda yashaydi. Amakisi unga ov sirlarini, qabila qonunlarini, nayza va boshqa qurollardan foydalanish usullarini o'rgatishi zarur.

Shu muddat o'tgach, bolani dengiz sohiliga olib borib cho'miltiradilar, turli sovg'alar in'om qiladilar, ayollardan biri uning boshiga to'r soladi. Demak, bola endi ovchilar qatoriga o'tgan hisoblanadi. O'sha kecha yana bazm boshlanadi, ashula aytilib, muqaddas o'yinlar ijro etiladi. Ashulachi oldiga o'tkazilgan o'spiringa yana sovg'alar beriladi. Eng birinchi sovg'a sifatida sunnatda kesilib quritilgan va choy daraxtiga o'ralgan falos qismi topshiriladi. Keyin nayza, bumerang, to'r va boshqa in'omlar beriladi. Oxirida qaysi qiz unga kelin bo'lib atalganligi e'lon qilinadi. Shuning bilan sunnat marosimi tugaydi, o'spirin endi ovchi erkaklar guruhining to'liq huquqli a'zosi hisoblanadi. Alalxusus, qizlarni ham ma'lum yoshga yetganlarida muayyan marosimlar o'tkazib oilaviy hayotga tayyorlaganlar.

Barcha dastur va marosimlarni o'tkazishda tajribali va hurmatli, yoshi katta mo'ysafidlarga tayanganlar. Ular bu marosimlarda rahbarlik qilganlar.

Qabilalar orasidagi mojaro va kelishmovchiliklar ba'zan urush olib kelgan. Urushga odatda qabila hududini egallash, xotinlarni olib qochish, sehrgarlikda ayblash, urug'doshlarni o'ldirish va hokazolar sabab bo'lgan. Xun olish avlodma-avlod o'tib kelgan. Ammo qirg'inbarot urushlar juda kam bo'lgan. Odatda qabilalararo

to'qnashuvlar va yoki janjallar bir necha qurbonliklar yoki yaradorlar paydo bo'lishi bilan to'xtatilib, tinchlik muzokaralari boshlangan va maxsus marosimlar bilan tugagan.

Qabilalar orasidagi munosabatlar ko'pincha tinch-totuv xarakterga ega bo'lgan. Qabilalar o'rtasida tosh qurol-aslaha va buyumlar, noyob xomashyo (bo'yoq, narkotik o'simlik, chaqmoqtosh va hokazo) almashib turilgan. Har bir qabilaning o'z almashuv mahsuloti, uning o'rniga oladigan moli ham aniq bo'lgan. Almashuv savdosi odatda maxsus marosim va bayramlar bilan nishonlangan.

Avstraliyaliklarning ma'naviy madaniyati, diniy e'tiqodi ishlab chiqarish kuchlarining darajasi va ijtimoiy tuzumiga mos kelgan. Ularning tasavvurida butun tevarak-atrof g'ayritabiiy kuchlar, turli maxluq va arvohlar bilan to'la. Avstraliyani odatda totemizm vatani deydilar. Eng ibtidoiy din shakllaridan biri hisoblangan totemizm falsafasi bilan uyg'unlashib ketgan kishilar, urug' yoki qabilalar o'zlarini muayyan moddiy buyumlar, asosan, ayrim jonivorlar yoki o'simliklar bilan yaqin qavm-qardosh, deb biladilar va shunga ishonadilar. Shuning uchun ham, ayrim urug'lar totemistik guruh hisoblanib, hayvonlar yoki o'simliklarning, ba'zan jonsiz buyumlarning nomi bilan atalganlar. Shu nomdagi hayvon yoki o'simlikka – bobo, dada yoki aka-uka qarindosh deb ishonilgani uchun ularni o'ldirish, iste'mol qilish qattiq man etilgan.

Markaziy Avstraliyada afsonaviy ajdodlarning arvohlari muqaddas buyumlarga ko'chirilgan. Bunday buyumlar odatda sehrli belgilar chizilgan taxta – churingidan iborat bo'lib, uni maxsus joyga yashirganlar. Har bir totemistik guruh o'zining churingisi yashiringan muqaddas joyga ega bo'lgan. O'sha yerda yilda bir marta maxsus marosim (intichiuma) o'tkazilgan.

Avstraliyaliklar orasida turli sehrgarlik, duogo'ylik, ziyon yetkazish magiyasi juda keng tarqalgan. Dushman qabilalar turli duolar bilan ziyon yetkaza bilish qobiliyatiga ega, degan tasavvurlar muhim rol o'ynagan. Tub aholi tushunchasida dushman uzoqdan ziyon yetkazmoqchi bo'lgan kishiga uchi yo'nilgan yog'och, o'tkir suyak to'g'rilab nafratli duo o'qisa shu kishi yo kasal bo'lar, yo o'lar emish. Sehrgarlik bilan birovni sovutish yoki maftun qilish (sevgi magiyasi), yomg'ir yog'dirish (obi havo magiyasi), davolash (duoxonlik magiyasi) kasbini egallagan maxsus folbin va duoxonlar shug'ullangan.

Magik tasavvurlarga nisbatan Avstraliya qabilalarida animizm (jonga ishonish) kam tarqalgan. Ularda kosmogonik afsonalar ham rivojlangan. Jonning narigi dunyoda yashashiga ishonganlar. Avstraliyaliklarning diniy e'tiqodida hukmron va qaram bo'lish tushunchalari yo'q. Ular o'z totemlariga itoat qilib tiz cho'kmagan. Bu elat na buyuk arvoh, na xudo to'g'risida tasavvurni, na qurbonlik, na ibodatxona, na avliyoni bilganlar. Faqat turli sehrgarlik marosimi va odatlar, kohinlar o'rniga folbin va duoxonlar, muqaddas avliyolar va machit o'rniga buyumlarning saqlanish joylari ibtidoiy dunyoning asosiy ifodasi edi.

Avstraliyada xalq og'zaki ijodi dastavval rivoyatlar, afsona va ertaklar, ashula va raqslarda namoyon bo'lgan. Afsona va rivoyatlar, asosan, totemistik tasavvurlar bilan bog'liq bo'lsa ham muqaddaslashtirilmagan, tinglovchilar ularning haqqoniyligiga ishonishmaydi, kulgi va hazil bilan qabul qilishadi. Afsona personajlari (kishi yoki hayvon) hech qanday qahramonlik ko'rsatmaydi, odatdagicha ko'chib yuradi, ov qiladi, yeydi, yotadi, ba'zan urushadi va bir-birini o'ldiradi.

Musiq kuylari odatda raqslarga jo'r bo'ladi. Ularning raqslari ko'pincha jamoa xarakterida (orro bori) bo'lib, turli ma'noni tasvirlaydi, ayrimlari totem bilan bog'liq dramatik afsonalarni ifodalaydi. Barcha o'zaro uchrashuvlar, tadbir va marosimlarda raqs ijro etilgan.

O'ziga xos tasviriy san'at ham turli ijtimoiy va diniy ehtiyojlarga bo'ysundirilgan. Unda ayrim primitiv, realistik tasvirlar bilan bir qatorda, har xil shartli belgilar – chiziq, nuqta, doira kabilar totemistik tasavvurlarni ifodalagan. Turli naqshlar va ornamentlar qurollarga, marosimlarda kishi badaniga, sirli belgilar esa churungi va boshqa diniy buyumlarga, qoya va toshlarga yasalgan. Tasmaniyaliklar ham bezaklarni va badan bo'yashni bilganlar.

Ancha oddiy kishilarning bilimlari tevarak-atrofdagi tabiiy sharoitga moslashgan bo'lib, ishlab chiqarish tajribasiga bo'ysundirilgan. Avstraliyaliklar o'z guruhi ko'chib yuradigan hududni juda yaxshi bilganlar, bepoyon dashtlarda suv, yo'l va taom topish usullarini egallaganlar. Tabiblarning sehrli tajribasidan tashqari har bir avstraliyalik ayrim kasallik va yaralarni davolash yo'llarini ham bilgan. Ular ibtidoiy tabobat qo'lga kiritgan barcha bilimlardan foydalanganlar, maxsus tayyorlangan tarkibiy dorilarni ham, o'simlikdan qaynatilgan va kukun holidagi dorilarni ham

ishlatganlar, qon oqishni to'xtatish, singan joyni tuzatish kabi jarrohlik usullaridan xabardor bo'lganlar.

Avstraliyaliklar o'z vatanining botanika va zoologiyasini yetarli ravishda egallab, har bir hayvon va o'simlikka nom berganlar. Ular anatomiya bo'yicha (asosan, suyaklar) yetarli bilimga ega bo'lsalar ham fiziologiya sohasidagi tasavvurlari nihoyatda xayoliy bo'lgan. Masalan, jinsiy aloqa natijasida bola tug'ilishi o'rtasidagi bog'lanishni mutlaqo bilmaganlar. Diagnostika sohasida ham bilim juda past bo'lsa-da, turli kasalliklar orasidagi farqni ajrata bilishgan. Umuman, o'tkir kuzatuvchilik va tevarakatrofni, tabiatni chuqur o'rganish natijasida avstraliyaliklar va tasmaniyaliklar ishlab chiqarishga, odam sog'ligi va rivojiga zarur bo'lgan belgilarni, dastlabki ijobiy bilimlarni o'zlashtirganlar. Bu to'g'ridagi ma'lumotlarni turli davr olim va sayyohlari yozib qoldirishgan.

Beshinchi qit'aga to' XVIII asr oxirlarigacha yevropaliklar oyoq bosmagan. Qit'a aslida XVI asrlardan ma'lum bo'lsada, uni mustamlaka qilish 1770-yillardan boshlanadi. O'sha davrda Avstraliyani mashhur ingliz sayyohi J. Kuk ikkinchi marta «kashf» qilgan. Bu yer dastlab Angliya josuslarini surgun joyiga aylangan. XIX asrning o'rtalaridan, ayniqsa, qit'ada oltin topilganidan keyin erkin «oq tanlilar» ko'plab kela boshlaydi. Tasmaniyada yevropaliklar birinchi marta 1803-yilda paydo bo'la boshlagan edi. Kelgindi mustamlakachilar bilan tub aholi orasida birinchi davrlardayoq jiddiy to'qnashuvlar boshlangan. Chunki, yevropaliklar ovga boy yerlarni egallab mahalliy qabilalarni haydab chiqara boshlaganlar, qarshilik qilganlarni qirganlar. Shunday qilib, qisqa muddat ichida, asosan, Britaniya va Irlandiyadan kelgan mustamlakachilar tub aholining eng serunum, tirikchilik uchun zarur bo'lgan yerlaridan o'lkaning ichki qismi tomon – bepoyon suvsiz dashtlarga yoki shimoldagi chalgazor to'qaylarga siqib chiqarib, ularni tabiiy qirg'inga hukm qilganlar. Tasmaniyaning tub aholisi 1870-yillarga kelib butunlay qirilib ketgan. Hozir Avstraliyada aborijenlar 100 mingga ham yetmaydi, ya'ni mustamlakachilik arafasidagi tub aholi soniga nisbatan deyarli to'rt-besh barobar kamayib ketgan. Ular nihoyatda og'ir sharoitda hayot kechirmoqda. Ayniqsa, daydichilikda turmush kechirayotgan qabilalar achinarli ahvolda yashamoqdalar.

Avstraliyaning hozirgi aholisi, yuqorida aytilgandek, Angliya, Shotlandiya va Irlandiyadan kelganlarning avlodidir. Ammo shunga qaramay ular boshqa dastlabki kelgan yevropaliklar bilan birga yangi shakllanayotgan Avstraliya millatini tashkil qiladilar. Mamlakatning iqtisodiy mavqei yirik industrial-agrar xarakteri bilan belgilanadi. Unda zamonaviy sanoatning barcha muhim sohalari, jumladan, elektrotexnika, ximiya, metallurgiya, mashinasozlik, rivojlangan qishloq xo'jaligi, ayniqsa, chorvachilik va hokazolar mavjud.

Beshinchi qit'a har xil qazilma boyliklarga ega. Eng yuqori sifatli jun ishlab chiqarishda va eksport qilishda Avstraliya dunyoda birinchi o'rinni egallaydi.

Okeaniya deb atalgan bepoyon Tinch okeanida joylashgan ko'p sonli katta-kichik arxipelag va orollarda turli xalq va elatlar yashaydi. Odatda ularni uch qismga bo'ladilar. Polineziya Yangi Zelandiya bilan, Melaneziya Yangi Gvineya bilan va Mikroneziya. Okeaniya xalqlari beshinchi qit'a aholisiga qaraganda nisbatan yuqori madaniyatga ega bo'lgan.

Dastlabki odamlar Melaneziyaga Janubi-sharqiy Osiyodan neolit davri boshlarida kelganlar. Antropologik jihatdan umuman yagona tipga ega bo'lgan melaneziyaliklar (qora tanli, jingalak sochli negroidlar mazkur viloyat nomini kelib chiqishiga sabab bo'lgan, chunki melaneziya – «qora orollar» degan ma'noni anglatadi) Okeaniyaning eng qadimiy aholisi hisoblanadi.

Sharqiy va Shimoliy Tinch okeanida joylashgan polineziyalik va mikroneziyaliklar, shubhasiz, ancha keyin kelib o'rtnashgan. Bir necha yuz va hatto ming kilometrlab uzoqlikda cheksiz va dahshatli okeanda qad ko'targan son-sanoqsiz mayda orollarni egallash uchun albatta yuksak madaniyatli, ayniqsa, kemasozlik va dengiz sayohati sirlarini yaxshi bilgan kishilar zarur edi. Hozirgacha tadqiqotchilar orasida bunday jasur va mohir dengiz sayyohlarining vatani qayerda ekanligini aniqlash yo'lida murosasiz bahs va tortishuvlar davom etmoqda. Yuqorida mashhur norveg sayyoh olimi Tur Xeyerdal, atoqli polineziyalik etnograf Te Rangi Xiroa (Piter Bak) va boshqalarning mulohazalarini keltirgan edik. Gavayya, Pasxa, Taiti va boshqa orollarda topilgan ajoyib arxeologik buyumlar, nihoyatda bahaybat tosh haykallar, ko'p kishi sig'adigan, uzoq masofaga mo'ljallangan yelkanli katta kemalar va boshqalar okeaniyalik-

larning yuksak madaniyatli ajdodlar avlodi ekanligidan dalolat beradi.

Antropologik va lingvistik jihatdan ham polineziyaliklar Janubiy Osiyoga borib taqaladi. Ular til va madaniy qiyofasi bilan umumiy xarakterga ega bo'lsa-da, irqiy jihatdan negro-avstraloid va mongoloidlar aralashmasidan tashkil topgan o'ziga xos tipdan iborat. Malayya-polineziya til oilasiga kirgan indoneziya tiliga yaqin ekanligi ham polineziyaliklarning vatani Osiyo bilan bog'liq degan fikrni ma'qullaydi. Moddiy va ma'naviy madaniyat belgilarining ancha qismi ham polineziyaliklarni Indoneziya va Hindi-Xitoy (Malayziya) bilan bog'laydi.

Polineziyaliklar ajdodlarining Janubiy Osiyodan ko'chish davri eramizning birinchi asrlariga to'g'ri keladi. Bepoyon Tinch okeani tomon juda ko'p elatlarni siljitgan «buyuk ko'chish» oqimi uzoq davr davom etib to XVI asrgacha cho'zilgan. Shunisi ham diqqatga sazovorki, polineziyaliklar bir-biridan qancha uzoq joylashmasin, kelib chiqishi to'g'risidagi rivoyatlar juda aniq va bir-biriga yaqin, ham o'xshash. «Buyuk ko'chish» asosan, ikki yo'l bilan: birinchisi, Yangi Gvineya bo'ylab Melaneziya orollari orqali, Fidji, Tongo va Samoa usti bilan, ikkinchisi – «shimoliy» yo'l, ya'ni Mikroneziya orollari, Gilbert arxipelagi orqali Markaziy Polineziya, Taiti orollariga ko'chib borilgan. Ba'zi tadqiqotchilar ko'chish faqat «shimoliy» yo'l bilan, ayrimlari faqat «janubiy» yo'l bilan ro'y bergan deb uqdirishga intiladilar. Ko'chish ikki yo'l bilan bir vaqtning o'zida bo'lib turgan, degan fikr tarafdorlari ham bor.

Mikroneziya aholisining kelib chiqishi to'g'risidagi aniq ma'lumotlar yo'q. Antropologik jihatdan ular polineziya, melaneziya va malayya tiplari birikmasini o'zida mujassamlashtirgan. Ammo madaniy jihatdan mikroneziyaliklar polineziyaliklarga ancha yaqin turadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, dastlabki odamlar Melaneziyaga – ming yillar muqaddam kela boshlagan. N.N.Mikluxo-Maklay Avstroosiyo, shu jumladan, Melaneziya dastlab yagona «papas irqi» aholisi tomonidan egallanib, keyin Okeaniyaga tarqala boshlagan, deb taxmin qilgan. Bugungi kun olimlari ham mazkur fikrni davom ettirib, o'zaro yaqin antropologik tiplarning uzoq davr ichida davom qilgan migratsiyasi natijasida hozirgi aholi

tipi paydo bo'lgan deb tasdiqlamoqdalar. O'ziga xos tili, madaniyati va antropologik tipi bilan ajralib turgan Melaneziya aholisi bunga dalil bo'la oladi.

Uning eng qadimiy qismi negritos va papuaslar hisoblanadi. Negritos qabilalar asosan, Yangi Gvineyaning o'rta tog' hududlarida va qisman Yangi Gebridda yashaydilar. Ular o'zlarining past bo'yli (erkaklar 145 sm gacha), kalta jingalak sochlari, to'g'ri va keng burni, ochiq jigarrang badani bilan ajralib turadi. Asl melaneziyaliklarning o'zlari o'rta bo'yli, negritoslarga nisbatan qoraroq tanli bo'lib, Yangi Gvineyaning sohillarida va Markaziy Melaneziyada joylashganlar. Papuaslar asosan, o'rta bo'yli (162-165 sm), bir oz to'lqinsimon uzun sochli, semitik tipdagi burunli, pragmatizmi sezilarli, yuzlari cho'zinchoqroqdir.

Melaneziyaliklar papuaslarga qaraganda moddiy va ma'naviy jihatdan ancha yuqori madaniyatli hisoblanadilar. Ular kulolchilikni bilganlar, Yangi Gvineyaga dastlab o'q-yoy keltirganlar, papuaslarga tatuirovka qilishni, nog'ora qoqishni, initsiatsiya marosimi va «erkaklar uyi»dan foydalanish yo'llarini o'rgatganlar. Shunday qilib, melaneziyaliklar keyin kelgan yuqori madaniyatli guruh sifatida Yangi Gvineya aholisining taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Okeaniya tub aholisining tillari ikki katta turkumga bo'lingan: Yangi Gvineya va qisman qo'shni orollardagi o'ziga xos papuas tili hamda juda keng hududga tarqalgan malayya-polineziya tillaridir. Yangi Gvineyada ancha davr yashagan N.N. Mikluxo-Maklay jahon tillari ichida ajralib turgan papuas tili juda ko'p shevalarga bo'linganligini aytib, hatto har qaysi qishloq shevasiga ega ekanligini alohida qayd qilgan. Binobarin, umumiy xarakterga ega bo'lgan polineziya tillarini bir-biridan juda uzoq joylashgan elatlar o'zaro shuncha yaxshi tushunganlarki, ularni bir tilning shevalari, deb atash mumkin.

Bir-biridan minglab kilometr uzoqda yashagan yangi zelandiyalik – taitiyalik tilini, samoalik – gavayyalik tilini bimalol tushunavergan. Shuni ham qayd qilish lozimki, polineziya tillari nihoyatda boy va go'zal, unda abstrakt tushunchalar, metafora va o'xshatishlar, poetik iboralar va kosmogonik atamalar ko'p uchraydi.

§-2. POLINEZIYA VA YANGI ZELANDIYA XALQLARI

Tinch okeanining markaziy qismida keng, taxminan bir million kvadrat kilometr suv sathidagi son-sanoqsiz katta-kichik orollardan iborat Polineziya («Ko'p orollik») shimolda Gavayya arxipelagi, janubda eng katta qo'shorol – Yangi Zelandiya va sharqda Pasxa uchburchagi joylashgan. Asosan, vulqon va marjonlardan paydo bo'lgan Polineziya orollari (Yangi Zelandiyani hisobga olmaganda) 26 ming kvadrat kilometrdan ortiq hududga ega, shundan 17 ming kvadrat kilometri faqat Gavayya arxipelagiga tegishli, 220 ta orol esa har bittasi bir kvadrat kilometrdan ham kam joyni egallaydi.

Polineziyaning tabiati va hayvonot dunyosi ancha qashshoq bo'lib, hududining ko'p qismi abadiy yashil tropik o'rmonlar va savannalardan iborat. Okean yuzida minglab mayda orol va riflar paydo bo'lib, ba'zan yo'qolib ketadi. Polineziya hududiga Yangi Zelandiya (uning hududi 265 ming km²)dan tashqari to'qqizta katta arxipelag – Gavayya, Samoa, Jamiyat orollari, Markiz, Tonga, Tuamotu, Kuk, Tubuan, Ellis va boshqa juda ko'p yirik hamda mayda orollar kiradi. Yangi Zelandiyada hozir uch milliondan ortiq aholi bo'lsa, umuman Polineziyada 1,5 mln.ga yaqin kishi yashaydi. O'tgan asrning oxiriga kelib Okeaniya aholisining soni 10 million kishidan oshib ketdi.

Polineziyaliklarning bepoyon okean sathidagi orollarga joylashuvi to'g'risida juda ko'p turli mulohaza va farazlar mavjud edi. So'nggi 10-15 yillar mobaynida o'tkazilgan tadqiqotlar, ayniqsa, arxeologik kashfiyotlar, Okeaniya tillarini jiddiy o'rganilishi natijasida mazkur masalaga ancha aniqliklar kiritdi. Antropologik jihatdan tub polineziyaliklar asosan, mongoloid, avstrolo-negroid va qisman yevropoidlarning aralashmasidan paydo bo'lganlar. Eng keng tarqalgan fikrga binoan mazkur tiplar Polineziyaga Fidji arxipelagi, keyin Tonga va Samoa orollari orqali eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalaridan boshlab kirib kela boshlagan. Ular o'ziga xos maishiy turmush va madaniyat asosida umumiy polineziya etnik birligini yaratib eramizning birinchi va ikkinchi ming yilligi davomida asta-sekin butun Polineziyani egallab olganlar. Bu fikrni mahalliy orolliklarning rivoyatlari, tili, madaniyati va irqiy tiplarini jiddiy o'rgangan polineziyalik atoqli olim Te Rangi Xirao har tomonlama yoqlaydi.

Ammo ayrim olimlar, dastavval mashhur norveg tadqiqotchisi Tur Xeyerdal, Polineziyaga odamlar birinchi bo'lib Janubiy

Amerikadan, chunonchi, qadimda yuksak madaniyat markazi bo'lgan And tog'laridan ko'chib kelganlar, degan g'oyani ilgari surdilar. Tur Xeyerdal o'z fikrini isbotlash maqsadida 1947-yili beshta hamrohi bilan «Kontiki» nomli maxsus kemada Perudan Tuamotu orollarigacha sayohat qiladi. U juda ko'p manba to'playdi, ayniqsa, Pasxa va Markiz orollarida toshdan yasalgan katta haykallar, yozuv qoldiqlari, ayrim ekinlar va boshqa dalillarga tayanib, Polineziya orollarini, dastavval faqat Amerikadan kelgan kishilar egallagan, degan xulosaga keladi. Buning dalili sifatida hozirda unut bo'lib ketgan kulolchilik, temir ishlab chiqarish, to'qimachilik sanoati namunalarini ayrim orollarda (Markiz, Samoa, Tonga) topilganligini ko'rsatadi. Ammo polineziyaliklar tabiati, hayvonot va o'simlik dunyosi, qazilma boyliklari kambag'al bo'lgan orollarga ko'chib kelib, ajdodlari yaratgan xo'jalik sohalarini unutib, yangi sohalarni o'zlashtira boshlaganlari hammaga ma'lum. Yangi Zelandiyada to'qimachilik qayta tiklangan va maoriylar yovvoyi holda o'suvchi zig'irpoya tolasidan turli matolar to'qishni o'zlashtira boshlaganlar.

Mustamlakachilar kelgunga qadar, ya'ni XVI asr boshlarida orolliklarning asosiy tirikchiligi yo'g'on yo'nilgan yog'och bilan yerga ishlov berib dehqonchilik qilish va dengiz mahsulotlaridan foydalanish evaziga o'tgan. Ovchilik deyarli bo'lmagan, o'q-yoy faqat turli musobaqa o'yinlarida ishlatilgan. Hunarmandchilik esa dehqonchilikdan ajralgan holda rivojlana boshlagan. Ayniqsa, kemasozlik yaxshi taraqqiy topgan. Polineziyaliklar nihoyatda mohir dengizchilar hisoblanishgan. Maori, taiti, tonga va fidjiylar yasagan yelkanli katta kemalarda o'nlab-yuzlab kishilar uzoq safarga chiqqanlar. Shuningdek, ular kuchli to'lqinlarga moslashgan yog'och balansirli va katta qo'sh kema – katamaranlarni ham yasaganlar. Bunday kemalarda yuzlab, minglab kilometr masofani suzib o'tish mumkin bo'lgan.

Ishlab chiqarish qurollarini asosan, toshlarni silliqlab va chig'anoqlar bo'laklaridan yasaganlar. Har xil bolta va pichoqlardan tortib, nayza uchlari, qirg'ichlar, bigizlar, qarmoq va boshqa buyumlarni ham yasay boshlaganlar. Tosh yo'nish, haykaltaroshlik, o'ymakorliklarni, ayniqsa, maoriylar yog'och devorlar va darvozalar, uy qurilishlarida juda keng qo'llaganlar.

Hozir ham polineziyaliklarning ko'pchiligi tropik tipdagi dehqonchilik ildizli ekinlar – yams, taro, batata va ayniqsa, mevali

palma, banan daraxtlari: banan, pizanga ekish va baliqchilik bilan shug'ullanadilar. Uy hayvonlaridan tovuq, cho'chqa va it saqlaydilar. Chorvachilik Yangi Zelandiyada eng asosiy soha bo'lib, umumiy qishloq xo'jaligining 80 foizini tashkil qiladi. Dunyoda Yangi Zelandiya sariyog' ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Okean sohillari va atollarda yashovchi aholining erkak qismi asosan, baliq ovlash bilan band. Ular qarmoq, sanchqi, to'r va hatto o'simlik zahari bilan ham ov qiladilar.

Uy-ro'zg'or buyumlari yog'och, bambuk, kokos yong'og'i po'stlog'idan, o'simlik tolasidan to'qiladi. Ovqatni butun Okeaniyada keng tarqalgan «yer o'chog'ida» pishirganlar. Olovni ikkita yog'ochni ishqalash yo'li bilan chiqarganlar va o'tda toshni qizdirib, uning orasiga yaproqqa o'ralgan xom taom qo'yilib o'tin va xashak bilan bekutilib pishirilgan.

Dehqonchilik va dengizchilik polineziyaliklarning asosiy kasbidir. Ular qishloqlarda yengil ustunlarga o'rnatilgan uylarda istiqomat qilganlar. Mahalliy aholi uy qurish, bo'ya to'qish va maxsus daraxt po'stlog'ining (figa yoki non daraxti) tolasi – tapadan kiyim tikishda ham zo'r mahoratga ega bo'lganlar. Tapadan tikilgan har xil yubkalar, etakli belbog'lar, zig'irpoya tolasidan tikilgan yoki yaproqdan ishlangan plash ularning asosiy kiyimi bo'lgan. Ular tapa parchalarini naqshlar bilan bezatganlar, sochlariga turli taqinchoqlar taqqanlar. Gavayya orollarida boy tabaqaga oid kishilar bir necha qavat yubka, qushlarning teri va patlaridan to'qib tikilgan plash kiyganlar. Bosh va oyoq kiyim kiyimaganlar. Ammo boshga naqshli lentalar va bargaklar taqish, bilaguzuk va gulchambarlar osish odat bo'lgan. Hozirda orolliklar noqulay bo'lsa-da, yevropacha kiyinishga odatlanib bormoqdalar.

Polineziyaliklarning ijtimoiy tuzumi Yevropa mustamlakasi arafasida qo'shni melaneziyaliklarga nisbatan ancha yuqori turgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib sinfiy tabaqa guruhlariga paydo bo'lgan. Ijtimoiy hayotda qo'shnichilik va qishloq jamoasi muhim rol o'ynagan. Eng asosiy ishlab chiqarish vositalari – yer, o'rmon va dengiz boyliklari, katta kema to'rlari jamoaning mulki hisoblangan. Mehnat burch va huquq, jins va yoshiga qarab taqsimlangan. Uch-to'rt avloddan iborat qavm-qarindoshlar guruhi har bir jamoaning sotsial negizini tashkil qilgan. Pog'onaning eng yuqorisida qabila boshlig'i, zodagon va koinlar, o'rtada erkin jamoa a'zolari va eng pastida qullar turgan. Quldorlik patriarxal tipda bo'lgan. Ayrim ar-

xipelag va orollar (Gavayya, Taiti, Tonga va hokazo)da primitiv tipdagi davlat ham paydo bo'lgan. Oila jamoasi 30-40 kishidan iborat bo'lib, jamoaviy mulkka tayangan. 5, 10, 15 va ba'zan undan ham ko'proq oilalar qo'shnichilik jamoasini tashkil qilgan. Jamoa a'zolari – ranatira, zodagonlar – ariq, ariy, alilar, deb atalgan. Bola tarbiyasi butun jamoaga yuklanib, o'g'il bolalarni erkaklar, qizlarni ayollar tarbiyalagan.

Ichki jamoa munosabatlari va jamoalararo o'zaro munosabatlar dastlab qavm-qarindoshchilik va urug'chilik bilan belgilangan. Jamoa va qabilalar o'rtasida turli moddiy buyumlar, ishlab chiqarish vositalarini ayirboshlash ancha rivojlangan. Savdo-sotiq ishlarida pul vazifasini chig'anoqlar tizmasi, paket tuz, cho'chqaning so'yloq tishi, toshbolta va hokazolar bajargan.

Orolliklarning ma'naviy madaniyati ham ancha boy bo'lgan. Ular tropik iqlimda ildizli poliz ekinlari va mevali daraxtlarni ekib parvarish qilishda agrotexnik tajribalardan xabardor bo'lganlar. Bepoyon okean markazida yashayotgan polineziyaliklar tevarakatrofni yaxshi bilganlar, dengiz oqimi va shamol, yo'nalishiga quyosh, oy va yulduzlarga qarab eng uzoq masofaga ham sayohat qilganlar, uzoq-yaqin joylashgan arxipelag va orollar tabiiy geografiyasidan taxminan xabardor bo'lganlar. Bir kun hisobi kechaga qarab belgilangan. Pasxa orolida 20 ta taxtaga bitilgan iyeroglif yozuv saqlanib qolganligi bejiz emas. Orolliklarda sodda ko'rinishdagi maktab tizimi faoliyat yuritgan. O'ziga xos maxsus maktablarda asosan, zodagonlarning bolalari o'qitilgan. Ularga astronomiya, dengiz oqimlari, ota-bobolarning ilm-tajribalari, mifologiya, kema haydash mahorati va boshqa amaliy bilimlar o'rgatilgan. Badiiy san'at namunalarini yog'och o'ymakorligi, haykaltaroshlik, tatuirovka qilish, qurollar, uy buyumlari va qurilish ishlaridagi turli naqshlar, har xil afsonaviy niqoblarda ko'rish mumkin. Ularda improvizatsiyalashgan ashula va raqslar, pantomima, musiqa, turli marosimlar va og'zaki ijod keng rivojlangan.

Diniy e'tiqodda buyuk tabiat xudolariga sig'inish kuchli bo'lgan. Butun Polineziyada to'rtta xudo – Tane, Tu, Rongo, Tangaroa – tabiat kuchlarini ifodalaydi. Shuning uchun ham, kosmogonik afsona va rivoyatlar keng tarqalgan. Shunisi qiziqki, xalq ijodining asosiy ma'nosi olam va inson bepoyon Okeaniya orollarini izchillik bilan egallashi tarixidan kelib chiqqan. Barcha afsona va rivoyatlarning bosh qahramonlari jasur dengizchilar, yangi yer va arxipelaglar

axtaruvchi sayyohlar ekanligi shundan. Diniy e'tiqodlarning xususiyati har bir inson tug'ilishi bilan qudratli g'ayritabiiy kuch – managa ega bo'lishdan iborat. Mana juda xavfli bo'lib, birovga tegsa o'lim keltirishi mumkin. U tabaqalarga qarab har xil kuchga ega, qullarda mana bo'lmagan, ammo buyuk boshliqlar qudratli mana egasi hisoblangan. «Mana» tushunchasi «tabu» – so'zi bilan bevosita bog'liq. Nimaiki managa ega bo'lsa, o'sha narsa xavfli, ya'ni unga tegish man qilingan – tabu qo'yilgan. Tabu so'zi asli Polineziyada paydo bo'lib, uni dastlab Yevropaga atoqli dengiz sayyohi Kuk keltirgan. Tabu orolliklarda juda keng tarqalgan jamiyatdagi kasta (tabaqalanish) tizimini ifodalaydi.

Barcha diniy urf-odat va marosimlar koinlar qo'lida bo'lib, ular merosiy kasta hisoblangan. Koinlar ham tabaqalangan, ba'zilar ibodatxonalarda xizmat qilsa, ayrimlari tabibchilik, folbinlik bilan shug'ullanganlar. Qabila boshliqlari bilan koinlar qavm-qarindoshchilik munosabatiga kirishganlar. Ibodat qilish – ashula aytish yoki duo o'qish, qurbonlik qilishdan iborat bo'lgan.

Okeaniya, shu jumladan, Polineziya orollari ham uzoq davrlar mobaynida yevropaliklar nazaridan chetda qolgan. Faqat XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu yerga yevropalik kit ovlovchilar, savdo kompaniyalarining agentlari (trederlar), qaroqchilar boylik axtarib kela boshlaganlar.

Aytish joizki, mustamlakachilarga yo'l ochib berishda missonerlik harakati samara bergan.

Mustamlakachilar mahalliy aholini avrab-aldeb arzimagan buyumlarga marvarid, dur, gavhar kabi qimmatbaho toshlarni almash-tirganlar, o'zlarini esa talaganlar va serunum qulay yerlardan hay-dab chiqarganlar. Mustamlaka azobi va o'zaro urushlarda tub aholi-ni ko'p qismi qirilib ketgan. Masalan, agar Polineziyada mustam-laka arafasida 1,1 million tub aholi bo'lgan bo'lsa, XX asr boshlarida 180 ming kishi qolgan, xolos. Mustamlakachi davlatlar orollarni bosib olish maqsadida turli nayranglarni ishlatganlar. Rus dengiz-chisi Kotsebu 1826-yilda yozgan edi: «Janubiy dengizning qaysi bir orolida yevropalik paydo bo'lsa, shu yerda vayronagarchilik va qirg'in bo'lib, butun bir qabilalar yer bilan yakson qilingan»⁷.

⁷ Каранг: О.Е. Коцебу. Путешествие вокруг света. Изд. 2. — М.: «На-ука». 1948, 268 бет

1778-yilda Kuk tomonidan kashf etilgan Gavayya orollarida 300 ming polineziyaliklar yashagan. Bu yerda o'ziga xos yuqori madaniyatga, armiya va flotga ega mustaqil qirollik bo'lgan. XIX asr boshlarida AQSHning zo'r ta'siri ostida 1898-yili bu yerlar anneksiya qilinadi, ya'ni bosib olinadi. Urushlar, og'ir ekspluatatsiya va irqiy siyosat natijasida tub aholining ko'p qismi qirilib ketadi. AQSHning yirik g'arbiy dengiz va g'arbiy havo platsdarmiga aylangan mazkur orollarga tashqaridan ko'plab ishchi kuchi keltiriladi. Gavayyaning hozirgi aholisi asosan, kelgindi, amerikalik va yevropaliklar 35 %, metislar 13-15 %, tub aholi esa faqat 3 % dan iborat.

Anchadan beri mustaqil davlat hisoblangan (1907-yildan dominion huquqiga ega) Yangi Zelandiyaning 3,2 milliondan ortiq aholisining 80 % i Buyuk Britaniya va Irlandiyadan kelgan, tub aholi – maorilar esa hozir taxminan 300 ming kishini tashkil qiladi, xolos. Asosiy yer egalari – fermerlarning ko'pchiligi shaharda yashaydilar, fermalarda joylashgan uylarda esa asosan, yollanma ishchilar yashaydi. Yuksak darajada rivojlangan qishloq xo'jaligi sohasida hozir aholining 12 % i band. Sanoatning asosiy tarmoqlari – nozne'mat va oziq-ovqat tayyorlash hamda tog'-kon sanoatidir. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati, avtomashinalarni yig'ish va ta'mirlash korxonalaridan iborat. Keyingi yillarda AQSH, Yaponiya va Avstraliya sarmoyasi yordamida bir qancha qog'oz va yog'ochni qayta ishlash korxonalari, alyuminiy zavodi qurilgan.

§-3. MELANEZIYA VA MIKRONEZIYA XALQLARI

«Qora orollar» deb atalgan Melaneziyaga papuaslar o'lkasi – Yangi Gvineya, Bismark arxipelagi, Yangi Gebrid, Fidji, Yangi Kaledoniya va boshqa mayda orollar kiradi. Mustamlaka arafasida papuaslar va melaneziyaliklar xo'jalik jihatdan deyarli bir darajada turganlar. Ularning xo'jaligida eng bosh soha tropik tipdagi dehqonchilik va dengiz baliqchiligi bo'lgan. Hayvonot dunyosi qashshoq bo'lganligi tufayli ovchilik deyarli rivojlanmagan.

Tirikchilik asosan, dehqonchilik mahsulotlari – ildizmevali o'simliklar va mevali daraxtlar o'stirishdan iborat bo'lgan. Quruq joylarda emas, namroq yerda taro, kokos xurmosi, non daraxti, banan, keyin paydo bo'lgan kofe, kakao, sholi, choy va hokazo hozirgacha ham asosiy ekinlar hisoblanadi. Yil bo'yi yerga ishlov berilib, tropik iqlimga xos ekin ekilgan. Yerni oddiy yog'och bilan kovlab, kesagini yog'och bel bilan hamda qo'lda maydalangan va

urug' sochilgan. Yerga ishlov berishda erkak-ayol teng ishlagan. Ekish, yaganalash va yig'im-terim asosan, ayollar zimmasida bo'lgan. Sohillarda yashovchi baliqchilar bilan savdolanishib dehqonchilik mahsulotlarini ayirboshlaganlar. Baliq ovlash bilan erkaklar shug'ullangan. Baliqchilikda suyak va chig'anoqdan yasalgan turli qarmoqlar, to'r va savatlar, eni ikki metr, uzunligi 300 metrli to'rlar, sanchqi va hatto o'q-yoylardan foydalanilgan. Chorva kam bo'lib, uy hayvonlaridan it, cho'chqa, tovuq saqlangan va ularni asosan, bayramlarda so'yanlar. Go'shtni «yer o'chog'ida» toshni qizdirib yoki olov yoqib kulida pishirganlar, ba'zan qaynatib ham yeganlar. Terib-termachlash bilan shug'ullanganlar. Uchli yog'ochni chaqmoq toshga ishqalab yoki burov usuli bilan olov hosil qilingan.

Melaneziyaliklarning asosiy qurollaridan toshbolta, nayza, cho'qmor, o'q-yoy (Yangi Gebrid orollarida eng muhim qurol), palaxmon kabilar keng tarqalgan. Mudofaa uchun ba'zan yog'och yoki to'qima qalqon ham ishlatilgan. Idish-tovoqlarni yog'och va bambukdan, kokos yong'og'i qobig'idan yoki qovoqdan yasaganlar. Charxsiz kulolchilik, savat, bo'yra, xalta, yelpig'ich, kabi buyumlarni to'qish keng rivojlangan. Ammo gazlama to'qishni bilmaganlar, tapa (maxsus daraxt qobig'i)dan va o'simlik yaprog'idan etakli belbog' va hokazo tikilgan.

Melaneziyaliklar va papuaslar asosan, o'troq bo'lib, urug' jamoa shaklida kichik qishloqlarda istiqomat qilganlar. Ularning uylari odatda har xil tipdagi yengil ustunlarga qurilgan, to'g'ri burchak yoki doirasimon shaklda cho'qqaytirilgan bo'lib, tomlari palma yoki daraxt yaprog'i bilan qalin qilib yopilgan. Sohillarda ba'zan qoziqoyoqlar o'rnatilgan uylar ham uchraydi. Oddiy turar uylardan tashqari har bir qishloqda erkaklar bo'sh vaqtlarida to'planadigan ba'zan turli naqshlar bilan bezatiladigan hashamatli jamoa uyi («erkaklar uyi») qad ko'targan. An'anaviy transport vositasi kema bo'lgan. Ular bir-ikki odam sig'adigan qayiqchadan tortib 40 taga yaqin odam sig'adigan balansirli yog'och kemalargacha ega bo'lganlar. Kemalar eshkakli va ba'zan uchburchakli chipta yelkanli bo'lgan.

Papuas va melaneziyaliklarning kiyimlari, tropik iqlimga moslashgan bo'lib, asosan, erkaklar fartukli belbog' va ayollar esa o'simlikdan tikilgan kalta yubka, ba'zi joylarda yaqin davrlargacha tayloq ham kiyib yurishgan. Qattiq yog'ingarchilik vaqtlarida qalin

yaproqlardan yoping'ich shaklida tikilgan kiyimni yelkaga yopib yurganlar. Ammo kiyimlarga nisbatan turli bezaklar ko'p bo'lgan. Ayniqsa, erkaklar bezaklarni ko'proq osgan, sochlarini turli xilda taragan. Bambukdan yoki cho'plardan taroqlar yasab, ba'zan ularni ham bezak sifatida ishlatganlar.

Mustamlaka arafasida ijtimoiy munosabatlar ona urug'ining oxirgi davriga to'g'ri keladigan tuzum darajasida bo'lgan Yangi Gvineyada, masalan, urug'-jamoalarning munosabatlari mustahkam bo'lsa, Fidji orollarida sinfiy jamiyat endi kurtak otgan edi. Katta orollarning aholisi qabilalarga bo'lingan, urug' jamoasi esa uning asosini tashkil qilgan. Mulk shakli bir oz murakkab: yer jamoaniki bo'lsa-da, undan foydalanish individual xarakterga ega, har kim, hatto bola ham, o'zi ekan mevali daraxtiga ega bo'lgan. Uy va uning jihozlari, qurollar shaxsiy mulk, katta kemalar esa jamoaga tegishli bo'lgan. Meros ona urug'i tomonidan hisoblangan. Jamoalarning mustaqil iqtisodiy hujayra bo'lib yashagan va qabilalararo munosabatlar natural savdo va nikoh shaklida amalga oshirilgan. Janubiy va sharqiy orollarda (Yangi Kaledoniya, Fidji va hokazo) yashovchi melaneziyaliklar jamoasida ijtimoiy tabaqalanish natijasida badavlat shaxslar, zodagonlar va urug' boshliqlari paydo bo'lgan. Ular jamoalarning mulkining bir qismini egallaganlar, ayrim jamoalarning a'zolarini o'zlariga qaram qilib olganlar, urushlarda asirlarni qul qilganlar, bo'ysundirilgan qabilalarga soliq solganlar.

«Erkaklar ittifoqi» hukmron zodagonlarning qudratli quroli hisoblangan. Mazkur ittifoq tabaqalarga bo'lingan va eng yuqori tabaqadagi ittifoqqa a'zo bo'lish uchun katta badal to'lashi va maxsus boy marosimlar o'tkazishi shart bo'lgan. Chunki yuqori tabaqadagi ittifoq a'zolari katta imtiyozlarga ega bo'lib, o'ziga xos mustabid hokimiyat vazifasini bajarganlar, aholini qo'rqitib, boyliklarini tortib olganlar. Butun Melaneziyada keng tarqalgan mashhur Duk-duk nomli erkaklar ittifoqi aslida initsiatsiya marosimlari bilan bog'liqdir.

Initsiatsiya marosimi Yangi Gvineya va melaneziyaliklarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. Erkaklar qatoriga qabul qilinish uchun yoshlikdan tayyorgarlik ko'rilgan, o'spirinlar maxsus ajratilgan tarbiyachilar qo'lga topshirilgan, turli og'ir sinovlardan o'tkazilgan: masalan, bola do'pposlangan, tatuirovka qilingan, ovqat va uyqudan mahrum etilgan. O'spirinlar faqat «erkaklar taomi» – banan, shakarqamish va o'rmon mevalarini iste'mol qilishlari shart bo'lgan. Ayollar qo'lidan ovqat yeyish, ular o'stirgan daraxt mevasini

tamaddi qilish qat'iyani man qilingan. Xullas, butun marosim o'g'il bolani onasidan, umuman ayollardan ajratib, erkaklar dunyosiga jalb qilishdan iborat bo'lgan. Ba'zan sinov va udumlar turli qo'shiq va raqslar, surnay navolari ostida o'tkazilgan.

Koko qabilasida marosimning oxirida o'spirinlarga qabilaning odat va odob tartiblarini o'rgatish bilan birga turli nasihatlar ham berilgan. Masalan, ularga: «O'g'irlama! Fohishalik katta gunoh, unga berilgan tez o'ladi! Xotiningni urma! Birovning polizidan meva olma! Adolatli bo'lsang uzoq yashaysan!», deyilgan. Torresova bo'g'ozidagi orollarida quyidagicha nasihat diqqatga sazovor: «Birov sendan bir narsa so'rsa, yo'q dema! Agar unga taom, suv yoki yana boshqa narsa zarur bo'lsa, ayama, yarmini bergil! Shunda sen yaxshi odam bo'lasan! Agar sen va xotining ota-onangdan hech narsa olmagan bo'lsanglar ham ularga g'amxo'rlik qilishni unutmangiz! Onangga hech vaqt qo'pollik qilma! Ota va onang sening qorningdagi taoming, agar ular o'lsa, sen och qolasan! Tog'ang va boshqa qavmu qarindoshlaringga ham g'amxo'rlik qilishni unutm!...»⁸. Marosim nog'oralar ovozi va surnay kuylari, o'rta boshiga konus shaklida baland niqob kiygan, ustiga qatma-qat yaproqlar yopingan tuyaqushga o'xshash daxshatli arvoҳ obrazidagi Duk-duk o'yini bilan tugaydi. Shunday qilib o'g'il bolalar erkaklar guruhiga o'tadi va o'z vaqtini asosan, oiladan va xotinlardan tashqari, «erkaklar uyi»da o'tkazishga majbur bo'ladi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha erkaklar ittifoqining paydo bo'lishi ona urug'i hukmronligiga qarshi qaratilgan o'ziga xos qurol hisoblangan, ya'ni matriarxat urug'idan patriarxatga o'tish davri bilan bog'liq bo'lgan. Initsiatsiya natijasida bir oilada tug'ilib o'sgan o'spirin ona uyini tashlab, erkaklar uyiga, ya'ni urug' ixtiyoriga o'tadi va yangi oila tashkil qiladi. Ammo uning ahvoli ikkilanma va qarama-qarshi bo'lgan, bir tomondan u urug' a'zosi, ikkinchi tomondan oila boshi, bir kecha erkaklar uyida yotsa, ikkinchi kecha o'z uyida yotadi, o'z vaqtining bir qismini umumiy urug' ishlariga sarflasa, ikkinchi qismini oilasiga ajratadi. N.A. Butinov ta'rificha, Yangi Gvineyadagi Maklay sohilida o'tkazilgan initsiatsiya tantanalari 10-15 yilda bir marta nishonlanib, hayotga yangi mehnatkash avlod kirib kelganligini namoyish qiladi. Mazkur

⁸ Қаранг: Я. Вольневич. У аборигенов Океании. — М.: «Наука». 1976, 165 бет

marosimni nishonlashdan maqsad o'spirinlarni oilasidan ajratib urug'a'zoliciga o'tkazibgina qolmay, balki eng muhimi ularni uylanib, yangi oila va uyga ega bo'lgandan keyin ham erkaklar uyida saqlab qolishdan iboratdir. «Bunday marosimlar, — deb xulosa qiladi muallif, ikki vazifani bajaradi. Birinchidan — oiladan begonalashtirish har bir erkak tomonidan individual holatda turli udumlar orqali (badanini «ayollar sarqiti»dan tozalash, ona qonidan qutulish uchun burundan qon oqizish, tilni sal kesish, xatna qilish odatlari) amalga oshiriladi. Ikkinchidan —urug'ga mustahkam bog'lanish ayollardan maxfiy saqlangan urug'ning muqaddas joyi erkaklar uyida, butun urug'doshlar tomonidan jamoaviy holatda yilda bir necha marta o'tkaziladigan ayol va bolalar ishtirok qilmaydigan urug'chilik bayramlari orqali namoyish qilinadi»⁹.

Melaneziyada patriarxal quldorlik paydo bo'lgan. Qullar harbiy asirlar hisobiga to'ldirilgan. Patriarxal tipdagi juft nikoh uncha mustahkam bo'lmagan. Butun jamoa ishlarini belgilab va boshqarib turuvchi qavmu qarindoshlik munosabatlari ancha o'zgargan, katta qalin to'lash, ko'pxotinlik paydo bo'lgan. Gvineyaga borgan Ya. Volnevich so'nggi o'n yillikda kelin bahosi o'n hissa oshganligi tufayli boy tabaqadagilar bir necha xotin olishga qodir bo'lib, kambag'al yigitlarga uylanish qiyinlashganligini qayd qiladi. Oqibatda poligam nikoh kuchaygan.

Eri o'lganda xotini ancha vaqt motam tutgan, keyin erining jasadini qabrdan kovlab olib ariqda yuvgan, kalla suyagini maxsus to'r xaltaga solib o'zi bilan olib yurgan. Kukuku qabilasida kishi o'lgandan keyin jasadni uyda maxsus ustunga yotqizib bir oycha dudlatib quritganlar, so'ng chiptaga o'rab qabristonga eltib qo'yganlar. Motam belgisi sifatida erining kalla suyagi yoki ba'zan bir skelet suyagini taqib yurish umrining oxirigacha cho'zilishgan hollari kuzatilgan. Faqat qaynog'asi yoki qaynisining ruxsati bilan beva ayol motamni tugatib, yangi turmush qurishi mumkin bo'lgan. Ilgari ayrim qabilalarda bolasi o'lgan ayol bir barmog'ini motam belgisi sifatida kesib tashlagan va bo'yniga osib yurgan.

Papuas va melaneziyaliklarning diniy e'tiqodida mana tushunchasi muhim rol o'ynagan. Mana tabiatning turli hodisalari, arvohtar, boy kishilar bilan bog'liq qandaydir qiyofasiz kuch hisoblangan. Eng

⁹ Прошлое и настоящее Австралии и Океании. — М.: «Наука». 1979, 136 бет

kuchli mana, odatda, qabila boshliqlari, erkaklar ittifoqi rahbarlari va ularning arvohlariga xos bo'lib, ularga sig'inish keng tarqalgan. Yangi Gebrid orollarida tabiat ruhlariga itoat kuchli bo'lgan. Ajdodlarning arvohlariga sig'inish e'tiqodi o'liklarning kalla suyagini maxsus muqaddas joylarda saqlash odatini yaratgan. Ibtidoiy jamoa tuzumidan sinfiylikka o'tish davriga xos turli animistik tasavvurlar, sehrgarlik e'tiqodi (ayniqsa, boshliqlar manasi kuchi), dahshatli arvohlar obrazi va u bilan bog'liq marosimlar melaneziyaliklarning ma'naviy madaniyatiga ta'sir etgan.

Bayramlarda kuy va raqslar ijro etilgan, ayniqsa, erkaklar raqsi turli xilda va dramatik mazmunda harbiy harakatlar, eshkak eshish kabilarda tasvirlangan. Dekorativ san'at, o'ymakorlik rivojlangan. Ammo amaliy bilimlar ancha past, faqat xalq tabobatigina bir oz rivoj topgan: uqalash, qon chiqarish, suyakni joyiga solish, trepanatsiya qilish, o'tlardan dori tayyorlashni puxta o'zlashtirganlar.

Migratsiyaning kuchayishi natijasida ayrim orollarning etnik tuzilishi ancha o'zgargan, tub aholi soni kamayib, kelgindi ko'payib ketgan. Eski qabilaviy tuzum asta-sekin yemirilib, qabila boshliqlari mustamlakachilarning ma'muriy malaylariga aylangan. Fidji orolida serunum yerlarni egallagan mustamlakachilar plantatsiya xo'jaligini tuzib shakarqamish eka boshlaganlar. Ular ishchi kuchiga muhtoj bo'lib, qo'shni orollardan va Hindistondan juda ko'p yollanma ishchilarni olib kelganlar. Orol aholisining deyarli 50 foizini hozirda hindlar tashkil qiladi, tub aholi esa undan ham oz qolgan.

Yangi Gvineyada hozir papuaslar va melaneziyaliklar 2,8 milliondan ortiq. Ammo ularning ko'pchiligi ibtidoiy tuzum darajasida – noqulay sharoitda, tropik o'rmonlarda va botqoqlik qirg'oqlarda yashaydilar. Aholining 40 foizi natural xo'jalik bilan band. Mahalliy tub aholining ozodlik kurashi natijasida papuaslar Yangi Gvineyasi o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega bo'ldi va 1975-yilda mustaqil davlat deb e'lon qilindi.

«Mayda orollar» nomi bilan atalgan Mikroneziya asosan, marjon va vulqonlardan paydo bo'lgan juda ko'p kichik orollardan iborat. Bunga Tinch okeanining g'arbiy qismida joylashgan Marshall, Karolin, Marian orollari va Gilbert arxipelagi kiradi. Nihoyatda keng hudud (14 mln. km²)da tarqoq joylashgan mazkur orollarning umumiy maydoni 3,5 ming km² ga ham yetmaydi. Ammo geografik mavqei nuqtayi nazardan Mikroneziya Janubi-sharqiy Osiyo

mamlakatlari bilan Polineziya va Melaneziya orolligida joylashganligi juda qulay.

Antropologik jihatdan Mikroneziya aholisi melaneziyalik va polineziyaliklarga yaqin mongoloid va negroid irqining aralashmasidan paydo bo'lgan tipdir. Ular o'rta bo'yli, jigarrang tanli va bir oz jingalak sochli. G'arbiy Mikroneziyada mongoloid qo'shimchasi borligi seziladi.

Mikroneziya xalqlarining tillari kam o'rganilgan, ammo so'nggi – klassifikatsiya ma'lumotlari malayya-polineziya turkumi avstroneziya til oilasiga oid ekanligini tasdiqladi. Mikroneziyaliklarning ko'p qismi mazkur til oilasining sharqiy yoki okeaniya shoxobchasiga kiradi. Shulardan eng kattalari Gilbert arxipelagidagi tungaru (64 ming kishi)dir. Sof okeaniya tilida so'zlashadigan Sharqiy Mikroneziyada 10 ta xalq yashaydi. G'arbiy shoxobchasiga oid belau xalqi (15 ming kishi) G'arbiy Mikroneziyada yashaydi. Bulardan tashqari ko'p sonli metislar va immigrantlar ham mavjud.

Mikroneziyaliklarning xo'jaligida serunum yerlar kam bo'lganligi tufayli faqat kokos palmasi, shakarqamish, non daraxti o'stiriladi. Aholisi asosan, baliqchilik bilan kun ko'radi. Mayda orollarda qisman o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan dengiz ko'chmanchilari deb nom olgan qabilalar ham yashaydi. Baliq ovi ashyolarini tayyorlash ancha rivojlangan: 30-40 metr keladigan yog'och tolalardan to'qilgan to'rlar, bambukdan po'pak va hinjilardan qarmoqlar, xivichdan yasalgan har xil to'rlar, sanchqi va hokazo. Palau orollarida sholikorlik va kulolchilik bilan shug'ullanganlar. G'arbiy Mikroneziyada sug'orish dehqonchiligi asosiy rol ni o'ynasa, sharqiy qismida baliqchilik eng mulim soha hisoblangan.

G'arbning moddiy madaniyati yuksak kulolchilik, tosh ustunlarga uy qurish va boshqa kasb xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Tosh yoki yog'och ustunlariga sinch qilib qurilgan uylari palma yaprog'i bilan yopilgan. Kiyimlari o'simlik tolalaridan to'qilgan har xil belbog' va etaklardan iborat, ayollar asosan, xashak va yaproqlardan tikilgan yubka kiyadilar.

Ayrim orollar ijtimoiy tuzumida va ma'naviy madaniyatida ibtidoiy an'anaviy munosabatlar saqlangan. Ammo sotsial tabaqalanish ham paydo bo'lgan. Harbiylar, dengizchilar va kemasozlar zodagonlar tabaqasiga kirgan, dehqonchilik va baliqchilik bilan shug'ullanuvchilar esa kambag'al hisoblanganlar. Ayrim Palau kabi orollarda urug' va qabilaviy munosabatlar kuchli bo'lgan.

Ayniqsa, ona urug'i tartib qoldiqlari saqlangan, qizlar erkin nikoh huquqiga, umuman ayollar erlar bilan teng huquqqa ega bo'lganlar. Katta oila xo'jalik hujayrasi bo'lib yetishgan. Karolin va Marshall orollarida qabila boshliqlarining hukmronligi va an'anaviy ijtimoiy tartiblari hozirgacha ham saqlangan. Dini qadimiy animistik tasavvurlar bilan bog'liq o'liklar va ajdodlar ibodatidan iborat. Folbin va koinlar ham bo'lgan. Hozir ko'p orollarda nasroniy dini ayniqsa, katolitsizm tarqalgan. Ammo «muqaddas homiylar»ga bag'ishlangan bayramlar («Fiyesta»)ni nihoyatda tantanali nishonlaganlar. Juda boy va hashamatli nikoh to'ylari ham o'ziga xos xarakterga ega bo'lgan.

Mikroneziya hozirgi davrda butunlay AQSH ta'sirida. Ular orollardagi qulay yerlarining ko'p qismini o'z tasarruflariga olganlar, tub aholiga esa 40 foizgina yer tekkan, xolos. Marian va Marshall orollarining ko'p qismida amerikaliklarning harbiy bazalari joylashgan.

Mikroneziyaning hozirgi iqtisodiyoti asosan, kokos palmasini o'stirish va kokos yong'og'ini ishlab chiqarishdan iborat. Ayrim orollarda shakarqamish, kakao va sabzavot yetishtiriladi. Gilbert orollarida fosforit qazib olinadi. Maorif tizimi nihoyatda past darajada rivojlangan.

II. OSIYO XALQLARI VA ELATLARI

Osiyo qit'asi jahonda eng katta hududga ega bo'lgan, tabiati nihoyatda rang-barang, eng ko'p va zich joylashgan aholiga ega. Bu yerda odamzod paydo bo'lgach, eng qadimiy madaniyatlar yaratilgan. Oxirgi ma'lumotlarga qaraganda Osiyoning hududi 32 mln.kv km ga yaqin, aholisi 3 mlrd.dan ortiq, ya'ni jahon aholisining yarmidan ko'pini osiyoliklar tashkil qiladi.

Odatda Osiyo fanda geografik va tarixiy-etnografik jihatdan olti qismga bo'lib o'rganiladi: G'arbiy yoki Old Osiyo xalqlari, Markaziy Osiyo va Qozog'iston xalqlari, Janubiy va Markaziy Osiyo xalqlari, Janubi-sharqiy Osiyo xalqlari, Sharqiy va Shimoliy Osiyo yoki Sibir xalqlari.

Tabiiy-geografik jihatdan butun Osiyo qit'asi nihoyatda notekis va xilma-xil. Uning iqlimi va tabiatiga qit'a sohillarini har tomondan yuvib turgan Shimoliy Muz, Tinch va Hind okeanlari, Atlantika okeaniga tegishli Yapon, Sariq, Sharqiy va Janubiy Xitoy dengizlari, Qora va O'rta dengizning suvlari ancha ta'sir qiladi. Osiyoning ko'p

qismi baland va yassi tog'liklar, adir va bepoyon cho'lu biyobondan iborat bo'lib, bu uning kontrast iqlimi bilan bog'liq. Osiyoda jahondagi eng baland tog'lar – Qora Qurum va Himolay (eng baland cho'qqi – Jomolungma – 8848 m) va quruqlikning eng quyi joyi – O'lik dengiz (O'rta dengiz sathidan 392 metr pastlik)da joylashgan.

Shimoliy Muz okeani tomonidan keladigan arktika havosi Sharqiy Osiyo tomon cheksiz pasttekisliklarga yoyiladi va qish paytlari G'arbiy Osiyoga nisbatan (bu yerda baland tog'lar to'siq bo'ladi) ancha sovuq bo'ladi. Qit'aning Tinch va Hind okeanlariga yaqinligi eng katta musson iqlimli hududni hosil qilgan. Agar baland tog' tizmalari bir tomondan Janubiy Osiyoni qutb havzasidan saqlasa, ikkinchi tomondan o'sha to'siq, Markaziy va Janubi-sharqiy Osiyoning ichki dasht va yarim dasht hududlariga namlik keltiradigan dengiz havosini o'tkazmaydi. Oqibatda bir yoqda qalin tropik va subtropik o'rmonli tog' ekinlari yastanib yotsa, ikkinchi yoqda qarama-qarshi iqlimli bepoyon sahro va yarim dasht hududlar o'ziga xos tabiati bilan ajralib turadi. Qit'aning okean sohillariga yaqin joylari, ayniqsa, janubiy qismidagi nam yerlarida yashil o'rmonlar go'zal manzara kashf etadi. Aksincha, yozgi jaziramada bir xil rangdagi qurg'oq, cheksiz dashtu biyobon kishini garang qiladigan darajada ma'yus ko'rinishga ega bo'ladi. Umuman, Osiyo beshta mintaq; mo'tadil yoki o'rtacha, subtropik, tropik, subekvatorial va ekvatorial bog'lamalarda joylashgan.

Osiyo juda ham ko'p qazilma boyliklariga ega. Ammo bu qazilma boyliklar juda kam tekshirilgan. Bu yerda neft va gaz, ko'mir va qo'rg'oshin, volfram va boksit, kumush va oltin, nikel va kobalt, xrom va mis, fosfat, temir, surma, simob, grafit, oltingugurt, uran, asbest, magniy kabi foydali qazilmalar topilgan. Masalan, 80-yillarning o'rtalarida jahonda ishlab chiqarilgan neftning yarmidan ko'pi Osiyodan olingan. Agar dengiz tubidan ham neft chiqarilishini hisobga olsak, bu ko'rsatkich yana ham ortadi. Ko'pchilik hududlar, ayniqsa, namligi haddan ortiq ekvator hududlar va nihoyatda keng qurg'oq, suvsiz yassi tog'lik va tekisliklar dehqonchilik uchun noqulaydir. Shuningdek, nam tropik joylar ham dehqonchilik va chorva uchun noqulay, u yerlarda faqat daraxtzor plantatsiyalari tashkil qilingan. Musson iqlimli yerlarda sholi, qisman texnik ekinlar (jut, shakarqamish), salqinroq tog'li hududlarda choy, kofe va tunga daraxti ekiladi. Sug'oriladigan quruq yerlarda paxta, tamaki, arpa; iliq namli subtropik hududda bug'doy va arpa; tog'larda esa sitrus

ekinlari, uzum, zaytun daraxti o'stiriladi. Jahonda eng ko'p sug'oriladigan yerlar Osiyodadir. Bu yer hatto ayrim ekinlarning vatani hamdir. Hozirgi davrda jahondagi natural kauchukning 91 foizi, sholining 84 foizi, choyniing 70 foizi Osiyo qit'asida yetishtiriladi.

Osiyo suv resurslariga ham boy. Bu yerda har yili 20 ming kub km yomg'ir yog'adi. Eng katta Yenisey, Lena, Amu va Sir, Tigr, Yefrat, Hind, Ganga, Braxmaputra, Xuanxe, Yanszi daryosi suvining ko'pligi jihatidan (yiliga 1000 kub km) faqat Amazonka va Kongo daryolaridan keyingi o'rinda turadi. Ganga bilan Braxmaputra daryolarining bir yillik suv hajmi 800 kub km.dan oshadi. Daryo suvlarining ko'p qismi asosan, dehqonchilikka sarflanadi. Masalan, Hindistonda iste'mol qilinadigan chuchuk suvlarning 95 foizi, Yaponiyada 70 foizdan ko'pi irrigatsiya ishlariga sarflanadi. Butun jahonda sug'oriladigan maydonning to'rtidan uch qismi Osiyoda joylashgan bo'lib, har bir kishiga taxminan 84 ga sug'oriladigan yer to'g'ri keladi. Ayrim joylarda esa dehqonchilikda yer osti suvlaridan foydalaniladi, qurg'oq yerlarda ariq qazilib suv chiqariladi, tog' etaklarida kariz sistemasi joriy etilib, u hozirgacha ham saqlangan.

Osiyoning o'simlik dunyosi ham rang-barang. Bu yerning juda keng hududlarida shimoldan janubga qarab har xil bargi qalin o'rmonlar, yashil subtropik o'rmon va butazorlar, pichanzor va dasht o'simliklari, daraxti siyrak subtropik va tropik dashtlar, savanna va xazonrez o'rmonlar, tog' o'simliklari mavjud. Osiyoning sernam sharq va qurg'oq g'arb manzarasi bir-biridan farq qiladi. Masalan, sharqiy qismning o'simlik dunyosi nihoyatda boy bo'lib, 20 mingdan ortiq o'ziga xos turga ega. Janubi-sharqiy mintaqalardagi o'rmonlarda sanoat uchun zarur qimmatbaho daraxtlar o'sadi. Masalan, ko'pgina o'rmonlardan teri oshlashda ishlatiladigan po'stloq, konifol, qatron (smola), kauchuk, sariq mum, spirt, dorivor o'simliklar va turli yemishli mevalar yig'ib-terib olinadi. Bambuk va palma daraxtlaridan turli-tuman mahsulotlar ishlab chiqariladi. Afsuski, o'rmonlarning aksariyat qismi yiqitilib o'tin sifatida ishlatilib yuborilmoqda.

Atoqli rus olimi N.I. Vavilovning fikricha, Osiyo ko'pgina madaniy ekinlarning vatanidir. Bu yerda jahon dehqonchilik markazlarining o'ndan olti qismi joylashgan (Markaziy Osiyo, Old Osiyo, Qora dengiz, Hindiston, Indoneziya va Xitoy) bo'lib g'alla, poliz, sabzavot va texnik ekinlar o'stirilgan va boshqa qit'alarga

yirik miqdorda eksport qilingan. Masalan, Hindiston sholi va bug‘-doyning ayrim turlari, loviya, bodring, shakarqamish, jut va ba‘zi kanop xillarining vatanidir. Choy daraxti, apelsin, non daraxti, bananning ayrim turlari, kokos, qand va sago palmalari, yams va taro vatani Janubiy Osiyodir. Arpaning ayrim turlari, chumiza, turp, so‘ya, olma va nok, shaftoli va o‘rikning ko‘p turlari, tut daraxti, ingichka tolali paxta va boshqa o‘simliklarning vatani esa Sharqiy Osiyodir. Bug‘doyning ko‘p turlari, arpa va sulining ayrim navlari, javdar, no‘xat va zig‘ir, ayrim mevali daraxtlar (olcha, qorali, behi, gilos) va boshqa o‘simliklarning vatani Janubi-G‘arbiy Osiyo hisoblanadi.

Osiyoning hayvonot dunyosi ham boy. Bu yerda faunaning jahondagi eng qadimiy vakillari saqlangan. Ayniqsa, Hind-Himolay, Markaziy Himolay va Himolay-Xitoy mintaqalari, janubda Araviya yarim orolidagi Efiopiya faunasi juda boy. Osiyo mintaqasida eng keng tarqalgan hayvonlar sutemizuvchilar oilasiga mansub tapir, hind fili, gayal ho‘kizi, karkidon, yo‘lbars, lor, tupayi, orangutan, gibbonlar; qushlardan tovuş, har xil turdagi tustovuqlar; sudralib yuruvchilardan ko‘zoynakli zaharli ilon (kobra), turli pitonlar, uchar ajdarho (maxsus yon terisi bilan daraxtlar oralab uchib o‘tadigan kaltakesak)lardir. Osiyo sohillariga yaqin bo‘g‘oz va dengizlarning hayvonot dunyosi ham rang-barang. Turli xildagi baliqlar, yemishli suv o‘simliklari mahalliy aholini oziq-ovqat sifatida ta‘min qiladi.

Osiyoda 10-15 mln. yillar muqaddam yashagan gominidlarning suyaklari topilgan. Eng qadimiy ibtidoiy odam ajdodlaridan Yavadagi pitekanthrop, Xitoydagi sinantrop odamlaridir. Laos va Vetnam gominidlari g‘arbiy hududlardan bir mln. yillar muqaddam ko‘chib kelgan. 200-400 ming yillar avval yashagan paleoantrop (neandertal) vakillarining suyaklari Osiyoning ko‘p joylarida (masalan, Falastin va Iroqda) topilgan. So‘nggi paleolit va mezolit davriga mansub hozirgi irqlar shakllangan. Janubi-sharqiy qismida avstraloidlar, Sharqiy Osiyoda Tinch okean mongoloidlari paydo bo‘lgan. Asli neolit davridayoq (eramizdan avvalgi 7-4 ming yillar) hozirgi tipdagi odamlar keng hududlarda joylashgan G‘arbiy va Janubiy Osiyodan Markaziy, Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyoga ko‘chib kelgan va neandertaloid avlodlari bilan aralashib, hozirgi sharqiy etnoslar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. O‘sha davrdan boshlab hozirgi etnoslarning ajdodlari shakllana boshlagan.

Yevropoid irqining Old Osiyo va hind-pomir guruhlari qatoriga butun Janubi-G'arbiy va Janubiy Osiyo Arabiston, Araviya yarim oroli va Turkiyadan tortib to Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston va Bangladesh xalqlarigacha kiradi. Maxsus armanoid guruhiga o'zining katta burni va badanining serjunligi bilan ajralib turadigan Osiyo arablari, yahudiylar, armanlar, turklar, kurdlar va greklar kiradi. Yamanda armanoidlar bilan Afrikadan kelgan negroidlar aralashib, o'ziga xos guruhni tashkil qiladi. hind-pomir guruhiga eronlik (fors)lar, tojiklar, turkmanlar, ozarbayjonlar, pushtunlar va Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston xalqlari kiradi. Yevropoid va avstraloid oralig'ida paydo bo'lgan «Janubiy Hind» yoki «dekan» irqiy tipi Janubiy Hindiston, Shri-Lankada uchraydi. Janubiy yevropoid va mongoloidlarning duragaylashishi natijasida uyg'urlar va boshqa turkiy elatlar, xitoy musulmonlari xuey (dungan)lar o'ziga xos irqiy tipni hosil qilgan. Osiyo xalqlarining ayrim yevropoid belgilari Birma va Indoneziya xalqining ba'zi elatlarida uchraydi. Qisman avstraloid irqining maxsus guruhini Shri-Lanka veddalari, Hindixitoy, Indoneziya va Janubiy Xitoyning ayrim mayda elatlari, pakana bo'yli negritoslar (Janubi-sharqiy Osiyodagi andamaliklar, malakkadagi semanglar va Filippindagi aetolar) tashkil qiladi. Yaponiyaning qadimiy aholisi hisoblangan aynlar ham o'ziga xos tip hisoblanadi. Butun Sharqiy va Markaziy Osiyodagi mongoloidlar janubiy, sharqiy va Tinch okean guruhlaridan iborat.

Hozirgi Osiyoning etnolingvistik qiyofasi asosan, eramizdan avvalgi I ming yilliklardan boshlab shakllana boshlagan. O'sha davrda Kichik Osiyoning g'arbida ellin tillari, sharqida kartvel va arman tillari, O'rta dengiz sharqida esa aramey tillari hukmronlik qilgan. Shimoliy Hindistonga Markaziy Osiyodan kelgan hindariy xalqlari Ganga tekisliklarida yashagan aholi bilan qisman aralashib, ularni butunlay siqib chiqarib (ayniqsa, dravid va munda tillarida so'zlashuvchi xalqlarni) qadimiy xarappi madaniyati negizida yangi etnolingvistik guruhlariga asos solganlar. Eroniy tildagi xalqlar ham markaziy osiyolik etnoslar bilan mahalliy hindariy xalqi bilan aralashib, butun Eron va Afg'onistonda, g'arbda Mesopatamiyagacha, sharqda Shimoliy Hindistongacha tarqalgan. Yangi etnoslarni paydo qilgan Xuanxe vohasida dastlabki davlat yaratgan in va chjou qabilalari janub tomon tarqalib mahalliy tan va indoneziya qabilalari bilan aralashib qadimiy xitoy xalqining shakllanishiga sabab bo'lgan. Mazkur etnik

guruhlar eramizning boshlanishi arafasida Hindixitoy yarim oroliga borib vet qabilalari negizida eng qadimgi Vetnam davlat birikmasi (Aulak)ni yaratgan. Hozirgi Manchjuriyadan oltoy til oilasiga oid, janubdan indoneziya tillariga oid xalqlarning Koreya va Yaponiyaga kelib mahalliy tub aholi (Koreyada paleosiyoliklar, Yaponiyada asosan, aynlar) bilan aralashib ketishi natijasida o'ziga xos yangi etnoslarga asos solingan.

Shunday qilib, eramizning boshlarida Janubiy va Sharqiy Osiyoda eng yirik etnolingvistik guruhlar – semit, eron, hindariy, oltay, dravid, munda, mon-kxmer tillaridagi qabila va elatlar, xitoy, vetnam, qadimiy koreya va yapon xalqlari shakllana boshlagan yangi erada mazkur jarayon davom etib, xalqlarning etnik qiyofasi uncha o'zgarmagan. Ammo VII asrdan boshlab arablarning keng hududlari joylashuvi va islomning tarqalishi oqibatida semit xalqlari arab tiliga o'tgan va hozirgi etnoslarning shakllanishiga sabab bo'lgan. Markaziy Osiyo dashtlaridan g'arbga va janubi-g'arb tomon ko'plab ko'chib kelgan turk qabilalarining qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi bilan aralashib ketishi, natijasida turkiylashish hodisasi ro'y bergan. Markaziy Osiyoning o'zidan esa ko'chib ketgan turkiy qabilalar o'rnini Sharqiy Mo'g'ulistondan kelgan qabilalar egallagan.

Hozir Osiyoda etnik taraqqiyot jihatidan turli pog'onada turgan mingdan ortiq xalqlar yashaydi. Ular har xil til oilasi va guruhlarga oid bo'lib, son jihatdan eng ko'p sonli – 100 mln. kishidan ortiq aholiga ega to'rtta xalq – xitoylar, hindistonliklar, bengalliklar, yaponlar yashaydi. Bir mln.dan ortiq 90 xalq 2400 mln. kishidan iborat bo'lib, butun Osiyo aholisining 97,4 %ini tashkil qiladi. Shulardan oltitasi 50 mln.dan ortiq, 21 tasi 10 mln.dan to 50 mln.ga yaqin aholiga ega bo'lgan xalqlardir. Osiyo etnolingvistik jihatdan qancha rang-barang bo'lmasin, aholisining uchdan ikki qismi dunyoda eng ko'p sonli bir tilda so'zlashadigan etnoslarni tashkil qiladi (xitoy, hind, yapon, bengal, arab va forslar). Umuman, xitoy-tibet til oilasiga oid xalqlar soni 990,7 mln.dan ortiq (shulardan xitoy guruhi 938,6 mln., tibet-birman guruhi 52 mln. kishi); hind-yevropa oilasi 700,1 mln. kishi (hindariy guruhi 637,5 mln., eron guruhi 60,5 mln. Qolgani arman, grek, german va slavyan vakillari), avstroneziya oilasi 196 mln., dravid oilasi 161,6 mln., yaponlar 114,2 mln., avstroosiyo oilasi 73,3 mln., oltoy oilasi 63 mln. (shulardan turkiy guruhi 55 mln.), semit-xamit oilasi 46,2 mln., tay oilasi 60 mln., koreyslar 56,4 mln.

kishidan iborat. Qolgan elatlar kavkaz, papuas, andaman til oilalariga kiradi.

Keyingi yillarda xalqaro va davlat tili sifatida butun Malayziya va Indoneziyada malayya tili (uni ba'zan indoneziya yoki baxasa, indonesiya deb ham ataydilar) muhim rol o'ynay boshladi. Shu bilan birga butun Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyoda rasmiy til sifatida ingliz tili ham keng tarqalgan.

Osiyo mamlakatlari aholisining milliy tuzilishi va etnik xarakteriga qarab to'rt guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga milliy jihatdan bir xil bo'lib, tub xalqi umumiy aholining 95 %ini tashkil qiladigan Yaponiya, Koreya, Bangladesh va ko'pchilik Arab mamlakatlari kiradi. Ikkinchi guruhga tub xalq butun aholiga nisbatan 70 %ni tashkil qiladigan Vetnam, Birma, Kambodja, Turkiya, Suriya, Iroq, Xitoy, Shri-Lanka, Singapur singari davlatlar kiradi. Uchinchi guruhga aholisining yarmidan ko'pi tub xalq, qolgani boshqa turli etnoslardan iborat mamlakatlar kiradi (Eron, Afg'oniston, Pokiston, Malayya, Laos). To'rtinchi guruhga esa ko'p millatli mamlakatlar kiradi. Masalan, bunday mamlakatlarda Hindiston va Indoneziyada 150 dan ortiq. Filippinda 100ga yaqin turli xalq va elatlar yashaydi. Ba'zi davlatlarning etnik tuzilishi shunchalik murakkabki, ayrim xalqlar bir necha mamlakatlarga bo'linib ketgan. Masalan, kurdlar Turkiya, Eron, Iroq va Suriyada, belujiylar Afg'oniston, Eron va Pokistonda, panjobliklar Pokiston va Hindistonda yashaydilar. Butun Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari bo'ylab yirik guruh bo'lmish xitoy immigrantlari joylashgan.

Osiyo mintaqasida xitoy-tibet til oilasiga oid xalqlar butun aholining 40,2 %ini, hind-yevropaliklar 28,4 %ini, avstroneziya til oilasi 7,9 %ini, dravidlar 6,6%ini, yaponlar 4,6%ini, avstroosiyo oilasi 3%ni, oltoy oilasi 2,6%ni (shu jumladan, turkiy tildagilar 2,2 %ni), tay oilasi 2,4%ni, koreyslar 2,3%ni, semit-xamitlar 1,9 %ni tashkil qiladi. Oltoy til oilasiga oid turkiy, mo'g'ul va tungus-manchjur tillarida so'zlashadigan etnoslar g'arbda Bosfor bo'g'ozini va Marmar dengizidan tortib, sharqda Tinch okeanigacha cho'zilgan hududlarda joylashgan. Osiyoda aholi zichligi ham notekis: serunum tuproqli daryo vohalarida va qulay tabiatli dengiz sohillarida bir kvadrat km.ga 500 kishi (Hindistonning ayrim hududlarida hatto ming kishi) to'g'ri kelsa, yashashga noqulay tog'li va dasht-biyobon yerlar ko'p bo'lganligi tufayli umumiy aholining

yarim qismi butun Osiyoning o'n foiz hududini egallaydi, xolos. Shuni ham aytish lozimki, bu yerda azaldan xalqlar va elatlar migratsiyasi nihoyatda kuchli bo'lgan. Qadimgi davrlardan juda katta hududda eng qadimgi til oilalari: dravid, munda, mon-kxmer, xitoy-tibet, avstroneziya va malayya tillari shakllanib kelgan. Yuqorida qayd qilinganidek, hozirgi Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoyda oltoy til oilasi paydo bo'lgan, keyinchalik boshqa joylarga ham tarqalgan. Semit tillari ham Osiyoda eng qadimiy davrlarda paydo bo'lgan. III–II ming yilliklarda bu yerga hind-yevropa tillari kirib kelib mahalliy tillar bilan aralashib ketadi. Hozirgi elatlarning etnolingvistik qiyofasining shakllanishida mana shu jarayonlar asosiy zamin bo'lgan.

Osiyoning xo'jalik-madaniy tiplari ham juda qadim – tosh asridayoq paydo bo'lib, tabiiy sharoitga moslashgan. Tog'li va tog' etaklaridagi nisbatan qurg'oq issiq hududlardagi aholi yuqori paleolit davrlaridan yirik hayvonlarga ov qilishdan mayda jonivorlarni ovlashga va yemishli o'simlik va mevalarni, ildizmevali ekinlarni terib-termachlashga o'tadi. Bu madaniyatga xos ishlab chiqarish qurollari uzunchoq chaqmoq toshlardan sindirib olingan turli shakldagi yassi tosh parchalaridan iborat bo'lgan. Janubi-sharqiy Osiyoning namli tropik va subtropik hududlarida (Hindixitoy, Janubiy Xitoy, Malayziya) tosh qurollariga qaraganda bambukdan yasalgan qurollar muhim rol o'ynagan. Tabiati issiq va namli changalzor (jungli)da yirik tosh qurollar ishlatilgan. Shimoliy qurg'oq dasht hududlarda va qisman dengiz sohillarida (g'arbda Eronning sharqida, Xuanxe vohasigacha) dasht hayvonlarini ov qilish, terib-termachilik va baliqchilik kabi xo'jalik tiplari shakllana boshlagan, aholisi o'troq va yarim o'troq terimchi ham baliqchilarga, ikkinchidan daydi ovchilarga bo'lingan. Sibirda bug'uchilik va ovchilik asosiy xo'jalik tiplari bo'lgan.

Taxminan 10 ming yillar muqaddam Janubi-g'arbiy Osiyo tog' etaklarida qadimiy dehqonchilik paydo bo'la boshlagan, mahalliy aholi yovvoyi o'simliklarni terib-termachlashdan parvarish qilishga, yovvoyi hayvonlarni ov qilishdan ularni xonakilashtirishga o'ta boshlagan. O'sha davrlardayoq butun Janubi-sharqiy Osiyoda eng qadimgi chopqi dehqonchiligi paydo bo'la boshlagan. Keyinroq (mil. avv. VII–V ming yilliklarda) Eron, O'rta yer dengizi, Hindiston, Shimoli-sharqiy Osiyo, Indoneziya dehqonchilik o'choqlari paydo bo'ladi.

Hozirgi davrgacha saqlangan eng qadimiy birinchi tipga issiq iqlimli mintaqada yashovchi o'rmon terimchilari va ovchilari – Shri-Lanka veddalari, Hindistondagi chenchu, mudugar, bixor kabi mayda elatlar, Malakka semangilari va senoilar, Sumatradagi kubu, Kalimantondagi panan va Filippin orollaridagi aeta etnoslari kiradi. Ular oziq-ovqat axtarib, oddiy o'q-yoy va yer kovlash uchun uchli tayoq bilan qurollanib pona yoki butoqlardan vaqtincha omonat tikilgan chaylalarda yashab kun kechirganlar. Keyinchalik semanti, senoi va aeta kabi ovchi-termachlovchi guruhlar chopqi dehqonchiligi xo'jaligiga o'ta boshlashgan. Sohil bo'yi termachlovchilari va ovchilari (andaman orollari, Mergun arxipelagi, Indoneziya va Filippindagi ayrim elatlar) ham yarim o'troq holatda yashab chopqi dehqonchiligiga o'ta boshlashgan. Bu guruhga Markaziy va Janubig'arbiy Osiyoning bepoyon dashtlarida ko'chmanchi qabilalardan tashqari o'ziga xos xo'jalik-madaniy tip yaratgan tog'li terib-termachlovchi, ovchi va baliqchi elatlar (masalan, Xitoydagi nu va dulun xalqlari), Tibet-Birmadagi ayrim etnoslar, Yaponiyadagi aynalar dehqonchilikka o'tishdan oldin sanchqi, turli to'r va zaharlangan o'q-yoy bilan baliq ovlaganlar, ayollar esa yemishli molluska va qisqichbaqalarni suvdan ushlaganlar.

Ikkinchi guruh – chopqi dehqonchiligi xo'jalik-madaniy tipga Indoneziya, Filippin, Hindixitoy va Hindistonning ayrim mayda xalqlari kiradi. Ular o'troq holda yashab, shudgorlash dehqonchilikdan bexabar bo'lganlar. Asosan, tugunak va ildizmevali ekinlar, qisman bahori, turli palma, banan, shakarqamish kabi o'simliklar ekib yetishtirganlar. Uy hayvonlaridan it, cho'chqa va parranda saqlangan. Uylarini ustunli sinchdan mustahkam qilib, loydan, ba'zan bambukdan qurganlar. Taomlarida asosan, o'simlik mahsulotlari ishlatiladi, go'shtga nisbatan baliq ko'proq iste'mol qilinadi. Mazkur xo'jalik tipiga mo'tadil va salqin iqlimli baland tog' dehqonchiligi ham kiradi (asosan, tibetliklar). Ular qishloq xo'jalik ekinlaridan arpa, sulii, qisman bug'doy, kandir, qorabug'doy (grechixa) ekadilar, uy hayvonlaridan qo'y, echki va qo'tos boqadilar. Uylari somonli loydan, guvala va xomg'ishtdan, ba'zan yog'och va toshdan qurilgan. Taomida har xil non, sut mahsulotlari va go'sht, ichimlikdan choy ishlatiladi. Baland tibet tog'larining shimoli va g'arbida chorva bilan shug'ullanuvchi xalq o'ziga xos xo'jalik — madaniy tipiga ega. Ular eng baland salqin yassi tog'liklarda qo'tos, sarliq (qo'tos bilan sigir chatishmasi), qo'y, echki, yirik shoxli qora-

mol va yilqilardan iborat kichik poda bilan tor doiradagi yaylovlarda ko'chib yurganlar.

Osiyoning serquyosh issiq iqlimli, serunum tuprog'i, rang-barang tabiati bu yerda uzoq o'tmish – neolit davridan dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarining turli tiplarini paydo bo'lishiga imkon yaratgan. Eng yangi arxeologik kashfiyotlarga qaraganda (ayniqsa, Janubi-g'arbiy, Markaziy va Sharqiy Osiyodagi neolit makonlari), juda keng hududda qurg'oq dasht va tog' etaklarida chopqi dehqonchiligi bilan shug'ullangan qabilalar yashagan. Ular don (asosan, bug'doy va suli), poliz (ayniqsa, qovoq) ekinlari ekkanlar, o'troq holda yashab yirik va mayda shoxli mol saqlaganlar, turli hunarmandchilik ishlari bilan (kulolchilik, to'qimachilik va hokazo) shug'ullanganlar. Uylari to'g'riburchak shaklida bo'lib, somonli loy, xomg'ishtdan qurilgan, sopol idishlarda turli obinon, atala va o'simlik mahsulotlarini pishirib iste'mol qilganlar. Mazkur madaniyat negizida dastlabki jamiyatlar paydo bo'la boshlagan.

Uchinchi, xo'jalik-madaniy guruhidagi qirg'oq yerlarda paydo bo'lgan eng qadimiy shudgor dehqonchiligi insoniyat tarixida nihoyatda muhim rol o'ynagan va ijtimoiy taraqqiyotning qudratli omili bo'lgan. Aynan ushbu yerlarda Tigr va Yefrat, keyinchalik Hind, Yanszi va Xuanxe, Amu va Sirdaryo vodiylarida rivojlangan sug'orma chopqi dehqonchiligi negizidagi yirik shoxli qoramol kuchidan foydalanib, dastlabki shudgor dehqonchilik xo'jaliklarida yerni haydash kashf etila boshlangan. Ular don ekinlaridan bug'doy, tariq, jo'xori, chumiza, har turli loviya va poliz ekinlari (qovoq, qovun, tarvuz), tok va meva daraxtlari ekkanlar. Sug'orish tizimi ancha takomillashgan (ariq va kanallar qazish, chig'ir va charx ishlatish kabilar). Dehqonchilik qurollari – turli shakldagi temir tishli omochlar, mola, o'roq va tegirmonlar paydo bo'lgan. Yerga ishlov berishda ho'kiz, ba'zan sigir va eshakdan foydalanilgan. Katta g'ildirakli aravalar transport vositasi vazifasini bajargan, ularga ot yoki ho'kiz qo'shilgan. Aholisi tekis yoki nishab tomli to'g'ri burchakli, devori paxsa, xom yoki pishgan g'ishtdan, qisman toshdan qurilgan uylarda yashagan, turli non va patir, atala, ziravorli taomlar, qisman sut mahsulotlari, go'sht va baliq iste'mol qilgan. Hunarmandchilik (ayniqsa, badiiy) ancha rivojlangan. Chit va jun mato-dan tikilgan kiyimlar, har xil bezak, taqinchoqlar keng tarqalgan.

Eramizdan oldingi VII-VI ming yilliklarda Janubiy Osiyo Hindixitoy, Xitoyda dehqonchilik va chorvachilik mustaqil xo'jalik

sohasiga aylanib, sun'iy sug'orish, metallurgiya va savdo rivojlana boshlagan, sinfiy jamiyatlar paydo bo'la boshlagan. Keyingi davrda (ayniqsa, IV-II ming yilliklarda) bu yerda quldorlik tuzumiga asoslangan ilk davlatlar tuziladi, yozuv, ilm-fan, badiiy hunarmandchilik, monumental qurilish, haykaltaroshlik kabi sohalar rivoj topadi. Osiyo qit'asi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, ayniqsa, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik xo'jaligining takomillashuvi, har tomonlama ravnaq topa boshlagan shahar-davlatlarning paydo bo'lishi tufayli jahonning qadimiy madaniyat o'choqlaridan biriga aylanadi.

Mazkur madaniyat markazlari qadimgi davrda paydo bo'lib hozirgacha saqlanib kelgan. Iroqdagi dabdabali Bobil xarobalari, Hindistondagi Adjanta va Ellora ibodatxonalari, keyingi yillarda kashf etilgan Maxendjodaro va Xarappi madaniyati, Suriyadagi kishini hayajonga soladigan Palmira vayronalari, Iordaniyadagi monolit tog' qoyalari o'yilib qurilgan hashamatli Petro inshootlari, Kambodja changalzor(jungli)laridagi afsonaviy Angkor – Vata ibodatxonalari, Nepaldagi gumbazli Svayambunaxt va Bodiixt muqaddas budda inshootlari va boshqa noyob obidalar bunga yorqin dalil bo'la oladi. Ammo noqulay tabiiy sharoit (baland tog'liklar, changalzor to'qaylar va hokazo)da joylashgan ayrim etnik guruhlar mazkur madaniyat markazlaridan chekkada qolib, bir necha ming yillar davomida juda sekinlik bilan rivojlanib hozirgacha qoloq ibtidoiy ijtimoiy tuzum darajasida yashab kelmoqdalar.

Ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligining dehqonchilikdan ajralib chiqib keng dashtu biyobonlariga tarqalishi va yirik ishlab chiqarish sohasiga aylanishi yangi yerlarni egallashda muhim rol o'ynagan edi. Lekin bu hodisa texnik-iqtisodiy jihatdan intensiv dehqonchilik xo'jaligidan orqada qolgan chorvachilikni oqibatda o'troq aholiga qarama-qarshi qilib qo'yadi va ikkita yirik soha orasida katta ziddiyatlar tug'diradi. Madaniy-iqtisodiy qoloq ko'chmanchi qabila va elatlar vohalarga tez-tez hujum qilib turib, avvaliga talon-toroj va qirg'in keltirib turganlar. Qadimiy davrlardan XVIII asrga qadar davom etib kelgan Dashti Qipchoqdagi sak-massaget, keyin ko'chmanchi arab va mo'g'ul qabilalarining bosqinchilik yurishlari sharqda Xitoydan to'g'arbdagi arab davlatlarigacha katta hududda yuksak madaniyat yaratgan o'troq xalqlarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ancha putur yetkazgan.

Keyinchalik yangi davrda Osiyo mamlakatlarining ko'pchiligi Yevropa davlatlari tomonidan mustamlaka yoki qaram qilinib, g'arb sarmoyasining kuchi bilan golland, portugal, fransuz, german va ayniqsa, ingliz mustamlakachilarining yangi talon-taroj siyosati tufayli iqtisodiy-madaniy tushkunlikka uchraydi. Oqibatda ishlab chiqarish kuchlarining odatiy taraqqiyoti bo'g'iladi, yangi ilg'or ijtimoiy munosabatlarning tug'ilishi sekinlashadi. Ayniqsa, mustamlakachilar eng qoloq konservativ ijtimoiy tuzum – feodal patriarxal va hatto ibtidoiy jamoa urug'chilik munosabatlarini saqlab qolishga intilganlar.

Mintaqada eng taraqqiy qilgan industrial davlat Yaponiyadir. Qolgan mamlakatlar faqat keyingi davrlarda mustamlaka va yarim mustamlakachilikdan ozod bo'lib endigina o'zining sanoatini yaratmoqda. Mustaqil ijtimoiy taraqqiyotga o'tgan davlatlar industrializatsiya sohasida ancha yutuqlarini qo'lga kiritdilar. Bu sohada ularga iqtisodiy va texnik jihatdan rivojlangan ba'zi davlatlar katta yordam bermoqda, ularning yordami bilan so'nggi yillarda turli obyektlar qurildi va qurilmoqda. Industrial bazaning yaratilishi rivojlanayotgan erkin mamlakatlarda iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni mustahkamlaydi hamda ijtimoiy va madaniy taraqqiyotga ega bo'lgan keng yo'lni ochib beradi. Bunga, Quvayt, Arab mamlakatlari, Koreya va O'zbekiston misol bo'la oladi.

Osiyo aholisining hozirgi diniy qiyofasi qadimiy davrlarda, ayniqsa, o'rta asrlarda shakllangan. Hozirgi davrgacha yetib kelgan dinlarning ko'pchiligi (iudaizm yoki yahudiylik, zoroastrizm, induizm, jaynizm, buddizm, daosizm, konfutsiylik, nasroniylik, sintoizm, islom, sikkizm) Osiyoda paydo bo'lgan va keyinchalik butun jahonga tarqalgan. Masalan, miloddan avval shakllangan yahudiylik, yangi erani rasmiylashtirgan nasroniy dini, yoki o'rta asr boshlarida kirib kelgan islom dini ham paydo bo'lgan vatanidan tashqari juda ko'p mamlakatlarga, bir qancha qit'alarga yoyilib ketgan.

Dastlab eramizning boshlarida Kichik Osiyo, Messopotamiya va Janubiy Arabistonda turli politeistik dinlar hukmron bo'lgan. Arabiston yarim orolining shimoli va markaziy qismlarida hatto urug'-qabilaviy shaklidagi dinlar ham saqlanib kelgan. Falastinda hukmronligini o'rnatgan yahudiylik (iudaizm) endigina monoteistik tusga kira boshladi. Eron, Afg'oniston, Markaziy Osiyo hamda Kavkazorti sharqida zoroastrizm dini tarqalgan. Hindistonda,

ayniqsa, uning shimolida, braxmanizm dinini buddizm siqib chiqargan va Shri-Lanka (Seylon)da qaror topgan. Janubi-sharqiy Osiyo va Malayya orollarida asosan, turli mahalliy politeistik xarakterdagi dinlar, qisman oddiy urug'-qabilaviy ibodatlar tarqalgan. O'sha davrlarda Xitoyda ham har xil sinfiy jamiyatga xos mahalliy diniy e'tiqod, ayniqsa, ajdodlarga sig'inish muhim rol o'ynagan.

Eramizning I ming yilligi oxirlariga kelib Old Osiyo deyarli musulmonlashgan. Nasroniy dini juda tor doirada (Kichik Osiyo, Armaniston, Kipr, qisman Suriya, Livan va Falastinda) saqlangan. Islom bu davrda asta-sekin zoroastrizmni ham yengib Eron, Sharqiy Kavkazorti, hozirgi Afg'oniston, Markaziy Osiyo va Hindistonning g'arbiy qismidagi mintaqalarga tarqaladi. Asli Hindistonning ko'pchilik hududida qadimiy yirik dinlardan braxmanizm islohtlashgan holda yangi nom (induizm) bilan tiklanadi. Shri-Lanka va Hindixitoyda buddizm o'z hukmronligini saqlab, Malayya arxipelagida buddizm bilan induizm keng yoyiladi. Xitoyda «uch din» tizimi (sanszyaobuddizm, konfutsiylik, daosizm), Koreyada mahalliy diniy e'tiqodlar bilan birga buddizm va xitoy dinlari, Yaponiyada milliy din hisoblangan sintoizm bilan buddizm ildiz otgan. Buddizm Markaziy Osiyodan, hozirgi Sinszyan va Tibetga o'tgan va aynan shu yerlarda mustahkam asos topgan.

So'nggi ming yillikda Osiyoning diniy qiyofasida bir qadar o'zgarishlar ro'y bergan. Masalan, Old va Markaziy Osiyo yana ham ko'proq musulmonlashgan, nasroniylik faqat Kipr aholisining ko'pchiligida saqlangan bo'lib, boshqa joylarda juda kamayib, janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari (Malayziya va Indoneziyaga-chi) va hatto Shimoliy Osiyo – Sibirgacha yetib boradi, Sinszyandan esa buddizmni siqib chiqaradi. O'z navbatida buddizm ham sharqqa tarqalib Hindixitoy va Tibetda o'z hukmronligini mustahkamlaydi. Hindistonda asosan, induizm va islom, Yaponiyada sintoizm va buddizm o'z mavqeini saqlab qolgan. Xitoy va Koreyada asosan, eski dinlar saqlangan.

Shunday qilib, Osiyo dinlari o'rta asrlarga kelib asosan, shakllanib bo'lgan. Hozirgi davrda islomning shia mazhabi Eron, Iroqning janubiy qismida, zeydizm nomi bilan Yaman Arab respublikasida hukmron din hisoblanadi. Sunniy mazhab butun Janubi-g'arbiy va Markaziy Osiyo mamlakatlarida (Isroil, Livan va Kiprdan tashqari) ko'pchilik aholining diniy e'tiqodi hisoblanadi.

Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Malayziya va Indoneziya aholisining ham ko'pchiligi musulmonlardir. Hindistonda (ayniqsa, Kashmir shtatida) va Xitoyda (Sinszyan viloyatida uyg'urlar, Nineya – Xuey avtonom hududida dunganlar) musulmonlar ko'p. Maldiv orollarida, Shri-Lanka (mavrlar) va Birmada (arakanlar), Kambodja va Vetnamda (chama), Filippinda (moro) va Janubiy Tailandda ham qisman musulmonlar yashaydi.

Induizm asosan, Hindiston, Nepal, Bangladesh va Shri-Lanka (taillar)da tarqalgan. Induizmning mazhabi sifatida ajralib chiqqan joynizm va sikkizm hindlarning milliy dinlariga aylangan. Hindistonda paydo bo'lgan buddizm vatanni tark etib (xinayana mazhabi) hozir Birma, Tailand, Kambodja, Laos va Shri-Lankada, lamaizm shaklida Nepal, Butan, Mo'g'uliston va Tibetda hukmron din bo'lib tanildi. Buddizmning mahayana mazhabi Xitoy, Koreya, Yaponiya va Vetnamga tarqalgan.

Nasroniy dini Filippinlar orasida hukmron bo'lib, Livan, Janubiy Hindiston (Kerala shtati) va Indoneziyaning ba'zi joylariga qisman tarqalgan. Qadimiy dinlardan zoroastrizm, mazdeizm, mitroizm qoldiqlari ayrim etnik guruhlarda, Turkiya, Eron, Iroq, Bombay va Gudjaratda saqlangan. Isroilda davlat dini hisoblangan iudaizm (yahudiylik) dini negizida reaksion millatchilik ta'limoti – sionizm yuzaga keldi. Xitoyda hozirgacha daosizm va ayniqsa, konservativ tartiblarni va oilada patriarxalchilikni muqaddaslashtiruvchi konfutsiylik dinlari mustahkam saqlanib kelmoqda. Shuningdek, konfutsiylik Yaponiya va Vetnamga ham tarqalgan. Yaponlarning milliy dini hisoblangan sintoizm 1945-yilgacha militaristik kuchlarning ideologik tayanchi bo'lib kelgan, uning negizida keyingi davrda konfutsiylik va nasroniy dinlari aralashmasidan turli mazhablar paydo bo'lgan. Dinning ta'siri qanchalik kuchli bo'lmasin Osiyo qit'asining ko'p mamlakatlarida qisman sekulyarizatsiya jarayoni ham ro'y bermoqda.

§-1. G'ARBIY OSIYO XALQLARI

G'arbiy yoki Old Osiyo xalqlari katta tarixiy-etnografik hududni tashkil qiladi. Unda joylashgan 30 ga yaqin katta-kichik mamlakatlar juda keng hududni, ya'ni butun qit'aning taxminan 25 foizidan ortiq yerni egallaydi. Aholisi 240 mln. kishidan iborat yoki butun Osiyo aholisining 10 foizini tashkil qiladi. Ayrim mamlakatlarda aholi ro'yxati mutlaqo o'tkazilmaganligi tufayli kishi soni ham taxmini

olinadi. Ma'lumotlarga qaraganda, Turkiyada 42 mln. kishi, Eronda 34 mln., Afg'onistonda 20 mln.ga yaqin, Iroqda 12 mln., Saudiya Arabistonida 8,8 mln., Yaman Arab Respublikasida 7 mln., Isroilda 3,5 mln., Iordaniyada 2,9 mln., Livanda 2,4 mln., Yaman Xalq Demokratik Respublikasida 1,8 mln., Quvaytda 1,1 mln. kishi, Omon, Kipr, Birlashgan Arab amirliklari, Bahrayn va Qatarda aholi soni 1 mln.ga ham yetmaydi. Mintaqaning taxminan 80 foiz aholisi Turkiya, Eron, Afg'oniston, Iroq va Saudiya Arabistonida joylashgan. Markaziy Osiyo respublikalarida 50 milliondan ortiq aholi yashaydi.

Tabiiy-geografik jihatdan G'arbiy Osiyo rang-barang bo'lib quruq iqlimli bir necha yirik submintaqaga bo'linadi: Araviya, Mesopatamiya, Kichik Osiyo va Eron yassi tog'liklari. Eng qurg'oq, kam suvli va issiq iqlimi bilan Araviya ayniqsa, ajralib turadi. Aksincha, Mesopatamiya mintaqasi Tigr va Yefrat daryolarining ta'siri tufayli sersuv subtropik iqlim dehqonchilikka, umuman, odam yashashi uchun qulay. Turkiyaning Shimoliy va Janubiy Qora dengiz bo'ylab Pontiy tog' tizmalari, Markazda Anatoliy yassi tog'liklari Arman tog'liklari bilan chatishib ketgan. Muhim xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan tekisliklar mamlakatning 20 foizga yaqin hududini egallaydi. Eronning ham yarim hududi tog'liklardan iborat. Tekislik qismlari janubda faqat Fors qo'ltig'i va shimolda Kaspiy dengiz sohillarida joylashgan. Mamlakatning ichki qismida Dashti Kabir va Dashti Lut nomli ikkita buyuk sahro mavjud. Yaylovlar va o'rmonlar 18 foizga yaqin, ekin ekiladigan yerlar 10 foiz hududni egallaydi. Afg'onistonning beshdan to'rt qismi tog'li joylar bo'lganligi tufayli u tog'li mamlakat ham deyiladi. Shimoliy va Janubiy-g'arbiy hududlar (Hindikush tizmalari, Dashti Margo va Registon)-da toshloq va qumlik dasht va yarim dasht, Kondagar, Qobul vohasi, Gerat, Mozori sharif, Qunduz, Jalolobod vodiysida serunum tuprog'li yerlar mavjud bo'lib, bu yerda aholi zich yashaydi. Iroqning ko'pchilik qismi tekislik, mamlakatning shimol va shimoli-sharqida joylashgan Iroq Kurdistonidagi asosan, tog'liklar, Bog'dodning g'arbida Al-Jazira dashti yoki Yuqori Mesopatamiya (Tigr va Yefrat o'rtaligi) markazi va janubida Mesopatamiya pastekisligi yoki pastki Mesopatamiya chekkasida, g'arbi va janubi-g'arbida joylashgan Suriya arab yassi tog'liklarga bo'lingan. Arabiston yarim orolining uchdan ikki qismini egallab turgan Saudiya Arabistoni g'arbda Jabal Xijoz, janubda Xadramovut va Jabal-Axdar tog' tizmalari bilan o'ral-

gan bepoyon sahro va yarim sahro (1mln. km²) hududda joylashgan. Bu yerda jahondagi eng katta qum sahrolaridan biri – Rub-al-Xali joylashgan. Qora va O'rta dengiz sohillaridagi turk va arab mamlatlari, Isroil davlati subtropik iqlimli serunum tuproqli yerlarga ega.

G'arbiy Osiyoning o'simlik va hayvonot dunyosi ham xilma-xildir, lekin eng qadimiy ibtidoiy davrga nisbatan ancha o'zgargan. O'z davrida boy o'rmon va hayvonlarga ega bo'lgan bepoyon G'arbiy Osiyo o'lkalari hozirda nisbatan ancha qashshoqlashib qolgan. Ayniqsa, o'simlik dunyosi juda kambag'al, chunki aholining asosiy yoqilg'isi o'tin bo'lganligi tufayli ko'p o'rmonlar asrlar davomida chopib, o'tin uchun yo'qotilgan, tabiiyki, undagi hayvonlar ham o'z-o'zidan kamayib ketgan. Faqat Qora dengiz sohillaridagi yozi nam, mayin iqlimli hududlarda yashil daraxtzorlar, baland tog' tizmalaridagi o'rmonlar saqlanib qolgan. Egey va O'rta dengiz sohillarida ham qisman daraxtli o'rmonlar va butazorlar mavjud.

Antropologik jihatdan G'arbiy Osiyo xalqlari asosan, yevropoid irqiga oid. Ularga xos belgilar: sochi va ko'zi qora, badani bug'doy rangli, burni o'rtacha, labi kichkina yoki bir oz qalinroq. Ayrim old osiyolik yoki armanoid tipidagilar boshi suyagi va burnining kattaligi (burgutsimon burunli), yuzi va badanining sermo'yligi bilan ajralib turadi. Aksincha, o'rta dengiz tipi yoki hind-pomir tipi kam mo'y, mayin yuzliligi va nozik labi, burnining kichikligi kabi belgilari bilan farq qiladi. Birinchi, ya'ni Old Osiyo tipiga asosan, turklar, o'troq arablar, kurdlar, armanlar va yahudiylar, ikkinchisiga, ya'ni hind-pomir tipiga Afg'oniston xalqlarining ko'pchiligi va qisman eron aholisi, uchinchi – o'rta dengiz tipiga G'arbiy turklar va ko'chmanchi arablar kiradi. Ba'zi etnoslar (xazoriylar, turk va arablar)da qisman mongoloid, ayrim guruhlar (Janubiy Arabiston arablari)da negroid, Afg'oniston va Eron bragunlarida avstraloid belgilari seziladi.

Mazkur mintaqada joylashgan 12 ta Arab mamlakatlarida yashovchi xalqlar, qo'shni Isroil, Turkiya va Erondagi arablar semit tillarida so'zlashadilar. Ammo adabiy va rasmiy davlat tilida so'zlashadigan tiplar orasida farq bor, xalq ichida asosan, uch sheva (Suriya, Iroq va Araviya) mavjud bo'lib fanda aniqlangan semit tipidagi G'arbiy Osiyo aholisining 30 foizini tashkil qiladi. Eroniy tillarda forslar, pushtunlar, tojiklar, kurdlar, balujiylar, lurlar, baxtiyorlar, xazoriylar va boshqa ayrim etnik guruhlar so'zlashadi. Ular butun aholining 40 foizga yaqin qismini

tashkil etadi. 20 foizdan ortiq aholi turkiy til oilasiga mansub (turklar, ozarbayjonlar, o'zbeklar, turkmanlar, qashqarlar va ayrim mayda guruhlar). Boshqa tillarda gapiradigan xalqlardan Kiprdagi greklar, ko'p mamlakatlarda tarqoq holda joylashgan armanlar, gruzinlar, lazlar, hindlar va boshqa elatlar har xil til oilasiga mansub vakillardir. Ammo G'arbiy Osiyodagi hozirgi til turkumlarining bittasi ham mahalliy tub tillarga kirmaydi, semit-xomit, hind-yevropa va turk tillari kirib kelgunga qadar bu hududlarda uzoq o'tmishda yo'qolib ketgan qadimgi davlatlarning tillari tarqalgan edi. Shulardan tarixda ma'lumlari shumer, elamit, kassit, lo'libey, kaspiy, kavkaz tillariga yaqin bo'lgan hatti, xurrit va urartu tillaridir. Semit-xomit tillari eramizdan avvalgi IV ming yilliklarda G'arbiy Osiyoga Shimoliy Afrikadan kirib kelib mahalliy tillar bilan aralashib ketgan. Ular III-II ming yilliklarda akkad tili va uning asosiy shevasi – bobil, ossuriya va oromey tillarida namoyon bo'ladi. O'sha davrlarda Bolqon yarim oroli va Kavkaz tomonidan hind-yevropa tillari o'ta boshlaydi. Oromey tili esa eramizning boshlarida butun G'arbiy Osiyogacha yetib borgan. Keyinchalik uning o'rniga arab tili hukmronlik qilgan. O'rta asrlarda G'arbiy Osiyo xalqlarining etnik tarixida sharqdan kelgan turk qabilalari muhim rol o'ynagan.

Mazkur tillarning paydo bo'lishi, tarqalishi va joylashuvi bilan mahalliy xalqlarning etnogenezi va etnik tarixi bevosita bog'lanib ketgan. Yuqorida qayd qilganimizdek, G'arbiy Osiyo jahonning eng qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan. Falastinda mil. avv. IX–VIII ming yilliklardayoq dehqonchilik va chorvachilik rivojlana boshlagan. Mesopatamiya va G'arbiy Eronda mil. avv. IV–V ming yillar muqaddam irrigatsiya dehqonchiligi paydo bo'lgan Kichik Osiyo, Shimoliy Mesopatamiya va qo'shni vohalarda o'sha davrlarda metallurgiya bo'lganligi aniqlangan. Mil. avv. IX–I ming yilliklarda yuqori madaniyatli mulkdorlik davlatlari – Arman yassi tog'ligi va Janubiy Kavkazortida, O'rartu, Mesopatamiyada, qadimgi Bobil podsholigi, G'arbiy Eronda Elam, Kichik Osiyoda Xetta, Levantada Finikiya shahar-davlatlari, Janubi-g'arbiy Araviyada Mani ham Saba va boshqa davlatlar paydo bo'lgan. Ularda monumental binokorlik, badiiy hunarmandchilik, yozuv, fan va adabiyot rivojlangan. Finikiyaliklar yaratgan alifbo hozirgi yozuv tizimlarining negizidir. Bu yerda eng qadimiy monoteistik dinlar: nasroniy, iudaizm va islom shakllangan. O'rta asrlarda ham yuksak madaniyat yaratgan

arab, xorazmiylar, saljuqiylar va g'aznaviylar kabi yirik davlatlar hukmronlik qilgan.

Mazkur davlatlarda turli elat va xalqlar yashagan, xilma-xil etnoslarning almashinib-aralashishi jarayoni to'xtovsiz davom etib turgan. Mil.avv. I ming yilliklarda paydo bo'lgan hind-yevropa tillaridagi xalqlar G'arbiy Osiyoning ancha qismini bosib olib Midiya, Eron, keyinroq Parfiya va Baqtriya kabi qudratli despotik davlatlarni yaratganlar. Bu davlatlarda yashagan mahalliy elatlar bilan kelgindi etnoslarning aralashib ketishi oqibatida ko'pchilik eroniy tillardagi hozirgi o'troq xalqlar (forslar, gilyonlar, mozandaronlar, qisman pushtunlar va tojiklar) va ko'chmanchi elatlar (pushtunlarning bir qismi, kurdlar, lurlar, baxtiyorlar va hokazo) shakllangan. Mahalliy aholi bilan VII-VIII asrlarda kirib kelgan arablarning aralashuvidan hozirgi arab millati paydo bo'lgan. XI-XII asrlarda Kichik Osiyoga bostirib kirgan saljuqiylar mahalliy elatlarni turkiylashtirib hozirgi turklar, ozarbayjonlar va boshqa turkiy xalqlarning shakllanishiga asos solganlar. Ba'zan bu tabiiy jarayon sun'iy ravishda zo'rma-zo'rakilik yo'li bilan amalga oshirilgan. Masalan, XVI asrlarda Eronga zo'rlik bilan armanlar va gruzinlar ko'chirilgan. XVIII asrlarda kurdnlarni Xurosonga va bir qismini Markaziy Anatoliyga ko'chishga majbur qilganlar. O'sha davrda qasd olish siyosatini amalga oshirgan Turkiya davlati muntazam ravishda arman va aysorlarni qirib turgan. 1948-yili Isroil davlati paydo bo'lgandan keyin bir millionga yaqin arablar zo'rlik bilan o'z hududlaridan haydalib (xususan falastinliklar) qo'shni yurtlarga ko'chib ketgan, ularning o'rniga taxminan shuncha yahudiylar turli mamlakatlardan ko'chib kelgan.

Hozirgi G'arbiy Osiyo xalqlarining ko'pchiligi sotsial-iqtisodiy jihatdan turli darajada tursa ham, tili va irqiy jihatdan farqlansa ham uzoq tarixiy davr ichida o'zaro yaqin munosabatda bo'lib, bir-birlariga o'tkazgan ta'siri natijasida madaniy-maishiy jihatdan umumiy xususiyatlarga ega bo'lib qolishgan. Etnik tuzilishi jihatidan Turkiya aholisi nisbatan ancha bir xil, uning 87 foiz, ya'ni 35 mln.dan ortig'i turklar 4 mln. kurdlar, qolgani mayda elatlar (yuryuklar, arablar, lazlar, gruzinlar, armanlar, adigeylar, turkmanlar, greklar va boshqalar)dir.

Mintaqada eng ko'p millatli mamlakatlar Eron va Afg'oniston hisoblanadi. Masalan, Eronda eroniy tillarda (butun aholining 75 foiz) forslar 13,5 mln., kurdlar 2,5 mln., gilyonlar 1,6 mln.,

mozandaronliklar 1,2 mln., lurlar 0,8 mln., baxtiyorlar yarim mln., qolganlari balujiylar, talishlar, tatlar, xazoriylar, jamshidlar, afg'onlar, tojiklar; turkiy tillarda so'zlashadigan aholining 20 % dan ortig'i ozarbayjonlar — 5 mln., qolganlari bir necha yuz va o'n mingdan ortiq turkmanlar, qashqarlar, kajarlar, shoxsevanlar, qorapapoxlar, xorasanlar, bajarli, aynolu kabi elatlardir. Mahalliy statistik ma'lumotlarga binoan Eronda 40 dan ortiq turli xalqlar yashaydi. Tub aholi hisoblangan forslar butun aholining yarmidan kamini tashkil etadi. Afg'onistonda esa 30 ga yaqin xalq istiqomat qiladi. Mamlakatning janubiy va shimoli-sharqiy qismida eroniy tillarda so'zlashadigan, shimoli-g'arbida turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlar yashaydi. Mamlakatda birinchi marta o'tkazilgan 1979-yilgi aholi ro'yxatiga binoan Afg'oniston aholisi 15,5 mln. dan ortgan. Shulardan taxminan 55 % aholisi asli afg'on(pushtun)lar, 19 % i tojiklar, 9 % i o'zbeklar (asosan, shimoliy qismida), 8 % i xazariylar, 4 % i choraymoqlar, 3 % i turkmanlar, qolgan 2 % i boshqa elatlar va etnik guruhlardan (belujiylar, nuristonliklar, forslar, kurdlar, braguilar, qirg'izlar va hokazo). Ayrim etnoslarda qabilaviy tuzum tartiblari saqlangan. Ularning eng yirik qabila va qabilaviy birikmalari-dan durdoni (XVIII asrgacha abdali deb atalgan), gilzoi, momand, shinvori, xugani, vardagi, dzadzi, mangal, xostval, kakar va hokazo. Taxminan 20 % aholisi hozirgacha ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi holda yashaydi.

Arab mamlakatlarining ko'p millatli hisoblangan Livan, Suriya va Iroq davlatlarida arablar butun aholining 80-90 foizini tashkil qiladi. Livanda arablardan tashqari armanlar (100 ming), kurdlar (15 ming), greklar, turklar, forslar va cherkeslar, Suriyada kurdlar (300 ming), armanlar (135 ming), assiriyaliklar, turkmanlar, turklar va cherkeslar yashaydi. 80 foiz arab xalqiga ega bo'lgan Iroqda 18 foiz kurdlar, qolgani forslar, assiriyaliklar, turklar, armanlar, turkmanlar va boshqa elatlardir.

G'arbiy Osiyo mamlakatlarining barchasi agrar xo'jalikka ega bo'lib, sun'iy sug'orish dehqonchiligiga asoslangan, sanoat kam rivojlangan. Tabiati qurg'oq, yog'ingarchilik kam bo'lganligi tufayli dalalari qadimdan kanal va ariqlar, suv omborlari qurilgan, dashtu biyobonlar chig'ir va karizlar orqali sug'orilgan. Tog'li joylarda lalmikor dehqonchilik mavjud. Ishlab chiqarish qurollaridan butun mintaqaga tarqalgan oddiy temir tishli omocho (yerni 8-10 sm chuqurlikda ag'daradigan), mola, ketmon, belkurak va o'roq keng tarq-

algan. Xirmonga maxsus g'alla yanchadigan shoxi kaltak yoki molni tepkilatib don yig'ilgan, qo'l tegirmoni yoki xarozda un chiqarilgan. Ko'pchilik dehqon xo'jaliklari qo'l mehnatiga asoslangan, hozirgacha texnika juda kam ishlatiladi.

Arab mamlakatlarida asosan, bug'doy, arpa, paxta, zig'ir, yasmiq, poliz va sitrus ekinlari va bog'dorchilik muhim o'rinni egallaydi. Turkiyada qishloq xo'jaligining yetakchi sohasi g'allachilikdir. Bu yerda bahorgi ekinlar keng tarqalgan, chunki sun'iy sug'orish butun haydaladigan yerlarning o'ndan bir qismini tashkil qiladi. Mavjud ekin maydonining 15 % ida texnik ekinlar – paxta (yiliga 0,5 mln. tonna), tamaki, qand lavlagi yetishtiriladi. Eronda ekiladigan maydonning 70 % iga don ekinlari (bug'doy, arpa va sholi) ekiladi, qolgani paxta, qand lavlagi, choy, tamaki va bog'dorchilik bilan band. Afg'oniston sug'orma dehqonchilik mamlakati bo'lib, aholisining 70 foizi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Bu yerda texnik ekinlardan yaxshi hosil olinadi, bog'dorchilik yaxshi rivojlangan bo'lib, bundan tashqari bug'doy, qand lavlagi, paxta, sholi, arpa, sabzavot va poliz ekinlari ekiladi. Arab mamlakatlarida sitrus ekinlari keng tarqalgan. Masalan, Iroq jahonda xurmo eksportining 80 % ini yetkazib bergan. Bu sohada jahonda 4-o'rinda turgan Saudiya Arabistonida 70 ga yaqin xurmo turi mavjud bo'lib, ulardan har yili 250 ming tonna hosil olinadi. Ekiladigan maydonning 75% i xurmo daraxtlari bilan band. Sohil bo'yida yashovchi aholi baliqchilik bilan ham shug'ullanadi.

G'arbiy Osiyo xalqlarining xo'jaligida chorvachilik muhim o'rinni egallaydi va bu xo'jalik turli ko'rinishga ega: ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi, yarim o'troq va o'troq. Chorvachilik bilan asosan, arab xalqlari, qisman pushtunlar, yarim ko'chmanchi turkiy elatlar, kurdlar, Erondagi va Afg'onistondagi ayrim qabilalar shug'ullanadilar. Eronda yashovchi 3–4 mln., Afg'onistondagi 4 mln. ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi elatlar asosan, chorvachilik bilan kun kechiradilar. Ko'chmanchi qabilalar, ayniqsa, arab badaviylari¹⁰ tuya, qo'y, echki va ot boqadilar. Masalan, Saudiya Arabistonida badaviylar asosan, tuyakashlik va otlarning maxsus

¹⁰ «Badavi» nomi arabcha «bada» (sahro) so'zidan olingan bo'lib, «sahroda yashovchi» yoki «sahroi» degan ma'noni anglatadi. Arabistonda hozir 10 mln.ga yaqin badavi yashaydi

arab turini parvarish qilish bilan mashg'ul. Mamlakatda hozirgacha 300 mingdan ortiq tuya, 535 mln. qo'y va echki mavjud. Yaqin davrlargacha 500 mingga yaqin tuya bo'lib, har yili Shimoliy Naja-da 15 ming bosh tuya savdo qilingan. Ko'chmanchi qabilalar yilda bir necha marta faslga qarab ko'chib yuradilar: jazirama issiq oylari daryo bo'ylarida, qishda sahroda, bahorga kelib vohaga joylashadilar. Yarim ko'chmanchi arab, turk, eron, afg'on qabilalari asosan, mayda mol, echki, qo'y va qisman tuya, ot, eshak boqadilar. O'troq aholi yirik shoxli molni sut-yog'i va go'shti uchun boqadilar, qisman parranda ham saqlashadi.

An'anaviy xo'jalik sohasi hisoblangan hunarmandchilik barcha G'arbiy Osiyo xalqlarida rivojlangan. Hozirgacha ularning hayotida temirchilik, zargarlik, misgarlik, kulolchilik, ipakchilik, ip yigiruv va to'qimachilik, kigiz bosish, bo'yrachilik va gilam to'qish muhim o'rinni egallaydi. Shahar aholisining ko'pchiligi hunarmandlar, savdogarlar, ziyoli va ishchilar. Sanoatda bo'lgan ishchilarning uchdan ikki qismi asosan, qo'l mehnati bilan band. Ko'pchilik mamlakatlarda zamonaviy sanoat ham taraqqiy etmoqda. Masalan, Turkiyada so'nggi yarim asr davomida keng iste'mol mollari ishlab chiqarish bilan birga yoqilg'i, energetika, metallurgiya, ximiya kabi sanoat turlari ham paydo bo'ldi. Hozir bu yerda cho'yan va po'lat, sement va oyna, stanok va elektr uskunalari, kemalar va muzlatgichlar ishlab chiqariladi, avtomobil, traktorlar yig'iladi. Yarim feodal ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan o'tgan Eron agrar-industrial mamlakatga aylanmoqda. Arab mamlakatlaridan eng zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga kiritgan Quvayt neft qazib chiqarish va uni qayta ishlash hisobiga jahondagi eng boy davlatlar darajasiga ko'tarilgan. Livan va Suriya ham yangi bozor munosabatlariga tortilgan agrar-industrial mamlakatlardir.

G'arbiy Osiyo xalqlari moddiy madaniyatining o'ziga xos xususiyati mahalliy tabiat va iqlim sharoiti bilan belgilanadi. Ammo barcha elatlarga xos umumiy belgilari ham mavjud. Old osiyoliklarning asosiy qismi qishloqlarda istiqomat qiladi. Ba'zi qishloqlar qal'a ko'rinishida bo'lib, devor bilan o'ralgan. Qishloq markazida bozor, machit, oshxona yoki choyxona joylashgan. Afg'oniston va Eronda katta patriarxal oilalarga mo'ljallangan ko'p xonalik qo'rg'onlar mavjud. Uylari asosan, loydan, paxsa yoki somon aralashtirilgan guvaladan, xom yoki ba'zan pishgan g'ishtdan yoki betondan qurilgan. Ayrim tog'li hududlarda qo'rg'on shaklida

toshdan tiklangan uylar ham uchraydi. Tomlari tekis, qamish va tuproq bilan yopilgan va somon aralash loy bilan suvalgan. Qadimgi madaniyat markazi hisoblangan yirik shaharlarda g'isht va toshdan qurilgan dabdabali ko'shk-ayvonlar, hashamatli saroylar, ajoyib arxitektura inshootlari qad ko'targan.

Eronda vodiylarda sinch qilib guvaladan qurilgan tekis tomli, bir xonali, oynasiz tuynukli forsiy xalq uylari keng tarqalgan. Paxsadan yoki xomg'ishtdan gumbaz shaklida qurilgan bir necha xonali uylar ham ko'p uchraydi. Janubda dehqon uylari toshdan yoki qamishdan qurilgan bo'lsa, shimolda gilyonlar va mozandaronliklar uyining tomi cho'qqaygan, somon yoki cherepitsali yog'och uylar ham quradilar. Tog'li hududlardagi kurdlar toshdan yoki xomg'ishtdan, o'rtasida ustunga o'rnatilgan somon va tuproq bilan yopilgan tuynuk tomli, devor oralig'iga taxmon yoki tokchalar qurilgan uylarda yashaydilar. Uyning o'rtasida o'choq bo'lib, u muqaddas hisoblangan. Afg'onlarda va Qandahor hududida, yog'och yetishmasligidan gumbaz tomli, xomg'ishtli uylar uchraydi.

Turkiyada qishloq uylari geografik vohalarga qarab farqlanadi. Shimoliy sohillardagi o'rmonli hududlarda yog'ochdan, tog'li, o'rmonsiz vohalarda toshdan uy-joy quriladi. Janubdagi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi yengil butalardan yoki qamishdan chayla tiklaydilar. Markaziy Anatoliyda loydan yoki somon aralash g'ishtdan qurilgan yog'och, somon, qamish bilan yopilgan past, tekis tomli uylar keng tarqalgan.

Uy jihozlari ijtimoiy sharoitga qarab har xil: o'ziga to'q oilalarda turli idish-tovoq, kigiz-gilamlar, zamonaviy uy-ro'zg'or buyumlari va mebellar, nochorroq xonadonlarda esa supa yoki taqir yerga to'shalgan chipta, bo'yra, ba'zan kigiz yoki palos, sopol yoki mis idishlar, tunuka va qumg'onlar, qovoqdan yasalgan buyumlar va savatlar bo'ladi. Alhol, turklarning an'anaviy intererida mebel mutlaqo yo'q. Yotib turadigan va ovqatlanadigan joyiga chipta (kosir) yoki palos to'shaladi, ko'rpa-yostiq taxmonda, kiyim-kechak sandiqda saqlanadi. Idish-tovoqlar o'choq yaqinidagi tokchaga terib qo'yiladi. Ovqat qozon osilgan temir sepoyada yoki o'choqda pishiriladi. Eronda va Afg'onistonda dehqonlar to'shak chiptada palos yoki jun ko'rpa yopinadilar, o'rtada o'choq (kursi), sovuqda sandal qo'yilib katta ko'rpa bilan yopiladi. Afg'onlarning uy-ro'zg'or buyumlari, idish-tovoqlari devorda qurilgan taxmon va tokchalarda yoki ba'zan osma xurjunlarda saqlanadi. Ayrim o'troq aholi yashay-

digan joylarda arqon to'rtli yog'och karavot, ba'zan kursi va stollar-ni ham uchratish mumkin. Uyni kechasi yoritish uchun qorachiroq yoki moychiroq ishlatiladi.

Ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi aholi (badaviylar, ayrim afg'on va turkman qabilalari, kurdlar, balujiylar, yuryuklar va hokazo) asosan, jun matodan tikilgan turli xildagi chodir yoki qora uy (o'tovga o'xshash) chaylalarda yashaydilar. Uy jihozlari ko'chishga qulay temir, yog'och yoki teridan yasalgan idish-tovoqlar, xurjun va sandiqlar, kigiz va gilamlardan iboratdir. Masalan, arab, baxtiyor, qashg'ar yoki afg'onlarning qora jun matodan, bir necha qator ustunlarga o'rnatilgan to'rtburchakli ikki nishabli chodiri diqqatga sazovor. Yarim ko'chmanchi qabilalarning chodralarida chiptalar to'shalib, toshlar bilan past devorlar tiklanadi va o'rtasi chipta yoki mato bilan ichkari va tashqariga bo'linadi. Badavlat badaviylarning chodirlari o'zining hajmi va jihozlanishi bilan farqlanadi. Katta chodirlar 2-3 metr balandlikda, o'rtasi gilam bilan ichkari va tashqariga bo'lingan, ichkarida, ya'ni xotinlar bo'limida oziq-ovqat solingan xaltalar osilgan, kiyimlar va bezaklar taxlangan sandiqlar o'rnatilgan va to'shak uchun chipta gilamlar to'shaladi. Hozirgi chodirlar kerosin lampa bilan yoritiladi. Ayrim qabilalar (ineza, shammaza)ning boshliqlari bir necha yuz kishi sig'adigan nihoyatda katta, balandligi 8 metr, uzunligi 50 metrli chodir tiklaydilar, uning ichiga qimmatbaho gilamlar to'shaladi¹¹.

G'arbiy Osiyo aholisining ko'pchiligi (60 %) qishloqlarda joylashgan bo'lsada, urbanizatsiya darajasi qit'aning boshqa qismiga nisbatan ancha baland. Ko'pchilik mamlakatlarning shahar aholisi 30 % i, ayrim mamlakatlarda esa undan ham yuqori foizni tashkil qiladi. Masalan, Isroil aholisining 80 % i, Yaman Xalq demokratik respublikasining 78% i, Quvayt, Katar va Bahrayn aholisining 70% i shaharda yashaydi. Afg'oniston, Saudiya Arabistoni va Yaman respublikasida shaharda yashaydigan aholi 10 % dan kamroqni tashkil qiladi. Bu holat mahalliy aholining moddiy hayotida, ayniqsa, uy qurish va jihozlanishi, kiyimi va ovqatiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Shaharlarda, masalan, aholi zamonaviy dabdabali ko'shk va saroylar bilan birga ko'p qavatli, sanuzel va kommunikatsiya o'rnatilgan

¹¹ Қаранг: Лотар Штайн. В чёрных шатрах бедуинов. — М.: изд. «Наука». 1981, стр. 68-69.

shinam kvartirali uylarda ham istiqomat qiladi. Yirik shahar atroflarida pastqam xilvat uylar, buzuq-yoriq qorong'i xarobalar ham uchraydi.

Mintaqada yashovchi xalqlarning kiyimlarida juda ko'p umumiylik mavjud. Erkaklari ko'ylak va keng ishton, ustidan yengsiz nimcha yoki chakmon kamzul, chopon, qishda po'stin, boshlariga do'ppi, teri telpak yoki salla, arablar kufiya kiyadilar. Oyoq kiyimlari etik, maxsi-kavush yoki sandaldan iborat bo'lib, ba'zan ko'proq oyoq yalang ham yuraverishadi. Ayollari keng ko'ylak va shalvar shaklidagi to'piqqacha lozim, boshlariga ro'mol yoki shol o'rashadi, ayrimlari esa (Eron va Afg'onistonda) tashqariga chiqqanda yuzlariga paranji yoki chodir yopinib yurishadi. Ular kiyimlari, ko'ylaklariga turli taqinchoqlar, qo'l va quloqlariga bilaguzuk, sirg'alar osishadi. G'arbiy Osiyo mamlakatlarida an'anaviy-milliy kiyimlar shahar aholisida juda kam saqlangan, asosan, zamonaviy Yevropa kiyimlari kiyiladi. An'anaviy kiyimlarni qishloq va tog'li joylarda ko'proq kuzatish mumkin.

G'arbiy Osiyo xalqlarining taomlari ham ularning tabiiy-geografik sharoiti, tarixiy xususiyati va xo'jalik faoliyatiga qarab farqlanadi. Tarixiy-ijtimoiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan Eron, Turkiya va Afg'oniston o'troq aholisining etnik va diniy munosabatlarida ham anchagina umumiyliklar mavjud. Bu holat ularning taomlarida ham o'z ifodasini topgan. Ammo o'troq aholi bilan ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi aholining taomlari birbiridan farq qiladi. Barcha etnoslarning taomlari nihoyatda rang-barang bo'lsa-da, dehqonlarning har kungi ovqati asosan, non, sabzavot va sut mahsulotlaridan iborat. Non mahsuloti, masalan, turk dehqonlarida umumiy taomning to'rtinchi qismini tashkil qiladi. Eron va Afg'oniston dehqon aholisining ham asosiy oziq-ovqati nondir. Afg'onistonning ayrim tog'li joylarida nonni bug'doy, arpa, ba'zan makka yoki suli unidan, quritilgan tut tolqonidan pishiradilar. Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, butun Old Osiyo xalqi taomining umumiy modeli sifatida o'troq ham ko'chma turmush tarzida yashovchi kurdrlarning taomi namuna bo'lishi mumkin¹².

Non yopilishi (o'troq aholi asosan, tandirda, ko'chmanchi elatlar o'tga qo'yilgan tunuka (sajda)) shakliga qarab farq qiladi. Eng keng

¹² Этнография питания народов стран Зарубежной Азии. Опыт сравнительной типологии. — М.: изд. «Наука». 1981, стр. 17.

tarqalgan xamir taomlar uchun turli yarim tayyor mahsulotlar tayyorlanadi, ayniqsa, an'anaviy ugra (reshta) kesilib, oftobda quritilib, maxsus xaltalarda yoki ko'zada saqlangan. Don yormasi yoki undan har xil bo'tqa (masalan, turklarda bulg'ur, davma) yoki kurdlarda bug'doy bo'tqasi (savor, xarisa, samani) keng tarqalgan. Bo'tqani yog', go'sht, piyoz va sarimsoq bilan pishiradilar. Umuman yorma an'anaviy taomlarning asosini tashkil qiladi. Muqaddas don hisoblangan guruchdan ikki xil palov pishiriladi: qaynatilgan suvga tuz bilan guruch solib, pishgandan keyin eritilgan sariyog' solib damlanadi yoki sovuq suvga guruch, tuz va yog' qo'shib birga qaynatiladi. Guruch pishib chiqqandan keyin pishirilgan go'sht yoki tovuq, maxsus tayyorlangan sarimsoqli go'sht, ziravor va piyoz qayla qo'shiladi. Sut mahsulotlari ham ko'p iste'mol qilinadi. An'anaviy go'shtli taomlardan eng qadimiylari qo'llama, tandirkabob yoki qo'yikabob (qo'yni so'yib terisi bilan qo'rda pishirish), chevirma kabob, shish kabob, qiyma kabob, burbel (qo'y go'shtini suv va qatiq bilan qaynatish), har turli qovurmalar. Suyuq ovqatlardan bir necha xildagi sho'rva (turkcha cho'rbo, forsha obgo'sh) keng tarqalgan bo'lib, unga asosan, non to'g'rab iste'mol qilinadi. Turli sabzavotlar (pomidor, bodring, rediska, piyoz, sarimsoq, qalampir va hokazo) xom va pishgan holda, yangi va quruq mevalar (olma, o'rik, nok, uzum, anjir, shaftoli, xurmo va hokazo) ko'p iste'mol qilinadi. Choy va kofe asosiy ichimlik hisoblanadi. Bayramlarda dasturxonga turli shirinliklar (holva, shakarli bodom, yong'oq yoki xurmoli pecheniy, har xil mevali murabbolar) qo'yiladi. Mehmon kutganda dasturxonda non serob bo'lishi shart, aks holda non kam bo'lsa, mehmonga hurmatsizlik hisoblanadi. Sohillarda, ko'l va daryo bo'ylarida yashaydigan aholi turli baliqlardan har xil taomlar pishiradilar, dengiz toshbaqasi va uning tuxumini ham iste'mol qiladilar. Afg'onlar marinka balig'ini qo'y yog'ida sixda kabob qilib pishirib yeydilar, ba'zan qiltiriqlaridan ajratib qo'y go'shti, piyoz, tuxum, har xil yemishli ildizlar bilan aralashtirib taom tayyorlaydilar.

Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalq taomlari o'troq aholiniki bilan asosan, umumiy xarakterga ega bo'lsa-da, ularning turmush tarziga xos ayrim xususiyatlari saqlangan. Masalan, Turkiyada va Eronda yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi elatlarning asosiy taomi tunuka tovada yupqa qilib achitilmay yopilgan non, sut va sut mahsulotlaridan, bug'doy yormasi, arpa yoki suli uni qo'shilgan turli taomlar tayyorlanadi. Afg'onlarda ham

eng asosiy taom non va sut mahsulotlaridir. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi (jamshidlar, xazariylar, balujiylar va hk.) yozda ko'proq non bilan qatiq, qishda esa qurti yanchib piyoz va sariyog' qo'shib tayyorlangan sho'rvaga non to'g'rab iste'mol qiladilar. Go'shtni juda kam iste'mol qiladilar. Arab ko'chmanchi aholisi (badaviylar)ni boqadigan, isitadigan, kiygizadigan va davolaydigan ham — tuya. Ular qo'y, echki ham saqlaydilar. Sut va sut mahsulotlari, xurmo badaviylarning asosiy taomi hisoblanadi. Atoqli arab iqtisodchi olimlaridan biri aytgan ekan: «Arablar xurmo, non, guruch va sut bilan hayot kechiradi». Badaviylar jazirama issiqda tez buziladigan sutdan qatiq, pishloq, qurt (jubiya), sariyog' (sami, subda), ayron (xunayn) tayyorlaydilar. Bug'doy yormasidan pishirilgan quyuq bo'tqa (aysh) ularning deyarli har kungi kechki taomidir. Non (xubz) va go'sht kam iste'mol qilinadi, asosan, bayram yoki to'ylarda echki yoki qo'y so'yiladi. Kambag'al badaviylar ovqat yetmaganligidan chigirtka, kaltakesak, ilon, hatto, tulki va har xil parrandalarni ham iste'mol qiladilar. Ayniqsa, chigirtkalar ko'payib ketganda ularni xaltalarga yig'ib, maxsus qo'lda yoki issiq kulga bosib pishiradilar, ba'zan yog'da qovurib ham yeydilar. Chigirtkalardan tayyorlangan taom eng tansiq hisoblanadi¹³.

O'troq arablarning an'anaviy taomlari, ko'chmanchi aholiga yaqin bo'lsa-da, nisbatan bir oz farq qiladi. Dehqon (falloh)ning har kungi taomi o'simlik va sut mahsulotlari: non, bedil va qatiq. Non har bir oilada haftada ikki marta yopiladi. Ko'pchilik dehqon hovlisida balandligi 60 sm li gumbaz shaklida qurilgan tandirda taxminan diametri 30-35 sm keladigan qalin non yopiladi. Nonni bug'doy, arpa, ba'zan makka yoki oq jo'xori (durra) unidan tayyorlanadi. Yamanliklar hatto bug'doy, durra, arpa va yosmiq uni aralashmasidan ziravor qo'shib qora non (kidam-adi) yopadilar. Ular nonni muqaddas hisoblab isrof qilishni katta gunoh deb biladilar. Suriyalik, livanlik, iordanlik yoki Saudiya Arabistoni aholisi bo'tqani bug'doy yormasidan, yamanliklar durra yormasidan qaynatib, tomدا quritib burgul tayyorlab olishadi. Odatda burgul bo'tqasi qayla, eritilgan mol yoki o'simlik yog'i va qatiq bilan iste'mol qilinadi.

Arab dehqonlari badaviylardan ham kamroq go'sht iste'mol qiladilar. Go'shtli taomlar asosan, bayramlarda, tantanali kunlarda

¹³ Этнография питания народов стран Зарубежной Азии. — М.: изд. «Наука». стр. 36.

pishiriladi. Bunday vaqtda arablarning sevimli taomlaridan kubba (go'sht yoki baliq bilan ziravorli pishirilgan varaqi), ustiga go'sht solingan burgul bo'tqasi, har xil kaboblar, palov (qaynatilgan guruch ustiga maxsus tayyorlangan mayiz, qovurilgan qo'y go'shti bilan dasturxonga tortiladi), barag-do'lma, sabzavotdan qiyma solingan do'lma, go'sht, pomidor va baqlajon bilan bamiya va ziravor solib tayyorlanadigan marag, maxallibi, maxshi (qiyma, guruch, har xil o't va ziravor bilan pishiriladigan mayda qovoq) va boshqa taomlar dasturxonni bezaydi. Yozda va kuzda arablar har xil sabzavot (qovoq, loviya, tomat, baqlajon, bodring, piyoz, sarimsoq, qalampir, ismaloq, karam kabilar), turli meva (xurmo, uzum, o'rik, olxo'ri, anor, olma, anjir, bodom), qovun, tarvuz iste'mol qiladilar. Barcha oilalarda xurmo eng asosiy va kundalik taom hisoblanadi. Undan yuzga yaqin taom tayyorlash mumkin. Kundalik ovqatga qo'shiladigan zaytun ham turli xilda tayyorlanadi. Zaytun yog'i arablarning fikricha, juda foydali hisoblanadi. Shuning uchun uni ovqat bilan yoki non botirib iste'mol qiladilar, ba'zan ichiladi ham. Suriya, Iroq, Yaman va Saudiya Arabistonida qunji va paxta yog'i ham iste'mol qilinadi. Arablarda kofe, choy, xunaynu, keng tarqalgan ichimliklardir. Arab mehmondo'stligini ifodalaydigan asosiy ichimlik kofe (qahva). Kofening eng oliy sorti o'stiriladigan Yamanda kofe tayyorlash ham katta san'at hisoblanadi. Uzum sharbatini iste'mol qilish qadimiy davrlardan qolgan bo'lib, hatto uni madh etish adabiyotning maxsus janri sifatida qabul qilingan.

G'arbiy Osiyo xalqlarining ijtimoiy tuzumida feodal-patriarxal va qisman quldorlik munosabatlari saqlangan, ko'p mamlakatlarda ko'p ukladli bozor munosabatlari kurtak otgan bo'lib, u ayrim mamlakatlarda (Quvayt, Eron, Isroil, Turkiya va Livanda) ancha rivojlangan. Taraqqiy qilgan mamlakatlarning qishloq aholisi orasida hozirgi feodal-patriarxal munosabatlar kuchli, feodal yer-mulk shakllari, qabilaviy urug' jamoa munosabatlari va tashkilotlari saqlangan. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi elatlarda xun olish, qabilaviy demokratiya, o'zaro yordam kabi ibtidoiy jamoa tartiblari haligacha uchraydi. O'troq dehqonlar butun mintaqada 60 % ni tashkil qilsa ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilar taxminan 10 % ga yaqin, ayrim mamlakatlarda undan ham ko'proq (Saudiya Arabistonida 50 %, Afg'onistonda 15 %). Shahar aholisining sotsial tuzilishi asosan, hunarmandlar, savdogarlar va ishchilaridan iborat. Sanoatda band ishchilarning uchdan ikki qismi qo'l mehnati bilan

shug'ullanadi. Mayda korxona va do'kon egalari ko'pchilikni tashkil qiladi. Butun mintaqada oila va oilaviy munosabatlar ijtimoiy sharoitga asoslangan. Boy va savdogarlar orasida poligamiya (ko'p xotinlik) saqlangan, qalin olish keng tarqalgan. O'troq dehqon aholisi orasida ortokuzen nikohi, ko'chmanchi chorva oilalarda endogam nikoh va levirat saqlangan. Asosan kichik monogam oila hukmron, ammo ayollarning huquqi har tomonlama cheklangan. Faqat yirik shaharlardagina o'qimishli oilalarda ayollar nisbatan erkin, zamon talablariga mos munosabatda bo'ladilar.

Isroilda, Turkiya va Arab mamlakatlarida, ayniqsa, Saudiya Arabistonida butun oilaviy hayot diniy aqidalarga to'liq bo'ysundirilgan. Afg'onistonda qalin olish juda yuqori bo'lganligidan bo'ydoq erkaklarning soni ko'p, ko'pchilik oilalarda almashuv nikoh, ya'ni qarindoshlar qalin to'lamaslik uchun kelin berib kelin olish keng tarqalgan, levirat nikoh ham saqlangan. Katta patriarxal tipdagi oilalarda bolalar otaga, kelin qaynotaga so'zsiz bo'ysinishi, ota-ona tanlagan kishi bilan turmush qurishi shart. Oilada o'g'il tug'ilishi nog'ora yoki miltiq ovozi bilan e'lon qilinadi, katta to'ylar o'tkaziladi. O'g'il bola 4-7 yoshida sunnat qilinadi va tantana bilan nishonlanadi.

Eronida ham hozirgi oilaviy turmush masalalari davlat tomonidan erkak va ayollar o'rtasida teng huquqlilik qonunlashtirilgan bo'lsada, patriarxal munosabatlar hukmronlik qilmoqda. Faqat gilyonlarda matriarxal an'analari ancha saqlanganligi tufayli ayollar uyda boshliq, oilada erkin, erkaklar bilan teng ijtimoiy ishlarga tortilib uyda va tashqarida erkin muomalada bo'ladilar.

So'nggi 80 yil ichida Turkiya ma'naviy va madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. O'tgan asrning 20-yillaridayoq Mustafo Kamol Otaturk islohotlari natijasida ko'p xotinlilik man qilingan, ayollar erkaklar bilan birga saylash va saylanish huquqiga ega bo'lgan, fuqarolik nikohi qabul qilingan. Shaharlarda ayollar qisman ishlab chiqarishga jalb etilgan, ularning davlat ishlarida, ijtimoiy, ilmiy va madaniyat sohalarida salmog'i ortgan. Ammo qishloqlarda hozirgacha feodal-patriarxal munosabatlar chuqur ildiz olgan. Qonunga binoan nikoh o'g'il bolalar uchun 18 yosh, qizlarda 17 yosh bo'lsa-da hali ham balog'atga yetmagan yoshlarni bir-biriga unashtirish hollari mavjud. Turklarda bir maqol bor: «Qiz bola 15 yoshga kirganda erga chiqishi, yo go'rga kirishi shart». Kuyov yoki kelin tanlash ota-

ona ixtiyorida, nikoh faqat ota-ona roziligi bilan o'tkaziladi. Barcha oilaviy masalalarni oila boshi – ota hal qiladi. O'g'il tug'ili-shi katta bayram (o'g'il holvasi), unda qarindosh va qo'shnilarni chaqirib holva va sharbat tayyorlab mehmon qiladilar. Dehqon bolalari yoshlikdan mehnatga tortiladi: qizlar 5-6 yoshligidan uy ishlari va bola boqish bilan band, 6-8 yoshidan to'qishga o'rgatila-di, 13 yoshdan suv tashish va dala ishlariga jalb etiladi: o'g'il bolalar 8 yoshdan mol boqadi, 12 yoshdan yer haydashni o'rga-nadi. Ijtimoiy turmushda hozir ham o'rta asrlardagidek bozor va machit, hammom va qahvaxona muhim ahamiyatga ega. Qish-loqlarda barcha muhim masalalarni oqsoqollar kengashi, qishloq oqsoqoli – muxtor vakil va imom hal qiladi.

Iqtisodiy jihatdan neft qazib olish hisobiga yuksalgan Saudiya Arabistonida feodal-patriarxal va diniy an'analar nihoyatda mus-tahkam saqlangan. Ko'chmanchilar va dehqon ahli o'z urug'-aymog'ini yaxshi biladi. Eng nufuzli urug'-aymoqlar badaviy qabi-lalarining shayxlaridan kelib chiqqan, payg'ambar avlodidan chiq-qan shariflar va ruhoniylar, asli zodagonlarni tashkil qiluvchi vahobiylar yuqori tabaqa vakillaridir. Hunarmandlar, suliba va xi-tayli nomli ovchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi day-di qabilalar va ularning avlodlari ilgari qul bo'lganlar. Birovga «hunarmand quli» deyish haqorat bilan teng. Ijtimoiy munosabat-larda, xudo oldida hamma teng hisoblanadi, hatto kishilar bir-biriga «birodar» (ahu, ahvon), deb murojaat qiladilar. Podshoga murojaat qilinganda ham uning buyuk unvoni tilga olinmaydi, xizmatchi rahbariga «amaki» deydi, yoshi katta bilan ko'rishilganda uning peshonasini (hijozda qo'lini) o'padi.

Nikoh, oila, meros masalalarida ko'chmanchi qabilalar shariat bilan birga ibtidoiy odat tartiblariga ham rioya qilishadi. Qabilalar xun olish, qalin hajmi, mehmondo'stlik va boshqa urf-odat va dasturlar bilan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Diniy bayramlarda rasmiy ravishda hokimlar xalqqa osh berib poyga tashkil qilganlar. Ammo islomgacha bo'lgan qadimiy dehqonchilik va chorva bayramlarini nishonlash, mahalliy avliyolar ibodati va ularga sig'inish, teatr va kino namoyishi, qo'shiq aytish, raqsga tushish va musiqa chalish butunlay man qilingan. Keyingi o'n yilliklarda diniy qoidalariga rioya qilish nihoyatda kuchayib, islom aqidalariga eng uzoq qishloq va ko'chmanchi manzilgohlarda ham qat'iy rioya qilinmoqda.

Qalin (mag'ra) to'lash, meros va boshqa nikoh urf-odatlarida ayolning huquqsizligi ochiq namoyish bo'ladi. Mag'ra nihoyatda baland bo'lganligidan, masalan suriyaliklar, odatda 35-40 yoshlarda, ya'ni qalin pulini yig'ib bo'lgandan keyin uylanadilar. Badavlat oilalarda poligam, boyroqlarida to'rttagacha, o'rtachasida ikkita xotin olish saqlangan. Ayol or-nomusi qonun va jamoatchilik tomonidan qattiq qo'riqlanadi. Ularni faqat uyda yot erkakdan yashirib ichkari (mahram)da saqlabgina qolmay, balki tashqariga chiqqanda chachvon (chashmband) yopinishi talab qilinadi. Saudiylar «yaxshi oila»dagi ayol zarurat bo'lmasa uydan chiqmasligi kerak, deb hisoblaydilar.

O'g'il tug'ilishi va sunnat qilish oila bayrami sifatida tantanali nishonlanadi. Sunnat butun musulmonlarning umumiy odati hisoblansa-da, G'arbiy Arabiston badaviylarida o'tgan asrgacha ibtidoiy initsiatsiya (o'spirinlarni voyaga yetgan erkaklar qatoriga o'tkazish) belgilari saqlanib qolgan. Odat bo'yicha 16-17 yashar o'spirinni sunnat qilganda (bu operatsiya «as-salx», ya'ni «terini shilish» deb atalgan) yigit bardosh berib chidam ila ovoz chiqarmasa voyaga yetgan erkak hisoblanadi, aks holda unga qo'rqoq, uylana olmaydigan nomard sifatida qaraladi. Nikoh marosimida ham ibtidoiy dasturlar saqlangan. Masalan, kuyov qalin to'lab bo'lgach, nikoh o'qilgandan keyin bir hafta kelinning ota-onasi uyida yashaydi, so'ng qorong'i kechada kelin bilan kuyov o'z uyiga ko'chib o'tadi. Dafn qilish marosimi umumiy musulmoncha bo'lsa ham, xudoyi kabi marosimlar o'tkazish taxdid bo'yicha man qilingan. Ilgari islomgacha va dastlabki islom davrida butun ko'chmanchi arablarda oxirat to'g'risida deyarli aniq tasavvur bo'lmaganligi tufayli o'likni dafn qilib (yerga ko'mib), qabri ustiga hech qanday belgi qo'ymaganlar. Ma'raka, xadim, xudoyi degan odatlar mutlaqo bo'lmagan. Vahobiylar esa o'sha qadimiy odatni qayta tiklaganlar. Islom va shariat murda bilan yig'lab vidolashishni ham ma'qullamaydi. Yig'i o'rniga janoza o'qish, o'lim musibatini matonat va sabr-toqat (as-sabr) bilan o'tkazish xayrxohlik, yaxshi fazilat hisoblanadi.

G'arbiy Osiyo xalqlarining ijtimoiy turmushida jamoatchilik an'analari bir qadar mustahkam saqlangan. Ularning butun ijtimoiy hayoti jamoa to'planadigan maxsus maydonlarda yoki hovlilarda, ko'chalarda va bozorlarda o'tadi. Eron va Turkiyada hammom, Arab mamlakatlarida qahvaxona o'ziga xos ijtimoiy klub vazifasini

bajaradi. Bu yerda erkaklar to'planib bo'sh vaqtlarini qahva, choy ichib suhbatda o'tkazadilar.

Ma'naviy madaniyatida barcha elatlar o'rta asrlar davomida shakllanib kelgan arablar va mahalliy xalqlarning o'zaro ta'siri ostida umumiy madaniy an'analarini hozirgacha saqlab kelmoqda. G'arbiy osiyoliklarning ko'pchiligi (turklar va kurdlardan tashqari) arab alifbosini qabul qilgan, tillarida arab so'zlarining ta'siri juda kuchli, o'quv tizimi, adabiyot, tasviriy san'at islom g'oyalari va aqidalari talabiga moslashgan. Ammo har bir etnos o'ziga xos juda boy madaniy an'anaga ega, qadimiy ajoyib adabiyot va san'atning turli janrlari, arxitektura va badiiy hunarmandchilikning go'zal noyob namunalarining ijodkoridir. Jahonga tarqalgan «Ming bir kecha» ertaklari, Xo'ja Nasriddin latifalari, Go'ro'g'li nomi bilan bog'liq tarixiy dostonlar, mashhur «O'g'uznoma» (XI–XII asrlar) va nasihatgo'y donishmand Ko'rkud rivoyatlari, xalq baxshi (o'zan)larining ajoyib san'ati, sho'x laparlar (turkcha mani), satirik (toshlama) va lirik (turku) ashulalar, eronliklarning misli yo'q klassik poeziyasi (Firdavsiy, Umar Xayyom, Hofiz, Sa'diy kabi buyuk siymolarning asarlari), afg'onlarning harbiy raqslari (atan) va eronlarning boy repertuarli xalq teatri, qadimiy an'anaga ega sharq musiqasi va tomoshalari umuminsoniyat madaniy xazinasining durdonalariga aylangan. Xalq ijodida rang-barang jozibador kuy va o'yinlar alohida o'rinni egallaydi. Buyuk san'at namunalariga aylangan qadimiy an'analarni o'zida mujassamlashtirgan o'rta asrlarda yaratilgan osmono'par dabdabali ko'shk va saroylar, go'zal machit va maqbaralar, bog'u chamanlar hozirgacha kishini hayratda qoldiradi. Buyuk hunarmandlar yaratgan turli naqshilar, zargar va misgarlarning betakror bezaklari ajoyib san'at namunalaridir.

Butun G'arbiy Osiyoda qadimiy davrlardan barcha xalq va elatlarning ijtimoiy, sotsial, oilaviy va shaxsiy hayotida din ta'siri juda kuchli bo'lib, u xalq turmushining hamma hujayralariga singib ketgan. Mintaqadagi deyarli barcha mamlakatlarda (Kipr, Isroil va Livandan tashqari) islom dini ustuvor va hatto ko'pchiligida davlat dini hisoblanadi. Masalan, Saudiya Arabistoni, Yaman Arab Respublikasi va Maldiv Respublikasida islom — 100%, Turkiya, Oman, Qatar, Eron va Afg'onistonda — 99%, Yamanda — 98%, Birlashgan Arab amirliklarida, Iroq va

Bahraynda – 96%, Quvaytda – 95% va Suriyada — 85% ni tashkil qiladi. Islom mazhablaridan sunna tarafdorlari arablar, turklar, afg'onlar, o'zbeklar, turkmanlar, qisman kurd va balujiylar, shia mazhabidagilarga butun Eron aholisining 90%i, jumladan, fors-lar, ozarbayjonlar, kurd va balujiylarning bir qismi kiradi. Sunniylar ichida ham ayrim mazhablar mavjud. Masalan, Turkiya va Afg'onistonda xanifiylar, Iordaniya va Yaman Xalq Demokratik Respublikasida shariilar, Saudiya Arabistonida vahobiy (xanbaliy)lar va g'arbiy qismida shofiylar, Birlashgan Arab amirliklarida molikiylar va xanbaliy (vahobiy)lar, Quvaytda molikiylar. Yamandagi musulmonlarning — 55% i, Iroqda – 54% i, Bahraynda – yarmidan kamroq aholi shia mazhabidadir. Boshqa mamlakatlarda shia mazhabi turli nomdagi tarmoqlarni tashkil qiladi (Turkiyada bektoshiylar yoki ali-ilohlar mazhabi, Suriyada nusayrilar, yoki druzlar va ismoiliylar, Iordaniyada imomiylar, Saudiya Arabistonida imomiylar va karmatlar va hokazo). G'arbiy Osiyoda musulmonlarning muqaddas bosh ziyoratgohlari joylashgan. (Saudiya Arabistonida Makka va Madina, Iroqda Karbalo va En-Najaf, Suriyada Damashq, Eronda Mashhad). Nasroniy dini asosan, Kiprda (aholining 80 foizi) va Livanda (taxminan 40 foizi) bo'lib, qolgan mamlakatlarda ozchilikni tashkil qiladi (masalan, Suriyada 14 % aholi, Iordaniya 6 %, Quvaytda 5 %, Bahrayn va Iroqda 3 %, Turkiya va Eronda 1 %). Nasroniy dinidagilar ham turli mazhablarga bo'lingan. Diniy jihatdan eng murakkab mamlakat Livan. Bu yerda yashaydigan aholining etnik tuzililishi ancha yaxlit (asosan, arablar) bo'lsa-da, nasroniylar ham (52 %) musulmonlar ham (47 %) turli mazhablarga bo'lingan.

§-2. MARKAZIY OSIYO XALQLARI

Xalqning shakllanishida muayyan etnik birliklarning bir-biri bilan erkin munosabatda bo'lishida, muomala qilishi, his-tuyg'ularini izhor etishi va tushunishida, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatishida til bosh omil hisoblanadi. Chunki til tufayli nafaqat tarixiy birlik, balki umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, ayniqsa, madaniy va ma'naviy birlik o'rnatiladi. Ko'pchilik xalq va elatlarga nom ham ularning tiliga qarab berilgan. Ammo ko'p asrlik tarixiy jarayonda ayrim etnoslar bir necha tillarni o'zlashtirib, oqibatda o'ziga xos milliy tilni yaratganlar.

Ma'lumki, xalqlar muayyan hududda shakllanadi va rivojlanadi. Albatta, ular bir hududdan ikkinchisiga ko'chishi, ularning joylashuv yeri kengayishi yo kamayishi, ayrim guruhlar yoki shaxslar ajralib ketishi mumkin. Ammo umumiy tarixiy birlikka va tilga ega bo'lgan elatlar doimo o'zaro yaqin hududda joylashib yashaganlar. Turli sabablarga ko'ra uzoq tarixiy davrda shakllanib kelgan etnoslar ona yerini tashlab juda uzoq yurtlarga ko'chibgina qolmay, ayrim qismlari yoki guruhlari butun Yer yuziga tarqalib, boshqa xalq va elatlar orasida yashashga ham majbur bo'lganlar. Ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot davomida ayrim xalqlar, hatto bir joydan ikkinchi joyga ko'chib, turar joylarini bir necha marta o'zgartirib ham turganlar. Masalan, turklar o'z davlatini tashkil qilganidan keyin (VI asr) bir necha asr davomida katta-katta guruhlariga ajralib, ko'plab yurtlarga tarqab ketganlar. Arablar esa avvaliga kichkina Arab yarim orolining bir burchagida yashab, qisqa muddat ichida keng hududga tarqalib islom madaniy dunyosining shakllanishida mahalliy elatlar bilan birgalikda katta xizmat qilganlar. Shuning uchun ham jahonda bir tildagi, ammo har xil nomdagi xalqlar ko'p uchraydi. Masalan, ingliz, arab, turk, eroniy tillarda gapiradigan, ammo turli nomdagi xalq va elatlar butun jahonga tarqalgan.

Ba'zi tadqiqotchilar maishiy turmush va madaniyatiga qarab muayyan elat va xalqlarni ajratadilar. Vaholanki, bir xil turmush tarziga ega bo'lgan bir necha etnoslar ham bo'lishi mumkin. Bunday elatlar Markaziy Osiyoda yoki Volga bo'yida, Sibirda yoki Shimoliy Amerikada uchraydi. Aksincha, tillari har xil, xo'jalik-madaniy turmushi o'xshash xalq va elatlar ham bir hududda joylashgan bo'lishi mumkin. Ovchilik, bug'uchilik bilan shug'ullanuvchi, sug'orma dehqonchilik bilan tirikchilik qiluvchi turli til va irqdagi elatlarni biz Afrikada, Osiyo va Amerikada uchratamiz.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, Markaziy Osiyo xalqlari uzoq va murakkab mashaqqatli tarixiy jarayonning mahsuli bo'libgina qolmay, ular ma'naviy madaniyat va hissiyot tuyg'ulari bilan ham nihoyatda chirmashib ketgan muayyan mintaqada shakllangan o'ziga xos etnoslardir. Bu xalqlarning etnik xususiyatlari va umumiy belgilarini aniqlash uchun dastavval tarixning ayrim sahifalarini varaqlash zarur.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, uzoq o'tmishda, 3-4 ming yillar muqaddam Markaziy Osiyoning saxovatli tuprog'idan g'arbdan sharqqa tomon qadimiy hind-yevropa tillarida gapiradigan turli qabilalar Oltoy va Mo'g'uliston tomon ko'chib o'tgan. Mil. avv. I ming yillikning oxiridan boshlab sharqdan g'arbga tomon buyuk dasht orqali katta ko'chish jarayoni ro'y beradi. Dastlab turkiy tilda gapiradigan qadimiy qabilaviy birliklar to'ramizning I ming yilligining o'rtalarigacha ko'chib o'tgan va ular etnik jihatdan sezilarli iz qoldirgan. Turkiy elatlarning besh-olti asr davom etgan ko'chishida ayrim mo'g'ul qabilalarining migratsiyasi ham ro'y bergan. O'sha vaqtlarning o'zida Markaziy Osiyoda ilgari ayrim mo'g'ul qabilalarning mavjudligi diqqatga sazovordir. VII asrga kelib Markaziy Osiyoni bosib olgan arablar etnik jarayonga ta'sir qilmasa-da, islom dini hukmronligini o'rnatgan. Mo'g'ul istilosi butun mintaqada o'z ta'sirini o'tkazib nisbatan irqiy tuzilishga bir oz o'zgarishlar kiritgan edi.

Shuni ham qayd qilish lozimki, Markaziy Osiyoga kelgan qadimiy skif-sarmat va saklar, turklar, arablar va mo'g'ullar ilgari o'zlashtirilgan yerlar va qadimiy madaniyat yaratgan tub elatlar o'lkasiga kelib mahalliy etnoslar bilan aralashib ketganlar. Shuni qiziqki, qadimiy tub elatlarni yunonlar skiflar, sartonlar, saklar deb tilga oladilar, ba'zilar massagetlar deb nomlaydilar. Ularning G'arbiy Yevropa bilan, ya'ni hind-yevropaliklar bilan bog'liq ekanliklarini isbotlash uchun hozirgi Bolgariya va Ruminiyada yashovchi qadimiy keltarga o'xshashligini ko'rsatadilar. Ayrim tarixchi mutaxassislarning fikricha saklarning qavmu qarindoshlari Bolqonda va Shimoliy Qora dengizning bepoyon dashtlarida yashagan praskiflar shajarasi bilan bog'liq. Ma'lumki, qadimgi zamonda Eron podsholarining katta qo'shinlari mazkur dashtlarda yashovchi ko'chmanchi qabilalarning zarbasiga uchrab ko'p qirilgan.

Uzoq davr davomida Markaziy Osiyoga ko'chib kelgan elatlar sak-massaget zaminida o'ziga xos jimjimador madaniy belgilarni qoldirgan. Bu yerda I ming yillik o'rtalarida ketma-ket ko'chib kela boshlagan skiflar, xionitlar, oq xunlar, eftalitlar, pachanaklar va boshqa turk elatlarining ko'plab kelishi mahalliy xalqlarni turkiylashtirib yuborgan. Ammo aborigen (tub) aholi orasida ham apasiak, augasiylar deb nomlangan qadimiy turk elati ham bo'lgan. Bu elat rus solnomalarida ko'p tilga olingan pechenek

(pachanak)lar degan fikr mavjud. Ayrim tadqiqotchilar taxminicha, augasiylarni keyinchalik «o'g'uz» nomi bilan mashhur turk elati desa bo'ladi.

X asrda Janubiy Sibir tomonidan Markaziy Osiyoga til jihatdan pachanak va o'g'uzlarga yaqin qipchoqlar bostirib kirib, talon-taroj qilgan. Pachanaklarning bir qismi shimoli-g'arbiy tomonga, o'g'uzlarning ancha qismi janubi-g'arbiy tomonga ko'chib ketishga majbur bo'lganlar. Oqibatda hozirgi Turkmanistonga tarqalgan o'g'uzlar turkman xalqi bilan, ikkinchi qismi Ozarbayjonni bosib olib, ozorlar bilan qo'shilib ketgan, yana bir guruh o'g'uzlar g'arb va janubga, ya'ni Turkiya va Eron tomon o'tib mahalliy elatlar bilan aralashib ketgan.

Qadimiy ona Sug'd va Xorazm tuprog'ida yashab kelgan, har xil elat va qabilalar bilan aralashib ketgan o'zbek xalqi ham Markaziy Osiyoning boshqa elatlari bilan tub qon-qarindosh. Ayniqsa, o'zbeklar bilan qozoqlarning deyarli barcha turkiy qabilalar turkumidagi ajdodlari umumiy, ammo har bir xalqning qonida boshqa elat qoni mavjud. Masalan, antropologlarning ta'rificha, qozoqlarning irqiy tuzilishida mo'g'ul istilosidan yetti asr muqaddam mongoloid belgilari paydo bo'lgan, ya'ni irqiy mo'g'ullik ta'siri ilgariroq boshlangan, shuning uchun ham ularda mongoloid belgilari ko'proq. Tarixda birinchi qozoq davlati Chu daryosi vohasida paydo bo'lganda uning O'zbek-Qozoq davlati deb aytilishi diqqatga sazovordir.

Qirg'izlarning ham asli qadimiy saklar egallagan Tyan-Shan tog' bag'ri va etagidagi yevropoid aholi bilan aralashib o'z ona turkiy tillarini bu yerga ko'chib kelishidan oldin shakllantirganligini tadqiqotchilar qayd qiladilar. Ularning shevalari, o'zaro tarqoq (tog'li va vodiylarda joylashgan) aholi bo'lishiga qaramay, uncha farq qilmasligi bunga dalil. Antropologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mil.avv. I ming yilliklarda hozirgi qirg'izlarning qadimgi ajdodlari yevropoid irqida bo'lgan, keyinchalik kelgindi mongoloid qabilalar ta'sirida o'zgargan.

Umumiy etnik ildizi bir bo'lgan tojik xalqi baland tog'lar tufayli g'arbiy, shimoliy va sharqiy qo'shnilardan, til va irq jihatdan turkiylashmagan va yevropoid belgilarni saqlab qolgan.

Demak, butun Markaziy Osiyo muayyan tarixiy-etnografik mintaqani tashkil qilgan. Ularning qadimiy ajdodlari bir, etnik zamini umumiy. Buning asosini nafaqat umumiy tabiiy geografik sharoit,

hatto an'anaviy xo'jalik-madaniy tiplari, kiyim-kechagi, moddiy va ma'naviy madaniyati, hatto dinlarining birligi va boshqa juda ko'p umumiy unsurlar tashkil qiladi.

Tabiiyki, endilikda tarixiy taqdiri bir, etnik va madaniy ildizi umumiy, kelajak ijtimoiy-iqtisodiy rivoji uzviy bog'langan mazkur respublikalar aholisi etnologiyasini jiddiy o'rganish eng muhim dolzarb vazifalardan desak xato bo'lmaydi.

Markaziy Osiyo respublikalarida tili va madaniyati turli bo'lgan har xil elat, xalq va millatlar yashaydi. Bu regionda qadimgi yuksak madaniyat yaratgan xalqlar uzoq murakkab tarixiy taraqqiyotni bosib o'tib asrlar davomida yaqin munosabatda bo'lib umumiy tarixiy-etnografik mintaqani tashkil qilganlar.

Markaziy Osiyo 4 mln. kvadrat kilometr maydonni egallaydi. Uning aholisi (1979-yilgi aholi ro'yxatiga binoan) 40,2 mln. ga yaqin keyingi ma'lumotlarga qaraganda, 50 mln. kishidan iborat. Mazkur hududda (O'zbekiston 12 viloyat va bir avtonom respublikasi bilan), Qozog'iston (19 viloyat), Tojikiston (3 viloyat), Qirg'iziston (3 viloyat) va Turkmaniston (5 viloyat) joylashgan.

Mintaqaning geografik sharoiti xilma-xil. Uning ko'pchilik qismi qurg'oq dashtlar va jazirama issiq iqlimli sahro, janubi-sharqiy va janubiy tomondan Pomir, Tyan-Shan va Ko'pettog' tog' tizmalari bilan o'ralgan. Tog'li joylari, ayniqsa, vohalari yumshoq iqlimli tabiatga ega, o'simlik dunyosi juda boy bo'lib, qadimiy davrlardan odam yashashi uchun qulay. Hozir bu yerda hatto subtropik o'simliklar yetishtirilmogda.

Tabiati va iqlimiga ma'lum darajada ikkita dengiz – Kaspiy va Orol ta'sir qiladi. Butun Markaziy Osiyoga hayot bag'ishlab turgan Amudaryo va Sirdaryo Pomir tog'laridan boshlanadi. Boshqa katta-kichik daryo va soylar tog'lardan keltirgan suvlarini vohalarga tarqatib qumu sahrolarda shimilib ketadi. Serunum tuproqli vohalarda qadimiy davrlardan sug'orma dehqonchilik paydo bo'lib, daraxtzorlar va bog'u rog'lar yaratilgan. Tog'li joylar to'qayzorlar, dashtlar hayvonot dunyosiga nihoyatda boy.

Mahalliy aholi asosan, ikki yirik til turkumiga: o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar va uyg'urlar oltoy til oilasining turkiy til turkumiga, tojiklar, belujiylar, kurdlar va forslar esa hind-yevropa til oilasining eroniy til turkumiga kiradi. Bu hududda boshqa etnoslardan kelgindi ruslar, ukrainlar, tatarlar, dunganlar, koreyslar, arablar, mahalliy yahudiy va lo'lilar

yashaydilar. Ular ayrim, bir necha til turkumiga oid xalqlarning avlodi. Mintaqadagi hozirgi aholining 60% i turkiy tillarda gapiradigan xalqlar, 27%i slavyan xalqlarining, 7% i eroniy til oilasining vakillaridir. Markaziy Osiyoda yuzdan ortiq turli xalq va elatlarning vakillari istiqomat qilishadi.

Antropologik jihatdan ham Markaziy Osiyoning tub aholisi ikki katta irqqa: mongoloid irqiga qozoq, qirg'iz va qoraqalpoqlar; o'zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlar esa qadimgi yevropoid irqiga mansub. Ammo ayrim etnik guruhlarda aralash tiplar ham uchraydi. Asli Markaziy Osiyo xalqlarining antropologik qiyofasi mil. avv. I ming yillikda shakllana boshlagan va eramizning XIII asrdagi mo'g'ul istilosidan keyin tugagan. Antropologlarning ta'rificha, tub aholi ikkita katta irq – yevropoid va mongoloid oralig'idagi bog'lovchi ko'priq vazifasini bajarib o'ziga xos markaziy osiyolik maxsus antropologik tipni tashkil qilgan. Qadimiy yevropoid belgilar g'arbdan sharqqa tomon ancha kam seziladi.

Mo'g'ul istilosidan keyin turkiy tili ta'siri ancha kuchaygan va XVII asrda butun Markaziy Osiyoda (Tojikistondan tashqari) to'liq g'alaba qozongan. Bu davrning eng muhim tarixiy ahamiyati shundan iboratki, Markaziy Osiyo xalqlarining etnik jihatdan shakllanish jarayoni tugallanadi. Ammo ularning etnogenezi va etnik shakllanishi uzoq muddatda va ancha murakkab sharoitda ro'y bergan. Buni to'g'ri tasavvur qilish uchun ayrim xalqlarning etnik tarixiga bir nazar tashlash maqsadga muvofiq.

Markaziy Osiyoda odam paleolit davrida paydo bo'lib, mezolit (ayniqsa, neolit) davridan boshlab butun mintaqaga tarqalgan. Qadimgi ibtidoiy ajdodlar ovchilik, baliqchilik va terimchilik bilan shug'ullanganlar. Arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, ular urug', jamoa bo'lib birgalikda ov qilib tirikchilik o'tkazganlar, katta uylarda yashaganlar. Neolit makonlari Markaziy Osiyoning ko'p joylaridan topilgan.

Mil. avv. V ming yillikdan boshlab janubiy vohalarda eng qadimgi dehqonchilik madaniyati paydo bo'ladi. I ming yillikka kelib chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqib, ikki mustaqil o'zaro bog'liq xo'jalik sohaslarini tashkil etadi. Bu davrda vohalarda yuksak madaniyatga ega bo'lgan Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Marg'yona kabi yirik davlatlar tuziladi.

Qadimgi Markaziy Osiyoning uzoq davr ichida turli qabila va elatlardan iborat ahmoniyalar, kushon, grek-baqtriya, turk xoqonligi, xorazmiylar va arab davlatlari hukmronligida bo'lishi uning etnik zaminida chuqur iz qoldirgan. Ayniqsa, V asrlarda ko'plab paydo bo'lgan turkiy qabilalarning ta'siri juda kuchli bo'ldi. Ular o'z tillarini singdirib bir necha asr davomida ko'pchilik aholini turkiylashtirgan. Bu jarayon hatto arab istilosidan keyin ham davom etgan. Dastlabki turkiyzabon gunn qabilalari mil. avv. I ming yillik oxirlarida kira boshlaganlar. O'sha davrlardayoq hozirgi o'zbek, tojik, turkman xalqlarining ajdodlari ancha mustahkam etnik birikmalarni tashkil etgan. XIII asrda bostirib kirib madaniy markazlarni talon-toroj qilgan mo'g'ullar ham, yuqorida qayd qilinganidek, mahalliy aholining etnik tuzilishiga muayyan ta'sir o'tkazgan va turli-tuman xalq elatlarning aralashib ketishiga sababchi bo'lgan. XVIII asrga kelib turkiylashish jarayoni tugaydi va hozirgi Markaziy Osiyoning etnik qiyofasi to'liq shakllanadi. Mazkur jarayonni naqadar murakkab ekanligini tasavvur qilish uchun ayrim xalqlarning qisqacha etnik tarixi bilan tanishib o'tish zarur.

Markaziy Osiyoning eng ko'p sonli va qadimiy xalqi hisoblangan o'zbeklar (1985-yilgi aholi ro'yxatiga binoan 14,8 mln.ga yaqin) hozirgi O'zbekistonning asosiy aholisi (68,7%) hisoblanadi. Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkmanistonda ham o'zbek jamoalari istiqomat qiladilar. Afg'onistonda 1,3 mln.ga yaqin o'zbek, Xitoyning Sinszyan – Uyg'ur avtonom hududida 20 ming, Eron va Turkiyada bir necha yuz ming o'zbeklar yashaydi. Umuman O'zbekistonda o'tgan asr oxirlarida yuzdan ortiq millatdan iborat 16,2 mln.ga yaqin aholi mavjud edi. Shulardan 10,8%i ruslar, 4,2%i tatarlar, 4%i qozoqlar, 3,9%i qoraqalpoqlar, 1,1%i koreyslar va hokazo. Oxirgi ma'lumotlarga binoan hozir O'zbekistonda aholi soni 25 mln.dan ortiq.

O'zbek xalqining shakllanishi asrlar davomida antropologik va til jihatdan turli xil ko'chmanchi chorvador aholining o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi yuksak madaniyatli elatlar bilan aralashish jarayoni asosida ro'y beradi. O'zbek etnogenezida qadimiy so'g'diylar, xorazmiylar, baqtriyaliklar, parkanaliklar va sak-massaget qabilalari muhim rol o'ynagan. Turkiy qabilalar Markaziy Osiyoga eramiz arafasida kela boshlaydilar va VI asrda Turk hoqonligi davrida ancha ko'payadilar.

Ayniqsa, bu jarayon XI asr o'rtalarida qoraxoniylar davlati davrida va mo'g'ullar istilosidan keyin juda kuchaygan. O'sha vaqtda o'zbek adabiy tiliga asos qo'yilgan edi. Eng oxirgi yirik turkiy qabilalar Dashti Qipchoqqa bosib kirib qadimgi madaniyat markazlari – Movarounnahr, Xiva, Urganch va Toshkentga, Surxon va Qashqadaryoga tarqaladilar. Istilo qilingan joylarda ko'chmanchi o'zbeklar ozchilikni tashkil qilsa ham katta siyosiy va harbiy kuchga ega bo'lganlar. Ular asta-sekin o'troq dehqonchilikka o'ta boshlaganlar. Ammo hozir ham janubiy O'zbekistonda yashovchi o'zbeklar uzoq o'tmishdagi ko'chmanchilikning ayrim belgilarini va qisman urug'-qabilaviy nomlarni saqlab qolganlar.

XX asr arafasida uchta yirik etnografik guruhdan iborat bo'lgan o'zbeklar milliy shakllanishning yuksak pog'onasiga ko'tarildi. Uning irodasini mustamlakachilik zulmi, Sho'rolar istibdodi, qatag'onlar, tazyiqlar buka olmadi. O'zbeklar o'z taqdirларini Mustaqillik va istiqloq g'oyalari bilan bog'ladilar. 1991-yil 3-sentabr O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qildi va millat o'zining asriy orzulari ro'yobini ko'ra boshladi. Ana shu tarixiy sanadan boshlab o'zbek xalqi yuksak ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyot yo'lini tanladi va bu yo'lga kirdi muvafaqqiyatlarni qo'lga kiritadi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki O'zbek xalqining kelib chiqishi, enik tarixi va xususiyatlari nihoyatda murakkab va uzoq davrni qamrab oladi. Qadimgi davrlarda yuksak madaniyat yaratgan iste'dodli, zahmatkash ajdodlarimiz, o'rta asrlarga kelib ilk Uyg'onish, ya'ni Sharq Uyg'onishi davrini boshdan kechiradilar. Ayniqsa, buyuk xorazmshohlar va temuriylar hukmronlik qilgan asrlarda o'zbeklarning etnik qiyofasi qadimiy sivilizatsiya zaminida shakllanib bo'lgan edi. Bunday jarayonning oqibatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyat yuzaga kelgan va o'zining milliy xususiyatlarini hozirgacha saqlab qolgan. Yurtboshimiz Islom Karimovning ta'rificha, xalq — o'zining ming yillik an'ana va tajribalari, so'nmas xotirasi va buyuk tuyg'ulari bilan yashab kelayotgan qudratli kuch. Xorazmshohlar va temuriylar saltanati davrida xalq shaklida tarix sahnasida paydo bo'lgan o'zbeklar ajoyib siymolari bilangina emas, balki so'nmas tarixiy xotirasi, yuksak ruhiyati va ma'naviy madaniyati, noyob hayotiy tajribasi bilan ham hozirgi zamonaviy

sivilizatsiyani yaratishda eng faol bunyodkor sifatida namoyon bo'ldi.

Mintaqadagi o'zbeklardan keyingi ko'p sonli xalq qozoqlar (1989-yili aholi ro'yxatiga binoan 7,5 mln. dan ortiq) ham qadimiy qabilalar zaminida paydo bo'lgan. 1920-yillarning o'rtalarigacha ularni noto'g'ri qirg'iz-qaysaq yoki qirg'iz deb ataganlar. Qozoqlar o'z ona respublikasida, qo'shni O'zbekiston va Turkmaniston hududlarida, Orenburg va Chelabinsk viloyatlarida yashaydi. So'nggi aholi ro'yxatiga binoan Qozog'istonning aholisi 14,7 mln.ga yaqin bo'lib, shu jumladan, qozoqlar 36% ni, ruslar 40,8% ni, ukrainlar 6,1% ni tashkil qiladi. 1981-yilning boshlariga kelib respublika aholisi 15 mln.dan oshib ketdi. Qozoqlarning bir qismi chet ellarda, chunonchi, Xitoyning Sinszyan – Uyg'ur avtonom hududida (820 ming kishi), G'arbiy Mongoliyada (70 ming) va Afg'onistonda (5 ming) yashaydi.

Eng qadimiy qabilalardan mil.avv. I ming yilliklarda Qozog'iston hududida joylashgan saklar, usunlar, alanlar, kangyuy qabila ittifoqi va boshqalar qozoq etnogenezining dastlabki etnik qatlami edi. VI-VII asrlar mazkur hududda g'arbiy turk xoqonligiga oid turgesh, qarluq kabi qabilalar paydo bo'ladi. Keyingi uch-to'rt asr davomida kimak, qipchoq va o'g'uzlar kirib keladi. X-XII asrlarda qozoq eli Qoraxoniylar davlatiga qo'shilgan mahalliy qabilalarning birikishiga ancha turtki bo'lgan. O'sha davrlarda bu yerga kidanlar ham bosib kirgan. Turli qabila va elatlarning yana ham aralashib ketishiga mo'g'ul istilosi sabab bo'lgan. Qozoq xalqining shakllanishidagi oxirgi komponent XVI asr oxirlarida Oltin O'rdadan kelgan ko'chmanchi qabilalarning katta to'liqini bilan bog'liq.

XV asr oxiri – XVI asr boshlarida qozoq xonligi paydo bo'ladi va bu xonlik doirasida qozoq xalqining shakllanishi tugaydi. XIX asrning 60-yillarida qozoq yerlari Rossiya tomonidan istilo qilinadi, oqibatda qozoqlarning birligi kuchayadi va ular asta-sekin o'troq turmush tarziga o'tadilar. Qozoqlarning tarkibida hududiy jihatdan uchta mustaqil qabilalar guruhi paydo bo'lgan: Katta juz (Yetti suvda), Markaziy juz (Qozog'istonning dasht hududlari, Sirdaryo, Tobol va Ishim vohalari) va Kichik juz (G'arbiy Qozog'iston).

Markaziy Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan biri hisoblangan qirg'izlar (2,5 mln.ga yaqin) asosan, Qirg'izistonda, qo'shni O'zbekiston va Tojikistonda, qisman Shimoli-g'arbiy Xitoyda va Sharqiy Afg'onistonda yashaydi. Respublikaning umumiy aholisi 4,5 mln.dan

ortiq, shundan qirg'izlar 47,9%, ruslar 25,7%, o'zbeklar 12,1%, ukrainlar 3,1% ni tashkil qiladi.

Qirg'izlarning ilk etnik tarixi qadimiy gunn, sak, dinlin, usun qabila ittifoqlari bilan bog'liq. Mil.avv. I ming yillikning o'rtalarida yuqori Yenisey vohalarida qirg'izlar o'z davlatlarini tuzganlar. VI–X asrlarda qirg'izlarga qo'shilgan turkiy qabilalar dastlab Irtish bo'ylarida, Sayan-Oltoy hududida va Tyan-Shan etaklarida joylashgan. Hozirgi hududga IX–X asrlarda ko'chib kelgan Yenisey qirg'izlarning ayrim guruhlar qadimiy davrlarda eroniy tilda gapiradigan keyin turkiylashgan mahalliy elatlar, qarluqlar va uyg'urlar bilan aralashib ketgan. Xronologik ma'lumotlarga binoan XIII asrgacha Tyan-Shan aholisi antropologik jihatdan yevropoid bo'lgan. Qirg'izlarning mongoloid irqiga o'tishi va turklashtirish jarayoni asosan, mo'g'ul istilosidan keyin ro'y bergan. XVI–XVII asrlarda qirg'iz etnosiga qozoq-no'g'oylaridan chiqqan qabilalar ham kelib qo'shiladi. O'sha davrdan boshlab Tyan-Shanda qirg'iz xalqi shakllanadi. Ammo keyingi ikki asr davomida jungar xonlari qirg'iz elini to'xtovsiz talon-taroj qilib turgan. XIX asrning 1-yarmida Qo'qon xonligiga bo'ysunadi. 60-70-yillarga kelib Qirg'iz yerlari-ning ko'pchiligi Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etiladi va etnik jarayon tezlashib ketadi.

Prjevalsk hududida qirg'izlarga qo'shib ketgan g'arb mo'g'ul-o'lat guruhi – sart-qalmiqlar yashaydi. Keyinchalik u yerda barcha qabila va elatlar qirg'iz xalqi bilan birikib zamonaviy millat tashkil qiladilar.

Turkmanlarning hozirgi hududida qadimdan shakllanib kelgan. Ularning soni 2,4 mln.dan ortiq (1985), ularning kam sonli jamoalari qo'shni O'zbekiston va Tojikiston respublikalarida, Shimoliy Kavkazda va Astraxan viloyatida joylashgan. Turkmaniston bilan chegaradosh Eronda 550 ming, Afg'onistonda 300 ming, Turkiya, Iroq va boshqa Old Osiyo mamlakatlarida 1,2 mln.ga yaqin turkmanlar g'uj holda yashaydilar (1980-yillar).

Turkman xalqining etnogenezi hali to'liq aniqlanmagan. Uning eng dastlabki etnik tuzilishida qadimiy dax-massaget va sarmat-alan qabilalarining roli katta. Qadimiy Marg'iyona, Parfiya va Xorazm davlatlarining aholisi ham mazkur jarayonda qisman ishtirok etgan. Turkmanlarning etnik shakllanishi Orol-Kaspiy dashtlarida yashovchi eroniy tillarda gapiradigan qabilaviy birikmalarning IV–V asrlarga kelib turklashish

jarayoni bilan bog'liq, degan fikr mavjud. Keyinchalik mazkur turklashgan qadimiy qabilalarga o'g'uzlar qo'shilib turkman xalqiga asos solgan. Ikkinchi fikrga ko'ra, antropologik dalillarga asoslanib turkmanlar asli mil.avv. turklashgan ko'chmanchi skiflarning avlodi, deb qaraladi. Ammo ikki fikr ham to'liq isbotlanmagan. Ma'lumki, «turkman» nomi dastlab X asr oxirlarida paydo bo'ladi. Ko'petdog' etaklarida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi bilan Kaspiy va Sirdaryo qirg'oqlarida yashovchi qadimgi ko'chmanchi qabilalar negizida XI asrlarda paydo bo'lgan yirik o'g'uz turklarining birikmasi – saljuqiylarning turkman xalqining shakllanishida muhim rolni o'ynaganligi shubhasiz. Saljuqiylar hatto Ozarbayjon xalqi va yaqin sharq turklarining shakllanishida ham faol ishtirok etganlar. Asli turkman xalqining shakllanishi mo'g'ul-turk istilolaridan keyingi davrda, asosan, XV asarlarda tugaydi. O'sha davrda turkman etnosiga ayrim noo'g'uz turkiy qabilalar (chunonchi, qipchoqlar) ham qisman qo'shilgan.

XIX asrning 80-yillarida Turkmaniston Rossiya tomonidan istilo qilingach, etnik birikish jarayoni kuchaygan bo'lsa-da, qabilaviy bo'linish hanuzgacha mustahkam saqlangan. Eng yirik qabilalardan taka turkmanlari axal, murg'ob havzasi va Tajanda, yovmutlar Kaspiy ersarilar Xiva yerlarida yaxlit holda yashaganlar. Xo'jalik – madaniy jihatdan turkmanlar, ko'chma (chorva) va o'troq dehqon (cho'mur) qismlarga bo'lingan. XX asr boshlariga kelib, turkman millati shakllanib, qabilaviy bo'linishlarga barham berildi. Ular to'liq o'troq turmush tarziga o'tdilar.

Qoraqalpoqlarning ham etnogenezi murakkab sharoitda kechgan. Ular hozir o'zlarining avtonom respublikalariga ega. Qoraqalpoqlar O'zbekistonning Farg'ona, Xorazm va Buxoro viloyatlarida, qisman Turkmaniston va Qozog'istonda hamda qo'shni Afg'onistonda yashaydilar. Qoraqalpoqlarning soni 1985-yilgi aholi ro'yxatiga binoan 350 ming kishi edi. Avtonom respublikaning umumiy aholisi 906 ming bo'lib qoraqalpoqlar 31,1%, o'zbeklar 31,5%, qozoqlar 26,9% ni tashkil etadi.

Qoraqalpoqlar qadimiy eroniy tildagi Orol bo'yi sak-massaget qabilalari (mil.avv. VII–II asrlar), gunnlar (milodning II–IV asrlari) bilan turkiy tildagi elatlarning (VIII–X asrlar) aralashishi natijasida paydo bo'lgan. O'sha davrda orol bo'ylarida pachanak va o'g'uz qabilaviy guruhlarida paydo bo'lib qalmaq etnosiga asosiy komponent

bo'lib kiradi. Qoraqalpoq xalqining so'nggi etnogenezida muhim rol o'ynagan Dashti Qipchoqlar ularga o'z tilini bergan. Millatning shakllanishi jarayoni va nomining paydo bo'lishi XVI–XVIII asrlarga to'g'ri keladi. XVIII asrlarda Qoraqalpoqlarning bir qismi Farg'ona vodiysiga ko'chadi, ko'pchiligi esa XIX asr boshlarida quyi Sirdaryodan Amudaryoning quyi oqimiga ko'chib kelib joylashadi.

Turkiy til turkumiga oid yana bir xalq – uyg'urlar Markaziy Osiyo bilan bog'liq. O'rxo'n daryosi havzasida VII–IX asrlarda o'z yozuviga ega bo'lgan yuksak madaniyatli katta davlat tuzganlar. Uyg'urlarning ma'lum qismi Markaziy Osiyoga XVIII asrning o'rtalaridan to XX asr boshlariga qadar ko'chib kelganlar. Hozir Markaziy Osiyoda 200 mingdan ortiq uyg'ur yashaydi.

Eroniy til turkumiga kiruvchi eng katta etnos tojiklardir. Ular ham nihoyatda murakkab sotsial-iqtisodiy, siyosiy va geografik sharoitda shakllanganlar. Tojiklarning umumiy soni 1985-yilda 3,5 mln.ga yetgan bo'lib, asosan, o'z vatanlarida yashashadi, O'zbekiston va Qirg'izistonda ham joylashgan. Eng ko'p sonli tojik aholisi Afg'onistonda (3 mln.dan ortiq kishi), kichikroq guruhlari Shimoli-sharqiy Eron va Shimoli-g'arbiy Xitoyda yashaydi.

Tojiklarning etnogenezi mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yilliklarning boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda Markaziy Osiyoga Yevroosiyo dashtlaridan eroniy tillarda so'zlashuvchi qabilalar kelib mahalliy tub aholi bilan aralashish (assimilyatsiya) jarayoni ro'y bergan. Tojiklar shakllangan hududda kam sonli jamoalari (Qadimgi Baqtriya, So'g'diyona, Farg'ona vodiysi) dehqonchilik bilan shug'ullangan elatlar bilan yonma-yon ko'chmanchi saklar ham yashagan. Mil.avv. II asrda Baqtriyaga yuechjilar va sak qabilalari bostirib kiradilar va qudratli Kushon davlatiga asos soladilar. Keyin bu yerga eftalit («oq gunn»)lar, turklar va arablar kirib keladi.

Hozirgi tojik xalqi somoniylar hukmronlik qilgan davrda (IX–X asrlarda) qadimgi so'g'd va baqtriya tili asosida shakllangan. O'sha davrda tojiklarning adabiy tili (dariy) paydo bo'lgan. Ammo so'nggi davrlargacha tojiklarning orasida turli etnografik guruhlar mavjud edi. Hozir ham tog'li tojiklar bilan vohada yashovchi tojiklar orasida xo'jalik va madaniy jihatdan ba'zi etnik tafovutlar saqlanib qolgan. Masalan, ilgari mustaqil xalq hisoblangan pomir tojiklari – ishg'o-shimlar, vohanlar, yozg'ulomlar, shuqnonlar hozirgacha ba'zi etnik xususiyatlari bilan ajralib turadilar.

Boshqa mayda millatlarning etnogenezi Markaziy Osiyo hududidan tashqarida o'tgan. Hozir Markaziy Osiyoda eroniy til turkumiga oid kurdlar (asosan, Turkmanistonning Ashxobod va Mari viloyatlarida), belujiylar (Mari viloyati va qisman Tojikistonning janubida), forsi-eroniylar (O'zbekistonning Buxoro va Samarqand shaharlari va atrofdagi tumanlarda) yashaydilar.

O'zbekistonning Toshkent va Qozog'istonning Olma-ota viloyatlarida koreyslar joylashgan. XIX asr o'rtalarida bu yerda Xitoyning shimoliy hududlaridan xitoy shevasida gapiradigan dunganlar kelib joylashadi. Ular hozir Qirg'iziston va Qozog'istondagi Chudaryosi vodiysida o'rtnashganlar. Asosan, o'zbek va tojiklar bilan aralashib ketgan arablar Zarafshon daryosining Markaziy va pastki oqimida, Qashqadaryoning etagida va Tojikistonning janubida kichik guruhlarini tashkil qilgan.

Markaziy Osiyo (Buxoro) yahudiylari ko'pincha O'zbekistonning yirik shaharlari: Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo'qonda yashaydi. Keyingi o'n yilliklar ichida mahalliy yahudiylarning bir qismi Isroil va AQSHga ketgan. Ular tojik tili shevalaridan birida gapiradilar. O'zbekiston va Tojikistonning turli joylarida uchraydigan Markaziy Osiyo lo'lilari ham mahalliy tillarni yaxshi egallaganlar, ammo tojik tilini ona tili deb hisoblaydilar. Etnografik jihatdan ayrim guruhlar o'zaro bir oz farq qiladilar (lo'li, jo'gi, mazang va hokazo).

Butun Markaziy Osiyoda boshqa yerdan kelgan etnoslardan eng ko'pchilikni tashkil qilgan sharqiy slavyan xalqlari (ruslar, ukrainlar va qisman beloruslar)ning vakillari etnografik xususiyatlarini ko'proq saqlab qolganlar. Ular dastlab XVIII asrning oxirlaridan Qozog'istonning Ovrupo qismiga, XIX asrning ikkinchi yarmida, Markaziy Osiyoga kela boshlagan.

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda uch xil an'anaviy xo'jalik tiplari ma'lum bo'lgan: vohalarda yashovchi o'troq dehqonchilik xo'jaligi, dasht va yarim dashtlarda ko'chib yurgan chorva xo'jaligi, vohalarga yaqin va katta daryolarning quyi oqimida joylashgan yarim o'troq chorva-dehqonchilik xo'jaligi. Xo'jalik – madaniy tiplarning chegarasi etnik hududga to'g'ri kelmaydi, ammo tarixiy jihatdan etnik birlik ham uzoq davr ichida shakllanib kelgan.

Dehqonchilik va chorcachilik Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida mil.avv. VI–V ming yilligida neolit davridayoq ri-

vojlana boshlagan. II ming yilliklarga kelib dehqonchilik madaniyati ancha kengayib butun janubga tarqaladi, Tejen va Murhab daryolari vohalari o'zlashtiriladi. Bronza (jez) davrida sun'iy sug'orish paydo bo'ladi, yarim ko'chma va ko'chma chorva xo'jaligi rivojlana boshlaydi. Milodning I ming yilliklarida Markaziy Osiyodagi dehqonchilikka mos yerlarning deyarli hammasi o'zlashtiriladi, Qozog'iston dashtlarida asosan, ot va qo'y boquvchi ko'chma chorcachilik xo'jaligi keng tarqaladi, chorva qabilalari asosan, tuya, echki va qisman ot saqlaganlar. Vohalarda I ming yillikning ikkinchi yarmida dehqonchilikning intensivlashuvi va sug'orish tizimlarining takomillashishi asosida o'zlashtirilgan yerlar ancha ko'paygan edi. Pomir tog'larining vodiylari va qir-adirlarida dehqonchilik bilan birga yaylovda boqiladigan chorcachilik paydo bo'lib, u yerda qo'y va qoramol parvarish qilingan. Molni jazirama yoz faslida baland tog' yaylovlari haydab sovuq qish faslida vohalarga haydab tushganlar.

Dashtlarda ko'chma chorcachilik bilan asosan, qozoqlar shug'ullangan bo'lsa, turkmanlar qumlik va yarim sahro joylarda sordoba, quduq izlab chorva bilan ko'chib yurganlar. Tyan-Shan tog'lari etaklarida qirg'izlar, ham asosan, chorcachilik bilan shug'ullanganlar.

Har bir xalqning turmush tarzi uning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq. Asrlar davomida ko'chmanchilik qilib yurgan chorcador aholining turmushi o'ziga xos moddiy madaniyatni yaratgan. Masalan, chorcador ko'chmanchi xalqlarda yengil tiklanadigan va ko'chirib yurishga qulay bo'lgan konussimon yoki gumbaz shaklida yog'och panjaralardan tiklangan va kigiz bilan yopilgan o'tov uylar keng tarqalgan. Uy jihozlari ham ko'chmanchilik turmushiga moslashgan teri, yog'och va metallardan yasalgan buyumlardan iborat bo'lgan. Kiyimlar esa asosan, teri va jun matodan tikilgan, ovqatlari go'sht va sut mahsulotlaridan tayyorlangan. Tog' etaklarida chorcachilik bilan shug'ullanuvchi elatlar o'troq holda yashagan. Faqat yoz paytlari chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish va g'amlash uchun butun aholi yaylovga ko'chib chiqqan, chodirlar tikib yashagan.

Ko'chmanchi chorcadorlar uzoq o'tmishdan boshlab dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholi bilan bog'liq bo'lganlar, chorva mahsulotlarini dehqonchilik hamda hunarmandchilik mahsulot-

lariga almashib turganlar. Ba'zi ko'chmanchilar esa o'troq holatga o'tib, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar.

Markaziy Osiyoda dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan bo'lib, quldorlik davridan boshlab murakkab sug'orish inshootlari va sistemalari qurilgan. Markaziy Osiyo dehqonchiligiga XIII asrdagi mo'g'ul istilosi juda katta zarar keltirgan. Istilochilar sug'orish inshootlarini buzgan, aholining ancha qismini asir qilib olib ketgan, oqibatda butun bir viloyatlar huvillab qolgan. O'rta asr oxirlariga kelib dehqonchilik bir oz tiklangan, sug'orish tizimi yo'lga qo'yilgan. Ammo ilgari holat to'liq tiklanmagan, aksincha, konservativ dehqonchilik mustahkamlangan. Tog' etaklarida kariz usuli bilan «zi-napoya» shaklida ishlangan dalalarga suv chiqarilgan.

Yerga ishlov berishda oddiy ishlab chiqarish qurollari – temir yoki cho'yan tishli omoch mola, ketmon va bel, hosilni o'rishda o'roq ishlatilgan. G'alla o'rilgandan so'ng ot yoki eshak bilan yanchilgan, suv tegirmonida mol kuchi yoki qo'l bilan harakatga keltiriladigan tegirmondan don tortilib, un chiqarilgan. Sholi yanchadigan maxsus tegirmon va so'g'i bo'lgan. Bu oddiy mehnat qurollari o'tgan asrning 30-chi yillarigacha saqlanib kelgan. Ketmon, bel va o'roq hozirda asosan, uy yumushlarida ishlatiladi. Hozir qishloq xo'jaligida ilg'or agrotexnika, ximiyalashtirish va mexanizatsiya asosida qo'l mehnatidan kam foydalanib, yuqori hosil olinmoqda. Ayniqsa, mustaqillikka erishgandan keyin Markaziy Osiyoda zamonaviy fermer xo'jaliklari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Asosiy an'anaviy ekinlardan bug'doy, arpa, sholi, mosh, loviya, paxta, poliz ekinlari keng tarqalgan. Bog'dorchilik, uzumchilik, pillachilik ham muhim rol o'ynaydi. Pomidor, kartoshka, karam kabi Yevropa ekinlari Markaziy Osiyoni Rossiya bosib olganidan keyin paydo bo'lgan.

O'troq aholining orasida qadimdan turli hunarmandchilik rivojlangan. Barcha ishlab chiqarish qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak va bezaklar, qurilish xomashyolari shahar va qishloqlarda ishlab chiqarilgan. Katta shaharlarda kosiblar hatto sexlarga birikkan, ayrimlari maxsus mahallalarda yashaganlar. Chorva hududlarida kigiz bosish, gilam va palos to'qish, jun mahsulotlari ishlab chiqarish keng tarqalgan.

Markaziy xalqlarining moddiy madaniyati xususiyatlari ularning xo'jalik faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan. O'troq dehqonchi-

lik bilan mashg'ul bo'lgan aholi qishloqlarda istiqomat qilgan. Ularning an'anaviy uylari Rossiyadagi oktabr davlat to'ntarishidan loydan (paxsa, xomg'isht, guvaladan) yoki sinchdan tiklangan, asosan, bir-ikki xonali, dahlizli va tekis tomli qilib qurilgan. Kambag'allarning uylari o'tmishda oynasiz, bir xonali, o'rtasida o'choq va tuynukli, bo'yra va eski kigiz bilan jihozlangan. Tog'li joylarda oynasiz, tuynukli toshdan yoki guvaladan bir xonali kulbalar tiklangan.

Ko'chmanchi xalqlarning o'tov uylari ham bir-biridan tubdan farq qilgan: badavlat odamlarning o'tovlari yangi kigizlar bilan yopilgan, har xil gilam va to'shaklar bilan bezatilgan, kambag'allarniki eski, huvillagan. Odatda o'tovning ikki xili farq qilinadi: konus shaklidagi mo'g'ul tipi va gumbaz shaklidagi turk tipi. Qozoq, qirg'iz, o'zbeklarda har ikkala tip uchraydi, turkmanlarda faqat turk tipi tarqalgan.

Mahalliy xalqlarning an'anaviy milliy kiyimlari juda ham rang-barang bo'lgan. Har elat o'ziga xos kiyimga ega, ammo umumiy belgilari ham mavjud. Erkaklarning an'anaviy kiyimlari asosan, yaxtak-ko'ylak, ishton, chopon, belbog', po'stin, do'ppi, teri telpak, mahsi-kavush, choriq yoki etikdan iborat bo'lgan. Ayollar keng tikilgan ko'ylak, uzun ishton, yengsiz nimcha va uzun chopon (peshmat), mahsi-kavush kiygan, boshiga lechak, ro'mol o'ragan, do'ppi kiygan va hokazo. Ko'pincha kiyimlar rangi va guli bilan farqlangan. Markaziy Osiyo xalqlarining ayollarida turli-tuman uzuk, sirg'a, mis va kumush bezaklar, tumor osish, kosmetika keng tarqalgan.

XX asrning so'nggi o'n yilligida, asriy orzulari ushalib, o'z mustaqilligini e'lon qilgan, o'z taqdiri va belgilash huquqiga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy madaniyatida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Hozir ular zamonaviy mebel, gilam va turli buyumlar bilan bezatilgan ko'p xonali yorug' uylarda yashaydilar. Ularning ko'pchiligi eng zamonaviy kiyinishni afzal biladilar. Marosimlardagina o'zbek va tojiklarda chopon va do'ppi kiyish odat tusiga kirgan. Ammo uy va jamoat ishlarida, ba'zi kiyimlarda, ayniqsa, ayollarning kiyimlarida go'zal an'anaviy milliy belgilar saqlanib qolgan, yangicha shakl kasb etgan. An'anaviy dekorativ san'at namunalari, o'ymakorlik, kashtachilik san'ati so'nggi yillarda yana ham ravnaq topdi.

Mahalliy elatlarning ijtimoiy va oilaviy-maishiy turmushida majburiy kollektivlashtirish davrigacha feodal-patriarxal an'analar saqlangan, ko'p ukkladli xo'jalik faoliyatida ijtimoiy tashkilotlarning turli shakllari yuzaga kelgan edi. Dehqonchilik vohalarda ijtimoiy munosabatlar, mulk shakllari, jamoa an'analari (suv jamoasi, qishloq va qo'shnichilik jamoasi) nihoyatda murakkab bo'lgan. Jamoatchilik munosabatlari chorvadorlar orasida ancha mustahkam saqlangan. Ayniqsa, barcha huquqlardan mahrum bo'lgan ayollarning ahvoli og'ir bo'lgan. Patriarxal oilaviy munosabatlar eski odatlar va shariat orqali boshqarilgan. Nikoh ota-ona istagi bilan hal qilingan.

Chorvadorlar orasida ijtimoiy turkumlar ajralib turgan. Masalan, qozoqlarda xon va sultonlar hamda qabila boshliqlari «oq suyak»-larga, qolgan butun fuqaro «Qora suyaklar»ga ajratilgan. Turkmanlarda ham ijtimoiy tabaqalanish mavjud bo'lgan. Yuqori tabaqaga oid iglar va ularga bo'ysungan qullar farq qilingan. Qirg'izlarda hukmron qabilaga manaplar kirgan. O'z navbatida manaplar ham «bosh» va «kichik» guruhlariga bo'lingan. Asli mazkur tabaqalanish chorva ahlida mulk tengsizligi bilan bevosita bog'liq edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy qoloqlik va notekis sotsial taraqqiyot Markaziy Osiyoni XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olinishiga sabab bo'lgan. Sun'iy ravishda Turkiston general-gubernatorligi, vassal Xiva va Buxoro xonliklariga bo'lingandan so'ng Markaziy Osiyo avvalgidan-da og'ir inqirozga yuz tutgan. Shubhasiz, Rossiya istilosining biroz ijobiy oqibati o'lkaning yuqori formatsiya hisoblangan kapitalizm girdobiga tortilishi, natijada xomashyo ishlab chiqarish sanoatining paydo bo'lishi, qishloq xo'jalik qurollarining takomillashishi, temir yo'lining o'tkazilishi, savdosotiq kuchayib, fabrikat mahsulotlarning mahalliy bozorlarda ko'payishi sotsial-iqtisodiy munosabatlarga jiddiy ta'sir qila boshlagan. Ammo chorizm turmushni o'zgartirishga intilmas edi. Har kungi moddiy va maishiy hayotda milliy an'analar va qadriyatlar qadrlanmas, istibdod kundan-kunga kuchayar edi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek chorizm istibdodidan so'ng, bolshevizm changaliga tushgan Markaziy Osiyo xalqlari faqatgina XX asr so'ngida mustaqillikka erishib muayyan ijtimoiy taraqqiyot yo'liga chiqib oldilar, maishiy va madaniy hayotning ko'p tomonlari ravnaq topdi va yashnadi. Erkak va ayollar teng huquqqa ega bo'lib, istiqloq tufayli yangi turmush tarzining barcha yutuqlaridan birga bahramand bo'lmoqdalar.

O'tmishda Markaziy Osiyo, xalqlariga xos umumiy madaniy meros mavjud edi. Ayniqsa, xalq ijodida, epik dostonlarda umumiy qahramonlar, sujet va rivoyatlar ko'p uchraydi. Bunga yorqin misol o'zbek, qozoq va qoraqalpoqlardagi «Alpomish» dostoni, turkman, tojik va o'zbeklardagi «Go'ro'g'li» epik poemasi yoki «Shohsanam» dostoni. Eng qadimiy davrlarda «Avesto»da va sak eposida tilga olingan sujet va obrazlarda aniq saqlangan. Tarixi mushtarak xalqlarning Nasriddin Afandi va Aldar Ko'sa latifalari, qahramonona afsonaviy ertak va rivoyatlar, turli mazmundagi lirik ashulalar va jozibador laparlar hozirgacha kishiga zavq bag'ishlaydi.

Xalq ijodi namunalari yozma adabiyotga mislsiz ta'sir o'tkazib kelgan. Rudakiy, Alisher Navoiy, Umar Xayyom, Mahtumquli kabi buyuk mutafakkir shoir va adiblar Markaziy Osiyo adabiyoti shuhratini jahonga tanitgan. Xalq baxshilari, shoir va oqinlar qadimiy klassik adabiyot namunalarini avlodan-avlodga kuylab kelganlar. Ular jozibador xalq kuylarini ham bizgacha yetkazganlar.

Musika san'ati ham uzoq tarixiy davrlarda paydo bo'lgan. Arxeologlar tadqiq etgan turli qadimgi davr obidalaridagi o'yma va rangli rasmlarda surnay, nay, nog'ora, har xil torli asboblari tasvirlangan. Hozirgi o'zbek, tojik, qozoq va turkmanlarning musiqa asboblari juda ham xilma-xil. To'y va tomoshalarda, bayram va sayllarda doimo musiqa kuylari yangraydi, raqslar ijro etiladi, masxarabozlar va dorbozlar o'z san'atini namoyish qiladilar. Xalq teatri va qo'g'irchoq o'yini ham qadimdan ma'lum.

Tasviriy san'at, o'ymakorlik, koshinchilik, badiiy kashtachilik, naqshli sopol buyumlar yasash, gilamchilik va boshqa amaliy san'at butun Markaziy Osiyoda qadimdan mashhur bo'lib mustaqillik yillari yangidan yashnadi va professional kasb darajasiga ko'tarildi. Hozirgi davrda biror-bir me'morchilik obidalarini, jamoat inshootlarini, madaniyat saroylarini yog'och, ganch va tosh (marmar)ga o'yilgan ajoyib milliy naqshlarsiz tasavvur qilish qiyin. Mohir xalq ustalari yaratgan go'zal sopol buyumlar, nozik naqqoshlik bezaklari, zardo'zi kiyimlar va ajoyib so'zanalar xalqning sevimli uy jihoziga aylangan.

Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy hayotida asrlar davomida nur taratgan islom dini. U butun ijtimoiy, oilaviy va shaxsiy turmushga singib ketgan. Maishiy turmush va madaniyatning barcha

hujayralariga tarqalgan e'tiqod insonning har kungi hayotini o'zining asl, go'zal va ilohiy, boqiy qadriyatlari bilan ko'ngillarga qaytgan islom dini Markaziy Osiyoda buyukligini, tinchliksevarlik, odamparvarlik, poklik, halollik mavqeini mustaqillik sharofati bilan tiklandi.

§-3. JANUBIY OSIYO XALQLARI

Janubiy Osiyo tabiiy-geografik va tarixiy-etnografik jihatdan ancha murakkab va xilma-xil. 1985-yilgi ma'lumotlarga binoan, 4,5 mln. km² hududda 860 mln.dan ortiq aholi yashagan. Shulardan eng ko'pi Hindistonda (663 mln.), Pokistonda (78,8 mln.), Bangladeshda (88,5 mln.), Shri-Lanka (15 mln.) va Nepal-da (14 mln) istiqomat qiladi. Eng kam aholi Butanda (1,3 mln.) va Maldiv Respublikasida (150 mingga yaqin) joylashgan. Bengal bo'g'ozidagi Andaman va Nikobar orollari ham Janubiy Osiyoga tegishli.

Mazkur davlatlar joylashgan Hindiston yarim oroli shimolida Himolay-Hindiqush tog' tizmasi bilan o'ralgan, janubda Hind okeani suvlari bilan yuvilgan, g'arbiy qismida Dekan yassi tog'lari Konkana vodiysi sohili bo'yiga cho'zilgan, sersuv Hind va Ganga daryolaridan paydo bo'lgan serhosil vodiyan iborat o'ziga xos tabiiy iqlimli hududni tashkil qiladi. Katxiyavar yarim orolidan shimoli-sharq tomon cho'zilgan Aravalli tog' tizmalarining g'arbida joylashgan bepoyon suvsiz Tor yoki Buyuk Hind sahrosi, Rajaston dashti va Sind tekisliklari ham o'ziga xos tabiat manzarasini yaratgan. Agar Assam va Himolay tog'ining janubiy etaklarida jahonning eng sernam voha joylashgan bo'lsa, o'sha kenglikdagi Sind dashtlarida ayrim yillari bir tomchi ham yomg'ir yog'maydi. Ammo Brahmaputra, Hind, Ganga kabi buyuk Osiyo daryolari bilan birga Jamna, Maxanadi, Kistna, Godovori nomli yirik daryolarning oqishi bu yerda sug'orma dehqonchilik xo'jaligi uchun qulay sharoit tug'dirgan. Eng qurg'oq hind tekisliklarida o'simlik dunyosi ancha qashshoq va siyrak, namli tropik iqlimli hududlarda esa har xil daraxtli o'rmonlar uchraydi.

Janubiy Osiyoning o'simlik va hayvonot dunyosi qadimiy davrlarda juda boy bo'lgan, keng hududni subtropik va tropik o'rmonlar, changalzor to'g'ay (jungli)lar egallagan. Ammo inson faoliyati tufayli daraxtzor o'rmonlar kamayib ketgan. Oqibatda turli-tuman o'rmon hayvonlari soni va turi qisqargan. Bu yerda nihoyatda qimmatbaho

daraxt turlari, har xil hayvonlar endi davlat tomonidan muhofaza qilina boshlandi. Shri-Lankaning ham tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosi o'ziga xos. Hindiston yarim orolidan kichkina (35 km) bo'g'oz bilan ajralib turgan mazkur orol (65,5 ming km² maydonli)ning beshdan to'rt qismida uncha baland bo'lmagan tog'lar mavjud, iqlimi ekvatorial mussonli.

Antropologik jihatdan janubiy osiyoliklar asosan, katta yevropoid irqiga mansub bo'lib, o'ziga xos janubiy tarmoqni tashkil qiladi. Ular uchun qora qo'ng'iroq sochlar, qo'y ko'zlar, qirra burun, ancha cho'zinchoq yuz xarakterli belgilardir. Bu yerda negroid va mongoloid irq-lari bilan aralash tiplarni, shimol va shimoli-sharqda mongoloid, Janubiy Hindiston va Shri-Lankada veddoid, dravid va hatto avstraloid-negritos tiplarini ham uchratish mumkin. Past bo'qli pigmey tipidagi andamanliklar jismoniy tuzilishi bilan ajralib turadi. Umuman, hozirgi etnoslarda veddoid belgilari sezilarli darajada.

Janubiy Osiyoning lingvistik tuzilishi nihoyatda murakkab, bu yerda eng ko'p tillar, yuzlab shevalar uchraydi. Keyingi klassifikatsiyaga binoan Janubiy Osiyoda 180 dan ortiq til turkumi, faqat Hindistonning o'zida esa ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 1652 til va shevalar mavjud. Shulardan eng asosiy Hindariy guruhi (637,5 mln. ga yaqin) bo'lib, ko'p sonli etnoslardan hindistonliklar (180,4 mln.), bengalliklar (69,6 mln.), marotxilar (51 mln.), gujarotlar (33,3 mln.), rajastonliklar (14,3 mln.), sindxilar, shri-lankali singallar (10,5 mln.), nepalliklar (10 mln. ga yaqin) va hokazo. Qolgan aholi bir necha million yoki yuz mingli dravid, tamil, munda, kam sonli monxmer va tibet-birma tillarida so'zlaydigan xalqlar eroniy va dariy til vakillaridir. Hozirgi davrda hind-yevropa tillaridan rasmiy tillar Hindiston Respublikasida hindi, Pokistonda urdu, Bangladeshda bengali, Nepalda nepali, Shri-Lankada singali, ayrim shtatlarda mustaqil shevalar, eroniy tillaridan pushtu, balujiy, Kashmirda ko'pchilik aholi dariy tilida so'zlashadi, ingliz tili Hindiston Respublikasining ikkinchi rasmiy tilidir.

Tarixiy-madaniy taraqqiyot nuqtayi nazaridan Janubiy Osiyoda ancha rivojlangan bozor munosabatlari darajasiga ko'tarilgan millatlar bilan bir qatorda hali ibtidoiy jamoa tuzumi darajasida turgan ayrim daydi qabilalarni ham uchratish mumkin. Uzoq o'tmishda va ayniqsa, o'rta asrlarda yuksak madaniyat yaratgan yirik etnoslar bilan yonma-yon yashayotgan, ammo madaniy

taraqqiyot yo'liga chiqa olmagan ayrim qabilaviy guruhlar asta-sekin ko'p sonli qo'shni elatlar bilan aralashib o'z tili va madaniyatini yo'qotib, yuqori pog'onadagi madaniyatni va etnosni qabul qilish yo'lida turibdi. Hozirgi Hindiston yarim oroli va Shri-Lanka aholisining etnik qiyofasi asli turli-tuman elatlar orasida bo'layotgan migratsiya, assimillatsiya va konsolidatsiya, ya'ni mayda etnoslar bilan yirik millatlar yaqinlashib, aralashish jarayonida turibdi.

Mazkur jarayonni to'g'ri tushunish uchun mintaqaning etnik tarixini aniqlab olish zarur. Keyingi yillarda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Janubiy Osiyoda qadimiy madaniyat mil. avv. III ming yilliklarda paydo bo'lgan. Fanda yaqin davrlargacha Hind xalqlarining qadimgi madaniyati bo'lmagan, ularga sivilizatsiyani hind-yevropa avlodlari g'arbdan olib kelgan, degan g'ayriilmiy fikrlar tarqalgan edi. Moxendjodaroda va Xarappida qilingan kashfiyotlar natijasida to'rt-besh ming yillar muqaddam Yevropa qit'asida hali madaniyat bo'lmagan bir davrda bu yerga ariy qabilalari kelguniga qadar Hind va Panjob vodiylarida shaharlar qurib yashagan yuksak dehqonchilik madaniyati mavjudligi isbotlandi. Xarappi madaniyatini yaratganlarning etnik turmush sharoiti hali aniqlanmagan bo'lsada, ular dravid tilida so'zlashgan, deb faraz qilmoqda.

Antropologik jihatdan paleolit va mezolit davrlarida ajdodlar avstroloid (veddoid) tipida bo'lgan. Janubiy Osiyoda gominidlar topilmagan bo'lsa ham odam bir million yillar muqaddam yashaganligi aniqlangan. Ular keng hududda daydi turmush tarzida ovchilik va terib-termachilik bilan hayot kechirganlar. III–II ming yilliklarda bu yerda munda va dravid tillaridagi etnik guruhlar paydo bo'ladi va yuqorida tilga olingan yuksak madaniyatga asos soladi. Dravid va munda qabilalarining mahalliy veddoidlar bilan aralashmasidan hozirgi Janubiy Hind dravidoid irqiy guruhi paydo bo'ladi. Avstroloid va mongoloid irqiga oid munda qabilalarining mahalliy veddoid aholi bilan assimillatsiyaga kirishi natijasida Markaziy Hindistonning munda xalqlari shakllanadi. Mil.avv. II ming yillikning o'rtalarida bu yerga Markaziy Osiyo va Eron tomondan janubiy yevropoid (ariy) irqidagi qabilalarning katta oqimi bosib kiradi va mahalliy elatlar bilan aralashib ketadi. Uzoq o'tmishdagi yo'qolib ketgan ajdodlarning xotirasi faqat o'lik tillar yozuvi – vedda va sanskritda hamda og'zaki ijodida saqlanib qolgan, xolos.

Mil.avv. I ming yilliklarda Shimoliy Hindistonda dastlab bir necha quldorlik davlatlari paydo bo'lgan. III–II asrlarda Mauriya quldorlik imperiyasi butun Hindistonni biriktirgan. Ammo eramizning I asrlarida shimoliy qismi Kushon imperiyasiga qaram bo'ladi. XI asrlardan boshlab Shimoliy Hindistonga turkiy qabilalar bosib kira boshlaydi va XIII asr boshlarida Dehli sultonligini o'rnatadilar.

Shimoliy Hindiston xalqlarining etnik tuzilishiga arab-mo'g'ul istilosi, ayniqsa, XVI–XIX asrlarda hukmronlik qilgan, buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari davrida ko'chib kelgan har xil etnos vakillari (forslar, hozirgi o'zbeklar ajdodlari toxariylar, tojiklar, turkiy xalqlar) jiddiy o'zgarishlar kiritgan edi. Shri-Lanka orolida aholi mil.avv. I ming yillik o'rtalarida paydo bo'lgan. Ular hindariy tillarida so'zlashadigan hozirgi singallar va tamillarning avlodlaridir. Taxminan o'sha davrlarda ko'chib kela boshlagan dravidlar mahalliy veddalar bilan aralashib ketib hozirgi etnoslarga asos solgan.

Janubiy Osiyoga mustamlakachilar – portugallar, gollandliklar, inglizlar XV–XVI asrlardan boshlab kela boshlaydi. 200 yillik mustamlakachilik mahalliy xalqlarning etnik tuzilishiga ta'sir qilmagan bo'lsa-da, mustamlakachilar o'z hukmronligini to'la o'rnata bilgan, ma'muriy-siyosiy jihatdan ancha o'zgarishlar kiritgan, tub aholining sotsial-iqtisodiy va madaniy hayotida juda fojiali salbiy iz qoldirgan. Ozodlik, mustaqillik uchun ko'tarilgan ko'p qo'zg'olonlar shafqatsizlik bilan bostirilgan. Faqat 1947-yilda hindistonliklarning qahramonona ozodlik kurashi tufayli mustaqillik qo'lga kiritilgan. Shri-Lanka (ilgarigi Seylon)ni XVI asrda Portugaliya bosib olgan. XVII asr o'rtalarida Gollandiya tasarrufiga o'tgan. XVIII asr oxirlarida esa Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylangan. 1948-yili Shri-Lanka mustaqillikka erishadi, ammo iqtisodiy va qisman siyosiy jihatdan Angliya ta'sirida qoladi.

Har bir xalqning shakllanishi jarayonida o'ziga xos xususiyatlar paydo bo'ladi, ammo muayyan hududda va tabiiy-iqlimli sharoitda uzoq davr birga yashab kelgan turli xalq va elatlar ko'p asrlik iqtisodiy va madaniy munosabatlar tufayli xo'jaligi va madaniyatida umumiy belgilarini ham shakllantirib kelganlar. Sharqiy Osiyo aholisining ko'pchiligi (taxminan 80%) qishloq xo'jaligida band. Masalan, Hindistonda aholining 70% i qishloq xo'jaligi bilan

shug'ullanadi. 20% dan kamrog'i esa sanoatda band. Pokistonning qishloq xo'jaligida o'z kuchi bilan ishlaydigan aholining 52% i, Shri-Lankada 50% i, Nepalda esa 90% i, Bangladeshda 80% i band.

Janubiy Osiyo xalqlarining xo'jalik faoliyati dastavval sun'iy sug'orish dehqonchiligiga asoslanadi. Ular o'z yerlarini daryolardan ariq va kanallar orqali, maxsus quduqlar qazib, chig'iriqlar orqali sug'oradilar. Dehqonchilik xo'jaliklari asosan, daryo va dengiz sohillaridagi serunum tuproqli yerlarda, tog'li joylarning vodiylarida va tog' etaklarida joylashgan. Ishlab chiqarish qurollari ancha jo'n bo'lib, oddiy yog'ochdan ishlangan temir tishli omoch, mola, ketmon va o'roqdan iborat, xolos. Asosiy qishloq xo'jalik ekinlari – bug'doy, tariq, arpa, sholi, makka, dukkakli va poliz, sabzavot va mevalar, qalampir va har xil ziravor, yog' (kandir, yer yong'og'i (araxis), kunjut, sezam) va texnik ekin (paxta, jut)lardir. Yirik plantatsiya xo'jaliklarida choy, kofe, kauchuk, har xil xurmo (palma) daraxtlari ekiladi. Yerga ishlov berishda ho'kiz va zebu hayvonlaridan foydalaniladi. Yig'im-terim ishlari faqat qo'l mehnatida bajariladi, ya'ni hosil asosan, o'roq vositasida yoki qo'lda yig'iladi, xirmon ko'tarib oddiy yog'och (xoda) yoki ho'kiz (yo boshqa hayvon) bilan tepkilab yanchiladi, yova (panjshoxa) yordamida sovuriladi.

Hindistonda hosil yiliga ikki marta olinadi. Shuning uchun qishloq xo'jalik yili ikki mavsumga ajragan: iyun-oktabr oylari yozgi (harif) va oktabr-aprel qishki (rabi), Harif mavsumida asosan, sholi, sul, makka va hokazo, rabi mavsumida esa bug'doy, arpa, dukkakli va yog' ekinlari ekiladi.

Uy hayvonlari (yirik va mayda shoxli mol) saqlashda Hindiston jahonda birinchi o'rinni egallaydi. Bu hol mamlakat farovonligi bilan bog'liq emas, balki diniy e'tiqod bilan belgilanadi. Chunki induizm dinida jonivorlarni o'ldirish gunoh hisoblanganligi tufayli molni so'yish man qilingan. Faqat musulmon davlatlar – Pokiston va Bangladeshda mol go'shti ishlatiladi. Maxsus chorva xo'jaligi G'arbiy Pokistondagi ko'chmanchi aholida, Hindistonning Maysara shtatida mavjud. Bu yerda asosan, hayvon kuchi sifatida va sut mahsulotlari ishlab chiqarish uchun yirik shoxli mol, echki, qo'y, cho'chqa, Pokistonning g'arbiy hududlarida esa tuya va ot boqiladi. Janubiy Osiyoning ayrim hududlarida og'ir ishlarda, masalan, yog'och tayyorlashda, fil kuchidan foydalaniladi. Hindistonning shimoliy va markaziy qismida joylashgan, tog' etaklarida, Nepal va Shri-Lankaning janubidagi tog'li joylarida

primitiv dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik, ovchilik, daryo va dengiz sohillarida baliqchilik, o'rmon va to'qayzorlarda yig'im-terimchilik bilan kun kechirayotgan xo'jaliklar ham ko'p uchraydi. Mintaqaning shimoliy qismida choy va jut plantatsiyalari ko'proq, markaziy vohalarida paxta va ko'knor, Janubiy Dekon va Shri-Lankada kofe, kauchuk va kokos plantatsiyalari muhim sohaga aylangan.

Butun Janubiy Osiyoda qadimdan hunarmandchilik nihoyatda rivojlangan. Ayniqsa, turli nozik matolar to'qish (mashhur kashmir ro'mollari, Hind to'qima mahsulotlari), metall, yog'och va suyakdan badiiy buyumlar yasash, asl tosh va metallardan yaratilgan ajoyib bezaklar, turli xildagi va rang-barang naqshli, o'ymakorli mahsulotlari ishlab chiqarish ancha o'sgan edi. Ammo ko'p yil davom etgan ingliz mustamlakachiligi hunarmandchilikka ham katta putur yetkazdi. Jahonda ip gazlama ishlab chiqarishda birinchi o'rinda turgan mamlakatlardan hisoblangan Hindiston XIX asrlardayoq Angliya fabrikantlarining mahsulotlari bilan mamlakatni to'ldirib tashlanishi natijasida mahalliy to'qimachilik inqirozga uchrab, yuz minglab Hind to'quvchilari kundalik tirikchiligidan mahrum bo'lib o'limga hukm qilingan edilar. O'sha davr solnomalarida yozilishicha «Bunga o'xshash falokatni savdo tarixida uchratish qiyin. Hindiston tekisliklari ip gazlama to'qimachilari suyaklari bilan to'lgan». Ammo shunga qaramay, na mustamlakachilik, na ingliz sanoati ekspansiyasi ming yillik mahalliy hunarmandchilik an'analari butunlay yo'qotishga ojiz edi. Hindiston mustaqillikka erishib Respublika tashkil topgandan keyin badiiy hunarmandchilik qaytadan ravnaq topa boshladi va milliy iqtisodiyotning muhim sohasiga aylandi. Hukumat maxsus hunarmandchilik ishlari bo'yicha Butun Hind boshqarmasini tashkil etib hunarmandlarni zarur xomashyo bilan ta'minlab, ularning mahsulotlarini sotishda katta yordam bermoqda.

Janubiy Osiyo mamlakatlari mustaqillikni qo'lga kiritganlaridan keyin, qisqa muddat ichida mustamlakachilardan meros qolgan iqtisodiyotni qayta qurish ishida ancha muvaffaqiyatlarga erishdilar. Masalan, Hindistonda o'tkazilgan proteksionizm va iqtisodiyotda davlat boshqaruvining turli shakllarini keng joriy qilish (davlat sektorini litsenziyalash, narx-navo, eksport, import va hokazolar ustida nazorat o'rnatish)da industrlashtirish yo'li sanoat ishlab chiqarishining o'sishiga yordam berdi. Og'ir

industriya va energetikaning ilgari mutlaqo bo'lmagan yoki nihoyatda sust rivojlangan tarmoqlari, ayniqsa, tez o'sa boshladi. Ammo ijtimoiy, sotsial va oilaviy-maishiy turmushda qishloq xo'jaligining feodal-patriarxal va kastachilik munosabatlari hamon hukmronlik qilib kelmoqda.

Kasta tuzumini 1950-yili qabul qilingan Hindiston Respublikasi konstitutsiyasi sotsial tengsizlik va zulm qilish tartib-qoidalari sifatida qaralgan bo'lsa ham u hozirgacha mohiyatini saqlab qolgan. Asli feodal ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi ilk sinfiy jamiyatda mehnat taqsimoti negizida paydo bo'lgan kastachilik endogam ijtimoiy guruhlar sifatida namoyon bo'ladi. Yirik endogam guruhlar ichida mayda ekzogam kastalar ham mavjud. Ilgari kasta endogamiyasi tartiblarini buzgan kishilar qattiq jazolangan. Oilaviy munosabatlar ham mazkur tizim tartiblariga asoslangan.

Janubiy Osiyo xalqlarining oila va nikoh munosabatlari diniy e'tiqodiga qarab farq qiladi. Musulmonlarning maishiy-oilaviy turmushi shariatga asoslangan, induistlarniki esa patriarxalchilikni yoqlab kelgan kasta qoidalariga tayanadi. Yaqin davrlargacha erta nikoh tartiblari (nikohlash 2-4 yoshligida, uylanish marosimi 6-8 yoshligida) amalga oshirilgan. Ko'p xalqlarda beva qolgan ayol eri yosh o'lsa ham ikkinchi marta turmushga chiqishga haqqi yo'q. Ayrim elatlarda ona urug'i munosabatlarining qoldiqlari saqlangan. Masalan, Janubiy Hindistondagi nayri xalqida meros ona tomonidan belgilanadi, ayollar erkaklar bilan teng huquqda. Albatta mazkur tartiblar erkin bozor munosabatlarining ta'siri ostida asta-sekin yemirilib borgan.

Hindistonning asosiy dini hisoblangan induizm toifalarga bo'linishni, sotsial tengsizlikni muqaddaslashtiradi. Oliy darajadagi pog'onani ruhoniylar, braxmanlar, feodal zodagonlar, harbiy sarkardalar, amaldorlar va savdogarlar egallaydi. Eng ko'p qismini «sof» kasta dehqonlar bilan shaharliklar tashkil qiladi. Eng pastki pog'onani «nopok» kasbdagi kishilar – teri oshlaydigan ishchilar, ko'ncilar, etikdo'zlik (induis dinida xom teriga qo'l tekkizish harom hisoblangan), farroshlar, kir yuvuvchilar, murdashular, axlat tashuvchi va boshqa iflos ishdagi mehnatkashlar egallaydi. Hindistonning yangi konstitutsiyasi qabul qilinish arafasida «nopok» kastalarga oid kishilarning soni 50 mln. dan ortiq bo'lgan. Islom dini kastachilik tafovutlarini inkor qilsa ham kasta tabaqalari Hind musulmonlari orasida qisman saqlangan.

Hozirgacha qishloqlarda uylar kasb va tabaqalarga bo'lingan holda qurilgan. Qishloq markazida jamoa kengashining uyi qad ko'taradi, unda har bir kasta o'z xudolari va umumiy xudolar haykalchalarini o'rnatib ibodat o'tkazadilar. Har bir oila turar joy, omborxona va molxonadan iborat hovliga ega. Hovli uylarining turlari har xil bo'lib, ular loydan, yog'ochdan, toshdan, tekis tomli, oynasiz qilib qurilgan. Ayniqsa, sohillarda qad ko'targan shaharlar ko'p qavatli chiroyli muhtasham binolari bilan ajralib turadi. Shahardagi o'ziga to'q sanoat markazlarining tevarak-atrofida minglab tartibsiz tiklangan ishchi baraklari va kulbalari ham nihoyatda katta hududni egallaydi.

Janubiy Osiyo xalqlarining kiyimlarini ikki turga bo'lish mumkin: tikilgan va o'rama. Erkaklarida dxoti deb atalgan bel-dan bog'lanib but orasidan o'tkazib o'ralgan ishtonga o'xshash libos, ayollarda uzun matodan bel va oyoqlarini bekitib turadigan o'ralgan ko'ylakka o'xshash kiyimlar (sari) keng tarqalgan. Dxoti va sari ustidan kalta kamzul bilan ko'ylakcha, ayollar kofta, qo'shimcha yubka yoki sharovar kiyishadi. «Oliy» kasta vakillari va ko'pchilik shahar ahli odatda keng va uzun, dehqonlar esa kalta belbog' shaklidagi dxoti kiyadilar. Bel va oyog' o'ralgandan qolgan uzun matoning uchi bilan ayollar ko'kragini bekitadilar, ba'zan boshlariga ro'mol qilib yopinib yuradilar. Erkaklar boshiga salla o'raydi, ayollar ro'mol yopinadi va har xil bezaklar taqadi, atir-upalar bilan o'ziga pardoz beradi. Keng ommada jez va kumushdan, badavlat kelinlar uchun oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan oyoq va qo'llariga taqiladigan bilaguzuklar, qishloqlarda jez, shisha va suyakdan, hatto ayrim o'simlik donalarini quritib tizma, munchoqlar va boshqa turli bezaklar yasaladi. Ba'zi xalqlarda erkaklar ham har xil bezaklar taqadi. Bolalarga, o'spirin qizlarga, kelin-kuyovlarga taqiladigan ko'pgina bezaklar tumor sifatida taqiladi. Ayrim ayollar o'z bezaklarini butun umr yechmaydilar.

Sharqiy osiyoliklarning taomlari ham tabaqalanadi. Ko'pchilik aholining har kungi taomi xamir mahsulotlari, ayniqsa, non va har xil dondan pishirilgan suyuq bo'tqa, atala yoki sho'rva, o'simlik (araxis, kandir, kunji yoki kokos) yoki ziravorda tayyorlangan loviya va sabzavotdan iborat. Qatiq, choy va kofe asosiy ichimlik hisoblanadi. Choyni asosan, sut bilan shirchoy qilib ichiladi. Hindistonda go'sht va mol yog'i kam iste'mol qilinadi. Diniy aqidalar

asosida mol (sigir) go'shtini iste'mol qilish man qilingan, sariyog' eritilgan holda ishlatiladi. Ko'p xalqlarda erkak va ayollar alohida-alohida ovqatlanadi. Odatda qishloq aholisi kuniga ikki marta, dala ishlari vaqtida uch marta tanovul qiladi. Hindlarda oshxona muqaddas hisoblanadi. Ovqatni qo'l bilan yeydilar, qozon-tovoqlari asosan, misdan, to'ylarda ishlatiladigan sopol idishlar esa faqat bir marta ishlatilib, keyin tashlab yuboriladi. Don, suv va sut-qatiqlar uchun sopol idishlardan foydalaniladi.

Unni odatda qo'l tegirmonida, Himolay etaklarida suv tegirmonida chiqarilib, bug'doy, suli makka, arpa, ba'zan guruch unidan, Shimoli-Sharqiy Panjobda qorabug'doy (grechixa) unidan tandirda non (lavad) yopiladi. Non yopilish usuliga qarab turlicha ataladi: chapati, pxulka, rotla, bxakri, hamda qalin qilib tovada sariyog'da qovuriladigan yoki yupqasi (Gudjaratda) kxakra deb yuritiladi. Guruchdan tayyorlanadigan taomlar eng sevimli va keng tarqalgan ovqat hisoblanadi. Qand yoki shinni va yong'oq qo'shilgan shirguruch bayramlarda pishiriladigan tansiq taomdir, Pokiston va Shimoliy Hindistonda, ayniqsa, musulmonlar orasida keng tarqalgan sevimli taom palov (pulou) va shavla (biryoni). Hind palovi qo'y go'shti, tovuq, baliq, sabzi va no'xatdan, har xil ziravor qo'shilib pishiriladi, guruchi alohida yog'da qovurib olinadi, shavlasida esa aksincha guruchni ivitib masallig'i bilan birga damlanadi. Shavlaga odatda yong'oq, mayiz, qovurilgan piyoz qo'shiladi. Induistlar, ayniqsa, jayna mazhabidagilar faqat vegeterian taomlarni iste'mol qiladilar. Hind musulmonlari cho'chqa va mol go'shtini iste'mol qilmaydi, asosan, qo'y go'shti va parranda ishlatiladi. Pokiston, Shimoliy Hindiston va Bangladeshda har xil go'shtli taomlar, ayniqsa, kaboblar (sich kabob, kufta, shabdeg) tayyorlanadi. Bengallar, tamil va boshqa dravid xalqlarida baliqdan turli taomlar tayyorlanadi. Shri-Lankada ham baliqni har xil turshak va achchiq ziravorlar, piyoz va sarimsoq bilan pishirib iste'mol qiladilar, singallar ham go'shtni (ko'proq mol go'shtini, kamroq qo'y va echki go'shtini) qovurib, qaynatib turli o'tlar, qalampir va sirka bilan iste'mol qiladilar. Shri-Lankada ham eng sevimli taomlar guruchdan jekfrut mevasi bilan pishiriladi. Tovuuq go'shti ham eng obro'li taom hisoblanadi. Ammo barcha go'sht, baliq, tovuq va sabzavotga guruch qo'shib tortiladi. Taomlar bilan bog'liq har xil diniy xarakterdagi irimlar ham mavjud. Janubiy Osiyoda ochlik va qashshoqlik oqibatida

har xil kasalliklar ko'p tarqalgan. Shu o'rinda aytish lozimki Janubiy Osiyo xalqlarida savodxonlik darajasi nihoyatda past. Masalan, hozir ham Pokistonda 82 foiz aholi savodsiz, 50 foiz maktab yoshidagi bolalar o'qimaydi. Bangladeshda 80 foizdan ortiq kishi o'qish-yozishni bilmaydi. Bunga qaramay Janubiy Osiyo xalqlarining yaratgan dabdabali go'zal monumental arxitektura, dekorativ haykaltaroshlik, mohir o'ymakorlik, tasviriy san'at kabi san'at namunalari jahon madaniyatiga qo'shilgan ulkan hissasidir. Bu yerda o'zlarining qadimiy yozuvlari asosida aniq fanlar, falsafa va adabiyot yaxshi rivojlangan, noyob xalq og'zaki ijodi asarlari, teatr, musiqa va xoreografiya san'ati yuksak mavqega ega.

Uzoq asrlar davomida janubiy osiyoliklarning siyosiy xo'jalik va madaniy yaqin munosabatlari o'ziga xos umumiy ma'naviy madaniyatni yuzaga keltirgan, umumiy xalq ijodiyoti namunalari yaratilgan. Masalan, qadimiy hindilarning muqaddas yozuvlari, vedda gimnlari, buddizm adabiyoti, «Mahabhorat» va «Ramayana» kabi epik asarlar, hikoyalar to'plami, ertaklari va «Panchatantra» masallari, «Katakali» nomli teatrlashtirilgan tomoshalari, jozibador kuylari va xoreografik raqslari butun Sharqiy Osiyo xalqlarining umumiy ma'naviy boyliklaridir. Ularning kundalik hayotini qo'shiq va raqssiz tasavvur qilish qiyin. Barcha bayramlar, marosimlar, to'ylar va ko'p mehnat faoliyati kuy, qo'shiq va raqslar bilan nishonlanadi, qo'g'irchoq teatri, fokuschilar va masxarabozlar o'z san'atlarini namoyish qiladilar. Hozirgacha o'rta asrlarda yaratilgan mo'jizali Tojmahal maqbarasi, afsonaviy naqshlar va haykallarga boy Banoras ibodatxonalari va boshqa arxitektura namunalari, Ajanta g'or ibodatxonalaridagi rasmlar, turli rivoyatlarini aks ettirgan haykallar va o'yma naqshlar kishini hayratda qoldiradi. Xalq tabobati va farmokologiyasi yaratgan davolash usullari va dori-darmonlar, yog ta'limoti va boshqa xalq aql-zakovati yaratgan ijobiy tajribalar jahonga mashhur.

Janubiy Osiyo xalqlarining diniy tasavvurlari turlicha. Bu yerda eng yirik dinlar induizm, islom va buddizmdir. Masalan, Hindistonda aholining 83 foizi induistlar, 11 foizi musulmonlar, 3 foizga yaqini nasroniylar, 2 foiz sikxalar, 1 foiz buddistlar va jaynistlar. Nepal aholisining ham ko'pchiligi induistlar (89 foizi). Pokistonda musulmonlar butun aholining 97 foizini, Bangladeshda esa 80 foizini, induistlar 18 foizini tashkil qiladi. Shri-Lanka aholisining 66 foizi

buddistlar, 19 foizi induistlar, 8 foizi nasroniylar va 7 foizi musulmonlar. Eng qadimiy ariy qabilalari zamonida paydo bo'lgan induizm dini politeistik xarakterga ega, uning hozirgacha mashhur xudolaridan Vishna va Shivaga sig'inish butun Janubiy Osiyoda saqlangan. Ayrim qabilaviy diniy e'tiqodlar ibtidoiy elatlarda saqlangan bo'lsa-da, ularda yirik dinlar (induizm, buddizm, islom, nasroniylar) ta'siri ancha kuchli.

Hindiston – buddizmning vatani. U mil. av. VI asrlarda quldorlik jamiyatida keng mehnatkash ommaning kasta tuzumiga, shafqatsiz jabr-zulmga qarshi tenglik g'oyasini ko'tarib chiqqan diniy e'tiqod sifatida paydo bo'lgan edi. Buddizm qo'shni mamlakatlarga (ayniqsa, Nepal va Shri-Lankaga) tez tarqalgan, unga yaqin jaynizm Hindistonning Markaziy va G'arbiy hududlarida hukmron bo'lgan. Ariy qabilalarining paydo bo'lishi va uzoq davr mobaynida ularning diniy e'tiqodlari mahalliy ibodat va e'tiqodlar bilan aralashib induizmni yuzaga keltirgan edi. Induizm ta'limotida ko'p xudolik va «abadul-abad» yaratilgan kasta tuzumini ilohiylashtiruvchi g'oyalar o'z ifodasini topgan. Induistlar o'z kastasiga itoat qiladilar. Bu ta'limot umumiy tenglikni e'lon qilgan buddizmni vatanidan siqib chiqaradi. O'rta asrlarning oxirlari (XVI–XVII asrlar)da induizm elementlari, islom va boshqa dinlar aralashmasidan yakka xudolik diniy ta'limot (sikkizm) yuzaga keladi va u asosan, Panjobda hukmron din bo'lib taniladi. Sikkalar kastalik tartibi, darveshlik va xudo tasvirlarini inkor qiladilar.

Janubiy Osiyo xalqlarining etnik qiyofasini so'nggi davrlarga cha qabilaviy tuzum tartiblarini saqlab kelgan elatlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ular o'ziga xos maishiy turmush va madaniy xususiyatlari, ijtimoiy tuzum tartiblari va xo'jalik faoliyatini saqlab kelganlar. Bu etnoslar eng ko'p sonli santallar (4,4 mln.kishi), gondalar (2,7 mln.), mundalar (1,4 mln.) bilan birga bir necha ming kishilik mayda guruhlar (Shimoli-sharqiy Hindistondagi nega va kxasi, Janubdagi kurumba, to'da, badaga, chenchu, Bixar shtatidagi bxil, Nepaldagi magara, gurunga, Shri-Lankadagi veddalar qo'shni orollardagi andamanlar va nikabo'rlar)dan iborat. Mazkur elatlar yaqin davrlargacha ibtidoiy dehqonchilik, ovchilik, terib-termachilik, baliqchilik bilan shug'ullanib kelganlar. Urug'-jamoalar dehqonchiligi bilan shug'ullanuvchi nega, kxasi kabi elatlar qabilalarga birikkan. Ovchi-terimchi guruhlar ham qabilaviy tuzum tartibida muayyan hududlarda daydib kun kechirganlar. Ular har xil yemishli o'simlik

va ildizlarni terib-termachlaganlar, mayda hayvonlarga o'q-yoy yoki pufak qurol bilan (muduvarlar) ov qiladilar. Veddalarda o'ziga xos S – shaklidagi katta o'q-yoy bo'lgan. Cheorva, to'da, kurumba qabilalari yirik shoxli mol – qo'tos va qisman qo'y boqqanlar. Baliq ovida sanchqi va nayza ishlatilgan. Vedda va andamandalarda terim-termachilik bilan ayollar va bolalar, ovchilik va asal yig'ish bilan erkaklar shug'ullangan.

Mazkur qabilalarning turar joylari har xil. Masalan, santalarning qishloqlari bir necha uydan to yirik ko'p uyli makonlardan iborat bo'lib, aholi ko'cha bo'ylab bambuk va butalardan tiklanib loy bilan urilgan uylarda istiqomat qiladi. Uylari yog'och karavot, sopol va mis idishlar bilan jihozlangan. Kxasilar tosh va yog'ochdan tiklangan somon tomli kichkina kulbalarda yashaydilar. Tog' etaklari va vodiylarda joylashgan nega qabilalari tevaragi devorlar bilan o'ralgan to'p-to'p uyli qishloqlarda istiqomat qiladi. O'rmon veddalari esa omonat chaylalar tiklaganlar, andamanlarda butun urug' guruhiga mo'ljallangan katta uylar mavjud. Barcha qabilalarning kiyimlari hindilarnikidan farq qilmaydi, asosan, erkaklari dxoti va salla, ayollari sari kiyadilar. Faqat to'da o'ziga plash shaklidagi kiyim, veddalar ilgari yog'och po'stlog'idan, hozir esa matodan etakcha yoki yubka kiyadilar.

Oila va nikoh munosabatlari ibtidoiy tuzumga asoslangan, yoshlarda initsiatsiya marosimlari, qabilalarda ajdodlar ibodati saqlanib kelmoqda. Arvohlarga, shamol, momaqaldiriq, quyosh, oy, qoya va buloqlarga sig'inish, ayrim qabilalarda totemistik tasavvurlar muhim rol o'ynaydi. Diniy marosimlarda, oilaviy va qabilaviy bayramlarda kuy va raqslar ijro etiladi. Xalq og'zaki ijodi ham ancha rivojlangan.

§4. JANUBI-SHARQIY OSIYO XALQLARI

Yevroosiyo qit'asining janubi-sharqiy qismidagi Hindixitoy yarim orolida va qo'shni Malayya arxipelagi orollarida o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan turli elatlar yashaydi. Taxminan 4,6 mln. km² hududda bir necha yirik mustaqil davlatlar joylashgan. Uning aholisi 324 mln.dan ortiq. Eng katta yarim orol (jahonda maydoni jihatdan uchinchi o'rinda) hisoblangan Hindixitoydagi Vetnam (53 mln.), Laos (3,7 mln.), Kambodja Xalq Respublikasi (4,5 mln.), Birma (32,6 mln.) va Tailand qirolligi (46 mln.) joylashgan. 15 ming-

dan ortiq orollardan tashkil topgan Malayya arxipelagida esa katta hududni egallagan Indoneziya (148 mln.) va Filippin (45 mln.) respublikalari, Malayziya Federatsiyasi (13,5 mln.), Singapur Respublikasi (2,4 mln.) kabi davlatlar mavjud.

Janubi-sharqiy Osiyoning materik va orol qismlari tabiati va iqlimi jihatdan bir oz farq qiladi. Uning ko'p qismi namli tropik bog'lamadagi ekvatorial va subekvatorial (musson) iqlimli, tog'li qismi esa bir oz qurg'oq iqlimlidir. Kontinental qismida Mekonga, Menama, Irovadi, Soluen kabi daryolar, orollarda juda mayda daryolar, ko'llar va botqoqliklar mavjud. Ko'p daryolar, ayniqsa, sersuvli Mekonga daryosi bir necha mamlakatlarni bosib o'tib juda ko'p tarmoqlari bilan (uzunligi 4500 km) dehqonchilikda hayot manbasi bo'libgina qolmay, muhim o'zaro aloqa yo'li va katta gidroenergetika zaxirasiga ham ega. Malayya arxipelagi orollarida ham transport va irrigatsion ahamiyatga ega bo'lgan bir necha sersuv daryolar mavjud. Region ko'pgina qazilma boyliklarga ega: neft, qo'rg'oshin, volfram, xromit, uran va boshqalar. Janubi-sharqiy Osiyo hozirgi davrda xromit va qo'rg'oshin qazib olishda jahonda peshqadamlardan hisoblanadi. Ammo haligacha ko'p mineral boyliklar o'rganilmay yer bag'rida xazina bo'lib saqlanmoqda. Faqat Kalimantan sohillarida va Sumatrada endigina yirik neft quduqlari ochilgan. Vetnamda katta ko'mir koni topilib ishga tusha boshladi.

Hindixitoy va Malayya arxipelagi jahonda eng ko'p turli o'simlik dunyosiga ega. Masalan, birgina Kalimantan orolida 11 mingdan ortiq gullaydigan o'simlik turlari (qiyos qilib olinganda butun Afrika qit'asida atigi 13 ming turi bor) mavjud. Abadiy yashil o'rmonzor va butazorlar mintaqaning eng katta boyligidir. Mangrovo o'simliklarining ayrim turlari balandligi 30 metrgacha yetadi, ba'zi past bo'yli palma daraxtlar uzunligi 5,5 metrgacha yetadigan yaproqqa ega, ayrim mana o'simliklarining uzunligi esa 200-300 metr keladi. Tropik xazonrezlik o'rmonlar ham ancha yerni egallaydi (ayniqsa, Birma, Tailand va Hindixitoy yarim orolining sharqiy qismi). Malayya arxipelagining sharqiy orollarida evkalipt o'rmonlari, ayniqsa, bambuk ko'p o'sadi (bu yerda yuzga yaqin bambuk turlari ma'lum). Bir vaqtlar butun Janubi-sharqiy Osiyo hududining yarmidan ko'p qismini egallagan o'rmonzorlarda qimmatbaho daraxt turlari ko'p o'sgan (masalan, muhim xo'jalik ahamiyatiga ega turlaridan temir, qora, qizil, sandal, eben, kamfora,

tik kabi daraxtlar). Hozirgi paytga kelib bunday o'rmonlar ancha kamayib qolgan.

Turli o'simliklarga boy o'rmonzorlarda o'ziga xos hayvonot dunyosi ham yaratgan. Bu yerda sutemizuvchilardan maymunlarning har xil turlari (orangutan kabi yirik odamsimon maymunlardan tortib yarim maymun hisoblangan lemurg va boshqa mayda turlari ko'p), qisman fil, yo'lbars, karkidon, tapir; har xil ilonlar, toshbaqa, timsohlar uchraydi. Ayniqsa, rang-barang qushlar va kapalaklarning turlari ko'p. Tinch va Hind okeani suvlari bilan har tomondan yuvilib turgan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining sohil bo'ylari nihoyatda baliqqa boy. Baliq va dengiz mahsulotlari mahalliy aholining taomida muhim o'rinni egallaydi.

Tabiiyki, bunday o'lkalar qadimdan mustamlakachilarning diqqatini doimo o'ziga jalb qilib kelgan. Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarini bosib olib boylik orttirish manbaiga aylantirishni yirik davlatlar mustamlakachilari orzu qilib kelgan. Oqibatda XVI–XIX asrlar mobaynida butun mintaqa yirik kapitalistik mamlakatlar tomonidan mustamlaka qilingan.

Tarixiy-geografik jihatdan ham Janubi-sharqiy Osiyo o'ziga xosdir. Hali to'liq o'rganilmagan bo'lsa-da, mezolit davridayoq bu yerda muayyan madaniy birlik paydo bo'lgan. O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, Tailandning tog' vodiylari (arvohlar g'ori)da mil.avv. IX–VIII ming yilliklarda ilk dehqonchilik xo'jaligi bo'lganligi aniqlandi. Odamlar tog' vodiylarini, dengiz sohillaridagi tekislikni sholikorlik dehqonchiligi uchun qulay bilib, u yerlarni egallay boshlaganlar. Bunday xo'jaliklar dastlab neolit davridayoq qit'aning sharqiy qismida paydo bo'ladi, birinchi marta sholikorlik madaniyati qit'ada tay va avstroneziya xalqlari tomonidan egallangan va qo'shni o'lkalarga ham tarqalgan. Sug'orishga asoslangan qo'shli omoch dehqonchiligi eramizning boshlariga kelib butun mintaqada tarqalgan. Bronza tishli omoch asli dongshon nomli madaniyat (mil. avv. VIII–VII asrlar) obidalarida topilgan. Hozirgi moddiy va ma'naviy madaniyat xususiyatlari ham o'sha davrlardan shakllana boshlagan va hozirgacha o'z xususiyatlarini asosan, saqlab qolgan.

Antropologik jihatdan Janubi-sharqiy Osiyo xalqlarining deyarli hammasi mongoloid tipidagi Janubiy Osiyo kichik irqiga oid. Paleoantropologik ma'lumotlarga qaraganda paleolit va mezolit

davrlarida mahalliy aholining bir qismi avstroloid guruhini tashkil qilgan yoki o'ziga xos aralashma tipidan iborat bo'lgan. Shuning uchun ham hozirgacha Janubi-sharqiy Osiyo aholisining etnik qiyofasi ancha murakkab.

Qit'a qismida yashovchi eng katta etnos – vetnamlik (vet)lar 40 mln.dan ortiq kishidan iborat. Tili va madaniyati jihatidan ularga yaqin bo'lgan mianglar respublikaning turli vohalarida joylashgan. Vetlarning g'arbi, butun Hindixitoy yarim orolida tay tilida so'zlashadigan xalqlarining katta guruhi yashaydi. Shulardan eng ko'p sonlilari kxontanlar yoki Tailand siamlari (21 mln.), lao (laoslik) va shan (birmalik) xalqlardir. Vetlar va taylarga irqiy, xo'jalik va madaniy belgilari bilan (taxminan 1 mln. kishi) myao-yao guruhiga oid xalqlar yaqin turadi. Bularning hammasi lingvistik jihatdan mon-kxmer til oilasiga kiradi. Asli kxmer tillarida Kambodjaning tub aholisi, Vetnam, Laos va Tailand kxmerlari, Birma va qisman Tailandda yashovchi mon (talain)lar, Malakkadagi senon va semanglar so'zlashadi. Xitoy-tibet til oilasiga oid katta til guruhining vakillaridan birmaliklar (23 mln.) va ularga yaqin koren, kaya, kachin va boshqa xalqlardir. Maxsus adabiyotda avstroneziya yoki malayya-polineziya til oilasiga kiritilgan avstroosiyo til guruhiga eng ko'p millatli Indoneziya xalqlari kiritilgan. So'nggi lingvistik ma'lumotlarga qaraganda bu yerda 300 dan ortiq tillar va 1000 ga yaqin shevalar mavjud bo'lib, shularning 96 foizi avstroneziya til oilasiga tegishli. Yavaliklar (60 mln.) sundlar, madurlar, minengkabau, bugi, makasara, filippinlardan tagal, ilok, bilok, visayya kabilar ham shu til oilasi vakillaridir. Til va millatlarning shakllanish jarayoni mustamlakachilik davrida bir oz sustlashgan bo'lsa-da, ammo har holda davom qilib kelgan.

Faqat XX asrning 40-50-yillaridan boshlab, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlaridan ko'pchiligi mustaqillikka erishgandan so'ng bu jarayon ancha kuchaydi. Yirik millatlar shakllana boshlab hozirgi etnik qiyofa paydo bo'ldi. Mintaqaning tub aholisidan tashqari kelgindi xalqlar ham anchagina qismni tashkil etadi. Masalan, turli mamlakatlardan kelib joylashib qolgan xitoylar (14 mln.ga yaqin), tamillar va boshqa dravid xalqlarining vakillari, bengalliklar va boshqa hindariy xalqlar, butun mintaqadagi mamlakatlarda tarqoq holda o'rnashgan 1,2 mln.dan ortiq Malayziya, Birma va singapur-

liklar va boshqalar. Bu yerlarga yevropaliklar juda kam darajada kirib kelganlar.

Qadimiy tarixiy davrlarda Osiyo qit'asi Avstraliya bilan birikkan bo'lib beshinchi qit'aga odam o'sha tabiiy ko'prik orqali ko'chib tarqagan. Mahalliy xalqlarning etnogenezi ham uzoq o'tmishdagi etnik guruhlarining migratsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Hindixitoy yarim orolida qadimiy davrlarda hozirgiga nisbatan mon-kxmer tilida so'zlashadigan qabilalar ko'proq bo'lgan. Indoneziya va Filippin orollarida negro-avstroloid xalqlar joylashgan bo'lib papuas va melaneziya tiplari bilan chatishib ketgan. Eramizning boshlarida shimoli va sharqiy tomondan ko'plab kela boshlagan mongoloid elatlar mon-kxmerni siqib chiqara boshlaydi va hozirgi vet, tay, lao va birma tillariga asos soladi. O'z navbatida, Malakka va Indoneziya orollarining aborigen aholisini qit'adan bir necha to'ldirida ko'chib kelgan mongoloid aralash qabilalar sohillardan ichki o'rmonzorlarga ko'chishga majbur qilgan. Yava va Sumatra orollariga eramizning boshlarida Janubiy Osiyodan kelib joylashgan kelgindilar mahalliy xalqlarning siyosiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan edi. Ular induizm va buddizm dinlari, yozuv va boshqa madaniy an'analarning keng tarqalishiga sabab bo'lgan. O'sha davrlardayoq bu yerda dastlabki davlatlar paydo bo'ladi, bu davlatlar o'rta asrlarga kelib ancha taraqqiy etadi va dehqonchilik, savdo, hunarmandchilik, fan va san'at ancha rivojlanadi. VII–VIII va ayniqsa, XIV asrlarda Indoneziya va Malayziyaga qisman Filippinga (moro xalqiga), Vetnam va Kambodja (tyamlar)ga islom dini tarqala boshlagan.

XVI asrdan boshlab Hindixitoyga dastlab portugaliyaliklar, keyin gollandlar va inglizlar keladi. XIX asrda Indoneziyaning ko'p qismi Gollandiyaning mustamlakasiga aylanadi: Malakka, Birma, Kalimantanning shimoliy qismini Angliya; Vetnam, Kampuchiya, Laosni esa Fransiya bosib oladi. Mustamlakachilik davrida missionerlar nasroniy dinini o'rnatishga intilib Filippin orollarida ma'lum darajada muvaffaqiyat ham qozonganlar.

Janubi-sharqiy Osiyoning serunum tuprog'i, namli va issiq iqlimi qadimiy davrlardan dehqonchilik xo'jaligini, ayniqsa, sholikorlikni keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Yuqorida qayd qilinganidek, sholikorlik bu yerda neolit davrida paydo bo'lib, dastlab uni tay va avstroneziya xalqlari egallagan. Endi sug'or-

ma omoch dehqonchiligi Janubi-sharqiy Osiyo aholisining asosiy mashg'uloti bo'lib, ular ko'p joyda yiliga ikki marta hosil oladilar. Ular sholidan tashqari dukkakli va ildizmevali ekinlar, makka, bog'dorchilik va sabzavot ekinlar yetishtiradilar. Texnik ekinlardan kauchuk va kofe daraxtlari, kokos palmasi ham ekiladi. Ishlab chiqarish qurollari deyarli bir xil: oddiy yog'och omoch va tishli mola bilan yerga ishlov beradilar, haydalgan yerga yog'och bilan kovlab urug' soladilar yoki tayyor ko'chat ekiladi, hosilni o'roq yoki pichoq bilan o'rib, xirmonni tayoq bilan yoki mol yuborib yanchadilar. Asosiy ekinlardan, masalan, Vetnamda, sholi, makka, kauchuk daraxti, ildizmevali ekinlar, choy va paxta ekiladi. Laosda qizil shilliq sholi, bog'dorchilik, sabzavotchilik, qisman chorvachilik va baliqchilik rivoj topgan. Birmada poliz ekinlari, bog'dorchilik qishloq xo'jaligining asosini tashkil qiladi, sholidan tashqari ba'zi joylarda choy, kofe daraxti, shakarqamish, kokos palmasi va banan ekiladi. Kambodjada sholikorlik bilan baliqchilik muhim soha bo'lsa-da, kauchuk kabi qimmatbaho daraxtlar ham yetishtiriladi. Indoneziya va Filippinda sholi, makka, loviya, baliq, sabzavot, meva, shakarqamish, kofe kabi ekinlar keng tarqalgan. Orollarida baliqchilik muhim rol o'ynaydi. Guruch, baliq, sabzavot, meva, o'simlik yog'i kabi mahsulotlar butun mahalliy aholining tirikchiligidir. Go'sht kam, asosan, bayramlarda iste'mol qilinadi, ko'proq parranda, nomusulmon aholi esa cho'chqa go'shtini iste'mol qiladi.

Ko'p joylarda chopqi dehqonchiligi hozirgacha saqlanib kelmoqda. Janubiy Osiyodagi singari bu yerda ham o'rmon va butazorlarni chopib, qurigandan keyin kuydirib kuliga urug' sepadilar. Urug'ni chopqi yoki tayoq bilan kovlab ko'milgan, ba'zi qabilalar esa (Kalimantandagi dayaklar va boshqalar) chuqurchalarga tashlab ketaverganlar. Shundan so'ng bu ekinga boshqa hech qanday ishlov berilmagan, oqibatda juda past hosil olingan. Kuydirilib ekiladigan dalalar ikki-uch yildan so'ng yangilangan. Ular qo'shimcha ovchilik, baliqchilik va terimchilik bilan ham shug'ullanganlar. Ayniqsa, ilon ovi ancha daromad keltirgan. Ilonni tutib, terisini ishlab qimmat bahoga sotganlar. Uy hunarmandchiligi ham ularga qo'shimcha daromad manbai bo'lgan.

XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida ko'p orollarning botqoq va tog'li joylarida daydi ovchi va terimchi guruhlar yashagan. Malakkadagi semangi va senonlar, Sumatradagi kubu va

qisman sakaya, Kalimantandagi punan va bukitlar, Filippindagi aeta va boshqa qabilalarning asosiy tirikchiligi tropik o'rmonlardagi yemishli o'simliklarni terib-termachlab, mayda hayvonlarni ovlashdan iborat bo'lgan. Nihoyatda og'ir sharoitda yashagan daydi qabilalar siyrak yemishli o'simlik va ildizmevalar va boshqa turli oziq-ovqat axtarib doimo harakatda bo'lganlar. Har bir guruh muayyan hududda ko'chib yurgan. Ular ovchilik va termachilikdan tashqari uy-ro'zg'or buyumlari, oddiy qurol, bezaklar, chipta va bo'yra ishlab chiqarish bilan ham shug'ullanganlar. Metallni va kulolchilikni bilmaganlar, ammo qo'shni xalqlardan savdo-sotiq orqali olganlar. Savdo-sotiq «gung» holatda o'tkazilgan, ya'ni daydi qabilalar o'z mahsulotlarini muayyan joyga qo'yib ketgan, qarama-qarshi guruh kelib, zarurini olib o'rniga o'z mahsulotini qoldirgan. Hozir bunday qabilalar kam saqlangan, ancha qismi o'troq turmush tarziga o'tib, chopqi dehqonchiligi bilan shug'ullana boshlagan.

Janubi-sharqiy Osiyo xalqlarining mustaqillikka erishishi ularning xo'jalik faoliyatida ham ancha erkinlik tug'dirdi. So'nggi yillarda o'tkazilgan bir necha agrar islohotlar va boshqa tadbirlar qishloq xo'jaligi rivojini ta'min etdi. Ayniqsa, Vetnam, Laos va Birmada o'tkazilgan agrar tadbirlar hosildorlikni bir necha baravarga ko'payishiga sabab bo'ldi.

Bugungi kunda ham ushbu mintaqa jahondagi plantatsion xo'jalikning eng rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda dunyoda tayyorlanadigan kokos yong'og'ining yarmi, kopraning 70 foiz, natural kauchukning deyarli o'ndan to'qqiz qismi ishlab chiqariladi. Kauchuk asosan, Malayziya va Indoneziyada yetishtiriladi. Jahon bozorida yog' palmasi, shakarqamish, choy, kofe, har xil ziravorlr muhim ahamiyatga ega. Aholining ko'p qismi plantatsiya xo'jaliklarida band, ular davlatga katta daromad keltiradi. Eksport mahsulotlari yirik plantatsiyalardan tashqari mayda xo'jaliklarda ham yetishtiriladi. Masalan, Malayziyada ishlab chiqariladigan kauchukning 50 foizini, Indoneziyada 70 foizdan ortig'ini mayda dehqon xo'jaliklari yetishtirib beradi.

Yaylovlar yetishmasligi tufayli Janubi-sharqiy Osiyoda chorvachilik sust rivojlangan. Ammo baliqchilik, dengiz xo'jaligi hozirgacha muhim soha hisoblanadi. Ushbu mamalakatlarda o'rmonchilik katta daromad beradigan xo'jalik tarmoqlaridan biri.

Masalan, Birma va Filippin eksport daromadining to'rtidan bir qismini yog'och mahsuloti egallaydi.

Hunarmandchilik hozirda ham keng tarqalgan. Vetnamda har xil mehnat qurollari, ro'zg'or buyumlari, gazlama, badiiy buyumlar, lak va zargarlik mahsulotlari ishlab chiqarish, chipta, yelpig'ich, shlapa to'qish kabi kasb-hunarlar qadimdan mashhur. Laos va Tailandda paxta va ipak gazlama, chipta buyumlar yasash, badiiy haykaltaroshlik ancha rivojlangan. Maxsus milliy mato – batik faqat Yavada zo'r mahorat bilan to'qiladi. Balida o'ymakorlik mashhur. Hozir chopqi dehqonchiligi xo'jaliklarida ishlatiladigan ko'p asbob-uskunalar, ro'zg'or buyumlari an'anaviy tarzda mayda hunarmandlar tomonidan yasaladi.

Dehqon xo'jaligidagi taomlar asosan, o'simlik mahsuloti (guruch, tariq, makkajo'xori, sabzavot)dan tayyorlanadi. Guruch turli usulda pishiriladi, katta idishlarga suzilib, qayla bilan tortiladi va qo'l bilan yeyiladi. Mintaqada go'sht kam iste'mol qilinadi. Hindixitoy aholisi it go'shti, baliqdan pishirilgan taomlarni iste'mol qiladi. Sut va sut mahsulotlari deyarli iste'mol qilinmaydi. Qishloqlar (Tailand)da qurbaqa, ko'rshapalak, ilon, qisqichbaqa, ipak qurti kabi jonivorlarni ham iste'mol qiladilar. Orolliklar ko'proq o'simlik, baliq, parranda va turli mevalarni iste'mol qiladilar. Nosvoyga o'xshash betelni kap otish keng tarqalgan¹⁴.

Janubi-sharqiy Osiyo xalqlarining uy-joylari, qishloq va qarorgohlari har xil. Ko'l, dengiz, daryo sohillarida joylashgan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi rejali qurilgan qishloqlarda yashaydilar. Hozirgacha aholining bir qismi suvdagi kemalarda istiqomat qiladilar. Tog'li joylarda yashovchi aholi atrofi bambuk yoki tikanli devor bilan o'ralgan kichkina qishloqlarda joylashgan. Ko'p xalqlarning uylari umumiy xarakterda bo'lib, bambuk va xurmo yog'ochlaridan tiklangan, turli yaproqlar bilan yopilgan va yerdan birmuncha ko'tarilgan poldan iborat. Betak, dayak kabi qabilalarda katta oila, ba'zan jamoa joylashadigan hashamatli uylar bo'lgan. Filippinda ilgari maxsus jamoaning kengash uylari qurilgan. Uylar asosan, polga to'shalgan chipta, devorlarga osilgan ro'zg'or buyumlari bilan jihozlangan. Shaharda yashovchi boy oilalarning uylarida zamonaviy mebellar ham bor. Tog' va botqoqlik

¹⁴ Этнография питания народов стран Зарубежной Азии.. — М.: «Наука». 1981.

o'rmonlarda daydi ovchi va terimchi qabilalar bambuk va xashaklardan tiklangan yengil uylarda yoki pono qo'yib istiqomat qiladilar.

Azaldan janubi-sharqiy osiyoliklarda o'rama kiyim keng tarqalgan. Masalan, ilgari Vetnamda belbog', keng shim, kalta kurtka yoki xalat erkaklarning an'anaviy kiyimi bo'lgan bo'lsa, hozir ko'pchilik yevropacha kiyimga o'tgan. Ayollar ko'kragi ochiq kofta, uzun ishton, qishda kurtka yoki xalat, boshiga somon shlapa, oyog'iga esa sandal kiyganlar. Laosliklar asosan, xitoycha kiyingan, kalta keng shim, kurtka va sandal, ayollari esa to'pig'idan qo'ltig'igacha mato bilan o'rab belbog' boylagan. Tailandliklar keng matoni belga o'rab, uchini butini orasidan o'tkazib ishtonga o'xshatib kiygan, birmaliklarning erkak va ayollari keng matoni yubka qilib o'ragan, ustiga yaxtak ko'ylak yoki kurtka kiygan, boshiga shlapa yoki qiyiqcha yopingan, oyog'iga teri sandal kiyishgan yoki umuman yalangoyoq yurganlar. O'rmonlarda yashovchi ovchi-terimchi qabilalar asosan, dub daraxtidan to'qilgan etakcha belbog' yoki yubka kiyganlar. Barcha xalqlarda turli bezaklar, ayniqsa, elatlarda esa tatuirovka qilish, tishni qoraga bo'yash kabi pardozlar bo'lgan.

Oilaviy turmush va ijtimoiy tuzumi jihatidan mazkur xalqlar har xil darajada turgan. Uzoq vaqtlar Hindixitoy va Indoneziyaning ko'p qismida patriarxal oila va turmush munosabatlari saqlanib kelgan. Ijtimoiy tuzumga va oilaviy turmushga din (buddizm, islom, nasroniy) zo'r ta'sir qilgan. Ayrim qoloq elatlar – ovchi-terimchi qabilalarda urug'-jamo'a munosabatlari hali ham mustahkam saqlangan. Ular ma'lum hududga ega bo'lib, urug'chilik hatto ona urug'i qoldiqlarini saqlab qolgan, ijtimoiy va oilaviy munosabatlarni qabila boshliqlari va jamoa boshqargan.

Janubi-sharqiy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati, san'ati va folklori juda boy. Ma'lumki, bu yerda o'rta asrlar-dayoq ma'rifat ancha taraqqiy qilgan, diniy va badiiy adabiyot tarqalgan. Ammo mustamlakachilik siyosati tufayli an'anaviy madaniyat inqirozga uchragan edi. Qadimdan Vetnamda har xil epik asarlar, musiqa, raqs va qo'shiqlar rivoj topgan. Tailandda har xil xalq teatrlari – imo teatri, qo'g'irchoq va niqob teatrlari tarqalgan. Kambodjada va Birmada balet juda mashhur, epos janriga asoslangan xalq tomoshalari va soya teatri (ayniqsa, Indoneziyada vayang-nurvo nomli) katta obro' qozongan.

An'anaviy xalq tabobati hozirgacha o'z ta'sirini yo'qotmagan: har xil tabiiy o't-o'lanlar bilan davolash, xalq xirurgiyasi usullari va boshqa tibbiy faoliyatga sehirgarlik bilan yondashuv mavjud.

Buddizm butun Hindixitoy yarim orolida eng keng tarqalgan diniy tasavvurdir. Birma aholisining 83 foizi, Kampuchiya va Laosda taxminan 90 foiz, Tailandda esa 94 foizini buddistlar tashkil etadi. Vetlarning ham ko'pchiligi buddizm diniga bo'ysunadi. Buddistlar bir necha mazhablarga bo'lingan (xinoyana, maxayana va bir necha mayda guruhlar). Maxayana bilan boshqa sharqiy dinlar va nasroniylikning aralashmasidan ikkita yirik sinkretik mazhablar paydo bo'lgan (kao-day va xoa-xao). Filippin aholisining 90 foizi nasroniy diniga o'tgan, ko'pchiligi (84 %) katoliklar. Indoneziyada islom dini hukmron, ya'ni aholisining 94 % i musulmon, 4 % i nasroniy, qolgani induistlar va buddistlardan iborat. Malayziyada ham ko'pchilik aholi musulmonlar, ammo konfutsiylik, buddizm, daosizm, induizm va nasroniy dinidagilar ham ancha qismni tashkil qiladi. G'arbiy Malayziyaning yarmidan ko'pi islom diniga itoat qilsa, sharqiy qismdagi aholisining ko'pchiligi mahalliy urug'-qabilaviy diniy tasavvurlarga ega. Ibtidoiy diniy e'tiqodlar qisman Birma (kachin, naga, china, lisu, karen, kaya, tog'li monlar), Tailand, Vetnam (tog'li tay, kxmer va monlar), Laos (tay, mon, myao, yao) va Sharqiy Timorda hozirgacha saqlangan. Sumatra, Kalimantan va Filippinning ayrim orollarida urug'-qabilaviy dinlar haligacha uchraydi.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, Janubi-sharqiy Osiyo xalqlari orasida hukmron bo'lgan eng yirik dinlarning barchasi mahalliy diniy e'tiqodlar, xalq urf-odatlar va milliy bayramlaridan keng foydalanib ularga diniy tus bergan. Masalan, butun mintaqada tarqalgan qishloq xo'jaligi bayram marosimlari, bahor faslida ajdaho shaklidagi kemalarda o'tkaziladigan poygalar, dehqonning yordamchisi sabr-toqatli va mehnatkash qo'tos obrazi, mard va topqir quyon sujeti (yo'lbars va timsohlar ustidan g'olib chiqadigan) diniy tasavvurlar bilan chatishib ketgan. Oilaviy va ijtimoiy bayramlar doimo turli taomlar, rang-barang kuy va raqslar, ommaviy tomoshalar bilan nishonlangan.

§-5. SHARQIY OSIYO XALQLARI

Osiyo qit'asining eng ko'p sonli xalqlari sharqiy qismida joylashgan. Juda keng hududni egallagan bu mintaqaga Xitoy, Mongoliya, Koreya va Yaponiya davlatlari kiradi. 1,5 milliardga yaqin aholiga ega bo'lgan Sharqiy Osiyoda 1985-yilgi statistik ma'lumotlarga qaraganda bir milliarddan ortiq xitoylar, 120 millionga yaqin yaponlar, 65 million koreyslar, 17,5 milliondan ortiq tayvanliklar, 3,6 millionga yaqin mo'g'ullar va boshqa elatlar yashaydi.

Mintaqaning tabiati va iqlimi rang-barang bo'lib, turli xo'jalik-madaniy tiplarning shakllanishiga sabab bo'lgan. Shimoliy qismi Sibirdagi qahraton sovuqli kontinental iqlimdan janubiy issiq tropik sohillargacha cho'zilgan bu katta hududda juda boy o'simlik va hayvonot dunyosi mavjud. Bepoyon qumlik, sahro va dashtlar, sovuq iqlimli tog'li va noyob vodiylarga ega. Markaziy qismi ham maxsus etnogeografik viloyatni tashkil qiladi. Bu yerda qadimiy davrlardan ural-oltoy til oilasiga oid mo'g'ullar va turkiy xalqlar (Sinszyan aholisi), xitoy-tibet tillaridagi tibetliklar va dunganlar yashaydi. Sharqiy Osiyo aholisi asosan, xitoy-tibet til oilasiga oid, yaponlar va koreyslar o'ziga xos til turkumini tashkil qiladi, qolgan mayda etnik guruhlar mon-kxmer, tay va boshqa til oilalarining vakillari. Antropologik jihatdan butun Sharqiy Osiyo xalqlari katta mongoloid irqning ayrim shoxobchalariga oid.

Sharqiy osiyoliklarning etnogenezi va etnik tarixi nihoyatda boy va murakkabdir. Kelib chiqishi ham har xil. Xitoylarning ajdodlari Xuanxe daryosi bo'ylarida yashagan deb faraz qilinadi. Keyingi yillarda o'tkazilgan antropologik, tarixiy-arxeologik tadqiqotlar va etnolingvistik ma'lumotlar Sharqiy Osiyo xalqlarining shakllanish tarixini umumiy tasavvur qilishga imkon beradi. Eramizdan avvalgi V–IV ming yilliklarda Sharqiy Osiyoda bir necha neolitik madaniy markazlar paydo bo'lgan. Hozirgi Xitoyning sharqiy sohillari (Szansu va Chjetszan provinsiyalari)da kashf etilgan Sinlyangan madaniyati keyinchalik «sharqiy» nomli etnoslarning paydo bo'lishiga zamin yaratgan. O'sha davrlarda Xuanxe daryosining bosh shoxobchasi Veykxe vodiysida mashhur Yanshao neolitik dehqonchilik madaniyati paydo bo'lib xitoy xalqining eng qadimiy ajdodlari asosini, bir qismi esa tibet-birma etnoslarining shakllanishiga sabab bo'lgan. Yanshaoiklar daryo

sohillarida yarim yerto'lalarda va ustunlarga o'rnatilgan sinch uylarda yashab, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar.

III ming yilliklarda sharqiy yanshaoliklar O'rta Xitoy tekisliklarida yashovchi janubiy qabilalar bilan aralashib ilk Xitoy tiliga asos solingan. Keyingi ming yillikda qadimiy xitoy qabilalari – sya va shan (in)lar yirik qabilaviy ittifoqlar tuzib dastlabki sinfiy jamiyatlar negizidagi ilk davlatlar (eng kuchligi shan, keyin chjou)ni yaratgan. Ular qo'shni turli irqdagi etnik guruhlar bilan yaqin aloqada bo'lganlar. Shan davrida iyeroglif tipida yozuv paydo bo'lgan, uning jez idishlari va folbinlar fol ochadigan maxsus suyaklar (folbin suyaklari)ga yozilgan namunalari bizgacha yetib kelgan. Keyinchalik bu yozuv qo'shni Koreya va Yaponiyaga tarqalgan.

Shunday qilib, mil.avv. I ming yillikning boshlariga kelib O'rta Xitoy tekisliklarida uzoq vaqt davom etgan qadimgi xitoy etnosining shakllanish jarayoni tugaydi va ular o'zlarini «xuasya» deb atay boshlaydilar. Qadimiy xitoylar etnik birligining paydo bo'lishi o'sha davrlarda Xuanxe va Yanszi daryolari vohalaridagi davlatlarning birlashishiga dastlabki turtki berdi. Oqibatda eramizdan avvalgi III asrlarga kelib markazlashgan Sin va Xan imperiyalari yuzaga kelgan. Janubiy Xitoyda qadimdan har xil qabilalar yashagan. Mil.avv. davrning so'nggi asrlarida xitoylar janubga harakat qilib, mahalliy qabilalarni asta-sekin xitoylashtira boshlaydi.

Yapon xalqining etnogenezi haligacha to'liq aniqlanmagan. Yapon tili, yuqorida qayd qilinganidek, mustaqil til turkumiga kirmaydi. Yaponlarning eng qadimgi madaniyati neolit davriga oid umumiy «dzemon» nomi bilan ma'lum bo'lib, kelgindi aholisi – aynlar — indoneziyalik va qit'adan kelgan koreyslar bilan aralashib murakkab etnik guruhni yuzaga keltirgan. Eramizning I asrlarida Yaponiyada jamoa – urug' tuzumi yemirila borib, sinflar paydo bo'ladi va VII asrda ilk davlat tashkil topadi. O'sha vaqtda Yaponiyaga Xitoyning ta'siri kuchli bo'lgan, yozuvi va madaniy belgilari ko'chib o'tgan. Asli yapon va koreys xalqlarining mustaqil millat sifatida shakllanishi VII-XII asrlarga to'g'ri keladi.

Koreyslarning ajdodlari miloddan avvalgi II ming yillikka kelib joylashgan. Ular Janubiy Manchjuriya, Shimoliy Xitoydan materik orqali va dengiz bo'ylab kelganlar. Eramizning boshlarida bir necha asrlar davomida har xil qabilalar o'zaro urush olib borganlar, dastlab, X asrda Choson davlati paydo bo'lib, KoRyo sulolasi hukmronligida

(mamlakatning nomi ham shu nom bilan bog'liq) birikkanlar. Ularga xitoylarning beqiyos ta'siri bo'lgan, yozuvni qabul qilib, shu asosda alifbo yaratganlar. XII asrlarda Xitoy bilan Koreya mo'g'ullar tomonidan talon-toraj qilingan. Urushlar mamlakatni ancha orqaga tashlagan. Faqat Yaponiya bu urushlarga aralashmay, o'zi Koreyaga yurishlar qilib turgan. 1948-yili Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, 1949-yili Xitoy Xalq respublikasi deb e'lon qilinadi. Yaponiya erkin bozor munosabatlari ustuvor bo'lgan mamlakatga aylanadi.

Mo'g'ullar bu mintaqada ancha keyin paydo bo'lgan. Ularning ajdodlari – kidonlar milodning I–II ming yilligi oralig'ida Markaziy Osiyoda o'z imperiyasini o'rnatgan va o'z ichiga hozirgi Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoyni qamrab olgan. Mo'g'ullarning etnogenezi-da mil.avv. I ming yillikda yashagan, xuni, syanbiy qabilalari ham ishtirok qilgan. XII asrlarda Mo'g'uliston cho'llarida tatar, nayman, merkit kabi yirik mo'g'ul qabilaviy ittifoqlari paydo bo'ladi. XIII asrlarda mazkur elat va qabilalar Temuchin (Chingizxon) boshchiligida birikib mo'g'ul xalqiga asos solinadi. XVII asrlarda mo'g'ullar manchjur-xitoy feodallariga bo'ysunadi va 1911-yillarda qahramonona kurashi natijasida ozod bo'ladi. XX asrning 20-yillarida eski tuzum yemiriladi, 1924-yilda esa Mo'g'uliston Xalq Respublikasi paydo bo'ladi.

XX asr boshlarida yaponlar millat sifatida shakllangan. Xitoy, Koreya va Mo'g'ulistonda etnik konsolidatsiya jarayoni faqat xalq inqiloblari g'alabasidan keyin boshlanadi va hozir ham davom etib kelmoqda.

Sharqiy Osiyo xalqlarining xo'jalik faoliyati va madaniyatining turli xilda bo'lishi uning geografik muhiti, tabiiy iqlim sharoiti bilan belgilanib, bir necha xildagi xo'jalik-madaniy tiplarni yuzaga keltirgan. Shu nuqtayi nazardan mintaqada tub farq qiladigan ikki geografik qutb – issiq (subtropik va qisman tropik) va mo'tadil iqlimli tabiatga xos xo'jalik-madaniy tiplar qadimiy davrdan shakllanib kelgan. Asli hozirgi davrda to'rtta yirik xo'jalik-madaniy tiplar mavjud ekanligi aniqlangan va ular o'zaro sotsial-iqtisodiy darajasi bilan farqlanadilar.

Eng qadimiy xo'jalik-madaniy tiplardan ovchi, baliqchi va terimchi guruhlar mezolit davrida paydo bo'lib, sof holatda saqlanmagan. Issiq iqlimli yerlarda uchraydigan o'rmon terimchilari va ovchilari Xitoy Xalq Respublikasida mon-kxmer xalqlarida qisman (kava, bandun, bulan) saqlangan. Shimoli-sharqiy vohalarda

yaqin davrgacha mo'tadil iqlimga oid terimchi va baliqchi elatlar (yapon aynlari) yashab kelgan. XXRda yashovchi tungus-manchjur xalqlari ba'zi piyoda tayga ovchilik-xo'jalik madaniy xususiyatlari-ni ham saqlab qolgan.

Ikkinchi xo'jalik-madaniy tiplar qo'l yoki chopqi dehqonchilik bilan bog'liq bo'lib, asosan, O'rta Xitoy tekisliklarida mil.avv. V ming yilliklarning oxirida paydo bo'lgan. Ular chumiza va tariq kabi qurg'oqchilikda o'sadigan ekin ekanlar, tosh yoki sopol pichoqlar yordamida ularni o'rib olganlar. Cho'chqa va it boqqan-lar (go'sht uchun), mazkur xo'jalik tipi an'analari hozirgacha Tayvan gaoshanlarida, Xaynandagi di, qisman myao va yao nomli elatlarda saqlangan. Ular ildizmevali ekinlar (taro, yams, shirin kartoshka) ekanlar, sholikorlikni bilganlar. Itszu va tibet xalqlarida baland tog'liqqa moslashgan qo'l dehqonchilik-xo'jalik madaniy tipi mavjud, ular asosan, arpa, suli va qorabug'doy (grechka) ekib kun ko'rganlar.

Temir mehnat qurollarining paydo bo'lishi mil.avv. I ming yillikning kelib uchinchi xo'jalik-madaniy tipi shudgor dehqon-chiligini dastlab Shimoliy Xitoyda yuzaga keltirgan edi. Keyin-chalik bu tip butun Xitoyga, Koreya va manchjurlarga tarqal-gan. Shudgor dehqonchilik xo'jaligining asosiy belgilari temir tishli omochga ho'kiz qo'shib yerni haydash, hosilni temir o'roq bilan o'rish, don ekinlaridan tashqari dukkakli ekinlar, paxta, rami, tut daraxtlari ekishdan iborat. Mintaqaning janubiy hududlardagi shudgor dehqonchiligida paxta, choy va yog' ekinlari keng tarqalgan. Janubiy tog'li xalqlar (tibet, nu, dulun, itszu)da og'ir keng tishli omoch ishlatilgan, qorabug'doy, suli va arpa ekanlar.

To'rtinchi xo'jalik manchjur xalqlarida tarqalgan. Bu tip asli miloddan avvalgi I ming yilliklarda hozirgi Mo'g'ulistonning mo'tadil iqlimli yerlarida paydo bo'lgan. Ular ko'chmanchi turmush tarziga ega bo'lib qo'y, yilqi, qisman yirik shoxli qoramol va tuya boqqanlar. Keyinchalik Tibet tog'larida ham qo'tos boquvchi ko'chmanchi-chorva elatlar paydo bo'ladi. Xitoyning shimoli-sharqiy qismida (Katta Xingan hududida) o'ziga xos tayga bug'uchiligi xo'jalik-madaniy tipi (orogon, evenk kabi etnik guruhlarda) diqqatga sazovor.

Xitoylarning asosiy mashg'uloti qadimdan dehqonchilik bo'lib, mil.avv. III ming yillikda yuzaga kelgan va yuqorida tilga olingan

yanshao madaniyati bilan bog'liq bo'lgan. Dastavval mahalliy aholi suli ekkan, keyin sholi eka boshlaganlar. Don ekinlaridan: gaolyan, dukkakli ekinlar, cho'miza, loviya ekiladi; choy plantatsiyalari, pillakashlik va ipak ishlab chiqarish uch ming yildan buyon ma'lum. Yerga ishlov berishda yog'och yoki temir tishli omochdan foydalanganlar, ekinni tishli temir o'roq bilan o'rib, molga tepkilatib yoki yog'och bilan yanchganlar. Qadimdan ekin ekadigan seyalkalar ham paydo bo'lgan. Ammo hosildor yer taqchil bo'lganligi uchun chopqidan ko'proq foydalanilgan. Irrigatsiya rivojlangan, dalalarni ariq tortib o'z oqimi bilan, ba'zan chig'ir o'rnatib sug'organlar.

Ularda chorvachilik dehqonchilikka qo'shimcha sifatda rivojlangan. Yirik shoxli mol, janubda buyvol (ho'kiz) ishchi kuchi sifatida, go'shtga esa cho'chqa, mayda shoxli mol, parranda ishlatilgan. Xitoyliklar qadimdan baliqchilik, dengiz karami, trepanga, molluska kabi mahsulotlardan yemish sifatida istifoda etganlar. Hunarmandchilik ham qadimdan taraqqiy topgan, ipak qog'oz, chinni, lak mahsulotlari, metall buyumlar yasash keng tarqalgan. Transport vositalari: yengil ikki g'ildirakli odam tortib yuradigan kolyaska – riksha, mol qo'shilgan yoki dastak arava; janubda, suv yo'llarida yelkanli qayiq (jo'nka) ishlatilgan. Xo'jalikda ishchi kuchi sifatida asosan, qo'tos va ho'kiz ishlatilgan.

Mo'g'ullar asrlar davomida chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Asosan qo'y, ot, tuya va qisman yirik shoxli mol boqqanlar. Har bir guruh aholi ma'lum bir yerda ko'chib yurgan. Eski jamoa tuzumi – xoton hozir yangicha ma'no mohiyatiga ega. Kooperativ tipda dehqonchilik paydo bo'lgan va hozir ancha rivojlangan, hatto xorijga don mahsulotlari sotilgan. Don ekinlardan bug'doy, arpa, suli ekiladi.

Qadimdan erkaklarning sevimli mashg'uloti ovchilik hisoblangan: tulki, bo'ri, yumronqoziq kabi hayvonlarga, ilgari jayron (dzeren)ga ov qilganlar. Hozir jayron ovi man qilingan. Mo'g'ullar metall, teri, yog'och buyumlari yasash, kigiz bosish va to'qimachilikni bilganlar.

Koreyslarning asosiy kasbi dehqonchilik. Ular asosan, bug'doy, sholi, arpa, gaolyan, loviya va yog' ekinlari, kartoshka va batat ekadilar. Texnik ekinlardan paxta, tamaki, jenshen va tut daraxti o'stiradilar. Chorva kam rivojlangan, asosan, cho'chqa, yirik shoxli

mol (ishchi kuchi sifatida), parranda, go'sht uchun it parvarish qilinadi. Baliqchilik katta rol o'ynaydi.

Iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etgan Yaponiyaning yarim aholisi qishloq xo'jaligida band. Asosiy ekin – sholi, ammo arpa, bug'doy, loviya, batat, har xil sabzavot, bog'dorchilik, gulchilik, pillachilik ham ancha rivojlangan. Irrigatsiya, ximizatsiya, texnikadan keng foydalaniladi. Xokkaydo orolida ot, yirik shoxli mol, cho'chqa boqiladi. Baliqchilik eng yirik xo'jalik hisoblanadi. Bu soha jahonda birinchi o'rinda turadi. Baliq va molluska taomga ishlatiladi. Yaponiyada marvarid ovlash kasbi rivojlangan. U bilan asosan, xotinlar shug'ullanadi. Somon shlapalar to'qish, yog'och buyumlar yasash, umuman badiiy hunarmandchilik nihoyatda rivojlangan.

Sharqiy Osiyo xalqlarining moddiy madaniyat xususiyatlari ularning xo'jalik-madaniy tiplari bilan bevosita bog'liqdir. O'troq dehqon aholisining turmush tarzi doimiy bir joyda tiklangan qishloq uylarida o'tsa, ko'chmanchi chorvador xalqlar esa ko'chib yurishga qulay bo'lgan o'tovlarda istiqomat qilishadi. Xo'jalik faoliyati va tabiiy geografik sharoitiga qarab uy qurish xomashyolari va shaklida farq bor.

Mo'tadil iqlimdagi qo'l (chopqi) dehqonchiligi bilan shug'ullanuvchi xalqlarda dastlab yarim yerto'lalar, keyinchalik loydan qurilgan uylar, namli issiq iqlimdagi aholisida yerdan ko'tarilgan polli ustunlarga o'rnatilgan uylar xarakterli. Eng ko'p tarqalgan ustunli sinch uylar xitoy, koreys, yapon, tay va mon-kxmer xalqlariga xos bo'lsa, xomg'isht va toshdan qurilgan uylar sinszyan uyg'urlari, tibet va itszu xalqlarida ko'p uchraydi. Ustunli uylarda loydan qurilgan o'choq, ko'pchilik qismida (yapon va xitoylarda) doimiy o'choq o'rniga manqal ishlatiladi, shimoldagi xitoylar va koreyslarning uylari maxsus mo'rili supa (kan) bilan qizitiladi. Baland tog'larda yashovchi ko'chmanchi chorva elatlarning uylari asosan, kigiz yoki jun mato bilan qoplangan chodirdan iborat. Ko'pchilik chorvador ko'chmanchi aholi yig'ma yog'och sinchlardan qurilgan va kigiz bilan yopilgan o'tovlarda yashaydi.

Masalan, xitoylarning uylari yog'ochdan 2-3 xonalik sinch qilib, orasiga xom yoki pishgan g'isht terilgan, tomi va devorlari somon va yaproq bilan yopilgan. Odatda yog'langan qog'oz yopishtirilgan bir-ikkita oyna qo'yilgan. Xitoylarning qishloq uylari fanza

deb ataladi. Xona o'rtasida kichkina devorlari doim isib turadigan o'choqqa qozon qo'yiladi. Asosiy ro'zg'or buyumlari yog'och yoki sopol idishlar, stol, yotib-turish uchun bo'yra (ko'rpa-to'shak o'rnida)dan iborat. Qishloqlar asosan, yo'l va suv bo'yida joylashgan.

Koreys uylari tabiiy sharoitiga qarab turli xilda: tog'li yerlarda to'p uylar, vohalarda to'g'ri ko'chali uylar qurilgan. Sinch ustunli uylar kam uchraydi. Tog'li joylarda yog'ochdan, vohada toshdan yoki guvaladan qurilgan 2-3 xonali uylarning oyna, eshiklari romli, qog'oz bilan bekitilgan. Ko'p uylarda isitiladigan supa (kan), o'tirib-turish va yotish uchun polda chipta to'shalgan, faqat ovqat vaqtida stol kiritiladi. Uy-ro'zg'or buyumlaridan sopol, yog'och, mis idishlar mavjud. Kiyimlar sandiqda saqlanadi.

Yaponiya shaharlari zamonaviy shaklda qurilgan. Ammo zilzilaga bardosh beradigan sinch uylar shahar va qishloqlarda ko'p. An'anaviy uylarning poli odatda yerdan ko'tarilgan ustunlarga qoqiladi. Ichki tuzilishi bambukli ko'chma devorlardan qurilgan bo'lib, zarur vaqtda kengaytirilgan (ya'ni devorlari har tomonga suriladi) xonalari har xil rasmlar bilan bezatiladi. Mebel deyarli yo'q, idishlar taxmonlarga joylanadi, uyning bir qismini qog'oz bezaklar, yog'och o'ymakorligi bezaydi. Yevropa madaniyatining ta'siri kuchli bo'lsa-da yaponlar milliy an'analarga qat'iy amal qilib kelmoqdalar.

Yaponlarning kiyimlari ham xo'jalik-madaniy xususiyatlariga qarab belgilanadi. Masalan, otga minishga qulay bo'lgan oddiy shimni ko'chmanchi chorva xalqlari kashf etgan va keyinchalik butun o'troq aholiga tarqalgan. Sharqiy Osiyo ko'chmanchilarining kiyimlari – chakmon va po'stin, malaxay va baland teri yoki kigiz etik ham qo'shni o'troq aholiga o'tgan. Issiq iqlimli hududda yashovchi xalq erkaklarida etakcha belbog', ayollarida yubka bo'lgan. Ammo hozirgi barcha elat va xalqlar milliy kiyimlarini saqlab qolganlar.

Xitoy an'anaviy kiyimlarida erkak va ayollarniki kam farq qiladi. Ular asosan, keng shim (ishton), yaxtak ko'ylak (kofta) va yengsiz kamzul (kurtka) kiyadilar. Qishki kiyimi paxtali shim-kurtka va xalat, bosh kiyimlari esa teri qalpoq, yozda ro'mol yoki shlapadan iborat. Qo'shni koreys erkaklari ham keng shim, kurtka, yomg'irda plash, oyog'iga sandal, boshiga somon shlapa kiyadilar. Ayollari esa keng lozim, keng yubka, yaktaksimon kofta, oyog'iga to'qilgan yoki kigiz

sandal kiyib yuradilar. Qariyalari oq kiyim, yoshlari rang-barang matolardan tikilgan kiyimlar kiyadi. Mo'g'ullar ham keng shim, uzun xalat va teri etik kiyadilar. Qishda po'stin, malaxay, junli matodan tikilgan va to'qilgan kiyimlar keng tarqalgan.

Yapon erkak va ayollarining asosiy kiyimi uzun, keng yengli, belbog'li xalat (kimono)dan iborat. Ular ko'pincha boshyalang yuradilar, ba'zan dalada somon shlapa, oyog'iga yog'och tagchamli poyabzal (geta) yoki sandal kiyadilar. Faqat boy kishilargina teri poyabzal kiyadi. Butun Sharqiy Osiyoda hozirgi yevropacha kiyimlar keng tarqalgan. Milliy kiyimlar asosan, qishloqlarda, to'y marosimlari va bayramlarda ko'proq kiyiladi. Ammo eng taraqqiylashgan, industrial mamlakat hisoblangan Yaponiyada milliy kiyim ancha mustahkam saqlanib kelmoqda.

Sharqiy Osiyo xalqlarining taomlari o'troq dehqon aholisi bilan chorvador-ko'chmanchi xalqlarnikidan ancha farq qiladi. Ko'chmanchi aholi istiqomat qiladigan joylarda asosan, go'sht va sut mahsulotlari muhim o'rinni egallaydi. Mo'g'ullarning tasavvurida ot va qo'y «issiq damli» hayvonlar bo'lganligi sababli odamga ularning go'shti juda foydali sanaladi. Sutni xom holda hech vaqt iste'mol qilinmaydi, undan qatiq, qimiz, pishloq, yog' tayyorlanadi. Xitoyliklarning taomi asosan, guruch har xil donlardan yorma, turli sabzavotlar, baliq va molluskalardan iboratdir. Ularda eng sevimli ichimligi choy hisoblanib, u faqat issiq holda ichiladi. Xitoy taomi ikki komponentga bo'linadi: chjushi («asosiy taom») va fushi («ikkinchi darajali taom»). Chjushiga turli xamir taomlar (manti, ugra osh, chuchvara, varaqa, patir), guruch, suli va bug'doy yormasi, dukkakli ekinlardan pishiriladigan ovqatlar kiradi. Fushiga asosan, sabzavot, go'sht va baliqdan tayyorlanib, chjushiga garnir sifatida tortiladi. Fushiga ko'proq sabzavot ishlatiladi. Mol, cho'chqa go'shtlari, janubda it (o'rta asrlarda it go'shtidan tayyorlangan taom butun Xitoyda eng sevimli hisoblangan) va qurbaqa go'shti keng iste'mol qilinadi. Janubiy Xitoyda baliq va dengiz mahsulotlaridan turli taomlar tayyorlanadi, shuningdek tovuq va o'rdak go'shtini tanovul qilish keng tarqalgan.

Yapon taomining asosini guruch tashkil qiladi. Guruchni ko'proq hech nima qo'shmay (go'xan), tuzsiz qaynatib iste'mol qiladilar. Har xil ugra oshlar (bug'doy unidan – udon, qora bug'doy xamiridan – soba va hokazo) keng iste'molda bo'lib, u syusyoku, ya'ni «asosiy

taom» (xitoylardagi chjushi kabi) deb ataladi. Unga turli qo'shimcha taomlar (fukusyoku) beriladi (ayniqsa, o'tkir loviya souslari turp bilan aralashtirib). Baliq va boshqa dengiz hayvonlari (krab, dengiz tipratikani, molluska, kalmar, langust, trepanga, sakkizoyoq va hokazo)ni pishirib yeydilar. Mol, qo'y, cho'chqa, parranda va it go'shtidan turli qovurma taomlar tayyorlanadi. Ovqatga har xil ziravorlar, to'g'ralgan achchiq turp, sarimsoq, xantal, zanjabil va boshqa o'simliklar qo'shiladi. Yaponlar asosan, ko'k choy ichadilar, qora (qizil) choy faqat yevropaliklarning ta'sirida tarqalgan. XIX asrning o'rtalarigacha mol go'shti va sut mahsulotlarini iste'mol qilish gunoh hisoblangan.

Koreyslarda ham asrlar davomida asosiy taomi tuzsiz qaynatilgan guruch (pap) bo'lgan. Guruchni maxsus idishlarda past olovda pishirib damlaganlar. Mayda guruch (oqishoq), arpa, bug'doy, tariq, chumiza va makkadan atala pishiradilar. Guruch va bug'doy unidan manti va lag'monga o'xshash taom (kuksu) tayyorlanadi. Loviyaning ayrim turlaridan maxsus ziravorli qayla (chan yoki kanchan) guruchga va boshqa ovqatlarga qo'shib beriladi. Go'sht va baliqdan turli taomlar tayyorlanadi. Toza baliqni xom holidan ham iste'mol qiladilar (qalampir, sirka, loviya qaylasi va ziravorlar qo'shilgan xom baliq taomi xve deyiladi). Krab, molluska, trepanga, tipratikan go'shti dengiz suvida pishiriladi yoki yog'da qovuriladi. Sabzavotdan har xil taomlar va salat (chxe) tayyorlanadi, meva, yovvoyi o'tlar, ildizlar va daraxt gullari oziq-ovqatda muhim o'rinni egallaydi. Sevimli taomlardan biri it sho'rvasi (kechankuk). Bayramlarda cho'chqa, mol, it va parranda go'shtidan turli ovqat pishirilgan. An'anaviy taomlarga sut mahsuloti kirmagan. Choy ham ilgari uncha ichilmagan, uning o'rniga do'lana yaproq'i bilan zanjabilni damlab ichganlar.

Ko'chmanchi chorvador xalqlar (mo'g'ullar, tibetliklar, qirg'izlar)ning taomlari asosan, go'sht va sut mahsulotlaridan iborat. Yozda ko'proq sut mahsulotlari, xamir taomlari, qisman sabzavot va baliqdan tayyorlangan mahsulotlar qishga g'amlanadi, qishda esa ko'proq go'sht mahsulotlari, pishloqning har xil turlari, yog' va xamir ovqat iste'mol qilinadi. Go'sht, qovurilgan va xom holatda ham iste'mol qilinavergan. Mo'g'ullar va tibetliklar molning qonini ichganlar, ichak-chovog'idan turli taomlar, qazi, hasip tayyorlaganlar. Ayniqsa, qirg'izlarda molning qovurg'asidan tayyorlangan qazi

mashhur. Sigir, echki, qo'y sutidan uzoq saqlanadigan mahsulotlar (yog', qurt, pishloq, qatiq, suzma) tayyorlaganlar, tuya va qo'y suti choy bilan ichilgan, yilqi sutidan qimiz, tuya sutidan shubet tayyorlanadi. Sut va qimizdan tashqari quvvati 9⁰ dan 30⁰ gacha bo'lgan maxsus aroqlar ham tayyorlangan (mo'g'ullarda besh xil aroq turi mavjud: arxi, arz, xorz, sharz, dun).

Sharqiy Osiyo xalqlarining ko'pchiligida yaqin davrlargacha klan (patronomiya) tashkilotlarining qoldiqlari saqlangan bo'lib, u ijtimoiy ong va oilaviy turmushga zo'r ta'sir qilib kelgan. XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Xitoyda patronomiya va patriarxal tartiblari ijtimoiy va oilaviy munosabatlarni belgilab turgan. Qishloq jamoasi tuzumi patronim tashkilot («szunszu») an'analari qavmu qarindoshlar yer mulki, umumiy ajdodlar ibodati bilan xarakterli bo'lgan. Ko'pchilik «szunszu» shajara kitobiga ega. Har kishi muayyan «familiya» (sin)ga tegishli hisoblangan. Ularda ekzogam nikoh saqlangan: Sun familiyasidagi yigit Sun familiyasidagi qizni olishga haqqi yo'q. «Sin» urug' («shi»)larga bo'lingan (asli «shi» katta patriarxal oila tipi), oila boshlig'ining hukmi mustahkam, ayollar esa butunlay erkaklarga qaram bo'lgan. Nikoh yoshlikda o'tkazilgan. Ijtimoiy va oilaviy turmushga buddizm, daosizm, konfutsiylik dinlari, qisman tarqalgan islom va nasroniylik ta'sir qilgan. Shaxsiy (individual) ism tartibi koreys va yaponlarda ham mavjud bo'lib, asli urug' tuzumini aks ettirgan.

Yaponlarning ijtimoiy tuzumida kichik oila va monogam nikoh hukmron. Feodal-dvoryan tabaqalarining avlodlarida (samuraylar) da an'analari kuchli saqlangan. Hozirgacha ularning hayotida diniy e'tiqodlar va marosimlar keng o'rin olgan. Yaponlarda mahalliy animistik tasavvurlar va shamaniylik ibodati asosida ilk feodalizm davrida sintoizm paydo bo'lib, ularning milliy diniga aylangan va 1945-yilgacha yapon militarizmining ideologiyasi hisoblangan.

Hozirgi Xitoy Xalq Respublikasi ko'p millatli, unda xitoylardan tashqari juda ko'p mayda millatlar ham mavjud. Mayda millatlar ozchilikni (umumiy aholining 6,1 foizi) tashkil qilsa ham mamlakat hududining 60 foiziga yaqin qismini egallaydi. Masalan, eng yirik etnoslardan chjuan, bun, tay, itszu (yoki «i») janubda, asosan, tog'li hududlarda, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi yao-myao til turkumiga oid xalqlar (jami 4 mln.) joylashgan. Sinsyanda turkiy til turkumiga oid uyg'urlar (2,5 millionga yaqin), qozoqlar,

o'zbeklar, qirg'izlar yashaydi. Islom diniga o'tgan xitoylardan dunganlar (xuey) ham 4 milliondan ortiq. Ular antropologik tuzilishi va tili jihatdan xitoylarga yaqin. Uyg'urlarning asosiy kasbi dehqonchilik va hunarmandchilik. Shimoli-sharqiy Xitoyda manchjurlar joylashgan. Tungus-manchjur til turkumiga oid manchjurlar XVII asrda butun Xitoyni o'ziga bo'ysundirgan. Sin (manchjur) sulolasi 2,5 asr davomida to 1911-yilgi Xitoy inqilobiga hukmron bo'lgan. Hozir mazkur etnik guruhdan o'z tilini saqlaganini 2,9 millionni tashkil qiladi.

Tarixiy etnografik jihatdan o'ziga xos mintaqani yaratgan tibet xalqlari (4,2 millionga yaqin) Tibet va qo'shni viloyatlar (Yunnani, Gansu, Sinchuan)da yashaydilar. Ular asosan, dehqonchilik va chorvachilik (qo'tos, mayda shoxli mol, yilqi boqish) bilan shug'ullanadilar. Chorvador aholi yaylovlarda ko'chib yuradi, o'troq aholi esa qishloqlarda 1-2 qavatli, ba'zan 3 qavatli uylarda istiqomat qiladi. Ko'chmanchi xalq chodirlarda yashaydi.

Tibetlik erkak va ayollar teridan tikilgan shim va jun xalat kiyadilar. Ayollari bosh kiyimlariga har xil tangalar, chig'anoqlar qadaydilar. Ularning asosiy taomlari qo'tos go'shtidan pishiriladi va sut mahsulotlari iste'mol qilinadi, don ekinlaridan talqon (szamba) tayyorlanadi, bayramda guruch yoki bug'doy unidan non pishiriladi. Qo'tos transport vazifasini o'taydi. Tibetliklarning sevimli ichimligi choy. Unga eritilgan sariyog' va tuz solib szamba bilan ichadilar. Har xil hunarmandchilik kasblari – temir va yog'och buyumlar yasash, chit va gilam to'qish, o'ymakorlik (toshga, yog'ochga) keng tarqalgan.

Bu yerda hozirgacha feodal-patriarxal munosabatlar, teokratik boshqarish shakli saqlanib kelmoqda. Har bir tibet oilasi bir bolasini monax qilib monastirga berishi shart bo'lgan. Buddizmning asosiy tarmoqlaridan biri lamaizm hukmron din hisoblanadi. XVII asrda tibetda lamaizmning «sariq qalpoqliklar» mazhabi hokimiyatni qo'lga olib, 1951-yilgacha hukmronlik qilgan. So'nggi yillarda tibetliklarning sotsial-iqtisodiy va madaniy hayotida ancha o'zgarishlar ro'y berdi.

Butun Sharqiy Osiyoda xalq og'zaki ijodi tadrijiy rivojlanish bosqichlaridan o'tgan: har xil doston va ertaklar, afsona va latifalar, raqs va qo'shiqlar keng tarqalgan. O'ziga xos teatr, balet va sirk rivojlangan. Musiqa ham o'ziga xos bo'lib, masalan, Xitoyda musiqa tarbiyasi davlat ixtiyoridadir. Tasviriy san'at asrlardan-asrlarga

gurkirab o'sgan, rivojlangan, ayniqsa, rassomchilik, gravyura, ba-diyy to'qish, haykaltaroshlik qadimdan ma'lum bo'lib, me'morchilik va diniy inshootlarda o'zining yorqin ifodasini topgan. Hali-hanuz dostonlardagi qadimiy qahramonlik obrazlariga juda iliq munosabatda bo'linadi. Masalan, mo'g'ul va turkiy xalqlarning eposida kuylangan Geserxon yoki jasur bahodir Xon-Xulug bilan Oldoy-margan kurashlari va ular mingan ot obrazlari mil.avv. I ming yillikka oid «Hayvon stili»dagi dekorativ bezaklarda aks ettirilgan. Xitoy folklori («Uchpodsholik» turkumi), inszu («Ashma» dostoni) va boshqa xalqlarning ijodida qahramonhk kurashlari muhim o'rinni egallaydi. Eng qadimiy antologiya namunalari (xitoylarning «Shitszin» va «Yuefu», yaponlarning «Manyosyu» va «Kokinsyu» to'plamlari) xalq og'zaki ijodi yuksak darajaga ko'tarilganligidan darak beradi. Sharqiy osiyoliklarda xalq poetik ijodi bilan musiqa san'ati uzviy bog'langan. Hozirgacha keng tarqalgan myao xalqlaridagi boy marosim va sevgi qo'shiqlarini, muhabbat lirikasini musiqasiz tasavvur qilish qiyin.

Sharqiy Osiyo xalqlari eng qadimiy yozuv tizimini yaratganlar. Mil.avv. II ming yillikning boshlarida paydo bo'lgan xitoy iyeroglif yozuvi qo'shni mamlakatlarga tarqalib o'rta asrlarda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan (Yevropada lotin tili singari) muhim madaniy vosita rolini o'ynagan. Xitoy iyeroglif tizimi dastavval ma'noni ifodalovchi belgilardan iborat bo'lib, ancha yengil va tez tarqalishiga imkon bergan. Shu yozuv asosida vetnamlar, yaponlar va koreyslar o'z yozuv tizimlarini kashf etganlar. VI–IX asrlarda turkiy xalqlar runik, keyin uyg'ur alfavitidan foydalanganlar.

Sharqiy Osiyo xalqlarining madaniyatiga beqiyos zo'r ta'sir o'tkazgan dinlardan biri buddizm dinidir. U avval Xitoyga, keyin Yaponiya va Koreyaga eramizning birinchi asrlaridayoq tarqalgan. Nihoyatda yangi sharoitga tez moslashadigan buddizm dini mahalliy vaziyatga qarab o'zgarib, yangi, turli mazhablarni yaratgan. Barcha kelgindi dinlar, shu jumladan, buddizm ham, mahalliy diniy tasavvurlar bilan chatishib o'ziga xos sinkretik diniy e'tiqodlarni yuzaga keltirgan. Masalan, xitoy xalq tasavvurlarida buddizm e'tiqodi qadimiy konfutsiylik – axloq-etika ta'limotining belgilari va ko'p xudolik – daosizm g'oyalari bilan aralashib ketgan. Yaponiyada mahalliy zaminda yaratilgan sintoizm dini bilan buddizm ta'limoti qo'shib o'ziga xos diniy tasavvurlarni paydo qilgan. Ayrim tungus-manchjur xalqlarida,

qisman daxurlar va koreyslarda buddizm va daosizm bilan birga shamanizm ham keng tarqalgan. Tibet va mo'g'ul xalqlarida hozirgacha buddizm – lamaizm saqlanib kelmoqda. Xuey (dungan)larda va turkiy xalqlar (o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'izlar)da islom dini tarqalgan. Janubi-g'arbiy Xitoyda mahalliy qabilaviy dinlar ham saqlangan. Koreyslarda ham diniy e'tiqodlar va ibodatlar turli ibtidoiy tasavvurlar bilan aralashib ketgan. Bu yerda qadimgi tabiatga sig'inish va animistik tasavvurlar shamanizm belgilari bilan chatishib ketgan. Koreyaga IV–VI asrlarda kirib kelgan buddizm X asrda davlat diniga aylanadi. XIV asrga kelib konfutsiylik davlat dini deb e'lon qilinadi. Janubi Koreyada rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, aholining 73 foizi dindor (47 foizi buddist, 19 foizi konfutsiylik va hk.). Yaponiyada (1977-yili) aholining 77,7 foizi o'zini sintoist va 76,6 foizi buddist deb hisoblagan (ba'zilar ikki dinga ham yaqin turadi). Aynlar asosan, o'zlarining urug'-qabilaviy dinlarini saqlab qolganlar. XVI asrlarga kelib buddizmning lamaizm mazhabi eski dinlarni siqib chiqara boshlaydi. Aytish kerakki, Sharqiy Osiyo xalqlarining taqdirida diniy e'tiqodlar muhim rol o'ynamagan.

§-6. SHIMOLIY OSIYO YOKI SIBIR XALQLARI

Rossianing yarmidan ko'proq qismini egallab olgan Sibirning bepoyon dashtlari, tayga va o'rmonlarida qadimdan 30 dan oshiq turli elat va etnografik guruhlar yashaydi. Ular fanda xo'jalik, madaniy xususiyatlariga qarab bir necha tarixiy-etnografik mintaqalarga bo'lingan: Janubiy Sibirning o'rmon dasht qismi; G'arbiy Sibirning Tayga va Tundra bo'yi tomoni, Oltoy-Sayan qismi; Markaziy Sibir; Amur-Primore o'lkasi va Shimoli-sharqiy chekka qismi.

Son jihatdan nisbatan kam hisoblangan mahalliy Sibir xalqlari (umumiy aholisi hozir 25 milliondan ortiq bo'lsa-da, mahalliy tub elatlar taxminan bir milliondan ko'proq) juda katta hududda joylashgan. Masalan, 328 mingdan ortiq aholiga ega bo'lgan yoqutlarning avtonom respublikasining hozirgi hududda Fransiya hududiga nisbatan olti hissa katta, yoki buryat avtonom respublikasi tub aholisi soni 353 ming kishidan iborat bo'lib, egallagan hududi Buyuk Britaniyaga bir yarim baravar keladi.

Sibir xalqlari bir oz o'zini tiklab etno-iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy taraqqiyot yo'liga chiqdilar. Hozir Sibir va Uzoq Sharqda uchta avtonom respublika, uchta avtonom viloyat va to'qqizta avtonom okrug mavjud.

Xo'jalik-madaniy tavsifnomasi nuqtayi nazardan Sibirni ikkiga bo'lib turgan Yenisey daryosining janubida dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligi, o'rta va quyi Ob daryosi bo'ylarida ovchilik, eng shimoliy qismida Tundrada bug'uchilik, Yenisey va Lena daryolari o'rtaligida tayga bug'uchiligi va ovchilik xo'jaligi ajralib turadi. Sayan-Oltoy tayga tog'liklarida barcha mazkur xo'jaliklarni mujassamlashtirgan o'ziga xos etnografik dunyoni ko'rish mumkin. Amur-Primore hududida ham maxsus etnografik xususiyatlarga ega bo'lgan baliqchilik va ovchilik xo'jalik tipini uchratamiz. Chukotka-kamchatka hududida esa qadimiy «paleoosiyo» madaniyati bilan bog'liq maxsus ovchilik va bug'uchilik tipi diqqatga sazovor.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, Sibir qadimdan ruslarni o'ziga jalb qilib kelgan. Bu yerga XVI asrdan boshlab yangi yerlarni kashf etuvchi ruslar tomonidan yo'l ochib berilgan edi. Bir asr o'tmay Sibirga kelgan ruslarning soni 150 mingdan oshib ketgan va mahalliy tub aholi soniga yaqinlashgan. Hozirgi davrda Sibirda yashovchi 25 millionli aholining deyarli 90 foizi yoki o'ndan to'qqiz qismi ruslar (22mln.), ukrainlar (1mln.) va beloruslar (200 ming).

Lingvistik jihatdan Sibir xalqlari bir necha til oilasi va turkumlariga ega. Birinchi o'rinda eng ko'p sonli Oltoy til oilasiga kiradigan elat va xalqlar turadi. Ularni uch turkumga bo'lish mumkin: turkiy, mo'g'ul va tungus-manjur tillari. Eng katta turkiy til turkumiga oltoy-sayan xalqlari (oltoyliklar, tuvaliklar, xakaslar, sho'rlar, chulimlar, tufalar yoki qoragaslar), G'arbiy Sibir tatarlari (ishim va tobolliklar), Shimoliy Sibirdagi yoqutlar va do'lganlar kiradi. Mo'g'ul til turkumiga faqat buryatlar kiradi. Tungus-manjur tillarida evenk (tungus)lar va ularga yaqin even (lamut)lar, quyi Amurda va Ussuriy o'lkasida yashovchi nanay (gold)lar, ulchilar, o'ro'chi va udegeylar, Saxalindagi o'ro'kilar gapiradi. G'arbiy Sibirda yashovchi xanti-mansilar, samodiy xalqlari (nenes, enes va selkuplar) ural til oilasiga oid kam sonli elatlardir.

Eng qadimgi Osiyo xalqlariga (odatda «paleoosiyo» deb ataydilar) yuqorida tilga olingan turkumlarga kirmaydigan Shimoli-sharqiy Sibirda yashovchi itelmenlar, chukchilar, koryaklar, kalima

yukagirlari kiradi. Paleoosiyo til turkumiga Amur quyi oqimida va Saxalinda joylashgan nivxa (gilyak) anlarni ham kiritadilar. Markaziy Yeniseyda yashovchi ketlarni bir vaqtlar juda keng tarqalgan mustaqil Yenisey til oilasiga oid deyish mumkin. Qisman Chukotka va Vrangel orolida yashovchi eskimos va aleutlar o'ziga xos til oilasini tashkil qiladi.

Antropologik jihatdan Sibir xalqlari asosan, mongoloid irqiga oid. Ammo Yeniseyning g'arbida yashovchi aholida yevropoid irqining ta'siri sezilarli.

Sibir xalqlarining kelib chiqishi va shakllanish tarixi eng qadimgi davr – yuqori paleolitga borib taqaladi. Neolit davri (mil.avv. IV–II ming yilliklar)ga kelib ibtidoiy ovchi va baliqchi elatlar Amur, Yenisey, Lena va Ob kabi yirik daryo vohalarini, Kamchatka va Chukotkaning ichkari sohillarini ham egallab olganlar, hozirgacha yetib kelgan til turkumlari ildizi o'sha davrlarga borib taqaldi. Butun Sharqiy Sibirni Yeniseydan Oxot dengizigacha egallab olgan «paleoosiyoликlar» bir necha mustaqil etnolingvistik birikmalardan iborat edi. Ular o'z navbatida turli tilda gapiradigan mayda turkumlarga bo'lingan. Amur vohasining ancha qismini gilyaklar, Oxot dengizi sohillari va qisman Chukotkani koryak va chukchilarning ajdodlari, Kamchatka va Bering qirg'oqlarini eskimoslar, Ob va Yeniseyning yuqori oqimini ketlarga qardosh qabilalar, Yuqori Lena va Baykal bo'ylarini yukagirlar egallagan edi. Zauraleda, ya'ni Ob daryosining pastki va o'rta oqimlarida mil.avv. V–III ming yillikda ural til oilasiga oid ugor xalqlari (xanti-mansi) ham samodiylar joylashgan. Mazkur elatlar ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

Janubiy Sibir dashtlarida neolit davrida turli ovchi qabilalari daydib yurganlar. Mil.avv. III ming yilliklar bu yerda g'arbdan kelgan yevropoid tipidagi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi elatlar paydo bo'ladi. Keyingi ming yillikda Janubiy Sibirni andronov madaniyati tipidagi o'troq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi bronza davri elatlari egallaydi. Milod boshlarida bu yerga oltoy til oilasiga oid turkiy va tungus qabilalari bosib kiradi. Ehtimol, ular Sayan-Oltoy va Baykal bo'ylaridan kelgandir. Baykal atroflarida mo'g'ul tilidagi buryatlarning ajdodlari ham yashagan.

Milodning VI–X asrlarida qadimgi turkiy elatlar Ob va Yeniseyning yuqori qismidagi Baykal ko'li atrofida juda keng hududni

egallab olganlar. O'sha davrda evenklarning tungus ajdodlari Sharqiy Zabaykale, Amur vohasi va Markaziy Sibirga tarqalgan. Mo'g'ul istilosidan keyin bu yerdagi turkiy elatlarning bir qismi Lena daryosining o'rta oqimiga ko'chib mahalliy «paleoosiyo»lilar bilan aralashib yoqut xalqiga asos solgan. Mazkur murakkab etnik jarayon keyingi asrlarda ham qisman davom qilib kelgan. Uning mohiyatini to'liqroq tasavvur qilish uchun ayrim yirik xalqlarning etnogenezi va etnik tarixi ustida qisqacha to'xtab o'tish zarur.

Sibirning nisbatan eng ko'p sonli xalqlaridan yoqutlar (328 ming) qadimiy etnoslardan biri hisoblanadi. Ular o'zlarini «Saxa» deb ataydilar va Yohutiston Avtonom Respublikasining tub aholisi bo'lib, Lena daryosining o'rta oqimida, janubiy Oldan va Vilyuyada, qisman Olekmaning quyi oqimi va Shimolning chekka hududlarida joylashgan. Ayrim guruh yoqutlar Krasnoyarsk o'lkasining shimolida, Magadan, Saxalin va Amur viloyatlarida ham yashaydilar.

Yoqut etnosi asli milodning II ming yilligining birinchi yarmida Lena daryosining o'rta oqimi havzasida Baykal sohillaridan kelgan turkiy qabilalarning mahalliy paleoosiyo va tungus tillaridagi elatlarni o'ziga singdirib yuborishi natijasida paydo bo'lgan. Eng oxirgi elatlarning ko'chib kelishi XIV–XV asrlarda ro'y bergan. XVII asrlarda yoqutlarning katta guruhlari Lena, Yana, Indigirka va boshqa yirik daryolarning vodiylariga yoyilib mahalliy qabilalar bilan aralashib ketganlar. Yoqutlarning etnik konsolidatsiyasi XVII asrlarning 20–30-yillaridan, ya'ni o'lkani Rossiyaga qo'shilish davridan keyin tugallanadi.

Ikkinchi yirik xalqlardan buryatlar (353 ming kishi) XVII asrda turli mo'g'ul qabilalari (bulag'atlar, exiritlar, xorinlilar va xo'ndo'rlar)dan tashkil topgan, ularga keyin boshqa mo'g'ul qabilalari va qisman evenklar qo'shilgan. Oktabr to'ntarishidan avval buryatlar ikki qismga bo'lingan: g'arbiy o'troq chorvadorlar va dehqonlar (pravoslav dinida) hamda sharqiy (Zabaykale) ko'chma chorvador qismi (lamaizm dinida).

O'tmishda uryang'ayliklar, soyotlar yoki sayanlilar deb nom qozongan hozirgi tuvalilar (166 ming kishi)ning kelib chiqishi asli VII–VIII asrlardagi o'rxun-yenisey yozuvlarini yaratgan turkiy qabilalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ularning etnogenezida samodiy qabilalari ham qisman ishtirok qilgan. Yoki ilgari noto'g'ri o'yro'tlar deb atalgan oltoy xalqi (60 ming) ham qadimiy samodiy,

ket, ugor va turk qabilalarining uzoq davr davomida aralashib ketishi natijasida, janubiy oltoyliklar esa Sayan-Oltoy qadimiy turklari (VI–VIII asrlar) bilan ko‘chib kelgan mo‘g‘ul qabilalari (XIII va XVI–XVIII asrlar) bilan aralashishi oqibatida paydo bo‘lgan edi. Hozir oltoylilar Yuqori Ob daryosi havzasidagi va Oltoy tog‘i oralig‘idagi vodiylarda yashaydilar va o‘zining avtonom viloyatiga ega. Boshqa shimoliy xalqlarning ham etnogenezi va etnik tarixi shunday murakkab.

Sibirning tabiiy-geografik sharoitiga moslashgan holda qadimdan bir necha xo‘jalik-madaniy tiplar paydo bo‘lgan. Oltoy – Sayandagi buryatlar, G‘arbiy Sibir va Lenaning o‘rta oqimida joylashgan yoqutlar chorvachilikka ega bo‘lib, ot, qo‘y va tuya boqqanlar. Baykal bo‘yi buryatlari yarim ko‘chma chorvachilikni o‘troq dehqonchilik xo‘jaligi bilan birga olib borganlar. XIX asrlardan boshlab ruslarning ta‘siri ostida dehqonchilik xo‘jaligi ancha rivojlangan. Oltoyning tog‘li va tayga hududlarida yashovchi aholi ovchilik bilan shug‘ullangan. Yoqutlar yaqin davrgacha yarim ko‘chmanchi chorvachilik (qoramol va yilqichilik) bilan bir qatorda baliqchilik va ovchilik (go‘sht va qimmatbaho teri mahsuloti yetkazish) xo‘jaligiga ega bo‘lganlar, shimoliy yoqutlar esa qisman bug‘u ham saqlaganlar.

Katta-kichik daryo vohalarida va tarmoqlarida, dengiz sohilla-rida joylashgan nanay, ulchi, nivxi, koryak, itelman, xantimansi va janubiy selkuplar o‘troq baliqchi xo‘jalik tipi vakillaridir. Ularning butun hayoti va tirikchiligi baliqchilik va qisman ovchilik bilan bog‘liq bo‘lgan.

Sharqiy Sibirda yashovchi evenk, even, do‘lg‘an, tufalar, o‘rmonenislari, selkup va udegeylar ovchilik, bug‘uchilik xo‘jaligi bilan shug‘ullanganlar. Ularning asosiy kasbi ovchilik bilan bug‘uchilik bo‘lsa-da, qo‘shimcha baliqchilik bilan ham shug‘ullanganlar. Ko‘chmanchilik bilan turmush kechirgan mazkur elatlar bug‘ulardan yuk tashish va transport sifatida foydalanganlar, yengil qayiq, chana va chang‘i ham ulov sifatida ishlatilgan.

Nenes, chukchi va koryaklar tundra bug‘uchilik xo‘jaligiga ega bo‘lganlar. Ular qishda tayga chekkalariga, yozda dengiz sohillariga, kuzda yana tayga tomon yil bo‘yi bug‘ulari bilan ko‘chib yurganlar. Tundra bug‘uchilari ikki, to‘rt yoki besh bug‘u qo‘shilgan yengil chana (narta)larda ko‘chmanchilik qilib hayot kechirganlar.

Sharqiy-shimoli Sibirda, asosan, Chukotka sohillarida yashovchi eskimoslar, o'troq chukchi va koryaklar dengiz hayvonlariga ov qiluvchi arktikaliklar xo'jalik tipini tashkil qiladilar. Ular yil bo'yi morj va tulenlarga sanchqi bilan ov qilganlar. Yoz paytlarida yengil teri bilan o'ralgan yog'och qayiqlarda, qishda it qo'shilgan chanalarda ovga chiqqanlar.

Sibir xalqlarining moddiy madaniyati ularning xo'jalik faoliyatiga moslashgan. Chorvachilik bilan mashg'ul aholi ko'chma va o'troq tipdagi uylarda yashaganlar. Buryat va oltoylar konus shaklidagi kigiz yopilgan o'tov uylarda, yoqutlar daraxt qobig'i yopilgan o'tovsimon «yarasa» nomli uylarda yashaganlar. O'troq aholi yog'och uylar ham qurganlar. Baliqchilik bilan shug'ullanuvchi elatlar o'tmishda yerto'lalarda, keyin xitoycha fanza tipidagi to'g'ri burchakli yog'och uylarda istiqomat qilgan. Ko'chmanchi ovchi va bug'uchi nenes va evenklarda ko'chirishga qulay bo'lgan teri yoki daraxt qobig'i bilan bekitilgan konus kapa shaklidagi chayla («chum») tiklangan. Eskimos va chukchilarda yerto'la shaklidagi muzdan tiklangan uylar mavjud. Hozirgi davrda barcha Sibir xalqlari zamonaviy uylarga ega. Ko'chma xo'jalik bilan shug'ullanuvchi aholining an'anaviy kiyimlari teri va matodan turli xilda tikilgan chopon va po'stinlar, ko'ylak va ishtonlar, etik va qalpoqlardan iborat bo'lgan. O'troq baliqchilar baliq terisidan, bug'uchilar va ovchilar bug'u hamda boshqa hayvonlarning terisidan kiyim va poyabzallar tikkanlar. Erkak va ayollarning kiyimlari uncha farq qilmagan. Arktika ovchilarida teridan ikki qavat qilib boshdan oyoq yaxlit tikilgan kiyim bo'lgan.

XX asrga qadar Sibir xalqlarining ijtimoiy turmushi ibtidoiy ishlab chiqarishga asoslangan arxaik shakldagi munosabatlardan iborat edi. Ularning sotsial tuzumida hatto ona urug'i davriga oid sarqitlar (matrilokal nikoh qoldiqlari, avonkulat, ya'ni ona tomonidagi tog'aning maxsus roli, fratriy tashkiloti va boshqa ibtidoiy, ijtimoiy va oilaviy turmush odatlari) saqlanib kelgan. Xantimansi, selkup, evenk, nivxi kabi elatlarda urug'-jamoa tuzumi yemirilib sinfiy jamiyatga o'tish jarayoni boshlangan. Buryat, oltoy va yoqutlarda esa ilk patriarxal feodal munosabatlari o'rnatilgan edi.

Sibir xalqlarining ko'pchiligi yozuvsiz, nihoyatda qoloq madaniyatga ega bo'lganlar. Ularning ma'naviy hayotida urug' va oila

arvohlariga, tabiat kuchlariga sig'inish kabi ibtidoiy dinlar hukmronlik qilib kelgan. G'arbiy Sibir tatarlari dastlab shomonizm kabi ibtidoiy dinlarga itoat qilganlar, faqat XVI asrda islom diniga o'tganlar. Buryat va qisman oltoy xalqlarida buddizm dini keng tarqalgan.

Butun Sibir xalqlarida eng keng tarqalgan diniy e'tiqod shomonizm edi. Shomoniyluk dinida shomon zikrga tushib o'zini jazavaga tushgan holda arvohlar bilan bevosita munosabat qilishiga qurilgan. Unga ko'ra Shomon arvohlar vositasida kasallarni davolashi, ochlik va turli musibatlarni tugatishi, bola tug'ilish, ovda va kasb-hunarda muvaffaqiyat keltirish yoki dushmanlarni mag'lubiyatga hukm qilishi mumkin degan aqida hukm surgan. Ite-manlarda hamma shomonlik qila olgan bo'lsa, chukchilarda, har bir oila boshlig'i shomonlik marosimini oila bayramlarida o'tkaza bilgan. Yukagir, xanti-mansi, evenk va buryatlarda shomonlik maxsus mutaxassislik hisoblangan va merosiy kasbga aylangan. Buryatlarda buddizm ta'sirida shomonizm nihoyatda murakkablashib ketgan.

Sibir xalqlarida boshqa ibtidoiy diniy tasavvurlar qatori oilaviy-urug' ajdodlariga, ayiq va boshqa hayvonlarga sig'inish odatlari uzoq davr saqlangan. Masalan, nivxa xalqida ayiqqa sig'inish urug' ibodati darajasiga ko'tarilgan. Neneslarda shomoniyluk asosiy diniy e'tiqod hisoblansa-da, ammo homiyluk vazifasini bajaruvchi oilaviy arvohlarning tasviri yasali b oila boshlig'ida saqlangan. Ular hatto ovchilik va baliqchilik homiylari – «syadey»larga qurbonliklar keltirganlar.

Chor Rossiyasi o'z hukmronligini to'liq o'rnatish va mahalliy aholini butunlay bo'ysundirish maqsadida XVIII asrdan boshlab missionerlik faoliyatini kuchaytirgan edi. Sibirni nasroniylashtirish asosan, zo'rlik bilan amalga oshirilgan. O'lkani ko'pchilik aholisi XIX asr oxirlariga kelib pravoslav diniga o'tkazilgan bo'lsa-da, mahalliy diniy tasavvurlar yo'qolmagan, aksincha tub aholining dunyoqarashi va xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatib qolaverdi.

O'tgan asrimizning 50-yillaridan boshlab Sibirda urbanizatsiya jarayoni shiddatli tus oldi. Ayni paytda shimoliy neneslarning 68 % i shaharlarda joylashgan, xantilarning 66,5 foizi, chukchilardan 62,5 foizi shaharliklarga aylangan. Shimoliy xalqlarning shaharga ko'chib kelishi ularning turmush sharoiti va madaniyati, mehnat xarakteri,

bilim darajasi, sotsial-madaniy saviyasi o'zgarganligi, yangi ehtiyojlar paydo bo'lganligining oqibatidir.

Sibir xalqlarining hozirgi madaniy darajasi ularning ta'lim saviyasi bilan bog'liq. Masalan, Shimoliy xalqlarning 1926-yilda 90 foizi savodsiz bo'lgan bo'lsa, hozir ko'pchilik aholi o'rta va to'liqsiz o'rta bilimga ega. Hozirgi davrda ular uchun davlat ta'minotiga o'tgan maktab-internatlar, maxsus o'quv yurtlar ochilgan va boshqa iqtisodiy-madaniy sharoitlar yaratilmoqda.

III. AFRIKANING ETNIK TA'RIFI

Ba'zan ilmiy va siyosiy adabiyotlarda Afrikani «Qora qit'a» deb ataydilar. Aslida turli irq va elatlar joylashgan bu qit'a o'zining tabiati va iqlimi bilan ham xilma-xil, o'simlik va hayvonot dunyosi bilan ham rang-barangdir. Afrika yer kurrasidagi qit'alardan kattaligi jihatdan Osiyodan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Uning hududi 30,3 mln.km² bo'lib Yevropadan uch hissa katta.

Afrikaning aholisi 1983-yilgi ma'lumotlarga qaraganda 518 mln. kishidan ortiq (1955-yil 220 mln.). Bu yerda eng katta ko'p millionli millatlar (misrliklar, jazoirliklar, marokashlar, amxara va hk.), katta xalq va elatlar (xausa, fulbe kabilar) bilan birga mayda terimchilik va ovchilik bilan kun kechiruvchi daydi ibtidoiy qabilalar ham yashaydi. Hozirgi Afrikada taxminan 300-500 ta xalq va elatlar mavjud. Shulardan 111 tasi bir mln. kishidan ortiq aholiga ega bo'lib butun qit'a aholisining 87,1 foizini tashkil qiladi, 11 tasi 10 mln.dan ortiq aholiga ega.

Afrika qit'asini to'rt tomondan Tinch va Atlantik okeanlari hamda O'rta yer dengizi suvlari yuvib turadi. Uni Yevropadan Gibraltar bo'g'ozi (eni 14 km.), Osiyodan Suets kanali ajratib turadi. Qit'ani ekvator teng o'rtasidan kesib o'tib uning eng janubiy va eng shimoliy qismlari subtropik iqlimli, serunum, kishi yashashga qulay joylardir. Asli Afrikaning relyefi katta yassi tog' shaklida bo'lib, chekkalarida baland tog'lar mavjud. Uning shimolida Atlas, sharqida Abissin va Sharqiy Afrika tog' tizmalari joylashgan. Qit'aning 30 % hududi baland tog'lar va onda-sonda uchraydigan o'ziga xos buta o'simliklaridan iborat savanna, qolgan qismi changalzorlar, tropik o'rmonlar va bepoyon sahrolar egallaydi. Afrikaning eng katta daryosi Nil, Niger, Kongo, Zambezi sohillariga yaqin joylashgan baland tog' tizmalaridan boshlanib qit'aning ichki qismiga katta-kichik irmoq-

larini yoygan. Ko'llar asosan, sharqiy qismida joylashgan bo'lib, eng yiriklari Viktoriya, Tanganika, Nyasa, Mveru va markazdagi Chad ko'lidir. Boshqa ko'llar yozga borib jazirama issiqda qurib qoladi. Kabir sahrolar shimolida Saxara, janubda Kalaxari va Namibdir.

O'simlik dunyosi juda boy. Kongo vohasida va Gvineya bo'g'ozida sohillarida tropik o'rmonlar o'smoqda. Savanna dashtlarini ham tropik o'rmonlar shimoliy va janubiy, sharqiy tomondan o'rab olgan. Tropik iqlimli joylarda Janubiy Amerikadan keltirilgan kakao, sharqiy sohillarda kokos palmasi, shimolda qimmatbaho probka daraxti, Nil vohasida paxta ekiladi. Afrika asli banan, yemishli yams ildizi, yeryong'og'i (araxis) va yer lobiyosi, xurmo va yog' palmasi, habash noni (teffa), kofe va kauchuk daraxti (landolfiya) vatanidir. Chorvachilikka qulay xashakka boy savanna bo'lsa-da, chorvaning ashaddiy dushmani sese chivini tufayli bu soha sust rivojlangan. Ammo hayvonot dunyosi boy, turli katta-kichik qushlar, fil, karkidon, ohu, gippopatam va boshqa tuyoqli hayvonlar, yo'lbars, arslon kabi katta yirtqichlar, har xil maymunlar, turli kemiruvchi va sudraluvchilar ko'p uchraydi. Qazilma boyliklardan Afrikada olmos, oltin, platina, uran, temir rudasi, mis, alyumin, kobalt, fosforit, neft, ko'mir mavjudligi qit'ani boy xomashyo xazinasiga aylantirgan.

Afrika qit'asining rang-barang tabiati singari aholining etnik qiyofasi, joylashuvi va zichligi ham turlichadir. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda, bu yerdagi 500 milliondan ortiq aholining etnik joylashuvi quyidagicha: g'arbda 137 mln., sharqda 130 mln., markaziy qismida 52 mln., janubda 32 mln. kishi yashaydi. Nil vodiysida bir kv.km. hududga 700 kishi to'g'ri kelsa, qit'aning umuman boshqa qismiga o'rtacha 2-10 kishi, Saxara qismiga esa 0,3 kishi to'g'ri keladi. Umuman yer kurrasidagi aholi zichligi Afrika qit'asida ikki hissa kam bo'lib, o'rtacha har km² ga 13-14 kishi to'g'ri keladi.

Antropologik jihatdan Afrika aholisi uchta yirik irq, o'rta va aralash tiplardan iborat. Qit'aning shimolida Saxaraning janubigacha yevropoid irqiga oid qora ko'z, to'lqinsimon qora soch, bug'doy mayiz tanli, uzunchoq yuzli bir oz burgutsimon qirra burunli arablar, barbarlar yashaydi. Efiopiya va Somali yarim orolida o'rta irq hisoblangan terisi biroz qoramtirroq, yuzi kichikroq, labi qalinroq, o'rta yoki novcha bo'yli amxara, galla,

tigre va boshqa xalqlar joylashgan. Afrikaning asosiy aholisi hisoblangan ko'psonli asl negroidlar Saxaradan janubda G'arbiy va Markaziy Sudanda, Nilning yuqori qismida, Kongo vohasida, Sharqiy tropik Afrikada va qit'aning janubida katta hududga tarqalgan. Ular qop-qora tani, qora ko'zi va spiral (burama) sochlari, iyagi biroz oldinga cho'zilgan (pragmatizm), qalin labi, keng va puchuk burunli, ko'sa soqol va kamtuyli belgilari bilan ajralib turadilar. Katta negroid irqi ichida uzun bo'yli (180 sm.ga yaqin) va nihoyatda qora rangli nilotlar tipi Nil daryosi yuqori oqimlarida va Buyuk ko'llar atrofida uchraydi. Kongo vohasining tropik o'rmonlaridagi pakana bo'yli (o'rtacha 141-142 sm.) biroz qoramtiroq tanli, sersoqolli, puchuk burunli, labi kichikroq pigmeylar ham boshqalardan farq qiladi. Jismoniy tuzilishi jihatidan Afrikaning eng janubiy qismida yashayotgan bushmenlar va guottentotlar maxsus antropologik tipni tashkil qiladilar. Ular asli negroid belgilaridan tashqari ba'zi mongoloid belgilari (yalpoq yuzli, sarg'ish tanli) va steatopigiya (sag'riga nisbatan ko'proq yog' to'planib osilganroq) ko'rinishi, badan va yuzga erta ajin tushishi bilan boshqa irqlardan ajralib turadilar. Madagaskar aholisi ham negroid va mongoloid irqlari aralashmasidan paydo bo'lgan maxsus tiplardan iborat.

Afrika qit'asi til jihatdan kam o'rganilganligi tufayli hozir bir necha tizim va klassifikatsiyalar mavjud. So'nggi tadqiqotlarga binoan eng keng tarqalgan klassifikatsiya asosida afrika tillari to'rtta katta til oilasi: semit-xamit yoki afroosiyo, niger-kordofa, nil-saxara va koysan tillariga bo'lingan. O'z navbatida ular ham katta-kichik turkum va guruhlariga bo'lingan. Shulardan eng ko'psonli semit-xamit til oilasiga oid xalqlar semitlar, barbarlar, kushitlar, chadlar qit'aning 3/1 qismini tashkil qiladi va butun Shimoliy va Shimoli-sharqiy Afrikani egallab olganlar.

Mazkur til oilasiga kirgan arab tilida gapiradigan aholi (misrliklar, jazoirliklar, tunisliklar, liviyaliklar va hk.) XII-XIII asrlarda Arabiston yarim orolidan ommaviy ko'chib kelib mahalliy ko'psonli tub elat va xalqlar (qadimiy misrlik va barbarlar) bilan aralashib ketishi natijasida paydo bo'lgan. Ular hozir 100 mln. kishidan ortiq bo'lib, Afrika aholisining 5/1 qismini tashkil qiladi. Eng qadimiy tub aholi avlodlaridan barbarlar faqat Mag'rib tog'liklarida va Saxara vohalarida saqlanib qolgan. Ammo ularning

ko'pchiligi (kabillar, tuareglar, rif va hk.) hozir asl tillarini yo'qotib, arab tilida gapiradilar.

Semit guruhiga kirgan eng yirik xalqlardan amxara, tigray va tigre hozirgi Efiopiya millatining negizini hosil qiladi. Xamit-semit til oilasiga oid kushid turkumiga amxara xalqiga yaqin galla, Efiopiya janubida yashovchi sidamo va somali xalqlari kiradi. Semitga oid chad guruhiga kiradigan nigeriya xalqlari va ularga yaqin xausa, bade, bura va boshqalar qit'aning ancha hududini egallaydi.

Nil-saxara til oilasi uchta yirik guruh — songai, saxara va shari-nilga bo'linadi. Mazkur oilaga uchta o'ziga xos tilga ega kichik elatlar — maba, fur va koma kiradi. Songai turkumidagi xalqlar Niger daryosining o'rta oqimidagi davlatlar — Mali, Niger, Yuqori Volta va Nigeriyada, Saxara turkumiga oid xalqlar Chad ko'li atrofida va Markaziy Saxaraning cho'l qismida hamda qisman Nigeriyada yashaydilar. Shari-nil til turkumidagi xalqlar Yuqori Nil vohalarida, Viktoriya va Rudolf ko'llari atrofi (Sudan Respublikasi, Uganda, Keniya)da joylashgan.

Afrikaning janubi-g'arbiy qismida asosan, Namibiya, Botsvana va Angolada, o'ziga xos koysan til oilasiga oid xalqlar — bushmenlar, guttentotlar va tog'lik damaralar yashaydi. Ular o'tmishda Janubiy Afrikaning juda keng hududini egallagan, ammo XVIII-XIX asrlarda ko'pchilik qismini yevropaliklar qirib tashlagan, qolganlari Kalaxari cho'llariga haydalgan. Koysan tillariga Sharqiy Afrika (Tanzaniya)dagi sandave va xatsa nomli elatlar ham kiradi.

Madagaskar orolidagi malgashlar tili, antropologik tuzilishi va madaniyati bilan qit'a aholisidan ancha ajralib turadilar. Ular avstroneziya til oilasiga oid, antropologik jihatdan esa janubiy mongoloidlarga yaqin. Afrika qit'asida yashovchi hind-yevropa til oilasiga mansub 11 mln.li yevropaliklar butun aholining 2 foizini tashkil qiladilar. Eski golland tili bilan mahalliy bantu va guttentot tillari chatishmasidan maxsus afrikans tili paydo bo'lgan va elatlara munosabatlarda vosita rolini bajargan.

Ayrim mamlakatlarda, chunonchi Janubiy Afrika Respublikasida, Keniya, Tanzaniya va ayniqsa, Mavrikiya orolida so'nggi yillarda ko'chib kelgan osiyoliklar ham o'rnashib qolgan va hozirgi etnik jarayonga tortilgan.

Hozirgi Afrika xalqlarining etnik qiyofasini uning tarixini bilmaguncha to'g'ri tasavvur qilish mumkin emas. Ayrim afrikashunoslar qit'aning mustahkam tarixiy taraqqiyotini inkor qildilar, mahalliy aholi mustamlaka davrigacha ijtimoiy taraqqiyotga noqobil bo'lgan deb aytadilar. Ba'zilar Afrika tarixini faqat tashqaridan kelgan bir qancha to'liqindan iborat madaniyat hisoblab, shuning uchun mahalliy xalqlar umuman turg'unlikka hukm qilingan, deb ta'riflaydilar.

Ammo ularning aksi o'laroq, Stenford universiteti olimlari tomonidan aniqlangan odam gnomi afrikalik ekanligi va umuman bashariyat qora qit'adan yer yuziga tarqalganligi bu munosabatlar-ni keskin, qarama-qarshi qutbga o'zgartirib yubordi.

Qolaversa, so'nggi yillarda qilingan arxeologik kashfiyotlar Afrika tarixining uzoq o'tmishiga oid katta bir davrni oydinlash-tirib berdi. Avvaliga Janubiy va Sharqiy Afrikada avstralopitek-lar yashaganligi aniqlanib, qit'a qadimiy odamning vatani ekanligi tasdiqlandi. Ilk paleolit davriga oid ibtidoiy makonlar Luis Liki va keyinchalik uning o'g'li tomonidan Tanzaniyada Olduvay jarligida topilganligi, Efiopiyada Chad va Rudolf ko'llari atrofida, Janubiy Afrikada 60-yillardan keyin qilingan kashfiyotlar Afrika qit'asida eramizdan avvalgi X ming yilliklardan boshlab yuksak madaniyat yaratilganligini isbotlab berdi. Olduvay, Stellenbosh va boshqa madaniyatlar antropologik ma'lumotlar bilan birga, qit'aning sharqiy va janubiy qismida qadimiy tosh davrida keng hududda ancha takomillashgan tosh qurollar yaratgan va qoyalarga har xil rasmlar yasagan ko'p sonli aholi yashaganligini aniq tasdiqlagan edi.

Neolit davriga kelib (taxminan eramizdan avvalgi V-I ming yilliklar) Shimoliy va Markaziy Misrda, Sudanda, Saxara markazi-da, Sharqiy Afrikaning ba'zi hududlarida, Senegal va Kongo vohalarida, hozirgi Nigeriya hududida yangi xo'jalik faoliyati, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik shakllanib o'troq holatga ko'chish ro'y beradi. Mezolit va neolit davrida hozirgi antropologik tiplar shakllanib bo'lgan, neolit davriga kelib hozirgi tillar ham asosan, shakllanib tugagan.

Misrliklar qo'shni elatlar to'g'risida muhim ma'lumotlar qoldirgan. Yozma manbalar Nilning g'arbiy qismida oq tanli liviya qabilalari, o'rta oqimida kush (keyin Nubiya) mamlakatida jigarrang tanli kushitlar, yuqori qismida qora tanli nilotlar va

janubroqdagi Punt mamlakatidagi negroidlar haqida xabar berib, Afrikaning irqiy tuzilishi-qadimdan turli ekanligini isbotlaydi.

Afrika qit'asida miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda muhim geologik o'zgarishlar ro'y bergan. O'sha davrda Saxarada qurg'oqchlik paydo bo'lib, ulkan hududdan butun elat va xalqlarni ko'chishga majbur qilgan. Oqibatda Saxaradan janubda Shimoliy Afrika mamlakatlaridan, chunonchi, Misrdan farq qiladigan yangi bir o'ziga xos madaniyat shakllana boshlaydi. Nigeriya va Benue daryosining shimolida paydo bo'lgan nok madaniyati vakillari (miloddan avvalgi IX milodning II asrlari) temir va boshqa metallarni ishlab chiqarishni bilgan va dastlabki temir qurollarini yasaganlar.

Temir eritish va undan foydalanish Afrika xalqlarining ijtimoiy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan edi. Daryo vodiylaridagi aholi bilan savanna qabilalari orasidagi savdo-sotiqning ko'payishi, katta savdo yo'llarida va chorrahalarida shaharlarning va savdo markazlarining paydo bo'lishi, shu asosda ijtimoiy mehnat taqsimotining yuzaga kelishi va Saxaraning janubidagi boshqa davlatlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir o'tkazgan edi.

Milodning VIII-IX asrlariga kelib, tropik Afrikada sinfiy tuzum munosabatlariga asoslangan bir necha yirik davlatlar shakllanib XVI asrlargacha rivojlanib kelgan. Shulardan arab sayyohlari, mahalliy solnomalar, ilk portugal tadqiqotchilari va juda ko'p og'zaki rivoyatlarda tilga olingan yirik davlat birikmalari Gana, Mali, Songay, Dagomeya, Xausan shahar-davlatlari, G'arbiy va Markaziy Sudandagi Kanem — Bornu, Benin, Gvineya sohilidagi Yoruba davlati, qadimgi Kongo va Efiopiya davlatlari, Sharqiy Afrika qirg'og'idagi shahar-davlatlar, afsonaviy Mvene Mutapa (Monomotana) podsholigi va Zimbabve davlatlarini sanash mumkin. Ular ancha rivojlangan ishlab chiqarish kuchlariga ega bo'lgan ijtimoiy mulk va yuksak madaniyat yaratganlar. Muayyan davrlargacha Afrika davlatlarining eng taraqqiy qilgan qismlari jahon tarixi bilan qadambaqadam, teng rivojlanib ijtimoiy taraqqiyotga munosib hissasini qo'shib kelganlar. Hattoki, qit'a mustamlaka qilinganidan keyin ham bu yerda XVIII-XIX asrlarda bir necha feodal davlatlar (Fulbe va Tukulyora teokratik davlatlari, Ruanda, Buganda, Burundi) va qabilaviy ittifoqlar (zulu, matabele) paydo bo'lgan edi.

Demak, Afrika xalqlari qadimiy davrlardan to hozirgacha ijtimoiy taraqqiyotdan chekkada qolmay, tadrijiy rivojlanishda

bo'lganlar. Ammo keyinchalik ijtimoiy-iqtisodiy ancha orqada qolib ketishiga mustamlakachilarning zulm va ta'qibga qurilgan siyosati, qul savdosi va quldorlik sabab bo'lgan. Ayrim mamlatlarning va elatlarning ibtidoiy va ilk feodalizm darajasida saqlanib qolishida boshqa o'lkalardagi singari obyektiv va subyektiv omillar ham ta'sir qilgan. Mustamlaka arafasida Afrika xalqlari turli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasida turganlar, yuksak madaniyat yaratgan yirik davlatlar bilan bir qatorda, hali ibtidoiy-jamoa tuzumi munosabatlari kuchli bo'lgan qabilalar ham mavjud edi.

Afrika qit'asini mustamlakachilar tomonidan bosib olinishi XV asr oxirlaridan boshlanadi. Bu davrda kelgindi yevropaliklar bilan mahalliy aholi o'rtasida madaniy tafovut uncha sezilmagan. Eng fojiali voqealar keyingi asrdan boshlangan. Dastlabki sarmoya jamg'arish natijasida XVI asr boshlarida keng miqyosda avj olgan qul savdosi G'arbiy va Janubiy Afrika xalqlarining tarixiy taraqqiyotini to'xtatibgina qolmay, balki bir necha asrlar orqaga itqitib tashlagan edi. Avval portugaliyaliklar, keyin Angliya, Gollandiya va Fransiya qit'a o'lkalarining ochiqdan-ochiq barcha boyliklarining yirtqichlarcha talon-taroj qilganlar, og'ir soliqlar solganlar va minglab kishilarni zo'rlab olib ketib, qul qilib sotganlar. Ayrim o'lkalarda, ayniqsa, Gvineya sohillarida, Kongo quyi oqimida va Angolada qul savdosi natijasida aholisi kamayib, xo'jaligi va siyosiy-iqtisodiy hayoti turg'unlik va vayronalikka mahkum qilingan, ba'zi obod o'lkalar butunlay xarobaga aylangan. Quldorlik tufayli vafot etgan va Amerikaga olib ketilgan kishilarning soni 100 mln.dan ortiq bo'lgan. Qit'adagi mustamlakachiliklarga qarshi urushlar, ichki ziddiyat va kurashlar ham minglab afrikaliklarning yostig'ini quritgan va ilgari gullab yotgan qudratli davlatlarning inqirozini kuchaytirgan edi. Mazkur hodisalar Afrika xalqlarining Yevropadan madaniy jihatdan orqada qolishining asosiy sabablaridir.

Chidab bo'lmaydigan jabr-zulm va talon-taroj keltirgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi ozodlik va mustaqillik uchun kurashga o'tgan Afrika xalqlari, ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin juda katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, o'z taqdirларini qo'llariga ola boshlagan. Hozir qit'aning ko'pchilik qismi mustaqil va ozod davlatlardan iborat.

Afrika qit'asining etnik tuzilishini bir necha tarixiy-madaniy viloyatlarga bo'lib o'rganiladi. Ular keng hududlarda joylashgan, ammo etnografik jihatdan umumiy birlikka ega bo'lgan mintaqalardan iborat. So'nggi klassifikatsiyaga asoslanib butun qit'a aholisi tabiiy sharoiti, etnik qiyofasi, tarixiy taqdiri va ijtimoiy-iqtisodiy darajasi jihatdan Shimoliy Afrika, G'arbiy va Markaziy Afrika, Sharqiy va Janubiy Afrika xalqlariga bo'lingan.

§1. SHIMOLIY AFRIKA XALQLARI

Afrikaning shimolida asosan, arab tilida gapiradigan xalqlar yashaganligi uchun uni Arab afrikasi deb ataganlar. Aslida bu yerdagi xalq va elatlar qadimiy aborigen aholisining avlodlaridir. Hozirgi davrda Shimoliy Afrika xalqlariga Misr, Sudan va katta Mag'rib (Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya, Mavritaniya, G'arbiy Saxara) aholisi kiradi.

Qadimiy yunon mualliflarining asarlarida Mag'rib aholisini liviyaliklar, deb tilga olinadi. Ularning bir qismi ko'chmanchilik bilan tirikchilik qilib kelgan qabilalardan, ikkinchi qismi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholidan iborat bo'lgan. Eramizdan avvalgi I ming yillikda finikiyaliklar Shimoliy Afrika sohillarida asos solgan Utiku, Karfagen kabi davlatlar bilan o'z mustaqilligi uchun urushlar olib borganlar. Liviyalik qabilalarning tinimsiz kurashlari Numidiya va Mavritaniya davlatlarini yuzaga keltirgan edi. Rim imperiyasi Karfagenni qo'lga kiritishi bilan (miloddan avval II asr o'rtalari) bu ikki podsholik ham yemiriladi. Shu bilan lotin manbalarida liviya va numidiya nomlari ham yo'qolib, mahalliy aholi mavrlar va keyin arablar kelishi bilan barbarlar deb atala boshlangan.

XI asrlardan boshlab arablarning sulaym va hilol qabilalarining Mag'ribga ommaviy ko'chishlari natijasida barbarlarni arablashtirish kuchayadi. Mag'ribni to'liq o'ziga bo'ysundirgan Arab feodal davlatlarining (xalifalik, idrislar, aglabiylar, fatimiylar, almorobiylar va hk.) jiddiy soliq va diniy siyosatlarining amalga oshirilishi natijasida arab tili va islom keng tarqalgan edi. XIII asrda Shimoliy Afrikada (hozirgi Mag'rib chegarasida, ya'ni Marokash, Jazoir, Tunisda) uchta feodal davlati — Marinilar, Zayyaniylar va Xavsideylar paydo bo'lib, to XVI asrlargacha, ya'ni turk istilosigacha saqlanib kelgan. Mazkur tarixiy jamoa negizida barbar va arab qabilalarining aralashishi natijasida mag'rib xalqlari — marokash-

lar, jazoirilar, tunislik va liviyaliklar keyinchalik mustamlakachilarga qarshi faol milliy-ozodlik kurashiga tortilib hozirgi millatlar shakllana boshlagan edi.

Misr xalqi eng qadimiy yuksak madaniyat yaratgan etnoslardir. Misrliklar eramizdan avvalgi IV ming yilliklardayoq sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikni bilganlar. Arxeologik kashfiyotlarga, kraniologik dalillarga qaraganda (topilgan ibtidoiy kishilarning suyak qoldiqlari asosida) antropologik jihatdan Misrning eng qadimiy aholisi eramizdan avvalgi III ming yillikda Nil vodiysida paydo bo'lgan dastlabki Misr davlatining aholisidan farq qilmaydi. Hozirgi misrliklar ham buyuk madaniyat yaratgan ajdodlaridan irqiy jihatdan kam farqlanadilar. 1952-yili iyul oyida Misr qiroli Farruh taxtdan ag'darilib, Respublika e'lon qilinib, hozirgi misr millatining rivojiga keng imkoniyat yaratilgan edi.

Misrdan janubda joylashgan Sudan xalqi ham milliy ozodlik kurashiga bel bog'lab, 1956-yili 1-yanvarda mustaqillikka erishgan va o'z davlatini respublika deb e'lon qilgan. Sudanliklar (Qadimgi Nubiya) misrliklar singari yuqori madaniyat yaratgan qadimiy elatlardan. Nubiya to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan avvalgi III ming yilliklarida Misr solnomalarida tilga olinadi. Miloddan avvalgi XVI-XIV asrlarda hatto Nubiyaning ancha qismi Misr provinsiyasi hisoblangan. Bir-ikki asrlardan keyin bu yerda mustaqil Napata davlati paydo bo'ladi va miloddan avvalgi IX asrga kelib u Nil vodiysini bosib olib, qisqa davr Misr ustidan hukmronlik qiladi. Keyinchalik Sudanda quldorlik Meroe davlati tashkil topdi. Milodning VI asrlarida nasroniy dini tarqalib, o'rta asrda Nubiya davlatining rasmiy dini deb e'lon qilinadi. Bu yerda arablar XIII asrdan boshlab bir-ikki asr davomida asta-sekin arab tilini tarqatib, nasroniylikni siqib chiqaradi, islom dini hukmron bo'ladi. Arablashtirish va islomni singdirish ancha qiyinchilik bilan o'tgan.

Shimoliy Afrika xalqlarining xo'jaligi jahondagi eng qadimiy dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq bo'lib, uning ajoyib an'analari hozirgacha yetib kelgan. Ammo dehqonchilik bilan chorva xo'jaliklarining nisbati turli hududlarda o'zaro farq qiladi. Nil vodiysi va dengiz sohillaridagi serunum yerlarda, asosan, dehqonchilik, sahro va yarim dasht hududlarda yarim ko'chmanchilik asosiy xo'jalik tarmog'i bo'lib, daryo va dengiz sohillardan uzoqlashgan sayin chorva dehqonchilikdan ustun turadi. Agar

misrliklar va sudanliklar uzoq davrdan beri sug'orish dehqonchiligi bilan shug'ullansa Janubiy Sudanda chopqi dehqonchiligi bilan baliqchilik, Mag'rib mamlakatlarida (ayniqsa, qirg'oq bo'yi Atlas tog'larida) dehqonchilik bilan bog'dorchilik va yirik chorvachilik, bepoyon sahro hududlarida faqat mayda chorvachilik bilan kun kechiradilar. Yirik chorva yaylovlar juda kam bo'lganligidan uncha rivojlanmagan, ko'p joyda yirik shoxli mol ishchi kuchi sifatida saqlangan xolos.

Tarixiy etnografik nuqtayi nazardan Misr dehqonchiligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni o'rganish umuman dehqonchilikning kelib chiqishi va taraqqiyotini bilishga imkon beradi. Eng qadimiy neolit davrida paydo bo'lgan va qisman hozirgacha saqlanib kelgan sun'iy sug'orish tizimi Yuqori Misrdagi daryo toshqinlaridan foydalanib ekin ekishdan iborat bo'lgan. Nil vodiysida ilgari bir necha ming gektar maydonni qismlarga bo'lib, rosh bilan chek solingan va ikki metrgacha yetadigan daryo toshqini shu yerlarni to'ldirib bir yarim oygacha suv saqlagan. Suv singib qaytgandan keyin Nilning serunum loyqasiga urug' sepilgan. Odatda, bug'doy, arpa, lobiyo, beda va boshqa ekinlar ekilgan va qish bo'yi o'sib yozga borib hosil olingan.

XIX asrga kelib sug'orish tizimi ancha rivojlangan, Misrni Angliya o'zining to'qimachilik sanoati uchun paxta bazasiga aylantirish maqsadida fallohlar kuchi bilan asr boshlaridan ekin dalalarini kengaytirib, to'g'onlar va yangi kanallar qurdirgan. Sudanda ham Oq va Ko'k Nil oralig'idagi Gezirada doimiy sug'orish tizimi qurilib, serunum yerlarda paxta plantatsiyalari yaratilgan.

Yil bo'yi sug'orish imkoniyati paydo bo'lishi bilan qishloq xo'jalik ekinlarining turlari ham ko'paygan. An'anaviy don, lobiyo va paxta ekinlaridan tashqari fallohlar sholi, shakarqamish, makka, sul, zig'ir, turli sabzavot va poliz ekinlari, molga yem uchun beda (bersim) kabilarni ekkanlar. Yerni haydashda qadimiy temir uchli omoch ishlatilgan, unga ho'kiz, qo'tos, eshak, xachir yoki tuya qo'shilgan. Yerga ishlov berishda chopqidan foydalanilgan, hosil o'roq bilan o'rilgan va maxsus xoda yoki chanaga o'xshash yog'ochga ishchi hayvon qo'shib yanchilgan. Agar Misrda asosan, don, paxta va sabzavot ekilsa, Marokashda makka, Tunisda zaytun daraxti, Janubiy Mag'ribda xurmo ekilgan, dengiz sohillarida bog'dorchilik rivojlangan, bu yerda uzum, anjir, bodom, sitrus o'simliklari va sabzavot o'stirilgan.

Misir dehqonchiligi qadimiy an'anaga binoan uch faslga bo'lingan: qishgi (shitvi), yozgi (sayfi) va Nilning toshqin davriga to'g'ri kelgan kuzgi (nili). Shitvi (noyabr-mart) faslida bug'doy, arpa, piyoz, lobiyo va bersim (beda) ekilgan, sayfi (aprel-avgust)da paxta, zig'ir, kendir, shakarqamish, sholi va makka, Nil toshqini davri (sentabrnoyabr)da asosan, sholi, makka va suli ekilgan.

Shimoliy Afrikaning qishloq aholisi qadimdan turli uy hunarmandchiligi bilan ham shug'ullanadilar. Ular qo'lda va charxda sopol buyumlar yasaydilar, bo'yra va chipta to'qiydilar. Chorva aholisi esa jundan har xil mato, gilam to'qiydilar, kigiz, teri poyabzal, egar kabi zarur buyumlar ishlab chiqaradilar. Shaharlarda yirik hunarmandchilik, ayniqsa, temirchilik, misgarlik, zargarlik, ko'nchi, kulolchilik ancha rivojlangan. Sanoat keyingi yillarda o'sa boshlagan.

Arablarining moddiy madaniyati juda ko'p umumiylikka ega bo'lsa-da, ayrim o'lkalarda o'z xususiyatlarini saqlab kelgan. Misir falohlari kichik qishloqlarda Nil vodiysining sug'orma joylarida yashaydilar. Ular xomg'ishtdan yoki guvaladan bir qavatli tekis tomli uy quradilar. Dehqon uylari, asosan, bir xujrali to'g'riburchak, oynasiz va tuynuksiz, yarmisini supali pechka (mo'risiz o'choq, tezak bilan yoqiladi) egallagan bo'lib, shunga to'shalgan bo'yrada yotib turiladi. Boylar katta hovlilarda yashaganlar.

O'troq Mag'rib aholisi katta yo'l bo'yida joylashgan qishloqlarda tartibsiz joylashgan somon aralash loydan to'g'riburchak shaklida qurilgan tekis tomli uylarda yashaydi. Atlas tog'larida uylar toshdan tiklangan. Qishloq markazida minora qad ko'taradi. Har bir qishloq bir necha katta oilaviy jamoadan iborat. Mag'rib aholisining 1/4 qismi shaharlarda yashaydi. Ba'zi shaharlar hozirgacha o'rta asrlardagidek qing'ir-qiysliq tor ko'chalar, ichkariga qaratilgan hovlili baland devorli bir-ikki qavatli uylar, minorali machitlar, markazida hunarmand va savdogarlar rastalari joylashgan bozorlar saqlanib qolgan. Dasht ko'chmanchi qabilalari jazirama issiq va izg'irin shamoldan saqlanish uchun ko'chishga qulay jundan to'qilgan mato yoki kigiz yopilgan chodir (falij)larda yashaydilar.

Fallohlar og'ir turmush sharoitida tirikchilik o'tkazadilar. Ularning taomlari, asosan, makka, suli yoki tariqdan yopilgan chuchuk non va atala, piyoz, qalampir yoki bodring, ba'zan qurt iste'mol qiladilar, dengiz sohili va Nil vodiysidagilar baliq qovurib yeydilar, go'sht juda kam ishlatiladi. Sabzavot ham

iste'mol qilinadi. Ovqatlanish uch mahal, issiq ovqat odatda kechki payt yeyiladi. Ichimliklardan qandsiz qora kofe, achchiq choy, arpadan tayyorlangan pivo ichiladi. Mag'ribda sabzavot va meva ko'proq iste'mol qilinadi. Afrika arablarining eng sevimli taomi bug'doy yoki arpa uni xamiridan yumaloq qilib turli ziralar solingan bug'da pishiriladigan kuskus. Uni tayyorlash katta san'at talab qiladi. Ko'chmanchi qabilalarning taomi xurmo, chorva mahsulotlari — qatiq, suzma, pishloq va qisman go'shtdan iborat.

Fallohlarning an'anaviy kiyimlari oq yoki ko'k chitdan (butun bo'yiga) tikilgan uzun va keng yengli ko'ylak va kaltaroq ishton, sovuq paytlarda tuya junidan to'qilgan matodan chakmon, boshida do'ppi yoki salla. Ayollar ham keng yengli yuqorisi bo'g'ma, tik yoqali uzun ko'ylak kiyadilar, boshida shol yoki ro'mol yopinadilar, turli rangdagi munchoqlar, misdan, kumush yoki oltindan ishlangan uzuk, sirg'a, bilaguzuk taqadilar. Mag'ribliklar, ayniqsa, sohillarda yashovchi shahar aholisi asosan, yevropacha kiyinishga o'tgan. Ammo milliy kiyimlar ham saqlangan. Aholi qimmatbaho burnus (yaktak)ga o'xshash kiyim kiyadilar. Marokashda boshiga salla o'ralsa, Tunisda ko'proq hoji do'ppi (fas) kiyiladi. Ayollar keng va uzun ko'ylak ustiga plash yoki shol, yuziga oq yoki kulrang chachvon yopinadilar. Qishloqlarda shaharga nisbatan yuzini kamroq bekitaldilar. Tuareg qabilalarida, aksincha, erkaklar yuzini bekitib, ayollar esa ochiq yuradilar.

Shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy tuzumida turli ukladlar mavjud. Ular quldorlik tuzumini bosib o'tib, mustamlaka arafasida feodalizmga erishgan edilar. Ammo Mag'rib va Sharqiy Sudandagi ko'chmanchi elatlar uzoq davrlargacha urug'chilik munosabatlarini saqlab kelganlar. Yevropa davlatlarining mustamlaka hukmronligi o'rnatilgandan keyin Shimoliy Afrika mamlakatlari bozor munosabatlariga tortilib, feodalizm tuzumi yemirila boshlaydi va uning o'rnida yangi bozor munosabatlariga asoslangan ishlab chiqarish kurtak otib chiqadi.

Faqat ikkinchi jahon urushidan keyin milliy ozodlik kurashi g'alabasi tufayli Shimoliy Afrika xalqlari, ayniqsa, Jazoir, Misr, Liviya mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib katta yutuqlarga erishmoqdalar.

Mag'ribning ichkari hududlarida yarim patriarxal yarim feodal munosabatlari, jamoatchilik tuzumi qoldiqlari hozirgacha saqlanib

kelmoqda. Saxaradagi tuareglarda jamoa kengashi boshqaruvi mavjud bo'lib, unda ayollar ham ishtirok qiladi, Sudan ko'chmanchi qabilalarida ham islom tarqalgan bo'lsa-da (bakkara va hk.) matriarxat munosabatlari saqlangan. Ularda nikohdan keyin kelin ikki-uch bola tug'ilguncha ona urug'ida yashaydi, meros ham ona tomoniga o'tadi. Bakkara qabilasida qizlar va erli ayollar ham shaxsiy erkinlikka ega. Nilot qabilalarida ham ibtidoiy qabila va urug' munosabatlari mustahkam negizga ega.

Shimoliy Afrika aholisining 94-95 % i musulmonlar (taxminan 87 milliondan ortiq kishi), 4 % i nasroniylar (4,7 mln.) qolganlari ibtidoiy va boshqa dinlarga itoat qiladilar. Mag'rib va Sudan ko'chmanchi qabilalarida turli sehrgarlik urf-odatlar va irimlari keng tarqalgan.

§ 2. G'ARBIY VA MARKAZIY AFRIKA XALQLARI

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Afrika bo'yicha Iqtisodiy komissiyasi taklifiga binoan G'arbiy va Markaziy Afrikaga tabiati, etnik tuzilishi, tarixi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining umumiy xarakteriga qarab 24 ta mamlakat kiritilgan. Etnik jihatdan bu yerda yashovchi xalqlarning ko'pchiligi G'arbiy Sudan va Bantu xalqlari degan nom bilan atalgan. Bularning ko'pchiligi XX asr o'rtalariga qadar Yevropa davlatlarining mustamlakasi bo'lib kelgan. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin butun Afrikani larzaga keltirgan milliy-ozodlik harakati juda ko'p xalqlarning mustaqil rivojlanishiga yo'l ochib berdi. Tarixiy «Afrika yili» nomi bilan kirgan 1960-yilda G'arbiy va Markaziy Afrikaning 15 ta mamlakati siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan edi. Shulardan eng kattalari Nigeriya va Zoir, keyin Senegal va Mali, Mavritaniya va Benin (ilgarigi Dagomeya), Niger va Yuqori Volta, Fil suyagi sohili va Togo, Chad va Gobon, Markaziy Afrika va Kongo xalq respublikasi, Kamerun va S'erra-Leone. 1965-yilda Gambiya, 1968-yili Ekvatorial Gvineya, 1973-yilda Gvineya-Bisau, 1975-yil Yashil orollar buruni va Angola mustaqil respublika deb e'lon qilindi. Bu mamlakatlarda hozir muhim etnik jarayon ro'y bermoqda.

G'arbiy va Markaziy Afrika aholisi turli antropologik va lingvistik guruhlardan iborat bo'lib, o'zlarining xo'jalik faoliyati, madaniyati va dinlari bilan biroz ajralib turadilar. G'arbiy Afrikaning shimolida Mali va Niger hududida yashovchi tuareglar

katta yevropoid irqining O'rta yer dengizi tipiga mansub. Yevropoid belgilari Markaziy Afrikaning shimoliy hududlaridagi tubi kanuri kabi elatlarda ham biroz seziladi. Qolgan barcha xalqlar katta negroid irqiga tegishli. Ammo ular ayrim tiplarga bo'lingan. Masalan, badanining rangi, labining qalinligi, prognatizm, bo'yi va boshqa belgilari bilan senegal tipi (volof xalqi), niger tipi (mandingo xalqi), chad tipi (xausa xalqi), saxara tipi (sara xalqi), pakana bo'yi negeril tipi (pigmeylar) bir-biridan ajralib turadilar.

G'arbiy Afrikaning etnolingvistik qiyofasi juda rang-barang. Bu yerda hozir bir necha til oilalari va juda ko'p turkumlarga mansub etnoslar yashaydi. Afroosiyo til oilasiga kiradigan barbar va tuareglar hamda chad turkumiga mansub xausalar bilan birga niger-kordofa, nil-saxara, benue-kongolez til oilalariga tegishli juda ko'p xalq va elatlar keng hududda joylashgan. Markaziy Afrikaning etnolingvistik xaritasi ancha yaxlit, umumiylikka ega, asosan, bantu tillarida gapiradigan xalqlardan iborat. Bantu xalqlari miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida Markaziy Afrikada paydo bo'lib, bu yerda qadimdan yashab kelgan pigmey va bushmenlarni siqib chiqarganlar. Hozir Markaziy Afrikada 32 mln. bantu xalqlari yashaydi. Shulardan eng yirigi baluba (4,4 mln., kishi), bakongo (4,4 mln.), ovim bundu (2,3 mln.), bambundu (1,7 mln.) va hk. G'arbiy Afrikada xausa va unga yaqin tilda gapiradigan xalqlar 10 mln. kishi, benue-kongolez tilida ham 7 mln., volt tilida 8 mln. g'arbiy atlantik tilida 10 mln.dan ortiq xalq gaplashadi.

Xo'jalik jihatdan mazkur mintaqa Shimoliy Afrikadan keyin ancha rivojlangan. Bu yerda ham qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning negizini hosil qiladi. Okeandan uzoqda magistral transport yo'llaridan chekkada joylashgan Markaziy Afrika xalqlarining an'anaviy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik bo'lib, 80 foiz aholining hozirgacha asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida jamoachilik munosabatlari saqlanib kelmoqda.

Mahalliy dehqonchilik tropik iqlimga moslashgan, o'rmonlarni chopib, ochilgan yerga kul aralash yerga chopqi (butali yog'och xodaga temir tish kiygizilgan) bilan ishlov berib ekin ekiladi. Bo'z yerga ekin 5-6 yil, ba'zan yer ko'p bo'lsa 10-12 yildan keyin qayta ekiladi. Asosiy ekinlardan sholi, makka, suli, batuta, shakarqamish, lobiyo ekiladi, tropik o'rmonlarda yams, manioka, taru, yeryong'oq (araxis),

non daraxti, banan, qovun, qovoq, sitrus va meva daraxtlari o'stiriladi. Muhim an'anaviy «etnik» mahalliy ekinlardan sholi gvineya-liberiya zonasida yashovchi xalqlarga xos bo'lib, odatda sug'orilmay ekiladi. Sholikorlik Niger va Gambiya daryolarining sohillarida 3,5 ming yillar muqaddam paydo bo'lib, boshqa joylarga tarqalgan. Uni daryo yoqasidagi pastlik suv toshqini serob yerlarda yoki ko'pincha ekvatorial iqlimli namli seryomg'ir tropik o'rmonlarda ekadilar. G'arbiy Afrikada sholidan yiliga 400 ming tonnaga yaqin hosil olinadi.

Mustamlakachilik siyosati natijasida ayrim mamlakatlar eksport uchun maxsus ekinlarni ekishga ixtisoslashtirilgan edi. Doimiy nam iqlimli o'lkalarda, asosan, shimoliy kenglikning 8 gradus janubida joylashgan o'lkalarda eng foydali eksport ekinlari madaniylashtirilgan. Ayniqsa, Gvineya bo'g'oziga yaqin joylashgan mamlakatlarda kakao, kofe, banan, geveya, ananas, kokos palmasi kabi o'simliklar o'stiriladi. G'arbiy Afrikada jahonda yetishtiriladigan kokosning 3/2 qismi, butun qit'adagi kokosning 90 % i o'stiriladi. Gambiyada yeryong'oq, Nigeriya va Dagomeyada xurmo, Fil Suyagi sohilida kofe (jahonda uchinchi o'rinda, qit'aning 90 % hosili), Liberiya va Nigeriya xurmo moyi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Markaziy Afrikada ham yirik plantatsiya xo'jaliklarida eksport uchun xurmo yog'i, kauchuk, banan, shakarqamish, kofe, kakao, tamaki, yeryong'oq (araxis) va paxta yetishtiriladi. Bu yerda o'rmon ko'p bo'lganligi tufayli qimmatbaho daraxt turlari ham eksport qilinadi (butun qit'aning 3/1 qismi Markaziy Afrikada tayyorlanadi). Jahon bozorida okume, maxogani, iroko kabi daraxtlar yuqori baholanadi. Yuqori Gvineyaning tropik o'rmonlarida yashovchi yoruba, ibo, oshanti kabi xalqlar don ekinlariga uncha e'tibor bermaganlar, asosan, yams, manio-ka, taro, araxis, banan, sitrus va boshqa meva daraxtlari yetishtirganlar. Bolof, serer, mandingo, xausa kabi qadimiy dehqonchilik kasbiga ega xalqlar esa asosan, don ekinlari — jo'xori, suli, makka, bug'doy, suv serob joylarda sholi ekanlar. Chorvachilik sust taraqqiy etgan. Faqat Xausa, Mandingo sohilla-rida yashovchi ayrim etnik guruhlarda uy hayvonlari saqlangan. Ular ovchilik va baliqchilik bilan ham shug'ullanganlar.

Chorvachilik faqat shimoliy va janubiy hududlarda fulbe, tuareg xalqlarida keng tarqalgan. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turmush tarzida yashovchi bu xalqlar asosan, zebu, kichkina ho'kiz-

ndama, ot, tuya, qo'y va echki boqib kun kechiradilar. Janubiy kenglikning 10 daraja pastida Gvineya savannasida yirik shohli mol boqish mumkin emas, chunki sese pashshasi molga qirg'in keltiradi. Shuning uchun fulbe xalqlarining ko'chish hududi ham mazkur kenglikning shimolida cheklangan. Yirik shoxli mollar, asosan, Sudan, sohil mamlakatlari — Mali, Yuqori Volta va Nigeriyada mavjud. Dehqonchilik xo'jaliklarida ham qisman mol saqlanadi, uni faqat bayramlarda va diniy marosimlarda so'yadilar.

G'arbiy va Markaziy Afrika qishloq aholisining ko'pchiligi qadimiy davrlardan to hozirgacha barcha ishlab chiqarish qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak va boshqa zarur mahsulotlarni uyda ishlab chiqarganlar. Ayniqsa, G'arbiy Afrikada hunarmandchilik nihoyatda rivojlangan. To'qimachilik va ko'ncilikda xausa xalqi juda yuksak san'atga ega bo'lgan. Turli gazlamalar, ajoyib teri mahsulotlari, har xil qop va idishlar, poyabzal, egar, kamar va hk.lar zo'r mahorat bilan yaratilgan va uzoq yurtlarga chiqarilgan. Fulbe, Mandigo, Xausa xalqlarining temirchi va misgarlari omoch tishi, bolta, bel, ketmon, o'roq, pichoq, qilich, xanjar, nayza va har xil bezaklar ishlab chiqarganlar. Temirchilik eng hurmatli kasb hisoblangan. Gvineya xalqlari, Ganadagi ashanti, Nigeriyadagi yoruba, Kamerundagi bamuma kabi xalqlarda badiiy hunarmandchilik nihoyatda rivojlangan. Ular sopoldan, jez va fil suyagidan juda ajoyib haykallar yasaganlar. Benin hunarmandlari hayvonlarning kichkina, podsholar va ajdodlarining yirik hajmdagi haykallarini jezdan quyish malakasiga ega bo'lganlar. Ular hatto ko'shk va saroylarni bezaydigan turli rasm, bezak va haykallar yasay olganlar. Bantu xalqlari turli xildagi chipta va savatlar to'qishda katta mahoratga erishganlar. Yog'och o'ymakorligida G'arbiy Afrika xalqlaridan oldinga chiqadigani yo'q.

Hozir G'arbiy va Markaziy Afrikaning iqtisodiy taraqqiyotida qazilma boyliklarning ko'pligi muhim ahamiyatga ega. Yaqin davrgacha bu yerda og'ir sanoat bo'lmagan. Mustaqillikka erishilgandan keyin, ayniqsa, yirik port shaharlarida asta-sekin sanoat korxonalari paydo bo'la boshlaydi. Masalan, Dakara, Abidjon, Jantil, Luanda, Port-Xarkorte va Zarrida neft ishlab chiqarish zavodlari, Gvineyada alyumin uchun zarur loy tuproq zavodi, Nigeriyada simob eritish zavodi, Gana va Kamerunda alyumin zavodi, Zoirda tog' koni sanoati va olmos kavlab olish korxonalari (jahonda eng katta olmos koni), Kongoda qo'rg'oshin va oltin konlari,

Gabonda marganes va uran konlari, Kamerunda boksit, Gobon va Kongoda yuqori sifatli temir ishlab chiqarish korxonalari paydo bo'ldi. Nihoyatda boy va rang-barang mineral resurslarning topilishi mazkur mintaqada eng muhim sanoat tarmoqlarining rivojini ta'min qilmoqda. Markaziy Afrikada yog'och ishlab chiqarish, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati sohalari ham rivojlangan. Og'ir sanoatning asosiy mahsulotlari eksportga ishlaydi.

G'arbiy va Markaziy Afrika aholisi turmush tarzi va tabiiy sharoitga moslashgan uylarda yashaydilar. Barcha mamlakatlar asosan, agrar xo'jalikka ega bo'lganligi tufayli aholining ko'pchilik qismi qishloqlarga joylashgan. Ammo G'arbiy Afrika qadimiy shahar madaniyatiga ega bo'lib, bu yerda o'rta asrlardayoq 70 ga yaqin shahar mavjud bo'lgan mintaqada keyingi davrlarda shaharlar ko'payib migratsion jarayon ancha kuchaygan. Markaziy Afrikada, aksincha, shaharlar asosan, so'nggi vaqtlarda paydo bo'la boshlagan, aholi migratsiyasi juda past. Umuman mintaqaning 70-80 foiz aholisi qishloqda joylashgan, ayrim mamlakatlarda undan ham ko'p (Chadda 93 %, Angola va Zairda 80-90 %, Niger, Liberiya, Mali, Gvineya-Bisau va Yuqori Voltada 90-95 % aholi qishloqlarda yashaydi).

Turli shakldagi uylar asosan, loy va yog'ochdan quriladi. Mande, xausa va g'arbiy bantu xalqlari loydan doirasimon, oynasiz konus shakldagi somon bilan yopilgan tomli uylarda yashaydilar. Mali va Gvineyada yashovchi mandingo xalqi 30-40 kishilik ikki-uch avloddan iborat katta oilalar birikib, yog'och devorlar bilan o'ralgan bir necha uylarda istiqomat qiladilar. Bunday uy shamoyili sukala deb ataladi. Hozir ham ko'chmanchi fulbe qabilalari doira qilib joylashgan, o'rtasida mol saqlaydigan qo'raga aylangan uylarda qonu qarindoshlar jamlanib, bir oila bo'lib yashaydilar. Bunday qurilgan uylarga vuro deb nom berilgan. Qishloq o'rtasida odatda jamoa majlislari uchun katta uy tiklangan. Ko'pincha tropik o'rmonlarda uchraydigan bunday jamoa uylarida erkaklar savat, bo'ya va boshqa buyumlar to'qiganlar, o'ymakorlik va haykaltaroshlik qilganlar, jamoa sudi va boshqa muhim masalalarni hal qilganlar. Qishloqlarda 200-300 kishi yashagan. Niger vohasida mingga yaqin kishilik qishloqlar ham mavjud.

Gvineya sohilida yashovchi xalqlar yog'ochdan qurilib, loydan urilgan to'rtburchak shaklidagi tekis somon tomli uylarda yashaydi-

lar. Masalan, yorubalarda uylari ichkariga qaratilgan bir necha hovlilar mavjud. Uylarning devorlari bezatilgan, ustunlarga o'yma naqshlar berilgan. Gana xalqining uylari ichkari va tashqariga bo'lingan, hovlilar devor bilan o'ralgan. Ko'chmanchi fulbe va tuareglar ko'chishga qulay teri yoki chipta yopilgan chodirlar tiklaganlar. Malidagi songai xalqlari o'ziga xos somon chiptalar bilan egilgan chiviq'larga birkutilgan uylarda yashaydilar. Bunday uylar toshqin kelganda ko'chirishga qulay bo'lgan.

Mahalliy aholining kiyimlari ham tabiiy sharoitga moslashgan. Sudan sohilliklarining erkaklari keng ko'ylak va sharovar (cholvir), ayollari yubkaga o'xshash beldan pasti to'piqqacha bir necha marta o'ralgan rangli chitdan iborat kiyim kiyadilar. Tog' etaklarida yashovchi fulbe qabilalari sovuqdan ko'ylak-ishton, ustiga jun matodan tikilgan plash yopinganlar. Tropik o'rmonlarda yashovchi aholining ko'pchiligi oddiy belbog' bilan cheklangan. Poyafzal deyarli kiyilmaydi, faqat sahroda issiq qumdagi qabilalar sandal kiyganlar. Tuareglarning erkaklari boshdan oyoq qora matoga o'ranadilar. Shaharlarda Yevropa kiyimlari tarqalgan.

Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining taomlari, asosan, guruch, sul, manioka va sabzavotlar, guruch, qo'ziqorin, sabzavot, go'sht yoki baliq bilan pishiriladi, sulidan atala, maniokadan non pishiradilar. Chorvador fulbe, asosan, sut mahsulotlarini iste'mol qiladilar, sul yoki makkadan atala pishirib, yog' qo'shib yeyiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi xilma-xil. Hatto eng rivojlangan Gvineya turkumiga kiradigan xalqlarda ham urug'chilik tuzumi qoldiqlari saqlangan. Masalan, XVI asrlarda paydo bo'lgan keyin ingliz mustamlakachilari tomonidan yemirilgan Ashanti davlati bir necha viloyatlarga bo'linib ularni podsho tomonidan tayinlangan urug'-jamo'a boshqarib turgan. Jamoa qon-qarindoshlik prinsipi asosida tuzilgan, taxt va oqsoqollar vazifasi ona urug'i tomonidan belgilangan, meros ham patriarxal tipda bo'lgan. Boshliq (rais) vafot etsa, uning o'rniga opasining katta o'g'li tayinlangan. Diniy e'tiqodga binoan har bir kishiga otadan jon, onadan qon: nasl-nasab o'tar emish.

Yoruba mamlakatida davlat ishlarida ayollar ishtirok qilgan. Bosh hokim qoshida saroyda oliy maslahatchi bo'lib, ayol kishi tayinlangan. U «podshoning onasi» deb e'lon qilingan, hokimning chinakam asl onasi esa o'g'li taxtga chiqishi bilan qatl etilgan. XVII

asrda Dagomeyada hatto ayollar gvardiyasi mavjud bo'lgan. Ayrim olimlarning fikricha, sudan-sohil xalqlarining ancha qismi sinfiy jamiyatga patriarxatni chetlab, to'g'ri matriarxatdan o'tgan. Chunki Atlantik okean sohillari va o'rmon chekkalaridagi ayrim qabilalarda to XIX asrgacha urug'-qabilaviy tuzumda matriarxat belgilari aniq namoyon bo'lgan. Patriarxal munosabatlarining tipik shakllari esa XVII asr boshlarida yirik siyosiy birikma — imomat tashkil qilgan ko'chmanchi fulbe qabilalarida saqlangan.

Ibtidoiy tuzum qoldiqlaridan mintaqada eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri Okeaniyadagi maxfiy ittifoqlardir. Erkaklardan tashkil topgan mazkur ittifoqlar dastlab matriarxat urug'iga qarama-qarshi tarzda paydo bo'lib, yangi jamiyatga kelib murakkab funksiyani bajaradi. Maxfiy ittifoqlar jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatib kelgan. Masalan, Liberiya paydo bo'lgan Poro nomli erkaklar ittifoqi, Kamerundagi Egba va Ngua ittifoqlari asosan, zodagonlardan tashkil topgan va uning boshida mahalliy qirol turgan. Sinfiy jamiyat sharoitida erkaklar ittifoqi davlat vakolatidagi (sud qilish, politsiya) ayrim vazifalarni bajaraganlar. Ular qo'pol kuchga tayanib, din bilan niqoblangan holda har xil hurofiy animistik va sehrgarlik bilan to'la marosimlar o'tkazib aholini vahimaga solib turganlar, hokimlarga soliq to'plash, boylik orttirish, siyosiy dushmanlarni yo'qotishda tayanch bo'lganlar. Vahimali niqob va kiyimlarda dahshatli arvoqlar shaklida kutilmagan paytda paydo bo'lib, qora niyatlarni amalga oshirganlar.

Maxfiy Ittifoqlarga kirish murakkab, avvalo, maxsus maktablarni tugatish zarur. Masalan, Liberiya paydo bo'lgan Poro ittifoqiga 12-14 yoshli bolalar qabul qilingan, maxsus ta'lim-tarbiya berilib, og'ir sinovlardan keyingina a'zolikka o'tkazilgan. Bola bir necha oy o'qitilgan, unga jasorat ko'rsatish, sabr-toqat qilish va boshqa har xil hunarlarni o'rgatganlar, turli sinovlardan o'tkazganlar. Qurol ishlatish, ov qilish, baliq tutishni egallaganlaridan so'ng o'rmonning eng qalin joyida maxsus marosimlar o'tkazib fотиha berganlar. Onda-sonda vahimali niqoblangan ittifoq a'zolari shovqin-suron bilan qishloqlarda paydo bo'lib ajdodlarning arvoqlariga bag'ishlab diniy marosimlar o'tkazganlar. Liberiya va Sudanda ayollarning ham maxfiy ittifoqi borligi aniqlangan. Unda ham maxsus maktablarda keksa ayollar ta'lim-tarbiya berganlar, marosimlar o'tkazganlar.

Odatda, Afrikani ajdodlar ibodatining klassik namunasi deb hisoblaydilar. Bu bejiz emas, chunki butun Afrikada, ayniqsa, uning g'arbiy va janubiy qismida ajdodlarga sig'inish nihoyatda keng tarqalgan. Ammo bu yerda islom va nasroniy dinlari ham muhim o'rinni egallaydi. G'arbiy Afrikaga islom IX-X asrlarda kela boshlagan va mahalliy dinlarni siqib chiqara boshlaydi. Hozir bu yerdagi aholining 32%i (61 mln.dan ortiq kishi) musulmon, taxminan 18% (21,4 mln. kishi) nasroniy dinida (XIX asrda tarqala boshlagan), qolgani mahalliy diniy e'tiqodlarga rioya qiladi. Masalan, Liberiya aholining 4/3 qismi, Fil Suyagi sohilida 3/2 qismi, yuqori Volta va Kanada 4/3 qismi, Nigeriya va Gvineya-Bisauda yarmiga yaqini mahalliy an'anaviy dinlarga, ayniqsa, ajdodlar arvofiga sig'inadilar. Sunna mazhabidagi islom G'arbiy Afrikaning asosan, shimolida va sohil zonasida, ayniqsa, Senegal, Gambia, Gvineya, Mali, Niger kabi mamlakatlarda hukmron dinga aylangan. Masalan, Nigerda 96 % aholi, Senegal va Gambiyada 80 % aholi musulmon. Mahalliy a'anaviy diniy e'tiqod va ibodatlariga rioya qiluvchilar G'arbiy Afrikada 38 % (52,3 mln.dan ortiq kishi)ni tashkil qiladi. Markaziy Afrikada esa mahalliy dindagilar 14 % dan ortiq aholi (19,2 mln.kishi)ni tashkil qiladi. Ammo islomga nisbatan nasroniylik ko'proq tarqalgan va ancha mustahkam saqlangan. Markaziy Afrika aholisining 20 foizdan ortig'i (23,7 mln.kishi) nasroniy dinida. Bular tashqari mintaqada nasroniy-afrika aralashma diniy e'tiqodlar ham keng tarqalgan. Bunday sinkretik dinlar ta'siriga G'arbiy Afrikaning 26 foiz aholisi, Markaziy Afrikaning 17 foiz aholisi o'tgan¹⁵.

G'arbiy va Markaziy Afrika xalqlarining badiiy hunarmandchilik san'ati naqadar yuksak bo'lsa, uning og'zaki ijodi, o'yin va musiqa san'ati ham shunchalik rivojlangan. Ajoyib arxitektura namunalari, go'zal ko'shk va saroylar, afsonaviy obrazlar tasviri berilgan haykal va ustunlar, quyma metall va o'yma yog'och san'ati namunalari bilan bir qatorda, beqiyos og'zaki adabiy merosni avlodma-avlod saqlab kelgan baxshi (griot)lar, ashulachi va raqqosalar jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Hozir ham xalq ijodi zaminida paydo bo'lgan

¹⁵ Barcha raqamlar olingan asar: Г.А.Шпажников. Религии стран Африки. Справочник. — М.: «Наука». 1981.

professional arxitektorlar va adabiyotchilar, aktyor va raqqosalar, musiqachi va ashulachilar, rassom va haykaltaroshlar o'zlarining go'zal san'atlarini Xalqaro festivallarda, konsert dasturlarida namoyish qilmoqdalar, olqishlarga, hurmat-e'tiborga sazovor bo'lmoqdalar.

§ 3. SHARQIY AFRIKA XALQLARI

Afrika qit'asining sharqiy qismida har xil irqdagi o'ziga xos maishiy turmush va madaniyat yaratgan turli etnoslar yashaydi. Bu yerda mustamlaka bo'lmagan yagona davlat — Efiopiya, Jahon olmos bozorida yetakchilik qilayotgan Janubiy Afrika respublikasi va Namibiya joylashgan. Sharqiy Afrikaga (Efiopiyadan tashqari) Somali, Jibuti, Keniya, Uganda, Tanzaniya, Ruanda, Burundi, Zambiya, Malavi mamlakatlari kiradi.

Qadimiy irqlardan Sharqiy Afrikadagi efio, negroid, negril yoki pigmey va bushmen tiplari so'nggi 12-10 ming yillar muqaddam shakllana boshlagan. Bu yerda chorva va dehqonchilik madaniyati Nil vohasiga nisbatan keyinroq eramizdan avvalgi VI ming yilliklarda neolit davrida yuzaga kelgan. 4-5 ming yillar muqaddam Efiopiya tog' etaklarida uy hayvonlarini qo'lga o'rgatib, don eka boshlaganlar. Neolitik makonlar, dala va kanallar Sharqiy Afrikaning qurg'oq hududlarida, Buyuk ko'llar atrofida topilgan. Shimoli-sharqiy qismida kusht tilida gapiradigan qadimiy tub aborigin aholi, butun sharqda tarqoq holda dehqonchilikni bilgan bantu («ntu» — odam, «ba» — lar, ya'ni «odamlar» degan ma'noda) xalqlari yashagan.

XIV-XVIII asrlarda bantular ilk yirik feodal davlatlari (Kitara, Karave, Luanda, Urundi, Buganda, Anakole kabilar)ni yaratganlar. Milodning I ming yilligi oxirlarida Hind okeani sohillari va orollarida arab madaniyati ta'sirida o'ziga xos suaxil madaniyati paydo bo'ladi. Bu yerda turli elatlar yashaydigan shahar-davlatlar (Pate, Lamu, Mombasa, Kliva va hk.) tashkil topadi. Asli suaxil xalqi bantular bilan kelgindi osiyoliklarning aralashmasidan paydo bo'lgan. Ular islom diniga o'tib o'z madaniy xususiyatlarini saqlab qolganlar. Suaxil xalqi hozir Keniya va Tanzaniyaning sohil hududlarida, Zanzibar, Pemba va Mafiya orollarida yashaydilar. Sharqiy Afrikaning shaharlariga osiyolik arablar va hindilar ko'plab kelib o'rtnashgan.

Janubiy Afrikaning tub aholisi, asosan, bushmenlar va guttentotlardir. Ular qadimgi zamonlarda butun Janubiy va qisman Sharqiy Afrikaning cheksiz tropik oʻrmonlarida joylashganlar. Hozirgacha ularning ibtidoiy ajdodlari yaratgan qoyatosh rasmlari saqlanib qolgan. Ularda yovvoyi hayvonlar, ov qilish, terimchilik va urush manzaralari, turli marosimlar tasvirlangan.

Bushmanlar (asli maʼnosi «butazor odamlari» yevropaliklar bergan nom) na dehqonchilik, na chorvachilikni bilganlar, faqat ovchilik va terimchilik bilan kun kechirganlar. Ular muayyan hududlarga ega boʻlgan qabilalarga boʻlinib, daydilikda kichik guruh boʻlib, ovqat izlab koʻchib yurganlar. Erkaklar oʻq-yoy, choʻqmor va nayzacha bilan ov qilganlar, ayollar esa uchi oʻtkir tayoq bilan yer kovlab yemishli ildizlar, chuvalchanglarni topib tirikchilik qilganlar.

Guttentotlar bushmenlarga nisbatan biroz yuqori madaniyatga ega boʻlgan. Ular faqat bir necha asr muqaddam chorvachilikka oʻtganlar, yirik va mayda shoxli mol boqib kun kechirganlar. Ular ham tropik oʻrmon aholisidek uylarini doirasimon qoʻra qilib (kraal shaklida) qurganlar va katta patriarxal oilalarga boʻlinib joylashganlar. Guttentotlar qoʻshni bantu xalqlaridan kulolchilik, temir eritish va ishlab chiqarish, temir qurollardan foydalanishni oʻrganganlar.

Afrika qitʼasining janubiy qismi etnik qiyofasi ancha murakkab. Janubiy Afrika mamlakatining 4/5 qismi (61 mln. kishi) turli etnoslardan, quramalashib ketgan afrikaliklardan iborat. Eng koʻpi bantu xalqlari (umumiy aholining 78 % i), bushmen va guttentotlar 0,5 %, yevropaliklarning avlodlari metislar bilan 19 %, kelgindi osiyoliklar va ularning avlodlari 2 % ni tashkil etadi.

Mazkur hududda yashovchi xalqlarning ichida eng birinchi demokratik tuzumga qadam tashlagan koʻp sonli (43,3 mln.) aholiga ega boʻlgan Efiopiya etnik jihatdan alohida oʻrinni egallaydi.

Efiopiya eng qadimiy madaniyat markazlaridan biri. Bu yerda topilgan toshdan yasalgan ibtidoiy mehnat qurollari 3 mln. yillar muqaddam paydo boʻlgan. Ibtidoiy makonlardan paleolit va ayniqsa, neolit davriga oid obidalar koʻp topilgan. Eramizning boshlarida paydo boʻlgan Aksum podsholigi IV-IX asrlarda gullab-yashnagan, Misr, Rim-Vizantiya imperiyasi va Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqasi oʻrnatilgan, V asrlardan nasroniy dini tarqalgan edi.

Yevropoid va negroid irq-lari o'rtalig'ida shakllangan Efiop irqiga tegishli xalqlar asosan, semit-xamit (afroosiyo) tillarida gapiradilar. Efiopiyada yashovchi eng katta xalqlar amxara va oroma, janubi-sharqiy hududlardagi somaliylar va boshqa elatlar semit til oilasiga mansub. Markaziy qismi va janubi ko'p sonli galla, sidamo, kushit tilida gapiradigan xalqlardan iborat. Ular asosan, dehqonchilik bilan shug'ullanadilar.

Efiopiya eng qadimiy dehqonchilik markazlaridan bo'lib, uning markaziy va g'arbi-shimoliy qismlarida haydaladigan yerlariga asosan, g'alla ekilgan. Yaylovli chorva xo'jaligi chopqi dehqonchiligi bilan birga rivojlangan hududlar g'arbiy, janubiy qismida mavjud. Asosiy ekinlardan bug'doyning ayrim turlari teffa (mayda urug'li don), durra (jugari turi), makka, arpa, suli, sholi, lobiyo turlari, no'xat, chechevitsa, nut, paxta ekiladi. Efiopiyada kofe yetishtiriladi va u (kefa provinsiyasi nomi bilan bog'liq), eng sevimli ichimlik sanaladi. Turli sabzavot ekinlar: qalampir, piyoz, sarimsoq, karam, bodring, qovoq ham yetishtiriladi. Keyingi vaqtlarda pomidor, lavlagi, rangli karam, sabzi ham keng tarqalgan. Bog'dorchilik rivojlangan, apelsin, limon, mandarin, anor, banan o'stiriladi. Dehqon xo'jaligida qo'l to'qimachiligining ommaviylashgani, eksportning ko'payishi natijasida paxta muhim ekinlardan hisoblanadi. Shimoliy viloyatlarda va Eritriyada temir tishli plug bilan yerga ishlov beriladi. Efiopiyaning g'arbida yashovchi galla xalqi bir yarim metr uzun xodaning uchiga tosh bog'lab yerni kovlab ekin ekadi. Asosan, dehqonchilik qurollari ancha jo'n, oddiy agrotexnika usullari qo'llaniladi, ko'pincha chopqi va yo'nilgan yog'och, o'roq va qo'l omochi ishlatiladi.

Dehqonlarning asosiy taomlari har xil chuchuk non va patirlar, sevimli taomi yog'li non va qalampirli lobiyo qaylasi — shuro. Go'sht kam ishlatiladi. Ammo Efiopiya mol tuyog'i soniga qaraganda jahonda yetakchi o'rinlarda turadi. Masalan, o'tgan asr oxirlarida 27 mln. yirik shoxli mol, 40 mln. qo'y va echki, 15 mln. cho'chqa bo'lgan. Mamlakatda ot, tuya, eshak juda ko'p. Asalchilik ham keng tarqalgan. Asaldan maxsus vino-teja va sham tayyorlanadi. Daryo va ko'llarda, dengiz sohillarida baliqchilik mavjud.

Hunarmandchilik nihoyatda rivojlangan. Temir buyumlar ishlab chiqarish, zargarlik birinchi o'rinda turadi. Qadimiy davrlardan efioplar temir mahsulotlari, bilaguzuk, sirg'a va boshqa turli

bezaklarni nozik naqshlar bilan ishlab chiqqanlar. Hatto kiyimlar, metall, ayniqsa, oltin va kumush buyumlar qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. O'simlik naqshlari qadimiy qo'lyozmalarda ham ishlatilgan. Kulolchilikda zo'r mahorat bilan spiral usulida cho'zib nafis buyumlar ishlab chiqariladi. Chorvachilikda turli teri-charm mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Qishloq aholisi xo'jalik xarakteriga qarab joylashgan. Amxar, galla, keffa xalqlari tartibsiz qurilgan qishloqlarda yashaydilar. Sigrai xalqida qavmu qarindoshlar mahalla (kvartal) bo'lib joylashgan. Uylari doirasimon, sinch yoki to'qima loy bilan urilgan devorli, tomi esa konussimon somon bilan yopilgan bo'ladi. Bunday uylar tukuli deb atalgan va baland devorlar bilan o'ralgan. Tukuli oyna-eshikli, o'rtasida o'choq, bir chekada yotish uchun supa. Uy jihozlari asosan, bambukdan to'qib ishlangan past stol (xontaxta shaklida), turli chipta va bo'yralar, g'o'ladan yasalgan o'rindiqlar. Don uy ichida qurilgan maxsus g'o'ra (gota)da saqlangan. Nonni injaro deb ataydilar va teffa unidan katta tovada pishiradilar. Taomni dehqonlar baland doira shaklidagi savat stollarda iste'mol qiladilar. Bunday stollar odatda hovlida saqlanadi. Faqat ovqat vaqtida ichkariga kiritiladi. Uyda so'qi, turli qovoq, sopol va metall idishlar, maxsus kiyim saqlanadigan savatlar mavjud.

Efiopiyaning shimoliy va sharqiy hududlarida yashovchi aholi to'g'riburchak shaklida mayda tosh va shag'aldan tuproq va tezak aralash loydan qurilgan tekis tomli uylarda yashaydilar. Ko'chmanchi chorvadorlar (masalan, somaliliklar) o'ziga xos panjara sinch devorlarga tuxum shaklida qalin quruq xashak yopilgan, ustiga tuya yoki ho'kiz terisi qoplangan uylarda yashaydilar. Keyingi yillarda ko'chmanchilarning o'troq turmush tarziga o'tayotgan qismi tukuli uylarni tiklamoqdalar.

Efiopiyada shahar juda kam. Aholining faqat 10 foizi shaharlarida yashaydi. Qadimiy yirik shaharlardan Aksum, Gondar, Xarar. Mamlakatning poytaxti Addis-Abebeda 1,5 mln. (1980-yil) kishi yashaydi xolos. Boshqa shaharlar katta qishloqlarga o'xshab ketadi.

Kiyimlari an'anaviy, erkaklar chitdan uzun tik yoqali ko'ylak, tor ishton kiyadilar, ustiga shamma (chopon) yopinadilar, sovuqda koshonli jundan tikilgan burnus kiyadilar. Ayollarning kiyimlari ham uzun tor yengli ko'ylak, shamma va burnusdan iborat. Odatda ayol va erkaklar bosh va oyoq yalang yuradilar, ayollar ba'zan ro'mol

yopinadilar. Faqat sahroda qaynoq qumda yurish uchun teri sandal kiyiladi. So'nggi vaqtlarda Yevropa kiyimlari keng tarqala boshlagan.

Aytish joizki, mamlakatda respublika hokimiyati o'rnatilgach sotsial-iqtisodiy, maishiy va madaniy hayotda ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Yer islohoti amalga oshirilib, feodal mulk tugatilgan, yer davlat mulki deb e'lon qilingan. Davlat sanoatni rivojlantirish, modernizatsiya qilish va yangi korxonalar qurishga katta e'tibor bermoqda.

Efiopiya qishloqlarida an'anaviy turmush tarzi moddiy va ma'naviy madaniyatni qadimiy xususiyatlarini saqlab kelmoqda, ammo shaharlarda va yirik qishloqlarda an'anaviy maishiy turmush shakllari bilan birga, yangi shahar hayoti belgilari sezilmoqda. Ayollarda nozik matolardan burma qilib tikilgan kashtali oq ko'ylaklar, yoshlarda esa yubka va bluzkalar paydo bo'lmoqda. Bayramlarda hamma oq liboslar (Efiopiyada oq rang sevimli) kiyib bezanadilar. Butun hayot ochiq havoda o'tadi. Hovlida ovqat pishiriladi, chit to'qiladi, ip yigiriladi, non yopiladi va kofe qaynatiladi.

1975-1976-yillarda maktab cherkovdan ajratilib shaxsiy o'quv yurtlari davlat ixtiyoriga o'tgan.

Efiopiya xalqlarida folklor, musiqa, raqs va kuylar juda rivojlangan. Turli xalq rivoyatlari, masal va maqollar, ertak va ashulalari amxara, tigrai, oromo va boshqa xalqlarning turmush tarzining turli tomonlari bilan tanishtiradi, sotsial hayotini ochib beradi. Tasviriy san'at, adabiyot, kuy va o'yinlar yana ham ravnaq topmoqda. 1955-yili poytaxtda birinchi professional (70-yillardan milliy) teatr paydo bo'lgan. Diniy e'tiqodlariga qarab nasroniy va musulmon bayramlari tantanali nishonlanadi. Butun mamlakatda yangi yil (11-sentabr), «Maskal» nomli hosil bayrami (27-sentabr) umumxalq tantanalariga aylangan.

Aholining 19 million, ya'ni yarmidan ko'pi (66,5 % i) nasroniy dinida (asosan, amxara, tigrai, qisman oromo, agou va boshqa xalqlarda), qolgani (28 % i) musulmonlar (somal, afari, chorva oromo, tigra, badja, voyta, jabirti kabi xalqlar) va mahalliy an'anaviy dindagi (5 foizi) elatlar va etnik guruhlar (asosan, g'arbiy, shimoliy va janubi-g'arbiy hududlarda) ajdodlarga sig'inish, animizm kabi e'tiqodlar saqlangan.

Somali yarim orolida yashovchi shu nomdagi aholining (5,5 milliondan ortiq kishi) turmush tarzi efiopiyaliklarga ancha yaqin.

Miloddan avvalgi II ming yilliklarda bu o'lkani qadimiy misrliklar Punt mamlakati deb ataganlar. VII asrdan boshlab somali arab madaniyati ta'siriga o'tadi. X-XII asrlarda paydo bo'lgan Adal sultonligi yirik tranzit savdo markaziga aylangan va XII asrlargacha gullab-yashnagan. Keyin Somali sohilidagi sultonlik va imomatlar Misrga va Portugaliyaga qaram bo'ladilar. 1869-yilda Suets kanali ochilgandan so'ng o'sha davrdagi imperialistik davlatlar strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan Somalini o'zaro bo'lib olishgan. Faqat ikkinchi jahon urushidan keyin ko'p yillik ozodlik kurashi natijasida 1960-yil iyul oyida mustamlaka o'lka birikib, mustaqil Somali Respublikasi e'lon qilingan edi.

Mamlakatning 96% aholisi Efiopiya irqi, kushid til guruhiga oid somaliliklar. Janubi-g'arbiy qismida negroid irqiga tegishli bantu tilidagi vegosha, bajuni qabilalari yashaydi. Ular asosan, dehqonchilik, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanadilar. Yirik port shaharlari va savdo markazlarida qisman arablar, suaxili, amxara, hindiyalar va italiyaliklar joylashgan.

Somalilarning asosiy qismi (janubiy hududlarda 60% va shimolda 90%) ko'chma chorva xo'jaliklardan iborat, ular biroz dehqonchilik bilan ham shug'ullanadilar. Ayniqsa, tuyakashlik keng tarqalgan. O'ndan ortiq tuya, bir-ikki yuz qo'y va echkiga ega bo'lgan kishi badavlat hisoblanadi. Ayrim boy oilalar bir necha yuz va hatto mingta tuyaga ega. Somalilar guruhlarga bo'linib, ko'pincha qavmu qarindosh oilalar birikib ko'chib yurganlar. Uzoq davrga mo'ljallanib qurilgan makon (guri)ni qoldirib, o'spirin va yoshlar tuyakashlik qilib, uzoq joylarga ko'chib bir necha oygacha poda bilan yashagan. O'troq holatda faqat aholining 3/1 qismi yashaydi. Bular, asosan, vodiylarda joylashgan dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar va sohillardagi baliqchilar.

Ijtimoiy tuzumda ko'chmanchi aholi orasida urug'-qabilaviy munosabatlar, dehqonlar orasida feodal-patriarxal munosabatlar hukmronlik qiladi. Ibtidoiy urug'-qabilaviy qoldiqlari somaliliklarning ijtimoiy taraqqiyotiga katta g'ov bo'lmoqda.

Dehqonchilikda faqat xo'jalikka zarur ekinlar (jugari, makka, kunji, araxis, lobiyo, paxta) ekiladi. Eksport uchun plantatsiyalarda banan, shakarqamish yetishtiriladi. Har yili 110 tonnaga yaqin banan eksport qilinadi.

Somaliliklarning ko'chmanchi chorvador qismi muvaqqat lagerlar tiklab, tuxum shaklidagi qismlarga bo'linib, yig'ishtiriladigan

o'tov (akal)larda, o'troq aholi silindr shaklidagi somon bilan yopilgan uy (mundullo)larda istiqomat qiladilar. Yirik qishloqlarda to'g'riburchakli chipta devorlarga qurilgan palma yaproqlari bilan yopilgan nishab tomli uy (arish)lar tiklangan. Kiyimlari qo'shni efiopiyaliklarnikiday uzun, yaxlit chitdan, butun badanini to'pig'igacha o'raydigan sarpo, oyog'iga sandal (das), bo'yinlariga qur'on suralari yozilgan tumor osadilar. Chorvador aholining asosiy taomi sut, qatiq, qurt, onda-sonda go'sht va atala, dehqonlarning taomi non, atala, sariyog' va sut.

Somali aholisining 99,8 foizi islom dinida. Ular barcha musulmon bayramlarini va navro'z (somalicha dabisht bayrami)ni tantanali ravishda nishonlaydilar.

Sharqiy Afrikaning yirik mamlakatlaridan Keniya (20,4 mln. aholi), Uganda (15,4 mln.), Tanzaniya (21,7 mln. kishi)ning etnik qiyofasi rang-barang. Masalan, Keniyada yashovchi aholining asosiy qismi (95 %) negroid irqda, ayniqsa, nilot tipi ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu yerda bantu, nilot, kushit tillarida gapiradigan turli elatlar yashaydi. Shulardan bantu tilidagi etnoslar (kikyuyu, embu, kamba, taraka, luxya, kasik, pakomo, iverine, suaxili va hk.). Nilot til turkumiga oid xalqlar (aholining 30 % i)dan eng kattasi jaluo yoki luomlgari ko'chmanchi chorvador bo'lib, keyin o'troq dehqonchilikka o'tgan. Hozirgacha yarim ko'chmanchilikda yashab kelayotgan nilotlar ko'p. Ularning tasavvurida yerga ishlov berish, ya'ni dehqonchilik qilish nomunosib kasb. Bunday fikrdagi masai samburu, turkana, teso nomli chorvador qabilalar hozir ham qadimiy odatlariga binoan ayricha yashaydilar.

Keniya respublikasi o'sib borayotgan ko'ptarmoqli qishloq xo'jaligiga ega mustaqil mamlakat. Bu yerda plantatsiya xo'jaligi ancha rivojlangan. Ammo xo'jaliklarning 4/3 qismi yarim natural tipda bo'lib, o'ziga zarur an'anaviy mahsulotlarni ishlab chiqaradi. O'rmon va savanna qismida yashovchi xalqlarda qo'l mehnatiga asoslangan jamoachilik dehqon xo'jaliklari saqlangan. Keng tarqalgan ekinlardan makkajo'xori, manioka, yams battat, banan. Yemishli ildizlar va bananni un qilib, qovurib yoki pishirib iste'mol qiladilar. Kushit xalqlari molni asosiy boylik deb hisoblaydi va kam so'yadi, asosan, sut iste'mol qilinadi. Qon aralashtirilgan sut sevimli taomlaridan.

Nilot va kushit xalqlarining ko'pchiligi uzoq asrlar davomida mustamlakachilar asorati va undan oldingi davrlardagi qul savdosi

tufayli o'zlarining an'anaviy madaniy xususiyatlarini biroz yo'qotganlar. Bantu, nilot va kushitlar o'ziga xos tarixiy-madaniy viloyatlarga bo'linadi.

Afrika, arab va hind madaniyatlarining ko'p asrlik yaqin aloqalari va aralashmasida paydo bo'lgan yorqin va original suaxili madaniyati umumjahon mohiyatga ega bo'lgan va juda ko'p etnoslarga manzur tushgan madaniyatga aylangan. Uy qurilishida, kiyimlarida, badiiy hunarmandchilik mahsulotlarida, ma'naviy hayotida nihoyatda go'zal va rang-barang o'ziga xos xususiyatlarni saqlab kelgan. Keniya xalqlarining sohil qismi aholisi hozirgacha zargarlik, misgarlik, yog'och va suyak o'ymakorligi san'ati an'alarini davom ettirmoqdalar. Suaxilliklarning oq xalat (galabey)lari, kumush bilan kashtalangan chiroyli do'ppilari, ayollarning quyuq ko'k, o'ziga xos parda va choyshablari, turli taomlari sharqi-janubiy sohil aholisi orasida keng tarqalgan.

Tanzaniyada mahalliy bantu xalqlarining o'troq dehqonchilik madaniyati bilan hunarmandchilik va sohillardagi suaxili savdogarlarining madaniy an'analari qadimiy davrlardan aralashib shakllanib kelgan. Uganda, Burundi, Zambiya xalqlarida ham bu jarayon sezilarli darajada. Zambiyada bir necha o'n qo'shni qishloqlar birikib, bir jamoa (chifdom)ni tashkil qiladilar. Odatda, 5-10 ming kishidan iborat chifdom boshida oqsoqol boshliq saylanadi. Mazkur jamoalarning soni mamlakatda 400ga yaqin. Tanzaniyada bola voyaga yetganda, nikoh va ko'mish marosimlarida qadimiy urf-odatlar saqlanib, ularni koinlar va folbinlar boshqarib kelgan. Chorvador-masai aholisi past ellipis shaklidagi xashak va chiviqlardan tiklangan uylardan iborat 20-50 xonadonlik qishloqlarda jamoa bo'lib yashaydilar.

Hozirgi Keniyaning 48% aholisi mahalliy an'anaviy diniy e'tiqod va ibodatlarga amal qiladilar. 30%i nasroniy dinida, 15%i musulmon. Tanzaniyada mahalliy dinlarga 44% aholi, islom diniga 25,7%, nasroniy diniga 28,8% aholisi rioya qiladi. Uganda aholisining 43,8% an'anaviy dinlarda, 47,7% nasroniy, 3-5% musulmon, mahalliy din va ibodatga amal qiluvchilar Ruandada ko'proq (55,5%), qolgani nasroniylikka o'tgan. Qo'shni Burundida ko'pchilikni nasroniyilar tashkil etadi (54,7%), qolgani mahalliy ibtidoiy din shakllari ta'sirida. Sharqiy Afrikada ham sinkritik aralash nasroniy-afrika cherkovlari va mazhablari paydo bo'lgan.

§4. JANUBIY AFRIKA XALQLARI

Janubiy Afrikaning etnik qiyofasi, lingvistik tuzilishi va sotsial tuzumi turlicha ko‘rinish kasb etgan. Tub aholi afrikaliklar mintaqaning 5/4 qismini tashkil qiladi (1980-yil 61 million), janubiy qismida afrikaliklarning ko‘pchiligi bantu xalqlaridan (taxminan umumiy aholining 78 % i), qadimiy etnos hisoblangan bushmen va guttentotlar 0,5 %, kelgindi yevropaliklar metislar bilan 19 %, osiyoliklar 2 % nufuzga ega.

Turli mahalliy etnoslar mintaqada Mozambik, Zimbabve, Janubiy Afrika Respublikasi (JAR), Namibiya, Botsvana, Svazilend, Lesoto davlatlari, Madagaskar, Komor, Reyunon, Mavrikiy va Seyshel orollaridagi o‘lkalar orasida tarqoq holda joylashgan. Mintaqadagi mamlakatlar orasida o‘zining ijtimoiy tuzumi va etnik tarkibi jihatidan Mozambik respublikasi alohida o‘rin egallaydi.

Ko‘p yillik milliy-ozodlik kurashi natijasida mustaqillikka erishdi. O‘n milliondan ortiq aholiga ega bo‘lgan bu mamlakat agrar harakatdagi kam taraqqiy etgan o‘lkalar qatoriga kiradi. Bu yerda mustamlaka davrida uch xil yer mulki mavjud edi: chet el konsessiyalariga tegishli yirik plantatsion xo‘jalik, portugal mustamlakachilarning fermer xo‘jaliklari va mahalliy tub aholining yarim natural xo‘jaliklari. Ishlanadigan serunum yerlarning 60 foizi plantator va fermerlar qo‘lida bo‘lgan. Asosiy ekinlar manioko, makkajo‘xori, paxta, kashyu yong‘og‘i, shakarqamish, choy, kokos yong‘og‘i, banan, sizal va hk. Eksportning 80 foizi qishloq xo‘jalik mahsulotlari, ayniqsa, kashyu yong‘og‘i, paxta, choy va shakarqamish. Mamlakatda, chorva sust rivojlangan, sohillarda baliqchilik mavjud, ayrim xalqlar (makonde) ovchilik va asalchilik bilan ham shug‘ullanadilar.

Boshqa bantu xalqlaridagidek badiiy hunarmandchilik, ayniqsa, misgarlik, za‘rgarlik, o‘ymakorlik keng tarqalgan. Makonde xalqi hunarmandlarining yog‘och haykallari jahonga mashhur. Ularda pastki labi va burniga qalayi yoki ba‘zan kumushdan uzuk taqish odati bo‘lgan, har xil niqob kiyib raqsga tushish keng tarqalgan. Aholining 3/2 qismi mahalliy an‘anaviy diniy ibodatlarga, taxminan 16 foizga yaqini nasroniy diniga, 11,6 foizi islomga itoat qiladi.

Janubiy Afrikaning nisbatan rivojlangan ko‘ptarmoqli xo‘jalikka ega bo‘lgan mamlakatlaridan sanalgan Zimbabve xalqlarida an‘anaviy turmush tarzi unsurlari ancha saqlanib kelgan. Masalan, aholining 3/2 qismini tashkil qiluvchi shona xalqi hozirgacha oynasiz,

doirasimon konussimon somon tomli uylarda yashaydilar, butun faoliyat va tirikchilik ochiq hovlilarda o'tadi. Ovqatlari dondan pishirilgan atala, sabzavot qaylasi, go'shtni faqat oilaviy yoki diniy bayramlarda iste'mol qiladilar. Teridan tikilgan belbog' yoki etakcha, ba'zan kandirdan to'qilgan etik kiyadilar. Ularda hozirgacha qadimiy qabilaviy tashkilot tartiblari saqlangan. Katta etnohududiy birikmadan iborat qabila jamoasi — «nika»ni oqsoqollar boshqaradi. Ular muayyan davrda jamoa mulki hisoblangan mulk — yerlarni qayta taqsimlash, hashar tashkil qilish, marosimlar o'tkazishga bosh bo'ladilar. Qishloq oilalarida har bir oila a'zosi hurmatiga qarab taom iste'mol qilishda o'z o'rnini aniq bilgan. Har qaysi kishi dala ishlaridan tashqari uyida bir kasbni bilishi, masalan, chipta yoki savat to'qishni, sopol idish yasashni, o'ymakorlikni yoki boshqa bir kasbni egallashi shart bo'lgan. Ularning sevimli musiqa asboblari turli nog'oralar, nay va surnaylar, o'ziga xos yog'och rezonatorga o'rnatilgan tunikali instrument «mbira». Juda nozik geometrik naqshlar berilgan sopol buyumlar, to'qima mahsulotlar, applikatsiya usulida to'qilgan gilamlar shona xalqiga xos dekorativ san'at namunalaridir.

Zimbabve aholisining ko'pchiligida (64 %) an'anaviy diniy e'tiqodlar, ayniqsa, tabiat kuchlariga, urug' va qabila ajdodlariga sig'inish saqlanib kelgan. Bu yerda ham nasroniylik XIX asr o'rtalaridan tarqala boshlagan. Hozir nasroniy dinida aholining 24,7%i, qurama nasroniy-afrika cherkov va mazhabida 10,7%i bo'lib, dinning ta'siri kuchli. Mustaqillikka erishgan Zimbabve respublikasi (1980-yili) keng ko'lamli taraqqiyot yo'liga o'ta boshlagan o'lkadir.

Qo'shni Botsvana respublikasini ba'zan «sahro» mamlakati deyдилar. Chunki, bepoyon Kalaxari sahrosining ko'p qismi respublika hududiga kiradi. Botsvana tabiati o'ziga xos floraga ega: bu yerda mimoza akatsiyalari, turli aloe o'simliklari, o'nlab metr chuqurlikka ildiz otgan kaktus shaklidagi tlaba nomli o'simlik, qovoqning har xil turlari va non daraxti yovvoyi holatda o'sadi. Faqat Kalaxarida tuxum hajmidagi yovvoyi tarvuz o'sadi, uning ta'mi achchiqroq va nordon. Shimoliy savannada g'alati baobaba va merula daraxtlarda odam va hayvonlar iste'mol qiladigan mevalar pishadi. Uch-to'rt yilda bir marta hosil beradigan merula mevasi kayf beradigan vinoga o'xshaydi.

Botsvana aholisining 90 foizi bantu tilida gapiradigan tevana xalqi, qolgani shona, gerero elatlari Kalaxari ichkarisida bushmenlar

daydilikda ovchilik va terimchilik bilan kun kechiradilar. Tevana aholisi asosan, chorcovichilik va qisman sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanadilar. Yirtqich hayvonlardan saqlanish uchun uylarini baland yog'och devorlar bilan o'rab oladilar. Ular juda mohir hunarmand, chiroyli yog'och va sopol buyumlar, teridan kiyim va gilamchalar ishlab chiqaradilar. Tevanalarning milliy kiyimlari teridan belbog'li etakcha (kaross) va telpakka o'xshash bosh bo'yinni va bekitadigan jundan to'qilgan bosh kiyim.

Etnik jihatdan o'ziga xos Koysan til turkumiga mansub bushmenlarning qurol va buyumlari o'q-yoy, o'qdon, yog'och so'qi va sopi straus tuxumi qobig'idan va yovvoyi hayvonlarning oshqozonidan ishlangan suv idishlaridir. Yoy-o'qning uchi toshdan yoki qo'shni bantu va gutentotlardan almashib olgan metallardan yasalgan. Ular o'q-yoyni musiqa asbobi sifatida ham ishlata biladilar. Sehrgarlik marosimlarida musiqachilar chalqancha yotib kuy ijro etadilar. Bushmenlar ota urug'idagi qavm-qarindosh guruhlariga birikib, daydilik qilib ko'chib yuradilar. Ularda doimiy uylar bo'lmasdan, turargohlarida qumni kavlab yoki yerto'la qilib somon to'shab yotganlar, ba'zan xashaklardan chayla tiklaganlar. Okavango vohasida bir necha o'troq bushmenlarning qishlog'i uchraydi. Ular yig'im-terim va ovchilikdan tashqari chopqi dehqonchiligi bilan ham shug'ullanadilar.

Botsvana aholisining ko'pchiligida hozirgacha qabila boshliqlari arvohlarga, tabiatga sig'inish, totemistik tasavvurlar saqlanib kelgan. Turli marosimlar, ayniqsa, initsiatsiya bilan bog'liq urfodatlar keng tarqalgan.

Janubiy Afrika Respublikasi juda katta hududda joylashgan (1,2 mln. kv. km.), uning aholi soni 32,4 million kishidan iborat (1985-yil), Namibiyaniki 1,5 mln.dan oshiq (hududi 824,3 ming kv.km.).

JAR taraqqiy qilgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Dastlab bu yerga XVII asr o'rtalarida gollandiyaliklar (burlar ya'ni dehqonlar yoki afrikanerlar) kela boshlaydi. Ular tashkil qilgan firmalarda Osiyo (Yava)dan, Madagaskar va G'arbiy Afrikadan keltirilgan qullar ishlatilgan, keyinchalik mahalliy guttentotlarni asir qilib ishlata boshlaganlar. XVII-XVIII asrlarda Janubiy Afrikaga fransuz gugenotlari va nemislar ko'chib kelishgan.

Afrikaliklardan eng katta etnik guruh bantu (aholining 70 foizi), ayniqsa, zulu, kosa, suto, tivan va svazi xalqlari o'ziga xos madaniyatini saqlab kelmoqda. Ularning ijtimoiy tuzumida ancha

o'zgarishlar ro'y bergan. Katta patriarxal oilalar o'rniga kichik oilalar paydo bo'lgan, diniy e'tiqodlar ancha o'zgargan, ko'pchilik aholi nasroniy diniga o'tgan (47 %), mahalliy an'anaviy dinlar aholining 3/1 qismida saqlangan, qurama nasroniy Afrika cherkovi va mazhablari tarafdorlari esa 13,7 foiz aholini tashkil qiladi. Islom bu yerga dastlab XVIII asrda Indoneziyadan musulmon qullar bilan kelgan va XIX asrning o'rtalaridan keyin ancha ko'paygan. Hozir aholining 1,4 foizi musulmon dinida.

Janubiy Afrika bantu xalqlarining an'anaviy xo'jaligi chorvachilik va chopqi dehqonchiligi. Qo'shimcha ovchilik va terimchilik bilan ham shug'ullanganlar. Ovchilarning asosiy qurollari otiladigan nayza, bolta, cho'qmor, o'q-yoydan iborat, ovda tuzoq va pistirma ham ishlatganlar. Barcha bantu xalqlari temir va mis eritish, metall-qurol, aslaha va bezaklar yasash san'atini egallagan. Temirchilik eng hurmatli kasb hisoblangan. Charxsiz ajoyib sopol idishlar yasab, o'tda kuydirib, qizil bo'yoq bilan naqsh berilgan va siyqalab yaltiratilgan.

To'qimachilikni bilmasa ham bantular terilarga yaxshi ishlov berib kiyim tikkanlar. Ular antilopa (ohu), shag'al, zodagonlar esa sher va qoplon terisidan po'stin (kaross) tikib kiyganlar. Erkaklar teri belbog'cha, ayollar barra terisidan etakcha bog'laganlar. Zulu ayollari erga chiqqanda sochini cho'qqaytirib o'rab, qizil rangga bo'yaydi, ndebela ayollari esa aksincha, sochini onda-sonda qirqib, bir-ikki kokil qoldiradi. Ponda xalqining ayollari sochlarini juda murakkab qilib o'raydi. Butun bantu xalqlarida turli munchoqlar, kouri chig'anog'i, mis yoki temir uzuk taqish keng tarqalgan. Munchoqlardan har xil shoda, etakcha, dekorativ bezaklar yasaganlar. Erkak va ayollar o'rtasida mehnat taqsim qilingan. Erkaklar chorvachilik, ovchilik, metall buyumlar yasash, yog'och o'ymakorligi bilan shug'ullanganlar. Ayollar dehqonchilik (yer kavlash erkakka yuklangan), terimchilik, kulolchilik, uy xo'jaligi, chipta to'qish kabilar bilan shug'ullanganlar.

Butun bantu aholisi Afrikada keng tarqalgan doira (qo'ra) shaklida qurilgan qishloqlar (kraal)da katta patriarxal oila bo'lib yashaganlar. Zulus va kosa xalqlarida ota urug'ining klassik namunasi so'nggi davrlargacha saqlangan bo'lib, katta oila jamiyatning iqtisodiy hujayrasi hisoblangan. Har bir qabila bir necha urug'larga bo'lingan, har bir guruh yer mulkiga ega va ayrim saylangan oqsoqol tomonidan boshqarilgan. Yirik shoxli mol katta

patriarxal oilaning mulki hisoblangan. Nikohda qora moldan qalin to'langan. Kuyovbola qalin to'lashga urug'doshlaridan mol to'plagan. Bantu xalqlarida, umuman asosiy boylik yirik shoxli mol hisoblangan. Ularda sut mahsuloti ishlatilgan, go'shtni kam iste'mol qilganlar. Guttentotlarda chorvachilik bilan ovchilik birga olib borilgan, bushmenlar esa ovchilik va terimchilik bilan shug'ullanarlar.

Guttentotlarning uylari egilgan daraxt navdalaridan gumbaz shaklida qurilib, ularning usti terilar bilan qoplangan yoki loy bilan suvalgan kulbalardan iborat. Ularning ov qurollari metall uchli nayza, o'q-yoy, uzun cho'qmor («kirri») bo'lgan. Janubiy Afrika bantu xalqlarining uylari doira shaklida cho'qqaygan tomli qamish yoki somon bilan yopilgan, doira qilib tizilgan bo'lib mol qo'rasi vazifasini bajaradi. Zulu xalqlarida sharga o'xshash ustunlarga o'rnatilgan to'qima uylarning tashqari va ichkarisi loy bilan urilgan. Soto xalqida esa turli xilda: konus tomli, tuxum shaklida yoki to'g'riburchakli ikki yoki to'rt nishabli. Tog'li joylarda uylar toshdan yoki guvaladan tiklanib ba'zan bezak berilgan. Ayniqsa, ndebela xalqida tuxumsimon uylar bir-birlari bilan naqsh berilgan gumbazli va ustunli devorlar orqali yopishgan, devorlari qora, kulrang, qizil, sariq va ko'k rangli geometrik ornamentlar bilan bezatilgan. Uyro'zg'or buyumlari yog' va sut saqlaydigan yog'och idishlar, qovoqdan ishlangan suvdonlar, don va go'sht soladigan savatlar, yerga to'shaladigan chipta va bo'yralardan iborat.

Xalq ijodi, badiiy hunarmandchilik ancha rivojlangan. Janubiy Afrika bantulari chiroyli cho'zma usulda sopol buyumlar, o'yma naqshli yog'och idishlar, ho'kiz qo'shiladigan ayrishoxli yog'ochdan yasalgan chanalar, temir uchli nayza va boshqa qurollar ishlab chiqarganlar. Jo'shqin raqs va kuylar ularning eng sevimli tomoshalari, barcha tantana va marosimlarning eng muhim qismidir. Musiqa asboblari turli xilda, ammo katta-kichik nog'oralar («marimbo», «ngoma») doimo jo'r bo'lgan, yog'och, shox yoki qamishdan yasalgan surnay va naylar, kamonchali asboblalar... Yomg'ir yog'dirish marosimida bantu xalqlarida o'yin-kulgi, raqs ashulalar bilan birga, qora qo'y yoki buzoq qurbonlikka so'yilishi shart bo'lgan. Bushmenlar beshikchi chigirtkaga sig'inadilar (totemizm).

Janubiy Afrika xalqlarining eng qadimiy madaniyatidan qoyalarga rasm chizish hozirgacha saqlangan. Fil, karkidon, ilon, ho'kiz, jirafa kabi hayvonlar, ov marosimi va urush manzaralari

bushmen rasmlarida tasvirlangan. Bo'yoqlar, mineral rang va ko'mirga, mol yog'i aralashtirib ishlangan. Keyingi qoya rasmlarida yelkanli kemalar, miltiqli shlapa kiygan yevropaliklar ham tasvirlangan. Guttentot, geror va ovambo xalqlarining qoya rasmlari ham chuqur realistik va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Ayrim qabilalarda chiroyli bezatilgan niqob yasash san'ati saqlangan.

Jahonda Namibiya qorako'l terisi ishlab chiqarishda birinchi o'rinda turadi (har yili 2,5-3,5 mln.dona eksport qilinadi). Ularda angor echkisi oliy darajadagi moxer junini beradi. Qorako'l qo'ylari aslida 1907-yili nemislar tomonidan keltirilib ko'paytirilgan. Mamlakatda 2,8 mln. qora mol, 5 mln. qo'y va 2 mln. echki bor. Eksportning aksariyat qismi JARga jo'natiladi.

Umuman olganda, bushmenlarning soni 50 ming kishidan iborat, shulardan 33 mingga Botsvana davlatida yashaydi. Mustaqillikka erishgan Botsvana respublikasi bushmenlarni mamlakatning teng huquqli fuqarolari deb e'lon qilgan. Ularning bir oz qismi o'troq holatga o'tgan. Ammo ko'pchiligi hali ham Kalaxari cho'llarida yashamoqda. O'troq holatda yashayotgan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi tevana xalqi (mamlakatning 90 foiz aholisini tashkil qiladi) suv havzalari bo'yida, bir necha yuz hovlili qishloqlarda joylashgan. Ularning oilasida odatda 8-10 bola, bushmenlarda esa 2-3 bola bo'ladi. Bushmenlar og'ir sharoitda yashasa-da bolalarini uch yoshgacha emizadi. Moddiy va ma'naviy turmushi qo'shni bantu xalqlariga ancha yaqin.

Madagaskar respublikasining aholisi (1985-yil 10 mln.) o'zining etnik tuzilishi va turmushi bilan afrikaliklardan ajralib turadi. Tub aholi hisoblangan malagasiy (malgash)lar tashqi ko'rinishi, tili, moddiy va ma'naviy madaniyati hamda urf-odatlar bilan Janubi-sharqiy Osiyo xalqlariga yaqin turadi. Ammo ularning orasida ham mongoloid, ham negroid tiplari uchraydi. Tillari malayya-polineziya oilasiga kiradi. Malagasiylar aholining 97-99 foizini tashkil qiladi.

Madagaskar etnogenezi kam o'rganilgan. Aniq ma'lumotlarga qaraganda, bu yerga eramizdan avvalgi X-VI asrlarda Janubi-sharqiy Osiyo orollaridan mongoloidlar ko'chib kelgan. Ular bu yerga ilgari kelib joylashgan bushmen va guttentotlarga yaqin aholi bo'lib, Sharqiy Afrikadan kela boshlagan sohil bantulari bilan aralashib hozirgi malagasiy xalqining shakllanishiga asosiy zamin yaratgan.

Moddiy madaniyati jihatidan mazkur aholi Indoneziya xalqiga yaqin. Malagasiylar xuddi indoneziyaliklar singari yerga ishlov

berib, sholi ekadilar, o'xshash kiyim kiyadilar, temir eritish, puffak qurol ishlatish, balansirli kema ham xuddi indoneziyaliklarnikidek. Ko'mish marosimi, sahna qurish, qabrlarga, devorlarga qushlarning tasvirlari yoki hayvon shakllarini o'rnatish kabilar ham hindixitoy, filippin va polineziyadagilarga nihoyatda o'xshab ketadi. Malagasiylarning rivoyatlarida uzoq o'tmish ajdodlarining sharqiy mamlakatlar bilan bog'liq ekanligi to'g'risida hikoyalar bor. Umuman, Madagaskar aholisining tarixini, asosan, og'zaki rivoyatlar, tarixiy solnomalar orqali tiklash mumkin. Xullas, malagasiylar ajdodlari taxminan miloddan avvalgi I ming yillikda Janubisharqiy Osiyodan kelib joylashgan va mahalliy aholi bilan aralashgan.

Madagaskarni 1883-yili boshlangan ikki yillik qonli urushlardan keyin Fransiya o'ziga bo'ysundiradi. Uzoq davom etgan xalq qo'zg'olonlari natijasida 1896-yilgi shartnoma asosida imperiya hokimligi tugatiladi, qirolicha mamlakatdan haydalib, yirik davlat arboblari va qirol vakillari qatl etilgan.

Mustamlaka davri mobaynida malagasiylarning bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashi davom etib kelgan. Bu jasurona kurash 1960-yili mustaqil Malagasiya respublikasini yuzaga keltiradi. 1975-yili Madagaskar Demokratik Respublikasi deb e'lon qilinadi.

Orolning 98,8 foiz aholisi malagasiylar. Ular 18 ta etnik guruhlariga bo'lingan. Shularning ichida eng yirik guruhlardan: merina yoki merna (aholining 23-25 foizi), besimisaraka (15-16 foiz), besileu (13-14 foiz) va hokazo. Bundan tashqari mamlakatda chet elliklardan fransuzlar, hindiylar, pokistonliklar, xitoylar, arablar, makua, suaxil va komorliklar yashaydi. Barcha elatlar G'arbiy Indoneziya shevasidagi bir-biriga yaqin dialektlardan iborat malasiya tilida gapiradilar. Aholi migratsiyasining orol ichida juda jiddiy bo'lganligi tufayli, etnik va til birligi tez sur'atlar bilan ro'y bergan, natijada umumiy malagasiy xalqining shakllanishiga zamin yaratilgan edi.

Hozir Madagaskarda yashovchi aholining 80 foizi qishloq xo'jaligida band. Bunday xo'jaliklarda eksportbop tovar mahsulotlari (vanil, qalampir, shakarqamish) yetishtirilgan. Eksport mahsulotlarini yirik plantatsion xo'jaliklarda ham ishlab chiqaradilar. Hozirgacha saqlanib kelgan an'anaviy qishloq jamoasi (fukunuluna) iqtisodiy hayotda muhim rol o'ynamoqda. Ijtimoiy munosabatlarni boshqarishda hududiy tashkilot vazifasini bajaruvchi

fukulunulalarga saylangan umumiy kengash 5 yilgacha mahalliy oliy hokimiyat rolini ado etadi.

Asosiy oziq-ovqat mahsuloti sholikorlik bo'lib, butun sug'oriladigan yerning 95 foizini egallagan. Sholi ko'chatlarini kichik polizlarda yetkazib, keyin dalalarga ekadilar. Ekinzorlarga suvni kanallar, kichik platinalar orqali yetkazib beradilar. Ba'zan yomg'ir suvlarini ham to'g'onlar qurib ekinga ishlatadilar. Odatda, botqoq holatiga kelgan dalalarga zebu (o'rkachli afrika ho'kizi) podasini yuborib, tepkilangan tuproqqa urug' sepadilar. Orolning janubi-sharqiy qismida hozirgacha o'rmon (changalzor)larni chopib quritib kuydirilgan kulli tuproqqa ekin ekadilar. Yerga uzun dastali bukilgan temir uchli chopqi bilan ishlov beriladi. Sholini yilning oxirida, yomg'ir ko'p yog'adigan paytda ekib aprelda yig'im-terim boshlanadi. Hosilni qo'lda yig'ib olib, toshga urib yoki mol yuborib xirmonda yanchiladi. Odatda, kuydirilgan yerga ikki yil ekin ekiladi, keyin 8-10 yil partav qilib qoldiriladi, yangi yer ochiladi.

Janubi-g'arbiy dahalarda makkajo'xori, vodiylarda kartoshka, lobiyo, jo'xori, manioka, banan, sabzavot, mevali daraxtlar ham ekiladi, asalari va pilla yetishtiriladi. Markaziy adirlarda, shimoli-sharqiy sohillarda kofe, vanil, qalampir, yog'li ekinlar, shakarqamish kabi tovar mahsulotlari ekiladi. Chorva hududlarida esa yirik shoxli mol-zebu, cho'chqa, echki, turli parranda boqib yetishtiriladi. Madagaskarni ba'zan «zebu oroli» deb ataydilar, chunki bu yerda 10 mln.ga yaqin zebu boqiladi. Ammo chorva boylikni belgilovchi soha bo'lsa-da asosiy rolni o'ynamaydi, mol go'shti kam ishlatiladi, faqat to'y va boshqa marosimlarda so'yiladi.

Aholining ko'pchilik qismi (90 foizi) qishloqlarda yashaydi. Uylari to'g'ri burchakli, qamishdan nishabli, tomlari palma yaproqlari bilan yopilgan, devorlari qamishdan to'qilib loy suvalgan. Markaziy tog'li joylarda toshdan va g'ishtdan qurilgan jihozlar, yog'ochdan o'yma naqsh berilgan mebellar, chiroyli to'qilgan chipta va bo'yralar, chipta dasturxon va salfetkalar, turli naqshli yog'och idishlar, haykalchalarni ko'rish mumkin. Milliy kiyimlardan oq yoki gulli chitdan boshdan oyoq o'rama qilib kiyiladigan lamba keng tarqalgan. Qizil ipakdan bichilgan lamba kishi o'lganda kafan vazifasini bajargan.

Madagaskar aholisining yarmidan ko'pi (54 foizi) mahalliy an'anaviy dinlarga, ayniqsa, ajdodlarga sig'inish ibodatiga amal qiladilar. Odamning hayoti tug'ilishidan to o'limigacha urug' ibodati

marosimlari va odatlari bilan to'la, hosil to'plash va molni bolalashi ham turli urf-odatlar bilan nishonlanadi. Malagasiylarning turmushida dafn qilish va xotirlash marosimlari alohida o'rinni egallaydi. Xotira marosimlarida musiqa, ritual raqslar, miltiq otishlar, katta xarajatli xudoyilar va haftalab davom qiladigan ziyofatlar juda keng tarqalgan. Ayniqsa, qabr ustiga qo'yiladigan yodgorlik ustunlari chiroyli qilib o'rnatiladi, o'yma naqshlar va ho'kiz shoxlari bilan bezatiladi. Qarindoshlarni dafn qilish va qabrlariga qarab xotirlash eng muhim odatlardan hisoblanadi. Shuning uchun sohil aholisida qabristonlarni obodonlashtirish, dabdabali sag'ana tiklash, qimmatbaho haykallar qo'yish keng tarqalgan. Malagasiylar o'limni hayotning davomi deb tasavvur qiladilar.

Orol aholisining 41 foiz qismi nasroniy diniga o'tgan bo'lsa-da, asl qadimiy an'anaviy marosimlar va urf-odatlarga amal qiladilar. Ularning tasavvurida ajdodlarning arvohlari ular bilan birga uyda yashaydi, avlodlarning turmushini, xo'jalikda, kundalik hayotida va diniy marosimlarida an'anaviy udumlarga rioya qilishlarini kuzatadilar. Taxminan 10 % malagasiylar sunna mazhabidagi islom diniga, ozgina qismi esa shia mazhabiga itoat qiladilar.

Malagasiylarning tasviriy san'ati amaliy xarakterga ega bo'lib, tosh yoki yog'och o'ymakorligi, sopol idishlari va gazlamadagi tasvirlar, chipta va savatlardagi naqshlardan iborat. Ba'zan motam munosabati bilan ikki-uch kun tinmay bambukdan yasalgan noyob nohinli torli asbob, nog'ora va naylar ovozi ansambl ijrosida yangrab turadi. Og'zaki ijod ham ancha rivojlangan.

IV. AMERIKA XALQLARI VA ELATLARI

Amerika qit'asi o'zining hududi bilan faqat Osiyodan bir oz kichikroq. Uning maydoni Grenlandiya bilan 44,5 mln.kv.km ni tashkil etadi. Atlantik va Tinch okeanlari oralig'ida joylashgan shimoldan janubga 15,5 ming km uzunlikka cho'zilgan bu qit'a aslida ikkita mustaqil quruqlikdan iborat. Uning 24,3 mln.kv.km (Grenlandiyasiz)ga ega bo'lgan shimoliy qismi trapesiya shaklida, janubiy qismi katta notekis uchburchakka o'xshaydi (maydoni 18 mln.kv.km). Amerikaning shimoldagi keng qismi ekvatorдан pastroqda 4,5 ming km kelsa, tor qismi Panama hududida joylashgan bo'lib 100 km ga ham yetmaydi. XX asrda shu yerda qazilgan 80 km lik Panama kanali

Tinch va Atlantik okeanlarini bog'lagan muhim xalqaro savdo yo'liga aylangan edi.

Ko'hna dunyo deb nomlangan Yevropa, Osiyo va Afrikaga nisbatan Yangi Dunyo deb atalgan Amerikaning tabiati va iqlimi niho-yatda rang-barang. Tinch okeani sohillari bo'ylab shimoldan janub-ga tomon butun ikki qit'aga cho'zilgan Kordiler nomli eng yirik tog'tizmalari Tinch okeanida ro'y berayotgan tektonik jarayon bilan bog'liq. Shuning uchun bu tizmalar seysmik jihatdan notinch hisoblanadi. Bu yerda eng baland tog'liklar va hozirgacha qaynab turgan vulqonlar mavjud. Qit'aning ichki qismidagi bepoyon tayga, tundra va tropik o'rmonlar, cheksiz dashtu biyobon va preriylar, katta-kichik ko'llar va daryolar inson uchun zarur mahsulotlarni yetkazib beradi.

Amerikaning hayvonot dunyosi ko'hna Yevropa va Osiyoga nisbatan bir oz qashshoqroq. Mustamlakachilar kelguncha bu yerda hindilar tomonidan faqat alpaka, lama (mahalliy tuya), kurka kabi jonivorlar xonakilashtirilgan. Janubiy va Markaziy Amerikaning tropik o'rmonlarida burni keng maymunlar yashaydi.

O'simlik dunyosi ancha boy va turli-tuman. Qit'aning ko'p madaniy o'simliklari — makkajo'xori yoki mais, kartoshka, pomidor, kakao kabilar o'zining sifati va kishiga foydaliligi bilan ajralib turadi. Amerika ba'zi foydali o'simliklarning vatani ham hisoblanadi. Uning bag'ridagi xilma-xil qazilma boyliklar hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyotiga juda qo'l kelgan.

Amerikadagi nasroniy aholi soni 1980-yilda 600 millionga yetdi. Shundan 250 millionga yaqini Shimoliy Amerikada, 350 millioni Lotin Amerikasida yashaydi. Yevropaliklar kelishi arafasida qit'ada turli ijtimoiy taraqqiyot pog'onasida turgan o'zaro yaqin qarindosh hindi qabilalari, elatlar va xalqlar yashagan. Ularning ko'pchiligi Meksikaning janubiy qismi, Markaziy Amerika va And tog'lari-da joylashgan bo'lib, yuksak dehqonchilik madaniyati yaratgan, yuqori ijtimoiy-iqtisodiy darajaga ko'tarilgan xalqlarning avlodlari hisoblanadi. Shimoliy va Janubiy Amerikaning juda katta hududida tarqoq holda joylashgan kamsonli mayda qabilalar terimchilik, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanib, ibtidoiy-jamoa tuzumidan yuqori ko'tarilmagan. Amerikaning kashf etilishi arafasida hindilar bir necha o'n million bo'lsa, uning shimoliy qismida (Meksikasiz) tub aholi soni 10 mln.ga ham yetmagan edi.

Hindilarning kelib chiqishi uzoq vaqtgacha fanda sir bo'lib, turli faraz va mulohazalarni yuzaga keltirgan. Ayrim olimlar Amerika

aholisi avtoxton, ya'ni shu yerda paydo bo'lgan, degan fikrni yoqlab chiqqanlar. Ammo Amerikaga odamlarning Osiyodan kelganligi, uning shimoldan janubga tomon asta-sekin ko'chib tarqalganligi tasdiqlangan. Bu ko'chish Bering bo'g'ozi bo'lmagan Osiyo va Amerika qit'asi qo'shilgan bir davrda ro'y bergan. So'nggi 20 yil ichida qilingan kashfiyotlarga tayanib, olimlarning ko'pchiligi bu yerda odam 30-25 ming yillar muqaddam paydo bo'lgan degan fikrga kelganlar. Atoqli antropolog L.Liki Amerikaga dastlab osiyoliklar hatto 50-100 ming yillar ilgari kela boshlagan, degan fikrni aytmoqda. Ko'pchilik olimlar Janubiy Amerikaga esa odamlar dastlab 17-11 ming yillar ilgari kelgan, degan fikrni quvvatlashadi.

Tub amerikaliklarning ajdodlari butun qit'ada Shimoliy Alyaskadan janubdagi Olovli Yergacha osiyoliklar ekanligini arxeologik dalillardan tashqari antropologiya tuzilishlari ham tasdiqlaydi. Ularning hammasi mongoloid irqiga oid bo'lib, badanini kam tukliligi, qora ko'zliligi, keng yalpoq yuzliligi va yonoq suyagining chiqqanligi bilan umumiy o'ziga xos tipni paydo qilgan. Ammo hindilar osiyo mongoloidlaridan baland bo'yli, burgutsimon burni, epikantus (ko'z qiyachig'i)ning kamligi va uzunchoqroq yuzi bilan ajralib turadi. Ular balki, ayrim olimlarning fikricha, o'zlarining osiyolik ajdodlarining antropologik tuzilishini saqlab qolgandir. Hindilardan Shimoliy Amerika va Grenlandiyaga tarqalgan aleut-eskimoslar ancha ajralib turadi. Ularda mongoloid belgilari juda kuchli va hozirgi shimoli-sharqiy osiyoliklarga ancha yaqin. Demak, aleut-eskimoslar Amerikaga kelgan aholining eng oxirgi oqimi bilan bog'liq.

Qolgan barcha hindilar bir necha asrlar va hatto ming yillar davomida asta-sekin shimoldan janubga va keyin qit'aning ichki hududiga tarqalgan hamda turli elat va xalqlarning shakllanishiga asos bo'lgan. Ba'zi umumiy belgilariga qarab ularni odatda uch katta guruhga: shimoliy amerikalik, markaziy amerikalik va janubiy amerikaliklarga bo'ladilar. Ular o'zaro faqat bo'yi va badan terisining rangi bilan farqlanadilar. Shimoliy Amerika hindilari bo'yining balandligi, ko'zining to'g'ri qiyig'i va burgutsimon burni bilan ajralib turadi.

Markaziy va janubiy amerikalik hindilar eng qadimiy irqiy belgilarini saqlab qolganlar, odatda ular past bo'yli, ochiq jigarrang badanga ega. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, F.Kuper asarlarida, hindilarni «qiziltanlilar» deb ham ataydilar. Amerika tub joy

aholisining tillari kam o'rganilgan. Ammo ular juda ko'p mayda til guruhlariga bo'linib ketgan. Olimlarning aniqlashiga qaraganda, bu yerda hindilarning taxminan ikki mingdan ortiq tillari mavjud bo'lib, ularni 110 ta til oilasiga bo'lish mumkin. O'z navbatida mazkur tillar oilasi beshta eng yirik til guruhlariga birlashtirilgan; makrokarib, makroaravak, makrokechua, makromayya va bask-dene. Balki bu klassifikatsiya hindilarning ko'chib kelish jarayonini, ya'ni migratsion to'liqinni aks ettirishi ham mumkin. Bulardan tashqari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan yana uchta til turkumiga birlashtirilgan tarqoq qabilalar borki, ular Janubiy Amerikada joylashgan bo'lib, eng dastlabki migratsiya bilan bog'liqdir.

So'nggi davrlargacha ko'pchilik qabul qilgan klassifikatsiya asosida mahalliy tillar 20 ga yaqin til oilalariga birlashtirilgan.

Hozirgi davrda hindi tillarining asosiy qismi ayrim mamlakatlarning davlat tillari tomonidan siqib chiqarilgan yoki siqib chiqarish arafasida. Faqat eng yirik til oilalari — kechua, aymara, mayya va ularga yaqin tillar o'z mavqeini saqlab qolganlar. Bu tillarda Peru va Boliviya da hatto maktablar va adabiyot mavjuddir. 1975-yil 27-iyunda birinchi marta Amerika qit'asida Peru hokimiyati kechua tilini davlat tili deb e'lon qildi. Paragvayda ispan tilini yengib o'tib, mavqeini tiklagan guarani tilida adabiyot va matbuot mavjud bo'lib, radioeshittirishlar tayyorlanadi.

Yevropa mustamlakasi, ayniqsa, XVI asr boshlaridan ispan va portugallarning kela boshlashi, Amerika qit'asidagi tub aholining taqdirida muhim rol o'ynadi. Mazkur voqea qisqa muddat ichida hindilarning lingvistik, antropologik va etnik qiyofasida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Ammo eng katta fojia shundan iborat ediki, hindilarning juda ko'p qismi yo jismoniy qirilgan, yo og'ir mehnat tufayli, yo yevropaliklar olib kelgan kasalliklardan qurbon bo'lgan. Dastlab, Vest-Indiyaning tub aholisi bu fojiani boshidan kechirgan, ularning ko'pchiligi XVI asrning birinchi yarmidayoq qirilib ketishgan.

Amerika qit'asiga yevropaliklarning qachon kelganligi aniq emas. Ayrim olimlarning fikricha, bepoyon okean suvlari bilan har tomondan yuvilib turgan bu qit'aga Ko'k hana dunyodan kishilar bir necha ming yillar muqaddam kelib turgan. Bunday bo'lishi mumkinligini norveg sayyoh olimi Tur Xeyerdalning «Ra» nomli papirus kemasida o'tkazgan ekspeditsiyasi ham tasdiqlaydi. Taxminan ming yillar muqaddam Amerikaning shimoli-sharqiy

sohillarida va Grenlandiyada normannlarning yashaganligi («Vinland») aniqlangan.

Asli Amerikani mustamlaka qilinishi ispan hokimiyati xizmatidagi gennyalik Xristofor Kolumbning 1492-yil 12-oktabrdagi kashfiyoti bilan bog'liq edi. O'sha kuni buyuk sayyoh Hindistonga g'arbiy yo'l axtarib Karib dengizidagi Bagam arxipelagiga yetib kelib, uni G'arbiy Hindiston (Vest-Indiya) deb o'ylagan. Juda qiyinchiliklar bilan kashf etilgan o'lkani Salvador (ispancha «xaloskor») deb atagan. Kolumb keyinroq bir necha marta Venesuela, Gonduras va Panama sohillariga kelgan bo'lsa-da, bu yerlarni xindlarniki, degan fikrini o'zgartirmadi. Ammo uning ayrim zamondoshlari yangi kashf etilgan yerlar Osiyo emasligini tez aniqlab oldilar.

Ayniqsa, bu masalaga o'tkir qalam sohibi, iste'dodli florensiyalik, ispan qiroli xizmatida bo'lgan sarkarda Amerigo Vespuchi muhim aniqlik kiritgan edi. U ham 1497-yildan keyin bir necha marta yangi qit'aga kelgan ekspeditsiyaga bosh bo'lgan. Vespuchi 1501-1502-yillardagi sayohatidan keyin: «Bu o'lkani Yangi Dunyo deb atash lozim... Chunki bizning ajdodlarimiz bu yerlar to'g'risida tasavvurga ega bo'lmaganlar». Uning mashhur xatlarini o'qigan atoqli geograf va kartograf Martin Valdzemyuller o'zining 1507-yilda chiqqan «Kosmografiyaga kirish» nomli asarida yangi ochilgan dunyo qismini «Amerigo yoki Amerika mamlakati», deb atashni hech kim man qilmaydi, deb yozgan edi. Shunday qilib, Kolumb kashf etgan yangi qit'a keyingi sayyoh nomi bilan tarixga kiradi.

XVI asr boshlarida ispan istilochilari Shimoliy Amerikaning janubiy qismini bosib oladilar. Yangi dunyoning afsonaviy boyliklari to'g'risida turli hikoyalarni eshitib, sayyohlar ortidan kelgan ispan konkistadorlari hindilarni ayovsiz qirib talon-taroj qilganlar. Ayniqsa, 1519-yilda Ernando Kortes yurishlari natijasida hozirgi Meksikada atsteklar davlati bosib olinadi. 14 yil keyinroq Fransisko Pizarro boshchiligida ispan lashkarlari hozirgi Peru, Boliviya va Ekvador yerlaridagi davlatlarni o'zlariga bo'ysundiradilar.

Ispanlar ortidan boylik axtarib portugallar, inglizlar, fransuzlar va gollandlar kela boshlaydilar va Yangi Dunyoni bo'lib mustamlakaga aylantiradilar. Oqibatda Shimoliy Amerika Rio-Grande daryosining shimolidan ingliz va fransuzlar qo'liga, Meksika, Markaziy va Janubiy Amerika ispanlar va portugallarning qo'liga o'tadi. Vest-Indiya orollarini ispan, ingliz, fransuz va golland istilo-

chilari o'zaro bo'lib olishgan. Hatto Daniya ham bir qismini egallagan. Oqibatda, hindilar serunum yerlaridan mahrum bo'lib, bir qismi qulga aylangan, qolgan qismi esa qirilgan. Ispaniya va Portugaliya qirollari, yirik feodallari va cherkovlarning xazinalari boylikka to'lib ketgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, qisqa muddat ichida XVI asrning birinchi yarmi davomida 15 million hindilar qirib tashlangan. Vaholanki, mustamlakachilar kelish arafasida Yangi Dunyoda tub aholi, ya'ni hindilar soni 90-100 million kishiga yetgan¹⁶. Agar hozirgi AQSH hududida avvallari 400 qabiladan iborat 2-3 millionga yaqin hindilar yashagan bo'lsa, XX asr boshlariga kelib Amerika Qo'shma Shtatlarida 200 mingga yaqin hindilar qolgan, xolos¹⁷. Hozir Lotin Amerikasida hindilar aholining 15% ni tashkil qiladi.

XVI asrning oxirlarida portugaliyaliklar qul «ovlash» niyatida Janubiy Amerikaning ichki qismiga yurishlar o'tkazib, bir necha ming hindilarning yostig'ini quritganlar. Shu davrdan boshlab Amerika, Yevropa tarixida eng fojiali va dahshatli sahifalar boshlandi. Boy plantatorlar qirilgan hindilar o'rniga ishchi kuchiga muhtoj bo'lib qo'shimcha qul olib kelishga majbur bo'ladilar. XVI asrning birinchi choragidayoq Vest-Indiya va Braziliyaga Afrikadan zo'rlab minglab negrlarni keltira boshlaydilar. O'sha davrda Afrika negrlariga chinakam ov boshlanadi. Kuch bilan bosib olib kelingan bir necha ming qora tanlilar halok bo'lib ketgan. Negr qullarni zo'rlab keltirish to XIX asr boshlarigacha davom etgan. Afrikadan keltirilgan qullarning umumiy soni haligacha ma'lum emas. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, faqat Braziliyaga qullikka Afrikaning asosan, g'arbiy qismidan 10 millionga yaqin negr keltirilgan. Hozirgi AQSHda 25 millionga yaqin negr yashaydi. Amerikaning ayrim mamlakatlarida (asosan, Vest-Indiya orollarida) negrlar hatto aholining ko'pchilik qismini tashkil qiladi.

O'tgan asrning o'rtalariga kelib Amerika qit'asining etnik qiyofasi ancha o'zgarib ketgan. Shimoliy Amerika aholisining asosiy qismi Shimoli-G'arbiy Yevropadan dastlab Britaniya orollaridan kelgan elatlardan iborat edi. Meksikada va butun Janubiy Amerikada ispanlar,

¹⁶ Североамериканские индейцы. — М.: изд. «Прогресс». 1978, 15 бет

¹⁷ O'sha asar. 16 va 21-betlar

Braziliyada portugallar hukmron etnoslar bo'lib, hozirgi davrda 200 milliondan ortiq kishi ispan tilida gapiradilar. Butun Amerikada ingliz tilida gapiradigan aholi soni ham shuncha. Fransuz tilini 15 million, italyan tilini 8 million kishi o'z ona tili deb hisoblaydi.

Shunday qilib, mustamlaka qilingan Amerika qit'asining tub aholisi bir necha asrlar davomida qirilib, kelgindi elatlar bilan aralashib juda kamayib ketgan va yangi etnoslar paydo bo'lgan. 1775-1783-yillardagi mustaqillik uchun kurashdan so'ng tashkil topgan AQSH Shimoliy Amerikaning ancha qismini bosib olib katta hududda o'z hukmronligini o'rnatadi. Hozirgi davrda butun AQSH va Kanadada hindilar aholining 0,5 foizini hosil qiladi, xolos.

Odatda Amerika xalqlarini o'rganish muqaddimasi ularni xo'jalik-madaniy mintaqa yoki tiplarga bo'lish klassifikatsiyasi tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyil asosan, tabiiy sharoitga moslashgan xo'jalik va maishiy turmush xususiyatlari bilan belgilanadi. Ammo biz Amerika tub aholisini asosan, uch qismga — Shimoliy, Markaziy va Janubiy Amerikaga bo'lib ta'riflaymiz.

§ 1. SHIMOLIY AMERIKANING TUB AHOLISI

So'nggi chorak asr davomida to'plangan arxeologik ma'lumotlar Shimoliy Amerika hududida ketma-ket izchil almashib, taraqqiy qilib kelgan hindilar jamiyatining taxminan o'n bir ming yillik tarixini aniqlab olish imkonini yaratdi. Arxeologlar qit'ada ikkita eng qadimiy paleohindi madaniy an'alarini aniqlaganlar:

1) Markaziy dasht mintaqada joylashgan yirik qush ovchilari madaniyati;

2) Shimoli-g'arbiy Tinch okeani ovchi-terimchilari kordiler madaniyati¹⁸. Bu madaniyatlar miloddan avvalgi VIII ming yillik-kacha davom qilib kelgan va butun qit'aga tarqalgan turli lokal madaniyatlarning negizini hosil qilgan.

Ayniqsa, hindilar tarixi qit'aning sharqiy qismi va janubig'arbida Shimoliy Amerikaning o'rmon zonasida (hozirgi Arizona va Nyu-Meksiko shtatlarida) jiddiy o'rganilgan. Ayni shu yerda hozirgi tarixiy va etnografik manbalarga kirgan yuksak darajadagi madaniyatli Shimoliy Amerika hindi qabilalarining shakllanish markazi bo'lgan va ularning keyingi taraqqiyotiga zo'r ta'sir

¹⁸ Қаранг: Североамериканские индейцы, 3 бет

ko'rsatgan. Sharqiy o'rmon zonasida yashagan hindilarning tarixiga oid uchta davr aniqlangan. Bu birinchidan, mo'tadil iqlimli o'rmon va suv havzalari mahsulotlarini ovlab, yig'ib-terib o'zlashtirish xo'jaligiga ega bo'lgan arxaik davr (eramizdan avvalgi VIII-I ming yilliklar), shu zaminda paydo bo'lgan ikkinchi madaniyat janubiy Kanadadan to Meksika bo'g'ozigacha, Atlantikadan to Amerika dashtlarigacha katta hududga tarqalgan vudlend madaniyati ilgarigi madaniy an'anani davom qildirib, qo'shimcha dehqonchilik va kulolchilik bilan ajralib turadi (eramizning VII asrlariga kelib, ayniqsa, Ogoyo daryosining vohasida, bu madaniyat nihoyatda gullaydi va dasht hududlarda X asrgacha, shimoli-sharqiy qismida yevropaliklar kelguncha saqlangan). VII asrning oxirlaridan boshlab madaniyat markazi asta-sekin Missisipi daryosining o'rta va pastki oqimi vodiylariga va Meksika bo'g'ozini sohillariga ko'cha boshlaydi. Missisipi madaniyati deb atalgan bu davr (VII-XV asrlar) ilgarigi madaniy yutuqlarni o'zida mujassamlashtirgan o'troq dehqonchilik xo'jaligi, qal'ali shahar va qo'rg'onlar, ibodat va saroy tipidagi inshootlar bilan ajralib turadi. Vudlend madaniyatidan missisipiliklar o'zining sopol mahsulotlaridagi yangi shakldagi naqshlar, yog'och, tosh va chig'anoqlardagi yuksak badiiy o'ymakorlik va naqqoshlik san'ati, metall buyumlar yasash mahorati bilan ham farq qilganlar.

Demak, yevropaliklar kelguncha Shimoliy Amerikada hindilar yuksak madaniyat yaratganlar. Albatta, hindilar jamiyati bu davrda sinfiy tuzumga o'ta boshlagan. Tadqiqotchilar bu davrni ikki muhim bosqichga bo'ladilar: eng rivojlangan ibodat qo'rg'onlarini tiklash bosqichi (VII-XII asrlar) va qo'rg'on inshootlarining periferiya hududlariga tarqalish bosqichi, ya'ni yuksak hindi madaniyatining boshqa sharqiy o'rmon zonasi va dasht daryo vodiylariga zo'r ta'sir qilib, o'z hukmronligini to'liq o'rnatgan bosqichi (XII-XV asrlar). Mazkur madaniyat mahalliy an'analar bilan aralashib, o'ziga xos rivojlangan hindi dehqonchilik xo'jalik tipini hosil qilgan edi.

Arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, Shimoliy Amerikada dehqonchilik dastavval miloddan avvalgi III ming yillikda janubiy-arkiy hududlarda paydo bo'lgan. Shu asosda arxeologlar «kochiz», «monolon», «xoxokam» va «anasazi», deb atalgan hindi madaniyatining lokal tiplarini ajratadilar. Eng birinchi dehqonchilik madaniyatini Shimoliy Amerikada kochizliklar yaratgan bo'lib, ular dastlab makkajo'xori, keyinroq qovoq va lobiyo ekanlar.

Kochizliklar yovvoyi o'simliklar yig'ish va ovchilik bilan ham shug'ullanganlar, g'orlarda yashaganlar.

I ming yillikka kelib kochiz madaniyati asosida makkaning yangi navlarini yaratganlar, yerto'ralarga ko'chgan va to'rtburchak doirasimon uylardan iborat qishloqlarga ega bo'lgan mogolon (miloddan avvalgi III asr — milodning XV asrlari) madaniyati paydo bo'ladi. Arizonaning janubi-g'arbiy qurg'oq hududlarida takomilashgan sug'orishga asoslangan dehqonchilik tizimi yaratilgan, o'ndan ortiq makka turlari, paxta, qovoq, lobiyo, tamaki, qalampir yetishtirgan xoxokam madaniyati (I-XVI asrlar) yana ham yuqori darajaga ko'tarilgan. Ularning loy va toshdan qurilgan katta (jamoalari) uylardan tashkil topgan yaxlit qishloqlari (ispanlar «pueblo» deb ataganlar) zo'r mahorat bilan yasalgan badiiy sopol buyumlar va haykalchalar, paxta ip gazlamalar to'qish san'ati Markaziy Amerika hindilarining yuksak madaniyatga erishganligidan dalolat beradi. XIV asrga kelib birdaniga bu madaniyat vakillari butunlay yo'qolib, faqat bo'm-bo'sh pueblo (qishloq) larini va toshdan ishlangan ko'ptarmoqli sug'orish inshootlarini qoldirganlar, xolos.

Xoxokam va mogolon madaniyatidan 300-700 yillar keyin paydo bo'lgan anasazi nomli rivojlangan dehqonchilik madaniyati ancha takomillashgan va qo'shni elatlarga zo'r ta'sir o'tkazgan. Mazkur madaniyat izlari hozirgi AQSHning Arizona, Nyu-Meksika, Yuta va Kolorado shtatlarida va qo'shni vohalarda topilgan. Anasazi madaniyati tarixi ikki davrga: «rivojlangan pueblo» (milodning VII-X asrlari) va «buyuk pueblo» (X-XIII asrlar)ga bo'lingan. Birinchi davr hindilari makka, qovoq, lobiyo, paxta ekanlar, ilgari savat idishlari o'rniga geometrik ornamentli sopol idishlar yaratganlar, ko'pxonalik (6-14 hujayrali) toshdan va xomg'ishtan katta uylar tiklaganlar.

«Buyuk pueblo» davrida qurilish texnikasi yana ham yuksak darajaga ko'tariladi. Hindilar bu davrda ko'p qavatli va ko'pxonali ming va undan ham ko'p kishi sig'adigan katta uy (asli shahar)lar tiklaganlar. Bunday bir uydan tashkil topgan shaharlar qumtosh yoki tuf qoyalarda, daryolarning katta daralarida paydo bo'lgan. Ular asosan, Kolorado va San-Xuan daryolarining daralarida qurilgan. Ba'zan tabiiy g'orlardan ham foydala-

nilgan. Oilalar ko'paygan sayin xonaga xona qo'shilib ari uyasi-dek shahar kattayib boravergan. Bunga Kolorado darasidagi 200 xonalik va 36 ibodatxona (kiva)lik «qoya ko'shki» (XI asr) xarobalari va hozirgacha saqlanib qolgan Chaka darasidagi (XII asrga oid) devor bilan o'ralgan 650 hujrali va markazida 20 ibodatxonasi bor hovli-qasr ham misol bo'ladi. Ammo XII asrga kelib, hindilar o'zlarining qoya uy-qasrlarini tashlab tekis adirlarga ko'chib, hovli-qishloqlarini tiklay boshlaganlar.

Mazkur arxeologik kashfiyotlar XIX asr oxirlari XX asr boshlarida g'arb fanida tarqalgan hindilar madaniyatini kamsitish, ularni mustamlaka arafasida nihoyatda ibtidoiy darajada turgan qoloq qabilalar, degan fikrlarini butunlay rad qildi. Aniq bo'ldiki, Shimoliy Amerikaning tub aholisi qit'a kashf etilishidan va mustamlaka qilinishdan oldin uzoq va murakkab yuksak madaniyat yaratgan davrni bosib o'tgan jihatdan tasdiqlandi. Mustamlaka arafasida, ya'ni XV asr oxirlarida Shimoliy Amerikaning hindi aholisi taxminan 9-10 million kishiga yetgan va juda ko'p turli tildagi qabila va elatlardan iborat bo'lgan¹⁹.

Mahalliy hindilarning xo'jalik faoliyati ham turli xilda bo'lib, olimlarning aniqlashiga qaraganda, o'sha davrda Shimoliy Amerikada olti xo'jalik madaniy tiplari tashkil topgan.

Hindi qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ham turli darajada bo'lgan. Ularning ko'pchiligi mustamlaka arafasida ibtidoiy jamiyat tuzumining turli pog'onasida, qit'aning janubisharqiy va g'arbiy qismida qabilalar sinfiy jamiyatga o'tish darajasida bo'lganlar. XV asr oxirlaridan Shimoliy Amerikada oqtanliklar, ya'ni yevropaliklar (asosan, Fransiya, Ispaniya, Gollandiya va Angliyadan) kelishi bilan mustamlaka davri boshlanadi. XVIII asr boshlarida esa qit'aga ko'plab negrlar keltirilishi bilan Shimoliy Amerikaning etnik qiyofasi tubdan o'zgara boshlaydi.

Mustamlaka arafasida yuqorida aytganimizdek, hozirgi AQSH hududida 400 ga yaqin hindi qabilalari yashagan. Ular 200ga yaqin tilda gapiradigan 2-3 millionlik turli elat va qabilalar bo'lib, mustamlakachilarga jiddiy qarshilik ko'rsatganlar. Hindilarning

¹⁹ Североамериканские индейцы, 15 бет

barcha qarshilik va qo'zg'olonlari vahshiyona bostirilgan. Oqibatda minglab hindilar qirilgan, serunum yerlaridan haydalgan, qulga aylantirilgan.

XIX asr oxirlariga kelib hindi qabilalarining ko'pchiligi tor-mor qilinib, to'liq bo'ysundirilgan va rezervatsiyalarga joylashtirilgan edi. XV asrda jami 15-20 mln. hindilar yashagan bo'lsa, hozir Shimoliy Amerikada yashovchi tub aholining soni 1,5 milliondan ortiq²⁰.

Ammo hindilar o'z huquqlari uchun doimo kurashib kelmoqdalar. Ayniqsa, so'nggi o'n yilliklarda ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi kuchaydi, oqibatda hindilar masalasi mamlakatning eng muhim siyosiy masalalaridan biriga aylandi.

Arktika ovchilari va baliqchilari. Arktikaning asosiy tub aholisi eskimos va aleutlar. Alyaska va Muz okeani sohillarida, Labrador yarim oroli va Grenlandiyada qadim davrlardan eskimoslar yashaydi. Ular o'zlarini inuit («odamlar») deb ataydilar. Aslida «eskimos» so'zi algonkin tilida «xom go'sht yeydiganlar», degan ma'noni anglatadi. Chunki, qadimiy davrlarda singa kasalidan saqlanish uchun xom go'sht iste'mol qilingan. Ular azaldan tulen, kit, morj, qutb ayig'i va shimol tulkisiga ov qilish va baliq tutish bilan shug'ullanib kelganlar. Ovchilik tufayli barcha zarur buyumlarga, ovqatga ega bo'lganlar: go'sht va yog' taomga ishlatilgan, terilar kiyimga, kema yasashga va uy-ro'zg'or ishlariga sarflangan, tulen va morj yog'i bilan uylarni qizitganlar va yoritganlar, suyaklaridan esa mehnat qurollari yasaganlar, uy va kema qurishda ishlatganlar.

Eskimoslar jahondagi eng shimoliy xalq sifatida qutbning og'ir sharoitiga juda moslashgan. Ularning ov vositasi va qurollari maxsus tulen va morj terilaridan yasalgan baydarka tipidagi kichik kema (kayak) va katta kema (umiak), uzun ipga bog'langan yog'och sopli sanchqi: tosh yoki suyak uchli nayza (ba'zan uni otadigan maxsus qurol ham ishlatilgan) va o'q-yoy, turli xildagi tuzoqlar va suyakdan yasalgan qarmoqlardan iborat. Ba'zan qurol yasashda qo'shni janubiy hindi qabilalaridan almashib olgan mis ham ishlatilgan.

Arktikada o'rmonlar yo'q bo'lganligi tufayli eskimoslar qishda zo'r mahorat bilan muzdan uy tiklaganlar. Iglu deb atalgan muz

²⁰ Страны и народы Америки. Общий обзор, Северная Америка. — М.: 1980, 58 бет

uylarda tulen terisi to'shalgan va devorlarga osilgan, yog'i bilan isitilgan ham yoritilgan. Hozirgacha saqlanib kelgan bunday uylarda endi primus, kerosin yoki elektr lampa ham ishlatiladi. Ilgari go'shtni, asosan, xom holda iste'mol qilganlar. Qutbning qisqa yozida ayollar materikda o'sadigan turli yemishli ko'kat va ildizlar, klukva kabi tundra mevalarini yig'ib terganlar. Organizmga o'simlik taomlari yetmaganligi tufayli bug'u oshqozonida to'plangan yutqidan tayyorlangan ovqat eskimoslarning eng sevimli taomlaridan biri hisoblangan. Ba'zi eskimos oilalari qisqa yoz faslida materikka ko'chib konus shaklida teri yoki yog'och po'stlog'i bilan qoplangan chaylalar tiklaganlar. Ularning kiyimlari ham mahalliy sharoitga moslashgan boshdan-oyoq dengiz hayvonlarining terisidan yaxlit kombinezon va kapushon shaklida tikilgan bo'lib, erkak va ayollar-niki deyarli farqlanmaydi. Ammo bolali ayollarning egniga osilgan go'dakni solib, ko'tarib yuradigan teri xaltasi ham bo'lgan. Oyog'iga teridan tikilgan paypoq va etik kiyganlar. Ba'zan kiyimlari turli rangli terilar yoki jun bilan bezatilgan.

Hozirgi davrda eskimoslar, ayniqsa, Grenlandiyada, zamonaviy jihozlangan elektr va issiq suv bilan ta'minlangan ko'p qavatli uylarda ham yashaydilar; kiyimlari va taomlari ham ancha o'zgarib yevropalashtirilgan. An'anaviy transport vositasi sifatida chang'i va itlar qo'shilgan chanalardan foydalanishadi. So'nggi yillarda motorli kema va chanalar, miltiq va temir qopqonlar ishlatilmoqda.

Eskimoslarning ijtimoiy tuzumida XIX asrgacha urug' jamoachilik munosabatlari saqlanib kelgan. Ular ikki-uch oiladan tashkil topgan kichik jamoadan iborat bo'lib, ota urug'iga o'tish davrida yashaganlar. Ammo urug'-qabilachilik munosabatlari og'ir tabiiy sharoit tufayli uncha mustahkam bo'lmagan. Og'ir sharoit eskimoslarning dinlarida ham o'z aksini topgan. Kishi ustidan hukmronlik qilib turgan tabiat kuchlari har xil tabiiy hodisalarga, turli arvohlarga va «dengiz xo'jayini»ga sig'inish, sehrgarlik (magiya) va shomonizm kabi ibtidoiy dinlarni yaratgan. Ularda shomoniylilik ibodati va turli mifologik tasavvurlar rivoj topgan. Hozir eskimoslar orasida nasroniy dini ko'p tarqalgan.

Eskimoslarda qadimiy davrlarda amaliy san'at taraqqiy qilgan bo'lib, hozirgacha suyakka nozik o'yima naqsh berish va suyakdan turli buyumlar yasash saqlanib kelgan. Ular o'ziga xos qabila hayotidan olingan ayrim voqealar va hayvonlarni ovlash manzarlari-zo'r mahorat bilan tasvirlaganlar. Uzoq qutb kechalari

muz va qordan tiklangan qorong'i yog' chirog'li uylarda o'z xalqining kelib chiqishi to'g'risida rivoyatlar, quyosh, oy, tog' va muzliklar, turli hayvonlar va devlar to'g'risida afsona va ertaklar aytishganlar.

So'nggi chorak asr davomida ro'y bergan o'zgarishlar tub aholining faqat moddiy turmushdagina emas, maishiy va ma'naviy hayotiga ham ijobiy ta'sir o'tkazdi. Ayniqsa, Grenlandiya eskimoslarida zamonaviy ma'rifat kurtak otib, ona tilida yozma adabiyotning turli janrlari paydo bo'ldi, gazeta va jurnal chiqa boshladi, radioeshittirishlar olib boriladi. Ammo orolning Daniyaga qaramligi uning iqtisodiy va sotsial ahvolidagi o'z aksini topgan, bu holat daniyaliklar bilan eskimoslar orasida tengsizlik, turmush darajasining pastligi va siyosiy huquqlardan mahrum ekanligida yorqin namoyon bo'lmoqda. Alyaska va Kanada eskimoslarida go'sht va yog' iste'mol qilish cheklangan, tibbiyot xizmati juda kam, ular milliy yozuvga ega emaslar. 70-yillardan boshlab eskimoslar mustaqillik va tenglik uchun faol kurashga kirishdilar. Ayniqsa, grenlandiyaliklarda bu kurash uyushqoqlik bilan olib borilmoqda va yaxshi natijalar bermoqda.

Tinch okeanida, Alyaska yarim orolidan janubga cho'zilib ketgan Aleut orollarida va Alyaskaning g'arbiy qismida eskimos-aleut til oilasiga oid qadimiy elatlar yashaydi.

Eskimoslarga maishiy turmush va madaniyati yaqin aleutlar ham XIX asr boshlarida dengiz hayvonlari bilan ov qilib tirikchilik o'tkazganlar. Ularning ov qurollari eskimoslarnikiday ammo teridan yasalgan baydarka, dengiz hayvonlarining ichagidan tikilgan suv o'tmaydigan plash, yog'ochdan yasalgan shlapa, o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyat xususiyatlari bilan ajralib turadilar.

Aleutlarning tarixiy taqdiri eskimoslarniki singari Shimoliy Amerika, ayniqsa, AQSH kapitali bilan bog'liq. Ular XIX asr oxirlarigacha urug'chilik jamiyati darajasida turgan qabilalardan bo'lib, har qabila o'ziga tegishli ov qiladigan joylarda o'troq holda yashaganlar. Uylari yarim yerto'la shaklida katta oilaga mo'ljallangan bo'lib, unda 30-40 qonu qarindosh kishilar istiqomat qilgan.

Aleutlarning ozgina qismi hozirgacha Rossiyaga tegishli Koman-dor orollarida yashaydi. Ular shu bugunga kelib erkin iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojga erishdilar.

Shimoli-G'arbiy sohil hindilari. Shimolda Beringov bo'g'ozidan janubdagi Xuande-Fuka bo'g'ozigacha Tinch okeani sohillarida ko'p asrlar davomida o'ziga xos hindilarning baliqchilik va ovchilik madaniyati shakllanib kelgan. Juda nam, yumshoq iqlimli, nihoyatda boy o'simliklarga va faunaga ega bo'lgan bu hududlar inson yashashi uchun ancha qulay bo'lgan. Bu yerda, asosan, tlinkitlar, kvakuitli, xayda, kaluza hindilari yashagan va ularning tirikchiligi dengizda va daryo quyi oqimida baliq ovlashdan iborat bo'lgan. Ular ba'zan tog' echkilari, bug'ular, dengiz hayvonlari, qushlar ovlaganlar, yovvoyi o'rmon mevalari va dengiz ko'katlarini ham terganlar. Ammo losos va sham baliq asosiy ov mahsuloti hisoblangan. Tlinkitlar dehqonchilik va chorvachilikni bilmaganlar, lekin ovda o'rgatilgan itdan foydalanganlar.

Mahalliy hindilarning ovchilik san'ati ancha rivojlangan. Ayniqsa, baliqchilikda turli texnika va takomillashgan qurollar ishlatilgan. Ular yaxlit yog'ochdan o'yib yasalgan uch-to'rttadan yuztagacha kishi sig'adigan kemalarda sayohatga va ovga chiqqanlar. Baliqni tosh, suyak, yog'ochdan va uning tolalaridan yasalgan har xil qarmoq, sanchqi, nayza, to'r, savatlar bilan turli to'g'onlar qurib ovlaganlar. Metallardan faqat misni bilganlar, undan ba'zi qurollar va bezaklar yasaganlar, pul o'rnida ishlatganlar. Ovqatni yog'och idishlarda o'tda qizdirilgan tosh solib pishirganlar.

Hindilarda to'quv dastgohi bo'lgan. Ular yovvoyi qo'y va echkilarni haydab, qamab, junini qirqib, keyin bo'shatib yuborganlar, ipidan ajoyib plash to'qiganlar, ko'ylak tikkanlar. Matoni o'simlik tolalaridan ham to'qiganlar, teri po'stin bilan ham yopinganlar. Yog'ochdan naqsh berilgan sovut yasaganlar, kedr daraxti tolasidan keng etakli shlapalar to'qiganlar.

Xo'jalik va savdoning rivojlanishi natijasida mehnat taqsimoti ham paydo bo'lgan: kema yasash, kiyim tikish, uy-ro'zg'or va boshqa buyumlar ishlab chiqarish kasb hisoblangan. 15-20 metr balandlikka ega totem ustunlarini mahorat bilan o'yib bezatadigan ustalar bo'lgan.

Mahalliy hindilar turmush tarzi o'troq xarakterga ega bo'lganligi tufayli yog'ochdan tiklangan uylardan iborat qishloqlarda istiqomat qilganlar. Uylari oynasiz, tuynukli va kichkina eshikli uzunasiga katta jamoa oilasiga mo'ljallanib tosh qurollar bilan yo'nilgan yog'ochlardan qurilgan. Yoz faslida baliq ketidan daryolarning yuqori oqimiga ko'chib vaqtinchalik chaylalar

tiklaganlar, qishda qishloqlarga qaytganlar. Baliqchilikda nihoyatda zo'r mahoratga ega bo'lgan tlinkitlar losos baliqlarini tejamkorlik bilan g'amlaganlar. Qo'shimcha mahsulot bozorga tushgan, savdosotiq ancha rivojlangan. XVIII asr oxirlariga kelib, ona urug'i o'rniga ota urug'i tashkil topa boshlaydi. Patriarxal tipidagi katta oila jamoasi dual xarakterga ega bo'lib xususiy mulkka tayangan. Patriarxal nikoh tartiblari bilan birga, turli ona urug'i tartiblari ham saqlanib qolgan. Ammo urug' hisobi va meros ota urug'iga o'tgan. Dehqonchilik xo'jaliklarida qishloq jamoasiga o'xshash patriarxal tipdagi ko'p urug'li jamoalar paydo bo'lgan.

Xususiy mulk paydo bo'lsa ham asosiy ishlab chiqarish vositasi — yer jamoa mulki hisoblangan. Xususiy va umumiy mulk to'liq ajratilmagan, ular urug' va qabila boshliqlari ixtiyorida bo'lgan. Mustamlaka davrigacha patriarxal qullik ham paydo bo'lgan. Qullar asosan, urushlarda qo'lga tushganlar. Ular baliq ovlashda, xo'jalik ishlarida foydalanilgan, qullar o'z egalariga ancha foyda keltirgan. Qabilalar fratriy va urug'larga bo'lingan, ular totem nomi bilan atalgan. Masalan, tlinkit fratriy guruhlar Qarg'a va Bo'ri nomi bilan atalgan va ular orasidagi munosabatlar ekzogam nikohi bilan belgilangan. Undan tashqari fratriylar hududiy jihatdan ham bo'linishgan. Matrilokal tipidagi katta oila (10-40 kishidan iborat) bir xo'jalik iqtisodiy hujayra sifatida o'z totem nomiga ega bo'lgan uyda yashaganlar. Masalan, Ayiq nomli urug'ga tegishli oila har qishloqda shu nom bilan uy tiklagan. Urug'ning muayyan hududga ega ekanligi rivoyatlar bilan tasdiqlangan. Asosiy diniy tasavvurlar totemizm bilan bog'liq bo'lganligi tufayli totem timsollaridan tashqari har xil diniy marosim va bayramlar o'tkazilgan. Ularni o'tkazish shomon va urug' boshliqlari ixtiyorida bo'lgan.

Shimoli-g'arbiy sohil hindilarining hayotida potlach («o'yinchoq») nomli murakkab marosim muhim rol o'ynagan. Asli katta bazm sifatida bir necha kun, ba'zan oylab o'tkaziladigan potlach marosimida boy jamoa a'zolari va urug' boshliqlari o'z boyliklarini tarqatib berganlar, hatto qullarini qurbon qilganlar. O'z navbatida jamoa a'zolari ham bazm egasiga katta sovg'alar qilishlari shart bo'lgan. Umuman urug' boshliqlariga urug'doshlari tomonidan har xil sovg'alar berib turish majburiy odat tusiga aylangan bo'lib, urug'chilik ichida dastlabki soliq (renta) shaklida namoyon bo'ladi. Shu yo'l bilan erkin jamoa a'zolarini o'ziga qaram qilishning iqtisodiy zmini yaratilgan. Potlach marosimida sarflangan xarajat va tar-

qatilgan boylik o'rni sovg'alar orqali yana tiklangan. Kim bazm va bayramni zo'r o'tkazsa, shu katta nom qozongan. Aslida potlach ibtidoiy jamoa tuzumidan sinfiy jamiyatga o'tish davriga xos marosim bo'lib, endi kurtak otayotgan iqtisodiy va sotsial tengsizlik, boylik va kambag'allikni ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo'lganligini ifodalovchi marosimdir.

Mustamlaka davrida savdo-sotiq yana ham rivojlanib ijtimoiy munosabatlar chuqurlasha boshlaydi. AQSH hukmronligi o'rnatilgandan keyin mahalliy aholining asosiy tirikchilik manbai hisoblangan baliqchilik mustamlakachilar qo'liga o'tib, o'z yerlaridan haydalib rezervatsiyalarga ko'chirilgan hindilar qashshoqlashib yollanma ishchi kuchiga aylanganlar.

O'rmon ovchi qabilalari. Shimoliy Amerikaning sharqiy qismidagi subarktika o'rmonlarida Alyaskaning ichki hududlari va Kanadaning tayga qismida algankin va atapask til oilalariga mansub ovchi, baliqchi va terimchi qabilalar yashaganlar. Ular asosan, yovvoyi bug'u (karibu), los, ayiq, yovvoyi qo'y va buqa (bizon), tulen, kit va boshqa o'rmon ham dengiz hayvonlariga ov qilganlar. Daryo va ko'llarda baliq ovlaganlar, o'rmonlarda turli yeyishli va etildizli o'simlik mahsulotlarini yig'ib-terib kun kechirganlar.

Jonivorlarni ovlashda asosan, suyak yoki tosh uchli o'q-yoy, nayza, pichoq, palaxmon, turli tuzoq, qopqon va to'rlardan foydalan-ganlar. Baliq ovida qarmoq, teri va o'simlik tolasidan ayollar to'qigan to'r hamda savatlar ishlatilgan. Qishda tennis raketkasiga o'xshash chang'i va it qo'shilgan yog'och chanalar bilan ko'chib ov qilganlar. Ko'chmanchilik turmush tarziga moslashgan ovchi hindilar konus shaklida o'rtasida tuynukli teri va yog'och qobig'i bilan qoplangan, ko'chishga qulay chaylalarda yashaganlar. Ayrim atapask qabilalari qishda yerto'lalarda istiqomat qilganlar. Daraxt qobig'idan uy-ro'zg'or buyumlari va hatto kema yasaganlar.

Karibu va los terisidan ayollar kiyimlar, maxsi (mokasin) va qo'lqoplar tikkanlar, mayda jonivorlarning terisi va juni bilan kiyimlarni bezatganlar, bosh kiyimi to'qiganlar. Ba'zan ishlab chiqarish qurollari va uy-ro'zg'or buyumlariga ham naqsh berilgan. Erkak va ayollar asosan, bir xilda yengi uzun ko'ylaklar kiyganlar, qishda kapushonli po'stin yopinganlar.

Shimolning o'rmon hindilari mustamlaka arafasida urug'chilik munosabatlarini saqlab, jamoa bo'lib yashaganlar va ov qilganlar. Qishda ular ayrim guruhlariga bo'linib, ko'chib yurganlar, yozda

daryo bo'ylaridagi qarorgohlarga to'planishib savdo qilganlar. XVII asrlardan mustamlakachilar bilan yaqin aloqalar o'rnatilib, mo'ynachilik maxsus sohaga aylanadi va mo'yna savdosi tovar ayirboshlashni kuchaytiradi. Subarktika ovchilari boshqa hindilar singari yevropaliklar tomonidan zo'rlik bilan o'z yerlaridan haydalmaganlar va qirilmagan. Chunki Shimoliy Amerika o'rmonlari chorvachilik va dehqonchilikka noqulay bo'lganligi tufayli mustamlakachilar bu yerga bostirib kirmaganlar. Ular aksincha, qimmatbaho mo'ynaga muhtoj bo'lib, mo'ynachilikni rivojlantirish maqsadida ovchi hindi qabilalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlaganlar. Yevropaliklar keltirgan temir qurollar (pichoq, bolta, iskana, keyin miltiq va hk.) hindilarning og'ir mehnatini ancha yengillashtirdi. Shuning uchun dastlab mo'yna savdosi yevropaliklar bilan hindilar orasidagi munosabatlarni katta fojiasiz rivojlanishiga sabab bo'lgan edi. XVII asrning 30-yillaridan boshlab missionerchilikning kuchayishi bu munosabatlarni yana ham mustahkamladi. Mahalliy atapask, kri qabilalari bilan kelgindi kanadalik fransuzlar va shotlandliklar orasidagi nikohlar natijasida bir-ikki asr ichida yangi guruh metislar ham paydo bo'la boshlaydi.

Hozirgacha algonkin va atapask qabilalarida ham matrilokal, ham patrilokal nikoh tartiblari saqlanib kelgan. Bir necha juft oilalardan tashkil topgan kichkina urug'-jamo'a ko'chib yurishga odatlangan. Ayrim vaqtlarda bayram yoki diniy marosim munosabati bilan muayyan joyda bir necha nikohdagi guruhlar to'planishgan. Odat bo'yicha, nikohdan keyin ma'lum davr kuyov xotin urug'ida joylashib, kelin haqi uchun xizmat qilishi keng tarqalgan. Jamoa ekzogamiya tartiblariga rioya qilishi shart bo'lgan. Barcha qabilalarda muhim masalalarni muhokama va hal qilishda hamma teng huquqqa ega bo'lsalar-da, eng keksa donishmand kishilar rahbarlik qilganlar. Ichki jamoa munosabatlarida «har kim o'ziga-o'zi xo'jayin» degan axloq qoidasiga rioya qilinadi.

Shimoliy o'rmon ovchi qabilalarida ibtidoiy din shakllari — totemizm, shomonizm, sehrgarlik, arvohlarga sig'inish keng tarqalgan. Ular homiy arvohlar kishilarga «kuch-quvvat», kasalliklarni davolashga, ov qilishga yordam beradi, deb ishonganlar. Algonkin qabilalarda odamsimon xudolar va odamxo'r Vindigo nomli bahaybat maxluq to'g'risida tasavvurlar, murakkab marosimlar, ayiqqa sig'inish e'tiqodi muhim o'rinni egallagan. Ko'p asrlar davomida amalga oshirilgan missionerlarning diniy tashviqoti ham

zoye ketmagan. Mahalliy hindilar orasida nasroniy dini ham tarqalgan. Nasroniylik, ayniqsa, nikoh munosabatlariga zo'r ta'sir qilib, hozir hindilarda monogam nikoh o'rnatilishiga sabab bo'lgan. Atapask qabilalarida hindi va nasroniy diniy tasavvurlari, odat va odob qoidalari aralashmasidan tashkil topgan yangi diniy harakatlar ham paydo bo'la boshlagan.

Mustamlakachilik siyosatining amalga oshirilishi natijasida, ayniqsa, shaharlarga ko'chirilgan hindilar orasida salbiy sotsial oqibatlar ro'y bermoqda. Masalan, ovchi qarorgohlarini tashlab shaharga ko'chgan chinpeyayya qabila jamoasi so'nggi o'n besh yil ichida nihoyatda og'ir sotsial sharoitda ruhsizlik, ichkilikbozlik, avlodlar adovati, mayda xiyonat va qashshoqlik, savodsizlik va xurofot kabi fojiali ahvolni boshdan kechirmoqda²¹.

Kaliforniya hindilari. AQSHning Kaliforniya, qisman Nevada ham Yuta shtatlarida yaqin davrlargacha turli tillarda gapiradigan, ammo xo'jalik-madaniy birlikka ega bo'lgan qabilalar yashaganlar. Ular dehqonchilikdan bexabar bo'lsa-da, ovchilik va terimchilikka asoslangan an'anaviy xo'jaligi barcha zarur narsalar bilan ta'min qilib kelgan. Bu yerning tabiati mevali dub daraxtining juda ko'p turlarini, har xil yemishli o'simlik va ildizlarni, yovvoyi lobiyo, piyoz, yong'oq, daryo va dengiz hayvonlari kabi nihoyatda boy oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib bergan.

Mahalliy hindilar, ayniqsa, dub mevalarini tozalab, quritib, yanchib, uning unidan atala pishirganlar. Dub mevasi uni asosiy taom bo'libgina qolmay, qabilalar orasidagi savdo mahsulotlarining muhim sohasi ham hisoblangan. Ular har xil o'rmon o'simliklarining urug'lari, dengiz sohillari va ichki daryolardan molluskalar, qisqichbaqa, baliq va boshqa jonivorlarni hamda suv o'simliklarini iste'mol qilganlar. Barcha qabilalar uchun oziq-ovqat yil bo'yi tabiatda mavjud bo'lsada, ularni yig'ib-terib ishlab chiqarish uchun doimiy mehnat talab qilingan. Asosiy ishlab chiqarish qurollaridan ovchilikda o'q-yoy, baliqchilikda sanchqi, savat, yaxlit daraxtdan o'yib yasalgan kema. Butun Kaliforniyada zo'r mahorat bilan savat to'qish keng tarqalgan. Ildiz va urug'larni yig'ib-terish uchun oddiy uchi yo'nilgan yog'ochdan foydalanilgan. Tosh pichoq,

²¹ Қаранг: Североамериканские индейцы, 396 бет

turli chig'anoqlar, munchoqlar boylik hisoblangan. Asosiy kasbi terimchilik bo'lganligi tufayli mehnat taqsim qilinmagan. Lekin ovchilik bilan faqat erkaklar shug'ullanishgan.

Shimoliy Kaliforniya hindilari yarim yerto'lalardan iborat kichik qishloqlarda yashaganlar. Qolganlari ko'chib yurishga qulay bo'lgan daraxt qobig'i bilan yopilgan konus yoki gumbaz shaklidagi chaylalarda istiqomat qilganlar. Deyarli barcha qabilalar kiyimsiz yurganlar, ammo bayramlarda juda ko'p bezaklar taqilgan. Qizlar faqat voyaga yetgandan keyin o'simlik tolasidan yubka yoki teridan etakcha kiyganlar, erkaklar esa bug'u terisidan qilingan belbog' bilan cheklangan. Sovuqda egniga teri yoki ko'rpacha yopinganlar.

Shimoliy va markaziy hindilarning ijtimoiy tuzumida qishloq jamoasi, ko'pchiligida fratrial tuzumi saqlanib kelgan. Ona urug'idan patriarxatga o'tish munosabatlariga xos tartiblar kuchli bo'lgan. Vohalardagi va tog' etaklaridagi hindilar yirik qishloqlarda joylashgan bo'lib, ancha rivojlangan ijtimoiy va siyosiy tuzumga, murakkab diniy tizimga ega bo'lganlar. Totemizm va shomonizm keng tarqalgan. Shomoniylilik chuqur o'ylanilgan marosimlar va davolash usullariga ega bo'lgan. Har qishloqda maxfiy jamiyatlar mavjud bo'lib, ommaviy marosimlar (har xil o'yinlar, tantanalar, bezakli kiyimlar bilan) namoyish qilingan. Ibodat marosimlarida ijro etiladigan o'yinlarda har kim o'z boyligini ko'rsatishi mumkin bo'lgan. Janubiy Kaliforniya qabilalarida o'spirinlarni urug' a'zoligiga o'tkazish va boshqa diniy marosimlarda kayf yoki qayt qiladigan o'tlarni iste'mol qilish odat bo'lgan.

Yevropalik istilochilar XVIII asr o'rtalaridan o'z ta'sirlarini kuchaytiradilar. Ular dastlab sohilga yaqin vodiylarda missionerlik makonlarini o'rnatganlar, hindilar bilan aloqani mustahkamlab, o'z makonlariga jalb qilib nasroniylashtira boshlaganlar. Mazkur aloqalar hindilarning turmush tarzini yemirib, og'ir kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, yuqumli kasalliklar minglab hindilarning yostig'ini quritgan.

1848-yilda Kaliforniyada oltin topilgandan keyin, mahalliy aholining hayotida eng qorong'u kunlar boshlanadi. Ko'plab kela boshlagan oltin izlovchilar hindilar qishloqlarini talon-taroj qilib ketganlar. 1850-1880-yillar ichida bo'lib o'tgan urushlar natijasida o'jiz, begunoh hindilarga qarshi chinakam ov boshlangan va ularni

vahshiyona qirib tashlaganlar. Agar 1770-yilda 138 mingdan ortiq hindilar mavjud bo'lgan bo'lsa, XIX asrning oxirlariga kelib deyarli o'n hissa kamaygan. Rasmiy ma'lumotlarga binoan, hozir Kaliforniya shtatida 40 mingga yaqin mahalliy hindilar (butun shtatda 18 mln. aholi) yashaydi.

Sharqiy va janubi-sharqiy dehqonchilik va o'rmon ovchi qabilalari. Shimoliy Amerikaning sharqiy hududlarida, buyuk ko'llar atrofidagi AQSHning Guron, Eri, Ontario, qisman Nyu-York va Pensilvaniya shtatlarida irokez va algonkin qabilalari yashaydi. Ular o'zlarining xo'jalik, madaniy va ijtimoiy turmushi xususiyatlari jihatidan yaxlit guruhni tashkil qiladi. Turli tilda gapiradigan mazkur qabilalar etnik tarixi bir necha davrlarga bo'lib, turli afsona va rivoyatlar bilan to'ldirilgan. Tarixiy va etnografik jihatdan irokezlar ancha batafsil o'rganilgan. Mashhur Amerika tadqiqotchisi L. Morganning ajoyib asarlari tufayli irokezlarning turmush tarzi, ijtimoiy tuzumi matriarxat urug'ining klassik namunasi, deb tanilgan.

Irokezlar Shimoliy Amerikaning sharqiy qismida keyin paydo bo'lsa-da, arxeologlarning aytishicha, bu yerda madaniyat besh ming yillar muqaddam tashkil topgan. Irokezlarning etnogenezi eramizdan avvalgi 1 ming yillikda shakllana boshlagan vudlend madaniyati bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

Mahalliy hindilar qadimdan mayda daraxtli o'rmon va to'qayzorlarni kuydirib, dehqonchilik qilib kelganlar. Ular qir qilgan daraxtlarni quritib yoqqanlar, chopqida, yog'och bel yoki yo'nilgan uchli yog'och bilan yerni kavlab, ishlov berib kul aralash tuproqqa urug' sepganlar. Irokezlarning asosiy ekinlari — mais (makkajo'xori), lobiyo va qovoq. Bu ekinlar («Uch opasingil») bilan ularning diniy tasavvurlari ham bog'liq. Uy oldi tomorqada tamaki, tarvuz, no'xot, kungaboqar, yer noki va boshqa ekinlar ham ekilgan. Ammo makkajo'xorining har xil turlari irokezlarni zarur oziq-ovqat bilan ta'min qilib, hatto qo'shimcha mahsulot yetkazib bergan. Makkaga go'sht qo'shib, sopol idishlarda turli taomlar tayyorlaganlar. Zarang daraxti sharbatidan bahor faslida qand pishirganlar. Hindilar yovvoyi meva, urug' va yemishli ildizlarni terishga juda mohir bo'lganlar. Ko'l bo'yida yashovchi ayrim algonlik qabilalari yovvoyi sholini kemada yig'ib, boshog'ini yanchib, yog'och bilan tuyib guruch olganlar.

Dehqonchilikda yerni chopib, ishlov berish erkaklar zimmasiga, boshqa barcha xo'jalik ishlari ayollarga yuklangan. Ovchilik ham erkaklar kasbi bo'lib, ularga go'sht, charm va teri yetkazib bergan. Bir guruh erkaklar kuz va qish oylarida o'rmonlarga ketib ov qilib bahorda qaytib kelganlar. Ular bug'ular, qunduz, suvsar va savsar kabi o'rmon hayvonlarini va qushlarni ovlaganlar, kuz paytlarida asal yig'ganlar. Baliqchilik bilan ham shug'ullanganlar. Hunarmandchilik ancha rivojlangan, kulolchilikni bilganlar. Natijada savdo-sotiq rivojlangan.

Ishlab chiqarish qurollaridan dehqonchilikda, asosan, chopqi, toshbolta, mis tig'li pichoq, nayza va o'q-yoy, cho'qmor tayoq (tosh o'rnatilgan maxsus qurol tomagavk) va palaxmon, daraxt qobig'idan yasalgan kema, sanchqi, to'r va savatlardan foydalanishgan. Turli naqsh berilgan sopol chilimlar irokezlarga xos.

Teriga ishlov berish, ayniqsa, bug'u terisidan baxmal charm (zamsha) ishlab chiqarish juda rivojlangan. Kiyimlari zamshadan, qunduz va suvsar terisidan tikilgan. Erkaklarning kiyimi zamsh plashi va yubkadan iborat, oyog'iga mokassin (maxsi), to'pig'i va beliga getra, uzun yubka va ko'ylak kiyganlar, plash yopinganlar va turli bezaklar taqqanlar.

Irokez qabilalarining jamoa uylari bir necha oilaga mo'ljallangan to'g'ri burchakli yog'ochdan tiklanib daraxt qobig'i bilan yopilgan. L. Morgan ta'rificha, bu «uzun uylar» 6-8 metr kenglikda, ichki tomoni dahliz bilan ikkiga bo'lingan, devor bo'ylab uzunasiga yarim metr ko'tarilgan yog'och supalarda eni 4 metr keladigan «xonalar» har bir oilaga ajratib qurilgan. Ba'zan bunday uylarda butun bir urug' yashagan. Uylangan yangi kelin-kuyovlarga shu uy yoniga cho'zib yangi xona qo'shib qurilgan. Dahliz o'rtasida to'rt oilaga mo'ljallangan bir necha o'choq o'rnatilgan. Qozon mehmondorchilik belgisi hisoblangan. Har qishloqda mazkur «uzun uylar» soni 10-30 tagacha yetgan. Ayrim algonkin qabilalarining uylari egilgan maxsus daraxt shoxlaridan gumbaz yoki to'rtburchak shaklida tiklanib yog'och qobig'i yoki chipta bilan yopilgan. Qishloqlar 500 dan to 1000 kishigacha yetadigan aholiga ega bo'lgan.

Irokezlarning ijtimoiy tuzumi urug'chilikdan iborat bo'lib, bir necha qonu qarindosh oilalar bir ayol boshchiligidagi jamoa (ovachir) ni tashkil qilgan. Ovachir dastlab umumiy xo'jalikka ega bo'lgan matriarxat urug'i hisoblangan. Nikoh ekzogam tartibda

bo'lganligi tufayli kuyov xotini bola tuqquncha ayricha o'z urug'i bilan yashagan, xotini oldiga faqat qorong'i kechasi borgan. Meros ham ayol urug'iga o'tgan. Qabilalar urug'larga bo'linib, fratrial tartib o'rnatilgan. Urug' va qabilalarning katta-kichikligi qit'aning shimoli-sharqiy qismidagi o'rmonlarning sharoitiga moslashgan xo'jalikka bog'liq bo'lgan. Asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer butun qabila yoki urug'ga tegishli, ammo har bir ovachirga taqsim qilingan. Muhim masalalarni hal qilishga keksa urug' a'zolari maslahatga to'planishgan. Urug' oqsoqollaridan fratriy boshliqlari tayinlangan, ular qabila kengashiga to'planib, ochiq majlislar o'tkazganlar.

Hindi qabilalarining jipsligi irokezlarning 1570-yilda paydo bo'lgan mashhur «Beshta qabila ittifoqi» yoki «Irokezlar ligasi»da o'z ifodasini topgan edi. Bunga eng kuchli qabilalardan beshtasi — Mogauk (Chaqmoqtosh), Oneyda (Granit yoki Xarsangtosh), Onondaga (Tog'liklar), Kayyuga (Trubka yoki sohilliklar) va Seneka (Buyuk tepaliklar elati) birikkan. Ittifoq 50 urug' oqsoqol (saxem)laridan iborat maxsus umumiy kengashga ega bo'lib, unda urush va tinchlik, qabilalararo munosabatlar kabi muhim masalalar hal qilingan. Harbiy ishlarni boshqarish uchun Kengash 2 ta lashkarboshi saylagan. Irokezlar ligasi juda zo'r kuchga ega bo'lgan. XVIII asrga kelib unga Buyuk ko'llar atrofidagi boshqa qabilalar ham bo'ysungan. Mustamlakachilar ham Ittifoqning fikri bilan hisoblashganlar va hatto diplomatik munosabatlar ham o'rnatilgan (Angliya va Fransiya qirollari bilan bo'lgan munosabatlar).

AQSHning mustaqillik uchun olib borgan urushidan keyin irokezlar qattiq mag'lubiyatga uchrab o'z ona yerlarini tashlab ketishga va asta-sekin mol qo'rasidek o'ralgan maxsus rezervatsiyalarga ko'chishga majbur bo'ladilar. Ammo ayrim qabilalar partizanlik urushini davom ettirganlar. Urug'-qabila munosabatlari yemirilib, monogam oila paydo bo'ladi, bir vaqtlar dahshatli kuchga ega bo'lgan irokezlar grajdanlik huquqlaridan mahrum holda kambag'al fermer va ishchilarga aylanadilar. Shimoliy Amerikaning algonkin va musgok tillar oilasiga mansub qabilalarning ham taqdiri fojiali tugagan. Mazkur qabilalardan tashkil topgan ittifoqlar (ayniqsa, kuchli Krik Konfederatsiyasi) ham yemirilib, 1820-yillarda AQSH hukumati tomonidan g'arbiy tomondagi noqulay joylarga zo'rlik bilan ko'chirilgan. Irokezlarning bir qismi Kanadaga ko'chib, rezervatsiyalarga joylashgan.

Mahalliy hindilarning dinlari ibtidoiy e'tiqodlar bilan bog'liq. Bular keng tarqalgan totemizm, shomonizmdan tashqari tabiat kuchlari, o'simlik dunyosi va jonivorlar bilan bog'liq turli animistik tasavvurlar muhim o'rin egallagan. Irokezlarda «Uch opa-singil» (mais, lobiyo va qovoq) ibodati kuchli bo'lgan. Ular yilni uch davrga bo'lib (ovchilik, yig'im-terim va dehqonchilik faoliyati bilan bog'liq), turli marosimlar o'tkazganlar. Eng katta bayram marosimlari qishning o'rtasida nishonlangan. Ular, ayniqsa, momaqaldiroq va quyoshga sig'inganlar. Seminola qabilalari sehrli buyumlardan iborat muqaddas tugunga itoat qilganlar va shunga bag'ishlangan yilda bir marta bayramlar o'tkazilgan. Chippeva qabilalarida o'simlik va hayvonlarning arvohlari bilan yaqin aloqada bo'lish mumkin, degan tasavvurlar keng tarqalgan. Ularning shomonlari duogo'ylik yo'li bilan yaxshi ovni ta'minlovchi irimlar qilganlar, turli o'tlar bilan kasalliklarni davolaganlar. Keyingi davrlarda missionerlarning faolligi tufayli mahalliy hindilarning orasida nasroniy dini keng tarqalgan. Hatto ibtidoiy dinlar bilan nasroniy dini mazhablari aralashmasidan yangi diniy yo'nalishlar ham paydo bo'la boshlagan.

Xalq ijodi ancha rivojlangan. Ertak va ashulalarda, tarixiy afsona va rivoyatlarda hindilarning hayoti poetik tasvirlangan. Mashhur Amerika yozuvchisi G. Lonfello yozgan «Gayava to'g'risida qo'shiq» nomli qissa irokezlarning boy ertaklariga asoslangan. Turli raqs va o'yinlar, haykaltaroshlik totemistik obrazlarni tasvirlash xalq ijodining ajoyib namunalaridir.

Preriya (dasht) ovchi qabilalari. Uzoq davrlar Missisipi daryosi tarmoqlarining shimoli-sharqiy qismidagi o'ziga xos tabiatli bepoyon dashtu biyobon (preriya) da odam kam yashagan. Bu yerda XVIII asr boshlarida Shimoliy Amerikaning Sharqiy qismida yashagan mustamlakachilar tomonidan siqib chiqarilgan hindi qabilalar Missisipining g'arbiga ko'chib kelib, o'z navbatida mahalliy ko'psonli yarim o'troq ovchi va dehqonchilik aholini siqa boshlaydi. Mahalliy qabilalar asta-sekin preriya ko'cha boshlaydi. Ular turli til turkumiga mansub, ayniqsa, siu, algonkin, yuto-atstek va atapask qabilalaridan iborat bo'lgan. Mazkur elatlar tillarining xilma-xilligiga qaramay, umumiy madaniy birlikka ega bo'lganlar.

Mustaqillik uchun kurashdan keyin boshlangan bozor munosabatlarining gurkirab o'sishi natijasida qo'shimcha yerlarga muhtojlik paydo bo'ladi. 1803-yilda AQSH kongressi hatto hindilar-

ning sharqiy hududlardan g'arbga — Missisipi orqasiga ko'chirish rejasini tasdiqlagan edi. Bu reja 1816-1850-yillarda amalga oshirilib, Amerika tarixida «hindilarni ko'chirish» davri deb atalgan. Aslida hindilarni zo'rlik bilan qabila boshliqlarini sotib olib va mast qilib turli nayranglar bilan shartnoma tuzib — «rasmiylashtirib» ona yerini tashlab, g'arbiy dasht hududlarga joylashishga majbur qilganlar. Shartnoma tuzishga qarshi bo'lgan qabilalarga qarshi «adolat urushini» e'lon qilib, qurol kuchi bilan haydab chiqarganlar. Ayniqsa, hozirgi Jorjiya, Merilend, Janubiy Karolina shtatlarining hindilarini ko'chirish vahshiyona zo'rlik bilan amalga oshirilgan. Krik, chokta, chikaso kabi qabilalarning «ko'z yoshi yo'li» deb atalgan ko'chishi Amerika tarixining eng fojiali sahifalaridan bo'lib, hindi xalqiga eng katta musibat keltirgan, yo'lda ochlik, sovuq va zo'rlikdan minglab kishilar qirilib ketishiga sabab bo'lgan²².

Preriya hindilarining asosiy kasbi yovvoyi ho'kiz (bizon)larni ov qilishdan iborat edi. Bizon go'shti va yog'i taomga, terisi kiyim, poyabzal va chaylalarga ishlatilgan. Hindilar dastlab piyoda, it yordamida, o'q-yoy va ba'zan nayza bilan jamoa bo'lib ov qilganlar. Shaxsiy ov qilish man qilingan, bu tartibni buzganlarni qattiq jazolaganlar. Yevropaliklar kelgandan so'ng paydo bo'lgan yilqi otlar XVIII asr o'rtalaridan ovchilarning muhim yordamchisiga aylanadi. Mustamlakachilardan ajralib yarim yovvoyi holatga tushgan yilqi (mustang)ni qayta o'rgatib, ovda va yuk tashishda foydalanilgan. Terimchilik, mo'yna va qush ovlash, baliqchilik ham muhim soha hisoblangan.

Metallni bilmaganlar, o'q-yoy va nayza uchlari, bolta va boshqa qurollarni tosh, suyak va shoxdan, uy-ro'zg'or buyumlarini teri va yog'ochdan yasaganlar. Hayvonlarni ba'zan bo'ri yoki bizon terisi bilan niqoblanib, maxsus to'r bilan yoki chuqur qazib butun yozbo'yi ov qilganlar.

Uylari ko'chib yurishga moslashgan, konus shaklida yog'ochdan qurilib, bizon terisi bilan yopilgan va to'shalgan. Uyning o'rtasida o'choq-gulxan yoqilgan. Har bir oila alohida o'zi uchun chayla tiklagan, qavmu qarindoshlarning chaylalari bir-biriga yaqin doirasi-

²² Қаранг: Североамериканские индейцы, 18-19 бетлар

mon o'rnatilib, o'rtada qabila kengashiga mo'ljallangan maxsus katta chayla (chodir) tiklangan.

Dasht ovchi hindilarining ijtimoiy tuzumi matriarxatdan patriarxatga o'tish davriga to'g'ri keladi. XIX asrning oxirlarigacha ko'p qabilalarda matrilokal joylanish va nikoh tartiblari saqlanib kelgan. Yevropaliklar bilan aloqalarning kuchayishi, yilqichilikning paydo bo'lishi ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishiga jiddiy ta'sir qila boshlaydi, sotsial tabaqalanish rivojlanib ota urug'i hukmronligi kuchayadi. Ovchilikda muhim rol o'ynagan ot boylik belgisi bo'lib qoladi. Yuzlab otlarga ega bo'lgan jamoa a'zolari kambag'al otsiz urug'doshlarini eza boshlaydilar. Bosqinchilik bilan shug'ullanuvchi otryadlar paydo bo'ladi, oqibatda urush boylik orttirish manbaiga aylanadi. Harbiy ishga e'tibor kuchayib, qabila boshlig'i qilib mashhur lashkarboshilarni saylash odat bo'lgan.

Ma'naviy madaniyatida ham ancha o'zgarishlar ro'y beradi. Kiyimlarga, uylarni bekitadigan terilarga, uy-ro'zg'or buyumlariga naqsh berish juda rivojlangan. Piktografik rasmlar bilan yilda o'tadigan muhim voqealarni tasvirlovchi solnomalar yozilib borilgan o'ziga xos kalendarga ega bo'lganlar. Tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi arvohlar orasida ham tabaqalanish natijasida eng muhim va ikkinchi darajali avliyolar paydo bo'ldi. Eng katta marosimlar quyosh ibodati bilan bog'liq, undan keyingi pog'onada turgan yer, suv, olov, havo kabi tabiat kuchlariga hatto bizon, it va boshqa hayvonlarning ruhlariga sig'inganlar. Diniy marosimlarni o'tkazishda duoxonlik va tabiblik bilan shug'ullanuvchi shomonlar ajralib turadi. Boy folklor mavzulari ham diniy rivoyatlar bilan sug'orilgan. Tasviriy san'at rivojlangan. Chaylalarga yopiladigan terilarda, zamsh kiyimlarda va boshqa buyumlarda kishi va hayvon timsollari tasvirlangan.

Dashtli hindilarning yerlarini tortib olish XIX asrda kuchaydi. Mustamlakachilar «yovvoyi g'arb» deb hisoblagan dasht joylarni ham bosib olib, mahalliy aholini o'z yerlaridan, ko'pchiligini esa rezervatsiyalarga haydagan. 1830-yildan kela boshlagan «oq tanli» ovchilar ommaviy ravishda bizonlarni qirib (oxirgi yovvoyi bizon 1881-yili o'ldirilgan) hindilarni asosiy hayot manbaidan mahrum etgan.

§ 2. MARKAZIY AMERIKA XALQLARI

Amerika qit'asining AQSH bilan Meksika chegarasidan janubiy qismini odatda Lotin Amerikasi, deb ataydilar. Ba'zan etnogeografik jihatdan Meksika, Markaziy Amerika va Vest-Indiya maxsus hudud qilib ajratilgan va unga Mezoamerika (O'rta yoki Markaziy Amerika) deb nom berilgan. Bu yerda 30 ta mustaqil davlat va hozirgacha mustamlaka holatdagi bir necha mamlakatlar mavjud. Agar 80-yilning boshlarida Shimoliy Amerikada 258,7 mln. aholi bo'lsa Lotin Amerikasi 20,1 million km² maydonni egallagan va 1983-yillarga kelib aholi soni 387,7 million kishiga yetgan edi.

Lotin Amerikasi davlatlarining 3/2 qismida ispan tili rasmiy til deb qabul qilingan. Braziliya (mintaqa aholisining qolgan 3/1 qismi)da portugal tili tarqalgan. Faqat 3 foizi aholi yashaydigan kichkina davlatlarda fransuz (Gaiti), ingliz (Gayana, Trenidad, Barbados, Yamayka, Bagam va boshqa orollarda) va golland (Surina) tillari hukmron. Mamlakatlar tillari va tarixiy taqdiri bilan umumiylikka ega bo'lsa-da, o'zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, etnomadaniyati va xo'jalik xususiyatlari bilan farq qiladilar. Masalan, Argentina, Braziliya, Meksika va Venesuela ancha taraqqiy qilgan zamonaviy mamlakatlar qatoriga kiradi. Aksincha, sust rivojlangan Gaiti iqtisodiy ko'rsatkichlariga qaraganda, yuqorida qayd qilgan mamlakatlarga nisbatan o'nlab, balki yuz hissa orqada qolgan. Yoki eng katta hududga ega bo'lgan Braziliya Salvadorga nisbatan 400 hissa ko'p maydonni egallaydi, qo'shni Gayana aholisiga nisbatan 150 hissa ko'proq aholiga ega.

Lotin Amerikasi aholisining etnik qiyofasi ham turlicha. Uzoq davr ichida mahalliy tub aholi bilan kelgindi yevropaliklar va millionlab qul qilib keltirilgan afrikaliklar avlodlarining aralashmasidan paydo bo'lgan hozirgi mamlakatlarning o'ziga xos milliy madaniyati, mehnat va xalq ijodi an'analari shakllangan. Mintaqaning rang-barang tabiati ham ularning xo'jalik-madaniy tiplari va madaniyati xususiyatlariga mislsiz ta'sir o'tkazgan. Nihoyatda ko'p tabiiy boyliklarga ega bo'lgan mazkur mintaqani «jahonning xazinasi» deb ham ataganlar. Ammo boy tabiatli Lotin Amerikasi ancha qashshoq va qoloq o'lkalardan. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, bu yerda yashovchi aholining yarmiga yaqini och yoki yarim och, ya'ni to'yib ovqat yemaydi. Ayniqsa,

mahalliy hindilar og'ir ahvolda. Hozir Lotin Amerikasida 30 mln.ga yaqin hindilar yashaydi.

Mahalliy tub aholi o'tmishda yuksak madaniyat yaratib, faqat Lotin Amerikasigagina emas, balki jahon madaniyatiga ham ulkan hissa qo'shganlar. Hindi qabilalari birinchi bo'lib jahonga kartoshka, tomat, makka, manioka, paxta, kungaboqar, kakao va boshqa muhim ekinlarni kashf etganlar. Ular dastlab kauchuk shirasidan foydalanish, kurare zaharini ishlab chiqarish va tibbiyotda foydalanishni o'rgatganlar, gamakni kashf qilib jahonga yoyganlar. Go'zal qadimiy me'morchilik, katta hashamatli shaharlar va dabdabali piramidalar, afsonaviy o'yma va bo'rtma rasmlar bilan bezatilgan ko'shku saroylar, turli shakl va hajmdagi go'zal haykallar, rang-barang bo'yoqli idish va buyumlar, tilladan quyilgan har xil haykallar hindilarni mo'jizakor san'at sohiblari ekanligidan dalolat beradi. Lotin Amerikasi hindilari yaratgan kuy va o'yinlar ham uzoq elatlarga tarqalib shuhrat qozongan. Bu yerda yevropaliklar kelgunga qadar ilk sinfiy jamiyat, yuksak san'at va hunarmandchilikka ega bo'lgan davlatlar paydo bo'lgan.

Meksikaning tub aholisi. Tadqiqotchilarning fikricha, hozirgi Meksika hududiga odamlar 15-12 ming yillar muqaddam kela boshlagan. Ular Tinch okean sohillari bo'ylab kelganlar, keyin ichki vodiylarni egallaganlar. Dastlab Meksikada ovchilik, baliqchilik va terimchilik bilan shug'ullanuvchi mayda daydi qabilalar yashagan. Miloddan avvalgi IV ming yilliklardan boshlab dehqonchilik yuzaga keladi va birinchi bo'lib makka, lobiyo va qovoq eka boshlaydilar. II ming yillikka kelib dehqonchilik asosiy xo'jalik sohasiga aylanadi. O'sha davrdan boshlab Meksika hududida yuksak madaniyat yaratgan elatlar yashaydi.

Miloddan avvalgi I ming yillikning oxirlarida va milodning birinchi asrlarida bu yerda neolit darajasidagi almeklar va sapoteklarning dehqonchilik madaniyati shakllangan edi. Bu madaniyat Quyosh va Oyga atab qurilgan dabdabali piramidalar, devorlari rasmi ibodatxonlar va zodagonlarning saroylari, tosh to'shalgan ko'chalar loydan qurilgan uyli mavzelari bilan ajralib turadi. Ularning o'rniga kelgan tolteklar to XII asrlargacha tevarakatrofda elatlarga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

IX-X asrlarga kelib mazkur madaniyatlar asta-sekin inqirozga uchrab, Mexiko vodiysida yangi elatlar-tenochka yoki atstek qabilalari paydo bo'la boshlaydi. Ular XIV asr boshlarida shimoli-

g'arbiy hududlardan bostirib kirib qadimiy madaniyat markazlarini egallab o'z tillarini saqlab qolganlar. Atsteklar qudratli davlat birikmasiga asos solgan va eski madaniy an'analarni davom qildirganlar. Ular kuchli qo'shinga ega bo'lgan va qisqa muddat ichida qo'shni qabilalarni bo'ysundirib soliq to'lashga majbur qilgan.

Atsteklar o'ziga xos sug'orish va melioratsiya tizimiga asoslangan dehqonchilik xo'jaligini yaratganlar, lobiyo, pomidor, batata (shirin kartoshka), kakao, tamaki va paxta ekkanlar. Yer o'g'itlangan, yo'nilgan yog'och bilan ishlov berib ekilgan. Maxsus qamishdan sol yasab, ustiga tuproq to'kib, suzadigan orolchalarda dehqonchilik qilganlar. Paxta va agava tolasidan ip yigirib turli mato to'qiganlar. Uy hayvonlaridan it va kurka saqlaganlar. Bug'i, quyon, yovvoyi qushlarga o'q-yoy, nayza, tuzoq bilan ov qilganlar, ko'l va daryolarda baliq tutganlar. Mis va toshdan bolta, nayza uchi va pichoqlar, naqsh berilgan charxsiz sopol idishlar, oltindan har xil bezaklar yasaganlar. Hunarmandchilik nihoyatda rivojlangan bo'lsa-da, ammo mehnat taqsimoti bo'lmagan. Zarur buyumlar oilalarda ishlab chiqarilgan.

Qudratli atsteklar davlatining poytaxti Tenochtitlan katta ko'lining o'rtasidagi orolda qurilgan va o'zining go'zalligi, ulug'vorligi va hashamatligi bilan ispan istilochilarini hayratda qoldirgan. Poytaxtni ko'l sohili bilan uchta 10 metr kenglikdagi Damba bog'lab turgan, ikkita maxsus tarnov orqali suv o'tkazilgan. Ko'l atrofiga asosiy ekin dalalari joylashgan, qishloqlar ham dalalar bilan o'ralgan.

Atsteklarning uylari odatda qamishdan qurilib, devorlari loy bilan suvalgan, tomi somon bilan yopilgan. Boy tabaqalar uylarini xomg'ishtdan tekis tomli va ichki hovlili qilib qurganlar. Poytaxtdagi ba'zi uylar ustunlarga tiklangan. Piramida shaklidagi ibodatxona va jamoa inshootlari toshdan dabdabali qilib qurilgan, haykallar va o'yma naqshli toshlar bilan bezatilgan. Qishloq jamoasi (kalpulli) umumiy yerga ega bo'lgan va bu yerlarni ayrim oilalarga taqsim qilganlar.

Erkaklarning kiyimlari etakli belbog' va plashdan iborat, ayollar yubka, yengsiz uzun ko'ylak kiyganlar. Poyabzal teridan tikilgan yoki agavadan to'qilgan sandaldan iborat. Kiyimlari bezatilgan, bilak va burun uzuklar osganlar, badanni bo'yaganlar. Taomlari ham turli xilda har xil zira aralashtirib xushxo'r qilingan. Makkadan toshyorg'ich bilan un chiqarib taom pishirganlar. Atsteklar

shokoladni kashf etganlar. Ammo ular «chokolatl»ni ichimlik sifatida iste'mol qilganlar.

Atstek va boshqa qabilalar mustamlaka arafasida sinfiy jamiyatga o'ta boshlagan. Butun hokimiyat zodagonlar va kohinlar qo'lida bo'lgan. Davlat boshida 2 ta hokim saylanib qo'yilgan, muhim masalalarni qabila kengashi hal qilgan. Zodagon va kohinlarga ajratilgan yerlarni jamoa a'zolari ekib yig'ib-terib bergan. Qulchilik odat tusiga kirib, qullar asirlar va qarzdorlar hisobiga to'ldirilgan. Ularni ijtimoiy qurilishlarda, zodagon va oqsoqollar xo'jaligida ishlatganlar. Qul savdosi keng avj olgan. Bo'ysundirilgan qabilalar ham soliq to'laganlar. Savdo-sotiq ancha rivojlangan. Kakao urug'i va tilla qum solingan naycha pul vazifasini bajargan.

Ilk quldorlik tuzumiga mos keladigan atstek madaniyati shakllangan. Tolteklar mayya xalqidan yozuvni, yil hisobi va kalendarni, astronomiya va matematik bilimlarni qabul qilib olganlar. Din mustaqil sohaga ajralib, diniy masalalarni zodagon va kohinlar boshqarib turgan. Quyosh xudosi va ayniqsa, qabilaning urush xudosiiga bag'ishlangan murakkab ibodatlar rusumi ishlab chiqilgan. Katta marosimlarda hatto odam qurbon qilingan. Bundan tashqari turli totemistik va sehrgarlik tasavvurlar ham tarqalgan.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, hozir Meksikada yashovchi aholi 70 million kishini, shulardan hindilar taxminan 30 foizni tashkil qiladi, ya'ni nufuzi 20 mln.gacha yetadi. Markaziy vohalarda joylashgan bir vaqtlar qudratli xalq hisoblangan atsteklar bilan million 300 mingdan ortiq, janubroqda yashovchi mayya — 650 mingga yaqin, tog' vodiylarida yuqori madaniyat yaratgan sapoteklar soni 450 mingga yetadi.

Mayya davlati. Milodning boshlarida Yukatan yarim orolining janubiy qismida hozirgi Gvatemala hududida bir qancha mayda shahar-davlatlar paydo bo'ladi. V-VI asrlarga kelib bunday davlatlarning soni yana ham ko'payadi va shimoliy hududlarga tarqaladi. Ular o'zaro kurashib turganlar. Ammo janubi davlat-shaharlarning ko'pchiligi XI asrga kelib birdaniga bo'shab qoladi. Yukatan yarim orolining shimolida o'sha davrda mayya xalqlarining bosh shahri Mayyapan kuchayib yuksak madaniyat yaratgan qudratli davlatga aylangan va ispanlar istilosigacha o'z hukmronligini saqlab kelgan.

Mayya ancha rivojlangan dehqonchilik xo'jaligiga ega bo'lgan. Ular o'rmonlarni toshboltalar bilan kesib, daraxtlarni kuydirganlar, kul bosgan dalani yog'och bilan kavlab urug' sepkanlar. Asosiy

ekin makkajo'xori hisoblangan. Undan tashqari lobiyo, pomidor, qalampir, qovoq va paxta ekilgan. Go'shtga it va kurka boqilgan, o'q-yoy, nayza va puflab otadigan naycha bilan ov qilib, ham go'sht g'amlangan. Baliqchilik va asalchilikni bilganlar. Mayya hindilari birinchi bo'lib kakao daraxtini o'stirib mevasidan ichimlik tayyorlaganlar.

Mayya davlatida ruda bo'lmaganidan metall qurollarni, ayniqsa, temir bolta va nayza uchlari, mis bilan oltin qotishmasidan yoki sof oltindan yasalgan bezaklarni Meksikadan va qo'shni mamlakatlardan keltirganlar. Paxta va agava tolalaridan nozik matolar to'qilgan, ulardan plash, yubka va boshqa kiyimlar tikkanlar, charxsiz sopol idishlar yasab, ularga turli naqshlar berilgan. Savdo-sotiq ancha rivojlangan, lobiyo va kakao urug'lari pul vazifasini bajargan. Qul savdosi ham bo'lgan.

Qishloqlar yengil to'qima yopilgan cho'qqaygan tomli uylardan tashkil topgan. Qishloq markazida toshdan qurilgan ibodatxona qad ko'targan, unda zodagon va kohinlar yashagan. Jamoa yeri uylangan erkaklarning soniga qarab, ya'ni har oilaga uch yilgacha taqsimlangan. Zodagonlarga ajratilgan maxsus dalalarda jamoa a'zolari xizmat qilgan va hatto sadaqa berib turganlar, urushda ishtirok etganlar. Soliq to'lashdan bo'yin o'giranlar xudo yo'liga qurbon qilingan. Quldorlik paydo bo'lgach, qullar zodagonlarning xo'jaligida, jamoa inshootlarini, ko'shk, saroylar va yo'llar qurishda, yuk tashishda ishlatilgan. Qullar miqdori asirlar, qarzdorlar hukm qilinganlar va hatto yetimlar hisobidan to'ldirib borilgan.

Mayya davlati boshida cheksiz huquqqa ega bo'lgan hokim («xalach vinik» — buyuk odam) turgan. Oliy kohin uning o'ng qo'li va maslahatchisi hisoblangan. Xalach-vinik soliq to'plash va qozilik qilish uchun qishloqlarga maxsus boshliq (batab) tayinlagan. Astronomiya va boshqa bilimlarni yaxshi egallagan kohinlar zo'r kuchga aylangan.

Mayya yuksak madaniyat yaratgan xalqlardan. Ular o'ziga xos yozuvni kashf etib, ma'lum bilimlarni chuqur egallaganlar. Ayniqsa, aniq bilimlar, chunonchi astronomiya va matematika nihoyatda rivojlangan. Mayyaliklar yil hisobini daqiqalargacha aniqlab kalendar tuzganlar. Ularda yil 365 kunga bo'lingan, kalendar 20 kunlik oydan va 13 kunlik haftadan iborat bo'lgan. Iyeroglif tizimiga asoslangan mayya yozuvlarida kohinlar turli afsonalar, duo va tarixiy solnomalar yozib qoldirganlar. Shu yozuvda har 20 yilda tarixiy

voqealar bayon qilingan maxsus tosh ustunlar o'rnatilgan. Nihoyatda go'zal san'at bilan tasvirlangan o'yma va bo'rttirib yasalgan ajoyib rasimli murakkab ibodat va turmush inshootlari hozirgacha kishini maftun qiladi.

Mayya xalqining diniy tasavvurlari sinfiy munosabatlarni muqaddaslashtirgan juda murakkab serhasham marosim va ibodatlardan iborat bo'lgan. Muqaddas kitoblar fikus qobig'idan ishlangan qog'ozlarga yozilgan va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Afsus deyarli barcha qo'lyozmalar ispan mustamlakachilari tomonidan kuydirilgan. Asosiy e'tiqodlari dehqonchilik bilan bog'liq aholi osmon, yomg'ir, o'simlik va boshqa tabiat hodisalarini ifodalovchi xudolarga sig'inishga asoslangan.

Chibcha-muisklar davlati. Mayya davlatining janubida, hozirgi Kolumbiyaning kattagina qismida chibcha til oilasiga mansub yuqori madaniyatli qabila va elatlar yashagan. Ularning eng qudratlisi chibcha-muisk xalqi mustamlakachilar kelishi arafasida sinfiy jamiyatga o'ta boshlagan. Muisklar tropik dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Manioka va batata ekinlarini ekanlar, koka daraxtini o'stirib mevasi va yong'og'idan narkotik ichimlik tayyorlaganlar. Go'sht topish uchun ovchilik qilganlar. Uy hayvonlaridan faqat it saqlaganlar. Ekinlardan makka, kartoshka, lobiyo, pomidor, paxta va mevali daraxtlar ekanlar.

Ishlab chiqarish qurollari tosh va yog'ochdan yasalgan chopqi, 1,2-2 metr uzunligida nayza, palaxmon, bolta va pichoq. Ular mis quyishni bilganlar, mis bilan oltin qorishmasidan turli bezaklar va badiiy buyumlar yasaganlar. Kulolchilikni, yigiruv va mato to'qishni bilganlar. Matodan etakli belbog', plashlar tikkanlar. To'p gazlama va oltin tangacha pul vazifasini bajargan. Savdo rivojlangan.

Ijtimoiy munosabatlarida ota urug'i hukmronlik qilgan, ammo matriarxat qoldiqlari saqlangan. Ular jamoa bo'lib joylashganlar va katta oilalarga bo'linganlar. Poligamiya keng tarqalgan zodagonlar o'nlab xotin va cho'rilarga ega bo'lganlar. Qullar paydo bo'lgan va sinfiy munosabatlar o'rnatilgan. Boy tabaqalar bezatilgan ko'shklarda, oddiy jamoa a'zolari loy bilan suvalgan to'qima kulbalarda yashaganlar. Bezaklarni faqat zodagonlar osishga haqli bo'lganlar. Ayniqsa, bosh hokinga itoat qilganlar. Unga turli sovg'a-salomlar keltirib huzuriga kirganlar.

Hokimni saylash marosimi turli afsonalar bilan bog'liq. Hokim smola surtilgan badaniga oltin qum sepib solga tushib, ko'lining o'rtasiga suzib borib cho'milar emish. U xudoga atab oltin va zumraddan yasalgan haykalchalarni suvga tashlar ekan. Bundan rivoyatlar muisk davlatini «El-dorado» (Ispancha «zarhallangan» yoki «oltin odam») deb nom chiqarishga va mustamlakachilarni «oltinga boy» o'lkaga bostirib kelishlariga sabab bo'lgan.

Chibcha xalqlarining dinlari dehqonchilik bilan bog'liq. Quyosh, oy, yer xudolariga, ajdodlarning arvoqlariga sig'inishdan iborat. Boylarning jasadlari mumiyolashtirilgan, xotinlari va qullari qatl qilinib birga dafn qilingan. Qabrga qurol va qimmatbaho buyumlar qo'yilgan. Qohinlar boy tabaqalardan tayinlangan. Tabiblar davolaganlar va folbinlik qilganlar.

§ 3. JANUBIY AMERIKA XALQLARI

Inklar davlati. Janubiy Amerikadagi And tog'larining hozirgi Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Shimoliy Chilida, ya'ni juda katta hududda kechua til oilasiga mansub turli elat va qabilalardan tashkil topgan Ink davlati bo'lgan.

Bu yerda I ming yillikda kechua va aymara tillaridagi ko'plab mayda qabilalar yashagan. Rivoyatlarga qaraganda, XIII asrga kelib shu qabilalardan Kusko vohasida joylashgan Inklar kuchayib 1438-yildan qabilalar ittifoqiga bosh bo'ladi va oliy kasta deb taniladi. Boshqa barcha elatlar unga bo'ysunib soliq to'lab turgan.

Ink davlatida aholi asosan, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Asli And tog'larida dehqonchilik xo'jaligi miloddan avvalgi uch minginchi yillikda paydo bo'lgan. Inklar miloddan avvalgi VI asrda shakllangan chanapata madaniyatining merosxo'rlaridir. Ular markazlashgan sug'orish tizimini yaratganlar, asosan, makka va kartoshka ekanlar. Kartoshkaning ko'p turlari, Yevropaga ilk bor shu yerdan olib borilgan. Dalalar tosh bilan berkitilgan kanallar orqali sug'orilgan, suv omborlari to'ldirilgan. Yerga jez uchli maxsus tayoq (taklya) va tosh bronza uchli chopqi bilan ishlov berilgan, hosil jez o'roq bilan o'rigan. Umuman 40 ga yaqin ekin turlarini bilganlar.

Andlik hindilar Amerika qit'asidagi chorvachilikni bilgan yagona elatlardan hisoblangan. Kechua va aymara xalqlari lama va alpaka nomli hayvonlarni qo'lga o'rgatib yuk tashishda foydalanganlar, go'shti, yog'i, terisi, juni, suyagini xo'jalikda keng ishlatganlar.

Lamaning yovvoyi turini uch yilda bir marta mol qo'ralariga haydab, qamab, junini qirqib, keyin erkinlikka chiqarib yuborganlar. Go'sht uchun dengiz cho'chqasi va o'rdaklarni ovlaganlar. Uy hayvonlaridan faqat itni saqlaganlar.

Ink davlatida hunarmandchilik rivojlangan. Ular metallni ruda konlaridan qazib olganlar. Mis, kumush, oltin, simob va boshqa rangli metallarni, hatto jez ishlab chiqqanlar, turli qurol (o'roq, bolta, pichoq), bezaklar va diniy buyumlar yasaganlar. Charxsiz naqsh berilgan ajoyib sopol idishlar va haykalchalar ishlab chiqqanlar, paxta va jundan chiroyli nozik matolar to'qiganlar. Hech qanday qorishmasiz yirik kesilgan tosh bo'laklardan dabdabali ibodatxona va qasrlar tiklaganlar. Oddiy kishilarning uylari toshdan yoki xomg'ishtdan qurilgan, qamish yoki somon bilan yopilgan, oynasiz va chipta eshikli kichkina xonalardan iborat.

Inklar g'ildirakli transport bo'lmasa ham yo'llarga katta e'tibor berganlar. Bizning davrimizgacha yetib kelgan dengiz sohili va tog' etaklarida qurilgan tog' yo'llar, tunnel va ko'priklar hozirgacha kishini hayratda qoldiradi. Ular yengil sol kemalarda uzoq masofalarga sayohat qilganlar. Pulni bilmaganlar, ammo natural savdo-sotiq rivojlangan. Hokimlar eng mohir ustalarni poytaxtga to'plaganlar. Bo'ysundirilgan qishloqlardan yosh qizlarni zo'rlab keltirganlar va to'rt yil davomida to'qimachilik va boshqa kasblarga o'rgatganlar, keyin ular 30 yoshigacha erga tegmasdan ink zodagonlariga xizmat qilganlar.

Asosiy ijtimoiy hujayra qishloq jamoasi (aylu) hisoblangan. Yer bosh hokimning mulki hisoblansa ham har yil jamoa a'zolari (oilalar)ga taqsim qilib berilgan. Oliy hokimga («Inka dalasi») va kohinlarga («Quyosh dalasi») maxsus yerlar ajratilib, uni jamoa a'zolari ishlab hosilini yig'ib berganlar.

Davlat tuzumi o'ziga xos despotizmga asoslangan quldorlik imperiyasi hisoblangan. Inklar yuqori tabaqa deb tanilgan va ular mehnatdan ozod bo'lib boshqa qabilalar hisobiga yashaganlar. Soliqdan kechua qabilasi ham ozod bo'lgan, boshqa qabilalar inklarga qaram bo'lib soliq to'laganlar, qul yetkazib berganlar. Ammo urug'chilik munosabatlari (fratriylik) saqlangan. Inklar hatto kiyim va bezaklari bilan ajralib, hukmron kastaga aylangan, hokimlar va kohinlar ham ulardan saylangan. Oliy Inka (Sana Inka) quyosh o'g'li hisoblangan, unga boshqalar itoat qilganlar.

Ink davlatida politeistik (ko'p xudolik) dinlari keng tarqalgan. Quyosh ibodati eng muhim hisoblangan, shuning uchun Sana Inka ham xudo darajasiga ko'tarilgan. Ona-yerga, tabiatga sig'inganlar, Makka va Kartoshka xudolari bo'lgan, ajdodlar arvohlariga ham sig'inganlar. Katta bayramlarda yoki ofat kelsa asirlardan yoki bo'ysundirilgan qabilalarning bolalaridan qurbonlik qilganlar. Kohinlar diniy marosimlardan tashqari astronomik kuzatishlarni ham olib borganlar. Inklarda ikki xil yil hisobi — Quyosh (366 kun) va Oy (354 kun) kalendari bo'lgan. Tarix va genealogiya bilan shug'ullanuvchi maxsus donishmand (amauta)lar bo'lgan. Tabibchilikdan tashqari xirurgiya tajribasiga ega bo'lganlar, trepanatsiya qilishni bilganlar. Iyeroglif yozuvi bilan birga o'ziga xos rangli iplardan tuzilgan tugma yozuv ham bo'lgan. Ammo noyob yozuv namunalarini ispan istilochilari butunlay yo'q qilganlar.

Ispanlar Pizarro boshchiligida inklar davlatini 1531-1533-yillarda talon-taroj qilganlar. Lekin mag'rur inklar qo'zg'olon ko'tarib qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Faqat 1572-yilda qo'zg'olon bostirilib butun mamlakatni istilochilar egallagan. Hozirgacha kechua va aymara xalqlari o'z madaniyatlarini va tilini saqlab qolganlar. Ular bir necha mamlakatlarga bo'lingan. Masalan, kechua xalqi besh davlatda yashaydi, ayniqsa, ular Peru, Ekvador va Peruda ko'proq.

Chilining janubiy hududlarida bir necha guruhlariga bo'lingan araukan qabilalari yashaydi. Ular ham inklar singari dehqonchilik bilan shug'ullanganlar, kartoshka, mais, lobiyo, suli ekkanlar, chorvachilik va terimchilikni bilganlar, qisman ovchilik ham qilganlar. Kiyimlari gazlamani ikkiga buklab, o'rtasini bosh sig'adigan qilib kesib olingan plash (pancho) shaklida bo'lib, uning tagida teridan shim kiyganlar. Har xil chig'anoq va metallardan yasalgan bezaklar taqishgan. Araukanlar qamishdan to'qilib, loy bilan suvalgan konus shaklidagi somon yoki qamish tomli uylarda yashaganlar. Ijtimoiy tuzumi matriarxatdan ota urug'iga o'tish davriga to'g'ri keladi. Ular inklarning qattiq ta'sirida bo'lgan va madaniyatining ko'p tomonlarini, jumladan, metall ishlab chiqarishni, tugma yozuvni qabul qilib olganlar. Chili davlati araukanlarni 1883-yili katta kuch bilan o'ziga bo'ysundirgan. So'nggi davrlargacha ular ba'zi jamoatchilik munosabatlarini saqlab kelganlar. Hozir ko'pchilik araukanlar rezervatsiyalarga joylashgan.

Tropik o'rmon hindi qabilalari. Janubiy Amerikaning shimoli-sharqiy va markaziy qismlarida mustamlaka arafasida aravak, tupi-guarani va karib til oilasiga mansub turli qabilalar yashagan. Ular nihoyatda qoloq ibtidoiy jamiyat darajasida turgan o'troq elatlardir. Asosiy kasbi tropik dehqonchilik bo'lib, mayda butazorlarni toshboltalar bilan qirqib kuydirganlar, kul aralash tuproqqa yog'och tayog' bilan kavlab makka, batata, lobiyo, tamaki va paxta ekanlar.

Amazonka va Orinoka daryolarining tropik o'rmonlarida ov qilganlar, daryo va ko'llarda baliq tutganlar. Toshboltalar ham qurol, ham savdo vositasi rolini o'ynagan. Ovda parli o'q-yoy, suyak, chig'anoq va yog'ochdan yasalgan turli qurollar ishlatilgan. Maymun va qushlarni ovlashda uchi kurara nomli o'simlik zahari surtilgan bambukdan yasalgan puffak naycha qurol (sarbakan) ishlatilgan. Umuman mahalliy hindilar mahorat bilan o'simlik zaharlaridan foydalanganlar. Baliq ovida turli to'r va savat ishlatilgan, yog'ochdan kichik kemalar yasaganlar. Baliqni o'q-yoy va sanchqi bilan ham ovlaganlar.

To'r to'qishda tropik o'rmon hindilariga teng keladigani yo'q. Yog'ochga osib qo'yadigan karavot-gamakni kashf qilib butun dunyoga shu nom bilan taqdim qilgan, bezgak kasalini davolashda eng zarur darmon-xinin daraxtini kashf qilgan ham o'rmon hindilaridir. Ular doirasimon yoki to'rtburchakli palma yaprog'i va butoqlar bilan yopilgan uylarda yashaganlar. Devorlari ham butoqlardan to'qilgan yoki bo'yra bilan ustunlarga berkitib loy suvalgan.

Amazonka va Orinoka vohalaridagi hindilar urug'-jamoaga bo'lib yashaganlar va umumiy xo'jalikka ega bo'lganlar. Oilalar matrilo-kal tipidagi juft nikoh tartibida bo'lsa ham guruh nikoh qoldiqlari saqlangan. Ov qiladigan va baliq tutadigan umumiy hudud jamoaga mulki hisoblangan, ovni teng taqsim qilganlar. Har qishloq o'z-o'zini boshqaruvchi jamoaga ega bo'lib, unga oqsoqol rahbarlik qilgan. Har bir qabilada erkaklar ittifoqi mavjud. Qabilalararo aloqalar tabiiy sharoit tufayli uncha mustahkam bo'lmagan.

Diniy tasavvurlari ham moddiy sharoitga bog'liq bo'lgan. Tevarak-atrofdagi tabiat yaxshi va yomon arvohlar bilan to'la, ularni yumshatish uchun xudoyilar qilib turish zarur, degan aqidaga rioya qilganlar. Shomonizm keng tarqalgan, shomonlar arvohlar bilan vositachi bo'libgina qolmay, tabiblik ham qilganlar. Diniy marosim va bayramlarda oddiy musiqa asboblari (shox, nay) jo'rligida turli

raqslarga tushganlar, badanlarini bo'yaganlar, qush pati, yong'oq, tish va boshqa buyumlar bilan bezanganlar.

Yevropaliklar kelishi bilan tropik o'rmon hindilari ovga qulay joylarini tashlab changalzor o'rmonlarning ichkarisiga chekinishga majbur bo'lganlar. Ammo XIX asr oxirlarida kauchuk yig'ish uchun kelgan mustamlakachilar hindilarni yana ham siqib noqulay joylarga ko'chishga, majbur qilganlar.

Sharqi-janubiy Braziliya va Pampa hindilari. Braziliyaning qalin o'rmonlarida va qurg'oq yassi tog'larda botokuda, jes va boshqa til turkumiga mansub turli qabilalar yashagan. Ular dehqonchilikdan xabardor bo'lsa ham, asosan, terimchilik, ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirganlar. Bir necha katta oilalardan tashkil topgan lokal guruhlar qirlarda, kichkina yerlarda manio-ka, botata ekib, hosilini yig'ib-terib olgandan keyin boshqa joylarga ko'chib terimchilik qilganlar. Ularning asosiy qurollari o'q-yoy va nayza, ayollar oddiy yog'och bilan kavlab yemishli ildizlar, urug' va mevalarni terganlar, erkaklar bug'u, straus va boshqa har xil mayda hayvon va qushlarni ovlaganlar, sanchqi va to'r bilan baliq tutganlar. Ularda toshdan yasalgan bolta va pichoqlar ham bo'lgan.

Botokuda qabilalari qarorgohlarida butun guruhga mo'ljallangan palma yaproqlari bilan yopilgan katta chaylalar tiklangan. Suv saqlaydigan savatlari, maxsus uy-ro'zg'or buyumlari bo'lgan. Ular kiyimni bilmaganlar, badanlarini bo'yab bezaganlar, quloqlariga va lablariga yog'och uzuk osganlar.

Mazkur qabilalarning ijtimoiy tuzumi kam o'rganilgan bo'lsa-da, urug'chilik tuzumida yashaganliklari aniq, ular dual tashkilotga ega bo'lganlar, guruhiy nikoh va ekzogamiya tartiblari saqlangan. Urug' jamoasida ona urug'i tartiblari (urug' hisobi va hokazo) saqlangan, ammo erkaklar ittifoqi ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynagan. Diniy tasavvurlari qo'shni tropik hindilarnikidek tabiiy kuchlarga sig'inishdan iborat bo'lgan.

XVIII-XIX asrlar davomida Braziliya o'rmon hindi qabilalari portugallar tomonidan qirilgan. Ular rezervatsiyalarga ko'chirilib ochlik va kasalliklarga chidamay o'lib ketganlar. Ikkinchi jahon urushi arafasida botokuda qabilalarida bir necha o'nlab kishi qolgan bo'lsa, jes til oilasiga mansub qabilalarda hech kim qolmagan. Tirik qolgan hindilar kauchuk plantatsiyalarida xizmat qilmoqdalar. Ular qalin o'rmonlarda turli xomashyo (smola, kauchuk, xinin daraxti

qobig'i, noyob qushlarning patlari va hk.) yetkazib beradilar va o'z mehnatiga arzimaydigan haq oladilar.

Pampa hindilari. Janubiy Amerikaning janubidagi keng dasht hududlarida qadimdan Patagoniya bepoyon tekisliklarini pampa deb ataydilar. Bu hududda har xil tilda gapiradigan ovchi qabilalar (asosan, chon, araukan, texuelyache) yashagan. Ular dashtlab piyoda, yevropaliklar kelgandan keyin otda guana (lamaning yovvoyi bir turi)ka ov qilganlar. Ov qurollari o'q-yoy, bo'la (teri xaltaga tosh solib ikki-uchtasini arqon uchiga bog'lab palaxmonga o'xshatib hayvonga otganlar, oyog'i yoki bo'yniga o'ralgan bo'la uni qo'lga tushirgan) bilan tez yuguradigan guanakani straus va bug'ularni ovlaganlar. Ular turli o'simlik, urug' va ildizlarni ham yig'ib-terganlar.

Pampa ovchilari manzilgohlarida daydi turmushga moslashgan bekitema yoki guanaka terisi bilan qoplangan chaylalarda yashaganlar. Terilardan zo'r mahorat bilan ishlov berib belbog'li plash yopinganlar, ot yoki guanaka oyoq terisini shilib xomligicha mahsiga o'xshash poyabzal qilib, sovuq va yomg'ir paytlarida ustiga teri kavush kiyganlar. Shunga qarab ispanlar pampa ovchilarini «patagonlik» (katta oyoqli)lar deb ataganlar.

Patagonliklar 30-40 oiladan iborat qavm-qarindoshlar guruhini tashkil qilgan. Guruh boshida oqsoqol turgan va jamoa o'tkaziladigan ovni boshqargan. Qarorgohlar patrilokal tipda bo'lgan, kelin uchun qalin to'langan. Asosiy mulk — ot va qurol — erkakka tegishli, uy-ro'zg'or buyumlari yengil yog'och va teridan yasalgan. Eri o'lgan beva xotinga meros qolmagan, o'likdan qolgan barcha buyumlar yo'q qilingan. Initsiatsiya marosimlari juda tantanali bayram kiyimlarida (bo'yalgan teri, par, hayvon va shoxlari bilan) chaylalar bezatilgan va turli raqslar, nog'ora va surnaylar bilan o'tkazilgan.

Diniy tasavvurlar totemizm va animizm bilan bog'liq. Shomoniylilik ham ma'lum, shomonlar vazifasini xotinlar bajargan, erkak shomonlar xotinchalik kiyinishi shart bo'lgan. Ajdod arvohlariga sig'inish kuchli bo'lgan.

XVIII asr oxirlarida mustamlakachilar Argentina janubidagi serhasham dashtlarni egallashga kirishib pampa hindilarini qirish siyosatini amalga oshira boshlagan. Mohir ovchi va otli askar hisoblangan hindilar zo'r qarshilik ko'rsatganlar. Ammo kuchlar teng bo'lmaganligidan 1878-1883-yillarda argentina hokimiyati o'tkazgan «janub kompaniyasi» natijasida hindilarning ko'pchiligi

qirilgan, qolgan ozgina qismini Patagoniyaning janubiga haydaganlar. O'tgan asrning boshlarida bir necha o'n araukan va puelche vakillari qolgan, xolos.

XIX asrning o'rtalarigacha Olovli Yer arxipelagida o'na, alakuluf va yamana nomli qabilalar ibtidoiy turmush tarzini saqlab qolganlar. Nihoyatda og'ir tabiiy sharoitda yashagan mazkur qabilalar daydichilikda guanaka, tulen, baliq va qushlarni ovlab, har xil o'tlar va molluskalarni terib kun kechirganlar. Ular qarorgohlarda vaqtinchalik teri yoki daraxt qobig'i bilan qoplangan bekitma va chaylalarda istiqomat qilganlar, hayvon terisi bilan yopingan, olovdan foydalanganlar. Ovchilik qurollari o'q-yoy va sanchqi, daraxt qobig'idan yasalgan kichkina qayiq.

Yamana qabilalarida qavmu qarindoshlar guruhi bir jamoa (urug') hisoblangan va uni «ukur» deb ataganlar. Jamoa boshliqlari jamoa bo'lib ov tashkil qilganlar, qo'shni qabilalar bilan munozara yurgizganlar. Qabilalar ekzogam urug' guruhlariga bo'linib, urug' hisobi ham ona, ham ota tomonidan belgilangan juft oila hukmronlik qilsada, poligam nikoh tartiblari saqlanib kelgan. Tabiblar muhim rol o'ynagan, ular kasallarni davolagan, ob-havoni aytib bergan. Totemizm va sehrgarlik, kasb ibodati va arvohlarga sig'inish keng tarqalgan.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa, 1870-yillarda mustamlakachi-chorvador yevropaliklar ko'plab kela boshlagan. Olovli Yer nam, yumshoq tabiati bilan qo'ychilikka qulay bo'lgan. Mustamlakachilik tez vaqt ichida qo'ychilikni rivojlantirgan. Jamoatchilik tartiblariga o'rgangan ibtidoiy qabilalar qo'yga ov qila boshlaganlar. Mustamlakachilar o'z navbatida hindilarni chinakam ovlashga o'tib, har bir o'ldirilgan hindi kallasiga besh funt sterling haq to'laganlar, Chilida esa bir funt to'langan. Bunday vahshiylik siyosati tub aholining qisqa muddat ichida qirilib ketishiga sabab bo'lgan.

§4. AMERIKANING HOZIRGI ETNIK QIYOFASI

Hozirgi Amerika qit'asi o'zining rang-barang tabiati singari turli xildagi etnik qiyofaga ega. Kashf etilgandan so'ng besh asrlik tarixi davomida qit'aga juda ko'p xilma-xil elat va xalqlar kelib uning etnik tuzilishida tub o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Ularning geografik joylashishda ham katta o'zgarishlar ro'y bergan. Bu yerda yirik xalqlar faqat Yangi davrda shakllangan. Yevropaliklar kelgunga

qadar Amerikaning tub aholisi asosan, qadimiy dehqonchilik madaniyati markazlari Janubiy Meksika va And tog'larida joylashgan. Shimoliy va Janubiy Amerikaning mayda qabilalari esa ovchilik, terimchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

Hozir AQSH va Braziliyada 100 dan ortiq turli xalqlar, Kanada, Meksika va Argentinada 50 dan ko'proq, Boliviya, Venesuela, Peru, Kolumbiya va Chilida 25 ga yaqin xalq va elatlar yashaydi. 30 dan ortiq xalq bir milliondan ko'p aholiga ega. Eng ko'p sonli aholi 1985-yili AQSHda (240 mln.), Braziliyada (135,5 mln.), Meksikada (78,5 mln.), Kolumbiyada (28,4 mln.), Kanadada (25,3 mln.), Argentinada (30,5 mln.), Peruda (19,7 mln.), Venesuelada (17,3 mln.), Chilida (12,1 mln.) yashaydi. Tub aholi hisoblangan hindilarning avlodlari butun aholining taxminan 61 qismini tashkil qiladi. Shulardan eng ko'p sonli xalqlar: kechua 13,2 mln. (Peru, Ekvador, Boliviya), guarani 2,9 mln. (Paragvay), aymara 2 mln. (Boliviya, Peru), atsteklar 1,3 mln. (Meksika), algonkinlar 350 ming, atapasklar 285 ming, chibcha-muiska 270 ming va boshqalar.

Til jihatdan hozirgi Amerika aholisini olimlar ikki katta guruhga bo'ladilar, kelgindi hind-yevropa tillari (asosan, ingliz, ispan, fransuz) va mahalliy hindi tillari (mayya, atstek, aymara, kechua, guarani, penuti, chibcha va hokazo). XVI-XVIII asrlar davomida Afrikadan zo'rlik bilan millionlab keltirilgan turli elatlar (bantu, yoruba, xusa, eva va hk.) ham qit'aning etnik qiyofasiga muayyan ta'sir o'tkazgan. Hozirgi Amerikaning ayrim mamlakatlarida negrlar hatto ko'pchilikni tashkil qiladi.

Yevropa mustamlakasi natijasida ko'p asrlik murakkab etnik jarayon ro'y berib tub aholining faqat lingvistik va antropologik tuzilishidagina emas, uning turmush tarzida ham jiddiy o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Albatta, mazkur jarayon tabiiy bir holat bo'lmasdan, balki zo'rlik va vahshiylik bilan amalga oshirilgan. Mustamlakachilarning hindilarni ochiqdan-ochiq qirib tashlash siyosati Amerika tarixining eng fojiali sahifalaridan hisoblanadi. Istilochilar keltirgan qirg'in, og'ir mehnat va turli yuqumli kasalliklar millionlab hindilarning yostig'ini quritgan edi. Ayniqsa, Vest-Indiya aholisi XVI asrning birinchi yarmidayoq fojiali taqdirni boshdan kechirgan, oqibatda hindilar o'sha davrda deyarli butunlay qirilib ketgan va ularning avlodlaridan nomu nishon qolmagan. Faqat ko'p sonli qadimiy madaniyat yaratgan

xalqlar (aymara, guarani, Janubiy Meksika hindilari) va Janubiy Amerikaning ichki to'qayzorlarida, Amazonka va Oriniko daryolarining vohalaridagi tropik o'rmonlarda yashaydigan hindilar qisman etnik hududini hamda madaniy xususiyatlarini saqlab qolganlar.

Kelgindi yevropaliklarning etnik tarixi ancha murakkab va notekis. Ular Amerika qit'asining turli qismida turlicha joylashganlar. Dastlab Shimoliy Amerikaga kishilar Angliya, Irlandiya va Shotlandiyadan kela boshlagan. XIX asr o'rtalarigacha bu yerga ko'proq Shimoliy, G'arbiy Yevropa mamlakatlarining vakillari ko'chib kelganlar. Kelgindilarning ko'pchiligi irqiy tomoniga kam e'tibor qilib mahalliy qabilalar bilan nikoh tuzganlar. Keyinchalik Germaniya va Shvetsiyadan immigrantlarning to'liqini bir oz kuchayadi. XIX asrning II yarmida Avstro-Vengriya, Italiya va hatto Rossiyadan, keyin Yaponiya va Xitoydan ham odamlar ko'chib kela boshlaydi. Ammo immigrantlar qit'aning qulay joylarini axtarib turlicha joylashganlar. Yevropaliklar ko'pincha AQSH va Kanadaning sharqiy va markaziy qismlariga, hamda Markaziy va Janubiy Amerikaga tarqalib o'rnashgan bo'lsalar, yaponlar va xitoylar asosan, Tinch okeani sohillariga joylashgan.

AQSHning aholisi qurama bo'lib, uning asosiy tili inglizcha, faqat 10 foiz aholi o'z ona tilida gapiradi. Bir necha asrlik assimillatsiya natijasida hozirgi ingliz tillik Amerika millati shakllangan. Shunisi qiziqki, qit'ada yashovchi roman-german tillarida gapiradigan kishilarning soni shu tillarning vatanidagi aholiga nisbatan bir necha marta ko'p. Masalan, ingliz tilining vatani Angliyada 56 mln. kishi shu tilda gapirsa, Amerikada inglizchada 200 mln.ga yaqin kishi gapiradi. Ispaniyada 36 mln.dan ortiq kishi ispancha gapirsa, shu tilda gapiradigan kishilar Amerikada 200 mln. dan oshadi. Portugaliya tili vatanida 10 mln.ga yaqin portugalcha gapirsa, Braziliya shu tilda 115,5 mln. aholining tiliga aylangan. Umuman, qit'adagi aholining ko'pchiligi roman tillarida (ispan, portugal va fransuzcha — 54 foizdan ortiq) va german tillaridagi xalqlar (inglizcha 35 foiz), qolgan aholi hindilar va boshqa kelgindi mayda millatlardan iborat.

Amerikaning etnik tarixida irqiy jihatdan negrlar alohida o'rinni egallaydi. Ular XVI asrning I choragidan boshlab Afrikadan minglab keltirilgan. Uch asr davomida zo'rlik bilan asosan, Vest-Indiya va

Braziliyaga plantatsion xo'jaliklarda ishlatish uchun qul qilib keltirilgan son-sanoqsiz negrlar mahalliy etnik jarayonga o'z ta'sirini o'tkazgan, albatta, Negrlar dastlab yuzlab keltirilsa, XVII asrda bir necha mingdan iborat bo'lgan, XIX asr boshlarida 1 mln., 1860-yillarida 4 mln.ga yaqin negr kuch bilan olib kelingan. Hozir AQSH aholisining 12 foizi, Lotin Amerikasining 9-10 foiz aholisi negrlardir. Ular asosan, antropologik va ba'zi milliy xususiyatlarini saqlab, joylashgan o'lkalardagi hukmron tillarni egallaganlar.

Butun Amerikada 3-4 asrlik murakkab assimillatsiya va konsolidatsiya jarayoni natijasida turli qurama etnik guruhlar paydo bo'lgan edi. Bu yerdagi Ispaniya va Portugaliya mulklariga ko'chib kelgan ispaniyalik va portugaliyalik dvoryanlarining avlodlari «kreollar» deb nom qozongan. Ular mahalliy boy tabaqalar hisoblanib qonu qarindoshlik aloqalarini o'rnatganlar. Kreollar metropoliya aholisi bilan bir oz ziddiyatda bo'lib, ayrim huquqlar (masalan, hukmronlik qilish)dan mahrum bo'lishgan. Shuning uchun ular XIX asrning 1 choragidan mustamlakachilik tugagandan keyin mustaqillik uchun kurashga bosh bo'lib, yangi paydo bo'lgan respublikalarda hokimlikni o'z qo'llariga olganlar.

Aslida irqnlarning aralashuvi mustamlakachilik davrida boshlangan edi. Oqibatda juda ko'p metislar paydo bo'lgan. Ular yevropaliklar bilan hindilarning avlodlaridir. Ba'zan metis hindi ayoliga uylanib fanda «salto atras» (orqaga sakrash) deb atalgan avlod ham paydo bo'lgan. Metislar ayniqsa, Meksikada, Janubiy Amerikaning g'arbiy sohillarida, Markaziy Amerika mamlakatlarida, Kolumbiya va Venesuelada ko'p.

Yevropaliklar bilan negrlar aralashmasidan paydo bo'lgan avlodlar «mulat», deb nom olgan. Ular negrlar ko'proq bo'lgan joylarda tarqalgan. Vest-Indiyada bunday avlodlar hatto maxsus terminlar bilan atalgan. Masalan, avlodda 4/1 qismi negr hisoblansa, «kvarteron», 8/1 qismi «oktron», 16/1 qismi «musti», 32/1 qismi «mustefino» deb nom berilgan. Mazkur tizim asosida kishining ijtimoiy o'rni belgilangan. Agar «oq tanli» bilan «mustefino»dan bola tug'lsa, u oq tanli, deb tanilgan va erkinlar qatoriga kirgan (hatto ota-onasi qul bo'lsa ham).

Markaziy Amerika, Kolumbiya va Ekvadorda hindi bilan negrlar nikohidan paydo bo'lgan avlodlarni «sambo» deb ataganlar. Bulardan tashqari, XIX asrning 30-yillarida qullik man qilingandan keyin Amerikaga Hindiston va Xitoydan kontrakt asosida yollanma

ishchilar keltirila boshlandi. Ularning ko'pchiligi Vest-Indiya mamlakatlariga joylashib yangi etnik guruhlarining shakllanishida ishtirok qilganlar.

Hindilarning hozirgi geografik joylashuvi ham notekis. Agar Shimoliy Amerikada eskimos va hindilarning soni 1,5 mln.dan ortiq bo'lsa, Vest-Indiya va Urugvayda sof hindilar mutlaqo yo'qolib ketgan, Kosta-Rika va Argentinada juda kam qolgan. Lotin Amerikasida yashovchi aholining 55 foizini metislar tashkil qiladi, Meksikada esa metislar aholining 5/4 qismidan iborat. «Oq tanlilar» faqat Argentina, Urugvay va Kosa-Rikada ko'pchilik aholini tashkil qiladi, qolgan Lotin mamlakatlarida nisbatan kam. Antropologik va etnografik ma'lumotlarga ko'ra butun Lotin Amerikasida sof yevropoid («oq tanli») irqiga oid tiplar aholining 5/1 qismini tashkil qiladi, xolos. Ayrim davlatlarda, masalan Dominikan respublikasida esa aholining ko'p qismi mulatlardan iborat.

Shimoliy Amerikada juda ko'p fransuzlar, italyanlar, nemislar, slavyan xalqlari va boshqa millatlar yashaydi. Masalan, Kanadada fransuzlar aholining 3/1 qismini tashkil qiladi. XIX asr oxirlaridan boshlab Lotin Amerikasidagi mamlakatlarga arablar, Livan va Falastindan ko'chib kela boshlaganlar.

Hozirgi Amerika mamlakatlarida barcha elat, qabila va xalqlar millat bo'lib shakllanmoqda. Muayyan iqtisodiy, hududiy, ruhiy va ma'naviy madaniyat birligi negizida Amerika, Kanada, Meksika, Braziliya, Venesuela, Kuba, Kolumbiya va boshqa o'nlab zamonaviy millatlar paydo bo'lmoqda. Amerika aholisining, ayniqsa, Markaziy va Janubiy qismida joylashgan davlatlarning tarixiy taqdiri, til birligi, bir din (katolitsizm) ga taalluqli ekanligi va tabiiy sharoitining nisbatan yaqinligi mazkur jarayonni ancha tezlashtirmoqda. Lekin Shimoliy Amerika bilan Lotin Amerikasi orasidagi sotsial-iqtisodiy, etnik va madaniy tafovutlar qit'a aholisining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab, ularning demografik rivojiga ham zo'r ta'sir qilib kelmoqda. Hozirgi davrda Lotin Amerikasining aholisi Shimoliy Amerikaga nisbatan uch hissa tez sur'atlar bilan o'smoqda. Lotin Amerikasi jahonda eng yosh mintaqa, uning aholisining yarmidan ko'pi 20 yoshga ham yetmaydi. 1960-yillarda Amerikaning shimoliy qismi bilan Lotin Amerikasi aholisining soni taxminan teng bo'lgan bo'lsa, 1975-yilga borib shimolga nisbatan 3/1 qism ko'paygan. XX asr oxiriga kelib, Lotin Amerikasining aholisi Shimolga qaraganda taxminan ikki baravar oshdi. Bunday hodisa qit'aning etnik qiyofasiga ham ta'sir qilmay qolmaydi, albatta.

V. YEVIROPA QIT'ASI XALQLARI

§1. G'ARBIY YEVIROPANING ROMAN-GERMAN VA ANGLO-SAKS XALQLARI

Yarim milliardga yaqin hozirgi Yevropa xalqlari butun jahon madaniyati tarixida muhim rol o'ynagan. Ular eng qadimgi zamonlarda, ayniqsa, ko'hna Gretsiya va Rim davrlaridan boshlab deyarli olamga tarqalgan bugungi Yevropa madaniyatiga asos solgan elatlarning avlodlaridir. Bu qadimiy madaniy meros, buyuk geografik kashfiyotlardan keyin uyg'onish davrlaridan boshlab sivilizatsiyaning gurkirab o'sishi natijasida qayta tiklanib, boshqa qit'alarga ham tarqalgan edi. Zamonamiz madaniyatini Yevropada paydo bo'lgan qadimgi Gretsiya va Rim madaniyatlarisiz tasavvur qilish qiyin. XIX asrning mutafakkirlaridan birining ta'rificha «... Qullik bo'lmaganda, grek davlati, grek san'ati va grek fani ham bo'lmas edi; qullik bo'lmaganda Rim davlati ham bo'lmas edi. Gretsiya bilan Rim qurib bergan poydevor bo'lmaganda esa hozirgi Yevropa ham bo'lmas edi».

Qadimgi davrlardan Yevropa inson yashashi uchun nihoyatda qulay sharoitga ega bo'lgan. Uning boshqa qit'alardan farqi shundan iboratki, mamlakatlar orasida tabiiy g'ov hisoblangan baland tog'lar va bepoyon sahroyu dashtlar yo'q, aksincha ko'pchiligi zich aholiga ega bo'lgan davlatlar bir-birlari bilan serunum tuproqli vodiylar va o'rmonli adirlar orqali chegaradosh. Yevropaning eng shimoliy qismi (Shpesbergen sohillari) Subarktika yoki hatto, Arktika kengligiga yetsa, janubiy qismi esa (Krit orollarigacha) subtropik poyasiga taqaladi (taxminan 5 ming km. uzunasiga). Kengligi g'arbdan sharqqacha, ya'ni Pireney yarim orolining Atlantika sohillardan Bolqon yarim oroli, Qora dengiz sohillariga (3100 km.ga)cha cho'zilgan.

Yevropada odamning uzoq davrlarda paydo bo'lishi, aholining zichligi, sanoat va qishloq xo'jaligining gurkirab o'sishi uning tabiiy sharoitining ancha o'zgarishiga sabab bo'lgan. Yevropaliklarning hayotida va tabiatida yirik sanoat markazlarining shakllanishi, bir-biriga chatishib ketgan ekin dalalari va qishloqlarning, sun'iy o'rmonlar va turli transport vositalarining yaratilishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Hozirgacha Yevropa mamlakatlarining ko'pining okean va dengizlar bilan bog'liq bo'lishi, ularning iqtisodiyoti va madaniyatida katta rol o'ynab kelmoqda. Ayniqsa,

dengiz savdosi, okean va dengiz mahsulotlaridan foydalanish bu mamlakatlarning taraqqiyotiga beqiyos ta'sir qilib kelgan.

Yevropada kema suzadigan qulay daryolar ham ko'p. Volga, Dunay, Visla, Oder, Elba, Reyn, Sena, Luora, Po, Rona kabi daryolar mamlakatlararo muhim aloqa vositasi vazifasini bajaribgina qolmay, xalq xo'jaligining turli sohalarida keng foydalanib kelingan. Ayniqsa, eng katta daryolardan Volga, Dunay, Reyn, Rona, Oder va Visla bir necha mamlakatlardan oqib o'tib, ularni iqtisodiy jihatdan bog'lab kelgan. Ular Shimoliy Baltika, O'rta yer dengizlarigacha olib chiqadigan, kema suzadigan muhim arteriya vazifasini bajarib kelmoqda. Qit'aning iqlimi har xil bo'lib, shimolda Skandinaviya tog'liklaridagi tundra sovuqlari, Dunay dashtlaridagi jazirama issiq va O'rta dengiz sohillaridagi mayin iqlimli tabiat mahalliy aholining xo'jalik faoliyati va turmush tarzida o'z aksini topgan.

Mazkur mintaqaning o'simlik va hayvonot dunyosi ko'p asrlik xo'jalik faoliyati tufayli avvalgi davrlarga nisbatan tubdan o'zgarib ketgan. Asrlar davomida qadimiy o'rmonlarni ayovsiz kesish hisobiga bepoyon ekin maydonlarini vujudga keltirilishi ko'pgina botqoqliklarning quritilishi, boshqa qit'alardan yangi o'simlik turlarini olib kelib ko'paytirish va sun'iy o'rmonlar yaratish natijasida tubdan yangi bir tabiiy manzara paydo bo'lgan. Ayrim Yevropa mamlakatlarida o'simlik turlarining o'ndan to'qqiz qismi o'zgartirilgan. Albatta, shimoliy sovuq hududlarda, masalan Skandinaviya mamlakatlarida, o'rmon va ekinzorlar janubiy subtropik hududlarga nisbatan ancha farq qiladi. Janubiy qismida, masalan, O'rta dengiz va Dunay sohillaridagi vodiylar, Markaziy Yevropa tekisliklarida eng qadimiy dehqonchilik va chorva markazlari joylashgan. Butun serunum tuproqli yerlar eski o'rmon va daraxtzorlardan tozalanib ekin dalalariga, tog' yon bag'irlari mol boqadigan yaylovlarga aylantirilgan. Hozir Yevropa hududining taxminan uchdan ikki qismini tabiiy va sun'iy yaratilgan o'rmonlar egallaydi. Ammo ular nihoyatda notekis joylashgan. Masalan, agar Finlandiya va Shvetsiya hududining yarmini o'rmonlar egallasa, boshqa mamlakatlarda (Angliya, Daniya, Niderlandiya va hk.) o'ndan ikki qismini qoplaydi. Sanoatning o'sishi, shaharlarning ko'payishi, temir va avtomobil yo'llarning taraqqiyoti, hatto noqulay unumdorligi past yerlarni o'zlashtirishga majbur qilgan. Yevropaning qurg'oqchil yarim orollarida sug'orishga asoslangan dehqonchilik paydo bo'lgan va hozir ishlov beriladigan yerlarning har uchinchi gektari sug'oriladi.

Yevropaning hayvonot dunyosi ham florasi kabi o'zgaruvchan. Qit'ada muz davrigacha boy tropik fauna mavjud bo'lgan, ammo iqlimning sovishi bilan issiqqa o'rgangan hayvonlarning ko'p qismi qirilgan, anchasi janubiy iliq o'lkalarga ketib qolgan, bu yerda sovuqqa moslashgan jonivorlar (mamontlar, kuchli karkidonlar, qo'chqor buqalar, g'or ayiqlari va hokazo) paydo bo'lgan. Ularning ko'pchiligi tarixiy davrlarda yo'qolib ketgan, ayrim qismi o'rta asrlargacha yetib kelgan, qolganlari qirilib ketgan. Hozirgi hayvonot dunyosi muz davri tugagandan keyin paydo bo'lgan iqlim va o'simliklarga moslashgan, Arktika orollaridagi qashshoq tundra o'simlik dunyosiga xos ayrim hayvonlardan bug'ular, sohil suvlarida tulenlar, har xil baliqchi qushlar saqlangan. Yevropa o'rmonlarida har xil tuyoqli va yirtqich hayvonlar, ovlanadigan va sayraydigan qushlar, ayiq va yovvoyi cho'chqa, mo'yna, kiyik, bo'ri, tulki va boshqa turli jonivorlar ko'plab yashagan. Ammo o'rta asrlardagi qirol va ritsarlarning ommaviy sayillari ko'p hayvonlarning urug'ini quritgan. Ayniqsa, Janubiy Yevropada yovvoyi hayvonlar ko'proq qirilgan. Oqibatda Yevropaning qadimiy faunasidan nom-nishon deyarli qolmagan. Faqat ayrim hayvonlarning turlari hozirgi hayvonot bog'larida sun'iy ravishda saqlanib kelinmoqda. Uy hayvonlaridan qo'y, qoramol, cho'chqa, parrandalarni parvarish qilish qishloq xo'jaligining muhim sohasiga aylangan.

Tabiiy-geografik jihatdan Yevropa qit'asining geologik tarixi, relyef va iqlimining umumiy belgilari, biologik birligi, suv zaxiralari tabiiy sharoitlarga qarab bir necha muzofotlarga bo'lingan. Etnografik klassifikatsiyaga binoan Yevropa mamlakatlari to'rt guruhni tashkil qiladi: Shimoliy Yevropa (Finlyandiya, Shvetsiya va Norvegiya, Daniya va Islandiya), Sharqiy Yevropa (Polsha, Germaniya, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Rossiya, Ukraina, Bellorusiya, Albaniya), G'arbiy Yevropa (Angliya, Irlandiya, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Shveysariya, Avstriya, Manako va Lyuksemburg) va Janubiy Yevropa (Portugaliya, Ispaniya, Italiya, Gretsiya, Gibraltar, Malta, San-Marino). Tarixiy jihatdan bu mamlakatlar nihoyatda murakkab turli voqealarga boy davrlarni bosib o'tgan, jahon miqyosida Buyuk geografik kashfiyotlar va Uyg'onish davridan, keyin butun insoniyat taqdirini belgilab bergan olamshumumul hodisalarning sababchisi va guvohi bo'lgan. Ammo eng qadimiy yuksak madaniyat o'chog'i bu yerda emas, miloddan avvalgi V-III ming yilliklarda Shimoliy

Afrika, Janubiy (G'arbiy va Janubiy) Osiyo hududida paydo bo'lgan. O'sha davrlarda Yevropada ovchilik va terimchilik bilan shug'ullangan ibtidoiy qabilalar yashagan.

Insoniyat Janubiy Yevropa va uning o'rta qismini eng qadimiy davrlardan o'zlashtira boshlagan. O'tgan asrda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aksariyat Yevropa mamlakatlarida ilk paleolit davridan odamlar yashagan. Fransiya g'orlarida topilgan tosh qurollar, arxeologlarning ta'rificha, bu yerda ketma-ket paleolit madaniyati shakllanib kelganligini tasdiqlaydi.

Ibtidoiy ajdodlar dastlab yirik hayvonlarga ov qilib kun kechirganlar, g'orlarda, chayla va yerto'lalarda yashaganlar, toshlardan, yog'och va suyakdan turli qurollar yasaganlar, teridan kiyim tikishni bilganlar. Ular kichik urug' turkumlarga bo'lingan, qoyalarga rasmlar chizishgan, turlicha xo'jalik shakllari yaratganlar. Masalan, Baltika bo'ylarida asosan, baliqchilik (maglemos madaniyati), Shimoliy dengiz sohillarida dengiz terimchiligi (kyokke-meding madaniyati), ichki hududlarda bug'u ovchiligi (tardenuaz, svider kabi madaniyatlar) xo'jaliklari paydo bo'lgan.

Yevropa madaniyatining keyingi rivojida neolit davri katta ahamiyatga ega. Miloddan avvalgi IV-II ming yilliklarini o'z ichiga olgan bu davr tosh qurollarni ishlab chiqarishning takomillashishi, o'q-yoyning kashf etilishi, kulolchilik va to'qimachilikning paydo bo'lishi, asta-sekin dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklarining vujudga kelishi, o'troq aholiga xos qishloqlarning tashkil topishi bilan belgilanadi. Turli hududlarda mahalliy tabiiy sharoitga moslashgan madaniyatlar shakllanadi. Ammo turli madaniyat yaratgan elatlarning qaysi tillarda gapirganligi hozirgacha noaniq. Faqat miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikdan boshlab butun Yevropa qit'asiga hind-yevropa tillarida gapiradigan qabilalar tarqala boshlaydi. Ular asta-sekin janubda Bolqon yarim orolini va Krit orolini, keyin (miloddan avvalgi I ming yilliklarda) Italiyaning ko'p qismini egallaydilar. Eng katta to'lqin (kelt qabilalari) G'arbiy Yevropaga yetib hozirgi Fransiya va Belgiyaga joylashgan. Pireney yarim oroliga kelgan keltlar iberlar bilan aralashib «keltiber» aholisiga asos solgan, Britaniya orolini egallagan.

Shunday qilib, hind-yevropa tillari eramizdan avvalgi II-I ming yilliklarda butun Yevropaga tarqalgan. Ammo bu tillarning asli kelib chiqishi qanday ekanligi haligacha qorong'i. Keyingi xalqlarning buyuk ko'chishi davrida ko'hna Yevropa aholisi yana ham ko'proq

aralashib ketgan. Sharqdan ko'chib kelgan gunlar, avarlar, bulg'or va vengerlar mahalliy hind-yevropa xalqlarini harakatga keltirgan. O'sha davrda german qabilalari g'arb tomon siljib keng hududda joylashgan, Dnepr va Visla vohalarida yashagan slavyan qabilalari esa Bolqon yarim oroliga va Sharqiy Yevropaga ko'chib kelib o'rnashgan. Bu etnik jarayon keyin ham davom qilib, hozirgi Yevropa xalqlarining shakllanishiga asos solgan edi.

Yevropa xalqlarining ko'pchiligi hind-yevropa-slavyan, german, roman va kelt tillarida gapiradilar. Slavyan til turkumiga g'arbiy slavyanlardan cheklar, slovklar, polyaklar va janubiy slavyanlardan serblar, bolgarlar, xorvatlar, slovenlar, chernogorlar, makedoniyaliklar va bosniylar; sharqiy slavyanlarga esa ruslar, beloruslar, ukrainlar kiradi. Roman til turkumiga janub va g'arbda yashovchi italyanlar, fransuzlar, vallonlar, ispanlar, portugallar, ruminlar, moldovanlar kiradi. Qadimgi davrda keng tarqalgan kelt tilida gapiradigan elatlarning avlodi hozir faqat Irlandiyada, qisman Shotlandiyada, Angliya va Fransiyaning Bretan yarim orolida yashaydi. Keltlarning ko'p qismi Rim imperiyasi hukmronlik qilgan davrda roman tillari bilan aralashib, keyinchalik german qabilalari tarqalishi bilan german tiliga singib ketgan. German xalqlariga nemislar, avstriyaliklar, gollandlar, flamandlar, shvedlar, norveglar, daniyaliklar, islandlar, inglizlar va qisman shveysariyaliklar kiradi. Hind-yevropa tillarida greklar va albanlar ham gapiradi. Vengerlar yoki madyarlar, finnlr, soamlar va loparlar finnougor til oilasiga mansub. Bolqon yarim orolida yashovchi turklar va gagauzlar esa turkiy tillarda gapiradilar. Faqat Malta orolida arab tili saqlangan.

Eng yirik xalqlarning etnik tarixi to'g'risida qisqacha gapirib o'tish zarur. G'arbiy slavyanlardan polyaklar X asrga kelib polyaklar, vislyanlar, pomoryanlar, mazovsha va sileziyaliklardan tashkil topgan davlat hududida xalq sifatida shakllangan. O'sha davrlarda Buyuk Moraviya knyazligi chegarasida chek, slovak, morava qabilalari birlashib hozirgi Chexiya va Slovakiya xalqlariga asos solgan edi. Ammo XI asrlardan boshlab XX asrgacha slovklar venger davlati tarkibiga kirgan. Chex va morava qabilalari birikmasidan tashkil topgan chek xalqi XIII-XVI asrlarda nemislarning mustamlakasiga aylandi, XVII asrlardan boshlab Avstriya davlatiga qo'shiladi. O'sha davrda ularga nisbatan nemislashtirish siyosati amalga oshirilgan. O'z navbatida Vengerlar slovklarni madyarlashtirishga intilganlar. Faqat 1918-yilda

Chexoslovakiya davlatiga asos solingandan keyin mustamlakachilik ta'siridan qutulgan chexlar mustaqil rivojlana boshladi. Chexoslovakiya o'tgan asr oxirlariga borib ikki yangi davlatga bo'linadi. Yaqinda ikkiga bo'linib chexlar va slovaklar o'zining milliy davlatiga ega bo'ldilar.

Hozirgi bolgar xalqi V-VI asrlarda Bolqonga kelgan janubiy slavyan qabilalari bilan mahalliy frakiy aholisi hamda VII asrlarda sharqdan bosib kirgan va o'z nomini bergan turkiy tildagi ko'chmanchi bulg'orlarning aralashishi natijasida paydo bo'ladi.

Yugoslaviya xalqlarining slavyan ajdodlari VII asrlarda juda keng hududda Qora dengiz qirg'oqlaridan Adriatikagacha joylashgan. Ular qadimiy mahalliy illiriya va frakiyalik roman xalqlari bilan to'qnashib qisman siqib chiqargan yoki aralashib ketgan. Ammo Yugoslaviya xalqlari ketma-ket Vizantiya, Vengriya, Avstriya, Turkiya davlatlari tomonidan istilo qilinib, faqat 1918-yilda mustaqil davlat bo'lib birikadilar.

Miloddan avvalgi 1 ming yillikka oid yozma manbalarda tilga olingan Dunay qirg'oqlarida yashagan qadimiy dakofrakiy qabilalari Rim imperiyasi davrida romanlashtirilgan. Lekin xalqlarning buyuk ko'chishi jarayonida ruminlarning madaniyatida slavyanlar chuqur iz qoldirgan. Til va madaniyati jihatidan ancha ajralib turadigan hozirgi vengerlarning ajdodlari asli Ural orqasida yashagan ugor xalqlari bilan bog'liq. IX asr oxirlarida Pannoniyada paydo bo'lgan ko'chmanchi-chorvador vengerlar mahalliy turli elat va xalqlar bilan aralashib, o'ziga xos etnosni hosil qiladi.

Hozirgi eng katta millatlardan hisoblangan nemislarning etnogenezida qadimgi elatlardan keltlar, so'ngra saks, bavar, turing, gess, frank kabi qabilalar muhim rol o'ynagan. X asrda nemislar ta'siriga tushgan Oder va Elba daryolari bo'ylarida yashovchi slavyanlar ham nemislar bilan aralashib ketganlar. O'rta asrlar davrida tarqoq holatda yashagan nemis xalqi o'ziga xos madaniyat yaratgan.

German tiliga yaqin inglizlarning kelib chiqishida ham dastlab Britaniya oroliga ko'chib kelgan keltlar, milodning birinchi ming yilligi o'rtalarida joylashgan ko'p sonli german qabilalari-anglosakslar, yuta va frizlar, keyinchalik qo'shilgan daniyaliklar, norveglar va ayniqsa, fransuzlashgan normanlar muhim o'rinni egallaydi.

Fransuz xalqining shakllanishida ham kelt tilida gapiradigan gallar asosiy rol o'ynagan. Ular eramizdan avvalgi I asrlarda rimliklar tomonidan bosib olingan va romanlashtirilgan. Keyin

vestgot, burgund va frank kabi german qabilalari fransuz xalqining tarkibiy qismi bo'lib roman elatlari bilan aralashib ketgan, frank qabilalaridan esa fransuz xalqining nomi kelib chiqqan.

Italyan xalqiga dastavval eramizdan avvalgi 1 ming yillikda Appenin yarim oroliga kelib joylashgan italiy qabilalari, ayniqsa, latinlar asos solgan. Rim imperiyasi yemirilgandan keyin V asrlardan boshlab bir necha yuz yillar davomida varvar qabilalari bosib keladilar va yuksak madaniyatli italiyaliklarga qo'shib singib ketadilar. Milodning ikkinchi ming yilligiga kelib, hozirgi italyan xalqi shakllana boshlaydi.

Pireney yarim orolida eng qadimgi aholi iberlar va basklar yashagan. Ular bilan miloddan avvalgi 1 ming yillikda kelgan keltlar, keyinchalik Rim imperiyasi bosib olgandan so'ng lotin tilida gapiradigan elatlar aralashishi natijasida hozirgi ispan va portugal xalqlari paydo bo'ladi. Ammo hozir ham Pireneyda qisman Fransiya yashovchi qadimiy basklarning avlodlari o'z tillarini saqlab qolganlar. Ular o'ziga xos ona tilidan tashqari qaysi mamlakatda yashasa, masalan, Ispaniyadagilar ispan tilini, Fransiya basklar fransuz tilini ham to'liq egallaganlar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, G'arbiy Yevropaning etnik qiyofasidagi milliy tuzilish murakkab va ko'p asrlik jarayon mahsulidir. Hozirgi davrda bu yerda 60 ga yaqin etnoslar yashaydi. Shulardan 38 tasi, ya'ni 67,5 foizi bir milliondan ziyod aholiga ega. Yevropa xalqlari boshqa qit'a xalqlariga qaraganda milliy jihatdan oldinroq shakllana boshlagan. XIX asrning o'rtalariga kelib ko'pchilik xalqlar millat sifatida asosan, o'z milliy davlati chegarasida shakllangan. Ayrim xalqlar (masalan, italyanlar va nemislar) XIX asrning 70-yillarga kelib, ba'zilari (Janubi-Sharqiy Yevropadagi Gabsburg va Usmon imperiyalari tomonidan asoratga solingan elatlar) birinchi jahon urushi tugagach milliy shakllanish jarayonini boshidan kechirgan.

Hozirgi Yevropa aholisining yarmiga yaqini (Daniya, Vengriya, Italiya, Polsha, Germaniya, Portugaliya, Islandiya, Gretsiya, Irlandiya va hk.) bir millatlik, ya'ni 95 foizdan ortig'i asosiy tub millat vakillari yashaydigan mamlakatlardir. Ayrim davlatlarda mayda millatlarning yirik guruhlari joylashgan (Fransiya, Bolgariya, Finlyandiya va Ruminiya), ba'zilari esa ko'p millatli mamlakatlar qatoriga kiradi. XX asr so'ngida ana shunday mamlakatlardan biri Yugoslaviya siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va etnik sabablarga ko'ra

parchalanib ketdi. Uning merosxo'ri sifatida besh mustaqil davlat Serbiya va Chernogoriya, Xorvatiya, Makedoniya, Bosniya va Gersogovina, Sloveniya jahon xaritasida paydo bo'ldi. Bugungi kunda ko'p millatli mamlakat hisoblanadigan Buyuk Britaniyada inglizlar, shotlandlar, irlandlar, uelsliklar, gallar; Ispaniyada ispanlar, katalonliklar, nalisiylar, basklar yashashadi.

G'arbiy Yevropaning turli qismlarida, ayniqsa, chegaradosh hududlarda, aralash etnik guruhlar, ko'p millatli viloyatlar ham uchraydi. Ammo ko'p mamlakatlarning milliy lingvistik tuzilishi ancha yaxlit. Yarim milliardlik mintaqa aholisining asosiy qismi (95 foizi) hind-yevropa tillarining vakillari bo'lib, ular to'rtta til oilalariga-german, roman, slavyan va kelt tillariga mansubdirlar. Bu tillardan eng kattasi 17 xalqdan iborat german guruhi bo'lib, unda 178 mln.ga yaqin kishi gapiradi va u bir necha yirik shevalarga bo'linadi. Nisbatan ancha yaxlit hisoblangan roman til guruhiga kiradigan 15 ta xalq (177 mln. kishi) zich joylashgan. Slavyan tillarida (g'arbiy va janubiy slavyanlar) gapiradigan 11 ta elatning soni taxminan 79 mln. kishi. Juda kam aholiga ega bo'lgan keltlar (7,4 mln. dan ortiq) Yevropa xalqlarining eng qadimiy avlodlari hisoblanadi.

Hind-yevropa til oilasiga kiradigan qadimgi frakiya (illiriya)-liklarning avlodlari hisoblangan albanlar (4,9 mln. kishi) va qadimgi davrdagi yunonlar bilan o'rta asrlarda shimoldan ko'chib kelgan slavyanlar va albanlar bilan aralashib ketgan hozirgi greklar (10 mln. dan ortiq) mustaqil guruhga ajralib tilida va turmush tarzida o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qolganlar. Butun Yevropaga mayda guruhlariga bo'linib tarqalgan lo'lilar (asli ular X-XII asrlarda Hindistondan kelib, XIV-XV asrlar davomida turli mamlakatlarga joylashgan) ham hind-yevropa tillarining vakillaridir. Daydichilik turmush tarziga o'rgangan lo'lilarning ko'pchiligi hozir Bolgariya, Ruminiya, Vengriya va qisman Chexiya va Slovakiya yashaydi.

Yevropa mamlakatlarida yashovchi yahudiylar asosan, o'sha mamlakatning tilida gapiradilar, ammo diniy ibodatda qadimiy yahudiylar tili (ivrit)dan foydalanadilar. Boshqa til oilalarining vakillaridan ural tili oilasiga mansub (taxminan 18 mln.) uchta xalq: finlar, vengerlar hamda ko'chmanchi lopar (saam)lar, turkiy til guruhiga tegishli Bolqon yarim orolidagi usmon turklari va gagauzlar o'z tillarida gapiradilar. Malta va Sitsiliya janubidagi Choko

orollarida yashovchi aholi semit til oilasiga mansub tunis shevasiga yaqin arab tili vakillaridir. Ammo ularning tillarida italyan va ingliz soʻzlari koʻp uchraydi.

Yevropada qadimiy davrlardan mahalliy tabiiy sharoitga moslashgan yevropoid irqining har xil tiplari joylashgan. Aslida bu yerda ikkita irqiy tip farqlanadi: oqtanli, malla rang sochli, koʻk koʻz (blondin) belgilari bilan ajralib turgan shimoliy yevropoid va qora sochli, qora koʻzli (brunet) tipidagi janubi yevropoid irqi. Mazkur tiplarning oʻrta tipi (shaten) ikkalasining belgilarini saqlagan. Keyinchalik Yevropaga moʻgʻullarning kirib kelishi ayrim etnoslarda qisman oʻz taʼsirini qoldirgan. Bunga Skandinaviyada yashovchi mongoloid belgilariga ega boʻlgan loparlar misol boʻla oladi. Keyingi yillarda Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa, Angliya, Fransiya va Germaniya Federativ respublikasida, koʻplab negroidlar paydo boʻlgan. Ularning ancha qismi mahalliy xalqlar bilan aralashib mulatlar guruhini yaratgan.

Xoʻjalik hayoti va moddiy madaniyati. Nihoyatda murakkab etnik jarayon Yevropa aholisining xoʻjaligida va moddiy madaniyatida ham oʻz aksini topgan. Bu yerda yashovchi turli xalq va elatlar oʻziga xos umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda umumiy Yevropa madaniyatini yaratganlar. Yevropa xalqlarining xoʻjalik shakllari deyarli bir xil. Chunki, butun Yevropa asosan, moʻtadil iqlimli zonada joylashgan. Eng qadimiy davrlardan neolit va bronza zamonida paydo boʻlgan dehqonchilik xoʻjaligi barcha xalq va elatlarning iqtisodiyoti hamda turmushini belgilab bergan va koʻp asrlardan beri xoʻjalik hayotining negizini hosil qilgan.

Qadimgi davrlardagi Yevropa nihoyatda yuksak xoʻjalik madaniyatini yaratgan edi. Ammo madaniyat darajasi quyi elatlar istilosidan keyin Rim imperiyasi yemirilib xoʻjalik hayoti butunlay tushkunlikka uchraydi. Albatta, ajoyib anʼanalar zamini kuchli boʻlganligi tufayli qisqa muddat ichida oʻrta asrlar iqtisodiyotida qaytadan tiklanish namoyon boʻladi. Masalan, Italiya va Janubiy Fransiya vinochiligi, Angliyaning qoʻrgʻoshin konlari, Venetsiyaning shisha ishlab chiqarish sanoati qadimiy Rim va Vizantiya anʼanalarini oʻrta asrlarda ham davom qildirgan. Lekin ilk oʻrta asrlardagi umumiy iqtisodiy tushkunlik XIV-XVI asrlarga kelib muayyan tarixiy sabablarga koʻra butun Yevropada sotsial iqtisodiy taraqqiyotni juda tezlashtirib xoʻjalik jihatdan butun jahondagi mamlakatlarga nisbatan oldinga oʻtib olish imkoniyatini yaratib bergan edi. Shubhasiz,

uning iqtisodiyoti, yuqorida qayd qilinganidek, peshqadam bo'lishiga qit'aning qulay geografik joylanishi, keng miqyosda dengiz sohillari va juda ko'p qulay aloqa vositasini bajaruvchi daryolar, nisbatan boy tabiiy sharoitning mavjudligi muhim rol o'ynagan. Oqibatda buyuk geografik kashfiyotlardan keyin Yevropa mamlakatlari so'nggi to'rt asr davomida butun dunyodagi xo'jalikka bosh bo'lib, jahon kapitali bozorining rahbari bo'lib tanilgan. Faqat cheksiz musibat, qirg'in va xarobalik keltirgan ikkinchi jahon urushi tufayli, jahon bozori xo'jaligining peshqadami vazifasi AQSH bilan Yaponiyaga o'tdi.

Urushdan keyin Yevropada bir necha mustaqil mamlakatlarning paydo bo'lishi uning xo'jalik taraqqiyotiga muayyan ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi davrda Yevropaning xo'jalik hayoti avvalo uning industriyasi bilan belgilanadi. Jahondagi 22 ta eng yirik industrial davlatlarning 12 tasi ushbu mintaqada joylashgan: Belgiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya, Fransiya, Niderlandiya, Shveytsariya, Shvetsiya, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya. Ammo ayrim davlatlarda boshqa sohalar rivojlangan. Masalan, Avstriya, Shveytsariyada sanoatga nisbatan xizmat ko'rsatish sohasi milliy daromadning asosini tashkil qiladi, Skandinaviya xo'jaligining hukmron sohasi baliqchilik hisoblanadi yoki Daniya, Niderlandiya, Fransiya va Vengriya rivojlangan sanoatga ega bo'lsa-da, eksport mahsulot yetishtiradigan yirik qishloq xo'jaligiga ega mamlakatlardir. Hozirgi Yevropa sanoatining barcha sohaları yuksak rivojlangan, ammo, eng yirik tarmog'i mashinasozlik hisoblanadi. Yevropadagi davlatlar hissasiga jahondagi mashina va uskunalar ishlab chiqarishning uchdan ikki qismi to'g'ri keladi. Eng ko'p eksport mahsulotlaridan har xil stanoklar, elektrotexnika va to'qimachilik uskunaları ilmiy va nazorat o'lchov asboblari, yengil va yuk avtomobillari, traktorlar va boshqa mashinasozlik tovarlari. Yevropa kemasozlik va maishiy elektronika (televizor, priyomnik va hk.) asboblarni eksport qilishda Yaponiyadan, samolyotsozlik, hisoblash mashinalari, radio va teleapparaturalar ishlab chiqarishda AQSHdan orqada, xolos. Jahon bozorida Yevropaning mayda mashinasozlik mahsulotlari, AQSHning yirik mashinasozlik mahsulotlariga nisbatan yuqori turadi. Bu sohada Vengriya, Germaniya, Polsha, Chexiyaslovakiya mashinasozlik mahsulotlari jahon bozorida yuksak baholanadi.

So'nggi yillarda G'arbiy Yevropa ximiya sanoati nihoyatda tez sur'atlar bilan o'sa boshlagan. Yevropaning ayrim mamlakatlari

jahon bozorida plastik materiallar, sintetika va sun'iy tolalar, farmatsevtika, lak va bo'yoqlar, azot o'g'itlar kabi kimyo mahsulotlarini chiqarishda birinchi o'ringa ko'tarilgan. Ayrim mamlakatlar (Shveytsariya, Belgiya, Niderlandiya) tor sohada mutaxassislashsa-da, (asosan, farmatsevtika va neft mahsulotlari ishlab chiqarishda), tashqi bozorga ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining uchdan ikki qismini yetkazib beradi.

Yevropaning an'anaviy sanoat tarmoqlaridan metallurgiya, kemasozlik, to'qimachilik, tikuvchilik, shisha, chinni, ko'nchilik va poyabzal, o'rmon va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 70-yillarda ancha kamayib ketgan. Yevropaning g'arbida yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ham kamayib sharqiy mamlakatlarda ancha o'sgan, oqibatda tekstil, tikuv, poyabzal va boshqa yengil sanoat mahsulotlarini keyingi yillarda g'arbiy yevropalik mamlakatlar sharqiy o'lkalardan import qilishga majbur bo'lyaptilar.

Hozirgi eng yirik sanoat sohalaridan oziq-ovqat ishlab chiqarish qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'lanib agrosanoat majmuasini tashkil etmoqda. Mazkur jarayonning bugungi ahvoli va uning taraqqiyoti qishloq xo'jaligining o'sish darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Nihoyatda zich aholiga ega bo'lgan G'arbiy Yevropa dehqonchilikka mos yerlardan ancha siqilgan va unga muhtoj bo'lsa-da, yuqori mahsulotli qishloq xo'jaligini tashkil qilishga muyassar bo'lgan. Yevropa qishloq xo'jaligi aholining oziq-ovqatga, dastavval inson uchun eng muhim bo'lgan go'sht, sabzavot va meva mahsulotlariga ehtiyojini qondirish imkoniyatini yaratgan. Bu imkoniyatga qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni industirlashtirish, ximiyalashtirish va mexanizatsiyalash orqali erishilgan. Umuman, Yevropada qishloq xo'jalik ishlab chiqarish sanoatga nisbatan sekinroq rivojlangan bo'lsa-da, urushdan keyingi yillar ichida uning hajmi o'rtacha ikki-uch hissa o'sgan. Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida chorvachilikka alohida e'tibor qaratiladi. Hatto, dehqonchilik chorvachilikka bo'ysundirilib, yem-xashak yetishtirish asosiy tarmoqqa aylangan. So'nggi yillarda yem-xashakka dehqonchilik mahsulotlaridan tashqari baliqchilik mahsulotlari ham ishlatilmoqda.

Yevropa dehqonchiligi mamlakatlar orasida ekiladigan ekinlari bilan bir oz farq qiladi, xolos. Misol, markaziy qismidagi mamlakatlarda asosan, bo'g'doy, arpa, sul, so'nggi asrlardan boshlab kartoshka; janubiy hududlarida, ayniqsa, Chexiyaslovakiyada,

Ruminiya va Bolgariyada makkajo'xori, Italiyada sholi va boshqa don hamda poliz ekinlari ekiladi, bog'dorchilik va uzumchilik juda keng tarqalgan. Janubiy Yevropada uzumzorlar, zaytun daraxti, anjirzorlar ko'p uchraydi. Gretsiyada paxta va tamaki yetishtirish muhim xo'jalik sohasi hisoblanadi. Shimolda qadimiy davrlardan uzumchilik, bodom va har xil mevalar ko'p yetishtiriladi. Zaytun ekinlari Ellinlar tomonidan Pireney yarim oroliga qadim davrlardan keltirib ekilgan, hozir Ispaniya zaytun yog'i ishlab chiqarishda jahonda birinchi o'rinda turadi, uzumzorlar maydoni bo'yicha ikkinchi o'rinda, uzum yetishtirish va vino ishlab chiqarishda uchinchi o'rinda (aholi jon boshiga hisoblaganda vino ishlab chiqarishda Portugaliya birinchi o'rinda) turadi.

Chorvachilik hamma xalqlar orasida tarqalgan. Italiya, Karpat, Bolqon va Alp tog'li hududlarida qo'ychilik muhim xo'jalik sohasidir. Skandinaviya mamlakatlarida, fransuzlar, irlandiyaliklar, valiyar va britanlarda qoramol chorvasi rivojlangan va shu asosda sut mahsulotlari ishlab chiqarish taraqqiy etgan. Chorvachilikda asosan, go'sht va sut olinadi, turli yuqori sifatli mahsulotlar yetishtiriladi. Kelt xalqlari dehqonchilikda asosan, yem-xashak yetishtirish bo'yicha ixtisoslashganlar. Yevropada bug'uchilik bilan shug'ullanadigan yagona xalq saamlar hozirgacha yarim ko'chmanchi holatda yashaydi. Finlarning an'anaviy xo'jaligi qoramol boqish, go'sht, sut mahsulotlarini ishlab chiqarishdan iborat. Ularda erkin dalalarning uchdan ikki qismi yem-xashak ekinlari bilan band.

Dengiz sohillarida yashovchi norveglar, islandiyaliklar, gollandlar, shuningdek, Markaziy va Shimoliy dengiz aholisi-nemislar, inglizlar, grek va ispanlar hayotida baliqchilik eng muhim xo'jalik sohasi bo'lib, ularning asosiy tirikchilik manbaidir. Hunarmandchilikning badiiy sohalari har bir Yevropa xalqida qadimdan rivojlanib kelgan va ular asosan, shaharlarda sex tartibida joylashgan. Qishloqlarda esa dehqonchilik ehtiyojini qondiradigan kasblar rivojlangan. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan ishlab chiqarishning paydo bo'lishi bilan yirik fabrika-zavodlar vujudga keldi.

Hozir an'anaviy mayda hunarmandchilikning badiiy sohalari, masalan, kulolchilik, shisha ishlab chiqarish, zargarlik, kashtachilik, musiqa asboblari va o'yinchoqlar ishlab chiqarish, gilam va palos to'qish kabilar ayrim mamlakatlarda saqlangan, xolos. Norveglar, shvedlar, nemislar, shveytsariyaliklar va avstraliyaliklarda yog'och

ustunlar, eshik, rom hamda uy-ro'zg'or buyumlariga o'yma naqshlar berish ancha rivojlangan.

Maishiy turmushning an'anaviy xususiyatlari ko'proq uy va uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim va taomlarda namoyon bo'lmoqda. Eng qadimiy zamonlarda paydo bo'lib hozirgacha o'sib kelayotgan shaharlar Yevropaning o'ziga xos madaniyatini yuzaga keltirgan va butun jahonga tarqatgan. G'arbiy Yevropada urbanlashtirish tufayli shaharlarda hozir butun aholining beshdan uch qismi joylashgan. Belgiya, Shvetsiya va Germaniya shahar aholisi beshdan to'rt qismini tashkil qiladi. Janubiy Yevropa mamlakatlarida sanoat jihatdan kam rivojlangan Portugaliya va Gretsiyada butun aholining taxminan 40 foizi shaharlarda joylashgan. Ayrim o'lkalarda shahar tipiga besh ming aholiga ega bo'lgan qarorgohlar (Niderlandiya, Avstriya, Belgiya), ayrim joylarda esa (Germaniya, Fransiya va Norvegiyada) ikki mingdan va ba'zilarida hatto ikki yuztadan ortiq aholiga ega bo'lgan qishloqlar (Daniya, Shvetsiya, Finlyandiya) kiritilgan. Yevropa qishloqlari ham qadimiy davrlarda paydo bo'lgan. Ular o'zining joylashishi, qurilish tiplari va shakli bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Tor, zich, to'p bo'lib qurilgan uylardan iborat qishloqlar o'tmishda Janubiy Polshada, Germaniyada, Ispaniyada, Bolqon yarim orolida va boshqa yerlarda paydo bo'lgan. Chexlarda, ba'zan nemis va polyaklarda ham qadimgi chorva aholisining qo'ra tevaragida joylashganidek markazida maydonli doirasimon qurilgan qishloqlarni hali ham uchratish mumkin. To'g'ri ko'chali qishloqlar kam bo'lgan. Ayrim mamlakatlarda uylari yo'l bo'yida qurilgan qishloqlar, xutor tipidagi ayrim hovlili qarorgohlar ham uchraydi. Qishloq markazida qad ko'targan cherkov tevaragida doirasimon shaklda tartibsiz qurilgan uylar ham saqlanib qolgan.

Qishloqlar hozir ham o'zining shakli va tiplari bilan farqlanadilar. Butun Yevropada bir hovlili yoki ikki-uch hovlili qishloqlar ko'p uchraydi. Ayniqsa, Fransiyaning tog'li hududlarida, Shimoliy Ispaniyada, Shimoliy Italiyada, Germaniyaning shimoli-g'arbida, Norvegiyada va Angliyaning shimolida bir hovlili qarorgohlar ko'p uchraydi. Markaziy Yevropa, Fransiya, Italiya va ichki Ispaniyaning tekisliklarida qadimiy jamoa hayoti bilan bog'liq bo'lgan ko'p hovlili qishloqlar hozirgacha saqlangan.

Agar qishloqlarni qurilish ashyolariga qarab tasniflasak, butun Yevropani taxminan ikki qismga bo'lish mumkin. Janubiy qismida uylar asosan, toshdan, shimoliy qismida yog'ochdan qurilgan. Ammo

Shimoliy Yevropaning ayrim mamlakatlari, masalan, Angliyada, qadimdan tosh uylar, ba'zan janubida ham (ayniqsa, o'rmonlar ko'p bo'lgan davrda) O'rta dengiz sohillaridagi mamlakatlarda, yog'ochdan qurilgan qarorgohlar uchraydi. Masalan, Qadimgi Gretsiyaning klassik arxitekturasida ilgari ishlatilgan yog'och ustunlari o'rnini tosh ustunlar egallagan va nihoyatda ajib san'at namunasiga aylangan. Tosh qurilishining namunalari hozirgacha O'rta dengiz sohillaridagi mamlakatlarning ba'zilarida va Fransiyaning g'arbiy qismida uchraydi.

Qishloqlardagi zamonaviy uylar shaharlardagi kabi pishiq g'isht, beton va shunga o'xshash hozirgi qurilish materiallaridan qurilmoqda. Yashash xonalarining xo'jalik hujrasi bilan birligi yoki xo'jalik inshootlarining ayrim qurilishi bilan bir oz farq qiladi. Masalan, Germaniya, Alp tog'lari va Janubiy Fransiya asosan, turar-joy va xo'jalik qurilishi bir joyda joylashgan. Skandinaviya mamlakatlari, Shimoliy Fransiya, Bolqon yarim oroli mamlakatlarida xo'jalik inshootlari kishi yashaydigan uylardan ayrim holda qurilgan.

Uylar ham qurilish ashyolari va tom shakliga, yashash va xo'jalik xonalarining tuzilishiga qarab bir necha tiplarga bo'lingan. Butun Yevropada gorizontal bir xonali shaklda ega uylardan bir necha qavatli ko'p xonali dabdabali imoratlar ko'p uchraydi. Masalan, Janubiy Yevropada, ya'ni O'rta dengiz sohillarga yaqin hududlarda toshdan qurilgan katta ikki-uch qavatli uylar keng tarqalgan, odatda bunday uylarning pastki qavatli xo'jalik xonalaridan iborat bo'ladi, Shveytsariya, Shimoliy Italiya, Yugoslaviya, Avstriya, Janubiy Germaniyada poydevori toshdan o'zi yog'ochdan qurilgan alp uylari ancha ajralib turadi. Xo'jalik va yashash xonalari yaxlit tarzda qurilgan imoratlarni frankon yoki yuqori nemis uylari deb ataydilar. Shimoliy va Shimoli-G'arbiy Germaniya, Daniya va Gollandiya tomonlarida bir qavatli, katta hovli va darvozali xo'jalik qurilish binolari bilan sinch uylar yoki g'isht bilan o'ralgan sakson uylari ham o'ziga xos xususiyatga ega. Tog'li hududlarda yog'och va butalardan qurilgan oddiy uylar ham uchraydi. Umuman arxaik qurilish san'ati asosan, xo'jalik xonalarda ko'proq saqlangan.

Uylarni jihozlash milliy an'analar bilan bog'liq. Umumiy buyumlardan, har xil yog'och mebellar, temir, shisha, chinni va so-pol idishlar, turli bezaklar va pardalar bilan bezaganlar, Yevropa mebeli va servislari hozirgacha jahon miqyosida namuna bo'lib kelmoqda. Yevropa xalqlarining kiyimlari eng oddiy paleolit

davridagi etakchalardan to hozirgi zamonaviy kiyimlargacha bo'lgan davrni bosib o'tgan. Endi butun Yevropaga tarqalgan shahar sarpolari deyarli barcha yerdan milliy kiyimlarni siqib chiqargan, Yevropa kostyumlari o'zining noqulayligiga qaramay hatto issiq tropik mamlakatlarga ham tarqalmoqda. Xalq kiyimlarini asosan, bayramlarda, festival yoki karnavallarda, xor va ansambllarda uchratish mumkin. Ilgari, ayniqsa, o'rta asrlarda har bir tabaqa o'zining kiyim turiga ega bo'lgan. Hozir milliy, tabaqalanish kiyimlarda sezilmaydi, balki ular kosmopolitik tusga kirgan.

Albatta, ayrim xalqlarning qishloq aholisida shahar kiyimi keng tarqalsa-da, milliy sarpolar saqlangan. Masalan, italiya qishloqlarida haligacha erkaklar kalta tizzadan pastgacha shim (pantolon), oq uzun yengli ko'ylak (kamicha), kalta kurtka (jakka) yoki yengsiz jilet (panchotto), boshiga shlapa yoki beretto (xaltasimon telpak) kiyadilar. Ayollarda uzun keng yubka (cho'nna) va etak (trembuile), kashtali oq ko'ylak (kamicha), beligacha kalta kofta (korsetto) va jilet (jakatto yoki jubetto), boshiga ro'mol (fatsoletto), Alp tog'larida tagi mixli yog'och tuflari yoki xom teridan tikilgan yengil sandal (chochi) kiyiladi. Fransuz ayollarining milliy kiyimlari ham italiya ayollarning kiyimlariga o'xshab ketadi. Erkaklari esa uzun tor shimlar, tik yoqali ko'ylaklar, jilet va bo'yniga ro'mol, fetra yoki somon shlapa kiyadilar. Keyingi yillarda bluzka kiyiladigan bo'lgan.

German xalqlarida erkaklar yengli yoki yengsiz ikki buklam matodan tikilgan ko'ylak, uzun ishton, kamarasta teri o'ltanli kavush kiyiladi. Ayollarning ham ust kiyimi ikki buklam matodan tikilib maxsus fibula bilan egniga bog'langan, keyinchalik keng tikiladigan bo'lgan. Ularda eskidan kapushonli plash ma'lum bo'lgan. Janubiy germanlarda yengil kiyim, shimolda esa issiq va qalin jun matodan korsaj, kofta, yubka, etak (fartuk) tikkanlar. Hozir ham Gessen aholisi orasida bir yoki bir necha qavatli (ba'zan 20 qavatli) yubka kiyiladi. Frankoniya ayollarining an'anaviy kiyimlari qizil yoki jigarrang matodan yubka yoki etaklar tikilib kashtalanadi. Shveytsariya ayollari aksincha, qoramtir yoki frankonlar singari qizil rangli yubka va fartuk; kumush bezakli qora belnimcha, keng kashta yengli kofta kiyadilar. Norvegiya ayollarining bayram kiyimlarining turlari 120 dan ortiq. Butun german xalqlarida hozirgi davrda umumiy Yevropa kiyimlari tarqalgan bo'lsa-da, milliy belgilari (rangi, bezaklari va hk.)

mustahkam saqlangan. Ayniqsa, kelt elatlarida bayram vaqtida milliy sarpolarga bezanish odat tusiga kirgan. Masalan, bretonliklarda 66 xil ayol kiyimlari mavjud.

G'arbiy va janubi slavyanlarning milliy kiyimlari nihoyatda rang-barang. Ularda ilk o'rta asrlardan boshlab aholi tabaqalangan va sinflarga qarab kiyimlari farq qilgan. O'tmishda erkak va ayollarda kiyimlari asosan, kanopdan tikilgan to'g'ri yoki burma yoqali ko'ylak. Ayrim xalqlar (Moraviya, Slovakiya, G'arbiy Prikarpat)da ayollar egniga ip bog'langan yengsiz ko'ylaklar kiygan. Eng qadimiy kiyimlaridan hozirgacha etakcha (fartuk) saqlangan. XIX asr birinchi choragida slavyanlarda Yevropa yubkasi keng tarqalgan. Qadim slavyanlarda ustki kiyim — yarim po'stin, chakmon (kaftan), yengsiz kamzul (jilet), plashning har xil turlari mavjud. Bosh kiyimlariga qarab ayrim etnoslarni ajratish mumkin (keng slavyan teri telpaklari, turli ro'mollar, shlapa va feskellar, jun movutdan tikilgan do'ppilar). Poyabzallar turli xilda (brodnya, teri bashmoq, yumshoq tufli, tagi yog'ochli sandal, junli nogovitsa va hk.). Hozir milliy kiyimlar Markaziy va Janubiy Yevropaning ayrim viloyatlarida uchraydi va ular asosan, san'at festivallari, folklor jamoalarining badiiy chiqishlarida namoyish qilinadi.

G'arbiy Yevropa xalqlarining milliy xususiyatlari ko'proq taomlarida namoyon bo'ladi. Masalan, roman xalqlarida italyanlarda sevimli taomlardan makaron mahsulotlari juda keng tarqalgan. Ularda kunduzgi ovqatga birinchi pomidor qaylasi yoki yog' va suzma, ba'zan qiyma go'sht solingan xo'rda. Dehqon sho'rvasi (dzuppasi)ga loviya va sabzavot solib pishiriladi va non to'g'raladi. Keyin polenta (makkajo'xori atalasi), qovurilgan sabzavot, salat, meva, suzma iste'mol qilinadi. Kunduzgi ovqatga albatta uzum vinosi yoki sevimli ichimlik kofe beriladi. Fransuzlarning milliy taomlari nihoyatda boy va rang-barangligi bilan mashhur. Taomlarida sabzavot va yemishli ildizli mahsulotlar, quyon va parranda go'shti, janubda kaptar go'shti muhim ahamiyatni egallaydi. An'anaviy sevimli taomlardan qaynatilgan o'simlik yog'iga pishirilgan go'sht bilan bifshteks va kartoshka, piyozli qaynatma sho'rvaga pishloq solish keng tarqalgan. Provansda qalampirli turli baliqlardan pishirilgan sho'rva (buyabez) ancha obro' qozongan. U yerda dengiz jonivorilutkani sarimsoq va non bilan iste'mol qilishni yaxshi ko'radilar. Janubda har xil zaytun va dorivorlar taomga ishlatiladi. Kuniga

ikki marta taomga uzum vinosi berish shart. Umuman fransuzlar vino iste'mol qilishda jahonda birinchi o'rinni egallaydilar. Qadimgi kelt xalqlarida, masalan, Buyuk Britaniyada, Yevropa taomlaridan uncha farq qilmasa ham, o'ziga xos milliy taomlar, ayniqsa, don solib pishirilgan sho'rvalar, so'li atalasi, gel va irlandiyaliklarda baliq va sutli taomlar mavjud. Ular sho'rvaga qo'y yoki mol ichak-chovog'i va qatqorinlarini solib, suli uni bilan pishirib (xaggis) qalampir, piyoz solib yeyishni yaxshi ko'radilar. Eng sevimli ichimliklari pivo (el) va viski. Janubiy xalqlar ko'proq sabzavot (karam, pomidor, sarimsoq, piyoz, sabzi, kartoshka) va mevani ko'proq iste'mol qiladilar. Vengerlarda cho'chqa go'shtidan turli taomlar tayyorlanadi. Slavyan xalqlarining taomlaridan xamir ovqat mahsulotlari ko'proq o'rinni egallaydi. Dengiz va daryo sohillarida yashovchi elatlar baliqdan turli xil taomlar tayyorlaydilar.

Ijtimoiy-maishiy turmushi, oila-nikoh munosabatlari va madaniyati. Hozirgi Yevropaning ijtimoiy qiyofasi umuman iqtisodiy jihatdan olganda butun qit'a aholisining o'rtacha 44 foizi faol qismini tashkil qiladi. Shundan erkaklar hisobiga taxminan 58 foizi to'g'ri keladi, ayollarning iqtisodiy faol qismi deyarli ikki hissa kam (29 foiz). Vaholanki, bu mamlakatlarda iqtisodiy faol aholiga ijtimoiy ishlab chiqarishda bevosita ishtirok qilayotgan qismidan tashqari ishsizlar ham kiradi. So'nggi yillarda ayrim an'anaviy kasblarning (ayniqsa, hunarmandchilik va hk.) tugatilishi natijasida ularni professional jihatdan qayta o'qitib o'rgatishga imkoniyat yo'qligidan texnologik ishsizlik jarayoni paydo bo'lgan. Professional ishchilar qatorida yoshlar o'rtasida ham ishsizlik muammosi mavjud.

Mintaqada industrial taraqqiyot yuksak bo'lganligi tufayli iqtisodiy faol aholining asosiy qismi sanoat va qurilishda band ekanligini alohida qayd qilish lozim. Masalan, o'tgan asr so'ngida bunday aholi 35-45 % ni tashkil qilgan bo'lsa, ayrim mamlakatlar (Chexiya va Slovakiya, Germaniya va Shveytsariya)da 50 foizga yaqinlashgan. Eng taraqqiy qilgan industrial mamlakatlarda qishloq va o'rmon xo'jaligida hamda baliqchilikda iqtisodiy faol aholining 10-12 % ini tashkil qiladi, xolos. Qishloq xo'jaligi sohasida eng kam band aholiga ega bo'lgan o'lkalardan Buyuk Britaniya (3 %), Belgiya (4 %), Shvetsiya va Germaniya (6 %). Ammo Janubiy Yevropada qishloq xo'jaligi hali ham muhim o'rinni egallaydi (Italiyada 15 % dan to Gretsiyada 40 % gacha). Keyingi yillarda asosan, qishloq

xo'jaligi hisobiga aholining xizmat ko'rsatish sohasida yashovchi qismi ancha ko'paygan.

Yevropa mamlakatlarida eng katta ijtimoiy tabaqa xodimlar-ishchilar va ziyolilardan iborat. Ular butun iqtisodiy faol aholining taxminan o'rtacha 80 % ini, Buyuk Britaniyada hatto 90 % dan ham ko'prog'i, janubiy mamlakatlarda esa 70 % i (Gretsiyada 40 %) ini tashkil etadi.

Shubhasiz, Yevropa xalqlarining ijtimoiy hayotiga urbanizatsiya katta ta'sir o'tkazmoqda. Hozir jahonda Yevropa qit'asi eng urbanizatsiyalashgan, hatto AQSH va Yaponiyaga nisbatan shaharlarning zichligi yuqori turadigan mintaqadir. Mazkur jarayonning xususiyatlaridan biri eng yirik shaharlar tevaragida katta aholining to'planishidir. G'arbiy Yevropaning yarmidan ko'p aholisi 100 ming kishidan ortiq aholiga ega bo'lgan shaharlarda joylashgan, uchdan bir qismi 500 ming kishilik shaharda yashaydi. Oqibatda bir-biriga tutashib ketgan sanoat-aglomeratsiya tipidagi shaharlar yuzaga kelgan. Bunga misol qilib, Rur, London, Parij, Berlin, Rim, Amsterdam, Rotterdam kabilarni ko'rsatish mumkin. Masalan, London aglomeratsiya chegarasida 12 mln. dan ortiq kishi, Parij aglomeratsiyasida 10 mln.ga yaqin kishi yashaydi. Ayrim mamlakatlarda, hatto qo'shni aglomeratsiyalar qo'shib, yirik urbanizatsiyalashgan markaz (megalopolis)larni yaratgan. Masalan, Angliyada eng katta megalopolisga bir-biriga chatishib ketgan London, Birmengem, Manchestr, Liverpul va boshqa shaharlar yoki Germaniyada Reyn-Rur, Reyn-Mayn kiradi. Bunday megalopolislar taxminan 50 ming kv. km. hududga va 30-35 mln. aholiga ega bo'ladi.

Ammo butun Yevropada urbanizatsiya va aglomeratsiya ijtimoiy va maishiy turmush, madaniy hayot va oila-nikoh munosabatlarini o'zaro yaqinlashtirib, milliy xususiyatlarning tugatilishiga, bir qolipga solib umumiy kosmopolitik belgilarning shakllanishiga keng yo'l ochib bergan. Shunday bo'lsa-da, ko'p xalqlarda asrlar davomida an'ana tusiga kirgan ayrim ijtimoiy turmush shakllari saqlanibgina qolmay, balki yangi zamon turmush tarziga singib ketgan.

Ijtimoiy va oilaviy turmushi ham barcha Yevropa xalqlariniki singari umumiylikka ega bo'lgan. Nasroniy dini axloqiga tayanib, xususiy mulkka asoslangan holda kichik monogam oila butun Yevropada eng keng tarqalgan. Ammo ayrim patriarxal natural

xo'jalik mavjud bo'lgan ba'zi joylarda arxaik tipdagi katta patriarxal oilalar va oila-nikoh tartiblari ham uchraydi. Patriarxal urug'chilik tartiblarining qoldiqlari albanlarda (fis), chernogorliklarda (bratstvo), tog'lik shotlandlarda (klan), qisman uels va irlandliklarda bir oz seziladi. Oila jamoa munosabatlari yaqin davrgacha ayrim bolqon xalqlari (bolgarlar, makedoniyaliklar, serblar, bosniylar va hk.)da saqlanib kelgan. Mazkur oilaviy munosabatlarning yemirilishi maxsus minorat odatini yaratgan edi. Ilgari kelt va german xalqlarida ma'lum bo'lgan bu odatga binoan meros ota-onadan kenja o'g'ilga o'tadi. Keyinchalik mayorat odati, ya'ni meros katta o'g'ilga o'tish rasmi bilan almashadi. Janubiy slavyanlarda katta patriarxal oila («zadruga») natural xo'jalikka asoslangan 20-50, ba'zan 100 kishiga yetadigan qavmu qarindoshlardan tashkil topgan jamoadan iborat edi.

Nikoh to'ylarida va boshqa oilaviy urf-odatlarda ancha qadimiy belgilarni hozirgacha uchratish mumkin. Qalin saqlanmagan bo'lsa-da, kelinni olib qochish, uni «sotib» olish rasmi, qiz moli, kuyov sovg'asi kabi udumlar hali ham nikoh to'ylaridagi qadimgi sarqitlar sifatida, ammo hazil o'yinlar shaklida namoyon bo'ladi. Qiz yoshligidan mehnat qilib, o'zi sepini tayyorlashi ko'p xalqlarda shart bo'lgan. Agar kichik individual oilalar (er, xotin va bolalardan iborat) eng keng tarqalgan bo'lsa, slavyanlardagi zadruga tipidagi katta oilalarda nikoh va boshqa oilaviy an'analarda ibtidoiy tartiblar saqlanib kelmoqda. Nikoh doimo ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan oilaviy voqea sifatida hozir ham unda ko'pchilik ishtirok qiladi, an'anaviy marosimlar, rasm-udumlar bajariladi. Deyarli hamma yerda kelin-kuyovlar cherkovda nikohdan o'tishsa-da, ammo nikoh to'yi asosan, xalq an'analoriga tayanadi.

Keyingi ikki ming yil davomida Yevropaning diniy urf-odatlari bir necha marta o'zgargan. Bizning eramizning boshlarida bu yerda mahalliy dinlar tarqalgan. Katta hududni egallagan Rim imperiyasida (ayniqsa, Italiya va Gretsiyada) ancha rivojlangan politeystik dinlar hukmronlik qilgan. Qadimgi Rimga ba'zi sharqiy diniy (Isida, Mitra kabi boshqa sharq xudolari bilan bog'liq) ibodatlar ham kirib kelgan.

Rim imperiyasining yemirilishi davriga kelib, eramizning V asrlari oxirida Yevropa dinlari geografiyasida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Eramizning boshlarida Sharqiy O'rta dengiz sohillarida

paydo bo'lgan nasroniy dini IV-V asrlarda imperiyaning ko'pchilik hududlariga, ba'zi german qabilalari va hatto Irlandiyaga tarqala boshlagan. Ammo uzoq davrlargacha qadimiy mahalliy dinlar, ayniqsa, qishloqlarda saqlanib qolgan. Faqat IX-XI asrlarda butun Yevropa nasroniylashgan. Lekin Pireney yarim orolida VIII asrda arab istilochilari olib kelgan islom dini ancha vaqt o'z o'rnini saqlab qolgan. XV asrlarda arablardan ozod bo'lgan Pireney qaytadan nasroniy diniga kirgan.

Yevropada nasroniy dinining tez tarqalishi asli feodalizm tuzumining tashkil topish jarayoni bilan bog'liq edi. Dastlab yangi dinga harbiy aristokratiya, knyaz va qirollar o'tgan, keng xalq ommasi eski diniy e'tiqodlarga itoat qilib kelgan. Hukmron sinfga tayanchi bo'lgan ziyolilar va ruhoniylar ommani nasroniylashtirishni zo'rlik bilan o'tkazishga harakat qilgan. Ammo nasroniylilik ham yaxlit din bo'lib qolmadi. U XI asr o'rtalarida (1054-yil) ikki qarama-qarshi yo'nalishga-pravoslaviye va katolitsizmga (sharqiy va g'arbiy) cherkovlarga bo'lindi. Sharqiy (pravoslav) cherkovi o'z navbatida podsho va imperatorlarga bo'ysungan va bir necha milliy cherkovlarga bo'lingan. Feodal-krepostnoy tuzumning tarixiy halqasi hisoblangan pravoslav cherkovining boshida eng kuchli Konstantinopol patriarxi turgan. Aksincha katolitsizm (g'arbiy) cherkovi markazlashgan Papa davlati boshchiligida Yevropadagi feodal tarqoqlikdan foydalanib o'zining qudratli hukmronligini to'liq o'rnatadi. U turli yo'llar va soliqlar bilan katta boylik orttirib butun nasroniy dunyosini qo'lga olishga o'zining ruhiy va siyosiy irodasini o'tkazishga intilib kelgan. Shunday qilib, nasroniy dinidan ajralib chiqqan Pravoslaviye ilgari Vizantiya imperiyasi va uning ta'siridagi Yevropa qismi (Bolqon yarim oroli va Rus davlati)ga tarqalgan, Yevropaning boshqa hududlarida katolitsizm o'z hukmronligini o'rnatgan. XVI asrlardan boshlab bozor munosabatlarining rivoji, yangi ideologiyasining g'alabasi natijasida o'rta asr sxolastikasiga, Rim katolik cherkovi va Papa hukmronligiga qarshi chiqqan boshlagan yangi oqim (protestantizm) turli diniy e'tiqod va mazhablarning yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan.

Pravoslav dini Vizantiyadan chiqib Yevropaning sharqiy va janubi-sharqiy mamlakatlarini, rus, belorus, ukrain, grek, bolgar, gagaus, serb, janubi alban va rumin xalqlari orasida keng tarqalgan. Hozir pravoslav dini Gretsiyada hukmron va bu yerda uning markazi joylashgan.

Islom dini Yevropaga dastlab arab istilochilari tomonidan keltirilgan va Pireney yarim oroliga tarqatilgan. Istilochilar tarqatilgandan keyin XV asrlarda nasroniylik qayta tiklangan. O'sha davrlarda, ya'ni yaqin XIV-XV asrlarda usmon turklari Bolqon yarim orolini bosib olib aholining ancha qismini musulmonlashtirgan va u imperiya vaqtida hukmron din bo'lgan. Turklar zo'rlik bilan albanlar, qisman makedoniyaliklar, bolgarlar, bosniya va gersogovina aholisini islom diniga o'tkazgan.

Volgabo'yi va Qrim tatarlari ham XIII-XIV asrlarda islomga o'tgan. Butun Yevropada daydib yurgan lo'lilar odatda asosiy turar joyidagi dinlarga itoat qiladilar. Ularning orasida masalan pravoslav, katolik va musulmon diniga o'tganlar uchraydi. Dindor yahudiylar esa hozirgacha o'zining milliy dini hisoblangan iudaizmga rioya qiladilar.

Yevropa xalqlarida rasmiy cherkov dinlaridan tashqari eng qadimgi, hatto ibtidoiy e'tiqod va urf-odatlar ham saqlanib qolgan. Ayniqsa, dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan har xil dastur va rasmlar, sehgargalik urf-odati va irimlari haligacha uchraydi. Hozir ham yil fasllari, ekish va hosil yig'ish bilan bog'liq dabdabali karnaval va bayramlar o'tkazadilar, unda turli afsonaviy timsollar namoyish qilinadi. Albatta eng taraqqiy qilgan yuksak madaniyatli Yevropa xalqlarida professional ijoddan xalq ijodini ajratish ancha qiyin. Chunki, folklorda ham, musiqa va tasviriy san'atda ham zo'r mahorat bilan yaratilgan xalq ijodi namunalari juda katta o'rinni egallaydi. Eng qadimgi ertaklar, qahramonlar haqida eposlar badiiy jihatdan professional yozuvchi va shoirlar tomonidan qayta ishlab chiqilgan. Aka-ukalar Grimm, Gofman, Andersen, Selpa Lagerlef, Oskar Uayld va boshqalarning ertaklari, hatto Gomerining «Illida» va «Odisseyasi», o'rta asrlardagi «Nibelunglar to'g'risida ashula», «Gudring to'g'risida ashula», skandinavlarining saglari, Karelofin eposi «Kalevala» kabi xalq dostonlari aslida badiiylashtirilgan asarlardir. Tarixiy voqealar bilan bog'liq lirik-epik ashula (ballada)lar ancha keyin paydo bo'lgan, ammo juda keng tarqalgan. Hozirgacha yetib kelgan oilaviy marosimlarda aytiladigan ashulalar, sevgi kuylari ham eng qadimiy folklor namunalaridir. Folklorning tarkibiy qismi hisoblangan ommaviy xalq teatrlari hozirgi davrda professional teatr san'atiga singib ketgan. Yevropada dastlab professional teatr qadimgi Gretsiyada (mil.avv. VI-V asrlarda) diniy marosimlar va bayramlar munosabati bilan paydo bo'lgan edi.

Uygʻonish davridan boshlab drama, tragediya, komediya ancha rivojlangan. XVI asrda dastlab Italiyada, keyin butun Yevropada opera paydo boʻladi. Ammo Yevropa xalqlarining koʻpchiligida (polyak, chex, bolgar, rus, fransuz, italyan va boshqalardan) professional klassik teatr bilan bir qatorda ommaviy teatrlashtirilgan xalq oʻyinlari hozirgacha saqlanib kelgan. Bu oʻyinlar katta diniy yoki fasl bayramlarida namoyish qilinadi va nihoyatda rang-barang oʻyin, kulgi, ashula va musiqa sadolari ostida oʻtkaziladi.

Hozirgacha professional teatrdan, keyingi yillarda paydo boʻlgan romantik, naturalistik va modernistik teatrlardan tashqari ommaviy teatrlashgan xalq tomoshalari anʼanalari barcha Yevropa mamlakatlarida saqlangan.

§ 2. YEVROPA QISMIDAGI SHARQIY SLAVYAN XALQLARI

Sharqiy slavyanlar tili va madaniyati bir-biriga yaqin, rus, ukrain va belorus xalqlaridan iborat va ular joylashgan hududlar kurrasining qariyb 6/1 qismini tashkil qilgan edi. 1985-yilgi maʼlumotlarga binoan, bu hududda 143,5 mln.ga yaqin ruslar, 45,5 mln.dan ortiq ukrainlar, 9,8 mln.ga yaqin beloruslar istiqomat qilishgan. Xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa, AQSHda, Kanada va Yevropada sharqiy slavyanlarning soʻnggi bir asr davomida koʻchib ketgan (emigrant) avlodlari tarqoq holda yashashadi. Masalan, AQSHda va boshqa mamlakatlarda XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlariga kelib joylashgan emigrant ruslar va ularning avlodlari 1,2 mln.dan ortiq, ukrainlar (asosan, AQSH, Kanada va Argentinada) 1,6 mln.dan koʻproq.

Irqiy jihatdan ular katta yevropoid irqiga mansub boʻlib, oʻzaro bir necha tiplarga boʻlinadi. Janubiy Ukraina va Qora dengiz sohillarida yashovchi aholi qora qosh va qora koʻzli atlanto-qora dengiz tipiga kiradi. Sharqiy Yevropa tekisliklarida istiqomat qiluvchi rus, ukrain va beloruslar malla rang (shaten) tipidagi irqiy tiplarni tashkil qilsa, shimoliy hududlarda yashovchi qismi katta yevropoid irqining belomor-baltika tipiga oiddir. Sharqiy viloyatlarda yashovchi ruslarda hatto mongoloid belgilari ham seziladi.

Sharqiy slavyan til turkumiga kirgan rus tili ikki shevaga boʻlingan: biri shimoliy rus va ikkinchisi janubiy rus shevalaridan iborat boʻlib, faqat talaffuzi bilan farqlanadi. Ukrain va belorus tillari ham rus tiliga ancha yaqin. Uchalasi ham hind-yevropa til oilasining slavyan turkumining sharqiy slavyan shoxobchasini tashkil qiladi.

O'zlarining kelib chiqishi, madaniyati bilan sharqiy slavyanlar Yevropadagi g'arbiy va janubiy slavyanlar bilan ko'p umumiylikka ega. Ammo hozirgacha ularning etnogenezi eng murakkab hal qilinmagan muammolar bilan to'la. Chunki, hozirgacha umuman slavyanlarning kelib chiqishi to'liq aniqlanmagan. Bu masalada hatto bir necha nazariyalar va chalkash mulohazalar mavjud.

Arxeologik kashfiyotlarga qaraganda, slavyanlarning etnogenezi miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda Markaziy, Shimoliy va Sharqiy Yevropada paydo bo'lgan hind-yevropa qabilalari bilan bog'liq. Slavyanlarning qadimgi ibtidoiy makonlari Markaziy Dnepr bo'ylari va Yuqori Dnestr, Shimolda Karpat etaklari va Visla vohasida joylashgan. Oder va Elba qirg'oqlarida ham slavyanlar joylashgan deb ehtimol qiladilar. Dastlab Sharqiy Slavyanlar Qora dengiz shimolida joylashgan «antlar» nomi bilan tilga olinadi. Keyinchalik slavyan qabilalar ancha faol ravishda tevarak atrofga ko'chib Yevropaning ko'p qismiga tarqaladi. Milodning birinchi ming yilligi o'rtalariga kelib Sharqiy slavyanlar Sharqiy Yevropada joylasha boshlaydi. Janub tomon ko'chib ular Dnepr bo'ylab Dunay sohillarigacha katta hududni egallab olganlar. Shimoli-g'arb tomon ketgan qismi letto-litva qabilalar bilan qo'shnilikda, Shimolda esa Ilmen va Chud ko'llariga yetib Volga-Oka daryo o'rtalarida o'troq bo'lib joylashgan.

Shunday qilib, milodning I ming yilligi oxirida II ming yilligi boshlarida rus solnomalarida tilga olingan qadimgi qabila turkumlari (polyanlar, drevlyanlar, dregovichlar, radivichlar, vyaticlar, volyanlar, slaven va boshqalar)ning birikib aralashib ketishi natijasida qadimgi rus xalqi paydo bo'ladi. Bu jarayon oqibatida butun sharqiy slavyanlarni qadimgi Rus davlati Kiyev Rusi tevaragida jipslashtiradi. O'sha davrda Dnepr bo'yida joylashgan rus yoki ros qabila ittifoqi Kiyev davlatining paydo bo'lishida katta rol o'ynagan. Bu qabilalarning nomi mahalliy Ros daryosi nomi bilan bog'liq bo'lib, rus xalqining nomi ham ana shundan kelib chiqqanligi ehtimol. Qadimgi rus xalqi o'zining umumiy tili, madaniyati, yozuvi va adabiyotiga ega bo'lgan.

Feodal tarqoqlik, o'zaro urushlar va ayniqsa, XIII asrdagi tatar-mo'g'ul istilosi yaxlit rus xalqining shakllanishiga katta g'ov bo'ldi. XIV asrdan boshlab qadimgi rus elati zaminida uchta yaqin qarindosh, ammo mustaqil-rus, ukrain va belorus xalqlari shakllana boshladi. Keyinchalik Buyuk Moskva knyazligi atrofida jipslashgan rus xalqi

markazlashgan davlatga ega bo'lib rus adabiy tilini paydo qiladi. XVI-XVII asrlardan boshlab Moskvaning siyosiy ta'siri kuchayib qudratlashgan Rus davlati kam aholiga ega bo'lgan shimoliy va janubiy hududlarga, Ural va Sibir tomonlarga uzluksiz ravishda bostirib kirib o'zining etnik hududini ancha kengaytiradi. Ruslar quyi Volga bo'yi va Shimoliy Kavkazni ham egallaganlar. XVIII-XIX asrlarda Rossiya chegarasi Baltika bo'yi, Qora dengiz sohillari, Kavkazorti, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq hududlarigacha cho'zilgan. Albatta bosib olingan yerlarga imperiya hukmronligini ta'minlash maqsadida ruslar ko'chirib keltirilgan va ularga moddiy, ijtimoiy imtiyozlar berilgan, turmush shart-sharoitlari yaratilgan. Ular mahalliy xalqlar bilan yaqinlashib xo'jalik va madaniy jihatdan tub aholiga bir qadar ta'sir ko'rsatganlar, o'z navbatida boy mahalliy xo'jalik tajribasi va madaniyat yutuqlarini o'zlashtirganlar.

Rossiyada bozor munosabatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi (XVII-XIX asr o'rtalarigacha) jarayonida rus xalqi asta-sekin millat sifatida shakllangan.

Ruslarning ulkan hududda turli tabiiy sharoitlarda joylashganligi ularni ikki turkumga shimoliy va janubiy rus (velikorus)larga bo'linishiga sabab bo'lgan. Ular faqat tili, ya'ni so'zida «u» yoki «o» ishlatilishi («okayushiye» yoki «akayushiye») bilan farq qiladilar. O'tmishda moddiy va ma'naviy madaniyatida ham ba'zi farqlovchi xususiyatlar mavjud bo'lgan. Asrlar davomida ruslar yuqorida qayd qilinganidek Volga orqasiga, Ural va Sibirga asta-sekin siljib g'ayritabiiy sharoit va elatlar orasiga tushib, mahalliy madaniyatni singdirib o'ziga xos etnografik guruhlarini paydo qilganlar. Masalan, shimolga Oq va Barensev dengizlari sohillariga ko'chib borgan Pomorlar asosan, dengiz ovi va baliqchilik bilan shug'ullanib, o'ziga xos moddiy madaniyat va maishiy turmush yaratgan. Janubiy va sharqiy chegara hududlariga joylashtirilgan harbiy xizmatdagi ruslardan «kazak» deb nom olgan maxsus etnografik guruhlar (don kazaklari, ural kazaklari, kuban kazaklari, sibir kazaklari, amur va ussuri kazaklari) paydo bo'lgan edi. O'rta Ural o'rmonlarida joylashgan kerjaklar; pechora pastki oqimidagi pustozerlar va ustilemlar; Kaluga-Bryansk-Orlov o'rmonlaridagi poxexlar; Sibir va Shimoldagi starojil aholisi (kolimaliklar, rusko-ustinliklar, markovchilar, kamchadallar) kabi mayda guruh ruslar ham o'ziga xos madaniy-maishiy xususiyatlarini saqlab tevarakatrofidagi xalqlarning madaniy an'analarini qabul qilib olganlar.

Ayrim etnografik guruhga staroobryadliklar (Altaydagi «polyaklar», Qozogʻistonning Buxtarma daryosi sohillaridagi «kamenshiklar», Zabaykaledagi «semeyskiy»lar)ni kiritish mumkin.

Hozirgi davrda Rossiya aholisining asosiy qismi 95 % ini ruslar tashkil qiladi.

Ruslardan keyingi Sharqiy Yevropadagi eng katta millat ukrainlar boʻlib ular asosan, Ukrainada joylashgan. Respublikadan tashqarida qoʻshni Rossiya Federatsiyasining Voronej va Rostov viloyatlarida Krasnodar oʻlkasida, Moldaviyada, Markaziy Osiyo respublikalarida ukrainlar yashaydi. AQSH, Kanada va Argentinada yashovchi ukrainlarning soni 1,6 mln.dan ortiq.

43,5 millionli (1985-y.) ukrain xalqi ruslar va beloruslar singari qonu qarindosh sharqiy slavyan qabilalaridan tashkil topgan qadimiy umumrus elatlaridan ajralib chiqqan etnosdir.

Ukrain xalqlarining shakllanishi Oʻrta Podneprove hududi — Kiyevshina markazi bilan bir qancha viloyatlarning jipslashishi orqali roʻy beradi. Buyuk Litva knyazligi chegarasida belorus xalqi shakllana boshlagan edi. Mazkur jarayon chet el istilochilari bilan milliy ozodlik uchun kurashida namoyon boʻlgan.

Ukrain va belorus aholisi ancha zich hududda joylashgan boʻlib, ular ruslardek mayda etnografik turkumlarga boʻlinmagan. Sharqiy togʻli hududlarda yashovchi aholi-lemkalar, gutsullar va verxovinlar, Polesdagi poleshuklar baʼzi xususiyatlari bilan ajralib turadi, xolos.

Shunday qilib, XVI asrga kelib ukrain xalqining shakllanishi tugallanadi. Keyingi asrdan boshlab asta-sekin ukrain millati paydo boʻladi va XVII-XVIII asrlarda Ukraina Rossiya tarkibiga qoʻshilishi natijasida milliy shakllanish kuchaydi. XIX asrning oʻrtalarida krepostnoylik huquqi bekor qilingandan soʻng mazkur jarayon tugallandi.

Beloruslar ham asosan, hozirgi hududida joylashgan boʻlib, oʻzina qismi qoʻshni Rossiya, Qozogʻiston va Boltiqboʻyi respublikalarida yashashadi. Beloruslarning etnik negizini sharqiy slavyan qabilalari bilan birga qisman aralashib ketgan litvalik etnik elementlar tashkil qiladi. IX asrlarda mazkur qabilalar boshqa sharqiy slavyanlar bilan birga Qadimiy Rus davlatiga kirib qadimiy rus xalqining tarkibiy qismini tashkil qilgan. Bu davlat inqirozga uchragandan keyin belorus yerlari Buyuk Litva knyazligiga qoʻshildi, 1569-yilda esa Rech Pospalita ixtiyoriga oʻtadi. Chet el bosqinchilariga qarshi kurash jarayonida belorus xalqi shakllanib

XVI asrda etnik birlik yuzaga keladi. XVIII asrda belorus yerlari Rossiya tarkibiga kirdi.

Bugungi kunda 9,5 millionli belorus xalqi ichida ayrim guruhlar (poleshuklar va litvinlar) ham saqlangan bo'lib, ular ba'zi maishiy turmush va madaniy xususiyatlari bilan o'zaro ajralib turadi.

Albatta, sharqiy slavyan xalqlarining kelib chiqishi, tili va joylanishidagi umumiyliklar ularning xo'jaligi, maishiy turmushi va madaniyatida ham o'z aksini topgan. Rus, ukrain va beloruslarning hayotida umumiy belgilarning shakllanishida shubhasiz umumiy geografik sharoit ham muhim ahamiyatga ega. Ular o'zlarining qadimgi ajdodlarini dehqonchilik madaniyatini meros qilib olganlar. Bu yerda dehqonchilik miloddan avvalgi IV ming yilliklarda paydo bo'lib butun viloyatlarga, Shimoliy Tayga o'rmonlariga, janubiy dashtga tarqalgan. Oddiy bir tishli omochraladan to ikki tishli omochga va murakkab g'ildirakli pluggacha ega bo'lganlar. Donni o'roq chalg'i bilan o'rganlar. Ular asosan, javdar, suli, arpa, bug'doy, sholg'om, dukkakli ekinlar, keyinroq (XVIII asrlardan boshlab) makka, tomat, kungaboqar va kartoshka ekanlar. Texnika ekinlaridan zig'irpoya va kanop ekilgan. Sharqiy slavyanlarda chorvachilik dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan. Chorva mollaridan qoramol, qo'y-echki, cho'chqa, ot va parranda saqlangan. Moldan ishchi kuch sifatida foydalanganlar. Ukrainada ayniqsa, Karpat hududlarida qo'ychilik asosiy xo'jalik sohasi hisoblangan. Daryo va dengiz sohillarida yashovchi aholi baliqchilik, Shimolda va Sibirda ovchilik, o'rmonlarda esa asalarichilik bilan ham shug'ullanganlar, asta-sekin Sharqiy Yevropa aholisida o'ziga xos kompleks xo'jalik-dehqonchilik, chorvachilik bilan ovchilik, terimchilik va baliqchilik paydo bo'lgan.

Dehqonchilikda tuproq va iqlim sharoitiga qarab ikki xil tipni ajratish mumkin. Dasht va o'rmonli dasht zonasida dam berilgan partav yerli xo'jaliklar keng tarqalgan. O'rmon joylarda boshqacha tipdagi xo'jaliklar yuzaga kelgan. Ular ham ochiq partav yerlardan, ham o'rmon ichidagi daraxtlarni kuydirib ochilgan yerlardan foydalanganlar. Ikki-uch yil foydalangandan so'ng bu yerlar ozib kuch-quvvati qolmagach, yangi yerlar ochilgan. XI-XII asrlardan boshlab uch paykali almashib ekish joriy qilingan.

XIX asrda ovchilik va baliqchilik dastlabki ahamiyatini yo'qotib yordamchi xo'jalik yoki havaskorlik sohasiga aylangan. Ammo

ovbop hayvonlar va baliqlar ko'p bo'lgan joylarda katta ko'l va qalin o'rmonlarda bu soha muhim o'rinni egallab kelgan.

Bozor munosabatlari taraqqiy qilishi bilan natural xo'jalik yemirilib, mayda hunarmandchilik inqirozga uchraydi. Industrial xo'jalikning paydo bo'lishi rus, ukrain va belorus xalqlarining hayotida, ularning turmush tarzida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi.

Aholining joylashishi, qishloq tiplari va uylari, ularning xususiyatlari, geografik sharoiti, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillar bilan belgilanadi. Hozirgi sharqiy slavyan xalqlarining joylashishi shahar va qishloq tipida namoyon bo'lib, ular orasida tafovut kun sayin kamayib bormoqda. Qishloqlar yiriklashib, ularning shakli, obodonlashishi shaharga yaqinlashgan. Ammo ko'p qishloqlarning arxitekturasini, qurilishi va tipologiyasida an'anaviy belgilar ham saqlanib qolgan. Rossiya va Ukrainaning janubiy viloyatlari juda katta, bir necha ming hovlilari qishloqlar daryo bo'ylarida joylashgan, markaziy hududlarda o'rtacharoq, 10-15 dan 100-150 hovliga yaqin, shimolda esa kichik, bir necha hovlilari qishloqlar mavjud. Dasht hududlarida aholi uzunasiga yo'l bo'ylab, ko'cha mavze tipida yoki chalakash ko'chalardan iborat to'p uyli qishloqlarda istiqomat qilgan. Bunday an'anaviy qishloqlar qatorida yoki o'rnida yangicha qurilish inshootlari qad ko'tarishi urushdan keyingi asosiy yo'nalish bo'ldi.

Janubdagi uylar an'anaviy usulda somon, yog'och, loydan qurilib oqlangan. Odatda ular ikki-uch xonali bo'lib, hovlida xo'jalik inshootlari tiklangan. Markaziy rus hududlarida yoki Belorus o'rmonlarida asosiy qurilish ashyosi yog'och bo'lganligi tufayli ko'proq pastroq yog'och uylar tiklangan, xo'jalik inshootlari uyga yaqin qurilgan. Shimoldagi uylarning xususiyati aksincha turar joy xonalari va xo'jalik hujralari hammasi bir joyda joylashgan katta dabdabali hovlilardan iborat. Uylarning jihozlanishi deyarli bir tipda bo'lgan. Albatta zamonaviy texnikaga tayangan xo'jaliklarning paydo bo'lishi hamma yerda an'anaviy qishloq va uy qurilishiga jiddiy o'zgarishlar kiritgan edi. Qadimgi Rus davridayoq feodal tipdagi shahar va qishloqlar paydo bo'lgan va o'z shakl-shamoyili bilan qisman yangi zamonga yetib kelgan. Hozirgi shahar tipdagi qishloqlar barcha qulayliklarga ega. Ularda vodoprovod va kommunikatsiya mavjud, turar joy va jamoat imoratlari elektrlashtirilgan, ko'p joylarda gaz va kanalizatsiya o'tkazilgan.

Xalqlarning etnografik xususiyatlari ko'proq milliy kiyimlarida namoyon bo'ladi. Yaqin davrlargacha sharqiy slavyanlarning xalq kiyimlari uyda to'qilib tikilgan. O'zlari zig'irpoya va kanop o'stirib tolasidan ip yigirganlar, jun va teridan turli kiyimlar tikkanlar. Ayollar oila uchun zarur bo'lgan kiyimlarga o'zlari ip yigirib mato to'qiganlar va kiyim tikkanlar. Ustki kiyim odatda umumiy ko'rinishga ega bo'lib, erkak va ayollarniki uncha farqlanmagan. Masalan, choponga o'xshash kaftan; jun chakmon, keng tikilgan armak va po'stin. Qo'y terisidan po'stin (kojux yoki shuba) tikib kiyilgan. Ayollarning ko'ylak va ichki kiyimlari turli xilda. Kiyim tikishda yomon ko'z, yovuz kuchlardan saqlaydigan turli irimlarga rioya qilganlar. Bayram, to'y va motam kiyimlari har xil bo'lgan.

Kiyimlarida rus, ukraina va beloruslarning o'ziga xos umumiylik bilan bir qatorda o'zaro farqlanuvchi xususiyatlari ham mavjud bo'lgan. Erkak va ayollarning ko'ylagidagi asosiy farq erkaklarniki tizzagacha, ayollarda esa bir oz uzunroq bo'lganidadir. Ayol kiyimining bichimi har xil. Ammo milliy va mahalliy sarpolarning xususiyatlari faqat to'y marosimlari, badiiy havaskorlar to'garagi konsertlari va katta bayramlarda namoyish qilinadi. Aslida hozir butun sharqiy slavyanlarda milliy an'anaviy sarpo o'rniga barcha elatlarda Yevropa uslubidagi shahar kiyimi tarqalgan.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, ilgari kiyimlarning turi qadimiy etnomadaniy guruhlarining joylanishiga to'g'ri kelgan. Masalan, katak-katak yubkasimon kiyim hind-yevropa guruhleri joylashgan hududga tarqalgan. Shunga o'xshash olabayroq yo'l-yo'l yubkalar shimoliy hududlarda yashaydigan fin-ugor tilidagi milliy guruhlarga xosdir. Mazkur kiyimlar odatda yarim jun matodan tikilib, rangbarang kashtalangan va bezatilgan.

Etnografik jihatdan ayollarning bosh kiyimlari diqqatga sazovor. Masalan, qizlar bilan erga chiqqan ayollarning bosh kiyimi va soch o'rami jiddiy farqlangan. Qizlar bir o'rim soch qoldirgan, nikoh vaqtida kiyiladigan bosh kiyim eng muhim va tantanali odatlar bilan bog'liq bo'lgan. Janubiy muzofotlardagi rus, ukrain va belorus ayollariga boshiga gulchambarlar taqish hamda gulchambar shaklida ro'mol o'rash ham odat bo'lgan. Ayollar ro'mol o'rasa yoki bosh kiyimi kiysa sochini butunlay qoplashi zarur bo'lgan. Hozir esa turli-tuman soch turmagi juda keng tarqalgan.

Ayollar kiyimidagi bezaklar ham diqqatga sazovordir. Turli naqshlar bilan kashtalangan yoki tikilgan sarpolar muayyan fikrni ifodalagan. Hozirgacha yetib kelgan ayrim naqsh obrazlarida eng qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liq personajlar yoki sehrgarlik belgilari tasvirlangan, ibtidoiy irimlar va odatlar aks ettirilgan.

Ijtimoiy turmushida va oilaviy munosabatlarida XIX asrdagi qoloq Rossiyaning qishloqlarida chor hokimiyati tomonidan qo'riqlanib kelgan jamoatchilik tuzumi qoldiqlari saqlanib kelgan. Jamoa tadbirlari ukrain va beloruslarda ham uzoq davr saqlangan. Ayniqsa, qishloq aholisi orasida jamoa qoidolari asosida o'zaro yordam an'analari, bir necha avlodlarni biriktirgan patriarxal turdagi katta oila tashkilotlari, feodal-patriarxal nikoh munosabatlari qoldiqlari, har xil ibtidoiy urf-odatlar kuchli bo'lgan. Ichki oilaviy munosabatlarda va odobda asrlar davomida hukmron bo'lib kelgan mehnat taqsimoti va boshqa qoidalarga qat'ian rioya qilingan.

Rus, ukrain va belorus xalqlarining ma'naviy hayoti uzoq davr hukmron pravoslav dini bilan belgilangan. Ular orasida turli mazhablar paydo bo'lgan (staroobryadchiklar, pyatidesyatniklar, duxoborlar va hokazo). Dehqon ahli orasida nasroniy dini yuzaki qabul qilingan, asli har xil sehrgarlik tasavvurlari, muqaddas joylarga sig'inish, qadimgi slavyan xudolariga Ilyos payg'ambar, Georgiy, Vlasiy kabi avliyolarga ibodat qilish juda keng tarqalgan. Turli tabiat fasli bilan bog'liq diniy marosimlar o'tkazilgan (maslenitsa, sochelnik, troitsa, Ivan Kupala bayrami va hokazo). Dehqonlarning tasavvurida butun olam har xil alvasti va devlar, suv parilari, arvohlar va ajinalar bilan to'la. Ular ayrim hayvonlar (ayiq, qarg'a, tovuq va hk.) bilan bog'liq tasavvurlarga ega bo'lganlar. Ibtidoiy diniy e'tiqod va marosimlarning eng ko'p tarqalgan belgilarini qadimiy xudolar obrazini pravoslav cherkovi muqaddaslashtirishga majbur bo'lgan. Masalan, qadimiy slavyan xudolaridan Avliyo Nikolay endi hunarmand va savdogarlarning homiysi Avliyo Georgiy Pobedonos mol va cho'ponlarning homiysi yoki Paraskeva Avliyo Pyatnitsa ayollar va ayol kasbu kori homiysi deb tanilgan. Ibtidoiy tasavvurlar folklorda ham saqlangan (sehrgarli ertaklarda), oilaviy-maishiy urf-odatlarda ham namoyon bo'lgan.

Xalq ijodi nihoyatda boy va rang-barang bo'lgan. Asrlar davomida hukmron sinflar qo'lidagi fan va san'atdan mahrum bo'lgan savodsiz xalq ommasi barcha badiiy sohalarda ajoyib go'zal namunalar yaratgan. Oilaviy marosimlarda, bayram tantanalarida

aytiladigan xalq ashulalari va raqslari o'tmishdagi ham hozirgi bastakorlar va balet ustalari uchun tuganmas serchashma bo'lib kelmoqda. Juda boy folklor asarlari (rus dostonlari, ukrain xalq ashulalari)da badiiy obrazlar orqali uzoq davrlardagi tarixiy rivoyatlar va voqealar, milliy ozodlik kurashi g'oyalari yorqin tasvirlangan. Lirik his-tuyg'ular, yumor va satira xalq ijodining turli janrlarida o'z ifodasini topgan.

Amaliy san'atda ham ajoyib namunalar yaratilgan. Bayramlarda boshqa tantanalarda kiyiladigan kiyimlar juda boy va rang-barang naqshlar bilan kashtalangan. Ukrain uylarining devorlari go'zal naqshlar bilan bezatilgan bo'lsa ruslarning yog'och uylari nozik o'ymakorlik san'ati bilan ajralib turgan. Uy-ro'zg'or buyumlari, sopol idishlar ham turli naqshlar bilan bezatilgan. XVIII-XIX asrlarda ayrim viloyatlarda jahonga mashhur badiiy hunarmandchilik markazlari paydo bo'lgan (Polex, Xoxlama, Fedoskino). O'z Slavyanlardan tashqari bu hududlarda va mohiyati bilan xalq ijodi namunalari san'atning yuksak asarlari darajasiga ko'tarilib ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilmoqda.

§ 3. JANUBIY VA SHIMOLIY YEVROPANING NOSLAVYAN XALQLARI

Bolتيqbo'yi, shimoliy viloyatlarning bir qismi, O'rta Povolje, Prikame va janubi-g'arbiy hududlarida o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyat yaratgan turli xalq va elatlar yashagan. Ushbu xalqlar sharqiy slavyanlar bilan qo'shni bo'lganligi tufayli o'zaro ta'sir doirasida turganlar va ko'p tomondan umumiy belgilarga ega-dirlar. Antropologik jihatdan noslavyan xalqlar asosan, katta yevropoid irqining turli tiplariga oid. Ammo Volgabo'yi xalqlari mariylar, udmurtlar, chuvashlar, tatar va ayniqsa, boshqirdlar orasida, qisman shimoldagi loparlarda mongoloid belgilari seziladi.

Til jihatdan noslavyan xalqlar bir necha turkumga bo'linadi. Eng ko'pi finno-ugor turkumiga tegishli fin tilida gapiradigan estonlar, korellar, livlar, vepslar, saamlar, udmurtlar, mordvalar, komi-ziryan va komi-permyaklar. Litva, latish xalqlarining tillari hind-yevropa til oilasining maxsus lettolitva shoxobchasiga, moldovanlar esa roman turkumiga tegishli. Bu yerda turkiy tilda gapiradigan xalqlar chuvashlar, tatarlar, boshqirdlar, gagauz va karaimlar yashaydi. Qalmiqlar esa oltoy til oilasining mo'g'ul shoxobchasiga kiradi.

Mazkur xalq va elatlarning etnogenezi va etnik tarixi ham turlicha. Shuning uchun tarixiy-madaniy jihatdan ular bir necha jabhalarga bo'linib o'rganiladi. Shularning ichida tarixiy, etnik va madaniy jihatdan ancha umumiy belgilarga ega bo'lgan Boltiqbo'yi xalqlari ajralib turadi.

Boltiqbo'yida asosan, uch xalq yashaydi: ma'lumotlarga ko'ra, litvaliklar (o'z nomi «listuvyan») 2,8 mln.dan ortiq kishi, latishlar («latviyeshi») 1,4 mln.dan ko'proq va estonlar (o'z nomi «eestlased») 1 mln. Litvaliklar o'z respublikasidan tashqari qo'shni Latviya, Belorussiya va Rossiyaning shimoli-g'arbiy qismida, AQSH, Kanada, Urugvay, Argentina, Avstraliya va Polshada (jami 320 mingga yaqin emigrant) yashaydi. Latishlar ham qisman qo'shni hududlarda (Estoniya, Litva, Rossiya va Belorussiyada) joylashgan. 60 mingga yaqin latishlar AQSH, Kanada va Avstraliyada yashaydi. Estonlar esa asosan, o'z respublikasida va ozgina qismi tashqarida (Leningrad, Pskov va Omsk viloyatlari, Latviya, Ukraina, Abxaziya) joylashgan.

Boltiqbo'yiga odam eng qadimiy davrlardan kelib joylashgan. Bronza davridayoq (miloddan avvalgi II ming yilliklar) hozirgi Latviya hududiga janubdan qadimgi ajdodlari letgollar, sellar, zengallar va kureyshlar kelib tarixiy jihatdan hali aniqlanmagan mahalliy elatlar bilan aralashib ketgan. Latish xalqining shakllanishi XII-XIII asr boshlaridagi nemis salbchilari istilosi tufayli to'xtab qolgan va faqat XVI asr boshlariga yetib tugallangan. XIX asrning o'rtalarida latish millati shakllanadi. Qadimiy etnik guruhlardan latgallar bir oz madaniy-maishiy xususiyatlarini saqlab qolganlar. Latishlar bilan to'liq aralashib ketgan mayda etnik guruh-livlar kundalik maishiy hayotida eski tillaridan ham foydalalanadilar.

Litva xalqining qadimiy ajdodlari ham Nyamunas va Daugava daryolari havzasiga miloddan avvalgi II ming yillikning boshlarida kirib kelgan turli boltiq qabilalaridan iborat bo'lgan. Asli litva etnosi XI-XII asrlarda shakllana boshlagan va uning shakllanishida mazkur qabilalardan tashqari litva yoki aukshtayt elati, jmur yoki jemayti, skalva, nadrava, kisman yatvyaglar, kursheylar va zengallar ishtirok etgan. Etnik konsolidatsiyaning paydo bo'lishiga XIII asrning birinchi yarmida tuzilgan Litva davlati va Tevton ordeni bilan olib borilgan ko'p asrlik kurash muhim rol o'ynagan edi. 1795 va 1815-yillar Litva yerlarining asosiy qismini Rossiya imperiyasi o'z tarki-

biga qo'shib olgan. Litva burjua millati ham latishlar singari XIX asr o'rtalarida shakllangan.

Latviyaning shimolida qadimiy davrlardan eston xalqining ajdodlaridan rus solmonomalarida tilga olingan chud nomli fin tilida gapiradigan qabilalar yashagan. Ular hozirgi Estoniya hududida miloddan avvalgi III ming yillikda paydo bo'lganlar; keyinroq bol-tiq, skandinav qabilalari, I ming yillik oxirlaridan sharqiy slavyanlar bilan aralashib ketgan va eston xalqining negizini tashkil qilgan.

Eston xalqining etnik jarayonida ishtirok etgan setu yoki setikez nomli etnografik guruh hozirgacha ajralib turadi. XIII asrlardagi nemis istilochilariga qarshi ozodlik kurashi milliy jipslashish jarayonini kuchaytiradi. 1750-yilgi shimoliy urushdan keyin Estoniya Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng qo'shib olin-gan va o'sha davrdan harakatga kelgan ozdlik kurashlarida toblanib Eston millati shakllana boshlagan. Boltiqbo'yi xalqlari maishiy turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyatining shakllanishida bir tomondan sharqiy slavyan xalqlarining, ikkinchi tomondan g'arb-dagi qo'shnilar nemis, shved kabi german xalqlarining ta'siri o'tgan. Ayniqsa, sharqiy slavyan xalqlari bilan uzoq davrlar davomida Boltiqbo'yi xalqlari yaqin munosabatda bo'lganligi tufayli o'zaro madaniy ta'sirlar kuchli bo'lgan. Keyinchalik Litvaning Polsha tasarrufiga o'tishi natijasida bu yerda polyaklar-ning ta'siri kuchayadi va katolik dini tarqaladi.

Eng qadimiy davrlardan Boltiqbo'yi aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Boltiq dengizi sohillarida va orollarida baliqchilik muhim soha hisoblangan. Hozirgi davrda Estoniya, Litva va Latviya yuksak rivojlangan sanoat va qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan eng ilg'or industrial-agrar respublikalardan hisoblanadi.

Sanoatning gurkirab o'sishi shahar aholisining ko'payishiga olib keldi. Boltiqbo'yi shaharlarining ko'pchiligi ko'p asrlik tarixga ega. Feodalizm davrida, ayniqsa, Latviya va Estoniyada, shaharlarda asosan, nemislar yashagan va ularning qo'lida hunarmandchilik ham savdo markazlashgan. Bozor iqtisodiyotining yangi shakllari paydo bo'lishi bilan shaharlar mahalliy tub aholi hisobiga o'sa boshlaydi. Hozir shahar aholisi qishloqqa nisbatan ancha ko'p.

Boltiqbo'yi mamlakatlaridagi qishloqlar qo'shni slavyanlarniki-ga o'xshash zich uylar yoki xutor (qo'rg'on) tipidagi hovlilar turku-midan iborat. Qo'rg'onlar, ayniqsa, Estoniya va Latviyada nemis-

larning ta'sirida tarqoq holda qurilgan. Uylari asosan, yog'ochdan ikki xonalik va dahlizlik qilib qurilgan. Estoniya va Shimoliy Latviyada o'ziga xos somon tomli va pechkali baland yog'och uylar-bostirma keng tarqalgan. Uning xususiyati uyga qo'shilgan maxsus somon quritadigan va xo'jalik xonalari kompleksining mavjudligidir. Mulkiy munosabatlarning paydo bo'lishi bilan davlatmand oilalar shahar tipidagi g'ishtli uylar qura boshlagan.

Bolتيqbo'yi xalqlarining an'anaviy milliy kiyimlari feodalizm davrida paydo bo'lgan. Ular faqat uyda to'qilgan matodan tikilgan. Erkaklar kiyimining shakllanishida qo'shni nemislarning shahar madaniyati zo'r ta'sir o'tkazgan. Rang-barang va xilma-xil ayol kiyimlari ayniqsa, chiroyli bo'lgan. Ayollarning milliy kiyimlari asosan, turli yubka, kofta, ro'mol, etakcha va bezaklardan iborat. Butun Bolتيqbo'yi aholisida bir necha xildagi an'anaviy kiyimlar mavjud bo'lgan.

Butun xalqning ma'naviy madaniyatiga nasroniy dinining ham ta'siri o'tgan. Bolتيqbo'yi aholisi uchta diniy yo'nalishga itoat qilgan. Katoliklar ilgari Polshada uzoq vaqt hukmronlik qilgan hududlarda, Litva hamda sharqiy Latviyadagi latgallarda tarqalgan. Lyuteranlik XVI asrdan boshlab nemis ruhoniylari tomonidan estonlar va g'arbiy latishlar orasida zo'rlik bilan o'rnatilgan. Rus viloyatlariga yaqin joylashgan aholi pravoslav diniga o'tgan.

Aholining aksariyat qismi milliy-madaniy an'analarning ko'p jihatlarini saqlab, rivojlantirib kelmoqda. Ayniqsa, hozirgacha yetib kelgan amaliy san'at namunalari alohida qayd etish lozim. Professional kasb bilan chatishib ketgan, masalan, yog'och haykaltaroshligi, qahrabo mahsulotlari ishlab chiqarish, badiiy to'qimachilik va kashtachilik, teri va sopol buyumlar ishlab chiqarish kabi amaliy xalq ijodi yillar davomida yana ham ravnaq topdi. XIX asrda paydo bo'lgan ashula bayramlari, an'anaviy tusga kirgan xor san'ati hozirgi vaqtda eng ommaviy va keng tarqalgan xalq ijodiyotiga aylandi.

Rossiyaning Shimoliy Yevropa qismida ruslardan tashqari karellar, vepsalar, saamlar (lopar)lar, komi-ziryanlar, komi-permyaklar va neneslar yashaydi. Shularning ichida antropologik jihatdan saam (lopar)lar aralash mongoloid va sof mongoloid irqiga xos, qolgan barcha etnoslar yevropoid belgilari bilan ajralib turadi. Neneslar esa sof katta yevropoid irqining vakillari.

Kareliya Respublikasi va Kaliningrad viloyatlarida 138 mingdan ortiq karellar (o'z nomi naryala) yashaydi. Rus solnomala-

rida korela nomi bilan tilga olingan karellarning ajdodlari IX asrlarda Ladoga ko'lining g'arbiy sohillarida joylashgan. Ular XI-XII asrlarda hozirgi Kareliyaning g'arbiy qismini egallab keyin shimoliy va sharqiy tomonga tarqalgan va mahalliy vepsalar bilan aralashib ketgan. XII asrda karellar rus davlatiga qo'shilib ruslarning ta'siriga o'tgan. Karel xalqining shakllanishi XV asrlardan boshlanadi.

Tili va madaniyati jihatdan karellarga yaqin vepsa xalqi (8,1 ming) qadimgi ves nomli fin qabilasining avlodlaridir. Saami (lopar)larning sharqdan kelgan dastlabki mongoloid tipidagi ajdodlari ehtimol ural tilida so'zlashganlar. Ular bu yerda neolit davridan keng hududga tarqalgan mahalliy fin qabilalari bilan aralashib lopar tili va o'ziga xos mongoloid antropologik tipini yaratganlar. Hozir Shimoliy Yevropaning Kolsk yarim orolida dastlab ko'chmanchi bo'lgan (ularning asosiy qismi Shimoliy Skandinaviyada) ikki mingga yaqin loparlar yashaydi.

Fin til turkumiga kirgan udmurt, komi, mordva va mariylarning qadimgi ajdodlari miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda sharqdan Volga-Kama sohillariga kelib joylashgan. Ularning bir qismi (eston-litva va karelo-finlar) eramizdan avvalgi II-I ming yilliklarda Boltiqbo'yi va Kareliya tomonga o'tib o'rnashgan. Eramizning boshlariga kelib mazkur xalqlar etnik guruh sifatida shakllana boshlaydi. Vyatka va Kama daryolari oralig'ida joylashgan qabilalar udmurt xalqiga asos bo'lgan. Miloddan avvalgi I ming yillikda yuqori Kama va Vichегда vohasidagi finno-ugor qabilalardan komi-ziryan etnosi tashkil topadi. O'sha davrlardayoq Pechora va Vichегда vohasidagi mahalliy qabilalar bilan aralashib ketgan perm qabila birikmasi asosida komi-permyaklari paydo bo'lgan.

Shimoliy xalqlar ilk davrlardan (loparlardan tashqari) dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlaganlar. Ularning xo'jaligida o'rmon ovchiligi, baliqchilik, asalarichilik muhim rol o'ynagan. Ijma daryosi bo'yidagi komiziryanlar neneslarning ta'sirida qisman bug'uchilik bilan ham shug'ullanganlar. Yangi mulk munosabatlarining paydo bo'lishi har xil yollanma kasblarni yuzaga keltirgan edi.

Loparlarning xo'jaligi majmuiy xarakterda bo'lib bug'uchilik, baliqchilik va ovchilik birga qo'shib olib borilgan. Ilgari yil bo'yi bir necha marta oila bo'lib ko'chib yurgan loparlar o'tgan asr oxirlaridan

boshlab faqat erkaklar ko'chmanchilik qilib, ayollar boshqa oila a'zolari bilan birga qishloqlarda qolgan.

Karel, veps, komi-ziryan va komi-permyaklarning moddiy madaniyatida umumiy belgilar saqlangan. Ularning uylari tarqoq uya shaklida bosh qishloq tevaragida joylashgan. Yog'ochdan tiklangan uylar xo'jalik hujralari bilan birga qurilgan. An'anaviy kiyimlar ham umumiy xarakterda: uzun yengli ko'ylak, sarafan, boshida do'ppi va qalpoq, ayollarda har xil ro'mol va shol ro'mollar bo'lgan. Umuman kiyimlari qo'shni ruslarnikiga o'xshagan.

Loparlarning uylari ilgari mo'rili yarim yerto'ladan iborat bo'lgan, yozda ular ko'chishga qulay bo'lishi uchun cho'qqaygan daraxt qobig'i bilan yopilgan chaylalar qurganlar. XV-XVII asrlarda ruslarning ta'sirida oynali yog'och uylar tiklanganlar.

XIX asr boshlarida Yevropaning shimolidagi xalqlarning ko'pchiligi yozuvni ham bilmaganlar. Ularning ma'naviy madaniyatida asosiy o'rinni og'zaki ijod va amaliy san'at egallagan. Har xil epos, rivoyatlar, masallar, matallar va ertaklar keng tarqalgan. Ayniqsa, ajoyib xalq eposi «Kalevala» mashhur bo'lgan. Kashtachilik, naqshli tikuv, yog'och o'ymakorligi rivojlangan.

Pravoslav dini o'tmishda hukmron bo'lganligi sababli hozirgacha ibtidoiy diniy tasavvurlar bilan birga mavjud. Masalan, loparlar har xil kasb-hunar, «xo'jayin» homiylariga sig'inganlar, muqaddas toshlarga itoat qilganlar, shomonizm saqlangan.

§4. VOLGA-KAMA BO'YI XALQLARI VA MOLDAVANLAR

Sharqiy Yevropa qismidagi noslavyan xalqlardan O'rta Povoljeda va Kama bo'yida joylashgan udmurdlar, mariylar, mordvalar, chuvashlar, tatar va boshqirdlar o'ziga xos tarixiy-etnografik hududni tashkil qiladilar. Tarixiy-etnografik jihatdan bu xalqlarga Kama bo'yida va Yevropaning shimolida yashovchi mazkur komi-permyak va komiziryanlar yaqin turadi.

Antropologik jihatdan bu xalqlar katta yevropoid irqining turli tiplariga mansubdir. Ammo ko'pchiligi yevropoid irqi bilan qisman mongoloid belgilarini o'zida mujassamlashtirgan tiplardir. Til jihatdan butun Volga-Kama xalqlari ikki guruhga bo'lingan: urdmurd, mariy va mordvalar finno-ugor til guruhiga, chuvash, tatar va boshqirdlar oltoy oilasining turk guruhiga kiradi.

Vyatka-Kama sohillarida qadimiy davrlarda joylashgan qabilalarning avlodlari hisoblangan udmurtlar (eski nomi votyaklar) hozir

720 ming kishidan ortiq. Ular asosan, Udmurtistonda, qisman qo'shni Mariy, Tatariston va Boshqirdiston avtonom respublikalarida, Perm va Yekaterinburg viloyatlarida yashaydilar.

Milodning I ming yilligi oxirlarida va II ming yilligi boshlarida qadimiy udmurtlarning etnik tuzilishiga Volga-Kama bulg'orlari ma'lum ravishda ta'sir qilgan. 1236-yildan keyin ular mo'g'ul-tatar istilosiga uchraydi va XVI asr o'rtalariga kelib shimoliy qismi Rossiya, janubiy yerlari Qozon xonligiga o'tadi. 1558-yilda Udmurt eli butunlay Rus davlati tasarrufiga o'tadi, o'sha davrdan udmurt xalqi shakllana boshlaydi.

Ilgari cheremislar deb atalgan mariy xalqi (hozir 640 ming kishi) bizning eramizning boshlarida dastlab O'rta Volganing so'l sohillarida, Vetluga va Vyatka daryolarining oralig'ida yashagan qabilalardan kelib chiqqan. Ular asta-sekin sharqiy hududlarga siljib hozirgi hududni egallab olganlar. Keyingi etnik jarayonda mariylar uch guruhga bo'linadi: Volganing baland qirg'oqlarida joylashgan tog'liq mariylar, chap qirg'oqdagi tekis o'tloqlarda o'rnatilgan yaylov mariylar va sharq tomondagi qo'shni o'lkalarda (Boshqirdiston, Tatariston va Udmurtistonda, Novgorod, Perm va Yekaterinburg viloyatlarida) mariylar joylashgan.

Mordva qabilalari asli Oka, Sura va O'rta Volga daryolari oralig'ida joylashgan. Ular XII asrdan ruslar bilan yaqin munosabat o'rnatganlar. Hozirgi mordva xalqi esa milodning boshlarida ikkita yirik qabila ittifoqi hisoblangan g'arbdagi moksha va sharqdagi erzya etnik guruhlari birikmasidan tashkil topgan va feodalizm davriga kelib etnik jarayoni tugallanib xalq sifatida shakllangan. Ular shu kungacha o'zlarining an'anaviy madaniyatida ba'zi xususiyatlarni saqlab kelganlar.

Volgabo'yidagi turkiy xalqlarning etnogenezi ancha murakkab. O'rta Volgabo'yi va ayniqsa, uning janubiy hududlari uzoq davr ichida bir necha marta fin tillaridagi qabilalar bilan kelgindi hind-yevropa tilidagi skiflar, alanlar va boshqa qabilalar, keyinchalik turkiy elatlar bilan aralashib ketgan. Dastlab turkiy qabilalar milodning III-IV asrlarida kela boshlagan va sharqiy Yevropaga gunnlarning istilosi bilan bog'liq bo'lgan. Volgabo'yi va Ural etaklarida joylashgan turklar mahalliy finno-ugor xalqlarining madaniyatini qabul qilgan va ular bilan aralashib ketgan. Eng katta turkiy oqimlar bo'lgan Turk xoqonligi V-VII asrlarda Volga-Ural hududiga bostirib kirgan, ulardan keyin VII-VIII asrlarda Shimoliy

Kavkazdan kelgan bulg'orlar bostirib kirganlar. Ular Volganing chap va qisman o'ng qirg'oqlarini Kama bo'ylarigacha bo'lgan hududni egallab mahalliy turk va finno-ugor qabilalari bilan aralashib X asrda Volga Bulg'oriyasi nomli ilk feodal davlatini yaratganlar.

Atrofda qo'shni elatlarga siyosiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan katta ta'sir o'tkazgan Volga Bulg'oriyasi XIII asrda tatar-mo'g'ullari tomonidan tor-mor qilinadi. Quvg'inlikka uchragan bulg'orlarning yirik qismi Volga bo'ylab shimolga ko'chishga majbur bo'ladilar. Ular tog'liq mariylar va boshqa mahalliy qabilalar bilan aralashib chuvash (o'z nomi chavash) xalqiga asos soladilar. Chuvash etnonimi ham bulg'orlarning qabilaviy ittifoqlaridan biri bo'lgan suvarlar yoki suvazlar nomi bilan bog'liqdir. XV asrning ikkinchi choragida chuvash yerlari Qozon xonligiga qo'shilgan. O'lka 1551-yili Rossiya tomonidan istilo etilgan.

Volgabo'yi (Qozon) tatarlarining kelib chiqishida ham bulg'orlar va mahalliy mariy, mordva, udmurdarning ajdodlari muhim rol o'ynagan. XV asrda Oltin O'rda yemirilib Qozon xonligi paydo bo'lgandan keyin uning etnik turkumida qipchoqlar hukmronlik qila boshlaydi va oqibatda bulg'or tilini qipchoq tili siqib chiqarib tatar etnosiga asos solinadi. Aslida «tatar» so'zi dastlab VI-IX asrlarda paydo bo'lib, Baykalning sharqida joylashgan mo'g'ullarning eng katta qabilalaridan birining nomi bilan bog'liq. Chingizxon va uning merosxo'rlari davridagi bosqinchilik yurishlari vaqtida tatar nomi bilan Qora dengiz sohillari va kaspiy dashtlaridagi elat va qabilalarni ataganlar, bu nom keyinchalik butun Oltin O'rdaga ham tegishli bo'lgan.

Hozir tatarlar Rossiyaning eng yirik millatlaridan biri bo'lib, son jihatidan (6,6 mln. dan ziyod) yirik millatlar qatoriga kiradi. Ular Tatariston Respublikasining asosiy aholisi (47,4 %) ini tashkil etsada, ko'pchiligi (taxminan to'rt dan uch) qismi o'z respublikasidan tashqarida yashaydi. Tatarlar Boshqirdistonda, Chelyabinsk, Perm, Yekaterinburg, Orenburg va Astraxan viloyatlarida, Janubiy Sibir va Uzoq Sharqda, Markaziy Osiyoda ko'proq joylashganlar.

Hozirgacha bir qadar farq qilgan tatar guruhlar XV-XVI asrlarda tashkil topgan tatar xonliklari (Qozon, Astraxan, Sibir va hk.) davrida shakllangan edi. Shu asosda O'rta Volgabo'yi va Uralbo'yida, qozon tatarlari pastki Volgabo'yida Astraxan tatarlari, Sibirda qosim va boshqa tatarlar etnografik guruh sifatida o'zaro

farq qiladi. Etnografik jihatdan, ehtimol qadimiy finno-ugor qabilalaridan biri hisoblangan mesheralarni turklashtirish natijasida yuzaga kelgan misharlar yoki zo'rlik bilan nasroniy diniga o'tkazilgan qozon tatarlarining bir qismi krashenlar va o'g'oyboklar (no'g'oy tatarlari) alohida e'tiborga molik.

Boshqirdlarning kelib chiqishi masalasi hali ham to'liq hal bo'lmagan. Ba'zi olimlarning ta'rificha, boshqird xalqining etnogenezida asosiy rolni IV asrlarda «Buyuk ko'chish» davrida kelgan turli turkiy qabilalar o'ynagan. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha boshqirdlarning shakllanishida mahalliy finno-ugor qabilalari muhim o'rin tutgan. Ularning antropologik, urug'-qabila-viy tuzilishi va madaniyati ham boshqird etnik tarixining murakkabligidan dalolat beradi.

Shubhasiz, boshqird xalqining shakllanishida tub mahalliy eroniy tillardagi sarmatlar va har xil finno-ugor qabilalari bilan bir qatorda Ural etaklarida eramizning I ming yilliklarida kelgan ko'chmanchi turklar muhim o'rinni egallaydi. Ularning etnogenezida bir oz keyinroq paydo bo'lgan o'g'uz-pachanak qabilalari, volga-kama bulg'orlari, qipchoqlar (XI-XIII asrlar) va ayrim mo'g'ul qabilalari (XIII-XIV asrlar) ishtirok qilgan. Oltin O'rda yemirilgandan so'ng boshqirdlar Qozon, No'g'oy, Sibir xonliklarining hukmronligiga o'tadi. 1552-1557-yillarda boshqirdlar Rossiya tarkibiga o'tgach birikib xalq sifatida shakllana boshlaydi. Hozir 1,5 mln.ga yaqin boshqirdlar asosan, o'zining respublikasida, qisman, qo'shni Chelyabinsk, Perm, Kurgan, Orenburg, Yekateringburg, Samara va Saratov viloyatlarida yashaydilar.

Volga-Kama bo'yidagi xalqlarining qadimgi davrlardan asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik bilan birga ovchilik va baliqchilikdan iborat bo'lgan. Ular o'tgan asrda uch paykalli almashlab ekish tizimiga o'tganlar. Dehqonchilik qurollaridan eng muhimi bir necha xildagi omoch va og'ir yog'och plug (sabon) bo'lgan. XVII asrgacha boshqirdlar ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi tarzida turmush kechirib, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Yaylovlarning kamayishi bilan o'troq holatga o'tib dehqonchilik qila boshlaganlar. Qadimiy kasblardan asalarichilik ham saqlangan. O'tgan asrdan o'rmon sanoati ham paydo bo'lgan.

XX asr oxirlariga kelib, Volga-Kama xalqlari iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan kamol topdi. Ayniqsa, neft ishlab chiqarishi bilan bog'liq

og'ir sanoat, mashinasozlik, metall ishlab chiqarish, qog'oz-sellyuloza va boshqa turli sanoat tarmoqlari paydo bo'ldi. Qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirish, ilg'or agrotexnik tadbirlarni qo'llash, sohaga malakali kadrlarni jalb etish va ishning samarali usullaridan foydalanish evaziga ravnaq topdi.

Aytish joizki, ushbu xalqlarning moddiy madaniyatida o'rmon xo'jaligining ta'siri juda sezilarli. Uy-joy qurilishidan to ro'zg'or buyumlarigacha o'rmon mahsulotlari ishlatilgan. Volga-Kamabo'yi xalqlarining uylari ruslarnikiga o'xshash yog'ochdan, o'rmonni kesib xodalardan ustma-ust terib qurilgan, ammo faqat uyni jihozlashda o'ziga xos xususiyat kashf etgan. Yarim ko'chmanchi boshqirdlar qora uy ham tiklaganlar. Qolgan barcha etnoslarning uylari deyarli bir tipda yog'ochdan qurilib, oynali va polli, shipsiz, tuynukli va o'rtada o'chog'i bo'lgan. Uy shakli oila a'zolarining soni va boyligiga qarab bir-ikki xonali va xo'jalik hujrasi bilan qo'shib qurilgan. Tatar va boshqirdlarda yog'och supa bo'lgan.

Milliy kiyimlari nihoyatda boy, rang-barang va har bir etnosni ajratuvchi asosiy belgi hisoblanadi. Xususan, zig'irpoya, kandirpoya va jundan to'qib tikilgan turli kiyimlar ajoyib kashta bilan bezatilgan. Lekin, Volgabo'yi fin xalqlarining kiyim-kechaklari bir oz boshqacha va uzoq o'tmishga xos xususiyatlarni asrab qolgan. Umuman olganda, Volgabo'yi xalqlarining moddiy madaniyatida bir tomondan shimoliy va g'arbiy etnoslarning ta'siri, ikkinchi tomondan, sharqiy xalqlar, jumladan, markaziy osiyoliklarning ta'siri seziladi. Ayniqsa, udmurt, mariy, mordva va shimoliy chuvashlar ruslarning ta'sirida umumiy moddiy madaniyat belgilariga ega bo'lsa, tatar, janubiy chuvash va boshqirdlar qo'shni osiyoliklarga yaqin umumiy belgilarga ega bo'lganlar. Volgabo'yi xalqlarining Rossiya tarkibiga kirishi natijasida ularning hayotida rus madaniyatining ta'siri kuchaya borgan.

Volgabo'yining pastki qismida joylashgan qalmiqlar asli Mo'g'ulistonning Jungariya o'yratlaridan kelib chiqqan. Ular XVI-XVII asrlarda Volga quyi oqimiga ko'chib kelib ko'chmanchi bo'lib yashaganlar. XX asrga kelibgina qalmiqlar o'troq turmushga o'tib o'zining yirik sanoati, ishchi sinfi, yuksak madaniyatiga ega bo'lgan Rossiya tarkibidagi respublikani, ya'ni o'z davlatlariga asos soldilar. Qalmiqlar o'z respublikasidan tashqari qisman Astraxan, Volgograd va Rostov viloyatlarida, Stavropol o'lkasida ham yashaydilar.

Umuman, butun Volgabo'yi xalqlarining chinakam milliy uyg'onishi, madaniyatining gurkirab taraqqiy etishi va yashnashi o'tgan asrdagina yuz berdi. Boy folklor, xalq musiqasi, o'yinlari va amaliy san'ati, ayniqsa, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, badiiy tikuvchilik ancha rivojlangan. Mintaqa aholisi diniy jihatdan ikki guruhga bo'lingan: musulmonlar va nasroniylar. Islom dini tatar va boshqirdlar orasida tarqalgan; nasroniylik Volga Bulg'oriyasining davlat dini hisoblangan va Volgabo'yi Rossiya tasarrufiga o'tgach keng tarqalgan. Ammo mahalliy qadimiy dinlarga sig'inishni davom etgan, totemizm, shomonizm va sehrgarlik tasavvurlari saqlangan.

Sharqiy Yevropaning eng janubi-g'arbida joylashgan moldavanlar ham (3,1 mln.ga yaqin) o'ziga xos madaniyatga ega. Ularning kelib chiqishi shimoli Bolqon yarim orolida va Karpat tog'i etaklarida qadim davrlarda yashagan franko-dakiy qabilalari negizida paydo bo'lgan voloxlar bilan bog'liq bo'lib, til jihatdan Rim imperiyasi davrida romanlashgan. Voloxlar podachi xalq bo'lgan. Keyinchalik (VI asrlardan) moldavanlarning etnogenezida turli slavyan turkumlari ham ishtirok qilgan. Bu jarayon ularning tillarida, maishiy turmushi va madaniyatida chuqur iz qoldirib, moldavan xalqini yuzaga keltirgan. Asli XIV asrning I yarmida Prut daryosining g'arbiy va sharqiy qismidagi yerlarni qamrab olgan Moldava knyazligi tashkil topgandan so'ng, mazkur etnosning shakllanishi jarayoni tugaydi.

XIX asr boshlarida Moldaviyaning bir qismi (Prut va Dnestr o'rtaligidagi Bessarabiya) Usmon imperiyasidan tortib olinib Rossiya tasarrufiga o'tgan va o'sha davrdan boshlab Moldava millati shakllana boshlagan.

Moldavanlarning asosiy kasbi dehqonchilik va chorvachilik hisoblangan, ayniqsa, uzumchilik va bog'dorchilik rivojlangan. Dasht qismidagi moldavanlarning moddiy madaniyati xususiyatlaridan biri loydan qurilgan somon yoki qamish tomli uylarda yashashi, o'ziga xos kashtali kiyimlar va nihoyatda boy xalq ijodiga ega bo'lishidadir. Ayniqsa, moldavanlarning raqs san'ati rivojlangan.

Moldaviyaning janubida qo'shni Ukrainaning ayrim viloyatlarida va qisman Shimoliy Kavkazda turkiy tilda gapiradigan 185 mingdan ortiq gagauzlar yashaydi. Ular Rossiyaga XVIII asrda turklarning quvg'inidan qochib kelganlar. Gagauzlar Bolqon yarim orolidagi o'rta asrlarda pravoslav diniga o'tgan turkiy xalqlarning

avlodi hisoblanadi. O'zining madaniy qiyofasi bilan ular moldavanlarga, ukrain va ayniqsa, bulg'orlarga yaqin turadi. Ukrainaning janubidagi Qrim va boshqa o'lkalarda qadimiy Xazar hoqonligidagi turkiy qabilalarning avlodi hisoblangan kichik bir etnos-karaimlar (3,3 ming kishi) yashaydi. X asrda Kiyev knyazlari tomonidan Xazar davlati yemirilgandan keyin karaimlarning ko'pchiligi Qrimda qolgan, bir qismi XIX asrda Litvaga va g'arbiy Ukrainaga ko'chirilgan.

Rossiyada 121 mingdan ziyod lo'li (sigan) lar yashashadi. Ularni Kavkazda va Markaziy Osiyo davlatlarida uchratish mumkin. Ularning tillari hindoriy guruhiga oid, ammo yashagan hududidagi mahalliy tillarni ham biladilar. Lo'lilar Rossiyaga XV-XVI asrlarda Germaniya va Polsha orqali ko'chib kelganlar. Hozirgi paytda lo'lilarning ko'pchiligi o'troq turmush tarziga o'tib ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug'ullanmoqda.

§ 5. KAVKAZ XALQLARI

Etnik jihatdan murakkab tarixiy-etnografik viloyatni tashkil qiluvchi Kavkazda qadimdan turli etnoslar yashaydilar. Ularning madaniy taraqqiyotida Yaqin Sharqdagi buyuk madaniyat markazlarining joylanishi, bu yerda qadimiy davrlardan turli elatlarining ko'chib yurishi, qisman turib qolishi hamda Kavkazning Yevropa va Osiyo oralig'ida darvoza vazifasini bajarishi muhim rol o'ynagan. Hozir nisbatan kichik hududda katta-kichik turli tillarda so'zlashuvchi 50 dan ortiq xalqlar istiqomat qiladilar. Faqat Dog'iston Avtonom Respublikasida 30 ga yaqin xalq va elatlar yashaydi.

Kavkaz xalqlari lingvistik jihatdan asosan, uch til turkumiga-kavkaz yoki iberokavkaz, hind-yevropa (eroniy) va oltoy (turkiy) tillariga mansub. Shulardan eng yirigi kavkaz til turkumi bo'lib, unga gruzinlar, adigeylar, cherkezlar, chechenlar, kabardinlar, ingushlar, dog'istonlik ozarlar, darg'inlar, lezginlar, laklar, tabasaran va boshqa elatlar kiradi. Turkiy tillarda ozarbayjonlar, no'g'aylar, qumiklar, bolqar va qorachoyevlar so'zlashadilar. Armanlar esa hind-yevropa til oilasiga mansub o'ziga xos mustaqil tilga ega. Kavkazda oz sonli greklar, ossuriylar va boshqa mayda millatlar ham yashashadi.

Antropologik jihatdan kavkazliklar asosan, katta yevropoid irqiga kiradi. Faqat no'g'aylar mongoloid belgilariga ega. Hozirgi

antropologik tiplar eng qadimgi davrlar bronza va ilk temir davrlarida shakllanib bo'lgan. O'sha vaqtdayoq Kavkazda metalldan ajoyib buyumlar yasagan o'troq aholi yashagan. Ular nafis san'atga ega bo'lgan, yozuvni bilgan, yuksak madaniyat yaratgan. Qadimgi Kavkaz tillarida gapirgan aholi hozirgi Kavkaz xalqlarining dastlabki ajdodlari ekanligi arxeologik, etnografik va tarixiy manbalar asosida tasdiqlangan.

Qadimgi qabilalar negizida ma'lumotlarga binoan, 3,8 mln.ga yaqin gruzin xalqi (o'z nomi kartveli) shakllangan. Asl gruzinlar uchta yirik qarindosh etnik guruhlar-kart, megrel-chvan va svanlar asosida shakllangan xalqdir. Ularning eng dastlabki etnik tuzilishida qadimgi Urartu davlatida yashagan xalqlar muhim rol o'ynagan. Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida bu yerda yirik qabilaviy birikmalar paydo bo'lgan. VI asrda G'arbiy Gruziyada Kolxida davlati, III asrga kelib sharqiy qismida Iberiya davlati tashkil topgan. Milodning IV-VI asrlariga kelib bir necha mayda feodal davlatchalar paydo bo'lgan. Faqat XI asrdagina ular markazlashgan davlat barpo etilgan va gruzin xalqi shakllana boshlagan. Shimoliy Gruziyada yashovchi svanlar, xevsurlar, pshavlar, tushinlar va musulmon diniga o'tgan adjarlar etnik jihatdan hozirgacha ajralib turadilar. 1801-1804-yillari Gruziyaning Rossiya tasarrufiga o'tishi natijasida gruzin xalqining etnik jihatdan birlashish jarayoni kuchaygan. O'tgan asrga kelib yangi bozor munosabatlarining ta'siri ostida gruzin millati paydo bo'lgan. Ammo ayrim etnografik guruhlar madaniy-maishiy xususiyatlarini mustahkam saqlab qolganlar, megrel, laz va svanlar esa hatto o'z tilida gapiradilar.

Qadimgi kavkaz tillarida gapiradigan elatlarning (abazcha, apsil, adiga) keyingi ayrim etnoslar bilan aralashishi natijasida abxazadigey, chechen, ingush va turli dog'iston tillari paydo bo'lgan edi. Shimoliy Kavkaz dashtlarida qadimiy davrlardan eroniy tillarda gapiradigan skif, sarmat, alanlar yashagan; ular bilan VI asrlarda kelgan ko'chmanchi turkiy gunlar, bulg'orlar, xazarlar va keyinroq paydo bo'lgan qipchoqlar mahalliy aholi bilan aralashib turli etnoslarning shakllanishiga sabab bo'lgan. O'sha davrlarda qipchoqlar bilan Dog'iston tog' etaklari va tekisliklarida yashovchi aholi aralashmasidan turkiy tilda gapiradigan kumiklar, tog'liklarga siqib chiqarilgan alanlar bilan tub aholi qo'shilishidan osetinlar vu-

judga kelgan edi. Mo'g'ul istilosi davriga kelib, asosan, qipchoq va mahalliy elatlarning yaqinlashishidan tashkil topgan tili va madaniyati yaqin bo'lgan bolqon va qorachoy xalqlari shakllangan.

Kavkaz xalqlari etnogenezida Ozarbayjon (ozariy)larning kelib chiqishi sabablari ancha murakkab. O'tgan asrning 80-yillarida (asosan, o'z respublikasida, qo'shni Gruziya, Armaniston va Do-g'istonda) 6,3 mln.ga yaqin ozarbayjon yashagan bo'lsa, Shimoliy Eronda 5,6 mln. ozarbayjon borligi qayd etilgan. Miloddan avvalgi ikkinchi ming yilliklarda hozirgi Ozarbayjonning janubiy hududlari qadimgi eroniy tillarda gapiradigan aholiga ega Midiya davlatiga kirgan. Shimoliy qismi esa qadimgi kavkaz tillarida gapiruvchi turli qabilalardan iborat Albaniya davlati qaramog'ida bo'lgan. O'sha davrlarda mazkur hududlarga bosib kirgan eroniy va turkiy tillarda gaplashuvchi kimmeriylar, skiflar, gunnlar, bul-g'orlar, xazarlar, o'g'uzlar, pachanaklar mahalliy qabilalar bilan aralashib ketganlar. Midiya inqirozga uchragandan keyin uning xarobalarida Atropaten davlati paydo bo'ladi. Ehtimol ozarbayjon etnonimi ham mazkur davlat nomidan kelib chiqqandir. III-IV asrlarda Atropaten va Albaniya sosoniylar Eroniga qo'shiladi. Keyingi asrlarda bu yerga turkiy qabilalar kela boshlaydi. XI-XIII asrlarda yangi turkiy to'lqin, ayniqsa, saljuqiy turklar Ozarbayjonni bosib oladi. O'sha davrdan boshlab turkiylashtirish jarayoni ancha kuchayadi va oqibatda mo'g'ullar istilosidan keyin turk tili hukmronlik qilib, Ozarbayjon xalqining shakllanishi asosan, tugaydi. Ba'zi olimlarning Ozarbayjon xalqi mo'g'ul istilosi arafasida shakllangan degan fikrlari bor.

Fojiali tarixga ega bo'lgan arman xalqining etnogenezi hozirgi hududidan tashqarida boshlangan. O'zlarini «hay» deb ataydigan hind-yevropa til oilasining maxsus guruhiga mansub bu etnosning asosiy ajdodlari hisoblangan armin yoki armen nomli qabilalar miloddan avvalgi II ming yillikda Kichik Osiyoga Bolqon yarim orolidan ko'chib kelgan. Ular Kichik Osiyoning shimoli-sharqida eng qadimiy davlatlardan hisoblangan Armatana (miloddan avvalgi XVI-XV asrlarda) va Xayasa (XVI-XIII asrlar) aholisi bilan aloqador bo'lgan. Armanlar sharq tomonga ko'chishi bilan Van ko'lining g'arbida joylashgan hayn yoki xayas qabilalari, qadimgi xald xalqlari, eroniy tildagi skif va kimmeriylar bilan aralashib ketgan. Miloddan avvalgi XIII asrlarda armanlarning ajdodlari Shupria nomli ossuriya viloyatiga kirib borganlar, keyinchalik (VIII asrda)

bu hudud Urartuga qo'shiladi. Urartu davlati davrida shakllana boshlagan armanlar istilochi arablar, saljuqiylar, keyin mo'g'ullar, eron va turklar tomonidan qattiq quvg'inga uchrab o'z vatanlarini tashlab ketishga majbur bo'lganlar.

O'tgan asr oxiridagi ma'lumotlariga binoan 4,5 mln.dan ortiq arman borligi qayd etilgan. Ular asosan, Armanistonda, qo'shni Ozarbayjon, Gruziya, Shimoliy Kavkaz va boshqa hududlarda joylashgan. Armanlar 60 dan ortiq mamlakatlarga tarqalib ketgan, ayniqsa, AQSH, Fransiya, Yaqin va Markaziy Sharqda va Avstraliyada ularning nisbatan yirik jamoalari mavjud va jami soni 1,5 mln.ga yaqin. Armanlar etnografik xususiyatlariga qarab ikki guruhga bo'linadi: Vatanda joylashgan sharqiy armanlar va boshqa mamlakatlardagi g'arbiy armanlar.

Dog'iston ham qadimiy kavkaz tilida gapiradigan tub aholiga ega, etnik jihatdan eng ko'p millatli hududga kiradi. Bu yerda yaqin davrlargacha 30 ga yaqin turli xalqlar yashagan. Uncha katta bo'lmagan hududda bunday ko'p sonli elatlarning paydo bo'lishining asosiy sababi Dog'istonning geografik jihatdan ajralgan holda baland tog'lar orasida joylashganligidir. Shu bois o'ziga xos turmush tarzi, tili va madaniyati saqlangan.

O'rta asrlar davomida Dog'istonning eng yirik xalqlari ilk feodal davlatlarini yaratganlar, ammo umum etnohududga ega bo'lgan birlikni tashkil qila olmagan. Masalan, o'sha davrlarda paydo bo'lgan Avar xonligidan tashqari bir necha «mustaqil» (asli Avar xonligiga bo'ysungan) jamoalar mavjud bo'lib, etnik jihatdan o'ziga xos «hamqishloq» guruhlarini tashkil qilganlar. Ular umumiy etnik ongga ega bo'lmagan.

Dog'istonda yangi mulkiy munosabatlarning kirib borishi xalqlar orasida biqlikka bir oz barham berdi, etnoslar orasida munosabatlar jonlandi. Keyinchalik esa etnik jarayon mutlaqo yangicha rivojlandi. Yirik xalqlar bilan mayda etnoslarning yaqinlashishi kuchaydi, xalq va elatlar umumiy iqtisodiyot, ijtimoiy va milliy tenglik asosida gullab-yashnay boshladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, o'ziga xos mustaqil tarixiy-etnografik viloyatni tashkil qilgan Kavkaz xalqlari mashg'uloti, xo'jalik faoliyati, maishiy turmushi, moddiy va ma'naviy hayotining rang-barangligi bilan ham boshqalardan ajralib turadi.

Kavkazda eng qadimiy davrdan boshlab yuksak madaniyat paydo bo'lgan. Bu yerda dehqonchilik miloddan avvalgi III ming yil-

likda boshlanib, sun'iy sug'orishga II ming yillikda o'tilgan. Dastlab u Kavkazortida, keyin Shimoliy Kavkazda tarqalgan, suli, bug'doy, arpa, keyinchalik sholi va makka ekilgan. Ekinlar hududlarga qarab farq qilgan. Masalan, abxaz-adigay xalqlari suli, Shimoliy Kavkaz va Sharqiy Gruziyada bug'doy, Janubiy Ozarbayjonda sholi ko'proq ekilgan. Bog'dorchilik va uzumchilik ham qadimiy davrlarda paydo bo'lgan. Dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik rivojlanib borgan. Chorvachilik ayniqsa, balland tog' yaylovlarini egallagandan keyin juda keng tarqalgan. Dehqonchilik texnikasi ancha sodda, asosan, temir tishli yog'och omoch, mola va o'roqdan iborat bo'lgan. Ba'zi tog'liklar sun'iy ravishda savat bilan tuproq tashib ekin ekanlar. Gruziya va Ozarbayjonda pillachilik va asalarichilik ham azaldan muhim xo'jalik sohasi hisoblangan.

Kavkazda zargarlik va qurol-aslaha yasash, gilam to'qish, kulolchilik, metall buyumlar va kiyim-kechak ishlab chiqarish, to'qimachilik va o'ymakorlik kabi hunarmandchilik turlari keng tarqalgan. Dog'istondagi Kubachi qishlog'i zargarlik, Bolqar qishlog'i kulolchilik Ozarbayjondagi Log'ich qishlog'i misgarlik, armanlar tosh o'ymakorligi bilan mashhur bo'lganlar. Mahalliy ustalarning zo'r mahorat bilan yaratgan ajoyib mahsulotlari o'zining nozik san'ati bilan dong chiqargan va o'z ona yurtidan uzoqdagi mamlakatlarda ham tanilgan.

XIX asr o'rtalarida Kavkaz Rossiya tarkibiga kirgach umumiy bozorga tortilib o'zgarishlarga yuz tutgan. Dehqonchilik va chorvachilik bozor munosabatlar girdobiga o'tib, savdo kuchaygan natijada hunarmandchilik raqobatga bardosh bera olmay inqirozga uchragan.

XX asrda butun Kavkazda iqtisodiyot va xo'jalikning barcha sohalarida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Neft va neft mahsulotlari ishlab chiqarish, tog' ruda, mashinasozlik, uskunasozlik, ximiya, qurilish ashyolari ishlab chiqarish va yengil sanoat sohaları gurgirab o'sa boshladi, yangi elektr stansiyalari, zamonaviy yo'llar va suv inshootlari paydo bo'ldi.

Jamoa xo'jaliklari qurilishi tufayli qishloq xo'jaligi ham ilg'or agrotexnika asosida qayta qurildi. Tabiiy sharoitning dehqonchilikka qulayligi Kavkazda qishloq xo'jalik mahsulotlarining miqdorini kengaytirdi, subtropik ekinlar va choy parvarish qilina boshlandi,

uzumchilik va mevali bog'lari, yana ham ravnaq topdi. Sug'orish va yangi yerlarni o'zlashtirishga katta e'tibor berilmoqda.

Odatda Kavkaz xalqlarining madaniyati uchta o'ziga xos hududga bo'lib ta'riflanadi. Masalan, Shimoliy Kavkaz xalqlari (adigeylar, osetinlar, bolqarlar va qorachayliklar) umumiy madaniy birligi bilan bir oz ajralib turadi. Dog'iston xalqlari, checheningushiya o'ziga xos madaniy hududni tashkil qiladi. Kavkazortida Ozarbayjon, Armaniston, Sharqiy va G'arbiy Gruziya maxsus madaniy hududlar sifatida ajratilgan.

O'tgan asr boshlarida Kavkaz aholisi asosan, qishloqda yashagan. Ularning qarorgohi tabiiy sharoitga qarab har xil bo'lgan. Tog'li hududlarda uylar ancha zich, asosan, ular bir yoki ikki qavatli qilib zinapoyaga o'xshash biri-birining ustiga, somon aralash loydan yoki toshdan qurilgan, tomi tekis qilib yopilgan. Gruziyaning g'arbida va Abxaziyada yog'ingarchilik ko'p hududlarda baland poydevorli yog'ochdan qurilgan uylar mavjud. Armanistonda va qo'shni Gruziya va Ozarbayjonning ancha qismida toshdan qurilgan yog'och gumbaz tomli uylar ham uchraydi. Adigey va qisman Dog'iston xalqlarida chetdan devorli (turluq), tomi ikki yoki to'rt nishabli uylar keng tarqalgan. Shimoliy Kavkazda somon yoki chetan uylar ham tiklangan. Barcha uylarda o'rtada o'choq o'rnatilgan va tomdan tuynuk qo'yilgan. Sharqiy Ozarbayjonda somonli loydan qurilgan bir qavatli, tekis tomli, oyna-eshigi ichkariga qaragan uylar keng tarqalgan.

O'tgan asrda shahar va qishloqlar butunlay boshqa qiyofaga ega bo'lgan. Endi ilgari turli-tuman uylar o'rniga tosh va g'ishtdan tiklangan hashamatli binolar, obodonlashgan qishloqlar paydo bo'ldi. Umumiy Kavkaz xalqlaridagi qurilish usuli bir necha xonali, oldi ayvonli ikki qavatli chiroyli bezatilgan uylar tiklashdan iborat. Elektrlashtirilgan, vodoprovd o'tkazilgan zamonaviy qishloqlarni jamoat inshootlari, klub va magazin, dorixona va shifoxona, maktab va oshxonalar bezab turibdi. Faqat G'arbiy Gruziya va Abxaziyada an'anaviy ustunga o'rnatilgan uylar saqlangan. Hamma yerda meva va manzarali daraxtlar, chiroyli gullar o'tqazilgan.

Kavkaz xalqlarining ilgari kiyimlarida ularning etnik xususiyatlari, o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalari ochiq namoyon bo'lgan. Hatto bir xalqda bir necha turdagi kiyimlarni uchratish

mumkin. Shimoliy Kavkazda paydo bo'lgan erkak kiyimi xanjar taqilgan, kamarli va o'qdonli yupqa kigiz chopon (beshmet yoki cherkeska), tik yoqali ko'ylak, uzun shim, yumshoq teri etik va qalpoq butun hududga tarqalgan. Ayollarda to'g'ri bichim nozik belga mo'ljallangan yengli ko'ylak, uzun ishton, turli bosh kiyim va ro'mollar, rang-barang va boy, ayniqsa, kumushdan yasalgan turli bezaklar o'ziga xos xususiyatga ega. Armanlar juda yarqiroq rangli kiyim kiyishni (g'arbiy hududlarda sariq, sharqda qizil rangda) yaxshi ko'rganlar. Og'izni ro'mol bilan bekitish odat bo'lgan.

Kavkazorti xalqlarining kiyimlari Shimoliy Kavkaz xalqlarinikidan farq qilgan. Ularda, ayniqsa, arman va ozarbayjonlarda Old Osiyo xalqlarining kiyimlariga o'xshash belgilari ancha kuchli. Bu yerda ham cherkeska milliy kiyimga aylangan. Hozir adigey kiyim (cherkeska) va ayollarning milliy kiyimlari asosan, havaskor to'garagida saqlangan.

Ijtimoiy va oilaviy turmushda Rossiyadagi oktabr davlat to'ntarishiga qadar patriarxal odatlari kuchli bo'lgan. Urug'chilik davriga mansub ibtidoiy mehmondo'stlik, qo'shnichilik, xun olish, ayollarni kamsitish, qalin kabi odatlar chuqur ildiz otgan. Oilaviy munosabatlarni qadimiy qonun-qoida tusiga kirgan odatlar bilan bir qatorda din ham boshqarib turgan.

Kavkazda asosan, ikki din — nasroniyluk va islom hukmronlik qilgan. Nasroniy dini bu yerga milodning birinchi asrlarida Vizantiyadan tarqala boshlagan. Uni dastlab armanlar va gruzinlar qabul qilganlar. Islom dini esa VIII asrlardan arab istilosi davridan boshlab kirib keladi va saljuqiylarning bosib kirishi bilan mustahkamlanadi. U Ozarbayjon, Dog'iston va Abxaz xalqlari orasida keng tarqalgan. Ozarbayjonlar asosan, shia mazhabiga, qolganlari esa sunna mazhabiga o'tganlar. Ammo kavkazliklarning hayotida ibtidoiy diniy e'tiqodlar — o'tga va temirga, tabiat kuchlariga va o'simlik dunyosiga sig'inish kuchli bo'lgan.

Kavkaz xalqlarining folklori ham rang-barang va juda boy. Asrlar davomida ijod qilib kelingan epik rivoyatlar, qahramonlik doston va ertaklari, masallari uzoq tarixiy voqealarni, maishiy turmush madaniyatining turli tomonlarini har xil sujet va janrlar

orqali jonli tasvirlaydi. Gruzinlarning Amirani haqidagi qahramonlik eposi shahzoda Abesalom va cho'pon qiz Eteri orasidagi tragedik muhabbat dostoni, armanlarning «Sosun bahodirlari» yoki «David Sosunskiy» nomli ozodlik uchun kurashni kuylovchi eposi sevimli folklor asarlaridir. Xalq orzularini ifodalovchi ashula va raqslar hozirgacha kishini maftun qiladi.

XX asr boshlarida Kavkaz xalqlarining moddiy, ma'naviy va maishiy turmushida ba'zi o'zgarishlar yuz berdi. Zamonaviy shaharlar va qishloqlar, yangi tipdagi keng, oyna, eshikli, yorug' ko'p xonali uylar, ko'rkam jihozlangan xonalar, ayvonli hovlilar yuksak madaniyatning ta'siridan dalolat beradi.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR (АДАБИЁТЛАР)

1. Umumiy etnologiya masalalari

Основы этнографии. Под редакцией С.А. Токарева. — М.: 1968.

Этнография. Под редакцией Ю.В. Бромлей и Г.Е.Маркова. — М.: «Высшая школа». 1982.

А.П.Садохин. Этнология. — М.: 2001.

Очерки общей этнографии. — М.: «Наука». 1957-1968 г. Вып. 1-5.

Народы мира. — М., Л.: 1954-1966, т. 1-13.

Бромлей Ю.В. Современные проблемы этнографии. — М.: 1981.

Брук С.И. Население мира. — М.: 1981.

Иц. Р.Ф. Введение в этнографию. — Л.: 1974. Изд. второе, 1994.

Токарев С.А. Истоки этнографической науки. — М.: «Наука». 1978.

Токарев С.А. История зарубежной этнографии. — М.: «Наука». 1978.

Чебоксаров Н.Н., Чебоксарова И.А. Народы, расы и культуры. — М.: 1971.

Марков Г.Е. История хозяйства и материальной культуры. — М.: 1979.

Джаббаров И. Общественный прогресс, бит и религия. — Т.: «Узбекистан», 1973.

Джаббаров И., Дресвянская Т. Духи, святые, боги Средней Азии. — Т.: «Узбекистан», 1993.

Жабборов И. Жаҳон халқлари этнографияси. — Т.: «Ўқитувчи», 1985.

Жабборов И. Ўзбеклар: турмуш тарзи ва маданияти. — Т.: «Ўқитувчи», 2003.

Жабборов И. Руҳий олам: жаҳолат ва камолот. — Т.: «Ўзбекистон», 1988.

Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. — Т.: «Ўқитувчи», 1994.

Жабборов И. Маиший турмуш, урф-одат ва хурофот. — Т.: «Фан», 1976.

Жабборов И. Тафаккур чироғи ва хурофот. — Т.: «Ўзбекистон», 1979.

Жабборов И. Этнография асослари. — Т.: 1981.

Жабборов И. Этнография ва жаҳоннинг этник қиёфаси. — Т.: «Фан», 1982.

Жабборов И. Турмуш тарзи, урф-одат ва одоб. — Т.: «Ўзбекистон», 1983.

Жабборов И. Антик маданият ва маънавият хазинаси. — Т.: «Ўзбекистон», 1999.

Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. — Т.: «Шарқ», 1999.

Жабборов И., Жабборов С. Жаҳон динлари тарихи. — Т.: «Ўзбекистон», 2002.

Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш тарихи. — Т.: «Шарқ», 2001.

Неструх М.Ф. Одамзод ирқлари. — Т.: «Ўқитувчи», 1976.

2. Jahon xalqlari

Кабо В.Р. Происхождение и ранняя история аборигенов Австралии. — М.: 1961.

Дамм Г. Канака — люди южных морей. — М.: 1964.

Бутинов Н.А. Папуасы Новой Гвинеи (хозяйство, общественный строй). — М.: 1968.

Дик Рафси. Луна и радуга. — М.: 1978.

Пучков П.И. Население Океании. Этнографический обзор. — М.: 1967.

Пучков П.И. Формирование населения Меланезии. — М.: 1968.

Малые Народы Южной Азии. — М.: 1978.

Марков Г.Е. Кочевники Азии. — М.: 1976.

- Шпажников Г.А.** Религии стран Западной Азии. — М.: 1976.
- Шпажников Г.А.** Религии стран Африки. — М.: 1981.
- Этнические процессы и состав населения в странах Передней Азии. — М.: 1963.
- Этнические процессы в странах Юго-Восточной Азии. — М.: 1974.
- Этнические процессы в странах Южной Азии. — М.: 1976.
- Девидсон Б.** Африканцы. Введение в историю культуры. — М.: 1975.
- Исмагилова Р.Н.** Этнические проблемы современной Тропической Африки. — М.: 1973.
- Морган Л.** Древнее Общество. — Л.: 1935.
- Североамериканские индейцы. Сборник статей. — М.: 1978.
- Культура и быт народов Зарубежной Европы. Этнографические исследования. — М.: 1967.
- Нидерле Л.** Славянские древности. — М.: 1956.
- Типы сельского жилища в странах Зарубежной Европы. — М.: 1968.
- Этнические процессы в странах Зарубежной Европы. — М.: 1970.
- Восточнославянский этнографический сборник. — Труды Института этнографии АН СССР, новая серия. — М.: 1956, т. XXXI.
- Русские. Историко-этнографический атлас. — М.: 1967.
- Токарев С.А.** Религиозные верования восточнославянских народов XIX начала XX вв. — М., 1957.
- Балтийский этнографический сборник. Труды Института этнографии АН СССР, новая серия, т. XXXI. — М.: 1956.
- Кузеев Р.Г.** Происхождение башкирского народа. — М.: 1974.
- Татары Среднего Поволжья и Приуралья. — М.: 1967.
- Ковалевский М.М.** Закон и обычай на Кавказе. 1980, т. I-III.
- Культура и быт народов Северного Кавказа. — М.: 1968.

Поляков С.П. Историческая этнография Средней Азии и Казахстана. — М.: 1980.

Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа. — Т.: «Фан». 1974.

Донияров А.Х. Организация и развитие этнографической науки в Узбекистане. — Т.: 2002.

Занятие и быт народов Средней Азии. Среднеазиатский этнографический сборник. — М., Л.: «Наука». 1971.

Жилище народов Средней Азии и Казахстана. — М.: «Наука». 1982.

Этнография каракалпаков. XIX-начало XX века (материалы и исследования). — Т.: «Фан». 1980.

Историко-этнографический атлас Сибири. — М., Л.: 1961.

Социальная организация и культура народов Сибири. — М.: 1974.

Этногенез и этническая история народов Севера. — М.: 1975.

Смоляк А.В. Этнические процессы у народов Нижнего Амура и Сахалина. — Л.: 1975.

MUNDARIJA

Muqaddima	3
-----------------	---

I BOB

ETNOLOGIYA FANI ASOSLARI, MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

§-1. Etnologiyaning shakllanishi va predmeti	5
§-2. Etnologiya fanining qisqacha tarixi va etnos nazariyasi	10
§-3. Etnologiyaning asosiy maktablari va yo'nalishlari	23
§-4. Jahon xalqlari klassifikatsiyasi	30
§-5. Etnogenez va antropogenez muammolari	43
§-6. Etnologiya faniga xos maxsus atamalar, tadqiqot uslubi va muammolar	54

II BOB

JAHONNING ETNIK QIYOFASI

I. Avstraliya va Okeaniya xalqlari	64
§-1. Avstraliya va Tasmaniya xalqlari	67
§-2. Polineziya va Yangi Zelandiya xalqlari	83
§-3. Melaneziya va Mikroneziya xalqlari	88
II. Osiyo xalqlari va elatlari	95
§-1. G'arbiy Osiyo xalqlari	108
§-2. Markaziy Osiyo xalqlari	126
§-3. Janubiy Osiyo xalqlari	144
§-4. Janubi-sharqiy Osiyo xalqlari	155
§-5. Sharqiy Osiyo xalqlari	165
§-6. Shimoliy Osiyo yoki Sibir xalqlari	177
III. Afrikaning etnik ta'rifi	184
§-1. Shimoliy Afrika xalqlari	191
§-2. G'arbiy va Markaziy Afrika xalqlari	196
§-3. Sharqiy Afrika xalqlari	204
§-4. Janubiy Afrika xalqlari	212

IV. Amerika xalqlari va elatlari	220
§-1. Shimoliy Amerikaning tub aholisi	226
§-2. Markaziy Amerika xalqlari	245
§-3. Janubiy Amerika xalqlari	251
§-4. Amerikaning hozirgi etnik qiyofasi	257
V. Yevropa qit'asi xalqlari	262
§-1. G'arbiy Yevropaning roman-german va anglo-saks xalqlari	262
§-2. Yevropa qismidagi Sharqiy Slavyan xalqlari	283
§-4. Volga-Kama bo'yi xalqlari va moldavanlar	296
§-5. Kavkaz xalqlari	302
Tavsiya etilgan adabiyotlar (Адабиётлар)	310

O'quv-uslubiy nashr

Iso Jabborov

JAHON ETNOLOGIYASI

ASOSLARI

Darslik

Muharrir	Abduvali QUTBIDDINOV
Tex.muharrir	Yelena DEMCHENKO
Musahhih	Nargiza MINAHMEDOVA
Kompyuterda sahifalovchi	Rostislav YESAULENKO

IB № 4098

Bosishga 10.11.2005-y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/32.

Bosma tobog'i 10,0. Shartli bosma tobog'i 16,80.

Adadi 2000 nusxa. Bahosi kelishgan narxda.

Buyurtma № 179.

«Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.

700113 Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.



ISO JABBOROV 1929 - yil Toshhovuz shahrida tavallud topgan. Falsafa fanlari doktori, professor. Uning Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy taraqqiyoti, turmush tarzi, maishiy va madaniy hayoti, diniy tasavvurlari va tarixiga, muhim etnosotsiologik muammolarni tadqiq qilish sohasiga oid 300ga yaqin ilmiy-uslubiy, ilmiy-ommabop asarlari, 30 dan ortiq monografiya, risola, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etilgan.

U «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi» faxriy unvoni, «Shuhrat» medali va «Xalq maorifi a'lochisi» nishoni bilan taqdirlangan.

